**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**
**MINTAQAVIY BO‘LIMI**
**XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

# XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2026-8/4**
**Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi**
**2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2026**

**Bosh muharrir:**
*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*
**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*

**Tahrir hayati:**

| | |
|---|---|
| *Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.* | *Najmeddinov Axmad Raxmatovich, PhD, dots.* |
| *Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.* | *Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, f.f.f.d., dots.* |
| *Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.* | *Normuratov Oybek Ulug’berdiyevich, q.-x.f.d., dots.* |
| *Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.* | *Omonov Mamatqobil Ismoilovich, b.f.d., dots.* |
| *Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.* | *Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.* |
| *Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.* | *Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.* |
| *Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,* | *Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.* |
| *Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.* | *Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.* |
| *Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.* | *Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.* |
| *Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.* | *Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.* |
| *Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.* | *Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.* |
| *Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.* | *Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.* |
| *Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.* | *Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.* |
| *Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.* | *Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.* |
| *Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.* | *Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.* |
| *Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.* | *Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.* |
| *Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.* | *Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.* |
| *Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.* | *Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.* |
| *Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.* | *Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.* |
| *Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.* | *Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.* |
| *Kushmanov Jasur Baxodirovich, f.f.f.d., dots.* | *Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.* |
| *Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.* | *Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.* |
| *Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.* | *Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.* |
| *Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc* | *Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.* |
| *Karimov Ravshanbek Allayarovich, q.-x.f.f.d., k.i.x.* | *Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.* |
| *Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.* | *Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.* |
| *Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.* | *Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.* |
| *Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.* | *O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.* |
| *Lamers Jon, q/x.f.d., prof.* | *O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.* |
| *Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.* | *Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.* |
| *Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.* | *Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.* |
| *Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.* | *Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.* |
| *Masharipova Feruza Jumanazarovna, f.f.f.d.* | *Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD* |
| *Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.* | *Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent* |

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№8/4 (141), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026 y. – 245 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573 X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

**MUNDARIJA**
**FILOLOGIYA FANLARI**

**Abdiyeva Sh.H., Xamidova M.A.** Tohir Malikning «Alvido, bolalik» asarida o‘smirlar psixologiyasining badiiy talqini 6
**Abdualimova G.H.** Somatik birliklarning lingvostatistik tahlili 10
**Abdug‘aniyeva Z.A.** Ingliz va o‘zbek ilmiy diskursining struktur-kompozitsion tahlili 12
**Abdullaeva N.I.** Yusuf Amiriy “Dahnoma”si haqida 16
**Abdurakhimova K.T.** Gender and language in recruitment discourse: a comparative analysis of english and uzbek job advertisements 19
**Abdupattoyev M.** Kommunikativ registrlarning sintaktik kompozitsiya shakllanishidagi o‘rni 22
**Ahmedova R.A.** Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol konseptining lingvomadaniy xususiyatlari 24
**Ametova U.K.** Xorazm epik she’riyatida Kubraviylik, Yassaviylik va Naqshbandiylik ta’limotlarining yaxlit ma’naviy-badiiy tizimi 27
**Atajonova Sh.S.** O‘zbek va turk xalq maqollarida hayvon obrazlarining semantik va tarbiyaviy funksiyalari 30
**Azizova N.O.** Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida obrazlarni tasvirlashda o‘xshatish va metaforadan foydalanish 34
**A’zamova Sh.O.** Tarixiy termin leksik-semantik birlik sifatida 37
**Baxtiyorova F.** Sun’iy intellekt asosidagi tarjima: imkoniyatlar va muammolar 39
**Berdiyeva M.T.** Onomastic units and their lexicographic interpretation in bilingual dictionaries 43
**Boynazarova M.G., Xamidova M.A.** Nazar Eshonqul nasrida o’lim obrazining badiiy talqini 45
**Bultakova N.Sh.** Emotsiya konseptlarining metaforik konseptualizatsiyasi 48
**Burxanova M.** Sensor lingvistik paradigma tamoyillari xususida 51
**Burxanova M.** Lingvosensor dalillar, tayanch tushunchalar va tadqiqot tamoyillari 53
**Bo‘riyev I.** Shoira Nodirabegimning Nodira taxallusida yozilgan forsiy g‘azallari to‘g‘risida 56
**Erkinova S.N., Xamidova M.A.** Ulug'bek Hamdamning “Ota” romanidagi “ota” obrazi 58
**Farmonova U.M.** Jadid davri yozma manbalarida ijtimoiy-siyosiy iboralarning semantik xususiyatlari 61
**Gadayeva M.M.** Abdulhamid Cho‘lponning milliy ozodlik g‘oyalari: tarixiy talqin 64
**Hamdamova M.X.** Fransuz va o’zbek tillarida sonlarga oid paremiologik birliklarning semantik ahamiyatliligi 66
**Haydarova B.Q.** Maxsus lug‘atlarda sport terminlarining berilishi 70
**Jo‘rayeva M.A.** O‘zbek va ingliz so‘zlashuv diskursida diskurs markerlarining interaktiv-pragmatik xususiyatlari 72
**Jumaniyozov Z.O.** Diplomatiyaga oid leksikaning o‘rganilishi 75
**Ibragimova F.E.** Kirish so‘zlarning lingvopoetik vosita sifatida imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi 80
**Ismoilov I.B., Rakhmonova M.** Sociolinguistic Perspectives on Digital Slang and Internet Neologisms in Contemporary English 83

**Karimova N.T.** Sun'iy intellekt sohasidagi neologizmlarning o'zbek tili leksik tizimida integratsiyalashuvi: semantik-struktur tahlil 86
**Kiyamova M.S.** Nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishning kognitiv-pedagogik mexanizmlari 88
**Kurbanov E.E.** Sud lingvistik ekspertizasida etnik, diniy va ijtimoiy adovat kontekstida implitsit ma'lumotni aniqlash mexanizmlari 91
**Maksudova M.U.** Ingliz va o'zbek tillarida til va tish somatizmlarining leksik-semantik tahlili 94
**Maqsudova N.U.** Hofiz Xorazmiy devonidagi "navo" radifli g'azal poetikasi: qiyosiy adabiy-nazariy tahlil 97
**Malikova G.T.** "Xatar darvozasi" romanida jurnalist ruhiyatining badiiy talqini 100
**Mahmudova O.O.** Mahmud Zamaxshariy asarlari – saj' janrining yuksak badiiy namunalari 102
**Mirakhmedova Z.E.** Evfemizmlarning badiiy matnda pragmatik funksiyalari 105
**Mukhammadjonova M.** The integrity of "beowulf": from philological document to poetic masterpiece 108
**Mustafoyeva S.X.** Zamonaviy ekologik terminlarning semantik taraqqiyoti va tilga ta'siri 111
**Narziyeva M.** She'riy matnda milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarning namoyon bo'lishi 115
**Nizomova Sh.Sh.** Abdulla Oripov she'rlarida suv, olov, havo va tuproq obrazlarining ifodalanishi 117
**Nomozova S.A., Xamidova M.A.** O'zbek xalq ertaklarida yaxshilik va yomonlik 120
**Olimova O.M.** Badiiy asar matni bilan ishlashda xalqaro baholash dasturlarining o'rni 123
**Qayumova D.** A study of electronic audio dictionaries in english and uzbek languages 128
**Qayumova M.M.** Tadqiqot uchun korpus bazasini yaratish: manbalar, tozalash va raqamli matnlar annotatsiyasi 130
**Qodirova M.B.** Tabiat va sivilizatsiya qarama-qarshiligi: Thomas Hardy va Xurshid Do'Stmuhammad ijodida komparativ tahlil 133
**Rajabaliyeva M.A.** Chingiz Aytmatovning "Kassandra tamg'asi" asarida insoniyatning axloqiy-insoniy inqirozi ifodasi 136
**Raxmonova I.** Ingliz va o'zbek tillarida "food/oziq-ovqat" konsepti chog'ishtirma tadqiqot obyekti sifatida 139
**Rustamova Sh.E.** Hamdam Abdullayevning folklor materiallariga yondashuv mezonlari xususida ba'zi mulohazalar 141
**Ruzmatova D.Y.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmada adabiy muhit 145
**Sa'dullayeva M.S.** "Oila" konseptining o'zbek o'g'uz shevalaridagi etnolingvistik spetsifikasi 149
**Sa'dullayeva S.** Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarining funksional-semantik xususiyatlari 153
**Shamsiddinova S.B.** Typological interpretation of the motif of friendship in world heroic epics 157
**Shukurova Z.** XIX – XX asr bayozchiligi va ularning o'ziga xos xususiyatlari 160
**Sobirova N.B.** The function of intertextual references in the french lieutenant's woman 162
**Soqiyeva Sh.Sh., Mamatov A.E.** Haqiqat va yolg'on tushunchalarining struktur-semantik va pragmatik xususiyatlari 167

**Tilovmurodova Sh.** Nirmal varma badiiy tafakkurining shakllanish intixosi 170
**Tilyabayev K.Z.** Ikkinchi tilni o‘rganish, dekolonizatsiya va his-tuyg‘ular: global holat 173
**Tokhirova U.A.** Literary translation and the plot of mental maturity: issues of research and interpretation 179
**To‘lqinjonova N.T.** Comparative poetics of the images of Tristan and Kuntugmish, Isolde and Kholbeka 182
**To‘rayeva M.Q.** O’zbek she’riyatida Furqat siymosi 184
**To‘xtayev Sh.F.** Badiiy asar xronotopi tadqiqida onomastik birliklarning ahamiyati 187
**Toshtemirova S.Sh., Sobirjonova M.S.** Lexical innovation in contemporary english and uzbek online media language: a corpus-based comparative linguistic analysis 190
**Turdiyeva N.A.** Morfologik derivatsiyaning kognitiv mexanizmlari: konseptualizatsiya va kategoriyalashuv masalalari 192
**Umarova X.I.** O‘zbek badiiy nutqida okkazional derivatsiyaning struktur-semantik va lingvopoetik xususiyatlari 195
**Umirova S.M.** Mualliflik korpusida o‘xshatish paradigmasi va etalonlarning qiyosiy diapazoni 198
**Urozova U.O., Sodikova B.I.** The representation of scientific imagination in jules verne’s adventure novels 202
**Uzakova L.** To‘y bilan bog‘liq leksik vositalarning morfologik tahlil orqali milliy va madaniy xususiyatlarni aniqlash 205
**Xaydarova G.X.** Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, “Ona lochin vidosi” tarixiy romanlarida konflikt turlari, yozuvchining konflikt yaratish mahorati 208
**Xayrullayeva K.R.** Bobur Mirzo ibratli fazilatlari tasviri ingliz va o’zbek yozuvchilari talqinida 210
**Xudayberdiyeva M.A., Xamidova M.A.** O‘zbek va qozoq xalq maqollarida yaxshilik: mazmun va obrazlar tahlili 213
**Yuldashev Z.U.** Tarixiy romanda ramziy-majoziy talqin qirralari 218
**Yusupova F.X.** Yangilanayotgan o‘zbek romani va nasri taraqqiyotida Surxon Bo‘riyev ijodining o‘rni 221
**Yusupova S.A’., Omoniddinova D.J.** Pragmalinguistic characteristics of youth discourse on social media 224
**Атаев Б.У.** Иллюзия понимания как когнитивная норма: трансформация читательского восприятия в цифровой среде 226
**Закирова Б.Б.** Лингвокогнитивные стратегии передачи безэквивалентной лексики в узбекских переводах романа Л. Н. Толстого «Война и мир» 229
**Избаева Н.** Интерференция как синергетический фактор в языке 232
**Катаева Ш.А.** Диалог культур в зеркале эпического перевода: обогащение поэтического языка русской литературы переводами узбекских дастанов 237
**Кудратова Г.И.** О традиционных лингвистических исследованиях, посвящённых изучению подражательных слов в русском языкознании 239
**Сеитова З.П.** Анализ социально-философских взглядов на категории «нация» и «этнос» в современной научной литературе 242

**UO’K 82-31; 159.923; 81-272**

# TOHIR MALIKNING «ALVIDO, BOLALIK» ASARIDA O‘SMIRLAR PSIXOLOGIYASINING BADIIY TALQINI

***Sh.H.Abdiyeva, talaba, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***
***M.A.Xamidova, dots., Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning 1989-yilda yozilgan «Alvido, bolalik» qissasida o'smirlar psixologiyasining badiiy in'ikosi tadqiq etilgan. Asarning bosh qahramonlari — Asror, Dilfuza va Qamariddin obrazlari misolida o'tish davridagi shaxsning ruhiy olami, ichki ziddiyatlari, identifikatsiya jarayoni hamda jamiyat va oila ta'siri psixologik-adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hermenevtik, psixologik-tahliliy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, T. Malik o‘smir qahramonlarining xulq-atvori, motivatsiyasi va ma'naviy tanazzulini ta'sirchan badiiy lavhalarda ochib bergan hamda «hech kim jinoyatchi bo'lib tug‘ilmaydi» degan g‘oyani isbotlay olgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Tohir Malik, «Alvido, bolalik», o‘smirlar psixologiyasi, badiiy obraz, o‘tish davri, identifikatsiya, deviant xulq-atvor, oilaviy tarbiya, psixologizm, o‘zbek qissachiligi.*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуется художественное отражение психологии подростков в повести народного писателя Узбекистана Тохира Малика «Прощай, детство», написанной в 1989 году. На примере главных героев произведения — Асрора, Дилдор и Камариддина — анализируются внутренний мир личности в переходный период, психологические противоречия, процесс идентификации, а также влияние общества и семьи с точки зрения психолого-литературоведческого подхода. В исследовании применены герменевтический, психолого-аналитический и сравнительно-типологический методы. Полученные результаты показывают, что Т. Малик впечатляющими художественными средствами раскрыл поведение, мотивацию и духовный кризис подростковых героев, доказав идею о том, что «никто не рождается преступником».*

***Ключевые слова:*** *Тохир Малик, «Прощай, детство», психология подростков, художественный образ, переходный период, идентификация, девиантное поведение, семейное воспитание, психологизм, узбекская повесть.*

***Abstract.*** *This article examines the artistic reflection of adolescent psychology in the novella "Goodbye, Childhood" written in 1989 by the People's Writer of Uzbekistan, Tohir Malik. Through the example of the main characters — Asror, Dilfuza and Qamariddin — the inner world of personality during the transitional period, internal conflicts, identification process, as well as the influence of society and family are analyzed from the perspective of psychological and literary criticism. The study applies hermeneutic, psychological-analytical and comparative-typological methods. The results obtained show that T. Malik, through impressive artistic means, revealed the behavior, motivation and spiritual decline of adolescent characters, and managed to substantiate the idea that "no one is born a criminal".*

***Key words:*** *Tohir Malik, "Goodbye, Childhood", adolescent psychology, artistic image, transitional period, identification, deviant behavior, family upbringing, psychologism, Uzbek novella.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida o‘smirlar tarbiyasi va ularning ruhiy olamini o‘rganish — pedagogika, psixologiya hamda adabiyotshunoslik fanlarining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. O‘tish davrida bo‘lgan o‘smirlar shaxsida kechayotgan ichki ziddiyatlar, ularning jamiyat, oila va tengdoshlari bilan munosabatlari ko‘pgina ijtimoiy muammolarning ildizini tashkil etadi. Ushbu muammolarning badiiy talqinini esa biz mumtoz va zamonaviy adabiy asarlarda kuzata olamiz. Shu jihatdan, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik (1946–2019)ning 1989-yilda yozilgan «Alvido, bolalik» qissasi o‘zbek adabiyotida o‘smirlar psixologiyasini chuqur va ta'sirchan ochib bergan eng mukammal asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi [1].

Psixologiya fanida o‘smirlik davri (11–15 yosh) inson hayotining eng murakkab, eng ziddiyatli bosqichlaridan biri sifatida o‘rganiladi. Aynan shu davrda bola shaxs sifatida shakllanib boradi, atrof-muhitga munosabati o‘zgaradi, mustaqil fikrlash va o‘zini anglash jarayoni jadallashadi [5]. Tohir Malik o‘z asarida ushbu murakkab davrning ruhiy manzaralarini ochiq, hayotiy va realistik tarzda tasvirlab beradi. Yozuvchining qahramonlari — Asror, Dilfuza va Qamariddin — har biri o‘ziga xos ruhiy olamga, individual taqdirga ega bo‘lgan, ammo o‘tish davrining og‘ir sinovlariga duch kelgan o‘smirlardir.

Tadqiqotning maqsadi — Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasidagi o‘smir qahramonlar psixologiyasini badiiy-estetik va ilmiy-psixologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: birinchidan, asardagi bosh qahramonlar ruhiyatining badiiy tasviri xususiyatlarini aniqlash; ikkinchidan, o‘smirlik davri psixologik nazariyalari asosida qahramonlar xulq-atvorini izohlash; uchinchidan, oila va ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi roli masalasini muallif pozitsiyasidan kelib chiqib o‘rganish. Bu masalalarning to‘g‘ri yoritilishi nafaqat T. Malik ijodini chuqurroq tushunishga, balki bugungi yoshlar tarbiyasi muammolariga ham yangicha yondashuvlar taklif etishga imkon beradi [8].

**Adabiyotlar tahlili.** Tohir Malik ijodi va xususan «Alvido, bolalik» qissasi haqida o‘zbek adabiyotshunosligida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari yaratilgan. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o‘zining «Ijodni anglash baxti» nomli to‘plamida T. Malikning detektiv-psixologik yo‘nalishdagi asarlari, jumladan «Alvido, bolalik»ning o‘zbek qissachiligida tutgan o‘rniga alohida e'tibor qaratadi. Olimning fikricha, T. Malik ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u jinoyat va jinoyatchini emas, jinoyatchini «yetishtirgan» muhit va sharoitlarni tahlil qiladi [9].

O‘smirlik davri psixologiyasi nazariy asoslari haqida so‘z borganda, eng avvalo, L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, J. Piaje va E. Eriksonning rivojlanish nazariyalari ahamiyatli. Vygotskiy o‘smirlik davrini «inqiroz davri» deb ta'riflagan va bu bosqichda o‘smirning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi, kattalar dunyosi me'yorlarini o‘zlashtirishi alohida muhim ekanligini ko‘rsatib bergan [3]. Erik Erikson esa o‘smirlik bosqichida shaxsning eng muhim vazifasi — o'z identifikatsiyasini topish, ya'ni «Men kim?» degan savolga javob izlash deb hisoblaydi. Bu jarayon muvaffaqiyatli kechmasa, shaxs rolli noaniqlik (rol confusion) holatiga tushib qoladi [4], bu esa, o‘z navbatida, deviant xulq-atvor, jinoyatga moyillik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham o‘smirlar psixologiyasini badiiy talqin qilish masalasi keng o‘rganilgan. Xususan, G‘afur G‘ulomning «Shum bola», Xudoyberdi To‘xtaboyevning «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha» kabi asarlari tadqiqotchilar diqqatini jalb etib kelgan. Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasi esa bu silsilada alohida o‘rin tutadi, chunki u bolalikning oxirgi pallasi va katta hayotga qadam qo‘yish chegarasidagi murakkab psixologik holatlarni — yetimlik tuyg‘usi, kattalar dunyosidagi adolatsizlik bilan to‘qnashuv, vijdon azobi, gunoh va tavba kabi tushunchalarni — chuqur ochib beradi. D. Quronovning «Adabiyotshunoslikka kirish» darsligida ko‘rsatilishicha, badiiy asar tahlilida psixologik yondashuv qahramon ichki olamining ko‘p qatlamli qurilmasini ochishga xizmat qiladi.

Yaqin yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar orasida D. Abdumo‘minovaning «Armonga aylangan bolalik», N. Sa‘dullayeva va Sh. Erbutayevaning T. Malik asarlaridagi disfemik va evfemik vositalarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari hamda «Alvido, bolalik»dagi yetim bola obrazi tahliliga doir maqolalarni alohida ta'kidlash mumkin. Biroq mavjud tadqiqotlarda asosan adabiyotshunoslik, til-uslubiy yoki obraz yaratish jihatlariga e'tibor qaratilgan. O‘smir qahramonlar ruhiyatini ilmiy-psixologik nazariyalar asosida kompleks tahlil qilish masalasi esa hanuzgacha yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan shu jihat bilan belgilanadi.

**Metodologiya.** Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini fanlararo (interdistsiplinar) yondashuv tashkil etadi. Maqolada adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining bir-birini to‘ldiruvchi metodlari uyg‘unlikda qo‘llanildi. Asosiy tadqiqot manbai sifatida Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasining 1989-yilgi birinchi nashri hamda 2014-yilda «O‘zbekiston» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Tanlangan asarlar» to‘plamidagi varianti olindi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: birinchidan, **hermenevtik tahlil** metodi badiiy matnning ma‘no qatlamlarini, qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari ortida yashiringan ramziy ma‘nolarni

ochish maqsadida qo‘llanildi [7]. Ikkinchidan, **psixologik-tahliliy** metod yordamida qahramonlarning ichki olamiga, motivatsion sohasiga, hissiy holatlariga ilmiy-psixologik tushuntirishlar berildi. Bunda ayniqsa o‘smirlik davri psixologiyasiga oid umumiy va xususiy nazariyalar — Vygotskiy, Erikson, Piaje, shuningdek, o‘zbek psixologi E.G‘. G‘oziyev va V.M. Karimovaning qarashlariga tayanildi. Uchinchidan, **qiyosiy-tipologik** metod orqali asardagi turli o‘smir obrazlari (Asror — Dilfuza — Qamariddin) bir-biri bilan qiyoslanib, ularning umumiy va o‘ziga xos psixologik xususiyatlari aniqlandi. To‘rtinchidan, **kontekstual-tarixiy** yondashuv yordamida asar yozilgan tarixiy davrning (XX asrning 80-yillari oxiri) ijtimoiy-siyosiy muhiti tahlil etildi [8]. Beshinchidan, badiiy obrazni **strukturaviy tahlil** qilish usuli orqali har bir qahramon obrazining tashqi (portret, nutq, xatti-harakat) va ichki (ruhiy holat, hissiyot, dunyoqarash) qatlamlari batafsil o‘rganildi.

Tadqiqotning empirik bazasi sifatida nafaqat asar matnining o‘zi, balki Tohir Malikning intervyularida bildirgan fikrlari hamda zamondoshlarining adib ijodi haqidagi xotiralari ham olindi. Bunday yondashuv asarning ilk yozilish jarayonidagi ijodiy-psixologik vaziyatni qayta tiklashga, muallif niyatini chuqurroq anglashga imkon beradi [10]. Tahlil natijalarining ishonchliligi turli adabiy va psixologik manbalarning o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi, hamda matn ichidagi misollarning ilmiy nazariyalar bilan to‘g‘ri muvofiqlashtirilishi orqali ta'minlandi.

**Natijalar va muhokama.**

**Asror obrazi: ideallik va halokat dialektikasi**. Asarning bosh qahramoni Asror — maktabning eng a'lochi o‘quvchisi, halol, vijdonli, tafakkuri kuchli o‘smirdir. Uning ruhiy olami, eng avvalo, axloqiy maksimalizm bilan tavsiflanadi: u dunyoni faqat oq va qora ranglarda ko‘radi, kompromislarni qabul qila olmaydi. Psixologiya fani nuqtai nazaridan bu holat o‘smirlik davriga xos klassik xususiyatdir — Vygotskiy bu davrni «axloqiy idealizm davri» deb atagan. Asrorning sevgilisi Dilfuzaga bo‘lgan munosabati ham aynan shu sof tuyg‘ular asosida quriladi: ularning sevgisi g‘arazli emas, faqat ma'naviy yaqinlikka, o‘zaro hurmatga asoslangan [1]. Biroq Asrorning fojiasi shundaki, u o‘zining baland axloqiy mezonlarini real, nomukammal va ko‘pincha shafqatsiz dunyo bilan murosaga keltira olmaydi. Asar yakunida Asrorning qotillik sodir etishi va o‘zini suvga otishi — bu chuqur psixologik halokatdir. Erikson nazariyasi nuqtai nazaridan, Asror «identifikatsiya inqirozi»dan o‘ta olmagan: u o‘zini kattalar dunyosida topa olmadi, ushbu dunyoning qoidalarini qabul qila olmadi va, oqibatda, o‘z hayotini halokatga olib keldi. Yozuvchi bu obraz orqali o‘smirning ruhiy bardoshliligi (psixologik rezilientlik) zaifligi haqida muhim savolni o‘rtaga tashlaydi.

**Dilfuza obrazi: yetimlik va matonatning sintezi**. Asarning ikkinchi muhim qahramoni — Dilfuza obrazi onasidan ayrilgan, otasi nogiron bo‘lgan o‘smir qiz sifatida tasvirlanadi. Uning ruhiy olamida ikki qarama-qarshi tendensiya kurashadi: bir tomondan, hayot uni juda erta katta qilib qo‘ygan, mas'uliyat va g‘amxo‘rlik tuyg‘ulari unda kuchli rivojlangan. Boshqa tomondan, u tabiatan nozik, sezgir, sof tuyg‘uli o‘spirin qiz. Bunday qarama-qarshilik ko‘pgina yetim yoki nochor oilada o‘sgan bolalarga xos psixologik xususiyatdir [1].

V.M. Karimovaning ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, oilaviy nochor sharoit bola shaxsining shakllanishida ikki tomonlama ta'sir ko‘rsatishi mumkin: yo uni psixologik jihatdan sindirib, depressiv-passiv shaxsga aylantiradi, yo, aksincha, kuchli iroda va matonat sohibi qilib tarbiyalaydi. Dilfuza obrazi ana shu ikkinchi tipga mansub: u qiyinchiliklarga qaramay, o‘qishni tark etmaydi, ma'naviy poklikni saqlab qoladi va Asrorga bo‘lgan sevgisida ham mutlaqo halol va sodiq qoladi. Tohir Malik bu obraz orqali sharqona ayollik fazilatlari — ibo, sabr, vafodorlikning o‘smirlik yoshidagi qiz qalbida shakllanish jarayonini ko‘rsatib beradi.

**Qamariddin obrazi: jabrlanuvchi-jallodning psixologik portreti**. Asardagi eng murakkab va ko‘p qatlamli psixologik obraz — Qamariddindir. Tashqi tomondan u salbiy qahramon: yolg‘onchi, ayyor, do‘stlarini sotuvchi, atrofidagilarni ham «botqoqqa» tortuvchi shaxs. Biroq yozuvchi mahorati shundaki, u Qamariddinni shunchaki yomon obraz sifatida tasvirlamaydi, balki uning shu holga kelish sabablarini ham ko‘rsatib beradi. Qamariddin — bolaligini ko‘rmagan, mehr-muhabbatdan mahrum, hayotdan alamzada, odamlarga shubha bilan qaraydigan o‘spirin [2]. Uning xulq-atvori klassik kompensator psixologik mexanizmni — qabul qilinmagan, kamsitilgan shaxsning o‘zga odamlarga zarar yetkazish orqali ichki bo‘shliqni to‘ldirishga urinishini ko‘rsatadi.

Aynan Qamariddin obrazi orqali Tohir Malik o‘zining asosiy g‘oyasini — «hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, uni atrof-muhit jinoyatchi qilib tarbiyalaydi» degan tezisni tasdiqlaydi. Bu tezis nafaqat badiiy, balki ilmiy-psixologik jihatdan ham asoslangan: zamonaviy deviantlik psixologiyasi va kriminologiya fanlari ham huddi shu xulosaga keladi. Qamariddinning fojiasi shundaki, u o‘zga o‘smirlarni — Asrorni va boshqalarni ham o‘z atrofida shakllangan kasallikli muhitga jalb etadi, ularning taqdirida qora iz qoldiradi. Bu hodisa psixologiyada «zaharli ijtimoiy aloqalar» (toxic social bonds) tushunchasi bilan izohlanadi.

**Oila va jamiyatning shakllantiruvchi roli**. «Alvido, bolalik» qissasida muallif o‘smir shaxs shakllanishida ikki muhim faktorni — oilaviy tarbiya va jamiyat muhitini birinchi o‘ringa qo'yadi. Asardagi Keldiyorovlar oilasi misolida poraxo‘rlik, mansabparastlik, manfaatparastlik kabi illatlarning bola tarbiyasiga qanday halokatli ta'sir ko‘rsatishi tasvirlangan. Tohir Malikning psixologik chuqurligi shundaki, u bola atrofidagi kichik dunyo (mikro-muhit) va katta dunyo (makro-muhit) o‘rtasidagi murakkab dialektik aloqani ochib beradi. Jamiyatdagi loqaydlik — yozuvchi nazdida, jinoyatdan ham xavfliroq illat: «Jamiyat uchun jinoyatchidan ko‘ra loqayd odam xavfliroq» — degan g‘oya asarning eng kuchli leytmotivlaridan biriga aylanadi.

Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, Tohir Malik «Alvido, bolalik» qissasida o‘smirlar psixologiyasini bir tomonlama emas, balki ko‘p qirrali, dialektik usulda ifoda etgan. Yozuvchi har bir qahramonning ichki olamini alohida sinchiklab tekshiradi, ularning xatti-harakatlari sabablarini, tashqi muhit ta'sirini va ichki ruhiy kurashlarini o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rsatadi. Bu yondashuv asarni shunchaki badiiy hikoya darajasidan chiqarib, chuqur psixologik tadqiqot darajasiga ko‘taradi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasi o'zbek adabiyotida o‘smirlar psixologiyasining badiiy talqini sohasida muhim asar ekanligini tasdiqladi. Yozuvchi Asror, Dilfuza va Qamariddin obrazlari misolida o‘tish davridagi shaxsning ichki olamini ham individual-psixologik, ham ijtimoiy-psixologik jihatdan kompleks tahlil qilib bera olgan. Asar bosh g‘oyasi — atrof-muhit va oilaviy tarbiyaning shaxs taqdiridagi hal qiluvchi ahamiyati g‘oyasi — bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [1].

Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, T. Malikning psixologizm mahorati uch jihat bilan namoyon bo‘ladi: birinchidan, qahramonlarning ichki monologi va so‘z bilan ifodalab bo‘lmas ruhiy holatlarini badiiy lavhalar orqali yetkaza olishi; ikkinchidan, ramziy detallar (tabiat tasviri, narsalar dunyosi, ranglar)dan psixologik vositachi sifatida foydalana olishi; uchinchidan, qahramonlar dialoglarida ularning haqiqiy ichki olamini «teskari» yoki «niqoblangan» tarzda ifoda eta olish mahoratidir. Bu mahorat asarning psixologik chuqurligini, ta'sirchanligini ta'minlaydi va uni o‘zbek qissachiligining noyob namunalaridan biriga aylantiradi [5].

Mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari, birinchidan, oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek adabiyoti va psixologiya fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanilishi mumkin; ikkinchidan, o‘smirlar deviant xulqi profilaktikasi sohasidagi pedagogik-psixologik dasturlarni ishlab chiqishda ahamiyatga molik; uchinchidan, T. Malik ijodini chet tillarga tarjima qilish va keng targ‘ib etishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yozuvchining «yozganlarimni ogohlantirish, deb qabul qilishlaringizni istardim» degan da'vati bugungi avlod uchun ham o‘zining haqiqiy ma'no-mazmunini saqlab qolgan. Kelgusi tadqiqotlarda T. Malikning boshqa asarlari (jumladan, «Shaytanat», «Talvasa») bilan qiyosiy tahlil olib borish, shuningdek, asarning gender psixologiyasi, ekzistensial falsafa nuqtai nazaridan o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir [9].

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Malik T. Alvido, bolalik: Qissa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 192 b.
2. Malik T. Tanlangan asarlar: 4 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 416 b.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V.V. Davydova. – Moskva: Pedagogika, 1991.–480 s.
4. Erikson E. Identichnost: yunost i krizis / Per. s angl.; obshch. red. A.V. Tolstix. – Moskva: Progress, 1996. – 344 s.
5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Universitet, 2010.– 488 b.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari: Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009. – 256 b.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2007.–224 b.
8. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sharq, 1999. – 544 b.
9. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti: Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Sharq, 2004. – 640 b.

10. Abdumo‘minova D.O. qizi. Armonga aylangan bolalik (Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasi tahlili) // Golden Brain. – 2023. – Vol. 1, № 4. – B. 13–15.

**UO’K 81'23:81'374**

# SOMATIK BIRLIKLARNING LINGVOSTATISTIK TAHLILI (O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI MISOLIDA)

***G.H.Abdualimova, stajyor-o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz***
***OrcidID 0009-0000-9940-6286***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada somatik birlik (inson tana a’zolari)larning ko‘p ma’nolilik xususiyatlari tahlil etilgan. Faol va nofaol bo‘lgan somatik birliklarning lingvostatistikasi asosida ma’no-mundarijasi aniqlandi. Tadqiq manbasi sifatida o‘zbek xalq maqollari tanlab olindi. Paremiologik birliklar tarkibida uchraydigan inson tana a’zolarining ko‘p ma’nolilik vazifasi o‘rganildi. Shundan kelib chiqib, nutq tarkibida somatik so‘zlarning yetakchi, dominantlari aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *somatik birliklar, maqol, parema, bosh, ko‘z, yuz, ko‘p ma’nolilik.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются особенности многозначности соматических единиц (частей тела человека). На основе лингвостатистики активных и малоактивных соматических единиц было определено их смысловое содержание. В качестве источника исследования были отобраны узбекские народные пословицы. Изучена функция многозначности частей тела человека, встречающихся в составе паремиологических единиц. Исходя из этого, были выявлены ведущие, доминантные соматические слова в составе речи.*

***Ключевые слова:*** *соматические единицы, пословица, парема, голова, глаз, лицо, многозначность.*

***Abstract.*** *This article analyzes the polysemous features of somatic units (parts of the human body). Based on the linguostatistics of active and inactive somatic units, their semantic content was determined. Uzbek folk proverbs were selected as the source of research. The polysemantic function of human body parts occurring within paremiological units was studied. Based on this, the leading, dominant somatic words within speech were identified.*

***Key words:*** *somatic units, proverb, parema, head, eye, face, polysemy.*

Inson tanasi organlarini ifodalovchi somatik birliklar maqollar tarkibida alohida o‘rin tutadi. Bunday birliklar xalqning dunyoni qanday qabul qilishini, insoniyat va jamiyat haqidagi g‘oyalarini va milliy dunyoqarashini ifodalovchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq maqollarida bosh, ko‘z, qo‘l, oyoq, til, yurak, yuz, og‘iz va quloq kabi somatik leksemalar nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri anatomik ma’nolarida, balki majoziy, ramziy va metaforik ma’nolarda ham faol qo‘llaniladi.

Somatik birliklarning semantik, lingvomadaniy va kognitiv jihatlari zamonaviy tilshunoslikda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zbek xalq maqollarida qo‘llanilish chastotasi, statistik ko‘rsatkichlari va funksional xususiyatlarini lingvostatistik usullar yordamida o‘rganish dolzarb tadqiqot muammosi bo‘lib qolmoqda. Lingvostatistik tahlil bizga maqollar tarkibidagi somatik birliklarning miqdoriy taqsimotini, eng ko‘p ishlatiladigan leksemalarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini va semantik guruhlarini aniqlash imkonini beradi. Bu o‘zbek paremiologiyasining leksik tarkibini va milliy lingvistik tafakkurning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan asoslashga xizmat qiladi.

Insoniyat o‘zini anglar ekan, tabiat bilan hamohanglikda o‘sadi, rivojlanadi, takomilga yetadi. V.A.Maslova ta’kidlaganidek, “inson o‘zini bilish barobarida olamni, borliqni anglay boshlagan. Bu dunyoni madaniylashtirishga bo‘lgan daslabki birlamchi harakat edi”[7]. Ayni shu jarayonda uni o‘rab turgan olamni til, tafakkur, nutq kabi vositalar orqali ham aqlan idrok etadi, qalban his qiladi. Chaqaloqlik, go‘daklik, va boshqa davrlarda o‘zini shaklan bunyod etgan tana a’zolari yordamida sezadi, anglaydi. Harakat, tayanch tizimida emaklay boshlaganidan ilk qadam bosishigacha har bir jarayonda inson eng avvalida tanasidagi mavjud harakat, holatni vujudga keltiruvchi tana a’zosiga tayanadi.

Xalqimizda to‘rt muchasi sog‘, to‘rt muchasi tugal degan birliklar bejiz aytilmaydi. Mucha – O‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha tavsiflangan[4]:

1. Kishi a’zosi. Qambar: Qani, torting chilimni, muchangiz sog‘ bo‘lsa ham, chilim so‘rishdan boshqa ishga yaramaysiz! *Oybek, Tanlangan asarlar*

2. *tilshunoslik, aynan* Gap bo‘lagi Gapning bosh muchalari.

Xalq donishmandligi bo‘lgan paremiologik birliklar tarkibida uchrovchi somatik birliklar ham inson nutq ijodkorligida o‘zining tana a’zosiga qiyosan atrof-muhitdagi narsalar, hodisotlarni o‘rganishda, biror ishni bajarishda qo‘li, boshi, tili, oyog‘i, yuz qismidagi og‘iz, lab, burun kabi tashqi a’zolari bilan dastlabki signal – harakatni sodir etish asnosida ichki a’zolari bilan holatni, ba’zan har ikkalasi bir vaqtda sodir etish amaliyotini bajaradi. Sezgi a’zolar 5 ga bo‘linsada, 6-sezgiga ham ishora qilinadi. Chorva mollari, xususan, qo‘yning 12 muchasi borligini respondentlar ta’kidlashadi[2]. Qo‘y so‘yganimizda ham chiroyli, tartib bilan muchalanadi. *Tulpor bo‘lar qulun muchasidan ma’lum, Ot bo‘lar toy muchasidan ma’lum* kabi maqollar bejiz qo‘llanilmaydi.

O‘zbek xalq maqollari folklor, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lib nutq dasturxoniga tortilishida biz ko‘plab somatik birliklar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Maqollar nafaqat adabiyotshunoslik, ya’ni folklor sohasining o‘rganish obyekti, shuningdek, tilshunoslikning ham, aniqrog‘i lingvokultrologiya, pragmalingvistika, psixolingvistika kabi sohalarning ham asosiy mavzularidan biridir. Alohida tarmoq sifatida “paremiologiya”ning ham o‘rganish manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining o‘rganish obyekti bo‘libgina qolmasdan bu birliklar tilshunoslikning ham muhim tadqiq tarmog‘idir. Dastlabki ishlardan biri H.Berdiyorov, R.Rasulovlarning 1984-yilda “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati”[1] dunyo yuzini ko‘rdi. Undan keyin 1988-yilda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning hammualliflikdagi “Nega shunday deymiz?” nomli to‘plamida 942 ta maqollar turli xil variantlari bilan izohlangan. Ushbu mualliflar tomonidan 1990-yilda “Hikmatnoma” nomi ostida o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati, undan keyin 2032 ta maqollarning (variantlari bilan 20 mingdan ortiq) “Ma’nolar mahzani” nomli izohli to‘plami yaratildi. Bu to‘plamlar leksikografik plandagi ishlar sirasiga kiradi. Ungacha folklorshunos olimlar dala amaliyotlari davomida, ulargacha amalga oshirilgan ishlarni o‘rgangan holda maqollarni to‘plab alifbo tartibida, ideografik, konseptual, tematik kabi bir nechta holatda tartiblashtirib lug‘atlar tuzishgan.

“Parema” termini qadimgi yunon tilidagi παροιμία (paroimía) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u dastlab “maqol”, “hikmatli ibora” ma’nolarini anglatgan. Ushbu termin Bibliyaning yunoncha tarjimasi – Septuagintada, xususan Sulaymonning Hikmatlari kitobi nomida (Παροιμίαι Σολομῶντος) qo‘llanilishi natijasida keng tarqalgan va keyinchalik paremiologiya fanining asosiy terminiga aylangan.

Maqollarning eng sermahsul mavzulari tarkibiga zoonimlar, etnografizmlar, somatik birliklar va boshqa bir qator xalqning turmush tarzi, inson bilan bevosita aloqadorlika faol ega bo‘lgan vositalarni kiritishimiz mumkin. Biz mazkur maqolada “O‘zbek xalq maqollari”[5] to‘plamidagi paremalar tarkibida uchrovchi inson tana a’zo nom(somatik birlik)larni o‘rgandik. Ularning faol, nafaol holatini lingvostatistik tahlil asosida aniqladik.

Eng faol somatik birliklar: *Til* – 150 ta, *bosh* – 140 ta, *qo‘l* – 107 ta, *yuz* – 66 ta, *tish* – 61 ta, *ko‘z* – 57 ta, *dil* – 55 ta, *ko‘ngil* – 41 ta, *oyoq* – 42 ta, *qon* – 35 ta, *kurak va bel* – 34 ta, *og‘iz* – 32 ta;

O‘rtacha faol somatik birliklar: *Quloq* – 29 ta, *bet* – 28 ta, *yurak* – 27 ta, *suyak va go‘sht* – 26 ta, *et* – 22 ta, *qosh va musht* – 21 ta, *tomoq* – 16 ta, *kalla va qorin* – 15 ta, *teri* – 14 ta, *bilak* – 13 ta;

Nofaol somatik birliklar: *Soch va tana* – 10 ta, *qalb, o‘pka va bo‘yin* – 9 ta, *burun, barmoq va tomir* – 8 ta, *tovon va panja* – 5 ta, *kaft, ilik va gavda* – 4 ta, *miya, qovoq, yelka, to‘piq, qomat va aft* – 3 ta, *ensa lab, kurak, son, jigar va to‘sh* – 2 ta;

Shuningdek, *jag‘, tirsak, tizza, dumba, ichak, tirnoq, ruh, halqum, milk, chehra, bashara, kindik, chot, badan, ko‘ks, qon tomiri* somatik birliklari 1 tadan maqollar tarkibida uchradi. *Kiprik, chakka, dahan, umurtqa, bo‘g‘in, taloq, oshqozon, qovurg‘a, boldir, tanglay, ya(o)noq, vujud,*

*qo'ltiq, kekirdak, iyak, bag'ir, biqin, pay, mushak, paycha, bo'g'im, siyna, ko'krak, a'zo, asab, ko'z qorachig'i, ich-et* somatik birliklari esa umuman (0 ta) uchramadi.

Tadqiqotlarda ham somatik birliklarning statistik ko'rsatgichlari asosida ularning nutqimizda qo'llanilish doirasi, chegarasi, faolligi bilan bog'liq xususiyatlari aniqlanadi. Y.Davidov "…**bosh** so'zi asosan somatik birlik sifatida insonning tana a'zosi semantik dominantligi asosida boshqa ma'nolarga ham ega bo'lishini[3] takidlaydi. Buni O'zbek tilining izohli lug'atidagi "bosh" so'zining 19 ta ma'nosidan tashqari badiiy matnlarda qo'shimcha 6 ta ma'nolari sharhlanadi.

M.Xamidov dialektal paremalar tarkibidagi somatik birliklarning qay darajada faol qo'llanilishi o'sha hudud va daha vakillarining kasb-kori, turmush tarz, tafakkurining mahsuli ekanligiga urg'u beradi. Tadqiqotchi somatik birliklar lingvokultrologik kod (MK – madaniy kod) vazifasini ham bajarishini *bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi, kalla desa sallani olib keladi* maqollari bilan izohlaydi. Maqollar tarkibidagi "bosh" va "kalla" somatizmlari "do'ppi" va "salla" predmetli kodlarini ifodalashning asosini tashkil etgan[6].

Umuman olganda somatik birliklarni turli til va nutq birliklari tarkibida uchratishimiz mumkin. Lekin maqollar ularning eng qadimiy va ishonchli manbasi hisoblanadi. Chunki bu xalq donishmandligining mahsuli sifatida uning muallifi va qachon yaratilganligi aniq emas. Ular tarkibidagi inson tana a'zolari nomlari tarkibidagi tovush o'zgarishlari, dialektal tafovutlar, variativliklar, transformatsiyalashuv jarayoni, arxaizm, istarizm, o'zlashma qatlamga mansublik darajasi va boshqa shu kabi sabablar bilan maqollar tarkibida shaklan o'rgazsa ham semantik tomonlama bir-biriga hamohanglik kasb etadi.

Maqollar avlodlardan-avlodlarga ma'naviy, bebaho xazina sifatida meros bo'lib o'tib keladi. Uni asrab-avaylash va keyingi avlodga lingvistik zanjir sifatida yetkazish esa bizning ham burchimizdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Berdiyorov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 288 b.

2. Dala daftaridan. Sheva axborotchisi: Yusupov Xolto'ra (Qo'yli bobo). 15.10.1950-yilda tug'ilgan cho'ponlik qilgan. Jarqo'rg'on tumani "Qorayantoq" mahallasi.

3. Davidov Y. badiiy asarlarda ko'pma'nolilik hodisasi. Fil. fan. falsafa dok. diss. – Termiz, 2025. – B. 55, 113.

4. O'TIL VI jildli (III jild). – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2023. – B. 311.

5. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005.

6. Xamidov M. O'zbek tili Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalari barqaror birikmalarining lingvistik xususiyatlari. Fil.fan.dok. diss. – Termiz: 2023. – B. 36.

7. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского//Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 83.

**UO'K 81-2; 811.111; 811.512.133**

## INGLIZ VA O'ZBEK ILMIY DISKURSINING STRUKTUR-KOMPOZITSION TAHLILI

***Z.A.Abdug'aniyeva, tayanch doktorant, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent***
***ORCID iD: 0009-0002-0530-4743***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi ilmiy diskursning struktur-kompozitsion xususiyatlari chog'ishtirma aspektda o'rganiladi. Tadqiqotda ilmiy diskursning mikrojanrlaridan biri bo'lgan ilmiy maqola annotatsiyalari janr tahlili asosida ko'rib chiqilib, ularning kommunikativ harakatlari va axborotni tashkil etish usullari aniqlanadi. Shuningdek, har ikki tildagi annotatsiyalarning o'xshash va farqli strukturaviy xususiyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ilmiy maqola annotatsiyasi, ilmiy diskurs, janr tahlili, kommunikativ harakat, kontrastiv tahlil.*

***Аннотация.*** *В данной статье в сопоставительном аспекте рассматриваются структурно-композиционные особенности англоязычного и узбекоязычного научного дискурса. На основе жанрового анализа исследуются аннотации к научным статьям, рассматриваемые как один из микрожанров научного дискурса, определяются их коммуникативные ходы и способы организации информации. Кроме того, выявляются сходные и отличительные структурные особенности аннотаций на двух языках.*

***Ключевые слова:*** *аннотация к научной статье, научный дискурс, жанровый анализ, коммуникативный ход, сопоставительный анализ.*

***Abstract.*** *This article examines the structural and compositional features of English and Uzbek scientific discourse from a comparative perspective. The study applies genre analysis to research article abstracts, regarded as one of the microgenres of scientific discourse, in order to identify their communicative moves and information-organisation strategies. It also reveals the structural similarities and differences between abstracts written in the two languages.*

***Key words:*** *research article abstract, scientific discourse, genre analysis, communicative move, contrastive analysis.*

**Kirish.** Ilmiy diskursning struktur-kompozitsion tashkil topishini o‘rganish uni ilmiy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan qat’iy me’yorlar, janriy talablar va axborotni taqdim etish tamoyillari asosida tashkil topadigan yaxlit kommunikativ tuzilma sifatida o‘rganish imkonini beradi. Shu jihatdan ilmiy diskursning struktur-kompozitsion xususiyatlari ilmiy axborotni tartiblash, muallif fikrini bosqichma-bosqich asoslash, o‘quvchini tadqiqot jarayoni bilan tanishtirish va ilmiy xulosani mantiqan yakunlashga xizmat qiluvchi muhim lingvistik-kommunikativ mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi [5: 134]

Ilmiy maqola annotatsiyasi ilmiy kommunikatsiyaning eng qisqa, ayni paytda eng katta tanlov yukiga ega bo‘lgan janrlaridan biridir. U to‘liq maqolaning mazmunini siqiq shaklda qayta ifodalab, muharrir va taqrizchi uchun tadqiqotning mantiqiy yaxlitligini namoyish etadi hamda o‘quvchining to‘liq matnni o‘qish yoki o‘qimaslik haqidagi qaroriga ta’sir qiladi. Shu sababli annotatsiyaning samaradorligi unda qancha ma’lumot borligi bilangina emas, balki muammo, maqsad, metod, natija va ilmiy qiymatning o‘quvchi uchun qay darajada tiklanishi bilan belgilanadi.

J.Suayles ilmiy matn tuzilishini uning alohida qismlari yoki grammatik shakllari orqali emas, balki matnda bajariladigan kommunikativ maqsadlar izchilligi orqali tavsiflash lozimligini ta’kidlaydi [5: 45]. Uning fikricha, ilmiy matnda muallif o‘z oldiga qo‘ygan umumiy kommunikativ maqsadga birdaniga erisha olmaydi. U bu jarayonni izchil, mantiqan bir-biriga bog‘langan “harakat” (*move*) zanjiri orqali amalga oshiradi. J.Suayles ta’rifiga ko‘ra kommunikativ harakatlar – bu izchil kommunikativ funksiyani bajaruvchi diskursiv yoki ritorik vositalardir. Bundan tashqari, har bir harakatni amalga oshirish uchun muallif foydalanadigan lisoniy-retorik vositalar va usullar undan ham kichik bo‘lgan qadamlar (*step*) orqali amalga oshiriladi.

**Asosiy qism.** Annotatsiya tadqiqotning asosiy kommunikativ bosqichlarini ixcham tarzda qayta tashkil etuvchi muhim segmentdir. Unda mavzu yoki muammo maydoni, tadqiqot maqsadi, material va metod, asosiy natija hamda umumiy xulosa qisqa hajmda beriladi. M.Santosning fikricha, annotatsiya quyidagi besh asosiy savolga javob berishi lozim: “tadqiqot qaysi sohaga tegishli?”, “nima maqsadda bajarilgan?”, “qanday materiallarda qanday metodlardan foydalanilgan?”, “qanaqa natija olingan va bu natijanini ahamiyati nimada?” [4] Shundan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot maqolasining annotatsiya qismi uchun besh harakatdan iborat model ishlab chiqadi. Bular: 1) tadqiqotni kontekstlashtirish, 2) joriy tadqiqotni taqdim etish, 3) metodologiyani tavsiflash, 4) natijalarni umumlashtirish va 5) tadqiqot ahamiyatini muhokama qilish. K.Hayland ushbu modelni yanada soddalashtirib annotatsiyadagi asosiy besh harakatni ajratib ko‘rsatadi: Kirish, Maqsad, Metod, Natija va Xulosa [1]. P.Pho mazkur an’anani davom ettirib, annotatsiyada harakatlar bilan birga ularni farqlashga xizmat qiluvchi grammatik ega, zamon, nisbat va muallif pozitsiyasi vositalarini ham tahlil qilib chiqadi [3]. U tadqiqot maqsadi va metodini tavsiflash annotatsiyalarda eng ko‘p uchraydigan harakat ekanligini aniqlaydi (qarang: 1-jadval).

**1-jadval.**

**Annotatsiya qismida kuzatiladigan kommunikativ harakat va qadamlar**

| Kod | Kommunikativ harakat | Qadamlar | Nazorat savoli |
|---|---|---|---|
| H-1 | Tadqiqot maydonini belgilash | Q-1: sohani tanishtirish va mavzuni umumlashtirish; Q-2: dolzarblik yoki amaliy zaruratni asoslash; Q-3: muammo, ziddiyat yoki ilmiy bo‘shliqni ko‘rsatish | Nima uchun ushbu tadqiqot zarur? |

| | | | |
|---|---|---|---|
| H-2 | Tadqiqot maqsadini bayon qilish | Q-1: asosiy maqsadni bayon qilish; Q-2: tadqiqot savoli yoki gipotezani ko‘rsatish; Q-3: maqsadni operatsion vazifalarga ajratish | Nima o‘rganildi? |
| H-3 | Metodni ixcham bayon qilish | Q-1: material, korpus yoki ishtirokchilar; Q-2: dizayn va ma’lumot yig‘ish; Q-3: tahlil usuli yoki nazariy yondashuv | Tadqiqot qanday amalga oshirildi? |
| H-4 | Asosiy natijalarni taqdim etish | Q-1: asosiy topilma; Q-2: farq, o‘zgarish yoki tendensiya; Q-3: natijaviy model, kategoriya yoki umumlashma | Nima aniqlandi? |
| H-5 | Xulosa va natijaning ahamiyatini ochish | Q-1: umumiy xulosa; Q-2: nazariy yoki amaliy implikatsiya; Q-3: tavsiya, qo‘llanish sohasi yoki istiqbol | Natija nimani anglatadi? |

Turli tizimli tillarga oid janr tadqiqotlarida bir xil kommunikativ maqsadning turli matniy shaklda amalga oshishi alohida ahamiyatga ega. H.Kafes ingliz va turk annotatsiyalarida Maqsad, Metod va Natija umumiy yadro bo‘lsa-da, ilmiy bo‘shliq, muallif ko‘rinuvchanligi va yakuniy da’volarda sezilarli tafovutlar borligini aniqlagan [2]. T.Yakhontova mazkur tafovutni shartli ravishda “sotish” va “bayon qilish” yo‘nalishlari bilan izohlaydi. Birinchi holatda yangilik hamda hissa ochiqroq targ‘ib qilinadi, ikkinchi holatda esa mavzuni tavsiflash va kontekstni kengroq berish ustuvor bo‘ladi [6]. Biroq bunday farqlarni o‘zgarmas milliy xususiyat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas.

Tahlil natijasida annotatsiya hajmi bilan retorik to‘liqlik o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglik kuzatilmadi. O‘zbek annotatsiyalarining median hajmi 254 so‘z bo‘lib, ingliz annotatsiyalarining 198 so‘zlik medianidan kattaroq edi. Shunga qaramay, to‘liq besh harakatli tuzilma ingliz matnlarining 64,7 foizida, o‘zbek matnlarining 44,1 foizida uchradi. Demak, matnning uzunligi ko‘proq kommunikativ vazifa mavjudligini anglatmaydi; ayrim o‘zbek annotatsiyalarida keng kontekst, terminologik izoh yoki vazifalar ro‘yxati katta hajm egallagan bo‘lsa-da, metod yoki alohida implikatsiya segmenti tiklanmagan.

*Kommunikativ harakatlarning ketma-ketligi*

Har ikki korpusda yetakchi model H-1→H-2→H-3→H-4→H-5 bo‘ldi, biroq uning barqarorligi bir xil emas. Ingliz annotatsiyalarining qariyb uchdan ikki qismi to‘liq ketma-ketlikka ega bo‘lsa, o‘zbek annotatsiyalarida bu model yarmidan kam matnda kuzatildi. Ikkinchi keng tarqalgan shakl H-2 bilan bevosita boshlanib, H-3, H-4 va H-5 orqali davom etdi. Bu model mavzuning umumiy kontekstini tushirib qoldiradi, ammo tadqiqot amali va natijani aniq tiklash imkonini saqlaydi. O‘zbek korpusida Metodsiz yoki alohida Xulosa/qiymatsiz konfiguratsiyalar ko‘proq bo‘ldi.

**2-jadval.**

**Asosiy kommunikativ-harakat ketma-ketliklari**

| Ketma-ketlik | Ingliz, n (%) | O‘zbek, n (%) |
|---|---|---|
| H-1→H-2→H-3→H-4→H-5 | 22 (64,7) | 15 (44,1) |
| H-2→H-3→H-4→H-5 | 5 (14,7) | 7 (20,6) |
| H-1→H-2→H-4→H-5 | 2 (5,9) | 5 (14,7) |
| H-1→H-2→H-3→H-4 | 4 (11,8) | 1 (2,9) |
| H-2→H-3→H-4 | 1 (2,9) | 3 (8,8) |
| Boshqa qisqartirilgan modellar | 0 (0,0) | 3 (8,8) |

H-1 annotatsiyaning asoslovchi harakati bo‘lib, o‘quvchini bevosita joriy tadqiqotga olib kirishdan oldin uning predmet maydonini va zaruratini yaratadi. Mazkur harakatning uch qadami bir xil mazmunni takrorlamaydi: Q-1 “tadqiqot nima haqida?” savoliga javob beradi; Q-2 “bu masala nega muhim?” savoliga javob bersa; Q-3 esa “mavjud bilim yoki amaliyotda aynan nima yetishmaydi?” degan bo‘shliqni chegaralaydi. Shu sababli Q-3 mavjud bo‘lgan H-1 keyingi H-2ga eng kuchli argumentativ ko‘prik yaratadi. Masalan, *Aircraft manufacturers use Simplified Technical English (STE) as a strategic tool to enhance the readability of aviation maintenance manuals and reduce comprehension errors. This standardized linguistic approach is essential for ensuring global aviation safety, especially as approximately 80% of maintenance technicians worldwide are non-native English speakers.* Ushbu annotatsiyada **H-1/Q-1 – Sohani tanishtirish va mavzuni umumlashtirish** birinchi gapda amalga oshiriligan bo‘lib, uning vazifasi o‘quvchini birdaniga tor muammoga olib kirmasdan, maqolaning mazmuni uchun zarur bo‘lgan umumiy predmet maydonini shakllantirishdir. Muallif tadqiqot obyekti hisoblangan *STE (Simplified Technical English)* tushunchasini matnga olib kirish orqali o‘quvchini navbatdagi shu sohaga oid ma’lumotlarni qabul

qilishga tayyorlaydi. H-1 harakatining mantiqiy davomi bo‘lgan **H-1/Q-2 – Tadqiqotning dolzarbligini asoslash va muammoga ishora qilish** qadami esa ikkinchi gapda o‘z aksini topgan. Unda muallif tadqiq etilayotgan masalaning naqadar muhimligini global xavfsizlik darajasiga olib chiqib, qat’iy asoslaydi. O‘quvchini muammoning jiddiyligiga ishontirish va axborotning ta’sirchanligini oshirish maqsadida aniq statistik dalildan (mutaxassislarning 80 foizi ingliz tilini ona tili sifatida bilmasligi) strategik vosita sifatida foydalaniladi. Bu orqali tadqiqotni amalga oshirish ehtiyoji ilmiy hamjamiyat oldida oqlanadi va navbatdagi H-2 (Tadqiqot maqsadi) harakatiga o‘tish uchun zaruriy, ammo yashirin ilmiy bo‘shliq ko‘rsatib beriladi.

O‘zbek tilidagi ilmiy tadqiqot maqolasi annotatsiyalarida H-1 harakatining diskursiv voqelanishi o‘ziga xos dinamik xususiyatga ega. Masalan, *Bugungi zamonaviy sharoitda tibbiyot, huquq, texnika va IT kabi sohalarda axborot almashinuvi tezligi tarjimonlardan umumtil kompetensiyasidan tashqari sohaviy bilim, terminologik aniqlik va kontekstni boshqarish ko‘nikmalarini talab qiladi. Sohaviy tarjima ta’limi shuning uchun lingvodidaktik asoslar, funksional-pragmatik yondashuv va texnologik tayyorgarlikni integratsiya qilgan modelga tayanishi kerak [1].* Mazkur annotatsiyada H-1 kommunikativ harakati ikki qadam orqali amalga oshirilgan. **H-1/Q-1 – sohani tanishtirish va mavjud muammoni belgilash.** Birinchi gapda muallif zamonaviy axborot almashinuvi tezlashuvi fonida tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasiga qo‘yilayotgan qat’iy talablarni sanab o‘tadi. Ushbu qadamning kommunikativ maqsadi tadqiqotning umumiy predmet maydonini shakllantirish hamda o‘quvchini bevosita muammo muhitiga olib kirishdan iborat. **H-1/Q-2 – tadqiqot zaruratini asoslash va muammoning yechim yo‘nalishiga ishora qilish.** Ikkinchi gapda qator kasbiy talablar tarjima ta’limini takomillashtirishning obyektiv zarurati sifatida dalillanadi. Garchi bu bosqichda aniq ilmiy yechim ochiqlanmasa-da, ehtiyojni qondiruvchi fundamental yo‘nalish belgilanib, navbatdagi H-2 (Tadqiqot maqsadi) harakatiga o‘tish uchun zaruriy kognitiv-pragmatik ko‘prik yaratiladi.

Ingliz va o‘zbek annotatsiyalaridagi H-1 kommunikativ harakati umumiy vazifasiga ko‘ra o‘xshashdir: har ikki misolda dastlab tadqiqot sohasi tanishtiriladi, so‘ng mavzuning dolzarbligi va uni o‘rganish ehtiyoji asoslanadi. Biroq bu vazifa ikki tilda turlicha kommunikativ strategiyalar orqali bajariladi. Inglizcha annotatsiyada dolzarblik aniq statistik ma’lumot va global aviatsiya xavfsizligi bilan bog‘liq amaliy dalil orqali kuchaytirilgan. O‘zbekcha annotatsiyada esa dolzarblik zamonaviy kasbiy talablarni sanab o‘tish va sohaviy tarjima ta’limini takomillashtirish zaruratini bayon qilish orqali asoslangan. Demak, inglizcha misolda empirik dalillash strategiyasi ustun bo‘lsa, o‘zbekcha misolda muammo va ehtiyojlarni kengaytirilgan tavsiflash strategiyasi yetakchilik qiladi.

H-2 annotatsiyaning yo‘naltiruvchi harakati bo‘lib, o‘quvchiga maqolaning mavzusi bilan tadqiqotning aniq bajargan ishi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Agar mavzu “nima haqida?” savoliga javob bersa, maqsad “muallif ushbu predmetga nisbatan nima qilmoqda?” savolini ochadi. Ushbu harakat, odatda, quyidagi qadam voqelanashi mumkin**;** Q-1: asosiy maqsadni bayon qilish, Q-2: tadqiqot savoli yoki gipotezani ko‘rsatish, Q-3: maqsadni operatsion vazifalarga ajratish. Masalan, *To address this issue, this paper investigates the rhetorical impact on Results when the Methods is placed at the end of the articles.* Ushbu misolda *“to address this issue”*birikmasi orqali birinchi harakatda topilgan ilmiy bo‘shliq va maqsad bir-biriga bog‘langan. *My corpus-based cross-linguacultural study addresses this gap by examining how U.S. and Vietnamese corporate leaders employ self-mentions to construct their identities in their statements in annual reports* ushbu annotatsiyada

*Tadqiqotning maqsadi – badiiy matnning pragmatik mazmunini aniqlash, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va badiiy tarjimada ushbu mazmunni aks ettirishning metodologik yondashuvlarini aniqlashdan iborat.* O‘zbek tilidagi annotatsiyalar H-1 eksplisit tarzda berilishi bilan ajralib turadi. Ko‘pchilik annotatsiyalarda “*Tadqiqotning maqsadi – … dan iborat/ …dir* ” qolipi bilan berilishi kuzatiladi. *Tadqiqotning asosiy maqsadi — romanda qo‘llangan simvollarning universal va kontekstual turlarini ajratish, ularning badiiy-estetik, falsafiy va psixologik xususiyatini ochish hamda turli nazariy qarashlar asosida talqin qilishdir.*

H-3 dagi 17,6 foizlik farq eng katta tafovutni tashkil etdi. Ingliz annotatsiyalarida material, dizayn va tahlil amali ko‘pincha alohida segmentlarda berildi: *The dataset consists of seven*

*PechaKucha presentations ... Adopting a multimodal discourse-analysis lens, we analyse the presentations* ... O‘zbek matnlarida esa metod ko‘proq *Maqolada ... metodlar qo‘llanilgan” qolipi va metodlar ro‘yxati orqali ifodalandi*. Bunday shakl metod nomlarini ko‘rsatadi, ammo ularning material va tadqiqot savoli bilan aloqasini har doim ham ochiq belgilamaydi.

H-4 ingliz annotatsiyalarida *the analysis/results/findings + show, reveal, indicate, demonstrate* modeli bilan, o‘zbek annotatsiyalarida natijalar shuni ko‘rsatadiki, natijalarga ko‘ra, tahlil natijasida aniqlandiki kabi matritsalar bilan reallashdi. H-5 da ingliz matnlari *contributes, enriches, offers insights, informs* kabi hissa fe’llaridan, o‘zbek matnlari esa amaliy ahamiyatga ega, xizmat qiladi, imkon beradi, samaradorlikni oshiradi kabi baholovchi predikatlardan foydalandi. Ingliz tilida ilmiy hissa ko‘proq alohida gap bilan ajratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida u ko‘pincha natija yoki amaliy dolzarblik bilan bir sintaktik kompleksda birlashtiriladi.

Umuman, ikki korpus kommunikativ vazifalar majmui jihatidan keskin farq qilmaydi. Farq ushbu vazifalarning segmentlanishi va o‘quvchi uchun ko‘rinuvchanligidadir. Ingliz annotatsiyalarida aniq grammatik ega, tuslangan tadqiqot fe’li, material–amal zanjiri va hissa fe’llari harakat chegaralarini ochiqroq ko‘rsatadi. O‘zbek annotatsiyalarida nominal-predikativ qoliplar, harakat nomlari, majhul komstruksiyalar va uyushiq qatorlar annotatsiya mazmunini zich ifodalaydi.

**Xulosa.** Ingliz va o‘zbek tillaridagi 68 ta ilmiy maqola annotatsiyasining qiyosiy tahlili Maqsad va Natija har ikki korpusning barqaror retorik yadrosi ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot maydoni, Metod va Xulosa/qiymat ham har ikki tilda an’anaviy komponent sifatida uchradi, biroq Metod ingliz annotatsiyalarida sezilarli darajada izchilroq ifodalandi.

To‘liq H-1→H-2→H-3→H-4→H-5 ketma-ketligi ingliz subkorpusida 64,7 foiz, o‘zbek subkorpusida 44,1 foizni tashkil etdi. O‘zbek annotatsiyalarining median hajmi kattaroq bo‘lishiga qaramay, retorik to‘liqlik pastroq bo‘ldi; bu holat hajm bilan funksional tuzilish o‘rtasida bevosita tenglik yo‘qligini tasdiqlaydi.

Asosiy tafovut kommunikativ vazifalarning mavjudligida emas, ularning segmentlanishi va lisoniy ko‘rinuvchanligida namoyon bo‘ldi. Ingliz annotatsiyalari aniq ega, tuslangan tadqiqot fe’llari, material–amal zanjiri, natija matritsalari va hissa fe’llari orqali vazifalarni ko‘proq ajratadi. O‘zbek annotatsiyalari esa nominal-predikativ qoliplar, harakat nomlari, majhul predikatlar va kengaygan uyushiq qatorlar yordamida bir necha vazifani bitta sintaktik kompleksda birlashtiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bakirova X. B. Sohaviy tarjimaga o‘qitishining nazariy va lingvodidaktik tamoyillari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild. – № 5. – B. 152

2. Kafes H. Cultural or discoursal proclivity: Rhetorical structure of English and Turkish research article abstracts // The Anthropologist. – 2015. – Vol. 21, № 2. – P. 240-254.

3. Pho P. D. Research article abstracts in applied linguistics and educational technology: A study of linguistic realisations of rhetorical structure and authorial stance // Discourse Studies. – 2008. – Vol. 10, № 2. – P. 231-250.

4. Santos M. B. The textual organisation of research paper abstracts in applied linguistics // Text. – 1996. – Vol. 16, № 4. – P. 481-499.

5. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.

6. Yakhontova T. “Selling” or “telling”? The issue of cultural variation in research genres // Academic Discourse / ed. J. Flowerdew. – London: Longman, 2002. – P. 216–232.

**UO’K 821.512.133**

## YUSUF AMIRIY “DAHNOMA”SI HAQIDA

***N.I.Abdullaeva, o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XV asr o‘zbek nomachiligining nodir namunalaridan biri – Yusuf Amiriyning “Dahnoma” asari, uning yaratilish tarixi hamda asar matni bo‘yicha olib borilgan matnshunoslik tadqiqotlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarning Sulton Boysung‘ur Mirzoga bag‘ishlab yozilganligi va adabiy manbalardagi e’tirofi yoritilib, asar xronologiyasiga oid ilmiy qarashlar qiyoslanadi. Xususan, asar xotimasidagi “zabti vojib” birikmasining abjad hisobi va izofa qoidalari qayta tahlil etilib, E. Rustamov tomonidan yo‘l qo‘yilgan sana noaniqligi tuzatiladi va “Dahnoma”ning asl yozilgan yili milodiy 1420-yil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Yusuf Amiriy, "Dahnoma", Sulton Boysung'ur Mirzo, "Tazkiratu-sh-shuaro", Davlatshoh Samarqandiy, xronologiya, abjad hisobi, "zabti vojib", matnshunoslik tahlili, ilmiy xatoliklar.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется одно из редких произведений узбекской эпистолярной поэзии XV века – «Дахнома» Юсуфа Амири, история его создания и текстологические исследования. В исследовании освещается посвящение произведения Султану Байсункуру Мирзо, его признание в литературных источниках и сравниваются научные взгляды на хронологию поэмы. В частности, повторно анализируется выражение «забти вожиб» в заключении поэмы с точки зрения счета абджад и правил изофета, исправляется хронологическая неточность, допущенная Э. Рустамовым, и научно обосновывается, что истинным годом написания «Дахнома» является 1420 год нашей эры.*

***Ключевые слова****: Юсуф Амири, «Дахнома», Султан Байсункур Мирзо, «Тазкирату-ш-шуаро», Давлатшах Самарканди, хронология, счет абджад, «забти вожиб», текстологический анализ, научные ошибки.*

***Abstract.*** *This article analyzes one of the rare works of 15th-century Uzbek epistolyar poetry, "Dahnama" by Yusuf Amiri, the history of its creation, and textual studies conducted on it. The research highlights the dedication of the work to Sultan Baysunqur Mirza, its recognition in literary sources, and compares scientific views regarding the chronology of the poem. In particular, the phrase "zabti vojib" in the conclusion of the work is re-analyzed according to the abjad numeral system and izafa rules, correcting a chronological error made by E. Rustamov, and scientifically proving that the actual year of writing "Dahnama" was 1420 AD.*

***Key words:*** *Yusuf Amiri, "Dahnama", Sultan Baysunqur Mirza, "Tazkirat ush-shu'ara", Davlatshah Samarqandi, chronology, abjad numeral system, "zabti vojib", textual analysis, scientific errors.*

Yusuf Amiriy "Dahnoma"si o'zbek nomachiligida alohida o'rinni ishg'ol etadi, asar tuzilishi, qurilishi va o'ziga xos mundarijaga egaligi bilan boshqa mumtoz adiblar kitoblaridan ajralib turadi. "Dahnoma"ning yozilgan yili xususida ilk qaydlar, fikrlar va dastlabki ma'lumotlar ustoz olimlarimiz Hodi Zarif (1905–1972) [1] va Ergash Rustamovlar[2] tadqiqotlarida hamda boshqa talay adabiyotshunoslar kuzatuvlarida uchraydi. Asar Sulton Ulug'bek Mirzo (1394–1449)ning ukasi Sulton Boysung'ur Mirzo (1397–1433)ga bag'ishlab yozilgan. Bilamizki, Sulton Ulug'bek Mirzo va Sulton Boysung'ur Mirzolar Sulton Shohruh Mirzoning (1377–1447) farzandi arjumanlaridir. Ulug' Amir Temur Ko'ragon (1336–1405) Ulug'bek Mirzoga Tarag'ay, Boysung'ur Mirzoga Boysung'ur nomlarini qo'ydi. Tarag'ay bahodir bilamizki, Amir Temur otalarining ismlari, shu bois boboning ismini aytishdan ko'ra Ulug'bek (beklarning ulug'i) deya murojaat etish ko'p jihatdan maqbul topilgan. Boysung'ur yoki Boysunqor odatan talaffuzda Boysung'ur tarzida aytilgan va shu xil atalgan, tarix kitoblarda ayni shu xilda bitilgandir. Sulton Boysung'ur Mirzo Hirotda tavallud topib, ayni Hirotda vafot etgan va onasi Gavharshodbegim madrasasida dafn etilgan, qolaversa, 1447-yili vafot etgan Sulton Shohrux Mirzo ham Gavharshodbegim madrasasida dafn etilgan. Sulton Ulug'bek Mirzo 1448-yili Hirotni ishg'ol etganda padari buzurgvori Sulton Shohrux Mirzoning xoklarini Samarqandga olib qaytadi va Amir Temur Ko'ragon yonlarida dafn ettiradi.

Eslatganimiz kabi Yusuf Amiriyning "Dahnoma"si Sulton Boysung'ur Mirzoga atab yozilgan, shoir haqida ilk ma'lumotlar Amir Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiy (taxminan 1435–1495)ning "Tazkiratu-sh-shuaro" (1487) [3] asarida: "Zikri mavlonoi muazzam Yusuf Amiriy rahmatullohi alayh" sarlavhasida keltiriladi. Yusuf Amiriy haqida ushbu ma'lumotlarni o'qiymiz: "Az jumlayi shuaroi mutaayyin ast va ba ro'zgori Shohrux Sulton uro shuhrat dast dod. Va hamvora ba nomusi zindagoniy mekarda va umaroi va arkoni davlat uro nigohdosht mefarmudand. Va qasoidi g'urra dorad ba madhi xoqoni kabir Shohrux Sulton anorullohi burhona (Alloh taolo yo'llarini nurli qilsin) va avlodi azom va umaroi kiromii u, va in qasida dar madhi Boysung'ur Sulton mefarmudag' lallaxx durr koila (Uni aytuvchi odamga mo'l-ko'l ne'matlar yog'ilsin), qasida". Olimlarimizdan Nasimxon Rahmon birinchilardan bo'lib Davlatshoh Samarqandiy "Tazkiratu-sh-shuaro"sidagi Yusuf Amiriyga taalluqli ma'lumotlarning o'zbek tiliga tarjimasini amalga oshirgan

edi[5]: "Mavlono Yusuf Amiriy sulton Shohrux Mirzo zamonida katta shuhratga erishgan shoirlardan biridir. U oddiy hayot kechirgan, aytishlaricha, amirlar va mashhur amaldorlar unga g'amxo'rlik ko'rsatganlar. Buyuk xoqon Shohrux sulton va uning ulug' avlodlari, amaldorlari sharafiga Amiriy ko'p qasidalar bitgan.

Alisher Navoiy (1441–1501) "Majolisu-n-nafois" tazkirasining birinchi majlisida ham Yusuf Amiriy haqida ma'lumotlar mavjud: "Mavlono Amiriy – turk erdi va turkcha she'ri yaxshi voqe' bo'lubtur"[2]

Yusuf Amiriy "Dahnoma" asarining yozilgan yilini ustoz Hodi Zarif 1410–1411-yillar yozilgan deydi. E.Rustamov asarning yozilgan yilini hijriy – qamariy 833 (milodiy 1429-30) yil ekanini qayd etadi [2]. "Dahnoma" asarining "Dar xatmi kitob" bobidagi quyidagi satrlarga diqqat qilaylik:

*Bihamdulillohki fursat berdi davron,*
*Yozildi nomalar boshina unvon.*
*Bitdi endi tarixini kotib,*
*Erur tarixi zabti vojib [2].*

she'rning to'rtinchi misrasidagi "zabti vojib", ya'ni zabt – ishg'ol etish, vojib – bajarilishi majburiy ma'nolarini anglatadi. Ergash Rustamov yozadi: "Zabti vojib" – abjad hisobi bilan 833 hijriy yili chiqadiki, bu milodiy 1429–30-yilga to'g'ri keladi [2]. Darhaqiqat 833 hijriy yilni milodiy yilga aylantirish uchun birinchi amal bo'yicha 833:33 ga bo'linadi, shunda 25 chiqadi, shu 25 raqami 833 dan ayriladi: 833–25=808, ko'rinadiki 808 hosil bo'lmoqda, chiqqan 808 ga 622 raqami qo'shiladi 808+622=1430 kelib chiqadi. Buuning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash uchun hosil bo'lgan milodiy 1430-yilni hijriy – qamariyga aylantirib ko'rish lozim, bunda birinchi amal 1430 dan 622 ayriladi, 1430 – 622 = 808, chiqqan 808:32 taqsimlanadi 808:32=25, chiqqan 25 raqami 808 ga qo'shiladi 808+25= 833. Hammasi to'g'ri, faqat izofani ifodalovchi ى ey – 10 ortiqcha, demak ustoz E. Rustamov ta'rixni hisoblashda talaffuz qoidalariga amal qilib, "zabti vojib"ga bir ey harfini ortiqcha ilova qilganlar. Bilamizki, abjad hisobida ى ey – 10 raqamiga teng, shu tariqa 1959-yildan hisoblasak, ana shu oddiy yo'l qo'yilgan noaniqlik ham oz emas, ko'p emas 66 (oltmish olti) yil bo'libdi.

Aslida ضبط واجب – zabt(i) vojibda ى ey yo'q, demak 10 raqami ortiqcha va u asarning yozilgan yilini o'n yilga ko'paytirib yuborgan, xolos.

Endi ضبط واجب birikmasiga kelsak, hozirgi tojik tilidagi kirill yozuvda "zabti vojib" to'kis yoziladi, to'liq talaffuz ham etiladi, lekin arab yozuvidagi fors (eron) tilida "zabt vojib" yoziladi. To'g'rirog'i "zabti vojib" tarzida talaffuz etiladi, biroq arab-fors alifbosi yozuvida izofa ifodasini topmaydi, bu tojik tilidagi kirill yozuvida izofa imloda ifodasini topsa hamki, hisob raqamiga ilova etilmaydi.

Va 2 – ب ,3 – ج ,1 – ا ,6 – و ,9 – ط ,2 – ب ,8 – ض ,800 – ى ض jami raqamlar qo'shib chiqilsa, 823 (sakkiz yuz yigirma uch) bo'ladi, izofa ifodasini ifodalovchi 10 – ى (ey)ni ilova etsak, bu raqam ham 833 (sakkiz yuz o'ttiz uchga) aylanib qoladi. Ammo izofani ifodalovchi 10 – ى ey hisobga olinmaydi, demak hijriy – qamariy jihati ko'rinadiki, hijriy – qamariy 823-yilni milodiy yilga aylantirish lozim bo'ladi. Buning uchun eng avvalo 823-yilni 33 ga bo'lamiz, 823:33=25, shu o'rinda bir izoh, 823-hijriy yilini 33 raqamiga taqsimlasak, aslida 25 emas, balki 24 chiqadi, ammo 31 qoldiq soni paydo bo'ladi.

Qoldiq son 31 bo'linuvchi 33 sonining yarmidan ko'p, shu bois 24 raqamiga 1 raqami ilova etiladi, ya'ni 24+1= 25, so'ngra 823 dan 25 raqamini ayiramiz 823–25=798, keyin oxirgi amal 798 ga 622 raqamini qo'shamiz 798+622=1420. Anglashiladiki, Yusuf Amiriy "Dahnoma" asari 1430-yilda emas, balki milodiy 1420-yili yozib tugatilgan ekan. Endi milodiy 1420-yilning to'g'riligini aniqlash yoki tasdiqlash uchun uni hijriy – qamariy yiliga aylantiramiz, ilk amal bo'yicha 1420–622=798, ikkinchi amal 798:32=25, bunda ham aslida 24 chiqadi, qoldiq son esa 30 raqami bo'lgani uchun tag'in 24 ga 1ni qo'shamiz 24+1= 25, uchinchi amal bo'yicha 798 raqamiga 25 qo'shiladi: 798+25=823. Demak barchasi to'g'ri, lekin shu o'rinda bir savol tug'iladi, hijriy – qamariy yilni milodiy yilga aylantirishda 33 raqamiga taqsimladik, milodiy yilni qamariyga aylantirishda 32 taqsimladik. Xo'sh 33 raqami haqida, bilamizki, hijriy – qamariy yili uchun har 33 yilda aylanma tarzdagi bir turkum mavjud, ya'ni har 33 yilda ramazon yoki qurbon hayitlari aynan shu oylarning

ma'lum, o'sha sanasiga to'g'ri keladi. Raqamlardan 622 raqami esa milodiy yilning shu raqamiga hijriy – qamariyning birinchi yili muvofiq, ya'ni to'g'ri keladi, 32 raqami shuki, har 32 yilda hijriy – qamariy yili milodiydan bir yil ortda qoladi.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asarini nashrga tayyorlagan Halima Muxtorova uchinchi va to'qqizinchi nomalardagi shoir taxallusini امیدی – Umide va Umidiy shaklida beradi[6].

Yana bir muhim masala: Yusuf Amiriy devoni bilan bog'liq bahsu munozaralar va unga taalluqli ayrim ilmiy munosabatlar tevaragidagi muammoli xulosalar xilma-xillikni keltirib chiqargan. Umuman Yusuf Amiriy devoni bizning zamongacha yetib kelganmi, yo'qmi, Amir Umarxon (1787–1822) tomonidan "Muhattatnoma" nomli she'rlar devoni tuzilib, Turkiya sultoniga sovg'a qilinadi. Akademik Azizxon Qayumov (1926–2018) yozadi: "Umarxon Amir taxallusi bilan she'rlar yozar edi"[8]. Rahmatullo Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob" (Do'stlar tuhfasi va suhbatdashlar zikri) tazkirasida o'qiymiz: "Amir – taxallusi Amir Umarxon valii baldai Xo'qand ast. Va she'r az jumla mashohir va o'ro devonist ba zaboni turki va forsi"[9]. Tarjimasi: Amir – Xo'qand shahrining valiysi Amir Umarxon taxallusidir.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Navoiy zamondoshlari. Terma she'rlar / Nashrga tayyorlovchi Hodi Zarif. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1948. – 208 b.

2. O'zbek adabiyoti. To'rt tomlik. Birinchi tom. – Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. – 552 b.

3. Valixo'jaev B. Tanlangan asarlar (matn). 3-jild. – Toshkent: Zilol buloq, 2023. – 488 b.

4. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkiratu-sh-shuaro / Ba sa'yi va ehtimomi va tashihi Edvard Braun. – Tehron: Asotir, 1382. – 621 sah.

5. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. II jild. (XIV–XV asrning boshlari) / Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: N. Rahmon. – Toshkent: Fan, 2007. – 320 b.

6. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n uchinchi tom. Majolis un-nafois / Matnni izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S. G'aniyeva. – Toshkent: Fan, 1997. – 284 b.

7. Muborak maktublar / Nashrga tayyorlovchilar: M. Abduvahidova va boshq. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. – 304 b.

8. O'zbek adabiyoti tarixi. IV tom (XVII asrning oxiridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). – Toshkent: Fan, 1978. – 444 b.

9. Rahmatullo Vozeh. Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob / Tarxibidanda A. Jonfido, mas'ul muharrir A. Mirzoev. – Dushanbe: Donish, 1977. – 227 sah.

**UDC 81`27**

## GENDER AND LANGUAGE IN RECRUITMENT DISCOURSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK JOB ADVERTISEMENTS

***K.T.Abdurakhimova, master's student, Uzbekistan State World Language University, Tashkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi ishga qabul qilish e'lonlarida genderga xos til birliklarini o'rganish uchun qiyosiy sotsiolingvistik yondashuvdan foydalanadi. Unda genderga neytral iboralar, genderga oid ochiq va yashirin afzalliklar, shuningdek, maskulin va feminin kodlangan til birliklari sifatli usul asosida tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *genderga xos til, ishga qabul qilish e'lonlari, gender stereotiplari, sotsiolingvistika, ingliz tili, o'zbek tili, ishga qabul qilish diskursi, genderga neytral til.*

***Аннотация.*** *В данном исследовании используется сравнительный социолингвистический подход для изучения гендерно маркированной лексики в объявлениях о вакансиях на узбекском и английском языках. Исследование рассматривает гендерно-нейтральные выражения, явные и имплицитные гендерные предпочтения, а также языковые единицы с маскулинной и феминной маркированностью с применением качественного метода.*

***Ключевые слова:*** *гендерно маркированный язык, объявления о вакансиях, гендерные стереотипы, социолингвистика, английский язык, узбекский язык, рекрутинговый дискурс, гендерно-нейтральный язык.*

***Abstract****. This study uses a comparative sociolinguistic approach to examine gendered language in Uzbek and English employment adverts. It investigates gender-neutral phrases, explicit and implicit gender preferences, and language with masculine and feminine codes using a qualitative method.*

***Keywords:*** *gendered language, job advertisements, gender stereotypes, sociolinguistics, English, Uzbek, recruitment discourse, gender-neutral language.*

**Introduction.** Language is not only used as a means of communication, but it also serves as a reflection of society. The languages units chosen to express ideas and share information reflect the cultural ideas, beliefs, values and expectations of the society in which the language is used. Gender, in turn, is considered to be one of the prominent factors influencing how language is adapted to different situations. The relationship between language and gender is particularly visible in professional environments, where linguistic units serve certain purposes. Workplace discourse provides information about professional skills and responsibilities, indicates the norms of a desirable or appropriate candidate as well as establishing gender identities. For instance, roles such as leadership or competitiveness may be linked to more traditionally masculine identities while feminine ones may may be associated with cooperation and patience.

The current study uses a comparative sociolinguistic approach to investigate gendered language in Uzbek and English job adverts. It looks at the language tools used to express gender both directly and implicitly and takes into account how these tools help create appealing professional identities.

The following research questions serve as a guide for the study:

1. Which gendered language is used in Uzbek and English job advertisements?
2. In what ways do English and Uzbek job advertising linguistically build male and feminine professional identities?
3. What parallels and discrepancies exist between the way gender is portrayed in Uzbek and English workplace discourse?

**Literature review.** According to Butler [1], gender is not something we are born with, and not something we have, but something we do – something we perform. He argues that gender is performed through speech, act, dressing and social connections. In other words, by following gendered societal rules and norms, individuals "perform" gender, making it look natural and automatic rather than its adaptable and evolving nature. Jennifer Coates [2] states that collaborative style in women's speech shows how femininity is socially constructed, which in turn helps "perform" femininity, while men tend to use more of a competitive strategy to show confidence and independence. According to Joan Swann [3], gender is seen as "fluid, contingent and context-dependent", meaning it is not fixed, but rather changes based on the situation. Gender is a notion that can be adapted and expressed differently in different contexts. Her ideas challenged traditional assumptions about gender when it was considered stable and fixed.

The workplace is a significant social setting where discourse may perpetuate gender stereotypes. Social presumptions may affect how leadership, competence, communication, emotionality, authority, and interpersonal behavior are perceived in professional settings. According to Fairclough [4], discourse is intimately linked to power dynamics and social structures because language practices may reinforce certain social presumptions as though they were inherent or obvious. This viewpoint may be used to analyze how representations of the "ideal employee" may mainstream specific gendered expectations for professional behavior and competence when applied to employment discourse.

**Methodology.** This study examines gendered language in Uzbek and English employment adverts using a qualitative comparison method. While the comparative technique finds parallels and contrasts between employment discourse in Uzbek and English, a qualitative design enables the study to investigate how linguistic choices express gender norms and expectations. The information is made up of publicly accessible Uzbek and English job postings that were gathered from internet job boards and Telegram vacancy channels.

**Analysis and findings.** The examination of job postings in both Uzbek and English indicates a number of trends in how gender is portrayed. In addition to increasingly prevalent gender-neutral terminology, the ads use both masculine and feminine-coded vocabulary.

Certain lexical words are linked to attributes that are often associated with men in both Uzbek and English employment adverts. These include traits like aggressiveness, competitiveness, ambition, leadership, strength, and independence.

| Masculine coded expressions | English examples | Uzbek examples |
|---|---|---|
| Leadership | Strong leader, leadership skills | Yetakchilik qobiliyati |
| Strength | Strong, physically fit | Jismonan baquvvat |
| Ambition | Ambitious, career driven | Ishga mas'uliyatli |
| Assertiveness | Confident | O'ziga ishongan |
| competitiveness | competitive | Natija ko'rsata oladigan |

There is nothing intrinsically male about these terms. However, they could aid in the development of a masculine professional identity if they appear more frequently in job ads for roles that are typically associated with males.

Qualities like communication, empathy, patience, care, emotional sensitivity, and attractiveness are frequently linked to feminine-coded language.

| Feminine coded expressions | English examples | Uzbek examples |
|---|---|---|
| Communication | Friendly, communicative | Kirishimli, xushmuomala |
| care | Caring, attentive | E'tiborli, mas'uliyatli |
| Emotional qualitites | Patient, empathetic | Sabrli |
| Appearance | Well-presented | Tashqi ko'rinishi ozoda |
| Sociability | Warm, sociable | Ochiqko'ngil, kirishimli |

Gender-neutral language is a clear substitute for gendered terminology. Words like "team player," "professional," "experienced," "motivated," "reliable," and "responsible" don't specifically relate to men or women.

| Gender-neutral expression | Uzbek equivalent |
|---|---|
| Professional | Professional |
| Experienced | Tajribali |
| Reliable | Ishonchli |
| Responsible | Mas'uliyatli |
| Team player | Jamoada ishlay oladigan |
| Motivated | Motivatsiyasi bor |
| Skilled | malakali |

By emphasizing abilities, credentials, and professional competences rather than gender-based expectations, the usage of such terms can make job advertising more inclusive.

Both explicit and implicit gender preferences are possible. Phrases like "male candidate preferred," "female candidates only," or their Uzbek equivalents are clear examples of explicit preferences.

| Type | English example | Uzbek example |
|---|---|---|
| Explicit preference | Male candidate preferred | Faqat erkaklar/yigitlar |
| Explicit preference | Female candidates only | Faqat qizlar va ayollar |
| Implicit preference | Physically strong | Jismonan baquvvat |
| Implicit preference | Caring and patient | Sabrli |
| Appearance-based | Presentable appearance | Tashqi ko'rinishi ozoda |

Because gender prejudice is not always manifested by overt references to men or women, it is crucial to distinguish between explicit and implicit gender biases.

| Feature | English job ads | Uzbek job ads |
|---|---|---|
| Gendered language units | Less direct in inclusive ads | Occurs mor explicitly |
| Masculine coded language | Leadership, competitiveness | Strength, leadership |
| Feminine coded language | Communication, appearance | Communication, care, appearance |
| Appearance requirements | Present in some sectors | More noticeable in some sectors |
| Gender-neutral language | Increasingly common | Present, but varies by ads |
| Explicit gender preferences | May be seen but mostly avoided | May be seen more directly |

**Discussion.** The results show that socially created notions of gender and professional identity may be reflected in and replicated in job ads. Although the precise language choices and their

frequency may differ across the two settings, both English and Uzbek advertising may contain masculine-coded and feminine-coded words. While feminine-coded expressions are more often linked to communication, patience, empathy, caring, and attractiveness, masculine-coded expressions typically highlight traits like leadership, confidence, strength, and competition.

Additionally, the existence of competency-based and gender-neutral language suggests a shift toward more inclusive hiring procedures. While Uzbek employment advertising may reflect culturally specific expectations regarding gender, attractiveness, and personal qualities, English job advertisements, in particular, may show a higher propensity toward neutral professional descriptions.. Overall, the comparison shows that language has a significant impact on how people see qualified applicants and professional positions.

**Conclusion.** This study used a comparative sociolinguistic approach to analyze gendered language in Uzbek and English employment adverts. The results show that whereas feminine-coded language is linked to care, communication, patience, and attractiveness, masculine-coded language is often associated with leadership, strength, confidence, and ambition. At the same time, a larger trend toward competency-based and inclusive recruiting rhetoric is reflected in the growing usage of gender-neutral vocabulary. Comparing advertising in Uzbek and English reveals cultural variations as well as commonalities in the linguistic construction of gender.

**REFERENCES:**

1. Butler, J. (1990). *Gender trouble: Feminism and the subversion of identity*. Routledge.

2. Coates, J. (1997). The construction of a collaborative floor in women's friendly talk. In T. Givón (Ed.), *Conversation: Cognitive, communicative and social perspectives* (pp. 55–89). John Benjamins. https://doi.org/10.1075/tsl.34.04coa

3. Ergasheva & Narbutayeva (2023). *Sociolinguistic aspects of gender discourse in the system of different languages.*

4. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis: The critical study of language*. Longman.

5. Swann, J. (2002). Yes, but is it gender? In L. Litosseliti & J. Sunderland (Eds.), *Gender identity and discourse analysis* (pp. 67–75). John Benjamins.

**UO'K 81'367:81'42**

## KOMMUNIKATIV REGISTRLARNING SINTAKTIK KOMPOZITSIYA SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

***M.Abdupattoyev, prof., f.f.d (DSc), Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona***

***Annotatsiya.*** *Maqolada sintaktik kompozitsiya tushunchasi va u bilan bog'liq mazmuniy kategoriyalar haqida ma'lumot berish bilan birga, sintaktik kompozitsiyaning shakllanishida kommunikativ registrlarning o'rni haqida bahs yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Sintaksis, lisoniy semantika, sintaktik kompozitsiya, kompozitsion-sintaktik tuzilish, kommunikatsiya, kommunikativ registr, sintaktik-stilistika, stilistik figura,*

***Аннотация.*** *В статье представлена информация о понятии синтаксической композиции и связанных с ней субстантивных категориях, а также обсуждается роль коммуникативных регистров в формировании синтаксической композиции.*

***Ключевые слова:*** *Синтаксис, лингвистическая семантика, синтаксическая композиция, композиционно-синтаксическая структура, коммуникация, коммуникативный регистр, синтаксико-стилистика, стилистическая фигура.*

***Abstract.*** *This article presents information on the concept of syntactic composition and the substantive categories associated with it, and discusses the role of communicative registers in the formation of syntactic composition.*

***Key words:*** *Syntax, linguistic semantics, syntactic composition, compositional-syntactic structure, communication, communicative register, syntactic stylistics, stylistic figure.*

Poetik nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishi ma'lum bir makon va zamon birligida nutqni tashkil etgan komponent-qismlar, sintaktik-stilistik figuralar, gaplar va boshqa obraz yaratuvchi vositalarning tartibli joylashishi asosida shakllanadi. Sintaktik kompozitsiya muallif ongida "sochilib yotgan" fikr-g'oyalarni tartibga soladi [1,176] va til vositalari yordamida ifodalanishi bilan murakkab

sintaktik qurilma – nutq yaratiladi. Kompozitsiya alohida qismlardan butunlik hosil qiladi. Bunda nutqning mavzusi, sarlavhasi, nomlanishi, epigrafi, birinchi va oxirgi gapi muhim vazifa bajaradi. Bir so‘z bilan aytganda, poetik nutqning kompozitsion-cintaktik tuzilishi nutqni tashkil etgan til vositalarining muallif fikr-g‘oyasini ifoda etish uchun ma'lum bir mazmuniy ketma-ketlikda tartiblanishi tushuniladi.

Poetik nutq kompozitsion-cintaktik tuzilishining shakllanishi turli mantiqiy kategoriyalarga asoslanadi. O‘zbek poetik nutqida bunday kategoriyalar xilma-xil bo‘lib alohida bir tizimni tashkil etadi. Ana shunday mantiqiy kategoriyalardan biri nutqning kommunikativ registrlari deb yuritiladi. Har qanday poetik nutq kompozitsiyasi sintaktik nuqtai nazaridan til vositalari yordamida shakllangan qurilma sifatida, fikriy-kommunikativ butunlik sifatida belgilanadi. Nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishini bir xil kompozitsion shakllar - nutqiy registrlarni reallashtiruvchi til va nutq birliklari tashkil etadi. Nutqiy registrlar kishi ongidagi fikrlarni ifoda etish uchun nutqni ma'lum bir mazmuniy ketma-ketlikda shakllantirish uchun asos bo‘ladigan va nutqning yaratilishi uchun turtki beradigan xabarlar oqimidir [2,176]. Kommunikativ registrlar bloklari (kompozitivlar) kompozitsion-sintaktik tarkib birliklari sifatida yuzaga chiqadi va nutqda fikriy ketma-ketlikni ta'minlash uchun ma'lum bir usulda o‘zaro bog‘lanadi. Kommunikativ registrlar til birliklari va kategoriyalarini til sistemasida guruhlash usuli sifatida yuzaga chiqadi [3,174]. Demak kommunikativ registrlar poetik nutqda informatsiyani tinglovchiga yetkazishda til birliklarining ma'lum bir tizimda tartiblanishi hisoblanadi. Kommunikativ registrlarni keltirib chiqaruvchi va ular o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatuvchi tayanch mezonlariga tilshunoslar tomonidan quyidagilar kiritilgan:

1) voqelikni anglash imkoniyati;
2) tasvirlanayotgan voqelikni qo‘shimcha ma'lumotlar bilan to‘ldirish darajasi;
3) so‘zlovchining ma'lum bir makon va zamondagi pozitsiyasi;
4) voqelikda fikr (ish-harakat) dinamikasining rivojlanishi;
5) so‘zlovchining kommunikativ maqsad-munosabati.

Shuningdek, kommunikativ registrlar nutqning fikriy-funksional turlari (rivoya, tasviriy, izohiy, monologik, dialogik va boshq.) va so‘zlovchining modal munosabatlarini birlashtiradi.

Rus tilshunos olimasi G.A. Zolotova poetik nutq strukturasining konkretlikdan abstraktlikka, aloxidalikdan umumiylikka intiluvchi quyidagi beshta kommunikativ registrlar yordamida shakllanishini alohida ta'kidlaydi va ularning quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tadi [4, 33]. Biz ham olimaning tasnifiga qo‘shilgan holda, ularni o‘zbek nutq qurilishi misolida ko‘rib chiqamiz:

**1. Reproduktiv registrlar** voqelikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok etish orqali shakllanadi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok etish vaqt tushunchasining aktual zamon tushunchasi orqali, ya'ni muallif hikoyasi voqelikning yuzaga kelishi bilan o‘zaro mos kelishi, bir paytda sodir bo‘lishini anglatadi. Reproduktiv registr kuzatuvchi-muallif shaxsi bilan bog‘liq bo‘lib, voqelik yuzaga kelgan zamon va makonda u kuzatuvchi sifatida qatnashadi. Tasvirlanayotgan voqelik tashqarisida turib aniq xabar-ma'lumotlarni bayon qiladi. Reproduktiv registrda “men ko‘ryapman, “men eshityapman” kabi perseptiv (his qilish) modus shakllari ustun bo‘ladi. Reproduktiv registrni nutqning funksional shakllanishiga ko‘ra 2 turga ajratish mumkin: a) reproduktiv-darak tipidagi registrlar; b) reproduktiv-tasvir tipidagi registrlar.

Reproduktiv-darak tipidagi registrlarda nutqning xabar, ma'lumot berish funksiyasi ustunlik qiladi. Ish-harakat dinamikasi syujet liniyasi bilan mutanosiblikda o‘sib boradi. Bunday nutqda ishtirok etuvchi darak gaplarning dinamik xarakterdagi fe'l-predikatlari aoristik funksiya bajaradi, ya'ni nutq muallifi tomonidan kuzatilgan va shu asosda bayon qilingan xabarda voqelikning rivojlanishi hamda fikriy ketma-ketlik izchilligini ta'minlanadi. Masalan: A.Oripovning “Hangoma” she'rida yuqorida qayd etib o‘tilgan belgi xususiyatlar mavjud, ya'ni ish-harakat dinamikasi she'r syujeti bilan hamohang rivojlanadi, fe'l-predikatlar gaplar tuzilishida ustun bo‘lib, poetik nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishining ma'lum bir tartibda shakllanishini ta'minlaganligi kuzatiladi.

Reproduktiv-tasvir tipidagi registrlar esa, asosan, tasvir nutq turini shakllantiradi. Natijada nutqni tashkil etgan gaplar kesimlari holat fe'llari, belgi-xususiyat, miqdor va boshqa doimiy belgi ma'nosini ifoda etuvchi leksemalar bilan ifodalanadi. Masalan:

*Yovvoyi cho‘l ochilib yotar -*

*qip yalang'och, chiroyli, ravon,*
*tepasida tobora behol,*
*hansiraydi haybatli osmon.*
(SH.Rahmon)

Mazkur she'rda tasvir shu tarzda davom etadi, ko'rinadiki, poetik nutqning kompozitsion-sintaktik tuzilishi reproduktiv-tasvir tipidagi registrlar asosida shakllangan bo'lib, unda belgi bildiruvchi leksemalar, holat fe'llari dominantligida fikriy tartiblanish yuzaga kelgan.

**2. Informativ registrlar** ma'lum vaqt davomida uzluksiz takrorlanuvchi va fikr subyekti bilan bitta makon birligida reallashuvchi bilim, munosabat, baho berish kabi subyektiv baho shakllarini o'z ichiga oladi. Bunda so'zlovchi uzatilayotgan informatsiyani yetkazishda voqelik bilan ma'lum bir oraliq saqlagan holda, uzual vaqt (takrorlanuvchi, doimiy belgiga ega bo'lgan, sikllashgan) va sabab-natija munosabatlariga asoslangan predmet hamda abstrakt tushunchalarni izohlaydi. Informativ registrga asoslangan nutq turida aniq bo'lmagan bir necha noma'lum nomlarni qo'llanishi xarakterlidir. So'zlovchi informatsiya yetkazish jarayonida tinglovchi diqqatini reproduktiv registrda bo'lgani kabi predmet belgilarini ko'rsatishga emas, uni baholash va subyektiv munosabatlari ifodasiga qaratadi. Bunda informativ bayonni aqliy modus ichiga kiritish mumkin. Bu modus shakli uchun "Men bilaman", "Men xabardorman", "Menga ma'lum" kabilar xosdir. Informativ registrlar mantiqiy aloqadorlik, tushunchalar va hodisalarni ularning spetsifikasiga oid tizimli qonuniyatlari doirasida qayd etadi [5,43]. Bu registr uchun aoristik funksiyaning mo'tadillashuvi, ya'ni syujet dinamikasiga mos holda kengaytirilgan vaqt tushunchasi xosdir. Mazkur registr mantiqan doimiylik qonuni asosida shakllanadi. Masalan:

*Yana bahor kelar chechaklar taqib,*
*Alvon lolalarga to'lar adirlar.*
*Go'zalligi qaytgan olamga boqib,*
*Nigorom yuragim seni xotirlar...*
*Seni yodga solib qaytar turnalar,*
*Seni yodga solib shivirlaydi yel,*
*Chorasiz hijrondan qalbim qiynalar,*
*Bu shod olam ichra yolg'izlatma, kel.*
(F.Shoxismoil)

Keltirilgan misol yuqoridagi fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi, poetik nutq orqali bayon qilingan takrorlanib turuvchi (sikllashgan)va sabab-natija (tabiatdagi doimiy o'zgarishlar va uning natijasida muallif qalbida shakllangan abstrakt tuyg'ular, kechinmalar ifodasi) munosabatlariga asoslangan predmet hamda abstrakt tushunchalar izohlanmoqda. Bundan tashqari, voqelikka nisbatan subyektiv munosabat ham bayon etilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Рякина Е.В Коммуникативные регистры в поэзии Владимира Высоцкого. Коммуникативные исследования (Сборник). М: 2014. № 1. -С 165-176.

2. Рякина Е.В Коммуникативные регистры в поэзии Владимира Высоцкого. Коммуникативные исследования (Сборник). М: 2014. № 1. -С 165-176.

3.Сидорова М.Ю. Коммуникативные регистри и деомонимизация несовершенного вида в тексте. Вестник Удмуртского университета.2009, Вып. 1, - С. 173-179.

4.Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. М., 2004. -С. 245.

5.Борисов Е.Г. Стилистика и литературное редактирование. М: "Studme org" 2016. С 117.

**UO'K 811.512.133'42:159.9**

## ZULFIYA QUROLBOY QIZI NASRIDA AYOL KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

***R.A.Ahmedova, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun Akademiyasi, Xiva***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillaridan biri bo'lgan Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol konseptining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot*

*davomida adiba asarlarida ayol obrazining milliy qadriyatlar, urf-odatlar, mental qarashlar hamda o‘zbek xalqining lisoniy manzarasi bilan uzviy bog‘liq holda ifodalanishi yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *ayol konsepti, lingvomadaniyat, konsept, badiiy matn, gender, milliy mentalitet, metafora, emotsional-ekspressiv vositalar, o‘zbek nasri, lingvokulturologiya.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности концепта женщины в прозе Зульфия Куролбойовна. В ходе исследования освещается отражение образа женщины в тесной связи с национальными ценностями, традициями, ментальными представлениями и языковой картиной узбекского народа.*

***Ключевые слов:*** *концепт женщины, лингвокультурология, концепт, художественный текст, гендер, национальный менталитет, метафора, эмоционально-экспрессивные средства, узбекская проза, лингвокультурология.*

***Abstract.*** *This article analyzes the linguocultural features of the concept of woman in the prose of Zulfiya Qurolboy qizi. The study highlights the representation of the female image in close connection with national values, traditions, mental perceptions, and the linguistic worldview of the Uzbek people.*

***Key words:*** *concept of woman, linguoculturology, concept, literary text, gender, national mentality, metaphor, emotional-expressive means, Uzbek prose, linguocultural studies.*

Bugungi kunda tilshunoslikda antropotsentrik paradigma asosida olib borilayotgan tadqiqotlarda konsept masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, inson tafakkuri, madaniyati va ruhiy olamining tilda namoyon bo‘lishini o‘rganishga qaratilgan lingvokulturologik tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ayol konsepti ham til, tafakkur va madaniyat kesishgan nuqtadagi murakkab hodisa sifatida tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelmoqda.

O‘zbek badiiy adabiyotida ayol obrazi azaldan milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar, ma’naviy poklik va sabr timsoli sifatida tasvirlangan. Ayniqsa, Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol ruhiyati va uning jamiyatdagi o‘rni o‘ziga xos badiiy mahorat bilan yoritiladi. Adiba nasrida ayol obrazi orqali o‘zbek xalqining milliy mentaliteti, qadriyatlari hamda lingvomadaniy qarashlari aks etadi. Tilshunos olim V.A. Maslova konseptni “madaniyatning inson ongidagi aks etish shakli” sifatida izohlaydi Demak, ayol konseptini tahlil qilish orqali xalqning ayol haqidagi tasavvurlari, qadriyatlari va stereotiplari ham yuzaga chiqadi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganadigan fan sohasi bo‘lib, unda konsept markaziy birliklardan biri hisoblanadi. Yu.S. Stepanov konseptni “madaniyatning inson ongiga kirib kelish shakli” deb ta’riflaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ayol konsepti ham ma’lum bir millatning tarixiy, diniy va madaniy qarashlarini mujassamlashtiruvchi murakkab birlikdir.

O‘zbek xalqining lisoniy manzarasida ayol ko‘pincha mehribon ona, sadoqatli yor, oilaning tayanchi kabi ijobiy semantik maydonlarda namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ham yorqin aks etadi. Adiba ayol obrazini tasvirlashda milliy qadriyatlar bilan bog‘liq til birliklaridan unumli foydalanadi. Masalan, yozuvchi ayrim qahramonlarni tasvirlar ekan, “ko‘zlarida ming yillik sabr bor edi”, “ona kaftidek iliq”, “sindirilsada sinmagan ayol” kabi metaforik ifodalarni qo‘llaydi. Ushbu birliklar orqali ayolning nafaqat tashqi, balki ichki ma’naviy dunyosi ham ochib beriladi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept inson tafakkuridagi murakkab mental birlik sifatida talqin qilinadi. Ayol konsepti ham insonning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy stereotiplari asosida shakllanadigan ko‘p qatlamli konseptlardan biridir. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol obrazi nafaqat ijtimoiy subyekt, balki milliy tafakkur mahsuli sifatida gavdalanadi.

Adiba qahramonlari nutqida uchraydigan “sabr”, “ibo”, “mehr”, “andisha” kabi birliklar ayol konseptining yadro komponentlarini tashkil etadi. Mazkur tushunchalar o‘zbek xalqining mental xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ayol konsepti individual emas, balki kollektiv ong mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Sh. Safarovning ta’kidlashicha, konsept inson ongida shakllangan va til orqali voqelanuvchi murakkab bilim strukturasidir. Demak, ayol konsepti ham til birliklari vositasida madaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi vosita vazifasini bajaradi.

Badiiy matnda metafora obrazlilikni kuchaytiruvchi muhim vositalardan biridir. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazini yaratishda metaforik ifodalar faol qo‘llanadi. Ayniqsa, ayolning ruhiy kechinmalarini tasvirlashda tabiat hodisalari bilan bog‘liq metaforalardan unumli foydalaniladi. Masalan, “qalbida bo‘ron ko‘tarildi”, “ko‘zlarida muz eridi”, “umidi so‘ngan shamdek titrardi” kabi birliklar ayolning ichki ruhiy holatini emotsional-ekspressiv shaklda ifodalaydi. Ushbu metaforalar o‘quvchining estetik idrokiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy mentalitet har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlari va madaniy qarashlari asosida shakllanadi. O‘zbek mentalitetida ayol oilaning ma’naviy tayanchi, tarbiya maskani va mehr timsoli sifatida qadrlanadi. Bu jihatlar Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ham yorqin ifodasini topgan.

Adiba asarlarida ayolning sukuti ham ma’no tashuvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki sharqona madaniyatda ayolning kamgapligi, vazminligi va ibosi ijobiy sifat sifatida talqin qilinadi. Shu sababli yozuvchi qahramonlar ruhiyatini ko‘pincha ichki kechinmalar va sukut orqali ochib beradi.

Bundan tashqari, ayol obrazining ona timsolida tasvirlanishi ham milliy qadriyatlarning muhim ko‘rinishidir. “Ona mehri”, “ona duosi”, “ona qalbi” kabi birliklar o‘zbek xalqining konseptual dunyoqarashida muqaddas semantik maydonni hosil qiladi.

Tadqiqotchi D.S. Lixachev konseptlarni xalqning tarixiy xotirasi bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Shu jihatdan qaraganda, adiba asarlaridagi ayol obrazi o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy xotirasini ham aks ettiradi.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayol obrazining asosiy xususiyatlaridan biri— milliy qadriyatlarga sodiqlikdir. Adiba qahramonlari oilaparvarlik, andisha, ibo, mehr-oqibat kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi.

Masalan, ayrim hikoyalarda ona obrazi xonadonning ma’naviy ustuni sifatida gavdalanadi. Ona timsoli orqali sabr, fidoyilik va mehr konseptlari ham yuzaga chiqadi. Ayniqsa, “ona nigohi”, “ona duosi”, “ona mehri” kabi birikmalar o‘zbek madaniyatida muqaddas tushunchalar sifatida shakllangan. Darhaqiqat, adiba qo‘llagan til birliklari orqali o‘zbek xalqining ayolga bo‘lgan hurmati va estetik qarashlari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ayolning oiladagi mavqeini ifodalovchi “xonadon chirog‘i”, “ro‘zg‘or farishtasi”, “oqila ayol” kabi lingvomadaniy birliklar milliy mentalitetning mahsuli hisoblanadi.

Adiba nasrida ayol ruhiyatini ochib berishda emotsional-ekspressiv vositalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, epitet, metafora, taqqoslash va frazeologik birliklar qahramonlarning ruhiy holatini chuqur yoritishga xizmat qiladi. Masalan, “qalbi muzlagan ayol”, “dardi ko‘zlariga ko‘chgan edi”, “umidi singan yurak” kabi ifodalar ayolning ichki iztiroblarini kuchli emotsional bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Bu birliklar o‘quvchida ham kuchli psixologik ta’sir uyg‘otadi.

Lingvokulturologiyada emotsional birliklar milliy tafakkurning muhim komponenti sifatida qaraladi. Chunki har bir xalq o‘z hissiyotlarini ma’lum obraz va metaforalar orqali ifodalaydi. O‘zbek tilida ayolga nisbatan “mehribon”, “munis”, “oqila” kabi sifatlarning faol qo‘llanishi ham milliy qadriyatlar bilan bog‘liqdir.

Pragmatika til birliklarining nutq jarayonidagi ta’sirchanligi va kommunikativ vazifasini o‘rganuvchi tilshunoslik yo‘nalishidir. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol konsepti pragmatik jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Adiba ayol qahramonlar nutqini yaratishda ularning ijtimoiy mavqei, ruhiy holati va kommunikativ maqsadidan kelib chiqadi.

Yozuvchi asarlarida ayol nutqi ko‘pincha muloyimlik, vazminlik va emotsionallik bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, dialoglarda qo‘llangan undov birliklari, murojaat shakllari va emotsional-ekspressiv vositalar qahramon xarakterini ochishda muhim vazifa bajaradi. Masalan, “bolam”, “aylanay”, “jonim” kabi murojaat birliklari o‘zbek ayoliga xos mehr-muhabbat va samimiyatni ifodalaydi.

Shuningdek, adiba ayrim holatlarda sukut pragmatikasidan ham mahorat bilan foydalanadi. Qahramonning sukuti ba'zan uning iztirobi, noroziligi yoki ichki qarama-qarshiligini ifodalovchi kuchli psixologik vositaga aylanadi. Bu esa badiiy matnning ta'sirchanligini oshiradi.

Pragmatik jihatdan qaraganda, ayol konsepti o'zbek xalqining kommunikativ madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Sharqona muloqot odobida ayol nutqining yumshoqligi va hurmat ifodalovchi birliklarning faol qo'llanishi milliy mentalitetning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Zulfiya Qurolboy qizi ayol ruhiyatini ochishda ichki monologlardan ham samarali foydalanadi. Ichki nutq orqali qahramonning yashirin his-tuyg'ulari, ruhiy iztiroblari va hayotiy qarashlari namoyon bo'ladi. Natijada o'quvchi qahramonning ma'naviy olamiga chuqurroq kirib borish imkoniga ega bo'ladi.

Demak, adiba nasrida ayol konsepti nafaqat lingvomadaniy va psixologik, balki pragmatik jihatdan ham murakkab va serqatlam hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol konsepti murakkab lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Adiba asarlarida ayol obrazi milliy qadriyatlar, ma'naviy qarashlar va o'zbek xalqining mental xususiyatlari bilan uyg'un holda tasvirlangan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayol konsepti lingvomadaniy aspektda kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, ayol obrazining milliy mentalitet, metaforik tafakkur va emotsional-ekspressiv vositalar bilan bog'liq jihatlari ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida lingvokulturologik tahlil, konseptual tahlil, komponent tahlil hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida adiba asarlaridagi ayol konseptining semantik va madaniy qatlamlari aniqlashtirildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayol konsepti adiba nasrida mehr, sabr, sadoqat, fidoyilik kabi semantik maydonlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, metaforik va emotsional-ekspressiv vositalar ayol ruhiyatini ochib berishda muhim badiiy-estetik vazifa bajaradi. Mazkur tadqiqot o'zbek tilshunosligida ayol konseptining lingvomadaniy jihatlarini o'rganishda muhim ilmiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. — Moskva: Akademiya, 2001.
2. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. — Moskva, 1997.
3. Lixachev D.S. Kontseptosfera russkogo yazyka. — Moskva, 1993.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. — Toshkent: Fan, 2012.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Toshkent: Sangzor, 2006.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Zulfiya Qurolboy qizi. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Sharq, 2019.

**UO'K 821.512.133:141.336(093)**

## XORAZM EPIK SHE'RIYATIDA KUBRAVIYLIK, YASSAVIYLIK VA NAQSHBANDIYLIK TA'LIMOTLARINING YAXLIT MA'NAVIY-BADIIY TIZIMI

***U.K.Ametova, dots., f.f.f.d., O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent***
***Orcid: 0009-0006-3888-2303***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Xorazm epik she'riyatida Kubraviylik, Yassaviylik va Naqshbandiylik ta'limotlarining badiiy-estetik hamda g'oyaviy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Ushbu tasavvufiy tariqatlarning epik asarlarda aks etish shakllari, ularning qahramonlar ruhiyati, axloqiy fazilatlari va ma'naviy kamolotini ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Xorazm adabiy muhitida shakllangan epik an'analarning milliy-ma'naviy qadriyatlar va tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asosda yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Xorazm epik she'riyati, Kubraviylik, Yassaviylik, Naqshbandiylik, tasavvuf, tariqat, ma'naviy kamolot, badiiy tafakkur, epik an'ana, tasavvufiy ramzlar, poetik tizim, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy-badiiy tizim, Xorazm adabiy muhiti.*

***Аннотация****. В данной статье анализируются художественно-эстетические и идеологически-философские основы учений кубравизма, яссавизма и накшбандизма в эпической поэзии Хорезма. Подчеркиваются формы отражения этих мистических порядков в эпических произведениях, их роль в выражении психики, нравственных качеств и духовного*

*совершенства героев. Также научно освещается неразрывная связь эпических традиций, сформировавшихся в литературной среде Хорезма, с национально-духовными ценностями и философией суфизма.*

***Ключевые слова**: хорезмская эпическая поэзия, кубравизм, яссавизм, накшбандизм, суфизм, порядок, духовное совершенство, художественная мысль, эпическая традиция, мистические символы, поэтическая система, нравственные ценности, духовно-художественная система, хорезмская литературная среда.*

***Abstract**. This article analyzes the artistic-aesthetic and ideological-philosophical foundations of the teachings of Kubravism, Yassawism and Naqshbandism in the epic poetry of Khorezm. The forms of reflection of these mystical orders in epic works, their role in expressing the psyche, moral qualities and spiritual perfection of heroes are highlighted. Also, the inextricable connection of the epic traditions formed in the literary environment of Khorezm with national-spiritual values and the philosophy of Sufism is scientifically highlighted.*

***Key words**: Khorezm epic poetry, Kubravism, Yassawism, Naqshbandism, Sufism, order, spiritual perfection, artistic thought, epic tradition, mystical symbols, poetic system, moral values, spiritual-artistic system, Khorezm literary environment.*

**Kirish**. Sharq diniy-irfoniy tafakkuri va uning real adabiy proeksiyasini, ya'ni hayotda sodir bo'layotgan voqelik, biror-bir tariqat asoschisi yoki tarixiy shaxs, muayyan tasavvufiy ta'limot yoki asar muallifining ichki ruhiy holatining adabiy-badiiy matnga ko'chishi, badiiy matnda obrazlarda, syujetda aks etishi va qayta ishlanishi jarayonini tadqiq etishda tariqatlar aro hududiy chegaralarni qat'iylashtirish, ya'ni kubraviylik, yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlarini bir-biridan ajratilgan, mustaqil va hatto mahalliy hududlargagina xos maktablar sifatida o'rganish tendensiyasi ustunlik qilib kelmoqda. Ammo biz XII–XIX asrlar Xorazm adabiy muhitiga, xususan, uning ulkan epik she'riyatiga nisbatan bunday tendensiyani qo'llay olmaymiz. Chunki Qul Ali, Nosiriddin Rabg'uziy, Husam Kotib, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi, Payvandiy Rizoiy, Muhammadniyoz Nishotiy, Ogahiy va boshqa ko'plab shoirlar ijodi bu davr va hududda kubraviylik, yassaviylik va naqshbandiylik va malomatiylik tariqatlariga xos bo'lgan qarashlar, falsafiy-ruhiy amaliyotlar va tasavvufiy ramzlar, ilohiy go'zallik tushunchalarining badiiy adabiyotda bir-biri bilan o'zaro qo'shilib, yangi, yaxlit bir tizim hosil qilishini ko'rsatadi.

Xorazm epik she'riyati shunchaki ilohiy ishqni kuylovchi masnaviylar yoki to'rtliklar jamlanmasi emas, balki kubraviylik tariqatining ruhiy-psixologik tajriba, yassaviylik tariqatining faqirlik-zuhd va xalqchillik an'anasi hamda naqshbandiylik tariqatining ijtimoiy-ma'naviy hayot va xalq ichidagi kamolot dasturi bo'lmish mashhur "Xilvat dar anjuman" tamoyilini yaxlit umumiy badiiy tizimga birlashtirgan poetik makondir.

**Asosiy qism**. Xorazm mintaqasi tarixan shayx Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik tariqatining beshigi hisoblanadi. Kubraviylik ta'limotining asosida sayri-sulukdagi solikning ruhiy holatlarini va evrilishlarini nur va ranglar silsilasi orqali idrok etish uslubi turadi. Kubraviylik ta'limotining nazariy qarashlari ancha murakkab, oddiy o'quvchi tushunishi uchun maxsus tayyorgarlik, tasavvufiy bilim kerak. Najmiddin Kubro yaratgan risolalarning nainki tili va uslubi, hatto undagi tasavvufiy holatlarni ifodalovchi ramzlar ham murakkab. Shu boisdan Uning risolalariga sharhlar yozilgan.

XII-XIV asrlarda Xorazmda yaratilgan lirik adabiyotda, dostonlar va nasriy asarlarda u o'zining falsafiy-tasavvufiy mazmun mohiyatini saqlab qoldi. Ayni shu davrlarda ijod qilingan Pahlavon Mahmud ruboiylari, Husam Kotibning agiografik mazmundagi "Jumjuma sulton", Islom Xo'janing islom huquqi va tasavvuf masalalariga bag'ishlangan ilk turkiy dostonlardan biri bo'lgan "Muin al-murid" dostonlari, Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisas al-Rabg'uziy", Mahmud Kardariyning "Nahj-ul farodis" kabi nasriy asarlarida yuqoridagi masalalar tasavvufiy mazmun kasb etadi. Biroq bu uslub bora-bora murakkab falsafiy-nazariy ta'limotdan badiiy ijodga ham ko'cha bordi. XV-XVIII asrlarga kelib bu murakkab falsafiy-nazariy tizim doston syujetiga ko'char ekan, endi u sof nazariy aqidaligicha qolmaydi. Qutbning "Xusrav va Shirin" yoki Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" dostonlari qahramonlari oddiy majoziy sevgidan haqiqiy ishqqa o'tar ekan, ularning

ruhiy evrilishlari Najmiddin Kubro belgilagan ruhiy bosqichlarga aniq muvofiq keladi. Dostonlar syujet voqealari davomida qahramon, ya'ni oshiq oddiy insoniy tuyg'ulardan kechib, ma'naviy kamolotning, ishqi haqiqiyning shunday bir pallasiga yetishadiki, endi bu qahramon mutlaqo boshqa dunyoqarashga ega bo'lgan "yangi bir shaxs" sifatida namoyon bo'ladi. Bunda shoirlar ilohiy ishqni nazariy qoidalar bilan emas badiiy bo'yoqdorlik orqali o'quvchi shuuriga singdiradi.

Xorazm shoirlari kubraviylikning murakkab falsafiy va psixologik muammolarini yassaviyona soddalik, xalqona ohang va epik syujet qolipiga soladi, chunki yassaviylik amaliyoti asrlar davomida dostonchilik an'analariga, qissaxonlikka yaqin bo'lgan. Yassaviy asarlarining tili va uslubi sodda, ramzlar esa xalqona. Shu boisdan XVI asr adabiyotiga kelib epik syujetda doston qahramonining safarlari, tog'lardan oshib o'tishdagi mashaqqatlar va sahrolardagi uzlatnishinlikda yassaviyona qalandarlik hamda kubraviyona ruhiy sayohat motivlarining qorishiq holda kelishini ko'rish mumkin.

Naqshbandiylik ta'limotining asosiy qoidalaridan biri bo'lgan "Xilvat dar anjuman" (Zohiran xalq ichida bo'lib, ko'ngilni Alloh yodi bilan band etish) tamoyili bu shunchaki so'fiyona hayot tarzi yoki ruhiy holat bo'lib qolmay, mumtoz adabiyotimiz, xususan, Xorazm epik she'riyatining kompozitsion qurilishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Tasavvufiy qarashga ko'ra anjuman – bu tashqi dunyo, zohiriy harakatdir. Xilvat esa – ichki dunyo, botiniy sukutdir. Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" hamda Payvandiy Rizoiyning "Qush tili" dostonlarida ushbu tamoyil asarning syujet chiziqlari, makon va zamon munosabatlari hamda obrazlar tizimining muvozanatini belgilovchi bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

Xorazm epik she'riyati ushbu ikki konsepsiyani asar tarkibiga shunday joylashtiradiki, natijada dostonning syujet qurilishi doimiy ravishda zohiriy harakatdan botiniy sukutga tomon harakatlanib boradi.

Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" dostoni allegorik-ishqiy doston bo'lib, asar qurilishi inson vujudi va ruhiyatining xaritasini eslatadi. Undagi joy nomlari (Badan, Diydor kabi shaharlar) inson vujudining tashqi a'zolari bo'lsa, insonlarga berilgan ismlar (Aql, Nafsbonu, Fuod, Ishq, Husn, Nazar) esa inson botinidagi mavhum holatlarni ifodalaydi. Asardagi voqealar harakatlanadigan makonlar:*Yunon viloyati, Ofiyat qal'asi, Diydor shaharlari* aslida inson ichki olamining zohiriy olamga ko'chishidir.

Asar boshida Fuodning podshoh Aqlning xonadonida tug'ilishi, Yunon viloyatining Badan shahrida yashashi bu Fuod hayotining "anjuman" holati bo'lsa, Diyda qasrida "chashmayi hayvon"dan xabar topib u tomon harakatlanishi esa "Xilvat" holatini ifodalaydi. Voqealar rivoji davomida Fuod tashqi muhitdan uzoqlashib, hayot suvini izlashga tushadi. Bu real hayotdagi safar emas, ayni kubraviylikdagi ruhiy safar va uning safar mobaynida Raqib, Vahm kabi to'siqlardan o'tib borishidagi mashaqqatlari kubraviylik tariqatining murakkab falsafiy-nazariy holatlarining badiiy adabiyotdagi in'ikosidir. Fuod ijtimoiy hayotda xalq bilan yashasada, safari mobaynida tashqi janglar, sarguzashtlar ko'paymasada, har bir bob oxirida qahramon o'z iqrori va xohishi bilan botiniy sukunatga, ya'ni xilvatga qaytadi, qalban faqat Husn tomon intiladi. Bu naqshbandiylikdagi biz yuqorida izohlaganimiz "Xilvat dar anjuman" holatining poetik akslanishidir.

Rizoiyning "Qush tili" dostoni ham bevosita "anjuman" tasviri bilan boshlanadi. Doston muqaddimasida dunyodagi barcha qushlar (qushlar aslida insonlar timsoli) yig'ilib, o'zlariga adolatli bir podshoh izlab topishga qaror qiladilar. Bu podshoh an'anaviy Simurg' qushi. Simurg' esa Haq timsolidir.

Allohga eltuvchi yo'llar izohlangandan keyin Hudhud "o'n to'sha"ning sharhiga o'tadi. Bu o'n to'sha kubraviylik tariqatining yetakchi nazariy asoslari bo'lgan "usul al-ashara"ning badiiy sharhidir.

Xorazm epik she'riyati matn ma'nolarini sharhlash nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, kubraviylik tariqatining terminlari (tavba, zikr, latifayi qalb, ranglar badiiyati) bilan naqshbandiylik ta'limotining istilohlari (*yodkard, bozgasht, nigoh dosht, yod dosht*) hamda Ahmad Yassaviyning falsafiy lirikasi bir bayt yoki bir fasl doirasida birlashib ketadi. Bunday birlashish holatini Rizoiyning "Qush tili" dostonida "To'shayi avval" bobida tavba usuli sharhida kuzatamiz. Shoir tavbaning

nazariy asoslarini tushuntirishda kubraviylikka, amaliy asoslarini ko‘rsatishda esa yassaviylkka tayanadi:

*Ikki olam bandangdurman, G‘afforimsan,*
*Shayton lain yo’ldin ursa, g‘amxorimsan.*
*Yerga sig‘mas gunoh qildim, Sattorimsan,*
*Gunohimdin sanga yig‘lab keldim mano.*

Yassaviyning ushbu hikmatida tavbaning amaliy harakatlarini ko‘ramiz. Rizoiy tavbaning amaliyotini o‘z asarida “Hikoyati Nasuh” hikoyati bilan izohlaydi:

*Nechakim, man jofiyu badkorman,*
*Sen yuz oncha G‘ofuri Sattorsan.*
*Ey G‘afur, izhor etib g‘afforliq,*
*Qil manga lutfung bila sattorliq.*
*Saqlasang sattorliq birla mani,*
*Tavba qildim neki bor nokardani.*

Ahmad Yassaviy va Rizoiy ijodidagi ushbu misralarda tasavvuf ta’limotining dastlabki asosi bo‘lmish tavba maqomi badiiy va irfoniy talqin qilingan. Har ikki ijodkor ham gunohkor bandaning Alloh taoloning gunohlarni kechiriuvchi G‘affor va ayblarni berkituvchi Sattor sifatlariga tayanib, Unga yuzlanish holatini yuksak badiiylik bilan ifoda etgan. Ayni shu o‘rinda yassaviylik an’analarining ham Rizoiy dostoni syujetiga ko‘chganini ko‘rish mumkin.

**Xulosa**. Xorazm epik she’riyatida kubraviylik, yassaviylik va naqshbandiylik an’analari shunchaki shartli ravishda qorishtirilmagan, ular asarda strukturaviy-funktsional vazifalarni bo‘lishib olib, yagona badiiy g‘oyani hosil qilgan. Kubraviylik ta’limoti tushunchalari dostonlarning botiniy-psixologik, nazariy poydevorini ta’minlagan, yassaviylik ta’limoti g‘oyalari dostonlarning xalqona-miliy xarakterini shakllantirgan hamda naqshbandiylik ta’limoti epik syujet yakunini dunyodan tom ma’noda uzilish, mutlaq uzlat bilan emas, balki hayotiy-ijtimoiy muvozanat va amaliy axloq tantanasi bilan yakunlashga xizmat qilgan. Aynan shu uchlik qorishuvi tufayli Xorazm epik she’riyati islom dunyosining boshqa mintaqalaridagi sof falsafiy-didaktik dostonlardan ajralib turib, o‘zining hayotiyligi, katta badiiy qurilishi va ko‘povozlilik xususiyati bilan O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak cho‘qqisiga aylandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Тасаввуфий ҳаёт. 2005. И.Ҳаққулов ва А.Бектош тарж. 261 Т.: Мовароуннаҳр.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. 2004. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). Nashrga tayyorlovchi Nodirxon Hasan. 83. T.: Movarounnahr.
3. Муҳаммадниёз Нишотий. 1967. Ҳусн ва Дил. 375. Т.: Адабиёт ва санъат.
4. Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. 2009. Қуш тили. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ш.Ҳасанова. 369. Т.: Tezkor-Press Print.
5. Ҳасанова, Шафоат. 2015. “Тўтинома” типидаги асарларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. 137. Т.: MUMTOZ SO‘Z.
6. Ҳасанова, Шафоат. 2006. Мавлоно Хожи Қози Пайвандий Ризоийнинг “Қуш тили” достони ва унинг қиёсий-текстологик тадқиқи. 104. Т.: ЎзР ФА Давлат адабиёт музейи.

**UO’K 81-2; 811.512.133; 811.512.161; 398.9**

## O‘ZBEK VA TURK XALQ MAQOLLARIDA HAYVON OBRAZLARINING SEMANTIK VA TARBIYAVIY FUNKSIYALARI

***Sh.S.Atajonova, tayanch doktorant, Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek va turk xalq maqollarida uchraydigan hayvon obrazlari, ularning ramziy ma’nosi hamda xalq dunyoqarashi va mentalitetini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki xalq folklorida eng ko‘p uchraydigan hayvon obrazlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *xalq maqollari, folklor, hayvon obrazlari, ramziy ma’no, o‘zbek va turk folklori, qiyosiy tahlil.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются образы животных в узбекских и турецких народных пословицах, их символическое значение, а также роль в выражении народного*

*мировоззрения и менталитета. В ходе исследования проводится сравнительный анализ наиболее часто встречающихся образов животных в фольклоре двух народов, выявляются их сходства и различия.*

***Ключевые слова:*** *народные пословицы, фольклор, образы животных, символическое значение, узбекский и турецкий фольклор, сравнительный анализ*

***Abstract.*** *This article analyzes animal motifs in uzbek and turkish folk proverbs, their symbolic meanings, and their role in reflecting the worldview and mentality of the people. The study conducts a comparative analysis of the most frequently occurring animal motifs in the folklore of both nations, highlighting their similarities and differences.*

***Key words:*** *folk proverbs, folklore, animal motifs, symbolic meaning, uzbek and turkish folklore, comparative analysis*

**Kirish.** Xalq og‘zaki ijodi har bir millatning ma’naviy boyligini aks ettiruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Folklorning eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lgan maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi.

Maqollar madaniyatning og‘zaki tarzda avloddan avlodga o‘tib keluvchi muhim tashuvchilaridan biridir. O‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va majoziy ma’noda “barmoq izi” deb atash mumkin bo‘lgan maqollar haqida bugungi kungacha ko‘plab ta’riflar berilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, maqollar bo‘yicha olib borgan qimmatli tadqiqotlari bilan tanilgan Ö.A.Aksoy esa maqol haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Maqol — ajdodlarimizning uzoq yillar davomida to‘plagan tajribalariga asoslangan hukmlarini umumiy qoida, dono fikr yoki nasihat tarzida ifodalovchi, shaklan barqarorlashgan qisqa va mazmunli hikmatli so‘zlardir”(1. 140-b.).

Xalq maqollari xalqning ko‘p asrlik tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan qisqa va mazmunli hikmatli so‘zlardir. O‘zbek va turk xalqlari turkiy xalqlar bo‘lgani sababli ularning folklorida ko‘plab umumiy jihatlar mavjud.

Xalq maqollari xalq tajribasining ixcham shakli bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy me’yorlari, ijtimoiy munosabatlarga doir tasavvurlari hamda muloqot strategiyalari aks etadi. Shu tizimda hayvon obrazlari alohida o‘rin tutadi: ular bir tomondan, kundalik turmush, mehnat va tabiat bilan uzviy bog‘liq real tajribadan oziqlansa, ikkinchi tomondan, inson xarakteri va xulq-atvoriga oid baholovchi stereotiplarni ramziy shaklda mujassamlaydi.

O‘zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgani uchun paremiologik fonda umumiy qatlamning mavjudligi kutiladi, biroq tarixiy-iqtisodiy sharoit, mintaqaviy hayot tarzi va madaniy sharoitlar ta’sirida ayrim obrazlar turlicha baholanishi yoki vazifasiga ko‘ra farqlanishi mumkin. Ilmiy muammo shundan iboratki, mavjud tadqiqotlarda, ko‘pincha, maqollardagi hayvon nomlari umumiy ramz sifatida sanab o‘tiladi, ammo ularning ma’nolari, vazifalari va qiyosiy jihatdan milliy xoslikni belgilovchi jihatlari izchil tizimlashtirilmaydi.

Shuningdek, turkiy tillar qiyosida hayvon obrazlarining umumiyligi va o‘ziga xosligi o‘rtasidagi chegaralar, ko‘pincha, yetarli darajada asoslanmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va turk xalq maqollaridagi hayvon obrazlarini qiyosiy tahlil qilib, ular orqali yuzaga keladigan o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi. Birinchidan, har ikki paremiologik fondan hayvon nomlari qatnashgan maqollarni jamlash va ularni mavzuiy-semantik maydonlarga ajratish; ikkinchidan, o‘xshash va farqli obrazlar asosida umumiy hamda milliy qatlamlarni ta’riflash.

Hayvonlar insoniyat hayotida qadimdan muhim o‘rin tutgan. Inson tabiat bilan uzviy aloqada yashaganligi sababli hayvonlarning xatti-harakatlari, xarakteri va tabiati xalq tafakkurida ramziy ma’no kasb etgan. Xususan, xalq maqollarida hayvon obrazlari inson xususiyatlarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, ayyorlik tulki orqali, kuch va tajovuzkorlik bo‘ri orqali, sodiqlik it orqali, sabrsizlik yoki ahmoqlik esa eshak orqali ifodalanadi. Bu obrazlar orqali xalq o‘zining hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini qisqa, lekin ta’sirchan shaklda yetkazadi.

Tulki obrazi turkiy xalqlar folklorida eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biridir. U, ko‘pincha, ayyorlik, makkorlik va hiyla timsoli sifatida tasvirlanadi. Masalan:

Tulki tulkiligini qilguncha, terisi qo‘ldan-qo‘lga o‘tadi”[2. 339-b.] — “Tilki tilkiliğini bildirinceye kadar post elden gider” (Tulki o‘z tulkiligi(hiyla-nayrang)ini ko‘rsatguncha terisi qo‘ldan ketadi)[3. 449-b.]. Mazkur maqollar ayyorlik va hiyla-makrning oqibatlarini ogohlantirish vositasi sifatida tulki timsoli orqali ifodalangan. Yoki:

“Tulki tulki bilan mo‘ynado‘zning do‘konida uchrashadi”, “Tozining bu kelishi bor, tulkini po‘stin bozoridan top”[3. 339-b.] maqollarida ham mug‘ombir, ayyor shaxslar qanchalik uddaburonlik bilan, ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rmasinlar, bir kunmas-bir kun qo‘lga tushib, o‘z jazolarini olishlari ta’kidlangan. Bu maqollarning turkcha ekvivalenti ham mavjud: “Tilkinin dönüp (gezip, dolaşıp) geleceği yer, kürkçü dükkânıdır” (Tulki aylana-aylanib oxir-oqibat yetadigan joy — mo‘yna sotuvchi do‘koni)[3. 448-b.]. Mazkur maqollar mazmunan deyarli bir xil bo‘lib, insonning tabiati vaqt o‘tishi bilan ham o‘zgarmasligi mumkinligini bildiradi. Bu o‘xshashlik turkiy xalqlarning folklor an’analarida umumiylik mavjudligini ko‘rsatadi.

“Tulki o‘z quyrug‘in maqtar”[2. 339-b.]. Maqol majoziy ma’noda o‘zining arzimagan narsasi bilan hamma joyda maqtanib yuradigan insonlarga istehzo tarzida aytilgan. Tulki obrazi orqali maqtanchoqlik illati aks ettirilgan. Demak, tulki obrazi folklorda aqlli, hiyla-nayrangli shaxs timsoli sifatida tasvirlanadi.

Bo‘ri obrazi turkiy xalqlar madaniyatida muhim o‘rin egallaydi. Bu obraz o‘zbek mifologiyasining rivojida ham alohida ahamiyatga ega. Ya’ni bo‘ri homiy ekanligi aks etuvchi mifologik afsonalar ham mavjud. Afsonaga ko‘ra, Ashina urug‘ining vujudga kelishiga bo‘ri sababchi ekanligi aytiladi[4. 120-b.].

Ayrim mifologik tadqiqotlarga ko‘ra, bo‘ri ba’zan kuch, jasorat va erkinlik timsoli sifatida talqin qilingan. Masalan, birov safarga otlansa, oldidan bo‘ri chiqsa yoki bo‘ri ko‘rsa, savdo yo‘li ochiladi, ishlar o‘ngariladi, deb irim qiladilar. Tulki ko‘rsa, buning aksi bo‘lishiga ishonganlar[5. 23-b.]. Ba’zan esa bo‘riga xavf va yovuzlik belgisi sifatida qaraladi. Bugungi kunda, asosan, bo‘ri obrazi yovuzlik timsoliga aylangan.

O‘zbek maqollarida: “Bo‘ri qarisa ham bir qo‘y olar kuchi bor”[2. 65-b.]. Bu maqol shuni anglatadiki, tajribali yoki ilgari kuchli bo‘lgan inson yoshi ulg‘aygan taqdirda ham o‘zining ma’lum darajadagi qobiliyati va tajribasini saqlab qoladi. Ya’ni u avvalgidek kuchli bo‘lmasa ham, hali ham biror ishni bajarishga qodir bo‘ladi.

Turk maqollarida ham yuqoridagi maqolning muqobilini uchratish mumkin:

“Kurt yaşlansa da koyuna göz diker” (Bo‘ri qarisa ham qo‘yga ko‘z tikar)[3.378-b.].

Demak, keltirilgan maqollarda insonning yomon odatlari yoki niyatlari yoshi o‘tganidan keyin ham o‘zgarmasligi ta’kidlanadi. Bo‘ri obrazi bu yerda tajovuzkorlik va xavf ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Yoki:

“Bo‘rini bo‘riligi uchun emas, qo‘yni yeganligi uchun o‘ldiradilar”[2. 64-b.]. Maqolning ma’joziy ma’nosi: Odamni shunchaki odamligi uchun emas, balki, kishilarga ziyon-zahmat yetkazgani, zolim bo‘lgani uchun jazolaydilar. Maqol xalqning adolat haqidagi qarashlarini ifodalaydi.

“Bo‘ri yo‘q dema — bo‘rk ostida, yov yo‘q dema — jar ostida”[2. 64-b.]. Mazkur maqolda bo‘ri obrazi ramziy ma’noda xavf va tahdidni ifodalaydi. Maqol xalqning hayotiy tajribasidan kelib chiqib, insonni ehtiyotkorlikka va hushyorlikka chaqiradi. Bu orqali xalq donishmandligi va turmush tajribasi badiiy obraz orqali ifodalangan. Turkcha:

“Kurt dumanlı havayı sever” (Bo‘ri tumanli havoni yaxshi ko‘radi)[3. 68-b.]. Mazkur maqolda bo‘ri obrazi orqali ayyor va manfaatparast insonlar tasvirlanadi. Tumanli havo esa ijtimoiy yoki hayotiy noaniqlikni anglatadi. Maqol shuni bildiradiki, salbiy niyatdagi insonlar aynan shunday vaziyatlardan foydalanishga harakat qiladi.

“Kurtla görüşürsen köpeğini yanından ayırma” (Agar bo‘ri bilan uchrashsang, itingni yoningdan ayirma) [3. 64-b.]. Mazkur maqolda bo‘ri obrazi xavf va tajovuzkorlik ramzi sifatida qo‘llanadi. It obrazi esa himoya va sodiqlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Maqol insonni ehtiyotkorlikka, ayniqsa, xavfli shaxslar bilan munosabatda bo‘lganda o‘zini himoya qilishga tayyor turishga chaqiradi.

Demak, tadqiq etilgan maqollardan ko‘rinib turibdiki, bo‘ri obrazi turli vaziyatlarda insonning tabiati va ijtimoiy xulqini ifodalash uchun ishlatiladi.

Eshak obrazi har ikki tilda ham, ko‘pincha, past baho, qo‘pol kuch, fahmsizlik yoki maqom nomutanosibligini ko‘rsatadi, biroq o‘zbek maqollarida u tanbeh va masxara yo‘nalishida keskinroq ishlatilishi, turk maqollarida esa ko‘proq “mezonni bilish” va “haddini bilish” didaktikasiga bog‘lanishi aniqlandi. Shu bilan birga, eshak obrazi soddalik, sabr timsoli sifatida ham ishlatiladi [6. 320-b.]. Masalan:

“Eshakni yukka olib kel, yoki yukni eshakka” [7. 207-b.]. Mazkur maqol ishni qanday bo‘lmasin bajarish uchun mos yo‘l topish kerak degan fikrni bildiradi. Ya’ni biror ishni sabr bilan, uddaburonlik bilan qilish kerakligini ta’kidlaydi.

“Eshak baxshi bo‘lmas, yomon yaxshi bo‘lmas”[8. 445-b.] maqoli o‘zbek xalq donishmandligini ifodalaydi va unda insonning tabiati va fe’l-atvori osonlik bilan o‘zgarmasligi haqida fikr bildiriladi. Yomon xulqli yoki buzuq odamni yaxshi odamga aylantirish qiyin. Ya’ni eshak obrazi – nodonlik yoki iste’dodsizlik ramzi. Maqolda u insonning salbiy xarakterini ko‘rsatish uchun metafora sifatida ishlatilgan.

“Eshak eshakdan qolsa, qulog‘ini kesadi”[8. 446-b.]. Maqolda nodon yoki yomon odamlar bir-biridan ham yomonroq ish qilishga urinishi haqida aytiladi. Bu yerda eshak obrazi – nodonlik, past aql yoki qaysarlik timsoli sifatida gavdalangan. Maqolda giperbola (bo‘rttirish) usuli ishlatilgan — qulog‘ini kesish orqali ahmoqlikning chegarasizligi ko‘rsatiladi. Bu maqol ijtimoiy tanqid va kinoya xarakteriga ega.

Turkcha “Eşeğe altın semer vursalar yine eşektir” (Eshakka oltin egar qo‘ysalar ham, baribir eshak)[3. 272-b.] maqolida esa tashqi bezak yoki boylik insonning asl tabiatini o‘zgartirmaydi, degan qarash mavjud. Bu maqolda: Eshak obrazi – nodonlik yoki qobiliyatsizlik timsoli;

Oltin egar – tashqi boylik yoki sun’iy bezak ramzi.

Maqol orqali insonning asl mohiyati tashqi o‘zgarish bilan o‘zgarmasligi g‘oyasi ifodalanadi.

“Eşeğin gönlüne kalsa bir bağ maydanozu götürmez” (Eshakning o‘z ixtiyoriga qolsa, bir bog‘ maydanozni ham olib bormaydi) [3. 273-b.]. Ba’zi odamlar ish qilishni xohlamaydi, majbur bo‘lmasa, hatto, eng kichik ishni ham qilmaydi. Bu maqolda:

Eshak obrazi – dangasalik yoki ishlashni istamaslik ramzi;

Maydanoz bog‘i – juda kichik yoki yengil ishni bildiruvchi obraz.

Maqol orqali insonning mehnatga munosabati kinoya orqali ifodalanadi.

“Eşeğini sağlam bağla, sonra Allah’a ısmarla” (Avval eshagingni mahkam bog‘la, keyin Allohga tavakkal qil) [3. 273-b.] maqolida inson, avvalo, o‘z ehtiyot choralarini ko‘rishi kerak, keyin tavakkal qilishi mumkin, har bir ishda mas’uliyat va ehtiyotkorlik zarur, degan fikr ilgari surilgan. Bu maqolda eshak obrazi – kundalik hayotdagi mol-mulk yoki boylik timsoli bo‘lib kelgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va turk maqollarida eshak obrazi semantik jihatdan juda yaqin ma’nolarda, ya’ni nodonlik, qaysarlik, boylik, dangasalik yoki qobiliyatsizlik kabi salbiy xususiyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Har ikkala xalq maqollarida eshak obrazi, asosan, kinoya, istehzo va ramziy ma’no orqali inson xulq-atvorini baholash vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek va turk xalq maqollarida qo‘llanuvchi obrazlardan biri – it obrazidir. It obrazi xalq maqollarida turli ma’nolarda qo‘llanadi. Ba’zi hollarda u sodiqlik timsoli bo‘lsa, boshqa hollarda pastkashlik yoki g‘iybatchilik ramzi sifatida ishlatiladi.

“It hurar, karvon o‘tar”[2.143-b.] – “İt ürür, kervan yürür”(It urar, karvon o‘z yo‘lida davom etadi)[3.335-b.] maqollarida ba’zi odamlar shovqin solishi, gap-so‘z qilishi yoki tanqid qilishi mumkinligi, lekin ular ishning natijasiga ta’sir qilolmasligi ta’kidlanmoqda. Maqolda it obrazi – shovqin soluvchi, tanqid qiluvchi yoki befoyda fikr bildiruvchi odam timsoli.

“İt itin ayağına (kuyruğuna) basmaz” (It boshqa itning oyog‘iga yoki dumiga zarar yetkazmaydi) [3.335-b]. Mazkur maqolda insonlar yoki odamlar o‘z jamoasi yoki o‘z ichidagi do‘stlari, oila a’zolari bilan odobli muomalada bo‘lishi kerak. Ba’zan bu maqol adolat, tartib va jamoaviy hurmatni ta’kidlaydi. Bu yerda it obrazi sadoqat va me’yorni anglatadi.

“It egasiga hurimas” [2.142-b.] – “Köpek sahibini tanır”(It o‘z egasini tanir)[3.335b].

Keltirilgan maqollarda sadoqatlilik, fidoyilik tushunchalari aks etgan. Shunday ekan, o‘zbek va turk xalq maqollarida it obrazi ikki qirrali ma’noga ega. Bir tomondan, u shovqin soluvchi, bezovta qiluvchi, pastlik yoki tanqid qiluvchi sifatida salbiy xususiyatlarni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, it sadoqat, fidoyilik va egasini tanish timsoli sifatida ijobiy ma’noda ishlatiladi.

**Xulosa.** O‘zbek va turk xalq maqollarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalq folklorida hayvon obrazlari juda muhim badiiy vosita sifatida qo‘llanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

—Ko‘plab maqollar mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin yoki deyarli bir xil;

—Hayvon obrazlari, ko‘pincha, bir xil ramziy ma’noda qo‘llanadi;

—Bu o‘xshashliklar turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy yaqinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim maqollar milliy turmush tarziga va tarixiy sharoitga bog‘liq holda farqlanishi ham mumkin.

O‘zbek va turk xalq maqollarida hayvon obrazlari xalq tafakkuri va dunyoqarashining muhim ifodasi hisoblanadi. Ular orqali inson fe’l-atvori, ijtimoiy munosabatlar hamda axloqiy qadriyatlar ramziy shaklda ifodalanadi. Shu tariqa, hayvon obrazlari xalq maqollarida inson xulqini baholash, tarbiyaviy saboq berish va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatish uchun muhim vosita hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Aksoy Ö.A. Atasözleri, deyimler. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten.1962.480 s.
2. Shomaqsudov Sh, Shorahmetov Sh. Ma’nolar mahzani. Toshkent: 2001. 448 b.
3. Aksoy Ö.A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkılap, 1988. 487 s.
4. Бичурин Н.Я. Собрания сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т.1. М, 1950. С.382
5. Jo‘rayev M, O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. Toshkent. 2019. 555 b.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek xalq maqollari: izohli to‘plam. Toshkent, O‘qituvchi, 1990.320 b.
7. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent. Sharq.2005. 257-b.
8. Shomaqsudov Sh, Shorahmetov Sh. Hikmatnoma/O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent. 1990. 527-b.

**UO’K 81'255.2:398.21**

## INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA OBRAZLARNI TASVIRLASHDA O‘XSHATISH VA METAFORADAN FOYDALANISH

***N.O.Azizova, o‘qituvchi, Termiz davlat universiteti, Termiz***

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek xalq ertaklari matnida foydalaniladigan badiiy tasvir vositalari bo‘lmish metafora va o‘xshatishlar haqidadir. Maqolada metafora va o‘xshatishlarning xalq adabiyotida tutgan o‘rni, milli-madaniy dunyoqarashni aks ettirishdagi vazifasi haqida so‘z boradi. Maqolada ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridan olingan metafora va o‘xshatish tarkibli gaplar misol qilib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *ingliz xalq ertaklari, o‘zbek xalq ertaklari, o‘xshatish, metafora, badiiy tasvir vositalari.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается использование образных средств языка, в частности метафор и сравнений, в английских и узбекских народных сказках. Анализируется роль метафор и сравнений в фольклорной литературе, а также их функция в отражении национальной и культурной картины мира. В статье также приводятся примеры метафорических и сравнительных выражений, заимствованных из английских и узбекских народных сказок, раскрывающие их языковое и культурное значение.*

***Ключевые слова:*** *английские народные сказки, узбекские народные сказки, сравнение, метафора, образные средства языка, культурная картина мира.*

***Annotation:*** *This article examines the use of figurative devices, namely metaphors and similes, in English and Uzbek folk tales. It discusses the role of metaphors and similes in folk literature and their function in reflecting the national and cultural worldview. The article also provides examples of metaphorical and simile-based expressions drawn from English and Uzbek folk tales.*

***Key words:*** *English folk tales, Uzbek folk tales, simile, metaphor, figurative devices.*

Xalq ertaklari har bir xalqning so‘z san’atini nomoyon etuvchi go‘zal namuna sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalq ertaklari “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir och ekan bir to‘q ekan…” deb boshlanib, “murod-maqsadiga yetibdi” kabi jumlalar bilan yakunlansa, ingliz xalq ertaklarida “Once upon a time” jumlasi bilan boshlanib, ertaklar oxiri o‘zbek xalq ertaklaridan farqli o‘laroq ba’zan ijobiy ba’zan salbiy voqealar bilan yakunlanadi. Ertaklarda o‘xshatish, mubolag‘a, sifatlash juda keng qo‘llanilganligi sababli, ular xalqning og‘zaki boyligini, qadriyatlar namunasini chin ma’noda ochib bera oladi. Misol tariqasida o‘zbek xalq ertaklarida qizlar o‘n to‘rt kunlik oyga, yigitlar tog‘ni ursa talqon qilgudek kuchga ega, mard sifatida tasvirlanadi[1].

Metafora tushunchasi o‘zbek tilshunosligida ham adabiyotshunosligida ham ilmiy izlanuvchilarni qiziqtirgan mavzu bo‘lib kelmoqda. Metafora predmetlar orasidagi umumiy o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chish hodisasidir. Tilshunoslar va adabiyotshunoslarning metaforani o‘rganishdan maqsadi bir, so`zning ko‘p ma’noliligi va undagi stilistik imkoniyatlarni ochib berishdir. Tilshunos olimlardan M.Mirtojiyev, Karimov, D.Xudoyberganova, Sh.Rahmatullayev va boshqa bir qator olimlar ham o‘z ilmiy ishlarida metafora tushunchasiga atroflicha to‘xtalib o‘tgan.

O‘xshatishlar haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, bu dunyoni tushunish, borliqni anglashning eng qadimiy va samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlar har bir xalq tarixidagi dastlabki tafakkur tarzi va tasavvurlarini namoyon qiladi. Aynan muayyan tildagi o‘xshatishlarda ma’lum bir davrda yashagan ajdodlarimizning o‘y-xayollari, ichki kechinmalari, dunyoni teranroq anglashga qaratilgan tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Shu sababdan ham ertaklarni o‘rganish millat, xalqning dunyoqarashi, e’tiqodi, milliy-madaniy qadriyatlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ingliz xalq ertaklarida o‘xshatishlarda *as, like, as if* kabi so‘zlardan foydalaniladi va o‘zbek tilida -dek deb tarjima qilinadi. “Tom Tit Tot” ertagida qahramonlarning hissiy holatini ochib berish uchun o‘xshatishlardan keng foydalanilgan: *“Then that looks at her with that’s* ***eyes like a coal of fire****, and that says : “Woman, there is only tomorrow night, and then you’ll be mine !”[2].* Ushbu gapda qahramonning ko‘zlarini olovda yongan ko‘mirga o‘xshatiladi va bu bilan uning hissiy holati ochib beriladi. Yana bir misol: *“Well, when the girl heard this, she felt* ***as if she could have jumped out of her skin for joy****, but she did n't say a word”*. Ertakda qiz maxluq tomonidan berilgan jumboqning javobini topgandagi xursandchiligi tasvirlanadi. *As if she could have jumped out of her skin for joy – xursandchilikdan terisiga sig‘mas edi* yoki *xursandchilikdan og‘ziqulog‘ida edi* deb tarjima qilish mumkin.

“Jack and the Beanstalk” ertagida o‘xshatishlardan juda ko‘p foydalanilgan. Xususan, Jek yovuz dev quvlayotganida shoshib qochayotgan holatini *like a house on fire* iborasi orqali tasvirlangan: *“But that was all Jack heard, for he rushed off to the beanstalk and climbed down* ***like a house on fire****”. Like a house on fire* – huddi uy yonib ketayotgandek deb so‘zma-so‘z tarjima qilinsada, badiiy tarjimada ushbu iborani *oyog‘ini qo‘liga olib* iborasiga almashtirish mumkin. Shuningdek, yovuz dev saroyida yurgan Jek shovqin solmaslik uchun ohista qadam tashlash holati sichqonning yurishiga qiyoslangan: *“Then Jack lifted up the copper-lid very quietly and got down* ***like a mouse*** *and crept on hands and knees till he came to the table, when up he crawled, caught hold of the golden harp and dashed with it towards the door.”* So‘zdagi qat’iylikni ifodalashda ham o‘xshatishdan foydalanish holatlarini “Jack and the Beanstalk” ertagida Jekning so‘zlarida ko‘rishimiz mumkin: *“Two in each hand and one in your mouth, says Jack,* ***as sharp as a needle****”*. Ushbu gapdagi *as sharp as a needle* iborasi o‘zbek tiliga *ignadek o‘tkir, tig‘dek o‘tkir* deb tarjima qilinsada, Jekning qat’iy ohangda gapirgan holatini tasvirlagani bois *keskin ohangda* deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ushbu ertakda Jekning ulkan loviya poyasiga osongina tirmashib chiqish holatini narvonda tepaga ko‘tarilishga o‘xshatilgan: *“The beanstalk grew up quite close past Jack’s window, so all he had to do was to open it and give a* ***jump on to the beanstalk which ran up just like a big ladder****”[2].*

Shuningdek, qahramonlarning tashqi ko‘rinishini tasvirlashda ham o‘xshatishlar ko‘p ishlatiladi. “The Rose tree” ertagida qizning go‘zalligini tasvirlashda *sutdek oq, lablari gilosdek, sochlari oltindek* kabi jumlalar qo‘llanilgan: *“The girl was* ***as white as milk****, and her* ***lips were like***

***cherries***. *Her* ***hair was like golden silk****, and it hung to the ground"*. "Binnorie" ertagida ham go'zal qizning tashqi ko'rinishi metafora orqali tasvirlangan: "*But after a time he looked upon the younger sister, with her* ***cherry cheeks*** *and* ***golden hair****, and his love went out to her till he cared no longer for the elder one"*. Ushbu gapda qizning yanoqlari gilosga, sochlari esa oltinga qiyoslangan[2].

O'zbek tilida ham o'xshatishlar -day, -dek, kabi, singari qo'shimcha va so'zlar orqali ifodalanadi. O'zbek xalq ertaklarini tahlil qilar ekanmiz, ertak matnida qahramonlarning hissiy kechinmalari, jismoniy holati, tashqi ko'rinishini tasvirlashda metafora va o'xshatishlardan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz: *"Ot ham Gulboy ham qop-qora terga botib ketgan emish"* (Yonar daryo "Gulboy". 10-b.). Qora ter – o'zbek xalqida mehnatni, kuchli jismoniy zo'riqish orqali charchoqni bildiradi. Yana bir misol: *"Otajon onamlarga aytsangiz, podshoning qiziga sovchilikka borsalar, - debdi Gulboy. Bu gapdan nonvoyning* ***yuragi yorilguday qo'rqib ketibdi****"*. Ushbu gapda qahramonning hissiy holati, qo'rquvi mubolag'ali o'xshatish orqali tasvirlangan. "Osmon yiroq, yer qattiq" ertagida esa qahramonning holati bezgak kasalligiga chalingan odamga o'xshatilgan: *"Sochlari o'sib, rangi sarg'ayib, xuddi* ***yeti yil bezgak tutgan keksa odamdek*** *bo'lib qolibdi"[3]*.

O'zbek xalq ertaklarida hissiy holatni ifodalashda bo'ri, tuya, it, qush kabi hayvonlarga o'xshatishlar ko'p uchraydi. Masalan, "Dev kampir" ertagida Tumanshohning g'azabiy holati qutirgan tuyaga o'xshatiladi: *"Yigirma besh kun o'tdi, kun o'tgan sari qizlaridan nom-nishon bo'lmay, Tumanshoh* ***kuturgan tuyaday bo'kirib****, jallodga qarab: "Zindondagilarni olib chiqib ko'z oldimda kallalarini tanalaridan judo qilib, anavi anaga go'shtidan ikki six kabob qilib beringlar, eyman", deb baqirib-chaqiraveribdi. Baqirishidan eru ko'k larzaga kelganday bo'lar ekan".* Yohud podshohning qizini qutqarishga otlangan pahlavonlar holati quyidagicha ifodalanadi: *"Keyin qilich-nayzalar shaqirlab, otlar tuyog'i dupurlab, pahlavonlar* ***och bo'riday irrillab****, nayza urib, qilich solishibdi. Otlar* ***uchar qushday uchib****, pishqirib yo'rishibdi, o'z emas, mo'l yo'rishibdi"[4].*

"Tarasha oyim" ertagida to'kin-sochin g'am-tashvishsiz hayotni, xursandchilikni shirin, shakar so'zlari orqali tasvirlab berilgan: *"Shohning ham, yigitlarning ham, Tarasha oyimning ham, shoh qizlarining ham vaqtlari chog',* ***dimog'lari shakarga*** *aylanibdi. Hammalari baxtli,* ***shirin hayot*** *kechira boshlashibdi"*.

O'zbek xalq ertaklarida qizlarning go'zalligi gulga, pariga, oy va quyoshga o'xshatilgan: *"U mamlakat podshosi, bu mamlakat podshosi yoki vazirlarning* ***parichehra*** *qizlaridan olib beray, desa, odil ko'nmas emish. Necha* ***gulchehra parivash*** *qizlarni pesh qilishsa, ko'nmasmish"*. Ko'pgina o'zbek xalq ertaklarida malik ava qizlarning go'zalligi oy desa oydek, kun desa kundek iborasi orqali tasvirlanadi. Bu ibora orqali o'zbek xalqi qizlarning go'zalligini oy va quyoshga qiyoslaydi. Shu bilan birgalikda, dev, yalmog'iz kampir obrazlarini tasvirlashda ham tasirchanlikni oshirsih maqsadida metafora va o'xshatishlardan foydalaniladi. Xususan, "Dev kampir" ertagida bahaybat devning og'zi katta tandirga, peshonasidagi ko'zi piyolaning og'ziga o'xshatilgan: *"Bular odam desa, qanoti bor, parranda desa parrandaga o'xshamas, odamga o'xshagan qo'l-oyog'i bo'lib, peshonasida* ***piyolaning og'zidek ko'zi*** *bor, ikki qulog'ining o'rnida ikki katta shoxi bor, ikki so'yloq tishi bor, har biri bir-bir yarim qarichdan bo'lib, pastki labini bosib turar ekan. Bir qarichdan uzun, ikki qarichga yaqinroq tirnog'i, bir metr, undan kalta-uzun junlari bo'lib, og'zi ham o'ziga yarasha:* ***katta to'y tandirining og'ziday*** *bo'larkan"[5]*.

Xulosa qilib aytganda, ingliz xalq ertaklarida ham, o'zbek xalq ertaklarida ham metafora, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Har bir xalq madaniyati, e'tiqodi va qadriyatlari bilan farq qilgani kabi, adabiyotida ham sezilarli farq mavjud va ertaklarni tahlil qilish orqali shu xalqning milli-madaniy mentaliteti, dunyoqarashi haqida ma'lumot olish mumkin. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida obrazlarni tasvirlashda o'xshatish va metafora muhim badiiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu vositalar qahramonlarning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, fe'l-atvori hamda voqea-hodisalarni yanada ta'sirchan va obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har ikkala xalq ertaklarida ham o'xshatish va metaforalar xalqning madaniyati, urf-odatlari, dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Biroq ularning qo'llanishida o'ziga xos milliy xususiyatlar ham kuzatiladi. O'zbek ertaklarida tabiat, hayvonot va milliy turmush bilan bog'liq obrazli ifodalar ko'proq uchrasa, ingliz ertaklarida esa ramziy va fantastik metaforalar, shuningdek, individual qahramon xarakterini ochishga xizmat qiluvchi tasviriy vositalar ustunlik

qiladi. Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, o‘xshatish va metafora ertaklarning estetik qiymatini oshirish, badiiy ta’sirchanligini kuchaytirish hamda o‘quvchi tasavvurida yorqin obrazlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu vositalar orqali xalqning milliy mentaliteti, tarixiy tajribasi va ma’naviy qadriyatlari avloddan avlodga yetkaziladi. Shu sababli ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi badiiy tasvir vositalarini qiyosiy o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalari uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Azizova N. O. Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida ifoda vositalarining qo‘llanilishi. Tamaddun Nuri: Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2025.
2. Jacobs J. (n.d.). English fairy tales (3rd ed.). G. P. Putnam’s Sons.
3. Karimov O. Metafora – poetik tafakkur asosi. Jahon adabiyoti. 2014.
4. Mahmudov N., & Xudoyberganova, D. O‘zbek tilida o‘xshatishlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.
5. O‘zbek xalq fantastikasi. Yonar daryo: Sehrli ertaklar (IV kitob). O‘zbekiston LKSM Markaziy Komiteti “Yosh gvardiya” nashriyoti. 1986.
6. Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. – Toshkent: Fan, 1966.

**UO'K 81'373.46:94**

## TARIXIY TERMIN LEKSIK-SEMANTIK BIRLIK SIFATIDA

***Sh.O.A'zamova, o'qituvchi, Qo'qon davlat universiteti, Qo'qon***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada tarixiy terminlarning shakllanishi, ilmiy-ta’rifiy izohi, zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni, boshqa turdagi terminlardan farqi va til tizimidagi funksiyalari haqida chuqur ilmiy izohlar berish zarur. Bu masala XXI asr tilshunosligida dolzarb, chunki hozirgi paytda tarix fani va tilshunoslik orasidagi aloqadorlikka e’tibor ortib bormoqda. Tarixiy terminlarni chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy-nazariy ahamiyatga ega, balki tarixiy ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin etish va madaniy merosni anglash uchun ham muhimdir. Quyida tarixiy termin tushunchasining tarixiy shakllanishi, lingvistik ta’rifi va mohiyati, ilmiy jihatlari, boshqa terminlardan farqi hamda til tizimidagi vazifalari ketma-ket yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *termin, lingvistika, terminologiya, atama, istiloh, nominativ vazifa, ko’p ma’nolik, monosemantik, leksik-semantik birlik, terminovedenie, iskussiyalar, millat, feodalizm, polisemiya, imomat, deskriptiv, halokost, genotsid.*

***Аннотация.*** *В данной статье необходимо дать углублённые научные объяснения формирования исторических терминов, их научно-описательной интерпретации, их места в современной лингвистике, отличий от других типов терминов и их функций в языковой системе. Эта проблема актуальна в лингвистике XXI века, поскольку в настоящее время всё больше внимания уделяется взаимосвязи между исторической наукой и лингвистикой. Глубокое изучение исторических терминов имеет не только научно-теоретическое значение, но и важно для правильной интерпретации исторических данных и понимания культурного наследия. Ниже последовательно рассматриваются историческое формирование понятия исторических терминов, их лингвистическое определение и сущность, научные аспекты, отличия от других терминов и функции в языковой системе.*

***Ключевые слова:*** *термин, лингвистика, терминология, термин, терминология, номинативная функция, полисемия, моносемантический, лексико-семантическое единство, терминология, дебаты, нация, феодализм, полисемия, имамат, описательный, Холокост, геноцид.*

***Abstract.*** *In this article, it is necessary to provide in-depth scientific explanations about the formation of historical terms, their scientific and descriptive interpretation, their place in modern linguistics, their difference from other types of terms, and their functions in the language system. This issue is relevant in 21st century linguistics, because currently, attention is increasingly paid to the relationship between the science of history and linguistics. A deep study of historical terms is not only of scientific and theoretical importance, but also important for the correct interpretation of historical data and understanding of cultural heritage. Below, the historical formation of the concept of*

*historical terms, linguistic definition and essence, scientific aspects, difference from other terms, and functions in the language system are sequentially covered.*

***Key words**: term, linguistics, terminology, term, terminology, nominative function, polysemy, monosemantic, lexical-semantic unity, terminology, debates, nation, feudalism, polysemy, imamate, descriptive, Holocaust, genocide.*

O‘zbek adabiyotida tarixiylikni badiiy tasvirlash an’anasi qadimiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, zamonaviy nasrda tarixiy terminlarning lingvopoetik xususiyatlarini maxsus tadqiq etish masalasi hali yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, taniqli yozuvchi Tohir Malik asarlarida tarixiy terminlarning tizimli qo‘llanilishi, ularning semantik va stilistik yuklamasi, badiiy-estetik vazifasi ilmiy jihatdan kompleks tahlilni talab etadi. Bugungi globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlarida milliy tarixiy xotirani badiiy matn orqali saqlash va avlodlarga yetkazish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, “innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalariga qiziqish XX asrda shakllandi. “Termin” so‘zi o‘zbek tiliga ilmiy muomalaga kirib kelganiga bir asrga yaqin vaqt bo‘ldi. Bungacha “atama” va “istiloh” so‘zlari qo‘llanib, istiloh asosan tarixiy mavzudagi matnlarda termin ma’nosida ishlatilgan

Tilshunoslar tarixiy terminni leksik-semantik birlik sifatida ham ta’riflaydilar. S.V.Grinev-Grinevich singari olimlarning fikricha, termin lingvistik belgilar sistemasining bir qismi bo‘lib, uning ma’nosi imkon qadar aniq va birma’noli bo‘lishi zarur [6]. V.M.Leychik ham “terminologiyada ko‘p ma’nolilikka mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” deya qayd etadi [9]. Boshqa olimlar esa bunday qat’iy fikrga qo‘shilmaydilar. Masalan, N.Z.Kotelova “terminlarga sinonimiya, polisemiya va omonimiya xos; antonim terminlar soni ham oddiy so‘zlarnikidan kam emas” deb ta’kidlaydi [7]. A.T.Lipatov ham “til amaliyotida ko‘plab terminlar ko‘p ma’noli va dublet shakllarga ega” ekanligini ta’kidlab, terminlar amaliy jihatda bir necha ma’no qatda ishlatilishini ko‘rsatadi. Demak, tarixiy terminning lingvistik mohiyati uni ideal holatda bir ma’noli deb qarash nazariyasi va real holatda ko‘p ma’noli qo‘llanishi mumkinligini tan oluvchi yondashuv o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi.

Tarixiy termin tushunchasining ilmiy jihatlari. Tarixiy terminlar bilan bog‘liq ilmiy jihatlar, avvalo, terminologiyaning umumiy nazariy masalalari bilan uzviy bog‘liqdir. Terminologiya fanida klassik yondashuvga ko‘ra, har bir termin monosemantik (bir ma’noli) bo‘lib, yagona bir tushunchani ifodalashi lozim, terminlar tizimida sinonimiya va ko‘p ma’nolilik imkon qadar cheklanishi kerak [8]. Bu tamoyil, yuqorida aytib o‘tilganidek, Vüster maktabi va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, aniq fanlar terminologiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Biroq zamonaviy terminovedenie (terminshunoslik**)** sohasidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, real til amaliyotida, ayniqsa gumanitar sohalarda, terminlarning bir ma’nolilik talabi doimo ham amal qilavermaydi [8]. Tarixiy terminlar misolida bu holat yaqqol kuzatiladi.

Tarixiy hodisalar va tushunchalar murakkab hamda ko‘p qirrali bo‘lgani sababli, ularni ifodalovchi terminlar ham ko‘pincha turli talqinlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *“millat”* tushunchasi tarix davomida turlicha talqin etilgan: XIX asr millat tushunchasi bilan XXI asr siyosiy-ijtimoiy muhitidagi millat tushunchasi orasida farq mavjud. Shu bois *“millat”* termini atrofida bir nechta ilmiy ta’rif va yondashuvlar shakllangan. Xuddi shuningdek, *“feodalizm”* termini bir qator tarixiy maktablarda turlicha izohlanadi; ayrim tarixchilar feodalizmni yevropaga xos hodisa desa, boshqalar uni kengroq ma’noda qo‘llaydilar. Demak, tarixiy termin atrofidagi diskussiyalar – uning mazmun chegarasi, aniqligi va tushunarliligi – ilmiy jihatdan doimo dolzarb masala hisoblanadi [8].

Terminolog olim K.A.Gorbachyov o‘z maqolasida tarixiy termin talqiniga oid bir nechta bahsli masalalarni ko‘rsatib o‘tadi: tarixiy terminning aniqligi va birma’noliligi, terminning monosemantik yoki polisemantik tabiati, va terminlar orasida sinonimlarning mavjudligi. Muallif xulosasiga ko‘ra, tarixiy termin – nafaqat ilmiy soha, balki ijtimoiy soha rivojlanishining ham aksidir, shu bois unga faqat tor doirada yondashib bo‘lmaydi [8]. Haqiqatan ham, tarixiy termin muayyan davr mafkurasini, madaniyatini o‘zida aks ettirgan intelektual mahsulot bo‘lib, uni yaratgan jamiyat yoki shaxs o‘z

zamonasining ruhini unga singdirgan bo‘ladi [5]. O‘tgan davrlar o‘tishi bilan ushbu termin ichiga joylangan ma’lumot o‘zgarishga uchrashi yoki asl ma’nosini yo‘qotishi mumkin. Bu esa tarixiy terminni talqin qilishda diqqatni oshirishni va har bir terminni keng kontekstda chuqur o‘rganishni taqozo etadi [5].

Terminologik muammolar qatorida, yuqorida tilga olinganidek, *sinonimiya va polisemiyaning mavjudligi* muhim o‘rin tutadi. Ba’zi hollarda bir tushunchani ifodalovchi bir nechta tarixiy terminlar paydo bo‘lgan (masalan, *“xalifalik”* va *“imomat”* ba’zi kontekstlarda o‘xshash yoki yaqin tushunchalar sifatida qo‘llanishi mumkin). Yoki aksincha, bir xil termin turli tarixiy maktablarda biroz turli tushunchalarni anglatishi mumkin. N.Z.Kotelova va A.T.Lipatovning kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, terminologiyada sinonimiya va polisemiyani butkul inkor etib bo‘lmaydi – u real til jarayonining bir qismidir [7]. Shu sababli, tarixiy terminlar ilmiy jihatdan deskriptiv yondashuvni talab qiladi: ya’ni terminlarning amaliy qo‘llanilishini kuzatish, lug‘aviy ma’nolarini tasvirlash va har bir holatda to‘g‘ri talqinini berish muhimdir [6].

Termin va definitsiya (ta’rif) o‘rtasidagi munosabat ham ilmiy nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Har bir termin konseptual mazmunga ega va uni to‘la anglash uchun ilmiy ta’rifiga murojaat qilinadi. Tarixiy terminlar holatida definitsiya berish ba’zan murakkab, chunki tarixiy tushunchalar dinamik va munozarali bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, terminning ilmiy samaradorligi uni aniq ta’riflash va chegaralashga bog‘liq. Masalan, *“imperializm”* termini uchun V.I.Lenin bergan klassik ta’rif mavjud, biroq zamonaviy talqinlar bu tushunchani yangicha qirralarda ko‘rib chiqmoqda. Terminologiya nazariyasida termin va uning ta’rifi bir butun hodisa sifatida qaralib, termin tushunchaning nomi, definitsiya esa tushunchaning mazmuni sifatida baholanadi [5]. Bu jihatdan qaraganda, tarixiy terminlarga oid ilmiy muammolardan biri – ularga birxillashtirilgan ta’riflar berish va fanga kiritishdir. Hozirgi zamonaviy tarix fani doirasida xalqaro miqyosda qabul qilingan terminlar va ularning ta’riflarini uyg‘unlashtirish ustida ishlar olib borilmoqda (masalan, *“Holokost”*, *“genotsid”* kabi terminlar bo‘yicha BMT va ilmiy doiralardagi konsensus).

Xulosa qilish mumkinki, tarixiy termin tushunchasining ilmiy jihatlari ko‘p qirralidir: bitta terminning o‘zi atrofida turli nazariy qarashlar bo‘lishi, uning ma’nosi tarixiy evolyutsiyaga uchrashi, sinonim va ekvivalentlarning mavjudligi, aniq ta’rif berish zarurati – bularning barchasi ushbu sohani serqirra tadqiqot obyektiga aylantiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Atabayev S. Tarixiy va arxaik so‘zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari//Academic Research in Modern Science, 2024. – B.176.

2. Irsiqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B.142..

3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С.55-56.

4. Tohir Malik “Tanlangan asarlar” Qasos hikoyasi 1930.

5. Горбачев К. А. Особенности интерпретации исторического термина.- Вестник Вятского государственного гуманитарного университета научный журнал № 2 Киров 2015.-109-113с

6. Гринев-Гриневич С. В. Терминоведение. М., 2008. С. 27.

7. Котелова Н. З. К вопросу о специфике термина // Лингвистические проблемы науч но-технической терминологии. М.: Наука, 1970. С. 122–123. Липатов А. Т. Метаязык лингвистики: таксономия и кодификация лингвистических терминов // Лингвистика на исходе XX века: итоги и перспективы: тез. междунар. конф. М.: Филология, 1995. Т. II. С. 315.

8. Авербух К. Я. Манифест современной терминологии // Материалы международной науч но-практической конференции «Коммуникация: теория и практика в различных социальных контекстах «Коммуникация-2002» («Communication Across Differences»). Ч. 1. Пятигорск, 2002. С. 192.

9. Лейчик В. М. Культура термина. URL: www.library.krasu.ru/ft/ft/_articles/0113944.pdf. С. 164.

**UO’K 81'25:004.8**

## SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI TARJIMA: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

***F.Baxtiyorova, magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch***

***Annotatsiya****. Maqolada sun’iy intellekt asosidagi tarjima vositalarining afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi. Unda tezkorlik, qulaylik, ko‘p tillilik va ta’limdagi yordam kabi ijobiy jihatlar hamda kontekst, uslub va madaniy ma’noni tarjima qilishdagi muammolar yoritiladi. Xulosa*

*sifatida sun'iy intellekt inson tarjimonini to'liq almashtirmasligi, balki uning ishini yengillashtiruvchi vosita ekanligi ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *sun'iy intellekt; mashina tarjimasi; Google Translate; ChatGPT; DeepL; tarjimashunoslik; madaniy kontekst; inson tarjimoni; post-tahrir; raqamli texnologiyalar.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются преимущества и недостатки переводческих инструментов, основанных на искусственном интеллекте. Рассматриваются такие положительные стороны, как скорость, удобство, многоязычность и помощь в обучении, а также проблемы перевода контекста, стиля и культурного значения. В заключение подчеркивается, что искусственный интеллект не может полностью заменить переводчика-человека, а служит средством облегчения его работы.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект; машинный перевод; Google Translate; ChatGPT; DeepL; переводоведение; культурный контекст; переводчик-человек; постредактирование; цифровые технологии.*

***Abstract.*** *The article analyzes the advantages and disadvantages of artificial intelligence-based translation tools. It highlights positive aspects such as speed, convenience, multilingual capabilities, and support in education, as well as challenges related to translating context, style, and cultural meaning. In conclusion, it is emphasized that artificial intelligence cannot completely replace human translators, but rather serves as a tool that facilitates their work.*

***Key words:*** *artificial intelligence; machine translation; Google Translate; ChatGPT; DeepL; translation studies; cultural context; human translator; post-editing; digital technologies.*

**Kirish**. Bugungi kunda tarjima masalasi faqat filologlar yoki professional tarjimonlar doirasidagi mavzu bo'lib qolmadi. Oddiy foydalanuvchi ham kundalik hayotida turli tillardagi matnlarga duch keladi: internetdagi maqola, mahsulot yo'riqnomasi, elektron xat, ilmiy manba yoki ijtimoiy tarmoqdagi xabar. Shunday vaziyatlarda sun'iy intellektga asoslangan tarjima vositalari odamga tez yordam beradigan qulay dastakka aylandi.

Masalan, foydalanuvchilar xorijiy matnlarning umumiy mazmunini tushunishda avtomatik tarjima vositalaridan keng foydalanmoqda. Biroq tarjimani faqat texnik jarayon deb hisoblash xato bo'ladi. Tarjima - bu bir tildagi so'zlarni ikkinchi tilga almashtirish emas, balki ma'no, ohang, madaniyat va kommunikativ maqsadni boshqa tilda qayta ifodalash jarayonidir. Aynan shu nuqtada mashina tarjimasi bilan inson tarjimasi o'rtasidagi farq yaqqol ko'rinadi.

Sun'iy intellekt matn mazmunini tez tarjima qila oladi, biroq ibora, kinoya va madaniy birliklarni har doim ham to'g'ri anglay olmaydi. Shu sababli ushbu maqolada sun'iy intellekt tarjimasining imkoniyatlari bilan birga uning cheklovlari ham ko'rib chiqiladi. Asosiy savol shundan iborat: sun'iy intellekt tarjimonni almashtiradimi yoki tarjimonning ishini yanada samarali qiladimi?

**Adabiyot tahlili**. Tarjima nazariyasida ekvivalentlik, adekvatlik, kommunikativ maqsad va madaniy moslashuv masalalari doimo muhim o'rin egallab kelgan. Y. Naydaning dinamik ekvivalentlik haqidagi qarashlarida tarjima matni o'quvchiga asl matn kabi ta'sir qilishi lozimligi ta'kidlanadi [1]. P. Nyumark esa semantik va kommunikativ tarjima o'rtasidagi farqni ko'rsatib, matn turi va auditoriyani hisobga olish zarurligini ilgari suradi [2].

Bu nazariy qarashlar bugungi sun'iy intellekt tarjimasini baholashda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki avtomatik tarjima grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin u har doim ham matnning kommunikativ vazifasini to'liq bajarmaydi. Ayniqsa, badiiy, publitsistik yoki diplomatik matnlarda so'z tanlovi faqat lug'atdagi ma'noga emas, balki vaziyatga ham bog'liq bo'ladi.

Dastlabki mashina tarjimasi tizimlari asosan qoidalar va lug'atlarga tayangan [4]. Keyinchalik statistik mashina tarjimasi, undan so'ng neyron tarmoqlarga asoslangan tizimlar paydo bo'ldi [5]. Hozirgi vositalar avvalgi dasturlarga qaraganda ancha ravon tarjima bera oladi. Google Translate matn mazmunini tez tushunishga yordam beradi [7], DeepL ayrim tillarda tabiiyroq ohang taklif qiladi [9], ChatGPT esa tarjima bilan birga izohlash, qisqartirish, uslubni o'zgartirish yoki matnni qayta tahrirlash imkonini ham beradi [8].

Shu bilan birga, ilmiy va amaliy kuzatishlar mashina tarjimasida bir qator muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Birinchidan, madaniy realiyalarni tarjima qilish murakkab. “Mahalla”, “hashar”, “sumalak”, “kelin salom” kabi tushunchalar boshqa tilga oddiy so‘z bilan ko‘chirilganda o‘zining ijtimoiy va madaniy mazmunini yo‘qotishi mumkin.

Ikkinchidan, ibora va maqollarda so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha noto‘g‘ri natija beradi. Masalan, “qo‘li gul” iborasi aslida insonning ishga mohirligini bildiradi. Uni harfiy tarjima qilish esa boshqa til o‘quvchisida tushunarsiz tasavvur uyg‘otadi [3]. Uchinchidan, uslub masalasi ham dolzarbdir. Ilmiy matn aniqlikni, publitsistik matn ta’sirchanlikni, badiiy matn esa obrazlilikni talab qiladi. Sun’iy intellekt mazmunni bergani bilan, ba’zan shu uslubiy farqlarni yetarli darajada his qilmaydi.

**Metodologiya**. Maqolani tayyorlashda nazariy-tahliliy, qiyosiy va kuzatuv usullaridan foydalanildi. Avvalo, tarjima nazariyasidagi asosiy tushunchalar - ekvivalentlik, adekvatlik, kommunikativ maqsad va madaniy kontekst masalalari umumlashtirildi. Keyin esa ushbu tushunchalar sun’iy intellekt asosidagi tarjima vositalari bilan bog‘lab tahlil qilindi.

Qiyosiy yondashuv orqali inson tarjimasi va avtomatik tarjimaning farqli jihatlari ko‘rib chiqildi. Bunda asosiy e’tibor matnning tez tarjima qilinishi, ma’no aniqligi, uslubiy moslik va madaniy birliklarni yetkazish masalalariga qaratildi. Kuzatuv jarayonida kundalik hayotda uchraydigan tarjima holatlari - talabaning ilmiy matnni tushunishi, sayyohning e’lonni tarjima qilishi, foydalanuvchining elektron xat yozishi kabi vaziyatlar misol sifatida olindi.

Maqola publitsistik uslubda yozildi, chunki sun’iy intellekt tarjimasi faqat nazariy masala emas. U ta’lim, kasb bozori, xalqaro muloqot va madaniy aloqa jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun mavzuni faqat ilmiy atamalar orqali emas, balki hayotiy misollar va tanqidiy mulohazalar orqali yoritish maqsadga muvofiq deb topildi.

**Natijalar**. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi tarjima vositalari birinchi navbatda tezlik jihatidan katta ustunlikka ega. Bir necha sahifalik matnni dastlabki ko‘rinishda tarjima qilish uchun inson tarjimoniga ma’lum vaqt kerak bo‘ladi. Sun’iy intellekt esa bunday matnning umumiy mazmunini qisqa vaqt ichida chiqarib bera oladi. Bu xususiyat katta hajmdagi axborot bilan ishlaydigan talabalar, jurnalistlar va tadqiqotchilar uchun foydalidir.

Ikkinchi afzallik - foydalanish qulayligi. Bugun tarjima qilish uchun alohida lug‘at ko‘tarib yurish shart emas. Internetga ulangan telefon yoki kompyuterning o‘zi kifoya. Natijada til to‘sig‘i ma’lum darajada kamaydi. Ilgari xorijiy tildagi oddiy xabar ham foydalanuvchini qiynagan bo‘lsa, hozir u matnning umumiy mazmunini tezda tushuna oladi.

Uchinchi jihat - ta’lim jarayonidagi yordamdir. Sun’iy intellekt vositalari talabalarga xorijiy manbalarni o‘qishda, yangi so‘zlarni tushunishda, matnni qisqartirish yoki izohlashda yordam beradi. Lekin bu yerda ehtiyot bo‘lish zarur. Agar talaba tayyor tarjimani ko‘chirib olish bilan cheklansa, uning til o‘rganish jarayoni sustlashadi. Demak, sun’iy intellekt o‘quvchining o‘rniga o‘ylaydigan vosita emas, balki uni mustaqil fikrlashga undaydigan yordamchi bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi afzallik - ko‘p tillilik imkoniyati. Google Translate, ChatGPT va shunga o‘xshash vositalar ko‘plab tillar bilan ishlay oladi. Bu xalqaro biznes, turizm, ilmiy hamkorlik va onlayn ta’limda muhim ahamiyatga ega [6]. Ayniqsa, kichik biznes vakillari yoki mustaqil tadqiqotchilar uchun bunday vositalar xorijiy auditoriya bilan muloqotni yengillashtiradi.

Biroq natijalar faqat ijobiy emas. Eng asosiy muammolardan biri - kontekstni noto‘g‘ri tushunishdir. Ingliz tilidagi “charge” so‘zi vaziyatga qarab “to‘lov”, “ayblov”, “zaryad” yoki “hujum qilmoq” ma’nolarini bildirishi mumkin. Agar tizim matnning umumiy vaziyatini to‘g‘ri anglamasa, u mos bo‘lmagan variantni tanlaydi. Bunday xato oddiy matnda kulgili ko‘rinsa, huquqiy yoki rasmiy hujjatda jiddiy oqibatga olib kelishi mumkin.

Yana bir muammo - madaniy ma’noni yetkazishdagi cheklovdir. Til xalqning dunyoqarashi, qadriyati va urf-odatlari bilan bog‘liq. Mashina matndagi so‘zni topishi mumkin, lekin uning ortidagi madaniy hissiyotni har doim ham bera olmaydi. Masalan, “hashar” so‘zini faqat “collective work” deb tarjima qilish mumkin, ammo bu iboraning o‘zbek jamiyatidagi birdamlik, qo‘ni-qo‘shnichilik va savob tushunchalari bilan bog‘liq ma’nosi izohsiz qolib ketadi.

Uslub masalasi ham alohida e’tiborga loyiq. Sun’iy intellekt ko‘pincha grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin ohang jihatidan bir xil matn yaratadi. Publitsistik matnda o‘quvchini ishontirish, badiiy matnda his uyg‘otish, ilmiy matnda esa aniq dalil keltirish muhim. Shu bois avtomatik tarjima matni inson tomonidan qayta ko‘rib chiqilmasa, u ravon bo‘lsa ham, ta’sir kuchi yetarli bo‘lmasligi mumkin.

**Muhokama.** Sun’iy intellekt tarjimasi haqida gap ketganda ikki keskin qarash uchraydi. Bir guruh odamlar kelajakda mashina tarjimonlari inson tarjimonlarini butunlay siqib chiqaradi deb o‘ylaydi. Boshqa guruh esa sun’iy intellekt hech qachon haqiqiy tarjimon darajasiga yeta olmaydi, degan fikrda. Aslida, masalaga bunday keskin qarash to‘g‘ri emas. Chunki sun’iy intellekt ayrim vazifalarda juda samarali, ayrim vazifalarda esa hali ham inson nazoratiga muhtoj.

Oddiy axborot matnlari, qisqa xabarlar, mahsulot tavsifi, yo‘riqnoma yoki umumiy mazmundagi maqolalarda sun’iy intellekt katta yordam beradi. Bunday hollarda asosiy maqsad matnning umumiy mazmunini tez tushunish bo‘ladi. Ammo badiiy asar, diplomatik murojaat, huquqiy hujjat yoki madaniy mazmundagi matnda bitta noto‘g‘ri tanlangan so‘z ham butun mazmunni o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Masalan, badiiy matnda qahramonning ichki kechinmasi, kinoyasi yoki xalqona iborasi juda muhim. Avtomatik tarjima bunday joylarni soddalashtirib yuborishi mumkin. Diplomatik matnda esa yumshoq ohang, ehtiyotkorlik va so‘z tanlash madaniyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Huquqiy matnda noaniq tarjima moddiy yoki huquqiy javobgarlikka sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektni tarjimonning raqibi deb emas, balki yordamchisi deb qarash ma’qul. Zamonaviy tarjimon faqat ikki tilni biladigan mutaxassis bo‘lib qolmaydi. U texnologiyadan foydalana oladigan, avtomatik tarjimani tekshiradigan, xatoni ajratadigan va matnni maqsadli auditoriyaga moslashtira oladigan mutaxassisga aylanadi.

Bu jarayonda “post-tahrir” tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Sun’iy intellekt dastlabki tarjimani beradi, inson esa uni tekshiradi, ortiqcha yoki noto‘g‘ri joylarini tuzatadi, uslubini yaxshilaydi va madaniy kontekstga moslashtiradi. Amaliyotda eng yaxshi natija aynan shu hamkorlikda paydo bo‘ladi: mashina tezlik beradi, inson esa ma’no va ohangni nazorat qiladi.

**Xulosa**. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt asosidagi tarjima vositalari zamonaviy tarjima jarayonini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ular tarjimani tezlashtirdi, til to‘siqlarini kamaytirdi, ta’lim va xalqaro muloqot uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Bugun Google Translate, DeepL yoki ChatGPT kabi vositalardan faqat oddiy foydalanuvchilar emas, balki talabalar, tadqiqotchilar va turli soha vakillari ham foydalanmoqda.

Shunga qaramay, sun’iy intellekt tarjimasini mutlaq mukammal deb baholash xato bo‘ladi. U kontekst, madaniy ma’no, uslubiy noziklik va hissiy ohangni yetkazishda hali ham cheklovlarga ega. Ayniqsa, badiiy, ilmiy, diplomatik, huquqiy va madaniy matnlarda inson tarjimonining bilim, tajriba va tahliliy fikri zarur bo‘lib qoladi.

Demak, kelajakda tarjimon kasbi yo‘qolmaydi, balki o‘zgaradi. Tarjimon sun’iy intellekt bilan raqobatlashadigan emas, undan oqilona foydalanadigan mutaxassisga aylanishi kerak. Sifatli tarjima inson tafakkuri, madaniy sezgi va texnologik tezlik birlashgan joyda yuzaga keladi. Sun’iy intellekt tarjimada eshik ochadi, ammo bu eshikdan qanday ma’no va qanday ohang bilan o‘tishni baribir inson belgilaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Nida Yu. A. Toward a Science of Translating. - Leiden: Brill, 1964.
2. Newmark P. A Textbook of Translation. - New York: Prentice Hall, 1988.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. - London: Routledge, 2018.
4. Hutchins W. J. Machine Translation: Past, Present, Future. - Chichester: Ellis Horwood, 1986.
5. Koehn P. Statistical Machine Translation. - Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
6. O’Hagan M. The Routledge Handbook of Translation and Technology. - London: Routledge, 2020.
7. Google Translate [Elektron manba]. URL: https://translate.google.com
8. OpenAI. ChatGPT [Elektron manba]. URL: https://openai.com
9. DeepL Translator [Elektron manba]. URL: https://www.deepl.com

UDC 81`373.2+81`374

# ONOMASTIC UNITS AND THEIR LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION IN BILINGUAL DICTIONARIES

*M.T. Berdiyeva, Independent Researcher, Karshi State University, Karshi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada onomastik birliklar va ularning ikki tilli lug'atlardagi leksikografik talqini lingvistik, madaniy va tarjimaviy jihatlar asosida tadqiq qilinadi. Tadqiqotda antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, xoronimlar hamda boshqa onomastik birliklarning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlari ikki tilli leksikografiya nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada transliteratsiya usullari, fonetik moslashtirish, tillararo muqobillik va lug'at maqolalarida madaniy-tarixiy ma'nolarni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, izohli ensiklopedik ma'lumotlar, etimologik sharhlar va atoqli otlar ishtirokidagi frazeologik birliklarning lug'at foydalanuvchilari uchun ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqot natijalari onomastik birliklarning samarali talqini lingvistik aniqlik va madaniy izohni uyg'unlashtiruvchi tizimli leksikografik yondashuvni talab qilishini hamda bu jarayon tarjima sifati va ikki tilli muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *onomastik birliklar; ikki tilli lug'atlar; leksikografiya; antroponimlar; toponimlar; transliteratsiya; madaniy semantika; frazeologik birliklar; etimologiya; madaniyatlararo muloqot.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются ономастические единицы и их лексикографическая интерпретация в двуязычных словарях с особым вниманием к лингвистическим, культурным и переводческим проблемам, связанным с именами собственными. Исследование анализирует структурные, семантические и функциональные особенности антропонимов, топонимов, гидронимов, хоронимов и других категорий ономастической лексики в двуязычной лексикографической практике. Особое внимание уделяется методам транслитерации, фонетической адаптации, межъязыковой эквивалентности и сохранению культурно-исторического значения в словарных статьях. В статье также исследуется роль энциклопедических комментариев, этимологических пояснений и фразеологических единиц с именами собственными в повышении удобства использования словарей и развитии межкультурного взаимопонимания. Результаты исследования показывают, что эффективное представление ономастических единиц требует системного лексикографического подхода, сочетающего лингвистическую точность и культурную интерпретацию, что способствует более качественному переводу и развитию двуязычной коммуникации.*

***Ключевые слова:*** *ономастические единицы; двуязычные словари; лексикография; антропонимы; топонимы; транслитерация; культурная семантика; фразеологические единицы; этимология; межкультурная коммуникация.*

***Abstract.*** *This article examines onomastic units and their lexicographic interpretation in bilingual dictionaries, with particular attention to the linguistic, cultural, and translational challenges associated with proper names. The study analyzes the structural, semantic, and functional characteristics of anthroponyms, toponyms, hydronyms, choronyms, and other categories of onomastic vocabulary in bilingual lexicographic practice. Special emphasis is placed on transliteration methods, phonetic adaptation, cross-language equivalence, and the preservation of cultural and historical meanings in dictionary entries. The article also investigates the role of encyclopedic notes, etymological explanations, and phraseological units containing proper names in improving dictionary usability and intercultural understanding. The findings demonstrate that effective representation of onomastic units requires systematic lexicographic strategies that combine linguistic precision with cultural interpretation, contributing to more accurate translation and enhanced bilingual communication.*

***Key words:*** *onomastic units; bilingual dictionaries; lexicography; anthroponyms; toponyms; transliteration; cultural semantics; phraseological units; etymology; intercultural communication.*

**Introduction.** Onomastic units, encompassing proper names of individuals, places, and other entities, represent a specialized vocabulary critical to understanding language and culture. The field of onomastics, the scholarly discipline dedicated to the origin, meaning, form, and use of names, delves into these units' multifaceted roles. These units are not merely labels; they are carriers of profound cultural, historical, and linguistic information, distinguishing them significantly from common nouns due to their unique referential function. Their presence and interpretation within bilingual dictionaries are pivotal for accurate translation, facilitating cross-lingual understanding, and providing valuable reference data for learners, translators, and researchers alike. The complexities inherent in translating these unique identifiers necessitate a rigorous and systematic approach to their lexicographic treatment. Onomastic units refer to proper names that designate unique entities, including personal names (anthroponyms), place names (toponyms, geonyms, choronyms), names of rivers (hydronyms), and names of geographical or administrative regions.

**Literature Review.** Scholarly literature defines onomastics as the science of proper names and naming practices, providing overviews that embed it within broader linguistic and lexicographical frameworks. Key terminology such as anthroponyms (personal names), toponyms (place names), choronyms (regional names), and hydronyms (river names) is standardized by organizations like the International Council of Onomastic Sciences (ICOS), ensuring consistent discourse across academic studies. The concept of an "onomastic dictionary," as described by Christian Lehmann, emphasizes dictionaries specifically designed to concentrate on names, often including etymological and cultural information not typically found in general dictionaries. This specialized focus highlights the need for distinct methodological approaches when compiling such resources. A central theme in the literature is the significant challenge of standardizing onomastic units in bilingual dictionaries. This includes establishing transliteration standards, aligning cross-language forms, and addressing the complexities arising from phonetic and orthographic differences between languages. Research points to the importance of considering both linguistic and extra-linguistic factors, such as cultural associations and historical references, which ordinary dictionary methods often fail to capture adequately.

**Research Methodology.** A rigorous methodology for studying onomastic units and their lexicographic interpretation in bilingual dictionaries typically involves a multidisciplinary approach, combining theoretical lexicography with empirical analysis. This often includes linguistic analysis of various onomastic units, comparative studies of their treatment across different bilingual dictionaries, and an examination of the underlying theoretical principles of lexicography. The process necessitates a detailed data collection strategy, drawing from published articles on literary onomastics, onomastic domains, and the specific challenges faced by bilingual dictionaries. The research begins with selecting representative language pairs and various dictionary types—general, specialized, and encyclopedic—to ensure a broad perspective. A corpus of onomastic entries, including personal names, place names, historical names, hydronyms, and literary toponyms, is then identified across these selected dictionaries. This allows for a comprehensive examination of how different categories of names are treated. A critical step involves examining how forms are established, differentiating between normative forms and variant forms. This includes analyzing transliteration schemes, phonetic representations, and orthographic correspondence. The goal is to evaluate the strategies employed to render names from one language to another accurately. Researchers assess cross-language equivalents or translation strategies, which can range from direct equivalents to descriptive notes or cross-references. Crucially, the presence and quality of encyclopedic notes, etymological information, usage examples, and cross-references are evaluated.

**Analysis and Results.** Analysis of existing bilingual dictionaries reveals that transliteration variants are frequently encountered in onomastic entries, primarily reflecting language-specific phonology and transliteration norms. This variability underscores the lack of universally adopted standards across all language pairs and dictionary types. Entry formats also vary significantly; some dictionaries merely list the normative form in the source language, while others offer extensive cross-references, usage notes, and detailed encyclopedic information to aid comprehension. Standardization remains a persistent challenge, with many lexicographical resources advocating for the adoption of international transliteration conventions and unified geographical name forms to enhance consistency

and clarity. The inclusion of encyclopedic notes is a common and highly effective strategy for conveying cultural or historical context that is vital for understanding onomastic units. These notes are particularly important for toponyms, hydronyms, and choronyms, where historical forms, pronunciation guides, and alternative spellings provide rich contextual layers. Thematic classification aids lexicographers in determining which onomastic units warrant extended notes and cross-references, ensuring that culturally significant names receive appropriate attention. Furthermore, literary onomastics informs entry design for fictional or culturally specific names, suggesting that a flexible approach is necessary to capture the narrative and aesthetic functions of these names, distinguishing them from more conventional place names.

**Conclusion.** Onomastic units serve as essential carriers of cultural and historical information in language. Their uniqueness distinguishes them from common nouns in lexicographic contexts. Bilingual dictionaries must address transliteration and phonetic issues for accurate representation. Literary texts demonstrate the aesthetic functions of onomastic units through artistic expression. Poetic onomastics emerges as a dedicated subfield within linguistics. Ukrainian discourse over fifteen years reveals evolving onomastic identity patterns. Onomastic domains organize proper names into quantitative lexeme sets. Hypocoristics introduce diminutive nuances requiring careful dictionary handling. Toponyms represent the most extensively studied category of onomastic units. Eponyms contribute new meanings to specialized terminology fields. Paremiological studies uncover comparative linguistic patterns in proverbs. Onomastics benefits allied disciplines such as history and geology. Bilingual dictionary challenges involve both linguistic and extra-linguistic factors. Onomastic vocabulary enhances thematic depth in literary works like Ajiz's Divan. Interpretation problems stem from cultural associations and historical references. Systematic categorization aids in evaluating lexicographic rendering of names. The onomastic dictionary limits its scope exclusively to proper names. Modality components in sayings vary across English, Tatar, and Spanish. Onomastic research provides insights into social and economic history. Overall, proper names require specialized lexicographic strategies in bilingual contexts.

**REFERENCES:**

1. Rahmatullayev, S. (2010). *O'zbek tilining etimologik lug'ati*. Universitet.

2. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman dictionary of language teaching and applied linguistics* (4th ed.). Pearson Education.

3. Room, A. (1996). *An alphabetic guide to the language of name studies*. Scarecrow Press.

4. Superanskaya, A. V. (1973). *Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo* [General theory of proper names]. Nauka.

5. United Nations Group of Experts on Geographical Names (UNGEGN). (2006). *Manual for the national standardization of geographical names*. United Nations Publications.

**UO'K 82-31; 81-272; 159.9**

## NAZAR ESHONQUL NASRIDA O'LIM OBRAZINING BADIIY TALQINI

***M.G.Boynazarova, talaba, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***
***M.A.Xamidova, dots., Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada iste'dodli yozuvchi Nazar Eshonqulning "Tobut" hikoyasidagi o'lim obrazining badiiy-falsafiy qirralari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida shahar ramzi va tobut timsoli orqali inson ruhiyatidagi inqiroz, jamiyatdan begonalashuv hamda o'zlikni yo'qotish fojiasi ochib berilgan. Muallifning o'lim tushunchasiga o'ziga xos, noodatiy yondashuvi asarning ramziy qatlamlari misolida yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Nazar Eshonqul, 'Tobut' hikoyasi, inson taqdiri, o'lim, shahar, hayot va o'lim.*

***Аннотация.*** *Статья посвящена детальному разбору художественных и философских граней образа смерти в рассказе Назара Эшонкула «Гроб». Автор анализирует, как через символику города и метафору гроба раскрывается глубокий духовный кризис личности. Особое внимание уделяется процессам отчуждения современного человека и болезненной утрате его самоидентичности в условиях духовного застоя. В ходе исследования рассматриваются символические пласты произведения и специфический подход автора к концепции смерти.*

***Ключевые слова:*** *Назар Эшонкул, рассказ «Гроб», судьба человека, смерть, город, жизнь и смерть.*

***Abstract.*** *This article provides a comprehensive analysis of the artistic and philosophical dimensions of the image of death in Nazar Eshonqul's short story "The Coffin." Through the symbolic representation of the city and the metaphor of the coffin, the study explores the spiritual crisis of the individual, alienation, and the tragic loss of selfhood. Particular attention is paid to the author's unique approach to the concept of death, examining the intricate symbolic layers of the narrative.*

***Key words:*** *Nazar Eshonqul, "The Coffin" story, human fate, death, city, life and death.*

**Kirish.** Nazar Eshonqul bugungi o‘zbek adabiyotining eng mahoratli yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Uning asarlari boshqa yozuvchilarnikidan o‘zining ramzlarga boyligi va chuqur ma’nosi bilan ajralib turadi. Biz ushbu maqolada yozuvchining "Tobut" hikoyasini tanlaganimizning sababi — unda hozirgi zamon insonining eng katta muammolari tasvirlangan.

Maqolaning **asosiy maqsadi** — hikoyadagi "shahar" va "o‘lim" obrazlari orqali muallif nima demoqchi bo‘lganini tahlil qilishdir. Ushbu mavzu bugungi kun uchun juda **dolzarb**. Chunki hozirgi odamlar ko‘pincha moddiy boylik ketidan quvib, o‘zining ichki dunyosini, ma’naviyatini va asl kimligini unutib qo‘ymoqda. Maqolada aynan mana shu "ma’naviy o‘lim" fojiasi hikoya misolida ochib beriladi.

**Asosiy qism**. Ushbu mavzuni o’rganar ekanmiz, avvalo, asardagi simvolizm masalasiga to’xtalib o’tish joiz. Bu mavzuda adabiyotshunos **Shalola Davletova** o’z tadqiqotida Nazar Eshonqul uslubini shunday tavsiflaydi:*"Yozuvchining ramziylikdan mohirona foydalanish mahorati g‘arb postmodernizm vakillari uslubini eslatadi"*. Uning fikricha, asardagi eng katta ramz bu — **"tobut shaklidagi shahar"** bo'lib,

u insoniyatning mol-u davlatga berilishi va o‘z ehtiyojlari ortidan yugurib, oxiratini unutib qo‘yganini ifodalaydi. Ramziylik masalasiga to‘xtalganda, uning ildizlari juda qadimga borib taqalishini unutmaslik kerak. Ushbu qarashlar egasi ta’kidlashicha, insoniyat paydo bo‘lgan ilk davrlardayoq tabiat hodisalariga, masalan, olov yoki momaqaldiroqqa ilohiy bir belgi sifatida qaralgan. Aynan mana shu ibtidoiy tushunchalar bugungi zamonaviy simvolizmning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Nazar Eshonqul asarlaridagi ramzlar ham shunchaki o‘ylab topilmagan, balki mana shunday chuqur tarixiy poydevorga ega ekanligi bilan ajralib

turadi [1,B. 1-4].

Shuningdek, boshqa bir yondashuvga ko’ra, hikoyadagi shahar obrazi quyidagicha yuritiladi. Bu mavzuda **Rayhona Ro‘zmurodova** asardagi ijtimoiy og‘riqlarga urg‘u beradi. Uning yozishicha, hikoyadagi shahar havosining achqimtir va dimligi — *"jamiyatga oralagan 'qurtlar'ning isiga ishora qiladigan ramziylikdir"*. Ro‘zmurodova shahar hokimi obrazini ham juda keskin tahlil qiladi: *"Hokim portreti... xuddi tobutning o‘zi kabi qimmatbaho yog‘ochdan did bilan yasalgan, ammo ichida sasib chirib ketgan mayyit bor"*. Bu tahlil orqali jamiyatdagi tashqi yiltiroqlik va ichki chirish fojiasi ko‘rsatiladi. Yozuvchi ijodida milliy ruh va ona zaminga bo‘lgan sadoqat masalasi ham o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Maskur tadqiqot muallifi bu haqda yozar ekan, Nazar Eshonqul o‘zbek xalqining eng toza tuyg‘ularini, ya’ni kindik qoni to‘kilgan tuproqqa bo‘lgan muhabbatini asarlariga mahorat bilan singdirganini aytadi. "Tobut" kabi hikoyalar orqali vatanining asl sohibi bo‘lish va ozodlik g‘oyasi turli ramziy timsollar yordamida kitobxonga yetkazilgan

[2,B. 75-79].

Shuningdek, ushbu hikoyani tahlil qilgan boshqa bir qarashga ko’ra, asardagi asosiy ma’no insonning yolg’izligi bilan bog’liqdir. Masalan asarda adabiyotshunos **Donoxon Artiqova** hikoyaning falsafiy-ruhiy qatlamlarini ochib beradi. Uning fikricha, *"Tobut — bu shunchaki buyum emas. U inson va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik, unutilmaslik, eslab qolinish istagining timsoliga aylanadi"*. Muallif qahramonning qo‘rquvini shunday tushuntiradi: *"Bosh qahramon tobutsiz dafn qilinishni ijtimoiy e’tirof etilmaslikning ramziy ifodasi sifatida qabul qiladi"*. Shuningdek, Artiqova ushbu asar uslubini Frans Kafka va Albert Kamyu ijodiga qiyoslab, undagi *"inson va jamiyat o‘rtasidagi tushunarsizlik va begonalikni"* alohida ta’kidlaydi. Darhaqiqat, hikoyadagi bosh qahramonning atrofidagi voqealarga nisbatan befarqligi va o‘z ichki dunyosiga qamalib qolgani

yuqoridagi fikrlarni to‘liq tasdiqlaydi. U xuddi Kamyu qahramonlari kabi jamiyatdan uzilgan, odamlar orasida bo‘lsa-da, o‘zini yolg‘iz his qiladi. Asardagi 'tobut' ramzi esa nafaqat jismoniy o‘limni, balki insonning ma’naviy yolg‘izligini ham anglatadi. Nazar Eshonqul bu tasvirlar orqali bizni yashashning mazmuni va insoniy munosabatlar haqida chuqur mushohada yuritishga chorlaydi. Asardagi tobut obrazi orqali insonning "mening hayotimdan nima qoladi?" degan og‘riqli savoliga javob qidiriladi. Yosh adabiyotshunos olima tahlillariga ko‘ra, qahramonning tobutsiz qolishdan hadiksirashi — bu shunchaki jismoniy qo‘rquv emas. Bu aslida insonning jamiyat tomonidan unutilib ketishdan cho‘chishi va o‘zidan keyin biror bir iz qoldirish istagining ramziy ko‘rinishidir. Shu ma’noda, tobut inson va jamiyatni bog‘lab turuvchi so‘nggi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Agar bevosita asar matniga nazar tashlaydigan bo’lsak, Nazar Eshonqul o’lim tushunchasini shunchaki jismoniy yo’qlik sifatida emas, balki ‘xotiraning butunlay o’chishi’ va ‘shaxsiyatning asta-sekin emirilishi’ sifatida talqin etadi [3,B. 277-279].

**Asar matnining badiiy tahlili.** Aslida hikoyani matnini sinchiklab o’qigan odam bir narsani payqaydi: Nazar Eshonqul uchun o’lim - bu shunchaki nafasdan to’xtash emas. Bu ko’proq **‘xotiraning butunlay o’chib ketishi’** yoki inson shaxsiyatining yemirilishidir. Masalan, asardagi yosh me’mor shahar ko’chalarida yurganida vitrinalarga qarab, u yerda o’z aksini emas, balki yuzi g’ira-shira bo’lgan mutlaqo notanish bo’lgan bir kimsani ko’radi. Nazarimda, yozuvchi shu kichik bir detal orqali o’limning vahshiy ko’rinishini tasvirlagan: odam tirik bo’la turib, o’zining kimligini unutsa va sekin-asta ‘tirik murdalar’ galasiga qo’shilib qolsa - mana shu haqiqiy fojia emasmi? Shuningdek, hikoyada vaqt tushunchasini ham o’ziga xos talqin etilgan. Muallif o’lim obrazini tasvirlashda “vaqtning to’xtashi” detalidan foydalanganidek tuyiladi. Qahramonlar go’yo mangu turg’unlik ichida yashayotgandik tasvirlanadi, bu esa harakatdan va ruhiy o’sishdan to’xtagan jamiyatning amaldagi “o’lim”dir. Bosh qahramonning atrofdagilarga nisbatan begonalashuvi esa shunchaki xarakter xususiyati emas, balki o’zini o’rab turgan ‘tobut-shahar’ga nisbatan ichki isyondir. U o’zini bu muhitga begona his qilar ekan, aslida qalbida hali uyg’oqlik borligini va “tirik murdalar” galasiga qo’shilmaslikka urinayotganini ko’rishimiz mumkin.

Asar syujetini kuzatar ekanmiz, shaharda tarqalgan o’sha g’alati o’limlar sababi tashqaridan emas, balki odamlarning ichki bo’shlig’idan qidiriladi. Taftish guruhi a’zolari o’lim ildizini suvdan, havodan yoki ovqatdan qidirib ovora bo’lishadi. Biroq, hikoyadagi nozik ishoralarga ko’ra, bu o’limning asl nomi - **‘yurakning toshga aylanishi’**. Muallif qahramonlar tili bilan o’limni ‘qutulish’ deb emas, ‘qamalish’ deb ataydi. Ya’ni odamzod o’zining xudbinligi va kundalik mayda-chuyda tashvishlari bilan shunday shahar qurganki, o’lim ularni butunlay shu ‘tobut’ ichiga mixlab qo’yadi.

Shuningdek, hikoyada telba me’mor tomonidan aytilgan bir acchiq haqiqat borki, u kishini titratadi: **‘Sizlar qurayotgan har bir bino aslida bitta qabrdir’.** O’ylashimcha, muallif bu bilan moddiy boylikka haddan tashqari berilish insonning ma’naviy zavoliga xizmat qilishini uqtirmoqchi. G’alati bo’lsa-da, shahar me’mori o’limni ‘uyg’onish’ deb hisoblaydi. Chunki faqatgina o’lim bilan yuzma-yuz kelgan soniyalarda inson o’zining qanchalik xato yo’lda ekanini butun borlig’i bilan his qilishi mumkin. Bu falsafiy nuqtai nazar maqolalardagi ijtimoiy tahlillardan ancha baland turadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning “Tobut”hikoyasi insoniyatni o’z ma’naviy qiyofasini saqlab qolishga chorlaydigan ulkan falsafiy ogohlantirishdir. Tadqiqotimiz davomida ma’lum bo’ldiki, yozuvchi o’lim obrazini shunchaki jismoniy yo’qlik emas, balki shaxsiyatning emirilishi, xotiraning o’chishi va loqaydlik kishanlariga qamalish sifatida mahorat bilan talqin etgan. Asardagi telba me’mor obrazi va u qoldirgan tobut shaklidagi shahar loyihasi bugungi jamiyatdagi ma’naviy inqirozning eng yorqin badiiy timsolidir.

Mening fikrimcha, hikoyada tasvirlangan vaqtning to’xtab qolishi va qahramonning atrofdagilarga begonalashuvi tasodifiy detallar emas.Bular insonning moddiy dunyo asiriga aylanishi natijasida uning ruhiyati qanday turg’unlikka yuz tutishini ko’rsatadi. Vitrinalarda o’z aksini tanimay qolgan inson fojiasi - bu o’zligidan kechgan jamiyatning umumiy ko’rinishidir. Asardagi “shahar-tobut” ramzi bizni bugungi kunda faqat tashqi hashamat ortidan quvmay, ichki dunyoyimizni ham tirik saqlashga undaydi.

Yakuniy natija sifatida aytish mumkinki, Nazar Eshonqul ushbu hikoyasi orqali har bir kitobxonni hushyorlikka chorlaydi. Zero, inson o’zligini anglab, ma’naviy uyg’oqlikka erishar ekan,

u har qanday "tobut"dan chiqishga va haqiqiy ruhiy ozodlikka erishishga qodir bo'lib qolaveradi. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar asarning badiiy qatlamlarini chuqurroq anglashga va o'lim obrazining ramziy ma'nolarini tizimli ravishda yoritishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Davletova Sh. B. Nazar Eshonqul asarlarida badiiy yukning simvolikada aks etishi. – Toshkent, 2025.
2. Ro'zmurodova R. Nazar Eshonqul ijodida fojia talqini. – 2024.
3. Artiqova D. O. "Tobut" falsafasi yoxud unutilayotgan inson. – Toshkent: O'zJOKU, 2024.
4. Eshonqul N. Chorrahada qolgan odam. – Toshkent: Sharq, 2007.

**UO'K 81'23**

## EMOTSIYA KONSEPTLARINING METAFORIK KONSEPTUALIZATSIYASI (O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI QIYOSI MISOLIDA)

***N.Sh.Bultakova, tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada emotsiya konseptlarining metaforalar yordamida ifodalanishi masalasi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinadi. Maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad emotsiyalarning ingliz va o'zbek tillarida qaysi metaforalar yordamida konseptualizatsiya qilinishi, ular o'rtasida o'xshashliklarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tahlil obyekti sifatida g'azab (anger), qayg'u (sadness) va qo'rquv (fear) konseptlari tanlandi. Tahlilni amalga oshirishda ingliz tili uchun Ch.Brontening "Jane Eyre" va o'zbek tili uchun O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" kitoblari tanlab olindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikkala asarda emotsiyalar asosan kuch, sovuqlik, olov, yuk va jismoniy jarohat kabi obrazlar orqali ifodalangan.*

***Kalit so'zlar:*** *emotsiya konsepti, konseptual metafora, kognitiv tilshunoslik, manba domeni, maqsad domeni, g'azab, qo'rquv, qayg'u, qiyosiy tahlil.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается проблема концептуализации эмоциональных концептов посредством метафор с точки зрения когнитивной лингвистики. Основной целью исследования является выявление концептуальных метафор, с помощью которых эмоции концептуализируются в английском и узбекском языках, а также проведение сравнительного анализа сходств между ними. В качестве объекта исследования были выбраны три эмоциональных концепта: гнев (anger), печаль (sadness) и страх (fear). Материалом исследования послужили роман Шарлотты Бронте «Jane Eyre» и роман Уткира Хошимова «Ikki eshik orasi». Результаты анализа показали, что в обоих произведениях эмоции преимущественно концептуализируются посредством таких образов, как сила, холод, огонь, тяжёлый груз и физическое повреждение.*

***Ключевые слова:*** *эмоциональный концепт, концептуальная метафора, когнитивная лингвистика, сфера-источник, сфера-цель, гнев, страх, печаль, сопоставительный анализ.*

***Abstract.*** *This article examines the metaphorical conceptualization of emotion concepts from the perspective of cognitive linguistics. The main aim of the study is to identify the conceptual metaphors through which emotions are represented in English and Uzbek and to conduct a comparative analysis of the similarities between them. Three emotion concepts were selected as the object of analysis: anger, sadness, and fear. The research is based on Ch. Brontë's* Jane Eyre *for English and O. Hoshimov's* Between Two Doors *(*Ikki eshik orasi*) for Uzbek. The findings reveal that in both literary works emotions are predominantly conceptualized through such source domains as force, coldness, fire, burden, and physical injury.*

***Keywords:*** *emotion concepts, conceptual metaphor, cognitive linguistics, source domain, target domain, anger, fear, sadness, comparative analysis.*

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslik doirasida til, tafakkur va madaniyatining o'zaro aloqasini tadqiq qilishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, emotsiya konseptlari va ularning til orqali konseptualizatsiya bo'lish jarayoni hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Emotsiyalar inson tajribasining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ular insonlarning atrof muhitga, narsa va predmetlarga, voqea va hodislarga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydigan murakkab ruhiy hodisadir. Emotsiyalar abstrakt

tushunchalar bo‘lganligi sababli, ularni anglash va tasvirlash jarayoni insonning jismoniy tajribasi, sezgilari va kundalik hayotdagi narsa va hodisalar yordamida amalga oshadi. Shu sababdan, emotsiyalarning til orqali ifodalanishi ko‘pincha metaforik xarakterga ega bo‘ladi.

Metafora yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “ko‘chirish” degan ma’noni bildiradi. Unda biror narsa yoki hodisanining xususiyati o‘xshashlik asosida boshqasiga ko‘chiriladi. Metafora tilshunoslik va adabiyotshunoslikda eng ko‘p tadqiq etilgan hodisalardan biri bo‘lib, u semantika, stilistika, lingvokulturologiya, pragmatika va kognitiv tilshunoslik kabi ko‘pgina yo‘nalishlar doirasida o‘rganiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Metafora nazariyasining ilk asoschilardan bo‘lgan Aristotel fikriga ko‘ra metafora nutqni bezash usuli bo‘lib, u nutq mazmuniga qo‘shimcha axborot qo‘shmaydi.. Ammo kognitiv tilshunoslik doirasidagi zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra metafora shunchaki bezak emas, balki konseptual tizimimizning bir qismi sifatida o‘rganiladi. Amerikalik olimlar G.Lakoff va M.Johnson “Metaphors we live by” kitobi orqali konseptual metafora nazariyasiga asos solishgan. Ushbu nazariyaga ko‘ra, metaforalar faqatgina til hodisasi emas, ular dastlab inson tafakkurida konseptual tuzilma sifatida shakllanadigan va lingvistik birliklar orqali nutqda namoyon bo‘ladigan inson tafakkurining fundamental mexanizmidir. Bizning tilimiz va fikrlashimiz metaforalar bilan to‘la deyiladi ushbu kitobda.

Polshalik olim Zoltan Kovecses Lakoff va Jonson tomonidan asos solingan nazariy yondashuvga tayangan holda emotsiyalarni konseptual metaforalar orqali tadqiq qiladi. Olim o‘z tadqiqotlarida emotsiyalarning katta qismi metaforik xarakterga ega ekanligini hamda insonlar emotsiyalarini asosan metaforalar orqali tushunishi va konseptualizatsiya qilishini asoslaydi. Kovecses metaforalarni emotsiyalarni ifodalash bilan cheklanmasligini, balki ularni idrok etish va konseptualizatsiya qilish jarayonida ham muhim ro‘l o‘ynashini ta’kidlaydi. U emotsiya konseptlarini bir nechta prototipik kognitiv modellar atrofida to‘planadigan konseptual tuzilmalar sifatida baholaydi. Konseptual metafora esa mana shu kognitiv model tizimlarini tashkil etuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida ma’lum emotsiya konseptlari bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan, xususan: g‘azab (Glynn 2012), qo‘rquv (Oster, 2010, 2012), quvonch (Nguyen, 2016; Rajeg, 2019; Stefanowitsch, 2004), uyat (Krawczak, 2014,) va boshqalar. Ushbu tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab emotsiyalar asosan metaforalar yordamida konseptualizatsiya qilinadi va tushuniladi.

O‘zbek tilshunosligida dastlab Sh.Safarov kognitiv tilshunoslik, konsept, til va tafakkur munosabati masalarini o‘zbek tiliga olib kirgan. Keyinchalik esa N.Mahmudov, H.Juraqobilova, D.Xudoyberganova va boshqa bir qator olimlar konsept, konseptual metafora va emotsionallik masalalarida bir qancha tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida metafora va emotsionallik hodisalari alohida tadqiq qilingan bo‘lsa ham, emotsiyalarning konseptual metaforalar orqali konseptualizatsiya qilinishi masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora bir biridan mutlaqo uzoq bo‘lgan ikkita konseptning birlashuvi natijasida hosil bo‘ladi. Ulardan biri manba domeni (source domain) va ikkinchisi maqsad domeni (target domain) deb nomlanadi. Manba domeni kognitiv tajribada bevosita kuzatiladigan, jismoniy tajriba orqali anglanadigan va subyekt ongida oldindan shakllangan konkret konseptual sohani anglatadi. Maqsad domeni esa bevosita sezgi organlari orqali idrok etib bo‘lmaydigan abstrakt konseptlar hisoblandi. Konseptual metafora jarayonida maqsad domenining mazmuni manba domeni strukturalari orqali talqin qilinadi va konseptuallashtiriladi. Misol uchun, ingliz tilidagi *boiling with anger* yoki o‘zbek tilidagi *qoni qaynadi* metaforalarini olaylik. Ikkala tildagi metafora ham g‘azablangan inson holatini ifodalamoqda. G‘azab abstrakt emotsional holat bo‘lganligi sababli uni tushuntirishda qizigan va qaynayotgan suyuqlik obrazidan foydalanilmoqda. Ushbu metaforada g‘azab maqsad soha, qaynayotgan suyuqlik obrazi esa manba soha hisoblanadi.

Kovecsesga ko‘ra emotsiyalarni ifodalashda harorat, bosim, modda, kuch va harakat ko‘pincha manba domeni sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga raqib, hayvon, hukmron kuch va yuk kabi manba domenlaridan foydalanish mumkin ekanligini ta’kidlaydi.

Mazkur maqolada g‘azab -anger, qayg‘u - sadness va qo‘rquv – fear emotsiyalarining metaforalar orqali ifodalanishi ingliz tilidagi “Jane Eyer” hamda o‘zbek tilidagi “Ikki eshik orasi” asarlaridan olingan namunalar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida metaforalar aniqlanib, ularning konseptual modellari hamda ikki tildagi ifodalar o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqli jihatlar ko‘rib chiqiladi. Tahlilda sadness konsepti doirasida grief, sorrow, dejection va sadness kabi qayg‘uni ifodalaydigan emotsional holatlar birgalikda ko‘rib chiqildi.

**Tahlil va natijalar. G‘azab (Anger)** Tahlil qilingan asarlardan to‘plangan materiallar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tilidagi ushbu asarlarda g‘azab konsepti turli metaforalar yordamida konseptualizatsiya qilinadi. O‘zbek tilidagi asarda keltirilgan metaforalarda g‘azab asosan olov, qizigan suyuqlik kabi manba domenlari orqali ifodalangan: *“ichim qizidi”, “ko‘zining qorachig‘ida olov yonardi”, “ko‘zlarida rosmana vahshiy o‘t yonardi”, “qonim qaynab ketdi”*. Ingliz tilidagi asardan olingan *“the embers of my decaying ire”* misolida ham olov obrasi kuzatiladi. Bundan tashqari, *“my heart in insurrection”* hamda *“deep ire and desperate revolt”* misollarida esa g‘azab inson ichida bosh ko‘targan isyon sifatida tasvirlansa, *“she’s like a mad cat”* misolida esa nazoratdan chiqqan hayvon obrazi orqali konseptualizatsiya qilingan. Demak, tahlil qilingan asarlarda g‘azab konseptining metaforik ifodasida har ikkala tilda ham olov metaforasi kuzatiladi. Biroq ingliz tilidagi asarda g‘azabni konseptuallashtirishda isyon va hayvon obrazlariga asoslangan metaforik modellar ham qo‘llangan.

**Qo‘rquv (Fear)** Tahlil qilingan asarlardan olingan misollar qo‘rquv konseptini ikkala tilda ham asosan o‘xshash metaforalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Xususan, o‘zbek tilidagi *“yuragimni qo‘rquv bosdi”* misolida qo‘rquv inson ustidan hukmronlik qiladigan kuch sifatida tasvirlangan bo‘lsa, ingliz tilidagi *“I was oppressed, suffocated”* misolida ham qo‘rquv konsepti ezuvchi va bo‘g‘uvchi kuch sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari ikkala asarda ham qo‘rquvni sovuqlik obrazi bilan bog‘lagan metaforalar talaygina*: “I was chilled with fear”, “turned me stone-cold with ominous terror”*. “Ikki eshik orasi” da keltirilgan *“dahshat ichida qotib turardi”* misolida qo‘rquv insonni harakatsiz holatga keltiruvchi kuch sifatida ifodalanadi. Shuningdek, “Jane Eyer”dagi *“the throb of fear disturbs it*” va *“gathering dread”* misollarida qo‘rquv kuchayib boradigan va ruhiyatga ta’sir ko‘rsatuvchi hodisa sifatida tasvirlangan. Demak tahlilga natijalariga ko‘ra qo‘rquvning sovuqlik va qisman hukmron kuch sifatidagi ifodasi ikkala til uchun ham umumiy hisoblanadi.

**Qayg‘u (sadness)** G‘azab va qo‘rquv konseptlariga nisbatan qayg‘u konseptining metaforik ifodalanishida ikkala asar o‘rtasida ko‘proq o‘xshashliklar borligi kuzatildi. O‘zbek tilidagi *“g‘am odamni ezib qo‘yarkan”* va *“yelkamga tog‘ qulagandek bo‘ldi”* misollarida qayg‘u bosim o‘tkazuvchi kuch va og‘ir yuk sifatida tasvirlangan. Ingliz tilidagi *“impassioned grief had trampled one and stifled the other”* hamda *“grief harassed and crushed me altogether”* misollarida ham qayg‘u insonni ezuvchi va unga ta’sir o‘tkazuvchi kuch sifatida ifodalangan. Shuningdek, har ikkala asarda ham qayg‘u konsepti pastga yo‘nalgan harakat bilan bog‘liq metaforalar orqali ifodalangan. Buni *“ko‘nglim cho‘kib ketdi”, “ko‘nglimga g‘am cho‘kdi*” hamda *“my heart sank with dejection”* kabi birliklar misolida kuzatish mumkin. Bundan tashqari, ingliz tilidagi *“its gaping wounds”* va *“its inward bleeding”* misollarida qayg‘u jismoniy jarohat sifatida, *“bu g‘am sekin-asta ich etimni kemiradi”* misolida esa yemiruvchi kuch yoki mavjudot sifatida tasvirlangan. Demak, tahlil qilingan asarlarda qayg‘u asosan insonni ezuvchi kuch, og‘ir yuk va jismoniy azob bilan bog‘liq metaforalar orqali konseptualizatsiya qilingan bo‘lib, shu jihatdan ikki asarda keltirilgan qayg‘u metaforalari o‘rtasida sezilarli o‘xshashliklar kuzatiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, emotsiyalar mavhum tushunchalar bo‘lganligi sababli ular ko‘pincha metaforalar yordamida konseptualizatsiya qilinadi. Bu jarayonda manba domenlari sifatida asosan inson tanasida sodir bo‘ladigan fiziologik jarayonlar xizmat qiladi. Tahlil qilingan asarlarda qo‘rquv, g‘azab, qayg‘u konseptlari turli manba domenlari orqali ifodalangan bo‘lsa ham ular o‘rtasida bir qancha o‘xshashliklar mavjud. Jumladan, g‘azab konseptining metaforik ifodalanishida olov obrazi, qayg‘uni ifodalashda ezuvchi kuch va jismoniy azob, qo‘rquvni tasvirlashda esa sovuqlik va hukmron kuch bilan bog‘liq obrazlarning har ikkala tilda ham mavjud ekanligini ko‘rish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Brontë Ch. Jane Eyre. – London: Smith, Elder & Co., 1847.

2. Gibbs R. W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
3. Glynn D. The Conceptual Structure of Anger // Review of Cognitive Linguistics. – 2012. – Vol. 10(1). – P.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2018.
5. Juraqobilova H. Kognitiv metafora va uning tarjimada aks etishi//Xorijiy filologiya.–Samarqand,2021.–№2–B.
6. Kövecses Z. Conceptualizing Emotions: A Revised Cognitive Linguistic Perspective // Poznań Studies in Contemporary Linguistics. – 2015. – Vol. 51(1).
7. Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press.
8. Krawczak, K. (2014a). Shame, embarrassment and guilt: Corpus evidence for the cross-cultural structure of social emotions. Poznan Studies in Contemporary Linguistics, 50(4).
9. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
10. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab… // O'zbek tili va adabiyoti.–Toshkent, 2012. – №5.
11. Nguyen, V. T. (2016). The cross-cultural analysis of the metaphorical conceptualization of happiness in English and Vietnamese: Idioms can tell. Review of Cognitive Linguistics, 14(2).
12. Oster, U. (2010). Using corpus methodology for semantic and pragmatic analyses: What can corpora tell us about the linguistic expression of emotions? Cognitive Linguistics, 21(4), 727–763.
13. Oster U. Fear and Emotion Concepts in Cognitive Linguistics // Review of Cognitive Linguistics. – 2010. – Vol. 8(2).

**UO'K 81'23:81'37**

## SENSOR LINGVISTIK PARADIGMA TAMOYILLARI XUSUSIDA

***M.Burxanova, dots., PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida taqditot obyektiga aylanib ulgurmagan sezgilar tili, ya'ni sensor lingvistik paradigma xususida so'z boradi. Sezgilar tilini o'rganishning metodologik asoslari, tadqiqot tamoyillari ajratiladi. Bunda tafakkur mezonlariga asoslanish zarurligi ta'kidlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *sezgilar tili, sensor lingvistik paradigma, tamoyil, bilish usuli, paradigma, sezgi a'zolari faoliyati, umumiy bilim fondi, sensor tajriba.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматривается язык ощущений, или сенсорная лингвистическая парадигма, которая до настоящего времени не стала объектом систематического исследования в узбекском языкознании. Выделяются методологические основы и основные принципы исследования языка ощущений. Особое внимание уделяется необходимости опоры на принципы познания при изучении данного языкового явления.*

***Ключевые слова:*** *язык ощущений, сенсорная лингвистическая парадигма, принцип, метод познания, парадигма, функционирование органов чувств, общий фонд знаний, сенсорный опыт.*

***Abstract.*** *This article explores the language of sensations, or the sensory linguistic paradigm, which has not yet become an object of systematic research in Uzbek linguistics. It identifies the methodological foundations and research principles for studying the language of sensations, emphasizing the necessity of relying on the principles of cognition in its investigation.*

***Key words:*** *language of sensations, sensory linguistic paradigm, principle, method of cognition, paradigm, functioning of the sense organs, common body of knowledge, sensory experience.*

Sensor lingvistika sezgilar tilini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida shakllanar ekan, uning mohiyatini ifodalovchi va ko'rsatuvchi asosiy masalalardan biri bu inson sezgi a'zolarining vazifalarini aniqlashdan iboratdir. Borliq elementlari va olam manzarasi perseptor tomonidan dastlab kuzatish bosqichida bo'ladi. Sezgi bilan bog'liq jarayonlar esa kuzatish bilan idrok qilish oraligida yuz beradi. Shuning uchun ham sensorikaga oid aksariyat tadqiqotlarda sensor tajribalar bilan bog'liq tushunchalar ochiq qoladi. So'z sensor tajriba mazmuniga aniqlik kiritish to'g'risida borar ekan, dastlab, tajriba so'zining lug'aviy ma'nosiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ma'lumki, tajribani amaliyot davrida yoki kuzatish jarayonida inson tafakkurida hosil qilingan bilimlar shakli sifatida baholash kerak. Agar tajriba kuzatishlar amaliyoti va o'rganishlar natijasida olingan ilmiy xulosalarga asoslangan umumiy bilimlar deb baholansa, sensor tajribani inson

tafakkurida sezgi a’zolari funksiyalariga asoslangan bilimlar yig’indisi deb hisoblash mumkin. Turmush tarzi davomida orttirilgan yoki sinov ishlari amaliyoti bilan bog’liq bilim va malakalar yig’indisi tajriba tushunchasini aks ettiradi. O‘zbek tilining izohli lug’atida tajriba so’zining lug’aviy ma’nosi to’rt bandda izohlanadi: “tajriba – sinov, eksperiment, test, malaka, mahorat, sinov, imtihon, mashq, tayyorgarlik ..; amaliy ishda, hayotda o’zlashtirilgan, orttirilgan bilimlar, malakalar, uquvlar majmuyi ..; obyektiv dunyoni, voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni, obyektiv dunyo va ijtimoiy amaliyot qonunlarining kishi ongidagi in’ikosi ..; bir masala, yo’nalishda dastlabki tarzdagi ish, harakat va uning mahsuli. Yosh ijodkorning birinchi tajribasi”[1, 14].

Tajriba so’zi bilan bog’liq mazkur lug’aviy izohlar oldiga sensor, ya’ni sezgi bilan bog’liq lug’aviy ma’noning qo’shilishi natijasida sensor tajriba tushunchasi hosil qilinadi. Sensor tajriba mazmunini sezgi a’zolari tomonidan inson ongiga yuborilgan xabarlarning tafakkurda jamlanishi va qayta ishlanishi bilan bog’liq tushunchalar yig’indisi deb anglash mumkin. Buni bitta so’z bilan inson tafakkurida hosil qilingan taassurot va uning yig’indisi deb tushunish mumkin. Olam manzarasi yoki borliqni kuzatish davomida inson tafakkurida paydo bo’lgan taassurotlar lisoniy vositalar bilan olamning lisoniy manzarasiga aylanadi. Lisoniy manzaraning mohiyatida sensor tajribalar yotadi. Kuzatishga asoslangan sensor tajriba mazmun va mohiyatini ikki xil talqin qilish mumkin bo’ladi. Sezgi a’zolari yordamida tajriba orttirish jarayoni vaqtga nisbatan ikki xil bo’lishi mumkin. Ma’lum muddatga asoslangan amaliy sensor tajriba subyektning har bir harakatida kuzatiladi. Buni tabiiy tilda turmushdan olingan saboq sifatida qabul qilish mumkin. Bunday tipdagi sezgiga asoslangan tajribalar inson tafakkurida amaliy va hissiy taassurot va malakalar bilan belgilanadi. Inson turmush tarzi davomida orttirgan umumiy tajriba va ilmiy kuzatishlari asosida olingan bilimlar yig’iindisi esa uzoq muddatli sensor tajribalar deb qabul qilinadi. Sensor tajribaning qisqa va uzoq muddatli har bir ko’rinishida inson fikrlash tarziga asoslangan tahlil va umumlashtirish tamoyillari bilan yo’g’rilgan munosabat ham aks etadi. Inson tafakkurida shakllangan olamning konseptual manzarasida munosabatning ifodalanish darajasi turlicha bo’ladi.

Sezgi a’zolari yordamida qabul qilinadigan xabarlar tahlili natijasida perseptiv modusning turlicha shakllari hosil qilinadi. Perseptiv modus o’z navbatida xabarni qabul qilish kanallari orqali guruhlarga ajratiladi. Lingvosensorika masalalarini o’rganishning birinchi tamoyili, albatta, o’z-o’zidan tanlangan yo’nalishning mohiyatiga kirib borish uning muammolarini ko’pligi hamda murakkabligidan kelib chiqadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, sezgilar tili muammolarini to’liq qamrab olish, uning o’ziga xos nozik qirralari va yangi gorizontlariga yaqinlashish imkoniyatini beruvchi o’rganish tamoyillaariga ehtiyoj ortib boradi. Shuning uchun ham sensor lingvistika sohasining mukammalligini ta’minlash maqsadida va tadqiqot uchun asos bo’ladigan tamoyilni tanlashda qaysi muammolar o’rganiladi degan masala muhim: sensorika va narrativ, sensorika va instinkt, aforizmlar va topishmoqlarda sezgi izlarini qidirish o’rganish tamoyilining har jihatdan mukammal bo’lishini talab qiladi.

Yuqoridagi ilmiy fikrlar mazmuni lingvosensorik muammolarni o’rganish tamoyili mohiyatini aniqroq his qilishga ko’mak beradi. Xususan, tamoyilning mohiyati sezgi va narrativ o’rtasidagi aloqadorlik bilan bog’liq muammolarni tahlil qilish va farqlash, shuningdek, inson sezgi a’zolari faoliyati bilan bog’liq funksiya va instinkt tushunchalari o’rtasidagi farqlanishga oid masalalarni tahlil qilish bilan ochilishi ilmiy podtekst tarzida namoyon bo’ladi. Demak, sensor lingvistika yo’nalishiga bag’ishlangan birinchi tamoyilning asosi soha muammolari bilan bog’liq tushunchalarga aniqlik kiritishdan iborat bo’ladi. Buni sezgi a’zolari bajaradigan funksiya bilan inson instinktlari o’rtasidagi o’zaro farqni tushuntirishdan boshlash kerak, degan ilmiy fikrlar bbirinchi tamoyilning mazmunidir.

Instinkt tushunchasi haqida gapirganda, avvalo, barcha mavjudotlar esga tushadi. Bu terminni ko’proq hayvon va hasharotlarga nisbatan qo’llash ma’quldek tuyuladi. Sababi, insonga xos eng muhim narsa anglash, tafakkur qilish va ijtimoiy muloqotga asoslangan ongli faoliyat instinkt tushunchasini insonga nisbatan qo’llashda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Eng muhimi,bu termin mohiyatida tug’ma biologik ehtiyojning mavjudligi inson tabiatida ham ayrim instinktga xos ko’nikmalar mavjudligidan dalolat beradi.

1. Himoyalanish instinkti. Bu instinktda inson o’zini har qanday holatlardan tabiiy ravishda himoyalaydi.

2. Ijtimoiylashuv instinkti. Har qanday inson u yoki bu jamiyatda boshqalar bilan muloqot qilishga, ijyimoiy munosabatlarni o’rnatishga harakat qiladi.

3. Oziqlanish instinkti. Yashash uchun oziqlanish instinkti.

4. Hududiylik instinkti. Har qanday insonning o’z yshash hududi, o’ziga tegishli mulkni himoya qilishga intilish kabi instinktlar

5. Qo'rquv instinkti. Tiriklik uchun daxl qiluvchi omillarni aniqlash va ularga reaksiya qilish.

6. Taqlidga moyillik instinkti. Inson dunyoga kelishi bilan kattalarning hatti-harakatlariga, yurish-turishlariga, gapirish manyerasiga taqlid qiladi.

Yuqorida sanab o’tilgan insonga xos biologik ehtiyojlar shartli tarzda inson instinktlari sifatida e’tirof etiladi. Bunday tipdagi instinktlardan besh sezgi a’zolari funksiyalarini farqlash kerak. Sezgi a’zolari borliqda ro’y berayotgan har qanday narsa-hoodisa va voqealar haqidagii xabarlarni inson tafakkuriga yuboradi. Bular ongli tarzda ro’y beradi. Shu jihatlari bilan sezgi a’zolari funksiyalari biologik ehtiyojlar natijaasida yuz beradigan ongsiz instinktlardan jiddiy farqlanadi. Shuning uchun ham sensor lingvistika yo’nalishida olib boriladigan izlanishlarning birinchi tamoyili yondosh va turdosh soha muammolariga doir tushunchalarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Sensor lingvistika muammolarini o’rganishga yondashuvning birinichi tamoyilini sohalararo terminlar ifodalagan tushunchalarni farqlash deb nomlash mumkin. Birinchi tamoyilning bunday nomlanishining sabablaridan biri tadqiqot uchun tanlangan muammolarning murakkabligi, ko’p aspektliligi va yo’nalishning yangiligi, ayni vaqtda, sensor lingvistika muammolari bir jihatdan biologiya, fizologiya, psixologiya va lingvistika kabi turli fan sohalari oralig’idagi muammolarni qamrab olishi bilan bog’liq. Shuning uchun ham turli fan sohalarining yondosh va turdosh terminlari ifodalagan tushunchalarda qorishiqlik holatlari kuzatilishi mumkin. Fan sohalari oralig’idagi o’zaro bir-birini taqozo etuvchi va konseptual jihatdan farqlanuvchi tushunchalarning oddiy izohidan murakkab tahliligacha bo’lgan nozik jarayon va bosqichlarni tavsiflash va ta’riflash sohalararo tushunchalar tavsifi tamoyili deb nomlanadi. Bunday tadqiqoqt tamoyili yordamida izlanish olib borish sensor lingvistika ning faqat o’ziga tegishli bo’lgan masalalarni aniqlashga yordam beradi. Yuqoridagi fikrlar asosida shunday ilmiy xulosaga kelish mumkinki, lingvosensorik tadqiqotlarning birlamchi tamoyili sohalararo tushunchalar tavsifi tamoyili deb nomlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 14-b.

2. Харченко В.К. Лингвосенсорика: функциональные и прикладные аспекты. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2012. – 216 с.

**UO’K 81'23:81'37**

## LINGVOSENSOR DALILLAR, TAYANCH TUSHUNCHALAR VA TADQIQOT TAMOYILLARI

***M.Burxanova, dots., PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi yo’anlishlaridan biri bo’lgan sezgilar tili masalalari haqida so’z boradi. Sezgilar tiliga taalluqli bo’lgan hamda sezgi guruhiga mansub bo’lgan eshitish, ko’rish, ta’m va hid bilish hamda teri sezgilari so’*zlovchining *munosabatiga asoslangan modus parametrlari tamoyillari bilan umumlashtirilishi, shuning uchun ham olam manzarasi va inson tafakkurida mavjud umumiy bilim fondi sezgilar tiliga mansub moduslarni ajratish uchun asos bo’lishi haqidagi fikrlar asosida sensor lingvistikaning tayanch tushunchalari va tadqiqot tamoyillari ajratiladi.*

***Kalit so’zlar:*** *sezgilar tili, sensor lingvistika, ko’rish, eshitish, hid bilish, taktil va ta’m sezgisi, umumiy bilim fondi, tayanch tushuncha, tadqiqot tamoyillari.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются вопросы языка ощущений как одного из новых направлений современной лингвистики. На основе положения о том, что слуховые, зрительные, вкусовые, обонятельные и тактильные ощущения, относящиеся к языку*

*ощущений, обобщаются в соответствии с принципами модусных параметров, основанных на отношении говорящего, а также о том, что картина мира и общий фонд знаний, существующий в человеческом сознании, служат основой для выделения модусов языка ощущений, определяются базовые понятия и основные принципы исследования сенсорной лингвистики.*

***Ключевые слова:*** *язык ощущений, сенсорная лингвистика, зрение, слух, обоняние, тактильные и вкусовые ощущения, общий фонд знаний, базовое понятие, принципы исследования.*

***Abstract.*** *This article examines the language of sensations as one of the emerging fields of modern linguistics. Based on the premise that auditory, visual, gustatory, olfactory, and tactile sensations, which constitute the language of sensations, are generalized according to the principles of modal parameters determined by the speaker's attitude, and that the worldview and the common body of knowledge existing in human cognition serve as the basis for distinguishing the modes of the language of sensations, the article identifies the fundamental concepts and the principal research approaches of sensory linguistics.*

***Key words:*** *language of sensations, sensory linguistics, vision, hearing, olfaction, tactile and gustatory sensations, common body of knowledge, fundamental concept, research principles.*

Ilm-fanning rivojlanganlik darajasi uning yangi yo'nalishlari ko'lamining kengligi, tadqiqot materiallarining lisoniy dalillar bilan ilmiy tahlil qilinganligi, sohaga doir ilmiy adabiyotlarning to'liq va mukammal sharhlanganligi hamda tanlangan yo'nalishga oid muammolar yuzasidan o'tkazilgan ilmiy va eksperimental tadqiqotlardan olingan xulosalarning aniqligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda qaysi fan va yo'nalish sohasi bo'lishidan qat'i nazar, xususan, ijtimoiy-gunanitar, aniq va tabiiy fan sohalarida amalga oshirilgan izlanishlar faqat fan sohalarining taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Har qanday rivojlanayotgan fan sohalarini yangi ilmiy dalillar, paradigmalar va muammolarni zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida talqin qilish, o'rtaga tashlangan muammolar yechimida bir fan doirasidan chiqib, uni yondosh va turdosh sohalar paradigmalari negizida amalga bugungi tilshunoslikning ham eng asosiy vazifalaridan biridir.

XX asr oxiri va XXI asrning birinchi choragida o'zbek tilshunosligi ham rivojlangan mamlakatlar tilshunosligi erishgan yutuqlardan bahramand bo'lgan holda o'zining eng maqbul tarqqiyot yo'lini tanlab oldi. Ayni vaqtda sohaga oid yangi yo'nalishlarda qator yutuqlarga erisha boshladi. Jumladan, matn tilshunosligi, lingvopoetika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, lingvoestetika, kognitiv tilshunoslik, matematik lingvistika, kommunikativ lingvistika kabi yo'nalishlarda katta ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdi. Bu borada hududlarda maxsus lingvistika maktablari shakllandi. Bundan tashqari, tilshunoslikning mazkur yo'nalishlari qatorida va kommunikativ tilshunoslikning paydo bo'lishi hamda rivojlanishi natijasida endigina bo'y ko'rsatayotgan lingvoestetika va sensor lingvistika sohalariga oid muammolar psixologlar, fiziologlar singari tilshunoslarning ham diqqatini o'ziga jalb qilmoqda. Inson muloqoti eng muhim masalalardan biriga aylanayotgan bugungi globallashuv davri ilmiy tilshunosligining shakllanishida muloqotning asosi hisoblangan sezgi a'zolari funksiyalari bilan bog'liq masalalarni o'rganish sensor lingvistika ning dolzarbligini belgilaydi.

Ma'lumki, boshqa fan sohalarida bo'lgani singaari tilshunoslikda ham yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ungacha bo'lgan qaysidir sohaning turdosh va yondosh muammolarining yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Bugun o'zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik haqidagi dastlkabki tushunchalar, uning muammolari va mundarijasini ishlanganlik darajasi va bu boradagi Sh.Safarov boshlagan ilmiy faoliyatning erishgan yutuqlari natijasida sensor lingvistikaga oid masalalar ham o'rtaga tashlana boshladi. Ayni vaqtda sezgilar tiliga bag'ishlangan sensor lingvistika haqidagi dastlabki tushunchalarni aytish va shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotni davom ettirishga kognitiv tilshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, psixolingvistika ayni shu fanning asosiy muammolari bilan shug'ullanadigan bolalar nutqi lingvistikasi, xorijlik olimlar tili bilan aytganda, "kognitiv lingvistika, kommunikativ lingvistika va ontolingvistika" [1,656] kabi tilshunoslikning istiqbolli ilmiy yo'nalishlari jadal rivojlanish yo'lidan

bormoqda. Demak, tilshunoslik fanida ham yangi yo’nalishlar genezisi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan fundamental konseptual ilmiy-amaliy nazariyalar fanning u yoki bu sohalarida oldindan mavjud bo’ladi. Ular ilmiy g’oyalar sifatida yangi yo’nalishning istiqbollarini belgilab beradi. Ana shunday yangi sohalardan biri sifatida endigina o’rganish rejalashtirilayotgan sezgilar tili masalalariga bag’ishlangan sensor lingvistika mazkur tadqiqotning asosini tashkil qiladi. Insonning tafakkur faoliyatiga asoslangan persepsiya, ya’ni idrok qilish va anglash bilan shug’ullanadigan lisoniy bilimlar sohasini o’z tarkibiga qamrab olgan lingvosensorikada besh sezgi a’zolarining verbal reprezentatsiyasi kabi masalalar o’rganliadi. Xususan, ko’rish, eshitish, teginish (taktil sezgi), ta’m va hid bilish kanallari orqali tafakkurga qabul qilinadigan xabarlarning lisoniy ifodalanishi va verballashishi kabi masalalar mazkur izlanishning asosi hisoblanadi. Ishimizning yuqori qismida ta’kidlanganidek, xorijlik tadqiqotchilar tomonidan sensor lingvistika doirasida amalga oshirilgan ishlarda sohaning eng asosiy muammolarining aynan lingvistikaga taalluqli nuqtalari ajratiladi. Buni A.Nagornaya “sensor lingvistika yo’nalishiga oid sezgi modusi yoki perseptiv moduslar” [2,57]deb nomlasa, boshqa ilmiy adabiyotlarda “…anglash va idrok sferasiga oid nomlarni perseptiv moduslar yoki idrok modusi tarzida ataladi, vizual modusga aloqador bo’lgan yorug’lik, rang, shakl va hajmni idrok etuvchi bir necha submoduslar [3,74] ajratiladi. Yuqoridagi sezgilar tili masalalariga bag’ishlangan fikrlardan ma’lum bo’ladiki, sensor lingvistika sezgi a’zolari funksiyalari yo’nalishiga oid ilm sohasi bo’lib, unda har bir xorijlik tilshunoslar yo’nalish mundarijasini to’g’ri belgilaydilar. Biroq bir muallif qarashlarida borliqda yuz berayotgan voqea-hodisalarni anglash va idrok qilish bilan bog’liq ilmiy tushunchalarda terminologik birliklar talqini ko’zga tashlansa, ikkinchi bir tilshunos izlanishlarida yo’nalishning predmeti va obyekti aniqlikka tomon yo’naltiriladi. Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, boshqa ilmiy tadqiqoqrtlarda bo’lgani singari ilmiy ish bilan shugullanayotgan izlanuvchilar qaysi tamoyil yoki metod bilan ishlayotganliklari haqida oshkora fikr bildirmaydilar. Masalaga qaysi tamoyil yoki metod bilan yondashish tanlangan muammoning predmeti va obyektiga bog’liq bo’ladi. So’z anglash va idrok qilish jarayoni bilan bog’liq bo’lsa, u o’z-o’zidan til va tafakkur, mentalingvistika, generativ lingvistika, kognitiv lingvistika kabi inson omili bilan bog’liq antropotsentrizm tamoyillariga borib taqaladi. Sensor lingvistika ham sezgilar tili va ularning tilda namoyon bo’lishi kabi masalalarni o’rganadi, o’z-o’zidan tadqiqot predmeti sezgi tili bo’lsa, sezgining lisoniy ifodalanishi yoki inson tafakkuridagi sezgilarga asoslangan g’oya va fikrlarning verballashishi tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot termini bilish usuli, bilish yo’li kabi ma’nolarni ifodalasa, bilish usuliga asoslangan tadqiqot metod hisoblanadi. O’z-o’zidan aytish mumkinki, sezgilar tili yuzasidan olib borilayotgan kuzatishlar jarayoniga taalluqli tamoyil va metodlarni oldindan belgilab bo’lmaydi. Tadqiqot tamoyili va metodlari izlanishlar natijasida avtomatik tarzda insonning tafakkur faoliyat mexanizmlarining asosi bo’lgan tahlil va umumlashmalarga nisbatan belgilanadi. Tanlangan yo’nalish doriasida muntazam ravishda sinov va tajriba ishlarini olib borish, lisoniy dalillar ustida tadqiqot predmeti yuzasidan ilmiy izlanish va kuzatishlar o’tkazish jarayoni ularga mos tarzda o’rganish tamoyillari va metodlarini talab qiladi. Bunday tamoyil va metodlar sohaga doir ilmiy adabiyotlar sharhi va badiiy adabiyot materiallaridan olingan lisoniy dalillarni tahlil qilish va sintezlashtirilishidan kelib chiqadi. O’zbek tilshunosligining yirik darg’alari hisoblangan N.Mahmudov boshchiligidagi lingvopoetika maktabi vakillari qarashlarida lingvopoetikaning yettita tamoyili mavjudligi to’g’risida fikrlar bildiriladi. Haqiqatan ham badiiy asar tili yuzasidan amalga oshirilgan izlanishlar natijasida til egalari jamoasi muloqotiga asoslangan til bilan ijodkor tili o’rtasida nozik poetik ifodalar mavjudligi ilmiy tafakkur mahsuli sifatida tilshunoslikda badiiy asar tili yoki lingvopoetika yo’nalishining shakllanishiga sabab bo’ldi.

Sensor lingvistika ga oid ishlarda ham o’ziga xos tamoyil va metodlarning mavjudligi to’g’risida ma’lum bir fikrlar bildiriladi. Bu, albatta, o’tkazilgan tadqiqot natijalari asosidagi tamoyillardir. Shu ma’noda sezgilar tili masalalarini o’rganish bilan bogliq tamoyillar va ularning miqdori haqidagi fikrlarni aytish va ularning samaradorligi to’g’risida munosabat bildirish ishning mazkur fasli uchun muhimdir. Sezgilar tili yo’nalishining ko’p aspektliligi, muammolarning hali mukammal darajada o’rganilmaganligi e’tiborga olinsa, muammolarga metodologik yondashuv tamoyillarini yoritish muhimligi va bu yo’nalishda asosan uchta tamoyil borligi e’tirof etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок: лингвистика детской речи. – М., 2000. Онтолингвистика – наук XXI века. Материалы международн.конф. – СПб.: Златоуст, 2011. – 656с.

2. Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное напавление современных лингвистических исследований. М.2017.С 57.

3. Рузин И.Г. Модусы перцепции (зрение, слух, осязание, обоняние, вкус) и их выражение в языке: Дис. … канд. филол. наук. – 1995. – С.74.

**UO'K 821.512.133-1.09**

# SHOIRA NODIRABEGIMNING NODIRA TAXALLUSIDA YOZILGAN FORSIY G'AZALLARI TO'G'RISIDA

***I.Bo'riyev, ilmiy xodim, O'zR FA Sharqshunoslik instituti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada buyuk o'zbek shoirasi Nodirabegimning Nodira taxallusi bilan yozilgan fors tilidagi g'azallari matnshunoslik jihatidan tahlil qilinadi. Shoiraning bizgacha yetib kelgan forsiy g'azallari asosan Maknuna taxallusida yozilgan. Biroq ularning ayrimlari Nodirabegim she'rlari ko'chirilgan bir devonda Nodira taxallusi bilan uchraydi. Natijada ayrim g'azallarning ikki xil varianti vujudga kelgan. Maqolada ulardagi matniy tafovutlar turli qo'lyozmalarni qiyoslash asosida o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Nodirabegim, Maknuna, adabiy muhit, o'zbek adabiyoti, devon, g'azal, zullisonayn, qo'lyozma, fors tili.*

***Аннотация.*** *В данной статье представлен текстологический анализ персидских газелей великой узбекской поэтессы Надирабегим, написанных под псевдонимом Надира. Дошедшие до нас персидские газели поэтессы в основном написаны под псевдонимом Макнуна. Однако некоторые из них появляются под псевдонимом Надира в сборнике стихов Надирабегим. В результате возникли две разные версии некоторых газелей. В статье изучаются текстологические различия в них на основе сравнения различных рукописей.*

***Ключевые слова:*** *Надирабегим, Макнуна, литературная среда, узбекская литература, газель, зуллисанайн, рукопись, персидский язык.*

***Abstract.*** *This article analyzes the Persian ghazals of the great Uzbek poet Nadirabegim, written under the pseudonym Nadira, from a textual point of view. The Persian ghazals of the poetess that have come down to us are mainly written under the pseudonym Maknuna. However, some of them appear under the pseudonym Nadira in a collection of poems by Nadirabegim. As a result, two different versions of some ghazals emerged. The article studies the textual differences in them based on a comparison of different manuscripts.*

***Keywords:*** *Nadirabegim, Maknuna, literary environment, Uzbek literature, divan, ghazal, zullisonayn, manuscript, Persian language.*

Buyuk o'zbek shoirasi Mohlaroyim Nodirabegim (1792–1842) Qo'qon xonligi adabiy muhitining taniqli namoyandasi, ma'rifatparvar davlat arbobidir. U yaxshigina ilmli ayol bo'lgan, turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Uning bu tillardagi ikki devoni saqlanib qolgan. Bularning qimmatli nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti manbalar xazinasida saqlanadi. Xususan, bu muassasada Nodiraning o'zbek tilidagi devonining ikki nusxasi mavjud [2: 194 var.; 3: 1a–154b]. Fors-tojik tilidagi devonning ham ikki nusxasi bor, biroq ularning ikkalasi ham nuqsonli [1: 132 var.; 4: 23 var.]. Shuningdek, mazkur muassasa manbalar xazinasida Nodiraning she'rlari kiritilgan to'rtta bayozning ham qo'lyozma nusxalari saqlanadi [5: 239 var.; 6: 244 var.; 7: 100 var.; 8: 147 var.]. Bularda ham o'zbek, ham fors-tojik tilidagi she'rlar uchraydi.

Shoiraning bizgacha yetib kelgan barcha forsiy g'azallari Maknuna taxallusida yozilgan, degan qarash sobiq sovet davridan beri o'zbek adabiyotshunosligida hukm surardi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida shoiraning o'ndan oriq g'azali Nodira taxallusi bilan yozilganligi aniqlandi. Biroq ular Nodirabegimning forsiy devonining bir qo'lyozma nusxasida Maknuna taxallusi bilan ham uchraydi. Bu asar Sharqshunoslik instituti manbalar xazinasi Asosiy fondida saqlanuvchi №7766 inventar raqamli qo'lyozma bo'lib, u Nodirabegimning fors tilidagi devonining nisbatan eng to'liq nusxasidir [1: 132 var.]. Mazkur fonddagi №4182 inventar raqamli qo'lyozmadan esa

shoiraning turkiy tildagi devoni o‘rin olgan. Shuningdek, unda forsiy tildagi g‘azallar ham uchraydi [3: 1a–154b]. Bu devon tarkibidagi Nodira taxallusida bitilgan 12 ta forscha g‘azal №7766 qo‘lyozmada Maknun taxallusida aynan keltirilgan, faqatgina maqtalarda va ayrim o‘rinlarda farqlar mavjud. Natijada bir nechta g‘azalning turli taxallus bilan yozilgan ikki xil varianti vujudga keladi.

Bu ikki qo‘lyozma matnlarini qiyosiy o‘rganish natijasida shoiraning №4182 tarkibidagi Nodira taxallusida bitilgan 12 ta forscha g‘azaldan 8 tasining maqtasi №7766 dagi she’rlardan butunlay farq qilishi aniqlandi [1: 6b, 6b-7a, 7b, 8a, 19b, 21b, 22a-22b, 23a-23b; 3: 8a, 9b-10a, 14b-15a, 26a-26b, 28b-29a, 29b-30a, 34a-34b]. Qolgan 4 ta g‘azalning maqtasida taxallus va bir-ikki so‘z o‘zgargan [1: 20b-21a, 22a, 22b-23a; 3: 27b-28a, 29a, 31b-32a, 34a-34b].

№4182da Nodira taxallusili fors tilidagi g‘azallarning birinchisi “Ey shamsai livoyat mehrest olamoro” 7 baytdan iborat. Uning tabdili 1963 va 1967-yilgi nashrlarda berilmagan, birgina 2004-yilgi nashrda bor [9: 246-621; 10: 19-364; 11: 11-12]. Ikki qo‘lyozmada ham, nashrda ham g‘azalning hajmi bir xil, dastlabki 6 bayt matn jihatidan deyarli farq qilmaydi. Maqtalar esa bir-biriga umuman o‘xshamaydi. Xususan, №7766da quyidagi maqta berilgan:

**او زهره است آب افعال اضطراب از**
**را حزین مکنونه کن ترحمی رب یا**

Tabdili quyidagicha: Az iztirobi af’ol obast zahre o‘, Yo rab, tarahhumiy kun Maknunayi xazinro [1: 6b]. Baytning ma’nosi: Turli qilmishlar tufayli yetishgan iztiroblar sababdan uning zahri suv kabi bo‘lib qoldi, Ey Xudo, bechora Maknunaga rahm ayla.

№4182da Nodira taxallusi bilan boshqa maqta keltirilgan:

**آید چه نادره از محشر به عاجزی جز**
**مولا قرب تو داری شفاعت لب بکشا**

Maqtaning tabdili quyidagicha: Juz ojizi ba mahshar az Nodira chi oyad, Biksho labi shafoat doriy tu qurbi mavlo [3: 8a]. Baytning ma’nosi: Qiyomat kuniga Nodiradan ojizlikdan boshqa nima ham kelardi, Shafoat labini och, chunki sen Xudoga yaqinsan.

2004-yilgi nashrda esa bu bayt Komila taxallusi bilan berilgan:

Juz ojizi ba mahshar az Komila chi oyad,
Biksho labi shafoat doriy tu qurbi mavlo [11: 11].

Demak, bunda birgina Nodira ismi Komilaga almashgan, ma’no №4182dagi baytdagi bilan bir xil. Biroq Komila taxallusi bilan ham bu maqtaning uchrashi qiziq holat. Afsuski, bizga ma’lum bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, 2004-yilgi nashrga asos bo‘lgan qo‘lyozma nusxa yo‘qolgan. Shu tufayli bu qo‘lyozmada rostdan ham Komila taxallusi yozilganmi yoki uni noshir to‘qib chiqarib nashrga qo‘shib qo‘yganmi, aniq aytish qiyin. Shuningdek, Komila taxallusli g‘azallar birgina shu nashrda uchrashi ham bu qo‘lyozma bor bo‘lganligiga shubha tug‘diradi. Shularni hisobga olsak, yuqoridagi g‘azal Maknuna va Nodira taxalluslari bilan yozilgani aniq, Komila taxallusi bilan qo‘lyozmalarda uchrashi esa isbotlanmagan.

№4182da Nodira taxallusili fors tilidagi g‘azallarning ikkinchisi “Intizoram bo tu, ey sarvi xiromonam biyo” 9 baytdan iborat. U №7766dan tashqari №660da ham uchraydi [1: 6b-7a; 3: 9b-10a; 5: 69b]. G‘azalning tabdili 1963, 1967 va 2004-yilgi nashrlarga kiritilgan [9: 246; 10: 19; 11: 13-14]. Uch nusxada ham, nashrda ham g‘azalning hajmi bir xil, dastlabki 8 bayt matn jihatidan deyarli farq qilmaydi. Maqtalar esa ilgarigidek bir-biriga umuman o‘xshamaydi. Xususan, №7766da quyidagi maqta berilgan:

**ام آشفته پر مکنونه او زلف خیال از**
**بیا پریشانم حال پرسش بر ساعتی**

Maqtaning tabdili quyidagicha: Az xayoli zulfi o‘, Maknuna, pur oshuftaam, Soati bar pursishi holi parishonam biyo [1: 6b-7a]. Baytning ma’nosi: Uning sochi xayoli sabab oshuftaholman, Maknuna, Parishon holimni so‘rash uchun bir soatga kelgin.

Bu maqta №7766 va №660da keladi. Shuningdek, uning tabdili 1963 va 1967-yilgi nashrlarga kiritilgan. №4182da bu g‘azalning maqtasi Nodira taxallusi bilan boshqacha shaklda berilgan:

**نادره حسرت اشک مژگان ز میریزد بیتو**
**بیا گریانم چشم توتیای خاکپایت**

Maqtaning tabdili quyidagicha: Be tu merezad zi mijgon ashki hasrat Nodira, Xokipoyat to‘tiyo chashmi giryonam, biyo [3: 9b-10a]. Baytning ma’nosi: Sensiz Nodira hasrat yoshlarini to‘kmoqda, Xokipoying giryon ko‘zimning to‘tiyosi, kelgin.

Bu maqta 2004-yilgi nashrda Komila taxallusi bilan aynan keltirilgan:

Be tu merezad zi mijgon ashki hasrat Komila,

Xoki poyat to‘tiyo chashmi giryonam, biyo [11: 13].

Bu yerda ham birgina Nodira ismi Komilaga yana almashgan, ma’no №4182dagi bilan bir xil. Biroq bu baytning mazmuni №7766 va №660dagi maqtanikidan keskin farq qiladi. Bunda va umuman 8 g‘azalda birgina maqtada o‘zgarishlar kuzatilib, qolgan baytlar deyarli bir xil bo‘lishining ikki sababini ko‘rsatish mumkin. Ularning birinchisiga ko‘ra, Nodirabegim dastlab Nodira taxallusida forsiy g‘azallar ham yozgan va keyinchalik ularni biroz o‘zgartirib Maknuna taxallusli devonida ham keltirgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi holatda esa shoira forsiy g‘azallarini birgina Maknuna taxallusi bilan yozgan, vaqtlar o‘tib bu she’rlarni ko‘chirgan xattot ularning ayrimlariga o‘zgartirish kiritgan bo‘lishi ham ehtimol. Nodira taxallusli forsiy g‘azallar birgina №660dagi bayozdagina uchrashi ham bu fikrni aytishga kichik bir asosdir. Biroq bu isbotlanishi lozim bo‘lgan bir taxmin, xolos.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo‘lgan shoira Nodirabegimning forsiy tildagi ijodiy merosi Qo‘qon xonligi adabiy muhitida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa uning Nodira taxallusi bilan bu tilda bir qancha g‘azallar yozganligi orqali o‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar davridan beri rivojlanib kelayotgan zullisonaynlik, ya’ni ikki tilda ijod qilish an’anasi asrlar osha Qo‘qon xonligida yangi bosqichga chiqqanini ko‘rish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

**1. مکنونه دیوان .نادره – مکنونه.** Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №7766. – 132 varaq.

2. دیوان. نادره Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №313. – 194 varaq.

3. دیوان. نادره Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №4182/1. – 1a–154b varaqlar.

4. غزلیات مکنونهQo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №2090. – 23 varaq.

5..بیاض Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Asosiy fond, №660. – 239 varaq.

6..بیاض Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №314. – 244 varaq.

7..بیاض Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №1473. – 100 varaq.

8..بیاض Qo‘lyozma. Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti manbalar xazinasi. Hamid Sulaymonov fondi, №1502. – 147 varaq.

9. Нодира. Девон. – Тошкент, 1963. – 621 б.

10. Нодира. Девон. – Душанбе, 1967. – 364 с.

11. Нодира–Комила. Девон. Иккинчи китоб. – Тошкент, 2004. – 208 б.

**UO’K 82-31; 821.512.133-31**

## ULUG'BEK HAMDAMNING OTA ROMANIDAGI “OTA” OBRAZI

***S.N.Erkinova, talaba, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***
***M.A.Xamidova, dots., Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi bosh qahramon obrazi, uning ichki olami va ma’naviy-axloqiy izlanishlari badiiy psixologizm prizmasi orqali tahlil qilinadi. Asarda ota obrazining milliy va umuminsoniy talqinlari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ulug‘bek Hamdam, “Ota” romani, ota obrazi, badiiy psixologizm, ma’naviy qadriyatlar, xarakter dinamikasi, zamonaviy o‘zbek nasri, personaj tahlili.*

***Аннотация.*** *В данной статье на основе художественного психологизма анализируется образ главного героя, его внутренний мир и духовно-нравственные искания в романе Улугбека Хамдама «Отец». Исследуются национальные и общечеловеческие интерпретации образа отца в произведении.*

***Ключевые слова:*** *Улугбек Хамдам, роман «Отец», образ отца, художественный психологизм, духовные ценности, динамика характера, современная узбекская проза, анализ персонажа.*

***Abstract.*** *This article analyzes the image of the main character, his inner world and spiritual-moral searches in Ulugbek Hamdam's novel "The Father" through the prism of artistic psychologism. National and universal interpretations of the father image in the work are studied.*

***Key words:*** *Ulugbek Hamdam, "The Father" novel, father image, artistic psychologism, spiritual values, character dynamics, modern Uzbek prose, character analysis.*

**Kirish.** Hozirgi o‘zbek adabiyoti jarayonida inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy tadqiq etish, shaxsning jamiyat va oila oldidagi mas’uliyatini yangicha talqinlarda aks ettirish muhim o‘rin tutmoqda. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani aynan mana shu yo‘nalishdagi izlanishlarning mahsuli bo‘lib, unda ota tushunchasi shunchaki oila boshlig‘i emas, balki ma’naviy tayanch, milliy o‘zlik va vijdoniylik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Adib asar davomida ota obrazini yaratishda an’anaviy qarashlardan chekinmagan holda, uning zamonaviy ijtimoiy-psixologik qiyofasini chizib beradi. Ota obrazining badiiy evolyutsiyasi o‘quvchini nafaqat qahramonning taqdiri, balki o‘zining hayotiy qarashlarini ham qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Ushbu maqolaning dolzarbligi ham zamonaviy nasrda shaxs konsepsiyasining o‘zgarishi va ota-bola munosabatlaridagi yangicha badiiy yechimlarni ilmiy asoslash bilan belgilanadi. Yozuvchi ota obrazini shunday mahorat bilan yaratganki, u orqali butun bir avlodning og‘riqlari, orzu-umidlari va ichki kechinmalari oydinlashadi. Romandagi ota obrazi murakkab hayotiy sinovlar jarayonida shakllanadi va uning har bir xatti-harakati muayyan falsafiy asosga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ulug‘bek Hamdam ijodi bo‘yicha bugungi kunda ko‘plab adabiyotshunos olimlar, jumladan, B.Karimov, U.Jo‘raqulov va D.Quronovlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ularning ishlarida yozuvchining modernistik uslubi va ramziylikka moyilligi alohida ta’kidlanadi. Biroq, “Ota” romanidagi ota obrazining tipologik xususiyatlari va psixologik aspektlari hali keng qamrovli monografik darajada o‘rganilmagan [1, B. 45]. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil, biografik metod va badiiy asarni psixologik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida badiiy matndagi personajlar tizimi va ularning o‘zaro aloqalari, shuningdek, muallifning badiiy niyati va uning matndagi in’ikosi o‘rganildi. Asarning tarkibiy qismlari, qahramonning nutqi va uning ichki monologlari orqali obrazning estetik mohiyati ochib berildi. Shuningdek, metodologiya jarayonida asarning kompozitsion qurilishi va uning syujet yo‘nalishlaridagi ota obrazining o‘rni tahliliy jihatdan baholandi.

**Muhokama va natijalar.** “Ota” romanida ota obrazi o‘zining statik emas, balki dinamik rivoji bilan ajralib turadi. Asar boshida biz uni oddiy hayotiy tashvishlar bilan band shaxs sifatida ko‘rsak, voqealar rivoji davomida uning ma’naviy yuksalishi va ichki iztiroblari markaziy o‘ringa chiqadi. Muallif ota obrazini chizishda detallashtirish usulidan unumli foydalanadi: uning har bir nigohi, jim turishi yoki aytgan so‘zi ortida ulkan ma’no yashirin [2, B. 112]. Quyidagi jadvallarda ota obrazining asosiy xususiyatlari va asardagi boshqa obrazlar bilan munosabati keltirilgan:

**1-jadval:**

**Ota obrazining psixologik va ijtimoiy tavsifi**

| Xususiyat | Mazmuni va asardagi in’ikosi |
|---|---|
| Ma’naviy qiyofasi | Sabrli, andishali, milliy qadriyatlarga sodiq va insofli |
| Ijtimoiy o‘rni | Oila tayanchi, farzandlar uchun axloqiy namuna va himoyachi |
| Ichki ziddiyatlari | O‘tmish va bugun o‘rtasidagi tafovut, farzandlar taqdiri uchun qayg‘urish |
| Badiiy funksiyasi | Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashda asosiy muvozanat markazi |

Ota obrazining boshqa qahramonlar bilan aloqasi asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. Uning farzandlari bilan bo‘lgan munosabatida avlodlar o‘rtasidagi tafovut emas, balki ma’naviy silsila uzilishi xavfi aks etgan.

**2-jadval:**

**Ota obrazining tizimli munosabatlari**

| Obrazlar | Munosabat turi | Badiiy natija |
|---|---|---|
| Ota va Farzand | Tarbiya va mas’uliyat | Milliy tarbiya asoslarini ko‘rsatib beradi |
| Ota va Jamiyat | Adolat va haqiqat izlash | Shaxsning ijtimoiy adolatsizlikka munosabati |
| Ota va O‘zligi | Introspeksiya (ichki tahlil) | Qahramonning ruhiy poklanish jarayoni |

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, Ulug‘bek Hamdam ota obrazini yaratish orqali jamiyatning bugungi kungi ma’naviy holatiga tashxis qo‘yadi. Ota — bu nafaqat personaj, balki yo‘qolib borayotgan qadriyatlarimizning so‘nggi qal’asi sifatida tasvirlanadi. Uning iztiroblari shaxsiy emas, balki umummilliydir [3, B. 78].

"Ota" romanida bosh qahramon bo‘lgan ota obrazi o‘zbek xalqining asriy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab xarakterli personajdir. Muallif ushbu obrazni yaratishda an’anaviy realizm chegaralaridan chiqib, uni metafizik va ramziy ma’nolar bilan boyitadi; ota bu yerda nafaqat farzandlariga moddiy borliqni ta’minlovchi shaxs, balki ularning ruhiyatiga ezgulik va matonat urug‘ini ekuvchi bog‘bon sifatida gavdalanadi. Romandagi ota obrazi o‘zining ichki kechinmalari, vijdon azoblari va o‘zlikni qidirish yo‘lidagi cheksiz mushohadalari bilan o‘quvchining diqqat markazida turadi. Adib otaning har bir xatti-harakatini, uning sukuti va hatto nigohlaridagi mungni tasvirlash orqali inson qadr-qimmatining naqadar ulug‘vorligini ko‘rsatib beradi. Mazkur obrazning hayotiy falsafasi sabr va shukronalik ustiga qurilgan bo‘lib, u jamiyatdagi turli evrilishlar, ma’naviy inqirozlar va insoniy munosabatlarning sovuqlashuvi fonida ham o‘zining ichki butunligini saqlab qolishga intiladi. Bu esa kitobxonda ota timsoliga nisbatan nafaqat hurmat, balki uning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borish istagini uyg‘otadi, natijada ota obrazi asar matnida milliy mentalitetning yuksak timsoliga aylanadi.

Ulug‘bek Hamdam asarda ota va farzand o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha badiiy talqin darajasiga ko‘taradi, bunda avlodlar o‘rtasidagi tafovut shunchaki dunyoqarashlar to‘qnashuvi emas, balki ma’naviy uzilish va qayta bog‘lanish nuqtasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Otaning farzandlariga bo‘lgan munosabati orqali muallif insoniy mehrning eng oliy formasini — fidoyilikni ko‘rsatadi, biroq bu fidoyilik ko‘p hollarda tushunilmaslik va yolg‘izlik tuyg‘usi bilan yonma-yon keladi. Roman davomida otaning farzandlari taqdiri uchun chekayotgan iztiroblari psixologik parallelizmlar yordamida shunday mahorat bilan chiziladiki, o‘quvchi qahramonning ichki olamidagi bo‘ronlarni bevosita his qiladi. Farzandlarning zamonaviy dunyo qarashlari va otaning qat’iy axloqiy prinsiplari o‘rtasidagi ziddiyat asarning dramatik pafosini belgilaydi; ota bu yerda eskilik tarafdori sifatida emas, balki abadiy haqiqatlarning himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning har bir nasihati, har bir tanbehi tagida hayotiy tajriba va kelajak avlodning ma’naviy inqirozidan xavotirlanish hissi yotadi. Ayniqsa, otaning og‘ir damlarda ham farzandlari uchun tayanch bo‘lishi, ularning xatolarini ich-ichidan kechirishi va ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga intilishi uning obrazini yanada monumental va hayotbaxsh qiladi.

"Ota" romanining falsafiy qatlamlarida ota obrazi Vatan, tuproq va ildiz tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi, bu esa asarning g‘oyaviy ko‘lamini kengaytirib, uni umumbashariy muammolar darajasiga olib chiqadi. Ota — bu mangu yashaydigan o‘tmish, uning siymosida ajdodlarning ruhu-madadi va kelajakning poydevori mujassam; u o‘z hayoti bilan insonga berilgan eng buyuq ne’mat — umrning mazmunini qanday topish kerakligini ko‘rsatib beruvchi mayoq vazifasini o‘taydi. Romandagi ota obrazi orqali Ulug‘bek Hamdam insonning tabiat bilan, o‘zining ibtidosi bilan uzilib qolgan rishtalarini qayta tiklash zarurligini uqtiradi; otaning tabiatga, yerga bo‘lgan munosabati uning ruhiy pokligi va samimiyligidan dalolat beradi. Asarning yakuniy qismlarida ota siymosi shaxsiy doiradan chiqib, milliy o‘zlikni asrashning asosiy omiliga aylanadi, chunki ota bor ekan — xonadonda tartib, dilda xotirjamlik va kelajakka ishonch mavjud bo‘ladi. Adib ushbu obrazni yaratish orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi: biz o‘z otalarimizni, ya’ni o‘z o‘tmishimiz va ma’naviy asoslarimizni qanchalik qadrlayapmiz? Ota obrazining fojiaviy va ayni paytda ulug‘vor talqini insoniyatni har qanday texnokratik taraqqiyot davrida ham qalbdagi ota-ona hurmatini va insoniy fazilatlarni yo‘qotmaslikka da’vat etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani zamonaviy o‘zbek prozasida ota obrazining yangicha talqini sifatida alohida ahamiyatga ega. Adib ota siymosida insoniy matonat, sabr va fidoyilikning yuksak namunalarini ko‘rsatib bergan. Asardagi ota obrazi o‘zining hayotiy haqiqiyligi bilan o‘quvchi qalbini zabt etadi va uni chuqur mushohadaga chorlaydi. Tadqiqot natijasida ota obrazi nafaqat oilaviy, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb etishi aniqlandi. Uning xatti-harakatlarida milliy mentalitetimizning eng yaxshi jihatlari jamlangan bo‘lib, bu obraz kelajak avlod uchun ma’naviy mayoq bo‘lib xizmat qiladi. Romandagi badiiy psixologizm

usullari ota obrazining ichki olamini butun murakkabligi bilan ochishga imkon bergan. Maqola davomida ko‘rib chiqilgan jadvallar va tahlillar ota obrazining asar strukturasidagi o‘rnini yanada aniqlashtirdi. Ulug‘bek Hamdam ushbu asari bilan o‘zbek romanchiligida inson ruhiyati tasvirini yangi bosqichga ko‘tardi deb baralla ayta olamiz. Ota obrazi — bu millatning vijdonidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov B. — Modern va yangi o‘zbek adabiyoti — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. — 256 b.
2. Hamdam U. — Ota (roman) — Toshkent: Sharq, 2022. — 320 b.
3. Quronov D. — Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari — Toshkent: Akademnashr, 2018. — 480 b.
4. Jo‘raqulov U. — Nazariy poetika masalalari — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015. — 192 b.
5. Sharafiddinov O. Ijodiy izlanishlar. – Toshkent: "G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot", 2003. – 201-b.
6. Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: "Sharq", 2008. – 74-b.
7. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. – 132-b.
8. Qo‘shjonov M. O‘zbek romanchiligi taraqqiyoti. – Toshkent: "Fan", 1992. – 190-b.
9. Nazarov B. Adabiy tanqid metodologiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2010. – 156-b.
10. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2005. – 210-b.

**UO'K 81'27**

## JADID DAVRI YOZMA MANBALARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY IBORALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

***U.M.Farmonova, PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jadid davri yozma manbalarida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy iboralarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Jadid davri yozma manbalarida qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy iboralar ifodalagan mazmuniga ko‘ra milliy uyg‘onish va ogohlik; turg‘unlik, qoloqlik va mustamlakachilik holati; millat va vatan tushunchalari; taraqqiyot va kelajakka intilish semantik maydonlariga ajratib tahlil qilinadi. Abdulla Avloniy, Mo‘minjon Toshqin, Fozilbek Otabek o‘g‘li, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydigan frazeologik birliklar misolida ularning semantik va kontekstual xususiyatlari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *frazema, frazeologik birlik, jadid davri, ijtimoiy-siyosiy iboralar, semantik maydon, milliy uyg‘onish, ogohlik, mustamlakachilik, millat, vatan, taraqqiyot.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются семантические особенности общественно-политических фразеологических единиц, употребляемых в письменных источниках джадидского периода. Общественно-политические фразеологические единицы, встречающиеся в письменных источниках эпохи джадидизма, в соответствии с выражаемым ими содержанием классифицируются и анализируются по следующим семантическим полям: национальное пробуждение и осознание; застой, отсталость и колониализм; нация и Родина; прогресс и стремление к будущему. На примере фразеологических единиц, встречающихся в произведениях Абдуллы Авлони, Муминджона Тошкина, Фозилбека Отабека угли, Абдулхамида Чулпана и Абдурауфа Фитрата, освещаются их семантические и контекстуальные особенности.*

***Ключевые слова:*** *фразеологическая единица, фразеология, джадидский период, общественно-политические фразеологизмы, семантическое поле, национальное пробуждение, осознание, колониализм, нация, Родина, прогресс.*

***Abstract.*** *This article analyzes the semantic features of socio-political phraseological units used in written sources of the Jadid period. According to their expressed meanings, the socio-political phraseological units found in Jadid-era written sources are classified and analyzed within the following semantic fields: national awakening and awareness; stagnation, backwardness and colonialism; nation and homeland; progress and aspiration for the future. The semantic and contextual features of these phraseological units are examined through examples taken from the works of Abdulla Avloniy, Mo‘minjon Toshqin, Fozilbek Otabek o‘g‘li, Abdulhamid Cho‘lpon and Abdurauf Fitrat.*

***Key words:*** *phraseological unit, phraseology, Jadid period, socio-political phraseological units, semantic field, national awakening, awareness, colonialism, nation, homeland, progress.*

**Kirish.** Ijtimoiy-siyosiy iboralar jamiyat tuzilishi, hokimiyat, mansab, ijtimoiy mavqe, tengsizlik, zulm, ozodlik va xalq manfaatlari kabi tushunchalarni ifodalaydi. Sh.Shomaqsudov va S.Dolimov izohlagan "popugi pasayib qoldi" iborasining kelib chiqishi podshohlar, xonlar va amirlar hukmronligi davridagi mansab belgilariga borib taqaladi. Yuqori martabali amaldorlarning bosh kiyimiga qimmatbaho qush patidan yasalgan jig'a-popuk taqilgan, mansabi pasaytirilganda esa uning popugi kaltaroq pat bilan almashtirilgan. Keyinchalik bu tarixiy voqelik ko'chma ma'no kasb etib, shaxsning avvalgi mavqeyi, hukmi yoki ta'siri pasayganini anglatuvchi frazeologik birlikka aylangan [1:11].

Jadid davri matnlarida bunday iboralar mustamlakachilik siyosati, mahalliy boshqaruv, amaldorlar faoliyati, ijtimoiy tabaqalanish va xalqning siyosiy ahvolini obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Ular voqelikni shunchaki nomlash bilangina cheklanmay, muallifning mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan tanqidiy munosabatini ham ko'rsatib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jadid davri yozma manbalarida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy iboralar ularning ifodalagan mazmuniga ko'ra semantik-mavzuiy jihatdan tahlil qilindi. Tahlilda frazeologik birliklarning kontekstual ma'nosi, ularning muayyan semantik maydonga mansubligi hamda muallif matnida ifodalagan ijtimoiy-siyosiy mazmuni asos qilib olindi.

Ijtimoiy-siyosiy iboralar quyidagi semantik-mavzuiy kichik guruhlarga ajratildi:

Milliy uyg'onish va ogohlik semantik maydoni;

Turg'unlik, qoloqlik va mustamlakachilik holati semantik maydoni;

Millat va vatan tushunchalari bilan bog'liq semantik maydon;

Taraqqiyot va kelajakka intilish semantik maydoni.

Mazkur semantik maydonlarning barchasini "milliy uyg'onish" makromaydoni birlashtirib turadi. Zero, jadid diskursida qoloqlik va mustamlaka holatining tasviri mavjud vaziyatga berilgan salbiy bahoni anglatsa, ogohlik, vatanparvarlik va taraqqiyot mazmunidagi birliklar bu holatdan chiqish yo'lini ifodalaydi. Shu jihatdan, ijtimoiy-siyosiy iboralar davr voqeligini aks ettirish bilangina cheklanib qolmay, adresatni uyg'onish va faol harakatga da'vat etishdek pragmatik vazifani ham bajaradi.

**Natijalar.** ***1. Milliy uyg'onish va ogohlik semantik maydoni.*** Jadid ma'rifatparvar adiblaridan biri Abdulla Avloniy o'z asarlarida Vatanni qullikdan ozod etish, xalqni jaholat va g'aflatdan qutqarish masalalarini yetakchi g'oyaviy mavzulardan biri sifatida ilgari suradi:

*Bizlar hamon uyqudan, g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz* [A. Avloniy]. Asardan olingan ushbu fikri mazkur ijtimoiy-ma'rifiy mazmunning frazeologik vosita orqali ta'sirchan ifodalangan yorqin namunasidir.

"O'zbek tili frazeologik lug'ati"da *bosh ko'tarmoq* iborasining: 1) kurashga chog'lanmoq; 2) qo'zg'almoq, harakatga kelmoq; 3) bajarayotgan ishini vaqtincha to'xtatmoq kabi ma'nolari qayd etilgan [2:95]. Avloniy asarida ushbu iboraning inkor shaklda – *boshimizni ko'tarmaymiz* tarzida qo'llanishi uning lug'aviy ma'nosiga zid bo'lgan semantik holatni yuzaga keltiradi. Ya'ni, ibora kontekstda "jaholat va beparvolikdan uyg'onmaslik, ijtimoiy faollikka intilmaslik hamda harakatsizlik holatida qolish" ma'nolarini anglatadi.

Matndagi uyqu, g'aflat va jaholat obrazlari xalqning ma'naviy-ma'rifiy sustligi hamda ijtimoiy befarqligini anglatsa, *bosh ko'tarmoq* iborasi uyg'onish, faollashish va kurashga chog'lanish mazmunini ifodalaydi.

Jadid davri she'riyatida milliy uyg'onish motivi frazeologik vositalar orqali keng va ta'sirchan ifodalangan. Mo'minjon Toshqinning: *Ochib ko'z emdi g'aflat uyqusidan, boqingiz har yon* [M.Toshqin] misrasi bu fikrning yorqin namunalaridan biridir. Ushbu parchada *ko'z ochmoq* va *g'aflat uyqusidan uyg'onmoq* mazmunidagi ikki frazeologik birlik o'zaro uyg'un qo'llanib, bir-birining semantik ta'sirini kuchaytirgan. Har ikki birlik "haqiqatni anglash, jaholat va beparvolikdan xalos bo'lish, ijtimoiy ong va tafakkurning faollashuvi" kabi ma'nolarni ifodalaydi. E'tiborlisi, bu misrada frazeologik mazmun buyruq-istak mayli orqali ifodalangan. "Ko'z ochib" va "boqingiz" so'zlari tinglovchiga qaratilgan bevosita da'vat hamda chaqiriq xususiyatiga ega.

Semantik jihatdan *ko'z ochmoq* iborasi idrok etish, anglash va bilish jarayonining boshlanishini bildirsa, *g'aflat uyqusi* birikmasi ongning sust, harakatsiz va jaholatga botgan holatini obrazli ifodalaydi. Bu ikki obraz o'rtasidagi semantik zidlik uyg'onish g'oyasining ta'sirchanligini oshiradi

***2. Turg'unlik, qoloqlik va mustamlakachilik holati semantik maydoni.*** Fozilbek Otabek o'g'lining: *Hammani savodsizlik balosiga mubtalo qilib, qora kunlarda asorat zanjiri bilan qo'l-oyoqlarimizni chirmab olmoq fikrida edilar* [Fozilbek Otabek o'g'li] jumlasi ijtimoiy-siyosiy iboralarning turg'unlik, qoloqlik va mustamlakachilikni ifodalovchi semantik maydoniga mansub yorqin namunalardan biridir. Mazkur parchada o'zaro semantik jihatdan bog'langan uch tarkibli obrazlar tizimi shakllantirilgan. *Savodsizlik balosiga mubtalo bo'lmoq* iborasi "xalqning jaholat va ma'rifatsizlik girdobiga tushirilishi"ni ifodalasa, *qora kun* birikmasi "og'ir, musibatli va zulm hukmron bo'lgan davr"ni anglatadi. *Asorat zanjiri bilan qo'l-oyoqlarini chirmamoq* birligi esa "xalqni erksiz, harakatsiz va mustamlaka qaramligida saqlash"ni obrazli tarzda yuzaga chiqaradi. Ushbu frazeologik birliklar bir-birini semantik jihatdan to'ldirib, jaholat, zulm, erksizlik va mustamlakachilik konseptlari atrofida yaxlit mazmuniy maydon hosil qiladi.

Cho'lponning: *O'ksiz ko'ngil qushi tushdi qafasga, sira yetolmaydir erkin nafasga – qora kunlar tushdi menim boshimga* [A.Cho'lpon] misrasi ijtimoiy-siyosiy mazmunning ramziy-lirik shaklda ifodalanishiga yorqin misol bo'la oladi. Mazkur parchada o'zaro bog'langan uch tarkibli obrazlar tizimi shakllangan. *Ko'ngil qushi qafasga tushmoq* iborasi "ruhiy erkinlikdan mahrum bo'lish, ichki ozodlikning cheklanishi"ni anglatsa, *erkin nafasga yetolmaslik* birikmasi ozod yashash imkoniyatidan mahrumlikni ifodalaydi. *Qora kunlar boshiga tushmoq* iborasi esa "og'ir musibat, zulm va fojiaga duchor bo'lish" mazmunini yuzaga chiqaradi. Ushbu obrazli birliklar bir-birini semantik jihatdan to'ldirib, qaramlik, erksizlik va asorat konsepti atrofida birlashadi.

***3. Millat va vatan tushunchalari bilan bog'liq semantik maydon.*** Cho'lponning: *Ko'z yoshimda yuvsam yurtning bag'rini, tilim bilan so'rsam oqqan qonini – qonli kunlar tushdi menim boshimga* [A.Cho'lpon] misrasi ijtimoiy-siyosiy iboralarning millat va vatan tushunchalari bilan bog'liq semantik maydoniga oid yorqin namunalardan biridir. Mazkur parchada o'zaro mazmunan bog'langan ikki asosiy obrazli frazeologik birlik qo'llangan. *Yurtning bag'rini ko'z yoshi bilan yuvmoq* iborasi "Vatan boshiga tushgan musibatdan chuqur iztirob chekish, uning dardiga sherik bo'lish va motam tutish"ni ifodalaydi. *Qonli kunlar boshiga tushmoq* iborasi esa "urush, qirg'in, zo'ravonlik va og'ir ijtimoiy-siyosiy fojiaga yuz tutish" ma'nosini anglatadi. Shuningdek, oqqan qonini til bilan so'rmoq obrazi "Vatan jarohatiga malham bo'lish, uning dardini yengillatish va unga fidoyilik bilan xizmat qilish istagi"ni ramziy tarzda ifoda etadi.

**Muhokama.** Jadid matnlaridagi ijtimoiy-siyosiy iboralarni tasniflashda ularning bevosita lug'aviy mazmunidan tashqari, hokimiyat va jamiyat munosabatlariga bergan bahosi ham inobatga olinishi lozim. Zero, mansab, zulm va ijtimoiy adolatsizlik bilan bog'liq iboralar jadid mualliflarining siyosiy qarashlarini bilvosita ifodalovchi pragmatik vosita vazifasini o'taydi. Mazkur semantik maydonlarning barchasini "milliy uyg'onish" makromaydoni birlashtirib turadi. Jadid diskursida qoloqlik va mustamlaka holatining tasviri mavjud vaziyatga berilgan salbiy bahoni anglatsa, ogohlik, vatanparvarlik va taraqqiyot mazmunidagi birliklar bu holatdan chiqish yo'lini ifodalaydi.

**Xulosa.** Jadid davri yozma manbalarida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy iboralar millatning ijtimoiy ahvoli, siyosiy ongi, mustamlaka sharoiti, milliy uyg'onish, vatanparvarlik va taraqqiyotga intilish g'oyalarini obrazli tarzda ifodalaydi. Tahlil qilingan materiallar ijtimoiy-siyosiy iboralarni milliy uyg'onish va ogohlik; turg'unlik, qoloqlik va mustamlakachilik; millat va vatan; taraqqiyot va kelajakka intilish kabi semantik maydonlarga ajratish imkonini beradi.

Mazkur semantik maydonlarning barchasi "milliy uyg'onish" makromaydoni atrofida birlashadi. Qoloqlik, jaholat va mustamlaka holatini ifodalovchi birliklar mavjud ijtimoiy vaziyatga salbiy baho bersa, ogohlik, vatanparvarlik va taraqqiyot mazmunidagi birliklar bu vaziyatdan chiqish, uyg'onish va faol harakat qilish g'oyasini ifodalaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Шомақсудов Ш., Долимов С. Қайроқи сўзлар (Халқ иборалари). – Тошкент: «SAN'AT», 2018. – Б. 11.

2. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn]: lug'at. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 95.

UO'K 821.512.133.09

# ABDULHAMID CHO'LPONNING MILLIY OZODLIK G'OYALARI: TARIXIY TALQIN

*M.M.Gadayeva, o`qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida Abdulhamid Cho'lponning milliy ozodlik haqidagi qarashlari tarixiy talqin asosida o'rganiladi. Maqolada Cho'lponning badiiy va publitsistik merosi orqali milliy o'zlikni anglash, erkinlik va ma'naviy uyg'onish g'oyalari tahlil qilinadi. Muallif milliy ozodlikni faqat siyosiy mustaqillik sifatida emas, balki jamiyatning tafakkuriy va madaniy yangilanishi sifatida talqin qilgani asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *milliy ozodlik, Cho'lpon, jadidchilik, tarixiy talqin, milliy ong, mustaqillik, ma'naviy uyg'onish.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются взгляды Абдулхамида Чулпана на национальное освобождение в историческом контексте начала XX века. Анализируются его произведения как отражение идей независимости и национального самосознания.*

***Ключевые слова:*** *национально-освободительное движение, Чулпан, джадидизм, историческая интерпретация, национальное самосознание, независимость, духовное пробуждение.*

***Abstract.*** *This article examines Abdulhamid Cholpon's national liberation ideas in a historical context. His literary and journalistic works are analyzed as reflections of independence and national consciousness.*

***Keywords****: national liberation, Chulpan, Jadidism, historical interpretation, national consciousness, independence, spiritual awakening.*

**Kirish.** XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar milliy tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Mustamlakachilik siyosati, xalqning siyosiy va iqtisodiy huquqlarining cheklanishi, milliy qadriyatlarning bosim ostida qolishi hamda jahonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar mahalliy ziyolilar oldiga millat kelajagi masalasini keskin qo'ydi. Ana shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, xalqni ma'rifat, taraqqiyot va milliy o'zlikni anglash orqali yangilash g'oyasini ilgari surdi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ushbu milliy uyg'onish jarayonining eng yorqin adabiy vakillaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Uning ijodi o'zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur, yangi ruh va yangi ijtimoiy idealning qaror topishida muhim o'rin egalladi. Cho'lpon uchun adabiyot faqat estetik zavq beruvchi san'at hodisasi emas, balki millatning dardi, orzu-umidi, tarixiy xotirasi va kelajak haqidagi qarashlarini ifodalovchi ma'naviy kuch edi.

Adib ijodining markaziy tushunchalaridan biri erk tushunchasidir. Cho'lpon talqinida erk insonning tabiiy ehtiyoji bo'lish bilan birga, millatning mavjudligini belgilovchi asosiy shart sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli uning she'riy va publitsistik asarlaridagi ozodlik g'oyalarini XX asr boshlaridagi Turkiston tarixiy voqeligidan ajratib o'rganish mumkin emas.

Cho'lponning milliy ozodlik haqidagi qarashlari bevosita siyosiy shior shaklida emas, ko'pincha poetik obraz, ramz, ruhiy kechinma, tarixiy xotira va millat taqdiriga daxldor savollar orqali ifodalangan. Uning Vatan, xalq, kishan, tun, tong, uyg'onish, yo'l va nur singari tushunchalarga murojaati milliy erkinlik konsepsiyasining badiiy-estetik tizimini shakllantiradi.

XX asr boshlarida Turkiston hududida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar milliy ongning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mustamlakachilik siyosati natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy cheklovlar mahalliy ziyolilarni milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surishga undadi.

Ana shunday tarixiy sharoitda shakllangan Abdulhamid Cho'lpon ijodi milliy ozodlik g'oyalarining badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida millatning o'zligini anglash, erkinlikka intilish va ijtimoiy adolat masalalari markaziy o'rin egallaydi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi Cho'lpon merosining bugungi globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va rivojlantirishdagi o'rni bilan belgilanadi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Cho‘lpon qarashlari XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati bilan bevosita bog‘liq. Jadidlar milliy taraqqiyotning asosiy yo‘li sifatida ma’rifat va ilm-fanni ko‘rsatganlar [1: 41.].

Cho‘lpon ham bu g‘oyalarni davom ettirib, millatni jaholatdan xalos etish va erkin tafakkurni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. B. Qosimovning fikricha, Cho‘lpon ijodi milliy uyg‘onishning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi [1: 109.].

Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asari milliy ozodlik masalasini chuqur badiiy talqin qiluvchi muhim manbadir. Asarda mustamlakachilik sharoitidagi jamiyat hayoti, ijtimoiy tengsizlik va milliy ongning shakllanish jarayoni tasvirlangan [2: 132.].

Roman qahramonlari orqali muallif quyidagi g‘oyalarni ilgari suradi,ya`ni milliy o‘zlikni anglash zarurati,erkinlik va adolatga intilish,jamiyatni isloh qilish ehtiyoji.

Shuningdek, Cho‘lpon she’riyatida ham erk va mustaqillik g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi [3: 74.].

Cho‘lpon publitsistik faoliyatida milliy ozodlikni tarixiy jarayon sifatida baholaydi. Cho‘lponning fikricha, millatning ozodligi uning tarixiy xotirasini tiklash va madaniy qadriyatlarini qayta anglash bilan bog‘liq [4: 58.].

Bu qarashlar tarixiy ongni shakllantirish,milliy qadriyatlarni tiklash,zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

N. Karimov ta’kidlaganidek, jadidlar milliy ozodlikni kompleks ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilganlar [4: 93.].

**Cho‘lpon qarashlarining tarixiy-falsafiy mohiyati**

Cho‘lponning milliy ozodlik haqidagi qarashlari tarixiy-falsafiy jihatdan quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- **Erkinlik g‘oyasi** — inson va millat erkinligi taraqqiyotning asosiy sharti;
- **Milliy o‘zlik** — tarixiy xotira va identitetni saqlash;
- **Ma’naviy uyg‘onish** — jamiyat rivojining muhim omili.

Mazkur tamoyillar Cho‘lponni o‘z davrining yetuk ijtimoiy-falsafiy mutafakkirlaridan biri sifatida ko‘rsatadi.

Cho‘lpon qarashlarini Fitrat va Behbudiy g‘oyalari bilan qiyoslash ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Fitrat nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqqan bo‘lsa, Behbudiy ma’rifiy faoliyatni rivojlantirgan. Cho‘lpon esa ushbu g‘oyalarni badiiy ijod orqali keng ommaga yetkazgan.

Shu jihatdan uning yondashuvi milliy ozodlik g‘oyalarining ommalashuvida muhim rol o‘ynagan.

Abdulhamid Cho‘lpon ijodi XX asr boshlaridagi Turkiston milliy uyg‘onish harakatining badiiy ifodasi hisoblanadi. Shoir asarlarida erkinlik, milliy o‘zlikni anglash, ma’rifat va taraqqiyot g‘oyalari ustuvor o‘rin egallaydi. Cho‘lpon xalqning ozodlikka bo‘lgan intilishini chuqur falsafiy va badiiy ruhda ifodalab, milliy adabiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi.

Cho‘lpon ijodi nafaqat adabiy hodisa, balki tarixiy-mafkuraviy fenomen sifatida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Uning asarlarida aks etgan milliy ozodlik g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, yosh avlodda vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixiy tafakkurni shakllantirishda Cho‘lpon merosi muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy ozodlik g‘oyasining shakllanishida tarixiy xotira alohida ahamiyat kasb etadi. O‘z tarixini anglamagan jamiyat o‘zining bugungi holatini to‘liq baholay olmaydi va kelajagini mustaqil belgilash imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Cho‘lpon ijodida xalqning o‘tmishi va buguni o‘rtasidagi ziddiyat ana shu nuqtayi nazardan badiiy talqin etiladi.

Shoir millatning mavjud holatini tasvirlar ekan, uni tarixiy taqdir bilan bog‘laydi. Vatan obrazining iztirobli talqini o‘tmishni ideallashtirish emas, balki millatni o‘z holatini anglashga undash vazifasini bajaradi. Tarixiy xotira shu tariqa uyg‘onish vositasiga aylanadi.

Milliy o‘zlikni anglash esa Cho‘lpon uchun faqat milliy g‘urur masalasi emas. U ona tiliga, madaniyatga, adabiyotga, xalq ruhiyatiga va tarixiy xotiraga daxldor murakkab ma’naviy hodisadir.

Shu jihatdan Cho‘lpon merosi XX asr boshidagi o‘zbek milliy identitetining shakllanish jarayonlarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Cho‘lponning hayoti va ijodiy taqdiri XX asr birinchi yarmidagi siyosiy jarayonlarning murakkabligini yaqqol ko‘rsatadi. 1930-yillarda kuchaygan siyosiy qatag‘onlar ko‘plab milliy ziyolilar qatori Cho‘lponning ham hayotiga fojiali yakun yasadi. Uning asarlari uzoq vaqt davomida keng kitobxonlar ommasidan chetda qoldi.

Keyinchalik Cho‘lpon merosining qayta o‘rganilishi uning o‘zbek adabiyoti va milliy tafakkuridagi tarixiy o‘rnini yangicha baholash imkonini berdi. Ayniqsa, mustaqillik davrida adibning milliy uyg‘onish, erk va Vatan haqidagi qarashlari yangi ilmiy-metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etila boshlandi.

Bugungi nuqtayi nazardan Cho‘lponning milliy ozodlik g‘oyalari tarixiy hodisagina emas, balki ma’naviy qadriyat sifatida ham ahamiyatlidir. Chunki uning ijodida ilgari surilgan erkin tafakkur, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash, Vatan taqdiriga daxldorlik va ma’rifatli jamiyat qurish kabi tamoyillar zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

**Xulosa.** Abdulhamid Cho‘lpon ijodida milliy ozodlik g‘oyasi XX asr boshidagi Turkistonning tarixiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Adib millatning erkinlikka intilishini yuksak badiiy obrazlar, ramzlar va inson ruhiyatining nozik tasviri orqali ifodaladi.

Cho‘lpon talqinidagi ozodlik bir necha mazmuniy qatlamga ega. Birinchidan, u xalqning ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan xalos bo‘lish istagini anglatadi. Ikkinchidan, shaxsning fikriy va ruhiy erkinligini ifodalaydi. Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma’naviy uyg‘onishni nazarda tutadi. To‘rtinchidan, ma’rifat va madaniy taraqqiyotni millat istiqbolining zarur sharti sifatida belgilaydi.

Shu bois Cho‘lponning milliy ozodlik konsepsiyasini faqat siyosiy qarshilik doirasida emas, balki keng ma’nodagi milliy-ma’naviy uyg‘onish konsepsiyasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Uning ijodida shaxs erki millat erki bilan, millat erki esa ma’rifat, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglash bilan uyg‘unlashadi.

Cho‘lpon o‘z davrining murakkab tarixiy voqeligini badiiy tafakkur orqali aks ettiribgina qolmay, ozodlikni millatning ma’naviy mavjudligi uchun zarur qadriyat darajasiga ko‘tardi. Shu jihatdan uning merosi o‘zbek milliy uyg‘onish tafakkurining muhim tarkibiy qismi hamda milliy istiqlol g‘oyalarining tarixiy-ma’naviy manbalaridan biri sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Qosimov, B. (2004). *Cho‘lpon ijodi va milliy uyg‘onish*. Toshkent: Fan. – 41, 109-betlar.
2. Kecha va kunduz. (1994). Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. – 132-bet.
3. Cho‘lpon, A. (1991). *She’rlar to‘plami*. Toshkent: Adabiyot va san’at. – 74-bet.
4. Karimov, N. (2010). *Jadidchilik harakati tarixi*. Toshkent: Sharq. – 58, 93-betlar.
5. Fitrat, A. (1996). *Tanlangan asarlar*. Toshkent: Ma’naviyat.

**UO’K 811.133.1:811.512.133’373.7**

## FRANSUZ VA O’ZBEK TILLARIDA SONLARGA OID PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK AHAMIYATLILIGI

***M.X.Hamdamova, o’qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand***

***Annotatsiya.*** *Bu ilmiy maqolada fransuz va o’zbek tillarida raqamlarga oid paremiologik birliklarni lingvokulturologik nuqtai nazardan semantik funksiyalari o’rganiladi. Ko’zlangan maqsadga erishish uchun bu tildagi raqamli paremlarning lingvistik xususiyatlari, ularning semantik va stilistik xususiyatlarining tahlili, hamda raqamlarning madaniy-simvolik tomondan tahlillari amaliy jihatdan asoslab beriladi. Bizga ma’lumki, tilshunoslikda sonlarga oid paremiyalarni maqol, matal, aforizmlar va hikmatli iboralar tashkil etadi. Shunga asosan, ijtimoiy hayotda keng qo’llanilgan fransuz va o’zbek tilidagi raqmlarga oid paremiologik birliklar tahlil jarayonida nazariy va empirik usullar bilan tadqiq etiladi. Maqol —bu xalqning donoligi, hayotiy tajribasi va to'plangan bilimlarini umumlashtirilgan shaklda ifodalovchi an'anaviy ibora turi hisoblanadi. Maqollar odatda didaktik xarakterga ega bo'lib, muayyan hayotiy holat yoki xulosaviy fikrga olib keladi. Ular semantik*

*jihatdan to'liq bo'lib, mustaqil fikr ifodalashga qodir. Matallar esa maqollarga nisbatan qisqaroq va oddiyroq bo'lib, ko'pincha bitta tasvirga asoslanadi. Maqol va matalarning asosiy xususiyati shundaki, ular og'zaki an'ana orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan va tilning barqaror tizimini tashkil etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Aforizmlar, o'zbek tili, fransuz tili, tahlil, milliy madaniyat, paremiologiya, lingvomadaniy, maqol, idiomatik iboralar, son, raqam, leksik minimum, tilshunoslik, sitatalar, ramziy va ma'joziy ma'no, semantik funksiya, simvolik, tarkibiy, madaniy, miqdoriy funksiyalar.*

***Аннотация.*** *В данной научной статье с лингвокультурологической точки зрения исследуются семантические функции паремиологических единиц, связанных с числами, во французском и узбекском языках. Для достижения поставленной цели практически обоснованы лингвистические особенности числовых паремий данных языков, анализ их семантических и стилистических свойств, а также культурно-символический анализ чисел.*

*Как известно, в языкознании паремии, связанные с числами, включают пословицы, поговорки, афоризмы и мудрые изречения. Исходя из этого, широко употребляемые в общественной жизни паремиологические единицы с числовым компонентом во французском и узбекском языках исследуются с использованием теоретических и эмпирических методов анализа.*

*Пословица представляет собой традиционный вид выражения, отражающий народную мудрость, жизненный опыт и накопленные знания в обобщённой форме. Пословицы обычно имеют дидактический характер и приводят к определённой жизненной ситуации или выводу. Они семантически завершены и способны выражать самостоятельную мысль.*

*Поговорки, в отличие от пословиц, являются более краткими и простыми, зачастую основанными на одном образе. Основная особенность пословиц и поговорок заключается в том, что они передаются из поколения в поколение посредством устной традиции и составляют устойчивую систему языка.*

***Ключевые слова:*** *афоризмы, узбекский язык, французский язык, анализ, национальная культура, паремиология, лингвокультурология, пословица, идиоматические выражения, число, цифра, лексический минимум, языкознание, цитаты, символическое и переносное значение, семантическая функция, символика, структурные, культурные и количественные функции.*

***Abstract.*** *This scientific article examines the semantic functions of paremiological units related to numbers in the French and Uzbek languages from a linguocultural perspective. To achieve the intended goal, the linguistic features of numerical paremias in these languages, the analysis of their semantic and stylistic characteristics, as well as the cultural and symbolic analysis of numbers are practically substantiated. As is known in linguistics, numerical paremias include proverbs, sayings, aphorisms, and wise expressions. Based on this, paremiological units related to numbers that are widely used in social life in the French and Uzbek languages are studied through theoretical and empirical methods of analysis.*

*A proverb is considered a traditional type of expression that reflects the wisdom of the people, life experience, and accumulated knowledge in a generalized form. Proverbs usually have a didactic character and lead to a certain life situation or concluding idea. They are semantically complete and capable of expressing an independent thought. Sayings, in comparison with proverbs, are shorter and simpler, often based on a single image. The main feature of proverbs and sayings is that they have been transmitted orally from generation to generation and constitute a stable system of language.*

***Key words:*** *aphorisms, Uzbek language, French language, analysis, national culture, paremiology, linguocultural studies, proverb, idiomatic expressions, number, digit, lexical minimum, linguistics, quotations, symbolic and figurative meaning, semantic function, symbolism, structural, cultural, and quantitative functions.*

**Kirish.** Fransuz va o'zbek tillarida son hamda raqamlarga oid paremiologik birliklarni lingvokulturologik tahlilida ularning semantikasi va simvolik ramziy belgilarini o'xshash yoki farqli

tomonlama o’rganishda hikmatli so’z, aforizm, maqol, matallar muhim o’rin tutadi. Ular — xalqning donoligi, hayotiy tajribasi va to'plangan bilimlarini umumlashtirilgan shaklda ifodalovchi an'anaviy ibora turlari sifatida tasniflanadi. Maqollar odatda didaktik xarakterga ega bo'lib, muayyan hayotiy holat yoki xulosaga olib keladi. Ular semantik jihatdan to'liq bo'lib, mustaqil fikr ifodalay oladi. Matallar esa maqollarga nisbatan qisqaroq va oddiyroq bo'lib, ko'pincha bitta tasvirga asoslanadi. Maqol va matalarning asosiy xususiyati shundaki, ular og'zaki an'ana orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan va tilning barqaror tizimini tashkil etadi. Fransuz tilshunosligida paremiologiya uning leksikografiyasi va folklorizatsiyasida asosiy o’ringa ega. Fransuz tilida eng mashhur paremiologik to'plamlardan biri Jean-Pierre Casse "Dictionnaire des proverbes français" hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida paremiologiya "paremishunoslik" deb atalib, O'zbekiston olimlari, xususan G'.Abdusalomov, Sh.Raqamov va boshqalar bu sohada muhim tadqiqotlar olib borgan. Lingvokulturologiya — til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi lingvistik fanlararo disciplina hisoblanadi. Bu tushuncha rus tilshunosligida V.V.Vinogradov (1895-1969) asarlari bilan boshlangan va keyinchalik Yu.S.Stepanov, V.N.Teliya, M.L.Kovpyar va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Lingvokulturologiya til va madaniyatning uzviy bog'liqligini, tilning madaniy funksiyalarini va lingvistik birliklardagi madaniy semantikani o'rganadi. Sharqiy madaniyatlarda, xususan o'zbek madaniyatida raqamlarning o'ziga xos simvolik qiymatlari mavjud. "7" raqami islomiy an'anada muqaddas hisoblanib, "yetti o’lchab bir kes" iborasi orqali hayot tajribasini ifodalashga xizmat qiladi. "40" raqami ham muhim o'rin tutib, "qirq yigit" tushunchasi orqali jasorat va botiriy timsolini bildiradi. "12" raqami islomiy an'analarda o'n ikki imom va o'n ikki burunli qo'ylar bilan bog'liq holda muqaddas hisoblanadi. O'zbek tilining paremlarida raqamlar ko'p qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Bu holat o'zbek xalqining matematik savodxonligi va raqamlarga bo'lgan alohida munosabatini ko'rsatadi. Masalan, "Bir mayizni qirq bo’lib yeyish" hikmatli sitatasida "bir" va qirq raqamlari orqali insonlarni hamjihatlikka, mehr-oqibatlilikka, birlashishga hamda jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik ifodalanadi. "Birni ko’rib fikr qil, birni ko’rib shukur qil" maqolida esa "bir" raqami orqali insonni hayoti davomida turli qiyinchiliklar va to’siqlarga duch kelganda yon atrofiga qarab, uni fikrlashga, xulosa qilishga, sabrli bo’lishga chorlovchi falsafiy g’oyalar ifoda etiladi.

**Asosiy qism:** Fransuz madaniyatida raqamlarning simvolik semantikasi nasroniy an'analari va gallikan madaniyatining ta'siri ostida shakllangan. Bu simvolik qiymatlar fransuz paremlarida o'z aksini topgan. "3" (trois) raqami fransuz madaniyatida muqaddas uchlik tufayli eng muhim simvolik raqamlardan biri hisoblanadi. Bu raqam Xristian an'analaridagi Muqaddas Uchlik (Ota, O'g'il, Muqaddas Ruh) bilan bog'liq. Fransuz folklorida "trois" raqami mukammallik va muqaddaslik belgisi sifatida qabul qilingan. "Boire à trois"/ "Üch marta ichmoq" iborasi fransuz odob-axloqida muayyan marosim va qadriyatlar bilan bog'liq.

"7" (sept) raqami fransuz madaniyatida talpinish va omad belgisi sifatida qabul qilingan. Bu raqam Injildagi yetti kunli yaratilish bilan bog'liq bo'lib, fransuz paremlarida ko'p uchraydi va turli an'anaviy marosimlarda qo'llaniladi. Masalan, "sept générations" (yetti avlod) iborasi oila va nasl davomiyligini ifodalash uchun ishlatiladi. "13" (treize) raqami fransuz madaniyatida noqulaylik va baxtsizlik belgisi sifatida qabul qilingan. Bu raqam xristian an'analaridagi "oxirgi ishxona" (Oxirgi kechki ovqat) bilan bog'liq, chunki Oxirgi kechki ovqatda 13 kishi ishtirok etgan. Fransuzlarning ko'pchiligi "13" raqamidan qochishadi va bu raqamning qo'llanilishini istamaydilar. Shu sababli, fransuz mehmonxonalarida va liftlarida "13-qavat" atalmasdan, "12b" yoki "14" deb ataladi. "100" (cent) raqami fransuz madaniyatida to'liqlik va kamolot belgisi sifatida qo'llaniladi. "Faire les cent pas" (yuz qadam qilmoq) iborasi orqali bevosita harakat yoki kutish ifodalanadi. Bundan tashqari, "cent pour cent" (yuz foiz) ifodasi to'liq ishonch va tasdiqlashni bildiradi. Fransuz madaniyatida raqamlarning yana bir o'ziga xos jihati — ularning oshxona va ovqatlanish madaniyatida qo'llanilishi hisoblanadi. Fransuz oshxonasida an'anaviy ravishda "potage aux sept légumes" (yetti sabzavotli sho'rva) va "gâteau aux trois fromages" (uch pishloqli tort) singari taomlari mashhur bo'lib, raqamlar bu taomlarning tarkibini va ularga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi. O'zbek paremiologiyasining shakllanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasi, So'g'd va Baqtriy madaniyatlarining izlari o'zbek paremlarida uchraydi. Keyinchalik islom dinining ta'siri bilan o'zbek paremlarida diniy va axloqiy mavzular ko'proq o'rin olgan. O'rta asrlarda o'zbek maqollari rivojlana

boshlagan va temuriylar davrida ularning to'planishi boshlanadi. Qadimgi o'zbek paremlari bobodehqonlik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan. Bu mavzular o'zbek tilining paremlarida hali ham muhim o'rin tutadi: "Bir tupriyda ikki olma o'smaydi" (bitta yerga ikkita olma o'smaydi), zamonaviy o'zbek paremiologiyasi an'anaviy va zamonaviy mavzularni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida raqamlashgan paremlar soni jihatidan boy imkoniyatlarga ega. Bu paremlarda "bir" dan "yuz" gacha va hatto "ming" gacha bo'lgan raqamlar ishlatiladi. Har bir raqamning o'ziga xos simvolik qiymati va funksiyasi mavjud. "Bir yigit ming yigitga teng" — bu maqol bittasi ming taga teng ekanligini ifodalaydi. Maqolning didaktik ma'nosi shundan iboratki, bitta qobiliyatli va fidoyi odam ming oddiy odamdan ko'ra qimmatroq bo'lishi mumkin. Bu maqol o'zbek jamiyatida shaxsning ahamiyati va uning jamiyatdagi o'rni haqidagi tushunchalarni aks ettiradi. "Yuz kishi yuz tilda gapirsa — biri ortiqcha emas" — bu maqolda "yuz" raqami orqali insonning turli tillarni bilishi tasviriylanadi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, yuz kishi yuz tilda gapirsa ham, hech biri ortiqcha emas, chunki har bir til muhim. Bu maqol ko'p tillilik va madaniy xilmaxillikni qadrlashni ifodalaydi. "Qirq yigitning qirqinchisi" — bu maqol "qirq" raqami orqali jasorat va botiriy timsolini bildiradi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, qirq yigitning ichida qirqinchisi alohida jasoratga ega. Bu maqol o'zbek urf-odatlarida "qirq yigit" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, qahramonlik va jasoratni ifodalaydi. "Oltinga intilgan o'q tortmas" — bu maqol raqam to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmasada, "oltin" (oltinchi) so'zi orqali o'n oltinchi o'rinni ifodalaydi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, eng yaxshiga intilgan odam o'rtachaga rozi bo'lmaydi. Bu maqol o'zbek xalqining maqsadga intilish va mezon belgilash haqidagi tushunchalarini aks ettiradi. "Besh barmoq barobar emas" — bu maqol "besh" raqami orqali turli-tumanlik va har kimning o'ziga xosligini ifodalaydi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, besh barmoq bir xil bo'lmasligi kabi, odamlar ham har xil bo'lishadi. Bu maqol o'zbek xalqining tushunchasini qadrlashini ko'rsatadi. "Bir ming quyosh chiqmaydigan yurtda bir quyosh yetarli" — bu maqol "bir ming" (ming) va "bir" raqamlari orqali kamtarlik va munosiblikni ifodalaydi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, ming quyosh chiqmaydigan yurtda bitta quyosh yetarli — bu yerda "ming" ortiqcha narsa, "bir" esa kifoya qiladi. Bu maqol o'zbek xalqining kamtarlik va samiymiylik tushunchalarini aks ettiradi. Fransuz madaniyatida raqamlar ko'proq individualizm va shaxsiy muvaffaqiyat kontekstida qo'llaniladi. "Un seul peu de bon sens" maqolida shaxsiy aql va bilimga e'tibor qaratiladi. O'zbek madaniyatida esa raqamlar ko'proq jamoa va oila kontekstida qo'llaniladi. "Bir kishi qancha bo'lsa, bir oila shuncha bo'ladi" maqolida shaxs va oila o'rtasidagi bog'liqlik ifodalanadi. Fransuz madaniyatida raqamlar ko'proq abstrakt va falsafiy kontekstlarda qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida esa raqamlar ko'proq amaliy va hayotiy kontekstlarda qo'llaniladi. Bu farq ikki xalqning turli dunyoqarash tizimlarini ko'rsatadi: fransuzlar — rationalistik va falsafiy, o'zbeklar — pragmatik va amaliy.

**Xulosa:** Muxtasar qilib aytganda, o’zbek va fransuz tilidagi sonlar bilan bog‘liq paremiologik birliklar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Bunday maqol va iboralarda sonlar nafaqat miqdorni bildiradi, balki ma’no kuchaytiruvchi, umumlashtiruvchi va obrazlilikni oshiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Maqolaning nazariy ahamiyati shundan iboratki, u lingvokulturologiyaning paremiologiya sohasidagi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Raqamlashgan paremlarni tahlil qilish orqali biz til va madaniyat o'rtasidagi chuqur bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Uning amaliy ahamiyati ham muhim, tarjima va madaniyatlararo muloqot sohasida qo'llanilishi mumkin. Turli tillardagi paremlarni solishtirish orqali biz nafaqat lingvistik, balki madaniy farqlarni ham tushunishimiz mumkin. Umuman olganda, raqamlashgan paremiyalar fransuz va o’zbek xalqlari paremiologiyasini qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Casser 书, Jean-Pierre. *Dictionnaire des proverbes français*. Paris: Éditions de la Maison des dictionary, 2008.
2. Abdusalomov, G'. *O'zbek tilining paremiologik lug'ati*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
3. Vinogradov, V.V. *Ocherki po istorii russkogo literaturnogo yazyka*. Moskva: GIT-TL, 2009.
4. Степанов, Ю.С. *Константы: Словарь русской культуры*. Moskva: Akademicheskiy Proekt, 2004.
5. Телия, В.Н. *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. Moskva: Языки славянской культуры, 2006.
6. Moinat, Frédéric. *Les proverbes français: histoire et anthologie*. Paris: Éditions du Seuil, 2010.

7. Рахимов, Б.Р. *Узбекские пословицы и поговорки*. Toshkent: Фан, 1988.
8. Ковпир, М.Л. *Лингвокультурология*. Moskva: Флинта, Наука, 2006.

**UO'K 811.512.133'374.82:796**

## MAXSUS LUG'ATLARDA SPORT TERMINLARINING BERILISHI

***B.Q.Haydarova, mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi***
***ORCID: 0009-0004-8246-5473***

***Annotatsiya.*** *Maqolada o'zbek tilshunosligida sport terminlarining maxsus lug'atlarda berilishi masalasi leksikografik va terminologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqola sport terminologiyasini rivojlantirish, maxsus lug'atlar sifatini oshirish va milliy tilning ilmiy-texnikaviy funksiyasini mustahkamlash bo'yicha nazariy va amaliy xulosalar beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *sport terminologiyasi, maxsus lug'at, izohli lug'at, termin, leksikografiya, me'yorlashtirish, standartlashtirish, etimologiya, o'zbek tili.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется с лексикографической и терминологической точек зрения вопрос о приведении спортивных терминов в узбекском языкознании в специальных словарях. В статье даны теоретические и практические выводы по развитию спортивной терминологии, повышению качества специальных словарей, укреплению научно-технической функции национального языка.*

***Ключевые слова:*** *спортивная терминология, специальный словарь, толковый словарь, терминология, лексикография, нормирование, стандартизация, этимология, узбекский язык.*

***Abstract.*** *The article analyzes the issue of listing sports terms in Uzbek linguistics in special dictionaries from a lexicographic and terminological point of view. The article provides theoretical and practical conclusions on the development of sports terminology, improving the quality of special dictionaries, and strengthening the scientific and technical function of the national language.*

***Key words:*** *sports terminology, special dictionary, explanatory dictionary, terminology, lexicography, normalization, standardization, etymology, Uzbek language.*

**Kirish.** Mavjud sport terminologiyasiga oid lug'atlarning ayrimlarida ikki tillilik xususiyati yaqqol namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash zarur. Xususan, M.F.Ne'matova tomonidan tuzilgan lug'at o'zbek va ingliz tillaridagi sport terminlarini tizimli tarzda jamlagan holda taqdim etadi[1]. Muallif ushbu lug'atni oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun maxsus mo'ljallangan o'quv vositasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, lug'at jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida, shuningdek, keng ommabop sport adabiyotlari va ma'lumotnomalarga qo'shimcha havolalarsiz murojaat qilgan holda ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishda samarali qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin. Shu o'rinda qayd etish lozimki, lug'at asosan inglizcha sport terminlarining o'zbekcha ekvivalentlarini taqdim etishga qaratilgan. O'quv lug'atlariga qo'yiladigan asosiy talablar – aniq auditoriyaga mo'ljallanganlik, muayyan fan yoki soha terminologik birliklarini qamrab olish kabi mezonlar nuqtai nazaridan tahlil qilinayotgan nashr ushbu talablarga to'liq javob beradi. Biroq, lug'at maqolalarida tarjima axborotidan tashqari qo'shimcha lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlarning miqdori nihoyatda cheklanganligi e'tiborga loyiq. Aniqroq qilib aytganda, bunday qo'shimcha axborot asosan terminning qaysi sport turiga mansubligini belgilash bilan cheklanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Lug'atda *art.gymn, weightl., icehok., sp,sp., w.polo., sp.g., b/b, wrest., judge, outdrive motorboat, sail., am., surf., v/b, f/b, parach., airsp., shoot., snowb.* kabi maxsus pometalar va so'zlar ingliz tili qismi uchun, *futb., voleyb., sp.o'yin, serf., yelkan sp., kurash, bad. gimn., djudo, og'ir atl., xok., parashyut sp., o'q otish, aerosp., snoub.* kabi qisqartmalar hamda so'zlar esa o'zbek tili qismi uchun qo'llanilgan. Ta'kidlash joizki, qo'shimcha ma'lumotlarning berilishida tizimli yondashuvning yo'qligi aniq seziladi. Chunki bir xil funksiyani bajaruvchi ma'lumotlar ba'zan abbreviatura, ba'zan to'liq so'z yoki so'z birikmasi shaklida ifodalangan. Bunday noaniqlik lug'atning ichki tizimliligi va izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda foydalanuvchilarning chalkashligiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, qo'shimcha axborotning haddan tashqari kamligi lug'atning umumiy informativlik darajasini sezilarli darajada

pasaytiradi. Shu jihatdan “Sport atamalarining inglizcha-o‘zbekcha lug‘ati” (2023) ni to‘liq mukammal deb baholash imkoniyati cheklangan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan lug‘at quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

a) terminning inglizcha shakli;

b) terminning qaysi sport turiga mansubligini ko‘rsatuvchi ingliz tilidagi belgi;

d) terminning o‘zbekcha shakli;

e) terminning qaysi sport turiga mansubligini ko‘rsatuvchi o‘zbek tilidagi belgi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sport sohasiga oid terminlarni tizimli tarzda jamlagan maxsus leksikografik manbalarning eng yangi nashrlaridan biri sifatida mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan “Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati” (2024) alohida e’tiborga molikdir. Mualliflarning nuqtai nazariga ko‘ra, ushbu lug‘at sport sohasidagi bilimlarni yanada mustahkamlash, uning nazariy asoslarini chuqurroq o‘zlashtirish hamda atamalarning mazmun-mohiyatini kengroq tushunish imkoniyatini yaratishi lozim edi[2]. Lug‘atning mo‘ljallangan auditoriyasi nisbatan keng qamrovli bo‘lib, u umumta’lim maktablari o‘quvchilari, oliy ta’lim muassasalari talabalari, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari, murabbiylar hamda sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis xodimlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur leksikografik nashr jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid o‘quv hamda izohli atamalar lug‘atining yangi avlodini tartibga solish, sport ensiklopediyasini shakllantirish, shuningdek, o‘zbek tiliga xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan so‘z va atamalar lug‘atini yaratish yo‘lida keng imkoniyatlar ochishi mumkin. Lug‘atning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda ko‘plab so‘z va so‘z birikmalari ifodalagan u yoki bu sport turi, sport anjomlari, obyektlari yoki harakatlariga oid tasviriy materiallar (suratlar) ham keltirilgan. Bu esa foydalanuvchida tegishli tushunchalar haqida yanada to‘liqroq va aniqroq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. “Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati” (2024) da 200 dan ortiq terminologik birlik qayd etilgan. Lug‘at maqolalarida jami 32 ta qisqartma so‘z shaklidagi maxsus pometa qo‘llanilgan bo‘lib, ularning katta qismi (32 tadan 17 tasi) etimologik mansublikni ko‘rsatishga qaratilgan. Shuningdek, tez-tez takrorlanuvchi so‘z va iboralarning qisqartma shakllari sifatida ishlatiladigan maxsus pometalar ham mavjud (d.*h. – dastlabki holat; b-n – bilan; g – gramm; q. – qarang; u-n – uchun; sm – santimetr; y. – yil; kg – kilogramm; km – kilometr; er. av. – eramizdan avvalgi,* kabi.). Lug‘atga asosan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud bo‘lgan so‘zlar tanlab olinganligi qayd etiladi. Tahlil qilinayotgan lug‘atda izoh qismi nihoyatda keng yondashuv asosida shakllantirilganligi e’tiborga loyiq. Masalan, “brass” terminologik birligining izohida “sportcha suzish usuli, oyoq va qo‘llar harakatlarini (quloch ochmay, chalqanchasiga yoki ko‘krakda) bir vaqtda, bir-biriga mos holda, ma’lum tartibda uyg‘un bajarish (B. usulida suzish masofalari – 100, 200 m erkaklar va ayollar)”[2:40] kabi qism bevosita terminologik lug‘at talablariga mos keladi. Chunki aynan shu parcha lug‘at maqolasida bosh so‘z maqomida turgan terminning mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ushbu maxsus lug‘atda ham ortiqcha tuyuladigan ma’lumotlar ko‘p uchraydi. Xususan, yuqoridagi “brass” maqolasida quyidagi qo‘shimcha axborot beriladi: “*III Olimpiada o‘yinlarida (1904-y., Sent-Luis) namoyish etildi. B. usulida suzishning IV Olimpiada o‘yinlari dasturiga 200 m, XIX Olimpiyada o'yinlari dasturiga 100 m masofalari kiritilgan. O'zbekistonlik V.Mixaylov (100, 200 m), N.Dovidenko (100 m), S.V.Babanina (100 m) jahon arenalarida brass usulida suzib, katta shuhrat qozonganlar*”[2:40]. Bunday parchalar lug‘at izohiga erkin yondashish darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi. Qayd etish lozimki, ushbu turdagi kengaytirilgan ma’lumotlar lug‘at maqolalarining ensiklopedik lug‘atlar tipida yaratilganligini dalillaydi va terminologik lug‘atning klassik talablaridan biroz chekinish sifatida baholanishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Sport terminlarining maxsus lug‘atlarda tizimli tarzda berilishi o‘zbek tilining terminologik tizimini rivojlantirish, uni standartlashtirish va ilmiy-texnikaviy sohada mustahkamlash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday leksikografik manbalar sport sohasida yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, tushunchalar va jarayonlarni o‘zbek tilining leksik tizimida aniq, izchil va bir ma’noli ifodalashga xizmat qiladi. Umumiy izohli lug‘atlardan farqli ravishda, maxsus sport terminlari lug‘atlari faqatgina sohaga oid terminologik birliklarga qaratilgan bo‘lib, tushunchalarning semantik aniqligi, terminologik birlik va nomuvofiqliklarning

minimallashtirilishini ta'minlaydi. Ular terminlar orasidagi sinonimik qatorlar, ko'pma'nolilik holatlari va nomuvofiqliklarni kamaytirish orqali ilmiy, kasbiy hamda pedagogik kommunikatsiyani sezilarli darajada soddalashtiradi va samaradorligini oshiradi. Maxsus lug'atlar mutaxassislar, murabbiylar, talabalar, tarjimonlar hamda sohada faoliyat yurituvchi keng doiradagi foydalanuvchilar uchun asosiy ishonchli manba vazifasini bajaradi. Ular orqali soha ichidagi tizimli bilimlarni chuqur o'zlashtirish, terminologik savodxonlikni yuksaltirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. O'zbek tilida sport terminlarini jamlagan maxsus lug'atlar milliy terminologiyani rivojlantirish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda global sport kommunikat siyasi bilan uyg'unlashtirish jarayonida muhim vosita sifatida maydonga chiqadi. Ta'lim tizimida yangi mavzularni tez va samarali o'zlashtirish, terminologik savodxonlik darajasini oshirish, shuningdek, kasbiy kompetentsiyani mustahkamlashda ularning o'rni beqiyosdir. Maxsus lug'atlar orqali terminlarning etimologik kelib chiqishi, semantik tuzilishi, qo'llanilish doirasi va funksional xususiyatlari batafsil yoritiladi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun ishonchli empirik bazani shakllantiradi va terminologik tadqiqotlarning chuqurlashishiga zamin yaratadi. Sport terminlarining maxsus lug'atlarda berilishi soha ichidagi terminologik nomuvofiqliklarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Tarjima faoliyatida esa bunday lug'atlar terminlarning to'g'ri, izchil va kontekstga mos tarjimasini kafolatlab, xalqaro sport hamkorligi, ilmiy almashinuv va madaniy dialogni osonlashtiradi. Vaqt o'tishi bilan sport terminlarining bir qismi umumxalq leksikasiga o'tib, tilning umumiy boyligini, ekspressiv imkoniyatlarini va stilistik rang-barangligini kengaytiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, sport terminlarining maxsus lug'atlarda berilishi nafaqat o'zbek tilining terminologik tizimini saqlab qolish, rivojlantirish va standartlashtirish vositasi, balki jamiyatning sport sohasidagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti, ta'lim sifati, kasbiy kompetentsiya darajasi va xalqaro integratsiyasi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Bu jarayon tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, milliy o'zlikni saqlash va global madaniy-ilmiy jarayonlarga faol qo'shilish yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ne'matova M.F. Sport atamalarining inglizcha-o'zbekcha lug'ati. – Buxoro: Kamolot, 2023. – 148 b.
2. G'afforov N. va boshq. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: Umid design, 2024. – 256 b.

**UO'K 81'42:81'27:811.111:811.512.133**

## O'ZBEK VA INGLIZ SO'ZLASHUV DISKURSIDA DISKURS MARKERLARINING INTERAKTIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

***M.A.Jo'rayeva, o'qituvchi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Maqolada o'zbek va ingliz so'zlashuv diskursida faol qo'llanadigan diskurs markerlarining strukturaviy emas, balki interaktiv-pragmatik vazifalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida markerlarning muloqotni boshlash, navbatni ushlab turish, izoh kiritish, munosabatni yumshatish, mavzuni ko'chirish va xulosa yasashdagi roli ochib berildi. O'zbek tilida diskurs markerlari ko'proq suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlik, hurmat va emotsional muvofiqlashuvni ta'minlashi, ingliz tilida esa muloqot oqimini segmentlash, turn-takingni boshqarish va argumentni aniq ramkalash vazifasi kuchliroq ekani ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari qiyosiy pragmatika, tarjimashunoslik va chet tilini o'qitish amaliyoti uchun muhim ilmiy xulosalarni beradi.*

***Kalit so'zlar:*** *diskurs, diskurs markerlari, so'zlashuv nutqi, pragmatika, interaktivlik, o'zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tilshunoslik*

***Аннотация.*** *В статье в сопоставительном аспекте рассматриваются дискурсивные маркеры узбекского и английского устного дискурса с точки зрения их интерактивно-прагматических функций. Анализируется их роль в инициации общения, удержании речевого хода, внесении уточнений, смягчении позиции, переключении темы и формулировании вывода. Показано, что в узбекском языке такие маркеры теснее связаны с межличностной координацией, уважением и эмоциональной близостью, тогда как в английском языке они активнее сегментируют дискурс, регулируют смену реплик и структурируют аргументацию.*

*Результаты имеют значение для сопоставительной прагматики, перевода и методики преподавания языка.*

***Ключевые слова:*** *дискурс, дискурсивные маркеры, устная речь, прагматика, интерактивность, узбекский язык, английский язык, сопоставительное языкознание*

***Abstract.*** *The article comparatively examines discourse markers in Uzbek and English spoken discourse from an interactive and pragmatic perspective. The analysis focuses on how markers initiate talk, maintain turns, introduce clarification, soften stance, redirect topics and formulate conclusions. The study shows that Uzbek discourse markers are more strongly connected with interpersonal alignment, respect and emotional coordination, whereas English markers more actively segment discourse, regulate turn-taking and frame arguments. The findings are relevant for comparative pragmatics, translation studies and foreign language teaching.*

***Key words:*** *discourse, discourse markers, spoken speech, pragmatics, interactivity, Uzbek, English, comparative linguistics*

**Kirish.** Diskurs markerlari og‘zaki muloqotda ko‘pincha grammatik mazmuni kuchsiz, ammo kommunikativ vazifasi nihoyatda faol birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular gapning denotativ mazmunini belgilashdan ko‘ra, suhbatning qanday kechayotganini, gapiruvchi nuqtayi nazarining qanchalik qat’iy yoki yumshoq ekanini, navbat almashinuvi qaysi yo‘nalishda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bois markerlarni faqat bog‘lovchi, yuklama yoki kirish birlik sifatida talqin qilish yetarli emas; ularni interaktiv muomala mexanizmining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zarur [1].

O‘zbek va ingliz tillarini qiyoslash ayniqsa muhim, chunki bu ikki til tipologik, madaniy va pragmatik jihatdan turlicha rivojlangan. O‘zbek so‘zlashuv madaniyatida suhbatdosh bilan yaqinlikni saqlash, hurmatni ifodalash va keskinlikni yumshatish ustuvor bo‘lsa, ingliz tilida muloqotni tartibga solish, gapning mantiqiy oqimini belgilash va turn managementni aniq tashkil etish ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Shu sababli shaklan o‘xshash birliklar pragmatik kuch jihatidan bir-biridan sezilarli farq qilishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz so‘zlashuv diskursida uchraydigan diskurs markerlarining interaktiv-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tavsiflash, ularning funksional tiplarini ajratish hamda til o‘qitish va tarjima jarayonida hisobga olinishi lozim bo‘lgan omillarni ko‘rsatishdan iborat. Tadqiqotning yangiligi markerlarni alohida lug‘aviy birlik sifatida emas, balki muloqot jarayonini boshqaruvchi pragmatik operator sifatida tahlil qilishidadir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Diskurs markerlari nazariyasida Deborah Schiffrin, Bruce Fraser, Brown va Yule, Halliday va Hasan kabi olimlarning ishlari muhim metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda markerlar matn kohesiyasini ta’minlovchi vosita, nutqiy chegaralarni bildiruvchi signal, gapiruvchining munosabatini ko‘rsatuvchi pragmatik forma yoki muloqotdagi navigatsiya vositasi sifatida talqin qilingan. Xususan, Schiffrin markerlarning suhbatdagi lokal va global bog‘lanishni tashkil etishini ta’kidlaydi; Fraser esa ularni gaplar o‘rtasidagi pragmatik munosabatni ko‘rsatuvchi birliklar deb tavsiflaydi [2].

Ingliz tilshunosligida “well”, “so”, “you know”, “actually”, “anyway”, “right” kabi birliklar keng tadqiq qilingan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida ushbu hodisa ko‘proq kirish so‘zlar, modal birliklar, bog‘lovchilar, undovlar yoki so‘zlashuv sintaksisidagi yordamchi vositalar doirasida izohlangan. N. Mahmudov va A. Nurmonovning sintaksisga doir ishlari, shuningdek, o‘zbek tilining stilistik va funksional imkoniyatlarini yoritgan tadqiqotlar ushbu masalani sharhlashda foydali nazariy asos beradi [3].

Shu bilan birga, o‘zbek va ingliz tillarida aynan real dialogik material asosida olib borilgan qiyosiy pragmatik tadqiqotlar ko‘p emas. Ko‘pincha tarjima amaliyotida “demak = so”, “xo‘sh = well”, “axir = after all” kabi soddalashtirilgan mosliklar taklif qilinadi, ammo ularning vaziyatga bog‘liq funksional yuklamasi har doim bir xil bo‘lmaydi. Shu jihat ushbu maqolada markerlarning interaktiv tabiati, intonatsion joylashuvi va suhbatdoshlar orasidagi masofani boshqarishdagi roli alohida ko‘rilishini talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot tavsifiy, qiyosiy va pragmalingvistik metodlar asosida olib borildi. Tahlil materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi kundalik suhbatlar, intervyu parchalar,

xizmat ko‘rsatish dialoglari hamda o‘quv maqsadida tuzilgan so‘zlashuv namunalari ichidan tanlab olingan 160 ta misol birligi olindi. Har bir misolda markerning pozitsiyasi, muloqotdagi navbat almashinuvi bilan aloqasi, emotsional fonni yumshatish yoki kuchaytirishdagi roli va mantiqiy bog‘lanishni tashkil etishdagi vazifasi kuzatildi.

Tahlil jarayonida markerlar besh asosiy guruhga ajratildi: 1) muloqotni boshlovchi markerlar; 2) navbatni ushlab turuvchi markerlar; 3) aniqlashtiruvchi va izohlovchi markerlar; 4) mavzu ko‘chiruvchi markerlar; 5) xulosalovchi markerlar. Bu tasnif qatiy morfologik mezonga emas, balki diskursiy funksiyaga asoslandi. Chunki bir xil birlik turli vaziyatda turlicha vazifa bajarishi mumkin: masalan, inglizcha “so” yoki o‘zbekcha “demak” ba’zan xulosa, ba’zan esa yangi savolga o‘tish signaliga aylanadi.

Qiyoslashda funksional ekvivalentlik tamoyili qo‘llandi. Ya’ni markerlar lug‘aviy tarjima darajasida emas, ular bajaradigan kommunikativ ish hajmi asosida solishtirildi. Ana shu yondashuv markerlarning real pragmatik kuchini aniqlashga imkon beradi va tarjimada yuz beradigan semantik emas, interaktiv nomuvofiqliklarni ham ochib beradi [4].

**Tahlil va natijalar.** Tahlil natijalari o‘zbek tilida “xo‘sh”, “endi”, “demak”, “axir”, “xullas”, “mayli” kabi birliklar nafaqat muloqotni tashkil etishi, balki suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik masofani ham boshqarishini ko‘rsatdi. Masalan, “Xo‘sh, endi nima qilamiz?” tipidagi qo‘llanishda “xo‘sh” bir tomondan yangi bosqichni ochsa, ikkinchi tomondan suhbatdoshni birgalikdagi qarorga taklif etadi. Ingliz tilidagi “Well, what do we do now?” shakli esa muhokamaga kirish va pauzani diskursiy jihatdan to‘ldirish vazifasini kuchliroq bajaradi. Demak, yuzaki ekvivalentlik ortida turli interaktiv strategiyalar yotadi.

“Demak” va “so” birliklari qiyosida ham muhim farq ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida “demak” ko‘pincha oldingi fikrni jamlab, xulosaning nisbatan qat’iy shaklini ifodalaydi; didaktik yoki mantiqiy yakun semasi unda ancha faol. Ingliz tilidagi “so” esa xulosa, savolga o‘tish, mavzuni qayta ishga tushirish yoki suhbatni davom ettirish kabi bir necha funksiyani o‘zida jamlaydi. Bu ingliz tilidagi markerlarning diskursiy moslashuvchanligi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi [5].

O‘zbekcha “axir” va inglizcha “after all” birliklari argumentativ eslatma sifatida o‘xshash ko‘rinsa-da, ularning pragmatik ohangi farqlidir. “Axir men seni ogohlantirgandim” gapida “axir” tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan faktni eslatish bilan birga, bahsni yumshoq bosim orqali yopishga xizmat qiladi. “After all, I warned you” shaklida esa mantiqiy asoslash semasi kuchliroq bo‘lib, shaxslararo yaqinlikdan ko‘ra argument qurilishiga urg‘u beriladi. Shu sababli tarjimada intersubyektivlik darajasi yo‘qolib ketishi mumkin.

Mavzu ko‘chiruvchi markerlarda ham milliy pragmatik farqlar aniq ko‘rinadi. O‘zbek tilidagi “xullas”, “mayli”, “bo‘pti”, “endi” birliklari ko‘pincha bahsni yumshatib yopish, rozi bo‘lish, yon berish yoki yangi nuqtaga ehtiyotkor o‘tishni bildiradi. Ingliz tilidagi “anyway”, “okay”, “right”, “now” birliklari esa ko‘proq diskursni qayta indekslash, navbatni mustahkamlash va suhbatning keyingi segmentini aniq belgilash uchun xizmat qiladi. Ya’ni ingliz tilida strukturaviy boshqaruv, o‘zbek tilida esa munosabatni muvozanatlashuv tendensiyasi kuchliroq [6].

Tahlilda markerlarning intonatsion mustaqilligi ham muhim mezon bo‘ldi. O‘zbek nutqida ko‘plab markerlar o‘zidan keyingi segment bilan emotsional jihatdan yopishib keladi va gapiruvchining ohangini yumshatadi. Ingliz tilida esa ayrim markerlar, xususan “well”, “right”, “okay”, pauza bilan ajralib, navbatni boshqarish vositasiga aylanadi. Demak, diskurs markerini to‘g‘ri tushunish uchun uning leksik shakli bilan birga prosodik joylashuvini ham hisobga olish zarur [7].

Ushbu farqlar pedagogik va amaliy jihatdan muhimdir. Agar chet tili o‘rganuvchi “well”ni har doim “xo‘sh” deb, “so”ni esa har doim “demak” deb tarjima qilsa, kommunikativ tabiiylik buziladi. Xuddi shunday, o‘zbek tilidagi “mayli” yoki “bo‘pti” birliklari ingliz tilida ba’zan “okay”, ba’zan “fine”, ba’zan esa umuman marker sifatida emas, butun sintaktik qayta qurilish orqali berilishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun qiyosiy pragmatika diskurs birliklarini lug‘at darajasidan ko‘ra, vaziyat darajasida o‘qitishni talab qiladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, diskurs markerlari ko‘pincha grammatik jihatdan chekka birlik deb qaralsa-da, ular dialogning “insoniy ohangi”ni belgilaydi. O‘zbek tilida “endi”, “xullas”, “mayli”,

“xo‘p” singari markerlar suhbatning ijtimoiy atmosferasini sozlaydi: ular kelishuv, sabr, yon berish, mavzuni yumshoq yopish yoki yangi nuqtaga ehtiyotkor o‘tishni ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa “right”, “okay”, “well”, “anyway” kabi birliklar ko‘proq procedural signal vazifasini bajarib, navbat almashuvi, mavzu segmentatsiyasi va suhbatning ritmini boshqaradi. Shu nuqtai nazardan, diskurs markerlari lingvistik birlik bo‘lishdan tashqari, kommunikativ etikani ham tashuvchi vosita hisoblanadi.

Shuningdek, markerlarning qo‘llanishi yosh, ijtimoiy maqom, muloqot rasmiyligi va kommunikativ janr bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, norasmiy o‘zbek suhbatida “ha endi”, “bo‘pti”, “xo‘sh” kabi birliklar juda tabiiy bo‘lsa, rasmiy nutqda ularning o‘rnini “demak”, “shunday qilib”, “binobarin” singari nisbatan neytral vositalar egallaydi. Ingliz tilida ham “you know”, “like” kabi markerlar norasmiylikka yaqin bo‘lsa, akademik yoki rasmiy dialogda “however”, “therefore”, “well then” singari tartiblovchi birliklar afzal ko‘riladi. Demak, diskurs markerlarini funksional jihatdan o‘rganish ularning stilistik tarqalishini ham birgalikda tavsiflashni talab etadi.

Tarjima va diskurs tahlili amaliyotida yana bir masala – markerning semantik emas, prosessual ma’nosini aniqlashdir. Masalan, “well” har doim “xo‘sh” emas, ba’zan qarama-qarshilikka kirish, ba’zan kechiktirilgan javob, ba’zan esa noqulay pozitsiyani yumshatish vositasi bo‘ladi. Xuddi shuningdek, o‘zbekcha “mayli” ayrim vaziyatda rozilik, ayrim vaziyatda suhbatni tugatish, boshqa holatda esa norozilikni yashirin yumshatish vositasiga aylanishi mumkin. Bu esa diskurs markerlari lug‘at maqolasidan ko‘ra, kommunikativ ssenariy bilan birga o‘rganilishi kerakligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz so‘zlashuv diskursida diskurs markerlari umumiy kommunikativ ehtiyojdan kelib chiqsa-da, ularning interaktiv vazifalari bir xil emas. O‘zbek tilida ular ko‘proq hurmatni saqlash, emotsional yaqinlikni kuchaytirish, tinglovchini suhbatga jalb etish va kelishmovchilikni yumshatish uchun ishlaydi. Ingliz tilida esa markerlar diskurs oqimini segmentlash, navbatni boshqarish, argumentativ yo‘nalishni ramkalash va matn ichki mantiqini ko‘rsatish vazifasida faolroq namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan bu hol markerlarni faqat matn bog‘lovchilari sifatida emas, balki madaniy-pragmatik kodlar sifatida ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi. Amaliy jihatdan esa chet tilini o‘qitishda diskurs markerlarini lug‘aviy tarjima orqali emas, real muloqot ssenariylari va intonatsion modellar asosida o‘rgatish maqsadga muvofiq. Tarjima amaliyotida ham funksional ekvivalentlik prinsipi yetakchi bo‘lishi kerak. Kelgusidagi tadqiqotlarda markerlarning korpus asosidagi chastotasi, yosh va ijtimoiy guruhlar bo‘yicha taqsimoti hamda multimodal muloqot bilan aloqasi alohida o‘rganilishi lozim [8].

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Biber, D., S. Johansson, G. Leech, S. Conrad, E. Finegan. Longman Grammar of Spoken and Written English. – Harlow: Longman, 1999.
2. Brown, G., G. Yule. Discourse Analysis. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
3. Fraser, B. What are discourse markers? // Journal of Pragmatics. – 1999. – Vol. 31, No. 7. – P. 931–952.
4. Halliday, M.A.K., R. Hasan. Cohesion in English. – London: Longman, 1976.
5. Mahmudov, N., A. Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
6. Schiffrin, D. Discourse Markers. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
7. Sultonsaidova, S., O‘. Sharipova. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Yurist-Media markazi, 2009.
8. van Dijk, T.A. Discourse as Structure and Process. – London: Sage, 1997.

**UO’K 81-27; 811.512.133; 327.8**

## DIPLOMATIYAGA OID LEKSIKANING O‘RGANILISHI

***Z.O.Jumaniyozov, DSc, dots., Urganch davlat universiteti, Urganch***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada diplomatiyaga oid leksikaning shakllanishi va o‘rganilish tarixi nemis, rus hamda o‘zbek tilshunosligi materiallari asosida tahlil qilingan. Sharq (arab, fors va turkiy) tillaridan rus va nemis tillariga o‘zlashgan diplomatik terminlar, ularning etimologiyasi, semantik xususiyatlari hamda tarixiy taraqqiyoti ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, diplomatik terminologiyaning leksik-semantik tizimi, so‘z yasalish usullari, terminlarning*

*polisemantik tabiati, qisqartmalar, klishe birliklar va zamonaviy diplomatik diskursda yuzaga kelayotgan terminologik birliklarning qo'llanishi tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *diplomatik leksika, diplomatik terminologiya, xalqaro munosabatlar, termin, diplomatik diskurs, etimologiya, o'zlashmalar, so'z yasalishi, klishe.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются становление и история изучения дипломатической лексики на материале немецкого, русского и узбекского языкознания. На основе научных источников рассматриваются дипломатические термины, заимствованные в русский и немецкий языки из восточных языков (арабского, персидского и тюркских), их этимология, семантические особенности и историческое развитие. Кроме того, исследуются лексико-семантическая система дипломатической терминологии, способы словообразования, полисемантическая природа терминов, аббревиатуры, клишированные единицы, а также особенности функционирования терминологических единиц, формирующихся в современном дипломатическом дискурсе.*

***Ключевые слова:*** *дипломатическая лексика, дипломатическая терминология, международные отношения, термин, дипломатический дискурс, этимология, заимствования, словообразование, клише.*

***Abstract.*** *This article analyzes the formation and history of the study of diplomatic lexis based on evidence from German, Russian, and Uzbek linguistics. Drawing on scholarly sources, it examines diplomatic terms borrowed into Russian and German from Eastern languages (Arabic, Persian, and Turkic), focusing on their etymology, semantic features, and historical development. The study also explores the lexical-semantic system of diplomatic terminology, word-formation patterns, the polysemous nature of diplomatic terms, abbreviations, clichéd expressions, and the use of emerging terminological units in contemporary diplomatic discourse.*

***Key words:*** *diplomatic lexis, diplomatic terminology, international relations, term, diplomatic discourse, etymology, borrowings, word formation, clichés.*

**Kirish.** Diplomatik terminologiya xalqaro munosabatlar tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u davlatlar o'rtasidagi siyosiy, huquqiy va madaniy aloqalarning til vositasida ifodalanishini ta'minlaydi. Xalqaro munosabatlarning jadallashuvi, diplomatik institutlarning rivojlanishi hamda global siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi diplomatiya tili leksikasining doimiy ravishda boyib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois diplomatik terminlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi, semantik taraqqiyoti va tillararo o'zlashish jarayonlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Diplomatik leksikaning shakllanishi va rivojlanishi X. Dadabaev, D.S. Qulmamatov, O.O. Cho'ponov, A.A. Abdullaeva, J.Sh. Safarov, M.D. Stepanova, N.L. Konstantinova, K.A. Levkovskaya va boshqa olimlarning tadqiqotlarida turli jihatlardan yoritilgan. Ushbu ishlarda diplomatik terminlarning etimologiyasi, leksik-semantik va struktur xususiyatlari, diplomatik diskursdagi funksiyalari hamda terminologik tizimning shakllanish qonuniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy manbalar va leksikografik materiallar diplomatik terminologiyaning shakllanishida nemis, rus hamda arab, fors va turkiy tillar sezilarli ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Mazkur ishning maqsadi rus va nemis tillari diplomatik terminologiyasining shakllanish tarixini tilshunoslik va leksikografik manbalar asosida tahlil qilish, Sharq tillaridan o'zlashgan diplomatik terminlarning etimologik hamda semantik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, diplomatik terminologiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflashdan iborat. Tadqiqot davomida diplomatik terminlarning tarixiy manbalari, tematik guruhlari, struktur-semantik xususiyatlari hamda tillararo o'zlashish jarayonlari qiyosiy-tarixiy va tavsifiy metodlar asosida tahlil qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Diplomatik terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi va funksional xususiyatlari turli olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan. X. Dadabaev qadimgi turkiy yozma yodgorliklar asosida diplomatik terminlarning tarixiy shakllanishi va tematik tasnifini ishlab chiqqan. D.S.Qulmamatov hamda O.O.Cho'ponov XVII asr diplomatik yozishmalari materiallari asosida turk, arab va forsiy diplomatik terminlarning rus tiliga o'zlashishi hamda ularning tarixiy-etimologik xususiyatlarini tahlil qilgan.

A.A. Abdullaeva rus va o‘zbek tillaridagi xalqaro munosabatlar leksikasini qiyosiy jihatdan o‘rgangan bo‘lsa, J.Sh. Safarov diplomatik diskursning leksik-frazeologik tarkibi va terminlarning funksional-semantik xususiyatlarini ingliz tili materiallari asosida yoritgan. Nemis tilidagi diplomatik terminologiya esa asosan maxsus lug‘atlar doirasida tavsiflangan.

Mavjud tadqiqotlar diplomatik terminologiyaning tarixiy, leksik-semantik va diskursiv jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, nemis, rus va o‘zbek tillaridagi diplomatik terminlarning shakllanishi, Sharq tillari bilan genetik aloqalari hamda ularning qiyosiy tahlili kompleks tarzda yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, etimologik va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanildi. Rus, nemis va o‘zbek tillaridagi diplomatik terminlar ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar hamda leksikografik materiallar asosida tahlil qilinib, ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari va tillararo o‘zlashish jarayonlari qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Tilshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, leksikografik manbalar shuni ko‘ratadiki, rus va nemis tillarida sharq tillaridan o‘zlashgan diplomatiyaga tegishli bo‘lgan qator terminlar uchraydi.

X.Dadabaev o‘zining “Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв.” nomli ilmiy ishida XI–XIV asrlardayoq turkiy xalqlar Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarda bo‘lganliklarini va o‘zi o‘rganayotgan davrda muayyan sondagi diplomatik terminlar mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. U mazkur leksik birliklarni kelib chiqishini qadimgi turkiy manbalardan izlaydi va ularni quyidagi guruhlarga bo‘ladi: 1) Diplomatik lavozim terminlari (yalavach – ‘elchi, habarchi, jo‘natilgan, vakil’, elchi – ‘xabarchi, chopar’, rasul – ‘elchi’, yugurgan ‘yuguruvchi, ’, qasid – ‘yugurdak, kuryer’ jarchi, jirchi – ‘e’lon beruvchi’, oqirchi – ‘xabar yetkazuvchi‘, mushtichi – ‘yaxshi xabar yetkazuvchi’, dilmach – ‘tarjimon’); 2) Diplomatik aloqalarni ifodalovchi terminlar (yalavachlik – ‘elchilik’, kalish-borish – ‘vizit, tashrif’, el – ‘tinchlik’, baz – ‘tinchlik’, yarash – ‘kelishish, rozilashish, tinchlik’, sulxnoma ‘shartnoma’); 3) Diplomatik hujjat nomlarini ifodalovchi terminlar (so‘z – ‘topshiriq, vazifa, yanut – ‘javob, mukofot’, bayza/payza – ‘guvohnoma’, yarlig‘ – ‘yoriq’, bitig/bitik – ‘xat’, boshug‘ – ‘ruxsatnoma’)[3;102–111].

D.S. Qulmamatov fikricha, sharqona diplomatik terminlar ilk bor turkiy va forsiy yozma matnlarni rus tiliga tarjima qilish natijasida o‘zlashgan. U o‘zining ushbu fikrini dalillash maqsadida XVII asr Xiva va Buxoro elchilarining O‘rta Osiyo rasmiy tillarida Rossiya podshohlari nomlariga arab alifbosida yozilgan arznomalarini eski ruscha tarjimasida uchraydigan quyidagi diplomatik terminlar haqida ma’lumotlar keltirgan: rus tiliga sharq tillaridan kirib kelgan o‘zlashma terminlarni quyidagicha tasnifini keltiradi: *визирь* ‘vazir’, *диванбеги* ‘devonbegi’, *язычей* ‘yozuvchi’, *абыз* ‘hofiz’, *мулла* ‘mulla’, *мехтерь* ‘mehtar’, *топчебаши* ‘to‘pchiboshi, to‘pchilar qo‘mondoni’, *кюнелдеш* (кюнюлдеш) ‘ko‘kaldosh, emishgan, tug‘ishgan’, *парваначей* ‘parvonachi’, *аталык* ‘otaliq’, *дарага* ‘darg‘a, dorug‘a’; *деньга* ‘tanga’, *тамга* ‘tamg‘a’, *акча* ‘akcha’ [7; 126–139 ].

D.S.Qulmamatov o‘zining ilmiy ishlarida yana bir muhim lingvistik hodisaga o‘z e’tiborini qaratgan, ya’ni XVII asr Xiva va Buxoro elchilarining O‘rta Osiyo rasmiy tillarida yozilgan arznomalarining matnlarida qo‘llanilgan qator rus tiliga taalluqli bo‘lgan diplomatik terminlar haqida qimmatli ma’lumotlarni bergan, jumladan, “ دیک[diyak] – *дьяк* (vizantiycha-yunoncha διάκος so‘ziga borib taqaladi) ‘XVI–XVII asrlarda diplomatik yozishmalar olib borgan rus podshosi kanselyariyasidagi asosiy lavozimdor shaxs’, پودیاچی [pūdyāčī] ( بودیاچی[būdyāčī], بودیاجی [būdyājī]) – *подьячий* ‘diyak **yordamchisi, devon kotibi’**, پرستاو[piristāv] – *пристав* ‘Moskva Rusida kuzatish va nazorat qilish uchun biror kimsa yoki narsaga berkitilgan mansabdor shaxs’, کوبجین [kūbjīn] ( کوبچی[kūbčiy̆]) – *купчина* ‘savdo bilan shug‘ullanadigan shaxs, savdogar’, کناز [kināz] – *князь* ‘Moskva Rusi podshosining unvoni’”[9; 209–211].

XII asr Rossiya bilan Xiva va Buxoro xonliklarining aloqalari bo‘yicha elchilik kitoblari tilini o‘rgangan O.O.Cho‘ponov o‘zining doktorlik ishida o‘zaro yozishmalarda mansabdor shaxs va qabilani anglatuvchi turkiy diplomatik terminlarni qayd qiladi[15; 26-27]. Jumladan, *ясаул* ‘turkiy *яса* so‘zidan olingan bo‘lib, “Chingizxon tomonidan chiqarilgan qonunlar ijrosu ustidan nazorat

qiluvchi" degan ma'noni beradi va "*язу*" – "yozmoq" hamda "*ул*" – "o'g'il" so'zlariga borib taqaladi[12; https://books.google.at/books?isbn=50411666668]'; *едисанцы (*yedisanlik*)* – "yetti urug"'. M.A.Savinovaning ta'kidlashicha, "yedisanlar" (yedisanliklar, yedisan no'g'aylari nomlari "yedi san" – yetti urug' nomidan kelib chiqqan) – no'g'aylarning hududiy birlashmalaridan biri[ 10; 118].

A.A.Abdullaevaning "Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida rus va o'zbek tillaridagi xalqaro aloqalarning murakkab tizimga ega leksik sferasi obyekt qilib olingan. Unda leksik tizim, shu jumladan, diplomatiya va xalqaro aloqalar sohasi; 1) leksik grammatik (leksik-tematik, leksik-semantik (sinonimik va antonimik qatorlar); 2) so'zning so'z yasash munosabatlari; 3) semantik, disribyutiv va stilistik munosabatlar qiyosiy metod asosida yoritilgan [1; 167].

J.Sh.Safarovning "Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологический состав (на материале английского языка)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida diplomatik diskursda leksika qo'llashning stilistik-pragmatik aspektlari (so'z tanlash, aniqlik, ob'yektivlik, emosional-ekspressivlik), diplomatik leksikaning funksional-semantik xususiyatlari (terminologik, terminologik bo'lmagan, dialektizm, jargon; maxsus leksika va maxsus bo'lmagan leksika; umumtushunarli va umumtushunarli bo'lmagan leksika), diplomatik tushunchalarni nomlash tip(yasama so'z yoki so'z yasash; semantik nominatsiya, abbreviatsiya, affiksatsiya)lari va usul(affiksli so'z yasash, so'zlarni qo'shish, konversiya (semantik transferlar), o'zlashish, qo'shma otlarning yasalishilari diplomatik terminologiyada internatsional leksika (to'liq o'zlashmalar, nisbiy o'zlashmalar), diplomatik diskurs tizimida ibora yasalishi (nominativ xarakteristikasiga ko'ra: atovchi, tasniflovchi, tafsilotlovchi, xarakterlovchi terminologik so'z birikmalar; komponentiga kura: binar, uch komponentli va to'rt komponentli; struktur-semantik jihatiga ko'ra sifat va ot bilan ifodalangan birikma, substantiv va ot bilan ifodalangan birikma, ot bilan ifodalangan kumakchili birikma, fe'l va ot bilan ifodalangan birikma) kabi masalalarni tadqiq qilgan [13; 175].

E'tirof etish lozimki, nemis yozma yodgorliklarida uchraydigan diplomatik terminlar lingvistik nuqtai nazardan o'rganilmay kelinmoqda. Ular haqida 1929-yilda chop qilingan Y.Hatschek, K.Strupplarning "Wörterbuch für Diplomatie und Völkerrecht" lug'ati va Shveytsariya Tashqi ishlar federal departamentining "ABS der Diplomatie" lug'ati manbalarida mavjud xolos.

Bugungi kunga kelib, nominallik va terminologiya diplomatik amaliyotda til diplomatik substilining tarkibiy elementiga aylandi. K.A.Levkovskayaning so'zlariga ko'ra, terminologiya, asosan terminologik maqsadlar uchun eng mos bo'lgan otlardan tashkil topgan[5; 3].

Ko'pincha lug'atlarda ma'lum bir leksemanning muayyan faoliyat sohasi terminologik tizimiga tegishli ekanligi to'g'risida aniq ta'rif berilmaydi, bu ular orasidagi chegaralarning xiralashganligini ko'rsatadi. Bunga muzokaralar natijasida yaratilgan shartnoma, bitim, protokol kabi hujjatlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Diplomatik terminologiya tizimi polisemantikligi bilan ajralib turadi: termin ma'lum bir kontekstda ishlatilgandagina diplomatiya tilida ma'lum ma'noga ega bo'ladi. N.L. Konstantinova bu hodisani semantik konversiya, ya'ni umumiy adabiy tilda so'zlarning terminologiyasi deb ataydi [6; 86-92]. Masalan, odob-axloq so'zlari terminologiyasi: *das Frühstück* 'nonushta', *die Tischordnung* 'o'tirish tartibi', *das Protokoll* 'protokol', *die Verordnung* 'tartib, qaror' o'z-o'zidan termin bo'la olmaydi. Ushbu leksemalar faqat diplomatik protokol, ya'ni diplomatik kontekstda terminologik ma'noga ega bo'ladilar.

M.D.Stepanova zamonaviy nemis tili diplomatik terminlarining tasnifini taqdim etadi va ularni muallifning fikriga ko'ra sodda, yasama va murakkab turlarga ajratadi [14; 234]. Sodda terminlar tarkibiga so'z yasovchi otlar yoki tub so'zlar kiradi: "das Diplom", "das Visum", "der Attaché", "das Protokoll", "der Konsul". Qo'shimchalar yordamida quyidagi terminlar qatori hosil bo'ladi: "der Diplomat", "die Diplomatie", "das Konsulat". Bundan tashqari, diplomatik terminlar negizida kompozitlar ham hosil bo'ladi: "der Diplomatenpass", "der Diplomatenausweis", "die Dollardiplomatie", "die Geheimdiplomatie"; "das Einreisevisum", "das Ausreisevisum", "das Durchreisevisum"; "der Militärattache", "der Presseattache", "der Luftattache"; "die Protokollabteilung".

Diplomatiyada til tejamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadida leksik tizimning xarakterli elementi bo‘lmish so‘zlarning qisqartirilgan shakllaridan foydalaniladi. Masalan, BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti), EI (Yevropa ittifoqi) ShHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti) va boshqalar.

Xalqaro munosabatlarning jadal rivojlanishi, ichki siyosiy rejimlarning o‘zgarishi, davlatlarning tashqi siyosiy maydondagi pozitsiyalari, geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi boshqa narsalar qatori diplomatik tilda yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

So‘nggi davrda diplomatiya tilida quyidagi terminologik birliklar paydo bo‘ldi: “sanksiya”, “sanksiyalar tahdidi”, “separatist (ayirmachi)” va boshqalar.

Xalqaro aloqa munosabatlari bir necha sohalarini qamrab oladi. Natijada, biz boshqa sohalardagi terminlarga duch kelamiz. H.A.Saidov bu effektni “terminlarni takrorlash” deb ataydi [11; 366].

T.A.Volkova klishelarni belgilash uchun “nutq formulasi” tushunchasini kiritadi [2; 231]. Diplomatik matnlardagi klishe terminlar va xalqaro huquq, iqtisodiyot va boshqa faoliyat sohalari nomenklatura nomlari bunga misol bo‘la oladi.

**Xulosa va takliflar.** Guvohi bo‘lganimizdek, diplomatiya sohasi terminologiyasi kelib chiqishi, shakllanishi, rivojlanishi, mavzuiy tegishliligi va xarakteristikasiga ko‘ra, umumiy va tor doirada qo‘llaniadigan ixtisoslik terminlaridan iborat. Biroq ular muayyan tizimli aloqa va munosabatga ham ega, bu esa ushbu leksikani diplomatiya tili deb atashimizga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, diplomatik terminologiyaning shakllanishida rus, nemis, arab, fors va turkiy tillar muhim o‘rin tutgan. Diplomatik terminlar tarixiy siyosiy, savdo va madaniy aloqalar ta’sirida shakllanib, keyinchalik semantik va struktur jihatdan rivojlangan. Shuningdek, zamonaviy diplomatik terminologiya xalqaro munosabatlar rivoji bilan uzluksiz boyib borayotgan dinamik leksik tizim ekanligi aniqlandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Абдуллаева А.А. Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков). – Дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 2003. – 167 с.

2. Волкова Т.А. Дипломатический дискурс в аспекте стратегичности перевода и коммуникации: на материале английского и русского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. – 231 с.

3. Дадабаев Х. “Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках X1-XTV вв.”. – Т.:, Ёзувчи, *1991*. – С. 102–111.

4. Левковская К.А. Именное словообразование в современной немецкой общественно-политической терминологии и примыкающей к ней лексике. – М.: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 3.

5. Константинова Н. Л. Иноязычные заимствования и система языка (на материале англоязычной лексики в финансово-экономической терминологии немецкого языка) // Филологические науки. – 1999. – № 2. – С. 86–92.

6. Кулмаматов Д.С. Восточные реалии в среднеазиатских делах посольского приказа XVII в. Узбекский государственный университет мировых языков. Русский язык в научном освещении. 2023. – № 1. С. 126–139;

7. Кулмаматов Д.С. Актуальные проблемы русской исторической лексикографии. Учебное пособие. – Ташкент: “Mumtoz so‘z”, 2023. – С. 8, 35–53.

8. Кулмаматов Д.С. Названия российских должностных лиц в восточных текстах челобитных хивинских и бухарских послов XII века // XIX Виноградовские чтения. Сборник статей по результатам работы ежегодной международной научно-практической конференции. Ташкент, 27 сентября 2023 г. – Ташкент–Екатеринбург: Уралский государственный экономический университет, 2023. – С. 209–211.

9. Савинова М.А. Архиепископ Астраханской и Терский Пахомий и его Хронограф: Дисс. ...канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, 2016. – С. 118.

10. Саидов Х.А. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках: Дисс. ... докт. филол. н. – Душанбе, 2013. – 366 с.

11.Салимжонов Р. Великий язык тюрков [https://books.google.at/books?isbn=50411666668]

12. Сафаров Ж.Ш. “Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеол-огический состав (на материале английского языка)”. Дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 2000. – 175 с.

13. Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики. – М.: Высшая школа, 1968. – С. 234.

14. Чўпонов О.О. XII аср Россия билан Хива ва Бухоро алоқалари бўйича элчилик китобларининг тили. Филол. фан. док....дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 26–27.

UO'K 81'367.624:81'42

# KIRISH SO'ZLARNING LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA IMKONIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI

*F.E.Ibragimova, f.f.n., dots., Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax*

***Annotatsiya.*** *Maqolada kirish so'zlarning lingvopoetik imkoniyatlarini o'rganish badiiy matn tahlilida muallif maqsadini teranroq anglash, shuningdek, asarning estetik ta'sirchanligini baholashda ilmiy-amaliy ahamiyatga molik ekanligi ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *lingvopoetika, kirish so'zlar, modallik, badiiy matn, estetik vazifa, ekspressivlik, emotsionallik, nutqni individuallashtirish.*

***Аннотация.*** *В статье раскрывается научно-практическая значимость изучения лингвопоэтического потенциала вводных слов в процессе анализа художественного текста для более глубокого понимания авторского замысла, а также для оценки эстетического воздействия произведения.*

***Ключевые слова:*** *лингвопоэтика, вводные слова, модальность, художественный текст, эстетическая функция, экспрессивность, эмоциональность, индивидуализация речи.*

***Abstract.*** *The article reveals the scientific and practical significance of studying the linguopoetic potential of introductory words in literary text analysis, aiming to achieve a deeper understanding of the author's intent and to evaluate the aesthetic impact of the work.*

***Key words:*** *linguopoetics, introductory words, modality, literary text, aesthetic function, expressiveness, emotionality, speech individualization.*

An'anaviy tilshunoslikda gap bo'laklari orqali atributiv, obyektiv, relyativ, predikativ kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, undalma va kirishlar ham ma'lum munosabatlarni ifodalaydi. Lekin undalma va kirishlar orqali ifodalangan mazmuniy munosabat boshqa mazmuniy munosabatlardan tubdan faqr qiladi. Atributiv, obyektiv, relyativ, predikativ munosabatlar gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyatning (propozitsiya, diktum) ikki unsuri o'rtasidagi munosabat bo'lsa, undalma va kirishlar ifodalagan munosabat gap orqali ifodalanayotgan sintaktik vaziyat yoki uning ma'lum unsure bilan so'zlovchi o'rtasidagi munosabatdir. Shuning uchun sintaktik shakllar o'rtasida ifodalanayotgan mazmuniy munosabatni ikki guruhga ajratish mumkin bo'ladi: 1) obyektiv munosabat; 2) subyektiv munosabat [2].

Kirish so'zlar qatnashgan gaplarda so'zlovchining voqelikka subyektiv munosabati – modallik, ekspressivlik, emotsionallik aks etadi. Bunday gaplarda tilning axborot yetkazish vazifasidan boshqa estetik funksiyasi ham namoyon bo'ladi.

Ekspressivlikning ifodalanishiga ko'ra boshqa sohalarga nisbatan sintaksisning imkoniyatlari juda katta. Chunki har qanday til birligi sintaktik konstruksiyalarda "jonga kiradi" [1].

Kirish so'zlar qanday so'z turkumi bilan ifodalanishi va qanday vaziyatda qo'llanishiga ko'ra gapda turli ma'nolarni bildiradi. Kirish so'zlar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1.Ishonch va tasdiq ma'nosini ifodalaydi: *albatta, so'zsiz, to'g'ri, darhaqiqat, shubhasiz* kabi. Masalan,

*Darhaqiqat, o'z oramizda kundash janjalini kim bilmasin? Arzimagan gap ustida dunyo buzg'an kundash to'polonlari kimning qulog'ig'a yoqsin? (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)*

*Albatta* kirish so'zi so'zlovchining qat'iy ishonchini bildiradi:

Nimadan so'z ochsangiz – fikringizni qo'llab-quvvatlab, kimni tilga olsangiz – albatta biror fazilatini topib, maqtab ta'riflab ketadi. Odam ham shu qadar nekbin, mushfiq bo'ladimi? (Erkin A'zam, Shovqin)

*Hasanalining kelish majburiyati va nima uchun kelganligi Ziyo akaga yaxshi onglashildi ersa-da, yana shunday bo'lsa ham so'radi: — Endi nima qilmoqchisiz? — Huzuringizga kelishimning bosh sababi ham shundandir, — dedi Hasanali. — Bu to'g'rig'a siz qanday yo'llar ko'rsatasiz va nima kengashlar berasiz, albatta shunga qarab bir ish qilamiz, deb xizmatingizga keldim. (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)*

*To'g'ri* kirish so'zi fikrning tasdiqlanishi yoki ma'qullanishini bildiradi:

*–Yo'q, siz gapga quloq soling, – derdi ayol chiyillagudek ohangda. –Menga nimasi yoqmadi, aytaymi? Na tayinli bir gap bor uningizda, na tuzuk bir yechim – boshdan -adoq qup-quruq*

*manzaralar! To‘g‘ri, tasvirlarga gap yo‘q – mahurat bilan suratga olingan. Ammo…* (Erkin A’zam, Shovqin)

*Darhaqiqat* kirish so‘zi aytilgan fikrning haqiqatda mosligini ta’kidlaydi:

Lekin, qarang, Ustoz haq bo‘lib chiqdi. Keyinroq o‘zimcha mulohaza etib ko‘rsam, darhaqiqat, shunda asar yutar ekan; tabiiyligi, hayotiyligi oshadi, mazmun ham chuqurlashadi. (Erkin A’zam, Shovqin)

*Shubhasiz* kirish so‘zi qat’iy ichonch, inkor etib bo‘lmaydigan holatni bildiradi:

*Tashqi qiyofasidan bu yurtning fuqarosiga o‘xshamaydi, uzoqdan kelgan, juda uzoqdan – musofir. Ammo uning asov baroq qoshlari tagidan boqib turgan o‘tli ko‘zlarini ko‘rgan odam bir seskanib tushishi muqarar! Va uni, shubhasiz, og‘ir bir savol o‘rtay boshlaydi: bu qadar tanish ko‘zlar kimniki? (Erkin A’zam, Shoirning to‘yi)*

Demak, bu modal so‘zlarning barchasi tasdiq va ishonch modal ma’nosini ifodalaydi, lekin o‘ziga xos ma’no qirralariga ega. Bu kirish so‘zlar gapda so‘zlovchining fikrga bo‘lgan qat’iy munosabatini bildiradi.

2.Shubha va gumon ma’nosini ifodalaydi: *ehtimol, shekilli, aftidan, chamasi* kabi. Masalan,

*Shoirning nomiyam ta’qibda yurgan yillari ukaxoni “Mening unaqa akam yo‘q” deb yozib bergan, deyishadi. Ehtimol, noiloj qolib shunday qilgandir, u kezlarda bundan boshqa chorasi ham yo‘q edi. Ayniqsa, o‘saman degan odamga. (Erkin A’zam, Shoirning to‘yi)*

Ko‘rinadiki, bu kirish so‘zlar gumon, taxmin va ehtimol ma’nosini bildirib, so‘zlovchining voqea-hodisaga nisbatan aniq bo‘lmagan, taxminiy munosabatini ifodalaydi.

3.Shodlik va mamnunlik ma’nosini bildiradi: *xayriyat, baxtimizga, shukur, durust, nihoyat* kabi. Masalan,

*So‘ngra To‘ybekani choy qaynatishg‘a buyurib o‘zi kuyavi bilan so‘rashdi: – Otangiz, onangiz salomatlarmi? – Shukur, sizga salom aytdilar. – Hasanali otam sog‘mi, nega siz bilan kelmadi? – Shukur, sog‘, ba’zi ishlar bilan bo‘lib kelolmadi, – bu javobni berish homono ko‘nglidan kechdi: “Nega yolg‘on gapirasan, Hasanali to‘y harakatlari bilan mashg‘ul emasmi...” (Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar)*

Bu kabi kirish so‘zlar asosan quvonch, yengillik, qanoat yoki ma’qullash kabi so‘zlovchining hissiy munosabatini ifodalaydi.

4.Afsuslik, achinish ma’nolarini bildiradi: *essiz, attang, afsuski, taassufki, baxtga qarhsi, aksiga olib* kabi. Masalan,

*Bir vaqt yozgan xatida samimiy maslahatlarini, do‘stona achchig‘ so‘zlar bilan ko‘rsatilgan haqiqatlarni, afsuski, Badiuzzamon quloqqa olmabdi* (Oybek, Navoiy).

Demak, bu kirish so‘zlar afsuslanish, achinish va salbiy hissiy munosabat ma’nosini bildirib, so‘zlovchining voqea-hodisaga nisbatan norozilik yoki taassufini ifodalaydi.

5.Taajjub ma’nosini bildiradi: *ajab, ajabki, taajjub, taajjubki, nahot, nahotki* kabi. Masalan,

*Farrosh xotinning javob-muomalasi Farhodni hayratda qoldirdi – u ishidan bosh ko‘tramay to‘ng‘illabgina qo‘ydi, xolos: – Battar bo‘lsin! Qilmishiga yarasha! Farhod zinapoyadan pastga sho‘ng‘idi. Hovli suv quygandek jim-jit! Nahotki, o‘zidan boshqa hech kim bexabar?! Yo adashdimikan, uyqu aralash qulog‘iga yanglish chalindimi?* (Erkin A’zam, Shovqin)

Yuqoridagi kirish so‘zlar hayrat, ajablanish va taajjub ma’nosini bildirib, so‘zlovchining kutilmagan voqea yoki holatga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi.

6.Orzu-umid ma’nolarini ifodalaydi: *koshki, koshkiydi, ishqilib, shoyad* kabi. Masalan, *Koshki, akasi Yo‘lchi bo‘lsa edi* (Oybek, Qutlug‘ qon).

*Men shuning ila, shoyad, o‘z bo‘ynimdag‘i vazifani ado etkan bo‘lurman. Shoyad, davlat dushmanlarini o‘z oyog‘laridan yitib ketishlariga sabab bo‘lg‘an bo‘lurman. (Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar)*

Demak, bu kirish so‘zlar istak, orzu va umid ma’nosini bildirib, so‘zlovchining voqea-hodisaga nisbatan tilak yoki umidini ifodalaydi.

7. Bayon qilingan fikrning kimga qarashli ekanligini bildiradi: *menimcha, seningcha, fikringizcha, bizningcha* kabi. Masalan,

*Shoir kinoya bilan kuldi-da, hammaga eshittirib dedi: – Fikrimcha, rutbalarning, mansablarning past-balandi yoq* (Oybek, Navoiy).

*Xuftanga yaqin bana'ji bir ishtiho bilan yeyilib bo'shatilg'an lagan, tovoqlar olinib dasturxonlar yig'ildi. Bizningcha, bir yarim soat, Otabekcha, allaqancha yil hisoblangan bir fursat o'tib, nihoyat, yangalar kuyav so'radilar. Ikki yoshg'a muhabbatlik umr so'rab fotiha o'qilg'andan so'ng Otabek ichkariga uzatildi. (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)*

Bu kabi kirish so'zlar fikr manbaini ko'rsatish ma'nosini bildirib, aytilayotgan fikrning kimga tegishli ekanini ifodalaydi.

8.Bayon qilingan fikrning tartibini ko'rsatadi: *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor* kabi. Masalan, *Umuman, Abusharof akamizning qiliqlari, gap-so'zlari menga erishroq tuyula boshladi. Avvalo, u o'zini "ekstrasens" emas, negadir "ekstraseans" deb ataydi – shuniyam bilmasa! Keyin – kimlarni, qandoq ulug'larni davolaganini aytib ko'p, bo'lar-bo'lmasga maqtanadi.* (Erkin A'zam, Shovqin)

Bunday kirish so'zlar fikrning tartibini va bayon izchilligini bildirib, mulohazalarni ketma-ket sanab o'tishda qo'llanadi.

9.Bayon qilingan fikrning avvalgi fikr bilan bog'liqligini ko'rsatadi: *inchunin, shuningdek, darvoqe, zero, har holda, jumladan* kabi. Masalan,

*–Yaxshiliq qilg'an kishingdan hech bir yaxshiliq qaytmas ekan, – dedi Musulmonqul.*

*– Jumladan, bittasi ko'z o'ngimizda – Azizbek. Men uni yoshlig'idan boshlab o'z qo'limda o'stirdim, Toshkand hokimligidan Salimsoqbekni olib uning o'rniga hokim tayinladiq. Biroq shunchalik yaxshiliqlarimizg'a qarshi natijada bizga yog'iy bo'ldi, bo'lsin; ul Toshkandning o'zigagina qanoatlanmay Marg'ilon bilan ham ish qilmoqchi bo'lsa, bunisini ham biz ko'raylik. (Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar)*

Bu birliklar fikrlarni bog'lash, izohlash, qo'shimcha ma'lumot kiritish, sababni ko'rsatish yoki umumiy xulosa bildirish vazifasida qo'llanadi.

10.Bayon qilingan fikrning xulosasini ifodalaydi: *demak, xullas, umuman, shunday qilib* kabi. Masalan,

*Bugun bunday gaplar kimgadir yoqmasligi ham mumkin. Ammo men o'zim ko'rgan-bilgan narsalarni aytyapman. Xullas, qiziq voqealar ko'p bo'lgan, bari esimda turibdi, kelinglar, hozir vaqtlaringni olib o'tirmayin. Axir, odam ana shunday sho'x bo'lmasa, chaqnab turmasa, undan shoir chiqadimi?! (Erkin A'zam, Shoirning to'yi)*

Ko'rinadiki, bu kirish so'zlar xulosa chiqarish, fikrni yakunlash va umumlashtirish ma'nosini bildirib, nutqning yakuniy qismida qo'llanadi.

11.Bayon qilingan fikrlarga tinglovchining diqqatini jalb etish uchun xizmat qiladi: *bildingki, tushunasizmi, o'ylab ko'r, qani, marhamat qil, eshit, kechir* kabi. Masalan, Domla! – dedi Jasur shoir shartta ortiga – hay'atga o'girilib, chuchmal ishshayib o'tirgan Ajoyib domlani ko'zi bilan qidirib toparkan. – Agar siz aytgandek bo'lsa, ya'ni shoir tirilib kelsa, bu yerda bo'lgan gaplarni, avvalambor, sizning ma'ruzangizni eshitiboq, bilingki, qaytib narigi dunyoga ketardi! – Axir, hurmatli professor, siz shoirni ko'rgansiz, bilgansiz, nahotki, u haqda biror og'iz rost, jonli gap yodingizda qolmagan bo'lsa?! *(Erkin A'zam, Shoirning to'yi)*

Bu birliklar murojaat va diqqatni jalb etish modal birliklari bo'lib, tinglovchining e'tiborini tortish, unga murojaat qilish, undash yoki iltimos qilish ma'nolarini ifodalaydi.

Yuqorida kirish so'zlarni faqat grammatik va sintaktik kategoriya sifatida emas, balki badiiy matnda estetik va lingvopoetik vazifa bajaruvchi birlik sifatidagi xususiyatlari aniqlandi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши, Тошкент, 1983.

2.Махмудов Н., Нурманов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –Б. 98.

UDC: 811.111'276.6:004.738.5

# SOCIOLINGUISTIC PERSPECTIVES ON DIGITAL SLANG AND INTERNET NEOLOGISMS IN CONTEMPORARY ENGLISH

*I.B.Ismoilov, student, Karshi International University, Karshi*
*M.Rakhmonova, lecturer, Karshi International University, Karshi*

***Annotatsiya.*** *Global muloqotning tezkor raqamlashtirilishi zamonaviy ingliz leksikonida misli ko'rilmagan evolyutsiyani katalizator qildi. Ushbu maqola raqamli slanglar va internetga asoslangan neologizmlarning sotsiolingvistik dinamikasini o'rganadi, ularning vaqtinchalik onlayn jargondan barqarorlashgan, institutsionalizatsiyalangan leksik birliklarga o'tishini o'rganadi. Tadqiqot taniqli ijtimoiy media ekotizimlarida (masalan, TikTok, X va Instagram) sodir bo'ladigan morfologik tuzilmalar, semantik o'zgarishlar va sotsiolingvistik mexanizmlarni tahlil qilish orqali raqamli muloqotning an'anaviy, retseptiv lingvistik ierarxiyalarga qanday qarshilik ko'rsatishini o'rganadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Internet lingvistikasi, Raqamli slang, Neologizmlar, Morfologik aralashtirish, Semantik o'zgarish, Sotsiolingvistika, Leksikografiya.*

***Аннотация.*** *Быстрая цифровизация глобальной коммуникации катализировала беспрецедентную эволюцию в современном английском лексиконе. В данной статье исследуется социолингвистическая динамика цифрового сленга и интернет-неологизмов, рассматривается их переход от эфемерного онлайн-жаргона к стабилизированным, институционализированным лексическим единицам. Анализируя морфологические структуры, семантические сдвиги и социолингвистические механизмы, происходящие в ведущих экосистемах социальных сетей (таких как TikTok, X и Instagram), исследование изучает, как цифровая коммуникация бросает вызов традиционным, предписывающим лингвистическим иерархиям.*

***Ключевые слова:*** *интернет-лингвистика, цифровой сленг, неологизмы, морфологическое смешение, семантический сдвиг, социолингвистика, лексикография.*

***Abstract.*** *The rapid digitalization of global communication has catalyzed an unprecedented evolution within the contemporary English lexicon. This paper investigates the sociolinguistic dynamics of digital slang and internet-driven neologisms, examining their transition from ephemeral online jargon to stabilized, institutionalized lexical units. By analyzing the morphological structures, semantic shifts, and sociolinguistic mechanisms occurring across prominent social media ecosystems (such as TikTok, X, and Instagram), the study explores how digital communication challenges traditional, prescriptive linguistic hierarchies.*

***Keywords:*** *Internet Linguistics, Digital Slang, Neologisms, Morphological Blending, Semantic Shift, Sociolinguistics, Lexicography.*

**Introduction.** In the contemporary era, the English language functions not merely as a tool for static information exchange but as a dynamic organism that rapidly reacts to the nuances of digital culture. The emergence of Computer-Mediated Communication (CMC) and the ubiquity of social media networks have facilitated the birth of a unique linguistic register—Digital Slang. Unlike historical sociolects or traditional slang, which required decades to transcend geographical and generational boundaries, modern digital neologisms achieve global ubiquity within days, or even hours.

For philologists and sociolinguists, this phenomenon represents a fundamental shift in the "Linguistic DNA" of English. The high-speed nature of online interaction dictates a reliance on brevity, emotional resonance, visual-textual convergence, and subcultural signaling.

**Literature review and theoritical framework.** The academic foundation of Internet Linguistics was pioneered by the British linguist **David Crystal** in his seminal work *Language and the Internet* (2001). Crystal introduced the concept of **"Netspeak"**, positing that the language of the internet is a completely distinct medium that effectively blends the spontaneity and emotional immediacy of speech with the physical permanence of writing. Crystal argued that the internet does not degrade language; rather, it enriches it by providing a brand-new canvas for linguistic creativity.

In the post-2010 era, as the internet transitioned from desktop-based forums to mobile-first social media platforms, the theoretical framework evolved. Linguist **Gretchen McCulloch**, in her influential book *Because Internet: Understanding the New Rules of Language* (2019), expanded on Crystal's work by distinguishing between different generations of internet users: "Old Internet People," "Full Internet People," and "Post-Internet People." McCulloch emphasizes that modern digital slang is no longer characterized by mere "typos" or lazy abbreviations (such as *asl* or *brb* from the early chatroom era). Instead, contemporary digital slang represents a highly sophisticated system of social indexing and stylized typography (e.g., lowercase writing for passive-aggressive tones, intentional punctuation omission, and algorithmic word alteration).

Furthermore, this study aligns with the **Descriptivist Paradigm** in linguistics, supported by scholars like William Labov, which views language variation not as corruption, but as a natural reflection of social stratification and cultural adaptation.

**Morphological and semantic taxonomy of digital neologisms.** To understand how digital slang alters the English lexicon, we must categorize the specific linguistic mechanisms used to generate these new lexical units. Digital users do not invent words out of a vacuum; they subconsciously utilize highly structured morphological and semantic rules.

Blending involves combining parts of two distinct words to create a new lexical item that carries a combined meaning. In the digital space, this is often done to encapsulate complex social phenomena into a single, punchy word.

Semantic shift occurs when an existing word acquires an entirely new meaning, while semantic bleaching refers to a process where a word loses its intense, literal meaning to become a generalized modifier or emotional filler.

- **Delulu:** Derived from a playful, reduplicative clipping of the word *"Delusional"*. It originated within internet fandom cultures to describe someone holds unrealistically idealistic or delusional fantasies about celebrities or personal life scenarios.
- **Hangry:** A blend of *"Hungry"* and *"Angry"*, describing a precise physiological and psychological state. This term successfully transitioned from internet memes into standard colloquial English and formal dictionaries due to its high utility.
- **Ghosting:** Originally meaning the appearance of a ghost-like image, the digital register shifted its meaning to describe the act of suddenly cutting off all communication with someone on social media or dating apps without any explanation.
- **Literally:** This word has undergone massive semantic bleaching. Instead of its literal meaning ("in a literal manner"), internet users employ it purely as an intensifier to express strong emotion (e.g., *"I am literally dying of laughter"*), mimicking spoken emphasis in a written format.
- **Cap / No Cap:** Derived from older African American Vernacular English (AAVE) but popularized globally via digital platforms. *"Cap"* shifted semantically to mean "a lie" or "exaggeration," while *"No Cap"* functions as an indicator of absolute truth.
- **POV (Point of View):** Originally a technical cinematographic term, on social media platforms like TikTok, it has transformed into a structural framework for storytelling, formatting captions to place the viewer into a specific, often humorous scenario.
- **FOMO (Fear Of Missing Out) & JOMO (Joy Of Missing Out):** These initialisms capture modern psychological states induced by hyper-connectivity, serving as noun phrases in both online and offline socio-academic discourse.

Acronyms in the digital age have evolved past simple business shorthand to become tools for rapid situational commentary.

Conversion involves changing the grammatical category of a word without altering its form. The digital era heavily favors turning nouns into verbs to describe actions taken within user interfaces.

- **To DM:** Transforming the noun *"Direct Message"* into a verb (e.g., *"DM me for details"*).
- **To Stan:** Combining "Stalker" and "Fan" (originally from Eminem's song), used as a noun, but now widely converted into a verb meaning to obsessively support or admire a public figure.

**Sociolinguistic functions: identity, solidarity, and power dynamics**

From a sociolinguistic standpoint, language is never neutral. Digital slang performs several vital social functions within the globalized digital ecosystem.

Language serves as a mechanism for inclusion and exclusion. Using specific digital slang acts as a linguistic shibboleth. For instance, utilizing terms like *"Main Character Energy"* or entering a specific *"Era"* (inspired heavily by pop-culture phenomena like Taylor Swift's Eras Tour) signals that the speaker belongs to a specific, culturally literate "digital tribe." Conversely, those who do not understand these terms are marked as outsiders. This fosters a high level of peer solidarity among younger demographics (Gen Z and Generation Alpha).

A unique 21st-century sociolinguistic phenomenon is the emergence of **Algospeak**. To avoid content suppression, demonetization, or censorship by platform algorithms, internet users intentionally alter their vocabulary.

- Replacing *"Suicide"* with *"Unalive"*.
- Using the spark emoji or spelling *"Prostitute"* as *"Seggsworker"*. This represents a fascinating evolutionary pressure where language is modified not to communicate better with humans, but to bypass artificial intelligence filters, which subsequently alters spoken English offline.

Historically, standard English was dictated by prestigious institutions—universities, publishing houses, and upper-class sociolects (such as Received Pronunciation in the UK). Digital slang flips this power dynamic completely. A significant portion of modern slang originates from marginalized subcultures, particularly Black internet culture and the LGBTQ+ community. Through viral social media algorithms, these terms enter the mainstream global lexicon. This process democratizes the language, giving linguistic agency to everyday internet users rather than elite institutions.

**Lexicographical institutionalizations: the ultimate paradigm shift**

The definitive proof of digital slang's academic and structural validity is its institutionalization by global lexicographical authorities. The *Oxford English Dictionary*, *Merriam-Webster*, and *Collins* no longer view digital neologisms as passing trends or linguistic decay. Instead, they actively track them using computational corpus linguistics.

A major case study is the selection of **"Rizz"** (a clipped form of *charisma*, meaning style, charm, or the ability to attract a romantic partner) as the **Oxford Word of the Year**. The selection by Oxford University Press highlights a critical academic realization: words born in niche digital spaces can successfully capture the global zeitgeist and meet the rigorous criteria of linguistic permanence. When a word is integrated into the OED, it transitions from slang to an official historical marker of the English language.

**Conclusion.** The linguistic analysis presented in this paper demonstrates that digital slang and internet neologisms are not agents of linguistic degradation, but rather indicators of a robust, highly adaptable, and living language. Through structural mechanisms like morphological blending, semantic shifting, and conversion, digital communication has accelerated the evolutionary pace of the English lexicon. Sociolinguistically, internet language has decentralized the authority of traditional prescriptivism, allowing global subcultures and algorithm-driven environments to dictate the future of the language.

**REFERENCES:**

1. Crystal, D. (2001). *Language and the Internet*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student Guide*. Routledge.
3. McCulloch, G. (2019). *Because Internet: Understanding the New Rules of Language*. Riverhead Books.
4. Zappavigna, M. (2012). *Discourse of Twitter and Social Media: Linguistic Approaches*. Continuum.
5. Labov, W. (2001). *Principles of Linguistic Change: Social Factors*. Blackwell.
6. Oxford University Press. (2023). *Oxford Word of the Year 2023: Rizz*. Oxford Languages.
7. Tagliamonte, S. A., & Denis, D. (2008). *Linguistic Change in Canada: AOL Instant Messenger*. American Speech, 83(1), 3-34.

UO'K 81-27; 811.512.133; 004.8

# SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILI LEKSIK TIZIMIDA INTEGRATSIYALASHUVI: SEMANTIK-STRUKTUR TAHLIL

*N.T.Karimova, mustaqil tadqiqotchisi, Navoiy davlat universiteti, Navoiy*

***Annotatsiya**. Mazkur maqolada so'nggi o'n yillikda jadal rivojlanayotgan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan bog'liq ravishda o'zbek tiliga kirib kelayotgan neologizmlarning leksik tizimga integratsiyalashuv jarayoni semantik-struktur nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilidan o'zlashgan terminlarning o'zbek tili grammatik va fonetik me'yorlariga moslashuv bosqichlari, ularning yasalish usullari (to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, kalька, semantik ko'chish, qisqartma yasalish) hamda integratsiya darajasi bo'yicha tasnifi taqdim etiladi.*

***Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, neologizm, terminologiya, leksik integratsiya, semantik-struktur tahlil, kalka, transliteratsiya, o'zbek tili, neyron tarmoq, mashinaviy o'rganish.*

***Аннотация.** В данной статье с семантико-структурной точки зрения анализируется процесс интеграции неологизмов, связанных с технологиями искусственного интеллекта (ИИ), активно развивающимися в последнее десятилетие, в лексическую систему узбекского языка. Исследуются этапы адаптации терминов, заимствованных из английского языка, к грамматическим и фонетическим нормам узбекского языка, способы их образования (прямое заимствование, калькирование, семантический перенос, образование сокращений), а также предлагается их классификация по степени интеграции.*

***Ключевые слова:** искусственный интеллект, неологизм, терминология, лексическая интеграция, семантико-структурный анализ, калькирование, транслитерация, узбекский язык, нейронная сеть, машинное обучение.*

***Abstract.** This article examines, from a semantic-structural perspective, the process of integrating neologisms related to rapidly developing artificial intelligence (AI) technologies into the lexical system of the Uzbek language. The study analyzes the adaptation stages of AI-related terms borrowed from English to the grammatical and phonetic norms of Uzbek, their word-formation methods (direct borrowing, calquing, semantic extension, and abbreviation), and classifies them according to their degree of lexical integration.*

***Key words:** artificial intelligence, neologism, terminology, lexical integration, semantic-structural analysis, calque, transliteration, Uzbek language, neural network, machine learning.*

Zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotga, ta'lim, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash kabi sohalarga faol tatbiq etilishi tilshunoslikda yangi tadqiqot yo'nalishlarining shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellekt sohasida ingliz tilida yaratilayotgan yangi tushunchalar va ular bilan bog'liq terminologik birliklar boshqa tillar, jumladan o'zbek tili leksik tizimiga ham tez sur'atlarda kirib kelmoqda. Bunday jarayon natijasida yuzaga keladigan neologizmlarning tilga singishi, ularning struktur-semantik xususiyatlari va integratsiya bosqichlarini o'rganish nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Neologizm tushunchasi tilshunoslikda til taraqqiyotining muayyan davrida yuzaga kelgan, yangi tushuncha yoki narsa-hodisani ifodalash uchun xizmat qiluvchi leksik birlik sifatida ta'riflanadi. Neologizmlarning yuzaga kelish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular ichida so'z yasalishi, semantik ko'chish, o'zlashtirish (borrowing) va kalька usuli alohida o'rin tutadi. Sun'iy intellekt sohasi kabi tez rivojlanayotgan texnik sohalarda neologizmlarning aksariyati ingliz tilidan o'zlashtirish yo'li bilan boshqa tillarga o'tadi, chunki ushbu soha bo'yicha ilmiy-texnik ishlanmalarning katta qismi ingliz tilida yaratiladi[1].

Terminologik o'zlashmalarning tilga integratsiyalashuvi bir necha bosqichda kechadi: fonetik-grafik moslashuv (so'zning yozilishi va talaffuzi qabul qiluvchi til me'yorlariga moslashtiriladi), grammatik moslashuv (so'z qabul qiluvchi tilning morfologik tizimiga, jumladan kelishik va son kategoriyalariga bo'ysunadi) va semantik moslashuv (so'zning ma'no doirasi qabul qiluvchi til kontekstida aniqlashadi yoki torayadi/kengayadi). Struktur-semantik tahlil usuli aynan mana shu

jarayonlarni ochib berishga xizmat qiladi, chunki u terminning ham tashqi (struktur) shaklini, ham ichki (semantik) mazmunini birgalikda ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Tadqiqotda tasviriy (deskriptiv) metod, qiyosiy-tipologik metod hamda struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari, ta’lim platformalari, texnologik portallar va ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt terminologiyasiga oid so‘z va so‘z birikmalaridan iborat korpus tuzildi. To‘plangan materiallar yasalish usuliga, struktur tuzilishiga va semantik xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Tahlil jarayonida terminlarning qo‘llanilish chastotasi va variativligi ham hisobga olindi, bu esa ularning integratsiya darajasini aniqlashda muhim ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qildi.

Sun’iy intellekt terminologiyasining muayyan qismi o‘zbek tiliga deyarli o‘zgarishsiz, faqat fonetik-grafik moslashuv orqali o‘tgan. Masalan, «algoritm», «model», «token», «chatbot», «prompt» kabi so‘zlar o‘zbek tilida ingliz tilidagi shakliga yaqin holda qo‘llaniladi. Bunday terminlar odatda qisqa, bir bo‘g‘inli yoki ikki bo‘g‘inli bo‘lib, ularning o‘zbek tilida mos ekvivalenti mavjud bo‘lmagani yoki mavjud ekvivalent uzun va noqulay bo‘lgani sababli to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish yo‘li afzal ko‘rilgan[2].

Ikkinchi guruhni ingliz tilidagi terminlarning tarjima qilingan (kalka) shakllari tashkil etadi. Bunga «neyron tarmoq» (neural network), «mashinaviy o‘rganish» (machine learning), «chuqur o‘rganish» (deep learning), «katta til modeli» (large language model), «tabiiy tilni qayta ishlash» (natural language processing) kabi terminlar misol bo‘ladi. Ushbu terminlar o‘zbek tilining so‘z birikmasi yasalish qoidalariga to‘liq mos keladi va ular ta’lim adabiyotlarida faol qo‘llaniladi. Kalka usuli terminning ma’nosini aniq va tushunarli ifodalashi bilan ajralib turadi, biroq ba’zi hollarda uzun tarkibli birikmalar amaliy qo‘llanishda noqulaylik tug‘diradi.

Uchinchi guruhga umumiste’mol so‘zlarning texnik ma’no kasb etishi orqali yasalgan terminlar kiradi. Masalan, «o‘qitish» so‘zi odatiy «ta’lim berish» ma’nosidan tashqari «modelni ma’lumotlar asosida sozlash» (training) ma’nosini ham anglata boshlagan. Shuningdek, «xotira» (memory), «vazn» (weight), «e’tibor» (attention) kabi so‘zlar sun’iy intellekt kontekstida yangi, ixtisoslashgan ma’no kasb etgan. Bunday semantik ko‘chish hodisasi so‘zning polisemantik xususiyatini kengaytiradi va tilning ichki resurslaridan foydalangan holda yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi.

Struktur jihatdan sun’iy intellekt terminologiyasini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: a) sodda so‘zlar (algoritm, model, token); b) qo‘shma va murakkab so‘zlar (chatbot, deepfeyk); v) so‘z birikmalari (neyron tarmoq, mashinaviy o‘rganish); g) qisqartmalar va abbreviaturalar (SI, AI, LLM, NLP). Qisqartmalarning qo‘llanilishi alohida e’tiborga loyiq, chunki ayrim manbalarda ingliz tilidagi «AI» qisqartmasi saqlanib qolgan bo‘lsa, boshqalarida o‘zbekcha «SI» (sun’iy intellekt) varianti qo‘llaniladi. Bu holat terminologik variativlikning yaqqol namunasi hisoblanadi[3].

To‘plangan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt terminlarining integratsiya darajasi bir xil emas. Birinchi darajaga «algoritm», «dastur», «model» kabi allaqachon o‘zbek tili lug‘at tarkibiga to‘liq singib ketgan, umumiste’mol darajasiga chiqqan so‘zlar kiradi. Ikkinchi darajaga «neyron tarmoq», «mashinaviy o‘rganish» kabi ta’lim va ilmiy-texnik matnlarda barqaror qo‘llaniladigan, ammo hali umumxalq tiliga to‘liq singib ketmagan terminlar kiradi. Uchinchi darajaga esa hali variativ, standartlashmagan holatda qo‘llanilayotgan «sun’iy intellekt» / «SI» / «AI», «katta til modeli» / «LLM» kabi terminlar kiradi, ularning qaysi shakli me’yoriy hisoblanishi hali aniq belgilanmagan[4].

Sun’iy intellekt terminologiyasining o‘zbek tiliga integratsiyalashuvida morfologik moslashuv alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zlashgan terminlar o‘zbek tilining kelishik affikslari, egalik qo‘shimchalari va ko‘plik shakllari bilan erkin birika oladi: «algoritmni ishlab chiqish», «modelning aniqligi», «neyron tarmoqlar» kabi shakllar buning yaqqol dalilidir. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, ushbu terminlar o‘zbek tilining grammatik tizimiga to‘liq bo‘ysungan va faol so‘z sifatida qabul qilingan. Biroq ayrim ingliz tilidan o‘zlashgan fe’l asosli tushunchalar (masalan, «trenirovka qilish», «fine-tuning qilish») hali o‘zbek tili so‘z yasalish andozalariga to‘liq mos kelmaydi va ular ko‘pincha yordamchi «qilmoq» fe’li bilan birikma shaklida qo‘llaniladi, bu esa ularning integratsiya jarayoni hali yakunlanmaganidan dalolat beradi.

Sun'iy intellekt terminlarining qo'llanilish doirasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan ilmiy-texnik uslubga xos bo'lsa-da, so'nggi yillarda publitsistik va hatto so'zlashuv uslubiga ham kirib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarida «sun'iy intellekt», «chatbot», «model» kabi so'zlar keng qo'llanilayotgani, ularning umumiste'mol leksikaga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda. Ayni paytda ilmiy-akademik matnlarda terminlarning aniqligi va bir xilligiga qat'iy talab qo'yiladi, bu esa ilmiy uslub bilan publitsistik uslub o'rtasida terminologik farqlanishning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Bunday farqlanish, o'z navbatida, terminlarning ma'no doirasi kengayishi yoki torayishiga ta'sir ko'rsatadi[5].

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammo sun'iy intellekt terminologiyasi bo'yicha yagona me'yoriy lug'at yoki tavsiyanoma mavjud emasligidir. Natijada bir xil tushuncha turli manbalarda turlicha ifodalanmoqda, bu esa ta'lim jarayonida va ilmiy-texnik tarjimada nomuvofiqliklarga sabab bo'lmoqda. Masalan, «large language model» tushunchasi ba'zi manbalarda «katta til modeli», boshqalarida «yirik til modeli», yana boshqalarida esa oddiygina «LLM» shaklida qo'llaniladi. Bunday variativlik, ayniqsa ta'lim adabiyotlarini tayyorlashda, tushunchalarning bir xil talqin etilishiga to'sqinlik qiladi[6].

Ushbu muammoni bartaraf etish uchun til va terminologiya bo'yicha vakolatli tashkilotlar tomonidan sun'iy intellekt sohasiga oid terminlarning o'zbekcha ekvivalentlarini standartlashtiruvchi lug'atlar va tavsiyanomalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda kalka usuli orqali yasalgan, tushunarli va o'zbek tili qonuniyatlariga mos terminlarga ustuvorlik berish, faqat zarur hollardagina to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishga murojaat qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, terminlarning tilga integratsiyalashuv jarayonini muntazam kuzatib borish va korpus lingvistikasi metodlaridan foydalangan holda ularning qo'llanilish dinamikasini statistik jihatdan o'rganish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Kelajakda sun'iy intellekt tomonidan avtomatik yaratiladigan matnlar hajmining ortishi ushbu terminologik jarayonlarni yanada tezlashtirishi mumkin, bu esa tilshunoslar oldida yangi vazifalarni qo'ymoqda[7].

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt sohasidagi neologizmlarning o'zbek tili leksik tizimiga integratsiyalashuvi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish, kalька, semantik ko'chish va qisqartma yasalish kabi turli usullar orqali amalga oshmoqda. Terminlarning integratsiya darajasi ularning qo'llanilish chastotasi, tarkibiy soddaligi va o'zbek tili grammatik tizimiga moslashuvchanligiga bog'liq. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt terminologiyasini standartlashtirish, yagona terminologik baza yaratish hamda til siyosati doirasida ushbu jarayonni tartibga solish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusi tadqiqotlarda korpus asosidagi kengroq statistik tahlil, shuningdek ushbu terminlarning ta'lim tizimidagi qo'llanilishini o'rganish dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boronova M. Zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma so'zlarning integratsiyalashuvi. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
3. Yusupova Z. Sun'iy intellekt terminologiyasining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2023. – №4. B. 45–52.
4. Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam: John Benjamins, 1990.
5. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
6. Кубрякова Е.С. Типы языковых значений: Семантика производного слова. – Москва: Наука, 1981.
7. Нещименко Г.П. Терминология и её место в языкознании. – Москва: Наука, 1985.
8. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 1996.

**UO'K 81:37**

## NUTQIY TARKIBIY TUZILMALARNI SHAKLLANTIRISHNING KOGNITIV-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

***M.S.Kiyamova, dots., Turon universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolamizda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish jarayonining kognitiv-pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Nutq rivojlanishida diqqat, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv jarayonlarning o'rni hamda ularning nutqiy birliklarni qabul qilish, anglash, saqlash va amaliy qo'llashga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, nutqiy tarkibiy tuzilmalarni*

*shakllantirishda o‘yinlar, vizual va audio materiallar, interaktiv mashg‘ulotlar, tajribaviy topshiriqlar hamda dramatik faoliyat kabi pedagogik metodlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi.*

*Kalit so‘zlar: nutqiy tarkibiy tuzilmalar, kognitiv jarayonlar, kognitiv-pedagogik mexanizmlar.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются когнитивно-педагогические механизмы формирования речевых структур. Рассматривается роль таких когнитивных процессов, как внимание, память, восприятие, мышление и воображение, в развитии речи, а также их влияние на восприятие, понимание, сохранение и практическое использование речевых единиц. Кроме того, рассматривается эффективность таких педагогических методов, как игры, визуальные и аудиоматериалы, интерактивные занятия, практические задания и драматическая деятельность, в формировании речевых структур.*

***Ключевые слова:*** *речевые структуры, когнитивные процессы, когнитивно-педагогические механизмы.*

***Abstract.*** *This article analyzes the cognitive-pedagogical mechanisms involved in the development of speech structural patterns. It examines the role of cognitive processes such as attention, memory, perception, thinking, and imagination in speech development, as well as their influence on the perception, comprehension, retention, and practical use of linguistic units. The article also considers the effectiveness of pedagogical methods such as games, visual and audio materials, interactive activities, experiential tasks, and dramatic activities in developing speech structural patterns.*

***Keywords:*** *speech structural patterns, cognitive processes, cognitive-pedagogical mechanisms.*

**Kirish.** Nutq insonning fikr, his-tuyg‘u va ehtiyojlarini ifodalash hamda atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Nutqning shakllanishi va rivojlanishi bolaning umumiy psixologik, ijtimoiy va kognitiv rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish jarayonida bolaning kognitiv faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Nutqiy birliklarni to‘g‘ri qabul qilish, anglash, xotirada saqlash va amaliy faoliyatda qo‘llash diqqat, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Kognitiv jarayonlar bolaning dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati va nutqiy faoliyatini shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlar hisoblanadi. Diqqat bolaning nutqiy materialga e’tiborini qaratishi va uni faol qabul qilishini ta’minlasa, xotira yangi so‘zlar, grammatik shakllar, gap modellari va talaffuz xususiyatlarini o‘zlashtirish hamda saqlashda muhim vosita vazifasini bajaradi. Idrok esa tashqi olamdagi predmet, hodisa, rang, shakl, harakat va tovushlarni anglash orqali ularni tegishli nutqiy birliklar bilan bog‘lash imkonini beradi. Fikrlash va tafakkur bolaning sabab-natija munosabatlarini tushunishi, muammolarni hal qilishi va o‘z fikrlarini mantiqiy jihatdan izchil ifodalashiga yordam beradi. Tasavvur esa nutqning ijodiy va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirib, bolaning mustaqil fikr va mazmun yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish nutq buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning kognitiv ko‘nikmalarini baholash orqali uning nutqiy rivojlanishidagi qiyinchiliklarni aniqlash va individual mashg‘ulotlarni rejalashtirish imkoniyati kengayadi. Shu jihatdan, nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishning kognitiv-pedagogik mexanizmlarini o‘rganish zamonaviy pedagogik va logopedik amaliyot uchun dolzarb masalalardan biridir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda, avvalo, nazariy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod orqali nutq rivojlanishi, kognitiv jarayonlar, nutqiy tarkibiy tuzilmalar va ularni shakllantirishning pedagogik mexanizmlariga oid ilmiy-pedagogik va logopedik qarashlar o‘rganildi. Mavzuga oid nazariy ma’lumotlar umumlashtirilib, kognitiv jarayonlarning nutqiy faoliyat bilan o‘zaro aloqasi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotda kuzatish metodi qo‘llanilib, bolalarning nutqiy mashg‘ulotlar jarayonidagi faoliyati, topshiriqlarni bajarishi, diqqatni jamlashi, yangi nutqiy birliklarni eslab qolishi va ularni amaliy nutqda qo‘llashi kuzatildi. Kuzatish orqali kognitiv jarayonlarning nutqiy faoliyatga ta’sirini aniqlashga e’tibor qaratildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida turli pedagogik yondashuvlarning nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi. Jumladan, o‘yinlar, vizual va audio materiallar, interaktiv

mashg‘ulotlar, tajribaviy topshiriqlar hamda dramatik faoliyatning kognitiv faollik va nutq rivojlanishiga ta’siri tahlil qilindi.

**Adabiyotlar sharhi.** Nutq rivojlanishi va uni shakllantiruvchi kognitiv jarayonlar masalasi pedagogika, psixologiya, lingvistika hamda logopediya fanlarining o‘zaro kesishgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda nutqning shakllanishi bolaning umumiy psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi nutqiy birliklarni o‘zlashtirish va ulardan amaliy foydalanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi. Mavzuga oid manbalarda diqqat nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Bolaning nutqiy materialni tinglashi, undan muhim ma’lumotlarni ajratib olishi va berilgan topshiriqni bajarishi uning diqqatni jamlash qobiliyatiga bog‘liq. Diqqatning yetarli darajada rivojlanmaganligi nutq mashg‘ulotlarida faol ishtirok etishga va yangi nutqiy tuzilmalarni o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.Tadqiqotlarda xotiraning nutq rivojlanishidagi ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Xotira orqali bola yangi so‘zlar, grammatik shakllar, gap modellari va talaffuz birliklarini o‘zlashtiradi, saqlaydi hamda zarur vaziyatda qayta tiklaydi. Shu sababli nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirishda takrorlash, namunalar asosida ishlash va kommunikativ mashqlar kabi usullardan foydalanish muhim hisoblanadi. Idrokning nutq rivojlanishidagi roli ham tadqiqotchilar tomonidan muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Bola tashqi olamdagi predmet va hodisalarni, ularning rang, shakl, harakat va tovush kabi xususiyatlarini idrok qilish orqali ularni tegishli so‘z va nutqiy birliklar bilan bog‘laydi. Vizual va audio materiallardan foydalanish ushbu jarayonni faollashtirib, nutqiy birliklarning mazmunini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Kognitiv jarayonlar orasida tafakkur va fikrlash nutqiy tuzilmalarni mantiqiy jihatdan tashkil etishda alohida ahamiyatga ega. Mavzuga oid qarashlarda bolaning sabab-natija munosabatlarini tushunishi, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlari uning izchil va mazmunli nutqini shakllantirish uchun muhim ekanligi ko‘rsatiladi. Muammoli vaziyatlar, tajribaviy topshiriqlar va mantiqiy mashqlar orqali tafakkurni rivojlantirish nutqiy faoliyatning mazmuniy va mantiqiy tomonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik yo‘nalishdagi manbalarda esa nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda o‘yin, interaktiv faoliyat, vizual va audio vositalar, tajribaviy mashg‘ulotlar hamda dramatik faoliyatning samaradorligi qayd etiladi. Mazkur metodlarning umumiy jihati shundaki, ular bolaning kognitiv faolligini oshirish bilan birga, nutqiy birliklarni tabiiy va amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Individual va differensial yondashuv esa bolaning kognitiv va nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Logopedik yo‘nalishdagi qarashlarda kognitiv jarayonlarni rivojlantirish nutq buzilishlarini oldini olish, aniqlash va korreksiya qilish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bolaning diqqat, xotira, idrok va tafakkur holatini hisobga olish nutqiy qiyinchiliklarning xususiyatlarini aniqlash hamda individual korreksion mashg‘ulotlarni rejalashtirish uchun muhimdir.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni kognitiv jarayonlar va pedagogik ta’sirning o‘zaro bog‘liqligi asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, nutqiy birliklarni o‘zlashtirish faqat til materialini berish bilan emas, balki bolaning diqqat, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kabi kognitiv imkoniyatlari bilan ham bevosita bog‘liq. Avvalo, diqqatning nutqiy tuzilmalarni shakllantirishdagi ahamiyati aniqlandi. Bola yangi nutqiy materialni o‘zlashtirishi uchun uning e’tiborini mazkur materialga yo‘naltira olishi va uni ma’lum vaqt davomida saqlab turishi zarur. Diqqat yetarli bo‘lmagan holatda bola nutq mashg‘ulotlaridagi topshiriqlarni to‘liq qabul qilishi va bajarishida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli nutqiy mashg‘ulotlarda kuzatish, tinglash, farqlash va tanlashga asoslangan topshiriqlardan foydalanish diqqatni faollashtirishga xizmat qiladi. Xotira tahlil qilingan kognitiv jarayonlar orasida nutqiy materialni mustahkamlash bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Yangi so‘zlar, grammatik shakllar va gap modellari dastlab xotira orqali saqlanadi, keyinchalik takroriy mashqlar yordamida faol nutqda qo‘llanila boshlaydi. Shu nuqtayi nazardan, takrorlash, savol-javob, namunaga asoslangan mashqlar va kommunikativ topshiriqlar nutqiy tuzilmalarning xotirada

mustahkamlanishiga yordam beradi. Idrok nutqiy birliklarning mazmunini anglash va ularni real predmet hamda hodisalar bilan bog‘lash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ldi. Vizual va audio materiallardan foydalanish orqali bola predmet, rang, shakl, harakat va tovush haqidagi ma'lumotlarni nutqiy birliklar bilan bog‘laydi. Bu esa yangi so‘z va gap tuzilmalarini mazmunli o‘zlashtirishga yordam beradi. Tadqiqot tahlili tafakkur va fikrlashning nutqiy tuzilmalarni mantiqiy shakllantirishdagi muhim rolini ham ko‘rsatdi. Bola predmet va hodisalarni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, sabab-natija munosabatlarini aniqlash va xulosa chiqarish orqali o‘z fikrlarini izchil nutq shaklida ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muammoli vaziyatlar va mantiqiy topshiriqlardan foydalanish bolaning mustaqil fikrlashi bilan birga, mazmunan va grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq tuzilmalarini yaratishiga yordam beradi. Tasavvur esa nutqiy faoliyatning ijodiy tomonini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida baholandi. Rasm asosida hikoya tuzish, rolli va dramatik o‘yinlar, berilgan vaziyatni davom ettirish kabi topshiriqlar bolaning mavjud nutqiy modellar asosida yangi gap va hikoyalar yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada nutq faqat takroriy faoliyat emas, balki mustaqil va ijodiy kommunikativ faoliyatga aylanadi.

Pedagogik metodlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘yinli va interaktiv mashg‘ulotlar bolalarning kognitiv hamda nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola nutqiy birliklarni tabiiy kommunikativ vaziyatda qo‘llaydi. Vizual va audio materiallar esa turli idrok kanallarini faollashtirib, yangi nutqiy materialni yaxshiroq anglash va eslab qolishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Vygotsky, L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press,
2. Luria, A. R. Language and Cognition. – New York: John Wiley & Sons, 1981.
3. Piaget, J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge & Kegan.
4. Baddeley, A. Working Memory, Thought, and Action. – Oxford: Oxford.
5. Anderson, J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. – New York: Worth.
6. Bruner, J. S. Child's Talk: Learning to Use Language. – New York: W. W. Norton & Company, 1983.
7. Леонтьев, А. А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997.
8. Жинкин, Н. И. Механизмы речи. – Москва: Наука, 1958.
9. Лалаева, Р. И. Логопедическая работа в коррекционных классах.
10. Филичева, Т. Б., Чиркина, Г. В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. – Москва: Айрис-пресс, 2004.
11. Bloom, L., Lahey, M. Language Development and Language Disorders. – New York: John Wiley & Sons, 1978.
12. Tomasello, M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003.

**UO'K 343.148:81'33**

## SUD LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA ETNIK, DINIY VA IJTIMOIY ADOVAT KONTEKSTIDA IMPLITSIT MA'LUMOTNI ANIQLASH MEXANIZMLARI

***E.E.Kurbanov, o'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon***
***ORCID ID:*** *https://orcid.org/0009-0001-1640-9404*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada sud lingvistik ekspertizasida etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmunini ifodalovchi matnlarda implitsit axborotni aniqlashning lingvistik mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sotsiolingvistik, lingvomadaniy, diskursiv hamda konseptual-metaforik yondashuvlar asosida guruhni umumlashtirish, stereotiplash, "biz–ular" modeli, metaforik modellashtirish va madaniy konnotatsiyalar orqali shakllanuvchi yashirin mazmun aniqlangan. Natijada konfliktli matnlarni baholashning lingvistik mezonlari tizimlashtirilib, ularning sud lingvistik ekspertizasidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *sud lingvistik ekspertizasi, implitsit axborot, etnik adovat, diniy adovat, ijtimoiy adovat, diskurs, stereotiplash, lingvomadaniyat, metafora, "biz–ular" modeli.*

***Аннотация****. В статье анализируются лингвистические критерии выявления имплицитной информации в текстах, выражающих этническую, религиозную и социальную вражду, в контексте судебно-лингвистической экспертизы. С опорой на социолингвистический, лингвокультурологический, дискурсивный и концептуально-*

*метафорический подходы в исследовании выделяется скрытое содержание, формируемое посредством групповой генерализации, стереотипизации, модели «свои - чужие», метафорического моделирования и культурных коннотаций. В результате обосновывается система лингвистических критериев оценки конфликтогенных текстов и их практическая значимость для судебно-лингвистической экспертизы.*

***Ключевые слова:*** *судебно-лингвистическая экспертиза, имплицитная информация, этническая вражда, религиозная вражда, социальная вражда, дискурс, стереотипизация, лингвокультура, метафора, модель «свои -чужие».*

***Abstract****. This article analyzes the linguistic criteria for identifying implicit information in texts expressing ethnic, religious, and social hostility within the context of forensic linguistic expertise. Drawing on sociolinguistic, linguocultural, discursive, and conceptual-metaphorical approaches, the study identifies latent content formed through group generalization, stereotyping, the "us vs. them" model, metaphorical modeling, and cultural connotations. Consequently, a system of linguistic criteria for evaluating conflict-laden texts is established, and their practical significance in forensic linguistic expertise is substantiated.*

***Key words****: forensic linguistic expertise, implicit information, ethnic hostility, religious hostility, social hostility, discourse, stereotyping, linguoculture, metaphor, "us vs. them" model.*

**Kirish.** Raqamli kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi etnik, diniy va ijtimoiy guruhlar haqidagi konfliktli matnlar sonining ortishiga olib kelmoqda. Bunday matnlarda adovat mazmuni ko‘pincha bevosita emas, balki implitsit lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Shu sababli sud lingvistik ekspertizasida yashirin mazmunni aniqlashning ilmiy mezonlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmunini ifodalovchi matnlarda implitsit axborotni shakllantiruvchi asosiy lingvistik mexanizmlarni aniqlash hamda ularni sud lingvistik ekspertizasi nuqtai nazaridan tavsiflashdan iborat. Shu maqsadda sotsiolingvistik, lingvomadaniy, diskursiv va konseptual-metaforik tahlil metodlari qo‘llanilib, konfliktli matnlarda yashirin mazmunni aniqlashning nazariy va amaliy mezonlari ishlab chiqildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda sud lingvistik ekspertizasida etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmunini ifodalovchi matnlarda implitsit axborotni aniqlash uchun sotsiolingvistik, lingvomadaniy, diskursiv hamda konseptual-metaforik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar til birliklarining semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot materiali sifatida etnik, diniy va ijtimoiy guruhlar haqidagi konfliktli matnlar tanlanib, ularda guruh nomlari, baholovchi birliklar, stereotipik ifodalar hamda metaforik modellar o‘rganildi.

Sotsiolingvistik tahlil yordamida guruhlarning nutqdagi ijtimoiy identifikatsiyasi va baholovchi nominatsiyalar aniqlandi. Masalan, "Ular zamonaviy jamiyat qadriyatlarini qabul qilishga tayyor emas" jumlasida salbiy mazmun bevosita haqorat orqali emas, balki guruhni jamiyat me'yorlariga moslasha olmaydigan qatlam sifatida tasvirlash orqali yuzaga keladi. Lingvomadaniy tahlilda madaniy konnotatsiyalar va stereotiplar, diskursiv tahlilda esa kommunikativ strategiyalar hamda auditoriyaga ta'sir mexanizmlari o'rganildi. Konseptual-metaforik tahlil orqali "Bu oqim jamiyat tanasidagi begona unsurdir" kabi metaforalar asosida shakllanuvchi yashirin adovat mazmuni ochib berildi.

**1-jadval.**

**Sud lingvistik ekspertizasida implitsit axborotni aniqlash metodlari va ularning tahlil mezonlari**

| Metod | Tahlil obyekti | Asosiy lingvistik ko‘rsatkichlar | Ekspertlik vazifasi |
|---|---|---|---|
| Sotsiolingvistik tahlil | Guruhning ijtimoiy obrazi va nominatsiyasi | Guruh nomlari, baholovchi leksika, "biz–ular" modeli | Guruhning ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy masofani aniqlash |
| Lingvomadaniy tahlil | Madaniy konnotatsiyalar va stereotiplar | Ramziy birliklar, tarixiy assotsiatsiyalar, stereotipik tasvirlar | Yashirin diskriminatsion mazmunni aniqlash |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Diskursiv tahlil | Kommunikativ strategiya va kontekst | Auditoriyaga ta'sir vositalari, diskurs muhiti | Bayonotning kommunikativ maqsadi va ijtimoiy ta'sirini baholash |
| Konseptual-metaforik tahlil | Metaforik modellar va konseptual obrazlar | "Begona", "tahdid", "to'siq" kabi metaforalar | Metaforalar orqali ifodalangan implitsit adovatni ochib berish |

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Mazkur metodlar asosida implitsit axborotni aniqlashning asosiy mezonlari sifatida bayonotning ijtimoiy yo‘naltirilganligi, stereotiplash darajasi, lingvomadaniy konnotatsiyasi, diskursiv vazifasi hamda metaforik modeli belgilandi. Ushbu metodologik yondashuv konfliktli matnlarni faqat leksik darajada emas, balki ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar uyg‘unligida baholash imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalari.** Tahlillar etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmuni ko‘pincha ochiq tajovuzkor birliklar orqali emas, balki guruh haqida salbiy tasavvur hosil qiluvchi implitsit lingvistik vositalar orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Natijada guruhning ijtimoiy mavqei, qadriyatlari yoki jamiyatdagi o‘rniga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi [1;5].

Implitsit axborotni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlar quyidagilar:

**1. Guruhni umumlashtirish.** Individual xususiyat butun guruhga tatbiq etiladi. Masalan, ***"Bu guruh vakillari jamiyat taraqqiyotiga befarq munosabatda bo‘ladi."*** Ushbu bayonot kollektiv nominatsiya orqali guruh haqida umumlashgan salbiy tasavvur hosil qiladi [2;6].

**2. "Biz–ular" modeli.** Guruhlar "o‘zimiz" va "boshqalar" tarzida qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, ***"Bizning an’analarimizni hurmat qiladiganlar jamiyatimiz bilan birga rivojlanadi."*** Bu yerda egalik shakllari ijtimoiy chegaralash vositasi sifatida xizmat qiladi [3;7].

**3. Stereotiplash.** Guruh haqidagi mavjud stereotiplar faollashtiriladi. Masalan, ***"Ular o‘zgarishlarni qabul qilishga qodir emas."*** Ushbu jumla dalilsiz umumlashtirish orqali salbiy stereotipni mustahkamlaydi [4;8].

**4. Metaforik model.** Guruh yoki qarashlar metaforalar orqali salbiy talqin qilinadi. Masalan, ***"Bu qarashlar jamiyat rivojiga xavf tug‘diruvchi omil hisoblanadi."*** "Xavf" konsepti yashirin adovat mazmunini kuchaytiradi [4;9].

**5. Madaniy ramzlar.** Madaniy qadriyatlar asosida "o‘z" va "begona" oppozitsiyasi shakllanadi. Masalan, ***"Ularning qarashlari biz shakllantirgan qadriyatlar tizimiga mos kelmaydi."*** Natijada guruh bilvosita umumiy qadriyatlar doirasidan chetlashtiriladi [2;8].

**6. Ijtimoiy xavf obrazi.** Guruh jamiyat uchun xavf manbai sifatida konseptuallashtiriladi. Masalan, ***"Bu hodisa jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin."*** Muayyan guruh bilan bog‘langanda bunday ifoda salbiy konseptual obrazni shakllantiradi [1;10].

**2-jadval.**

**Etnik, diniy va ijtimoiy adovat kontekstida implitsit ma’lumot shakllanish mexanizmlari**

| **Mexanizm** | **Asosiy lingvistik vositalar** | **Implitsit mazmun** |
|---|---|---|
| Guruhni umumlashtirish | Kollektiv nominatsiyalar | Guruh haqida umumlashgan salbiy tasavvur |
| "Biz–ular" modeli | Egalik shakllari, oppozitsiya | Ijtimoiy chegaralash va begonalashtirish |
| Stereotiplash | Baholovchi birliklar | Barqaror salbiy stereotip |
| Metaforik model | Metafora va ramziy obrazlar | Guruhni xavf yoki muammo sifatida talqin qilish |
| Madaniy ramzlar | Qadriyat va madaniy kodlar | Madaniy ajratish va konnotativ baholash |
| Ijtimoiy xavf obrazi | Xavf va tahdid konseptlari | Guruhni xavf manbai sifatida ko‘rsatish |

**Manba:** *muallif tomonidan ishlab chiqilgan*.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning **nazariy ahamiyati** sud lingvistik ekspertizasida etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmunini ifodalovchi matnlarda implitsit axborotni aniqlashning lingvistik mezonlari tizimlashtirilganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotda adovat mazmuni nafaqat ochiq tajovuzkor birliklar, balki guruhni umumlashtirish, stereotiplash, ***"biz–ular"*** modeli, metaforik modellashtirish hamda madaniy konnotatsiyalar orqali ham shakllanishi asoslandi [1;5].

Shuningdek, guruhlararo ziddiyatni baholashda sotsiolingvistik, lingvomadaniy, diskursiv va konseptual yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi ko‘rsatildi. Natijada implitsit mazmunni aniqlash alohida so‘z yoki iboraga emas, balki ularning kommunikativ vazifasi, ijtimoiy konteksti va shakllantirayotgan guruh obraziga bog‘liqligi aniqlandi [2;7].

Tadqiqotning ***amaliy ahamiyati*** ishlab chiqilgan mezonlarning sud lingvistik ekspertizasida konfliktli matnlarni tahlil qilishda qo‘llanish imkoniyati bilan belgilanadi. Ular guruhni umumlashtirish, stereotiplash, ***"biz–ular"*** modeli, metaforik obrazlar va madaniy konnotatsiyalar orqali shakllangan implitsit mazmunni ilmiy asosda aniqlashga xizmat qiladi [5;8].

Mazkur yondashuv ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va internet kommunikatsiyasidagi konfliktli matnlarni ekspertiza qilishda, shuningdek, ***"Sud lingvistik ekspertizasi", "Sotsiolingvistika", "Diskurs tahlili"*** va ***"Lingvomadaniyatshunoslik"*** fanlarini o‘qitishda metodik manba sifatida foydalanilishi mumkin [6;9].

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot sud lingvistik ekspertizasida etnik, diniy va ijtimoiy adovat mazmunini ifodalovchi matnlarda implitsit axborotni aniqlashning lingvistik mezonlarini tizimli ravishda yoritishga xizmat qildi. Tahlillar natijasida adovat mazmuni ko‘pincha ochiq haqorat yoki tajovuzkor birliklar orqali emas, balki guruhni umumlashtirish, stereotiplash, **"biz–ular"** oppozitsiyasini yaratish, metaforik modellashtirish hamda madaniy konnotatsiyalar vositasida shakllanishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlar konfliktli matnlarda yashirin baholash va diskriminatsion mazmunni yuzaga keltiruvchi asosiy lingvistik omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida sotsiolingvistik, lingvomadaniy, diskursiv va konseptual-metaforik tahlil metodlarining o‘zaro uyg‘un qo‘llanilishi implitsit axborotni aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi asoslandi. Shuningdek, konfliktli matnlarni baholashda alohida til birliklarining lug‘aviy ma’nosidan ko‘ra, ularning kommunikativ vazifasi, ijtimoiy konteksti va guruhlararo munosabatlarni shakllantirishdagi roli muhim mezon ekani ko‘rsatildi.

Ishlab chiqilgan metodologik yondashuv va tahlil mezonlari sud lingvistik ekspertizasida ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va obyektivligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari hamda internet kommunikatsiyasidagi konfliktli matnlarni ekspertiza qilishda, shuningdek, sud lingvistik ekspertizasi, sotsiolingvistika, diskurs tahlili va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarida ilmiy-amaliy manba sifatida foydalanish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – Москва: Флинта, 2007. – 592 Б.
2. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: Гнозис, 2004. – 390 В.
3. Van Dijk T. A. Discourse and Power. – New York: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
4. Fairclough N. Language and Power. 3rd ed. – London: Routledge, 2015. – 288 p.
5. Wodak R., Meyer M. (Eds.). Methods of Critical Discourse Analysis. 3rd ed. – London: Sage Publications, 2016. – 280 p.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.
7. Fillmore C. J. Frame Semantics. In: Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin Publishing, 1982. – P. 111–137.
8. Маслова В. А. Лингвокультурология. 5-е изд. – Москва: Академия, 2018. – 352 В.
9. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 320 B.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 B.

**UO’K 81-27; 811.111; 811.512.133; 808.2**

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TIL VA TISH SOMATIZMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

***M.U.Maksudova, o’qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek xalq maqollari tarkibidagi somatizmlarning, xususan, "til" va "tish" tana a’zolari nomlarining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Maqolada somatik birliklarning maqol janrida qanday qilib oddiy jismoniy funksiyadan mavhum falsafiy-axloqiy tushunchalarga (nutq madaniyati, sabr, kuch va yosh kabi) ko‘chishi tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlillar orqali har ikki xalq dunyoqarashida inson borlig‘ini lisoniy modellashtirishning o‘ziga xos qonuniyatlari ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *somatik maqollar, leksik-semantik ko‘chim, til semantikasi, tish ramzi, qiyosiy paremiologiya, lisoniy dunyoqarash, metaforik transformatsiya.*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится сравнительный анализ лексико-семантических особенностей соматизмов (наименований частей тела), в частности*

*соматических единиц «язык» и «зуб», в английских и узбекских народных пословицах. Анализируется процесс перехода соматических единиц от простых физиологических функций к абстрактным философско-этическим понятиям, таким как культура речи, терпение, сила и возраст. На основе сравнительного анализа выявляются закономерности языкового моделирования картины мира в мировоззрении двух народов.*

***Ключевые слова:*** *соматические пословицы, лексико-семантический перенос, семантика языка, символ зуба, сравнительная паремиология, языковая картина мира, метафорическая трансформация.*

***Abstract.*** *This article presents a comparative study of the lexical-semantic features of somatisms, specifically the body part terms "tongue" and "tooth," in English and Uzbek folk proverbs. It analyzes how somatic units shift from basic physical functions to abstract philosophical and ethical concepts (speech culture, patience, power, and age) within the proverbial genre. Through comparative analysis, the article reveals the patterns of linguistic modeling of human existence and the worldview of both nations.*

***Key words:*** *somatic proverbs, lexical-semantic shift, semantics of tongue, tooth symbol, comparative paremiology, linguistic worldview, metaphorical transformation.*

Xalq maqollari insoniyat asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalarning lisoniy qaymog‘idir. Maqollarning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularda mavhum hayotiy qoidalar, axloqiy mezonlar aniq va yaqqol timsollar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda esa insonga eng yaqin bo‘lgan vosita — uning o‘z tanasi (somatik a’zolari) bosh rolni o‘ynaydi.

Maqollar tarkibida somatizmlarning qo‘llanishi shunchaki uslubiy bezak emas. Bu — insonning o‘z tana a’zolari jismoniy vazifalaridan kelib chiqib, olamni mantiqiy modellashtirish usulidir. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek paremiyalarida (maqollarida) eng ko‘p semantik yuk ko‘taradigan, ammo ko‘p hollarda tadqiqotlar soyasida qolib ketadigan **"til"** va **"tish"** somatizmlarining o‘ziga xos leksik-semantik tabiati qiyosiy tahlil qilinadi.

**1. "Til / Tongue" Somatizmining Maqollardagi Leksik-Semantik Maydoni**

"Til" jismoniy a’zo sifatida nutq so‘zlash va ta’m bilish vazifasini bajaradi. Biroq maqollar tizimida u mutlaqo boshqa lisoniy darajaga ko‘tariladi. Har ikki xalq dunyoqarashida ham til — **qudratli qurol, ijtimoiy ko‘prik yoki halokat manbai** sifatida semantik guruhlarga bo‘linadi.

**A) Til — Halokat va Yomonlik Manbai**

O‘zbek va ingliz xalqi so‘z mas’uliyatiga o‘ta jiddiy qaragan. Shu bois ikki tilda ham tilning jismoniy zaifligi (suyaksizligi) va uning keltirishi mumkin bo‘lgan ulkan ma’naviy jarohati o‘rtasidagi ziddiyatga asoslangan maqollar juda ko‘p:

- **O‘zbek tilida:** *"Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz", "Tilingni tiy, tishing sinmasin"*. Bu yerda til insonning o‘ziga zarar keltiruvchi boshqarilmas kuch sifatida tasvirlanmoqda.
- **Ingliz tilida:** *"The tongue has no bone, but it breaks bones"* (Tilning suyagi yo‘q, ammo u suyaklarni sindiradi), *"A slip of the tongue is worse than a slip of the foot"* (Tilning sirpanishi oyoqning sirpanishidan yomonroq).

**Leksik-semantik tahlil:** Har ikki tilda ham jismoniy yumshoqlik (suyaksizlik) va qattiq jismoniy shikast yetkazish (suyak sindirish) o‘rtasida **antitezis (ziddiyat)** yasalgan. Bu maqollarda "til" tushunchasi "nazoratsiz nutq" yoki "o‘ylamay gapirilgan so‘z" ma’nosini ifodalovchi semantik ko‘chimga uchragan.

**B) Til — Ezgulik va Kelishuv Vositasi (Peacebuilder)**

Shu bilan birga, til ijobiy semantik bo‘yoqqa ham ega bo‘lib, u yumshoqlik, muomala madaniyati va donolik ramzi sifatida keladi:

- **O‘zbek tilida:** *"yaxshi so’z bilan ilon inidan chiqar"*. Bu maqolda sharqona diplomatiya, shirinso‘zlikning har qanday dushmanlikni yenga olish kuchi ulug‘lanadi.
- **Ingliz tilida:** *"A sweet tongue wins many a heart"* (Shirin til ko‘plab yuraklarni zabt etadi). Inglizlarda ham "sweet tongue" (shirin til) tushunchasi odamlar bilan til topishish, samimiylik ma’nosini tashuvchi leksik birlik hisoblanadi.

**2. "Tish / Tooth (Teeth)" Somatizmining Maqollardagi Semantik Modeli**

"Tish" somatizmi maqollarda juda qiziqarli semantik transformatsiyalarga uchraydi. U asosan **yosh, kuch-qudrat, tajriba, tajovuzkorlik yoki sabr** kabi tushunchalarning lisoniy ekvivalenti hisoblanadi.

**A) Tish — Kuch, Tajovuz va Himoya Ramzi (Power and Aggression)**

Tish hayvonlar va insonda o‘zini himoya qilish, ozuqani parchalash qurolidir. Maqollarda ushbu jismoniy xususiyat ijtimoiy munosabatlarga ko‘chadi:

- **O‘zbek tilida:** *"Tishi borida tosh chaynagan, tishi yo‘g‘ida osh chaynaydi"*. Bu yerda tish — yoshlik, kuch va jismoniy imkoniyat ramzi bo‘lsa, tishning yo‘qligi — qarilik va zaiflikni ifodalaydi. Yana bir maqol: *"Tishi o‘tmagan tishlamas"* bo‘lib, bu yerda tishlash harakati insonning imkoniyati va qudratiga ishora qiladi.
- **Ingliz tilida:** *"Don't look a gift horse in the mouth"* (Hadyaga berilgan otning tishiga qarama). Bu maqol qadimiy bo‘lib, otning yoshi va kuchi uning tishlariga qarab aniqlanganidan kelib chiqqan. Bugungi kunda u leksik jihatdan "sovg‘aning nuqsonini qidirma" degan ko‘chma ma’noni anglatadi.

**B) Tish — Sabr va Qat’iyatlilik Simvoli (Patience and Restraint)**

Ba’zida tish jismoniy og‘riqqa chidash va his-tuyg‘ularni jilovlash ramziga aylanadi:

- **O‘zbek tilida:** *"Tishni tishga qo‘ymoq"* (garchi ibora bo‘lsa-da, maqollar tarkibida faol keladi). Shuningdek, *"Tish tishga tegsa, og‘iz kuyadi"* kabi maqollarda tishlarning bir-biriga urilishi sabrsizlik va jizzakilik oqibatidan ogohlantiradi.
- **Ingliz tilida:** *"An eye for an eye, a tooth for a tooth"* (Ko‘zga ko‘z, tishga tish). Bu mashhur paremiya qat’iy adolat, teng qaytariladigan javob va o‘ch olish semantikasini tish va ko‘z vositasida ko‘rsatib beradi.

**Somatik Maqollarning Leksik-Semantik Mushtarakligi va Farqlari**

Ingliz va o‘zbek tillaridagi ushbu somatizmlarga asoslangan maqollarni qiyoslaganimizda, quyidagi tizimli xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

1. **Metaforalashuv darajasi:** Har ikki tilda ham "til" ko‘proq **ijtimoiy faoliyat** (muloqot, janjal, yarashuv) bilan bog‘lansa, "tish" ko‘proq **biologik va individual holatlar** (yosh, jismoniy kuch, chidamlilik) bilan bog‘liq munosabatlarni ifodalaydi.
2. **Leksik variantdorlik:** O‘zbek maqollarida "til" so‘zi ko‘pincha "dil" (yurak, ko‘ngil) so‘zi bilan qarama-qarshilikda keladi (*"Tili shirin, dili qora"*). Ingliz tilida esa "tongue" ko‘proq "mind" (aql) yoki "heart" (yurak) bilan juftlik hosil qiladi (*"What the heart thinks, the tongue speaks"*).
3. **Dunyoqarash aks-sadosi:** O‘zbek xalqi jamoaviylikka tayanadigan sharqona madaniyat vakili bo‘lgani uchun, undagi "til" va "tish" ishtirokidagi maqollar ko‘proq **andisha, jamoat oldidagi mas’uliyat va sabr-toqatga** yo‘naltirilgan. Ingliz paremiyalarida esa ko‘proq **individual chegara, shaxsiy huquq va ratsionallik** ustunlik qiladi.

"Til" va "tish" somatizmlari asosidagi ingliz va o‘zbek xalq maqollarining leksik-semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson tanasining biologik tuzilishi, fiziologik funksiyalari va jismoniy sezgilari tillardagi ko‘chma ma’nolar hamda konseptual metaforalar tizimini yaratishda universal poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Antropotsentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashganda, inson atrof-muhitni o‘z tana a’zolari prizmasi orqali his qiladi va baholaydi. Biroq, tadqiqotlarimiz tasdiqlaganidek, har bir xalq ushbu universal biologik poydevor ustiga o‘zining milliy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy va axloqiy qadriyatlar binosini quradi.

Tahlillar jarayonida ushbu ikki somatizmning maqollar tarkibida mutlaqo o‘ziga xos va tizimli semantik maydonlarni hosil qilishi aniqlandi:

- **"Til (Tongue)" somatizmi** har ikki tilda ham ijtimoiy muloqot, nutq madaniyati va so‘zning jamiyatdagi qudratli kuchi bilan bog‘lanadi. U ham bunyodkorlik (shirinso‘zlik, murosa), ham vayronkorlik (g‘iybat, yolg‘on, andishasizlik) kabi ikki qutbli (bipolyar) semantik xususiyatga ega. O‘zbek paremiyalarida til ko‘proq ma’naviy andisha va jamoat oldidagi mas’uliyat bilan bog‘lansa, ingliz paremiyalarida u shaxsiy munosabatlar va ratsional muloqot o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi.
- **"Tish (Tooth/Teeth)" somatizmi** esa ko‘proq biologik va individual xususiyatlarni — insonning yoshi, jismoniy quvvati, sabr-toqati, himoyalanish darajasi yoki tajovuzkorligini

ifodalashga xizmat qiladi. U hayotiy sinovlar oldidagi qat'iyatlilik va murosasizlik ramzi sifatida har ikki xalq dunyoqarashida o‘xshash semantik modellarga ega.

Maqollardagi somatik kodlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat ikki tilning boy leksik-frazeologik tarkibini chuqurroq tushunishga, balki ingliz va o‘zbek xalqlarining olamni va inson tabiatini qanday mantiqiy qoliplar orqali anglaganini ilmiy jihatdan ochib berishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va paremiologiya sohalari uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, olingan xulosalardan ikki tilli lug‘atlarni tuzishda, badiiy tarjima jarayonida frazeologik muqobillarni to‘g‘ri tanlashda hamda ingliz va o‘zbek tillarini xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasida amaliy qo‘llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Rahmatullayev, Sh. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Karomatova, K. M., & Karomatov, H. S. *Proverbs — Maqollar — Poslovitsi.* – Toshkent: Mehnat, 2000.
4. Kunin, A. V. *Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika.* – Moskva: Visshaya shkola, 1996.
5. Yusupov, U. Q. *Contrastive Linguistics of the English and Uzbek Languages (Ingliz va o‘zbek tillarining qiyosiy tilshunosligi).* – Toshkent: Akademnashr, 2013.

**UO'K: 821.512.133-1:82.091**

## HOFIZ XORAZMIY DEVONIDAGI "NAVO" RADIFLI G‘AZAL POETIKASI: QIYOSIY ADABIY-NAZARIY TAHLIL

***N.U.Maqsudova, o‘qituvchi, Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi, Buxoro***
***https://orcid.org/0009-0009-2098-9753***

***Annotatsiya.*** *Maqolada Hofiz Xorazmiy devonidagi "navo" radifli yetti baytlik g‘azal matniy va qiyosiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda "navo" radifining ko‘pma'noliligi, uning g‘azal badiiy tuzilishi va semantik rivojidagi funksiyasi ochib beriladi. Radifning kuy, jon, fayz, ravnaq, nola va so‘z kabi ma'no qatlamlari tahlil qilinib, la'l, to‘ti–shakar, gul-bulbul va gulshan obrazlari Alisher Navoiy, Lutfiy, Hofiz Sheroziy hamda Sakkokiy ijodi bilan qiyoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hofiz Xorazmiy, g‘azal, radif, navo, polisemiya, qiyosiy tahlil, la'l, gul-bulbul, husni ta'lil, tasavvufiy ramz.*

***Аннотация.*** *В статье проводится текстологический и сравнительно-теоретический анализ семибейтной газели из дивана Хафиза Хорезми с редифом «наво» (напев, голос). Рассматриваются многозначность редифа и его роль в художественно-семантической организации газели. Значения «наво» — напев, душа, благодать, расцвет, стенание и слово — анализируются в связи с образами рубиновых уст, попугая и сахара, розы и соловья, цветника, которые сопоставляются с традициями Алишера Навои, Лутфи, Хафиза Ширази и Саккаки.*

***Ключевые слова:*** *Хафиз Хорезми, газель, редиф, наво, полисемия, сравнительный анализ, рубин, роза и соловей, хусн ат-таълил, суфийский символ.*

***Annotation.*** *This article presents a textual and comparative-theoretical analysis of a seven-couplet ghazal from Hafiz Khorezmi's divan with the radif "navo" (melody/voice). It examines the polysemy of the radif and its role in the ghazal's artistic and semantic structure. Its meanings — melody, soul, grace, flourishing, lament and word — are analyzed, while the images of the ruby lip, parrot and sugar, rose and nightingale, and rose-garden are compared with the traditions of Alisher Navoi, Lutfi, Hafiz Shirazi and Sakkaki.*

***Keywords:*** *Hafiz Khorezmi, ghazal, radif, navo, polysemy, comparative analysis, ruby, rose and nightingale, husn al-ta'lil, Sufi symbol.*

**Kirish.** Hofiz Xorazmiy XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan va Alisher Navoiygacha bo‘lgan turkiy mumtoz lirika taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan shoirdir. Uning yagona devon qo‘lyozmasi 1975-yilda professor Hamid Sulaymonov tomonidan Hindistonning Haydarobod shahridagi Salorjang muzeyi sharq qo‘lyozmalari xazinasidan aniqlangan.

Manbalarga ko‘ra, devonda 1052 g‘azal, 9 qasida hamda muxammas, tarkibband, tarji'band, ruboiy va qit'a kabi janrlardagi asarlar mavjud bo‘lib, umumiy hajmi 18 632 baytni tashkil etadi.

Shoir tilining soddaligi, ravonligi va xalq tiliga yaqinligi, shuningdek, Xorazm shevasiga xos unsurlar uning lirikasiga o‘ziga xos ohangdorlik va samimiylik baxsh etadi.

Mumtoz g‘azal poetikasida radif, qofiya va markaziy obraz asarning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim vositalardir. Shu nuqtai nazardan, maqolada Hofiz Xorazmiy devonidagi “navo” radifli yetti baytlik g‘azalning matniy va qiyosiy-nazariy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi “navo” radifining ko‘pma’noliligi hamda uning g‘azal kompozitsiyasi va semantik rivojidagi funksiyasini ochib berish, shoir poetikasini Alisher Navoiy, Lutfiy, Hofiz Sheroziy va Sakkokiy ijodi bilan qiyoslashdan iborat.

Hofiz Xorazmiy ijodini ilmiy o‘rganish uning devoni XX asrning so‘nggi choragida aniqlangach boshlandi. Dastlab Hamid Sulaymonov devonni nashrga tayyorlab, kirish tadqiqotida shoir hayoti, devon tarkibi va matniy xususiyatlarini yoritdi [1]. Keyinchalik Recep Toparlı devonning tanqidiy-ilmiy matnini (inceleme–metin–tıpkıbasım) nashr ettirib, Hofiz Xorazmiy merosining turkologiya doirasida kengroq o‘rganilishiga zamin yaratdi [2]. Mo‘min Sulaymonov esa shoir lirikasining o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rnini tadqiq etgan [3]. Keyingi tadqiqotlarda Hofiz Xorazmiy g‘azaliyotining til xususiyatlari, leksik-uslubiy boyligi va obrazlar tizimi o‘rganilgan. Jumladan, gul-bulbul motivi va uning semantik hamda tasavvufiy talqinlariga oid tadqiqotlar shoir ijodini keng adabiy an’ana doirasida baholash imkonini beradi [4]. G‘azal janri, radif va qofiyaning badiiy vazifasi hamda mumtoz she’riy san’atlarga oid tadqiqotlar mazkur tahlilning nazariy asosini tashkil etadi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi**. Tadqiqotda matniy-poetik, qiyosiy-tipologik va germenevtik yondashuvlardan uyg‘un foydalanildi. Matniy-poetik tahlilda g‘azal baytlarining leksik-badiiy xususiyatlari, radif, qofiya, vazn hamda tashbeh, istiora, tajnis va husni ta’lil kabi san’atlar, shuningdek, “navo” radifining semantik o‘zgarishi o‘rganildi. Qiyosiy-tipologik yondashuv asosida la’l, to‘ti–shakar, gul-bulbul, guliston, may–bazm obrazlari Alisher Navoiy, Lutfiy, Hofiz Sheroziy va Sakkokiy ijodidagi an’anaviy obrazlar bilan mazmuniy-funksional jihatdan qiyoslandi. Germenevtik talqin orqali obraz va ramzlar madaniy-tarixiy hamda tasavvufiy kontekstda sharhlanib, g‘azaldagi dunyoviy ishq va ma’naviy-irfoniy ma’no qatlamlarining o‘zaro munosabati tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar**. Tahlilga tortilgan g‘azal matni quyidagicha (transliteratsiya yengil me’yorlashtirilgan holda keltiriladi):

*La’l-i labindin topar har nafas jon navo,*
*To‘tiyg‘a doim berur chun shakariston navo.*
*Qayda tutar erdi rang tosh ila tog‘ bag‘rida,*
*Topmasa xurshiddin la’l-i Badaxshon navo.*
*Yorsizin benavo bo‘lsam, emasdur g‘arib,*
*Chunki jahonda kishi topmadi bejon navo.*
*Aks-i jamoli aning tushkali gulshan aro,*
*Topti yuzindin base bog‘u guliston navo.*
*Yuzin ko‘rub fig‘on chaksaman, ul ayb emas,*
*Chunki qilur gul ko‘rub bulbul-i nolon navo.*
*So‘zlasaman qilma ayb vasl maqomindaki,*
*Yoz chog‘ida qilur murg‘-i xush-alhon navo.*
*Hofizo, topqay edim jon tilagini ravon,*
*Etkurur ersa manga shoh-i suxandon navo.*

Birinchi bayt g‘azalning asosiy ma’no maydonini belgilaydi. Shoir ma’shuqa labini la’lga qiyoslab, undan oshiq joniga “har nafas” navo — hayotbaxsh ohang va jon quvvati yetishini ta’kidlaydi. To‘ti–shakariston obrazi bu mazmunni kuchaytiradi: shakar to‘tiga shirin so‘z va sayrash quvvatini bergani kabi, ma’shuqa labi ham oshiqqa so‘z va jon ato etadi. Shu tariqa “navo” ovoz, kuy va jon ma’nolarini uyg‘unlashtiradi. Ikkinchi baytda la’l obrazi kosmik miqyosda rivojlantirilib, husni ta’lil san’atidan foydalaniladi. Badaxshon la’lining tog‘ bag‘rida rang va jilo topishi xurshiddan keladigan “navo” — fayz, ne’mat va kamol bilan izohlanadi. Bu o‘rinda “navo” ovozdan ne’mat, jilo va kamolot ma’nolariga ko‘chadi. La’l–quyosh munosabati birinchi baytdagi lab–oshiq munosabatining majoziy davomidir.

Uchinchi baytda **benavo–bejon** birliklari orqali so‘z o‘yini yuzaga keladi. “Benavo” navosiz, shuningdek, notavon yoki baxtsiz ma’nolarini anglatadi. Yorsiz qolgan oshiqning benavo bo‘lishi tabiiy, chunki “bejon” kishi navo topa olmaydi. Demak, yor — oshiqning joni, undan ayrilish esa hayot ohangidan ayrilish bilan teng. “Jon navo” va “bejon navo” birliklarining o‘zaro bog‘lanishi g‘azalning ichki semantik halqasini yuzaga keltiradi. To‘rtinchi baytda tasvir maydoni gulshan, bog‘ va gulistonga ko‘chadi. Ma’shuqa jamolining aksi tushishi bilan tabiat undan “navo” — ravnaq, tarovat va hayotiy quvvat topadi. Mumtoz poetik an’anadagi ma’shuq husnining tabiatga ta’siri bu baytda tabiatning ma’shuqa jamolidan jonlanishi orqali ifodalanadi.

Beshinchi baytda oshiqning fig‘oni uzr orqali asoslanadi: ma’shuqa yuzini ko‘rib nola qilishi ayb emas, chunki bulbul ham gulni ko‘rganda navo qiladi. Gul–bulbul juftligi ma’shuq–oshiq munosabatini ifodalab, “navo” bulbul nolasi va ishqiy iztirob ovozi ma’nosini kasb etadi. To‘ti bilan boshlangan qushlar silsilasining bulbul orqali davom ettirilishi g‘azal kompozitsiyasidagi ichki bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Yakuniy baytda shoir “Hofiz” taxallusini qo‘llab, g‘azalni metapoetik yakunga olib keladi. Shoh-i suxandon — so‘z mulkining sultoni, go‘zal so‘zli ma’shuq, homiy yoki ilohiy kalom sohibi — navo, ya’ni so‘z, ilhom va iltifot yetkazsa, shoir “jon tilagi”ga erishishini bildiradi. Shu tariqa “navo”ning so‘nggi ma’no qirrasi — so‘z, balog‘at va ilhom yuzaga chiqadi. To‘ti va shakar obrazlarining suxandonlik g‘oyasi bilan tutashishi g‘azalni she’riy so‘zning o‘zi haqidagi metapoetik talqinga olib keladi. Tahlil natijasida “navo” radifining ko‘pma’noliligi g‘azal yaxlitligini ta’minlovchi asosiy vosita ekani ko‘rinadi. Radif baytlar davomida kuy va jon → fayz va kamol → hayot ohangi → ravnaq va tarovat → bulbul nolasi → qush sayrashi va visol shodligi → so‘z va ilhom kabi semantik qatlamlarda rivojlanadi. Bu semantik harakat g‘azalga bir mavzuning turli “maqom”larda yangrashi kabi musiqiy taraqqiyot xususiyatini beradi. La’l silsilasi (lab-la’l → Badaxshon la’li) va sayroqi qushlar silsilasi (to‘ti → bulbul → murg‘) ham radifning mazmuniy rivojini ta’minlaydi.

**Muhokama.** To‘ti–shakar, gul-bulbul, la’l-i Badaxshon va gulshan obrazlari turkiy va forsiy mumtoz she’riyatning umumiy poetik “lug‘ati”ga mansub. Alisher Navoiy ijodida bulbulning gulga oshuftaligi dunyoviy va ilohiy ishq ramzi sifatida qo‘llanadi; Lutfiy g‘azaliyoti gul-bulbul tasvirlari va musiqiyligi bilan, Hofiz Sheroziy lirikasida esa bulbul nolasi, may va bazmning rindona talqini bilan ajralib turadi [6]. Sakkokiy mazkur an’anani Temuriylar saroyi muhitida davom ettirgan. La’l-i Badaxshonning quyoshdan rang olishi haqidagi husni ta’lil ham forsiydan turkiy she’riyatga o‘tgan barqaror poetik toposdir. Demak, Hofiz Xorazmiy obrazlarni umumiy mumtoz an’ana zaminida qo‘llaydi [7].

Shoir individualligi obrazlarni tanlashdan ko‘ra, ularni uyushtirish usulida namoyon bo‘ladi. U g‘azalni polisemantik “navo” radifi atrofida qurib, uning semantik tovlanishini izchil poetik rivojga aylantiradi. Obrazlarning ixchamligi, tilning soddaligi va xalq ohangiga yaqinligi tasvirlarga samimiy, qo‘shiqsimon tus beradi [8]. Maqta’dagi metapoetik yakun esa ishq mavzusini so‘z va ilhom bilan bog‘laydi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda Hofiz Xorazmiy devonidagi “navo” radifli g‘azal matniy va qiyosiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni ko‘rsatdi:

1. “Navo” radifining ko‘pma’noliligi g‘azalning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi. Radif baytlar davomida kuy, jon, fayz, ravnaq, nola va so‘z kabi ma’nolarni ifodalab, asarning semantik-musiqiy birligini shakllantiradi.
2. To‘ti–shakar, gul-bulbul, la’l va gulshan kabi an’anaviy obrazlar ixcham va o‘zaro bog‘langan holda qo‘llanib, la’l va sayroqi qushlar silsilasi orqali yagona obrazlar tizimini hosil qiladi.
3. Maqta’da ishq mavzusining so‘z va ilhom tushunchalari bilan bog‘lanishi g‘azalga metapoetik yakun beradi va Hofiz Xorazmiyning individual poetik xususiyatini namoyon etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Sulaymonov H. Hofiz Xorazmiy. Devon. I kitob. — Toshkent: O‘zbekiston KP MK nashriyoti, 1981.-B. 3–15.
2. Toparlı R. Harezmli Hâfız’ın Dîvânı (İnceleme–Metin–Tıpkıbasım). — Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1998. — 775 s.
3. Sulaymonov M. Hofiz Xorazmiy va o‘zbek lirik she’riyatining rivoji: filol. fan. nomz. ... dis. — Toshkent, 1996. — 160 b.

4. Madaliyeva M. Turkiy mumtoz she'riyatda "gul-bulbul" motivi va uning semantik qatlamlari // O'zbek tili va adabiyoti. — 2021. — № 3. — B. 45–58.
5. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. — Toshkent: Sharq, 1998. — 103 b.
6. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. — Toshkent: O'zbekiston, 2014. — 105 b.
7. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy // Mukammal asarlar to'plami: 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 1988–2003.
8. Rypka J. History of Iranian Literature. — Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1968. — 928 p.

**UO'K 821.512.133.09**

## "XATAR DARVOZASI" ROMANIDA JURNALIST RUHIYATINING BADIIY TALQINI

***G.T.Malikova, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada yozuvchi Qulman Ochilning "Xatar darvozasi" romanidagi bosh qahramon – jurnalistning ijtimoiy-siyosiy tizimda boshdan kechiradigan ruhiy-emotsional evrilishlari, burch va vijdon masalalari, kasb mas'uliyati va kezi kelganda pushaymonlik hissi badiiy hamda psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarning bosh qahramoni Chori Xalil obrazi orqali fidoyi qalamkashning ichki dunyosi, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurashi hamda psixologik jihatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar****: Chori Xalil, Elkezar, maxsus muxbir, muharrir, jurnalist obrazi, felyetin, badiiy-psixologik tahlil, timsol, kasb mas'uliyati, konsepsiya,*

***Аннотация.*** *В данной статье с художественной и психологической точек зрения анализируются духовно-эмоциональные трансформации главного героя — журналиста, вопросы долга и совести, профессиональная ответственность, а также чувство раскаяния в романе писателя Кулмана Очила "Xatar darvozasi" ("Врата опасности"). На примере образа главного героя Чори Халила раскрываются внутренний мир самоотверженного публициста, его борьба с социальной несправедливостью и психологические аспекты его личностию*

***Ключевые слова.*** *Чори Халил, Элькезар, специальный корреспондент, редактор, образ журналиста, фельетон, художественно-психологический анализ, символ (образ), профессиональная ответственность, концепция.*

***Abstract.*** *This article provides an artistic and psychological analysis of the socio-political system through the spiritual and emotional transformations, issues of duty and conscience, professional responsibility, and moments of regret experienced by the main protagonist – a journalist – in Qulman Ochil's novel "Xatar darvozasi" ("The Gate of Danger"). Through the character of the main protagonist, Chori Khalil, the inner world of a dedicated writer, his struggle against social injustice, and his psychological aspects are revealed.*

***Key words:*** *Chori Khalil, Elkezar, special correspondent, editor, portrayal of a journalist, feuilleton, artistic-psychological analysis, symbol, professional responsibility, concept.*

**Kirish.** Zamonaviy o'zbek nasrida jurnalist obrazining talqini va uning psixologik qatlamlarini tadqiq etish adabiyotshunoslikning eng dolzarb va muhim yo'nalishlaridan biridir. Boisi, avvalo bu boradagi ilmiy izlanishlar kam, deyarli tadqiq etilmagan, shuningdek, badiiy asarlardagi jurnalist obrazi xoh bosh qahramon, xoh kichik personaj bo'lsin ma'lum bir davr muammolari, poraxo'r-u "olg'ir" amaldorlarning kirdikorlari, tuzumdagi salbiy illatlar, insonlar turmushidagi kam-ko'stlar, mazlumlarning dilidagilarni ochib berishga va ularga yechim topishga xizmat qiladi. Qulman Ochilning "Xatar darvozasi" romanida ham ayni shunday: hamyurtlari taqdiriga befarq qarayolmaslik, zolim mansabdor sabab zug'um ko'rgan va ko'rayotgan insonlar uchun bor kuchini sarflab, turli tahdidlarga qaramay haqiqat yo'lida jasorat bilan harakat qilish vazifasi – "Jumhuriyat" gazetasi maxsus muxbiri Chori Xalil chekiga tushgan edi. Ushbu obraz orqali o'sha davrning haqiqiy fidoyi, adolatparvar va insoniy mas'uliyati yuqori bo'lgan chin kasb egalari hayoti, xarakteri va psixologik holati ochib berilgan. Yozuvchi jurnalist Chori Xalil misolida kasbiy burch hamda shaxsiy ma'naviy mas'uliyat o'rtasidagi murakkab psixologik ziddiyatlarni yuqori badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Asarda jurnalistik mas'uliyat faqatgina voqea-hodisalarni xolis yoritish bilan cheklanib

qolmasdan, balki insonlar taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini ham talab etishi qahramon-jurnalistning o‘y-xayollari, ichki kechinmalari orqali chiroyli tasvirlangan.

**Metodlar.** Tadqiqot jarayonida adabiyotshunoslik va ilmiy-tahliliy metodlarning matniy-badiiy, psixologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Chori Xalil obrazining badiiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, romanda, avvalo, jurnalistning ham tashqi ko‘rinishi, ham ichki dunyosi tomonlama kasbiy qiyofasi ochib berilganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, Chori Xalil "Jumhuriyat" gazetasi bosh muharriri Orif Egamberdi tomonidan tanlab olingan yagona va ishonchli "maxsus muxbir" edi. Tashqi ko‘rinishi va kiyinish uslubi o‘ta sodda bo‘lib, moddiy boylikka intilmaslik va halollik hayotiy mezoniga aylangan Chori Xalilning xarakteri ham boshqalarnikidan ayricha: *"Chori Xalil yana yo‘lga tushdi, yurt kezishni yaxshi ko‘rsa, nima qilsin! Imkon tug‘ildi deguncha odmigina kiyinib, qanshariga oynasi kamalak jilvali ko‘zoynagini qo‘ndirib, yelkasiga urinibroq qolgan sumkasini ilib erkin qush kabi qanot qoqsa, vodiylar-u vohalardan oshsa, shahar-qishloqlar-u ovullarda, tog‘-u toshlarda tunasa. Qo‘shnisidan boshqa hech kim tanimaydigan odamlar haqida esse yozsa, yozaversa. Sumkasidan daftar-qalami, daftar-qalamining yonidagi kitobdan xatcho‘pi arimasa. U kirolmagan eshik, suhbatini ololmagan inson bo‘lmasa. Tilini topsa!"* Romandagi ushbu parchaning o‘ziyoq haqiqiy jurnalistlarga xos tabiatning, xalq orasida yuruvchi mashhur "Jurnalistni oyoqlari boqadi", degan iboraning yaqqol aksidir. Choriboy O.Egamberdi ta'riflagandek, dadil yigit, lafzi halol. Qalami durust, qonun-qoidani yaxshi biladi [1.2.].

Shuningdek, u ayni mana shu dunyo kezishni yoqtirishi sabab gazetada o‘ziga xos adabiy taxallusga ham ega bo‘lgan – "Elkezar". *"Elkezarlik – uning o‘smirlikdan ardoqlab kelayotgan orzusi. Gazetadan berilgan guvohnomasiga ham adabiy taxallusi "Elkezar" deb darj etilgan!"* [1.1.]

Asarni o‘qish davomida turli ruhiy iztiroblar, badiiy-psixologik ziddiyatlarga ham guvoh bo‘lamiz. Jumladan, jurnalist Toshbibi Musayeva (Dog‘ulining ayoli) va uning kasal o‘g‘lining ayanchli taqdiriga duch kelib, ushbu oilaning xarobadagi surgunlik hayoti hamda "Dog‘uli"ning zulmini ko‘rib, ularga tezkor yordam bera olmaganidan ruhan eziladi, o‘zi yotoqxonada istiqomat qilsa-da ularni Toshkentga olib ketmoqchi, yaxshiroq sharoitda yashashlariga ko‘maklashmoqchi bo‘ladi. Aslida real hayotda ham o‘zini haqiqiy jurnalistman, deb sanaganlar yetti yot begona bo‘lsa-da, zulm qurbonlari, ko‘makka muhtoj mazlumlar va muammolar qurshovida qolgan nochorlar hayotiga befarq qaray olmaydi. Chori Xalil ham ana shunday jurnalistlardan edi. Ammo muxbirlarga xos qiziqqonlik, tezkorlikka intilish zavqi va shov-shuvli maqola yozish istagi ba'zan uni ham yo‘ldan ozdirar edi – jabrlanuvchilarning xavfsizligidan ko‘ra tezroq maqolasi yoki felyetonini chop ettirishni afzal biladi. Maqola chop etilgach, Toshbibi va uning o‘g‘li bir kechada izsiz yo‘qolganlarini bilgach, o‘zini muqarrar fojia sababchisi sifatida his etadi va og‘ir ruhiy iztirobga tushadi.

Bundan tashqari, armiyada o‘z xohishiga ko‘ra desantchilar bo‘limi xizmatiga kirgan, umrida na parashyut ko‘rgan, na samolyotda uchgan, na osmondan sakragan jurnalist uchun Afg‘on zaminidagi urush ham qalbida juda og‘riqli iz qoldiradi. "Go‘yo sho‘ro harbiylari qo‘shni mamlakatga qon to‘kish uchun yuborilmagan, Afg‘oniston xalqi o‘tinib so‘ragan do‘stona yordam, jabrdiyda yurt inqilobiy yutuqlarining himoyasi, baynalmilal burch" [1. 28.] uchun urushga kirgan *"Chori Xalil ancha vaqt o‘zini tubsiz pulsirotning o‘rtasida turgandek his qiladi. Qilko‘prikki, bir-biridan tobora uzoqlashib borayotgan ikki olamni chor-nochor bog‘lagan. Erka ko‘nglidagi havoyi orzulari, hayajoni, sarkashliklari, xo‘roz qiliqlari unutilib, yosh umrining omonatligini anglab yeta boshlaydi. Xayollaridagi mudroqlik, orqayinlik ketib, hech kimdan najot kutmaslikka odatlanadi. O‘lish va o‘ldirish xavfi, vahimasi, asorati toliqtirib, yuragi toshday qotmoqqa tushadi. Insonning pashshachalik qadri yo‘qligini ko‘radi."* [1.30.]

Chori Xalil harchand jasoratli, cho‘rtkesar bo‘lmasin, bepusht ayolining javobini berishga juda qiynaladi, bir tomondan xotini Taxminaning ko‘ngliga ozor yetkazishni istamaydi, lekin buni deb o‘zi bir umr farzandsiz o‘tolmasligini o‘ylab ikki o‘t orasida qoladi go‘yo.

Xullas, ko‘p sinovlarni – urushni ham, farzandsizlikni ham, felyeton yozib, "Dog‘uli"ning odamlari tomonidan kaltaklanib, chalajon, o‘larman ahvolda shifoxonada uch oy davolanishni ham boshdan kechirgan jurnalist asar yakunida o‘zi kutgan yorug‘ kunlarga yetadi: *"Og‘ir xatardan qutulgan odamday darvozadan yengil tortib chiqqan maxsus muxbir Chori Xalil o‘zida qadimiy*

*Chimkent sayriga moyillik sezdi. Qattiq sovuqning zahridan keyin boshlangan eruvchanlik va iliq havoning tafti gashti tuyulib, shahr oralab ketdi. Yurt kezishni yaxshi ko'rsa, nima qilsin!"* [1.109.] Chindan bosh qahramon hayotining ayozli, qahraton kunlaridan keyin, o'zi kutgan yorug' damlarga yetib kelgan edi. Ammo bu davr ichida undan anchagina jasorat, chidam va sabr talab etildi.

**Muhokama.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yozuvchi Qulman Ochil jurnalist obrazini biryoqlama ijobiy yoki ideal qahramon sifatida emas, balki jonli, xatoga yo'l qo'yadigan, ikkalanadigan va ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan haqiqiy shaxs sifatida gavdalantirgan. Chori Xalil o'z maqolasi orqali jamiyatdagi "mafiya" va adolatsizlikni oshkor qilish hamda kasbiy e'tibor qozonish ketidan quvib, haqiqiy yordamga muhtoj chorasiz insonlarni jiddiy xatarda qoldirgani gapimizning yaqqol isbotidir. Muallif ushbu vosita orqali jurnalistning kasbiy muvaffaqiyati va insoniy mas'uliyati o'rtasidagi o'ta nozik chegarani ochib beradi. Qahramonning "Men faqat maqola yozish uchun emas, inson taqdiriga daxldor bo'lishim kerak edi" degan xulosaga kechikib bo'lsa-da, yetib kelishi asarning psixologik ta'sirchanligini hamda badiiy qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

**Xulosa.** Qulman Ochilning "Xatar darvozasi" romanidagi Chori Xalil obrazi zamonaviy o'zbek adabiyotida adolat va vijdoniylik timsoli sifatida shakllangan murakkab obrazdir. Asardagi badiiy-psixologik tahlil shuni ko'rsatadiki, jurnalistlik kasbi faqatgina axborot yig'ish yoki muammoni jamiyatga yoritib berishdan emas, balki har bir so'z va xatti-harakat uchun shaxsiy hamda ma'naviy mas'uliyatni chuqur his etishni talab qiladi. Chori Xalilning ichki iztiroblari va vijdon azobi o'quvchida chuqur emotsional va ma'naviy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, asarda Chori Xalil obrazi orqali o'sha davr jurnalistlariga xos chizgilar – jurnalist deganning toychoqday gijinglab turganini ko'rish mushkulligi, hammasining rangida qoni yo'qligi-yu, qachon qarasang, barining sillasi qurigani, Qalam ahliga maosh qo'ldan-qo'lga o'taverib, kir bosib, ilvirab ketgan uchtalik, nari borsa beshtalik pulda berilishi ochiq-oydin tasvirlab berilgan. Ayniqsa, asarning ijodga moyillik muhtojlikdan, haqiqatga tashnalikdan tug'ilishi haqidagi g'oyalari ham ayni paytda dolzarbdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ochil, Qulman. *Xatar darvozasi. Roman.* – Toshkent: "Sharq yulduzi". 2026/1.

2. Go'zal Tursunpo'latovna, M. (2025). Badiiy adabiyotda jurnalist obrazini yaratish. Zamonaviy dunyo ta'limi: yangi davr muammolari - yangi yechimlar, 2 (2), 43-47. https://incop.org/index.php/mo/article/view/968

3. https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/download/2474/3938/4778

4. Теория литературы: Учебник/В. Е. Хализев. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: Высш. шк., 2004. 405 с.

5. Бахтин М. Автор и герой в эстетической деятельности. Предисловие С. Бочарова / М. Бахтин, С.Г. Бочаров // Вопросы литературы. - 1978 - №12. - С. 269-310.

**UO'K 821.512.133.09**

## MAHMUD ZAMAXSHARIY ASARLARI – SAJ' JANRINING YUKSAK BADIIY NAMUNALARI

***O.O. Mahmudova, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent***
***https://orcid.org/0009-0006-2004-7457***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning arab nasri taraqqiyotida muhim o'rin tutgan asarlari saj' janri nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Xususan, allomaning "Maqomot az-Zamaxshariy" va "Navobig' al-kalim" kabi asarlarida saj'ning qo'llanish usullari, uning badiiy-estetik hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Mahmud Zamaxshariy, saj' janri, qofiyali nasr, arab nasri, badiiy uslub, Navobig' al-kalim, Maqomot az-Zamaxshariy.*

***Аннотация****. В данной статье произведения Махмуда аз-Замахшари, занимающие важное место в развитии арабской прозы, рассматриваются с точки зрения жанра садж'. В частности, анализируются способы использования садж'а в таких произведениях ученого, как «Макамат аз-Замахшари» и «Навабиг аль-калим», а также их художественно-эстетические и стилистические особенности.*

***Ключевые слова:*** *Махмуд аз-Замахшари, жанр садж', рифмованная проза, арабская проза, художественный стиль, «Навабиг аль-калим», «Макамат аз-Замахшари».*

***Abstract.*** *This article examines the works of Mahmud al-Zamakhshari, which occupy an important place in the development of Arabic prose, from the perspective of the sajʿ genre. In particular, the study analyzes the methods of using sajʿ in the scholar's works such Maqamat al-Zamakhshari, and Nawabigh al-Kalim, as well as their artistic, aesthetic, and stylistic features.*

***Keywords:*** *Mahmud al-Zamakhshari, sajʿ genre, rhymed prose, Arabic prose, literary style Nawabigh al-Kalim, Maqamat al-Zamakhshari.*

**Kirish:** Mahmud Zamaxshariy "Maqomot az-Zamaxshariy" va "Navobig' al-kalim" kabi asarlaridagi maqom va maqolalarni yozishda VIII-IX asr arab she'riyatidan kuchli ta'sirlangan. Xususan, U arab adabiyot namoyondalari al-Johiz, Ibn Qutayba, Ibn Hilol, al-Amidiy, al-Jurjoniy va boshqalar kabi taniqli shaxslarning asarlarini yaxshi bilgan[1:5]. Shuningdek, Rashiduddin Votvot "Risolalar"i, Mahmud Zamaxshariy "Navobig' al-kalim", "Maqomot" kabi asarlarini yozishda Ibn Ubaydning nasrdagi uslubini davom ettirishgan. Ular ham arab badiiy san'at turlaridan madh, faxr, hijo, shaqvo, ta'ziya kabi usullarni qo'llashgan. Yuqorida nomi kelgan Mahmud Zamaxshariyning asarlari arab nasrchiligining eng go'zal va yorqin namunasi – saj' uslubida yozilgan. Hind Husayn Toho ham o'z asarida Xorazm adabiyotining o'ziga xosligiga o'sha zamon adiblarining ijodida saj' uslubidan foydalangani ekanligini ta'kidlaydi [2:352]. Maqomlarda saj' masalasini o'rgangan M. Saydumarov o'rta asr arab nasri o'rta asrlardan to hozirgi kungacha adabiy jarayonlariga ta'siri katta ekanligini ta'kidlab, X-XII asrlarni umuman arab adabiyotining va xususan, arab nasrining rivojlanishidagi bosqichlar davri deb atash mumkinligini qayd etgan [3:3]. X-XII asr Xorazm adabiyotida nasr yo'nalishida yaratilgan asarlar ikki turga bo'lingan: ilmiy va adabiy. Mahmud Zamaxshariy tomonidan pand nasihat ruhidagi asarlari adabiy nasr namunalari sifatida ko'rish mumkin. Ilmiy nasrga esa o'sha davrda yaratilgan aniq va tabiiy fanlarda yaratilgan asarlar misol bo'ladi.

**Asosiy qism:** Arab filologiyasida "saj'" istilohi nasriy nutqning bo'laklarga bo'lingan ularning oxiriga o'zaro qofiyalanuvchi so'zlar qo'yiladigan turini ifodalaydi. Saj (السجع) – shoirona, qofiyali gapirish ma'nosida bo'lib, jumla bo'laklarining oxirini bitta harfga moslab keltirishdir. Shu boisdan saj'ni "qofiyalangan nasr" deb atash qabul qilingan. "Saj'" arabcha istilohining negizi islomgacha va yozuv paydo bo'lgan davrga borib taqaladi. Islomgacha bo'lgan davr arab adabiyoti esa asosan nazmiy shaklda bo'lsa-da, rus filologi B.Ya.Shidfarning ta'kidlashicha, saj'-arablarda islomgacha bo'lgan davrdagi duolarda bitilgan badiiy so'z san'atini tashkil etishning eng qadimgi shakllaridan biridir [4:89]. D.V.Frolov klassik arab she'riyatining shakllanishi va rivojlanishiga bag'ishlangan maqolasida saj'ni qadimiy arablarda hali arabcha she'rning rivojlangan shakllari mavjud bo'lmagan paytdagi sodda, jo'n, she'r deb qarash lozim degan fikrni ilgari suradi [5:243-268]. O'rta asr arab adibi al-Johizning fikricha, saj'ning afzalligi ikki tomonlama bo'lib, u ham tinglash uchun yoqimli, ham oson eslab qolinadi[6:112].

Arab-musulmon an'anasida "qofiyalangan, biroq vazn jihatdan tartibga solinmagan nutq" degan tushunchani ifodalaydigan bu istiloh arablardagi ritmlashtirilgan nutqning o'ta qadimiy namunalarini ham, tuzilishiga ko'ra ulardan ancha farq qiluvchi X-XII asr yozma qofiyali nasrining namunalari, shu jumladan birinchi o'rinda maqol va maqomalarni o'z ichiga oladi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, "saj'" istilohini "qofiyali nasr" yoki "qofiyalangan nasr" deb tarjima qilish arablardagi tasavvurdan bir muncha farq qiladi. Ularning tasavvuriga ko'ra, badiiy nutq ikki qism - nazm va nasrga emas, balki uch qism - she'r (شعر), nasr (نثر) va saj' (سجع) larga bo'linadi. Shunday qilib, saj' - qofiyali nasr arablarda badiiy so'z san'atining eng qadimiy shakllaridan biridir [7:187]. Qofiya va vaznga asoslanadigan san'atlar orasida saj' qadimiy va arab va fors adabiyotida mashhur san'atlardan biridir. Arab olimlarning ko'pchiligi saj'ni nasrdagi qofiya sifatida baholashadi.

Balog'at ilmida saj'ning hosil bo'lishi uchun aynan tovushlar mutanosibligi zarur shart ekani hisobga olinib, badi' ilmining lafziy san'atlari qatorida o'rganiladi. Chunki saj'da so'zning tovush jihati e'tiborga olinadi, ma'nosi esa saj' san'ati hosil qilishda ishtirok etmaydi, ammo ayni vaqtda ma'no e'tiboriga ko'ra hosil bo'luvchi tavriya, tiboq, muqobala, husnu-t-ta'lil va boshqa san'atlardan biri yoki bir yo'la bir nechtasining hosil bo'lishida qatnashadi. Masalan, tadqiqotimiz ob'yekti bo'lgan "Navobig' al-kalim" dan olingan misoldagi "ashraf"-"ar'af" so'zlari kabi:

الاب اعرف و اشرف و الام اراف

Tarjimasi: Ota (farzandiga onaga nisbatan) muruvvatli va himmatli, ona (otaga nisbatan) mehr-muhabbatlidir. "Saj'-i mutarraf nobo'g'indosh ravishdosh lafzdoshlikdan iborat, ya'ni so'zlar vaznda va tovushlar sonida farq qiladi, lekin oxirgi harflari o'zaro mos bo'ladi". Bunga ham "Navabig'u-l-kalim" dagi "mamhud"-"fahud" so'zlar misol bo'la oladi:

و ناس لهم مضجع من الغفلة ممهود و يقل في اجفانهم السهود كانهم فهود

Tarjimasi: Bir toifa odamlar borki, ularning to'shaklari g'aflat beshiklariga obdon belangandir. Ularning qovoqlarida (ko'zlarida ma'nosida kelmoqda) bedorlik oz (kam) bo'ladiki, bamisoli qoplonlar singari.

Ushbu janrda yozilgan Mahmud Zamaxshariyning yana bir asari "Maqomat az-Zamaxshariy"dir. Qofiyali nasrda, ya'ni saj'da ikkita, uchta, gohida to'rtta jumla bir-biriga qofiyalanishi mumkin. Bunga Mahmud az-Zamaxshariyning "Maqomot az-Zamaxshariy" asaridan ham misol keltirish mumki:

"Ey Abu-l-Qosim, falak yulduzlarni harakatga keltiradi, ular gohida so'nadilar, gohida esa chaqnaydilar. ular bir-birlaridan uzoqlashadilar, ba'zida esa bir-birlariga yaqinlashadilar" [8:104]. Bu misoldan ko'rinib turibdiki, ikki juft so'z bir-biri bilan qofiyalangan bolib, ularning birinchisi مسخرة va مسيرة so'zlaridir. Ikkinchi juft esa تغرب va يقرب so'zlaridir. Uch marta qofiyalanishga esa quyidagi misolni keltirish mumkin:

يا ابا القاسم العمر قصير و الى هللا مصير فما هذا التقصير

"Ey Abu-l-Qosim, umr qisqadir va u Allohga tegishlidir, shunday ekan bunday qisqartirishning nima keragi bor" [8:15]. Bu yerda uchta jumla bir-biri bilan qofiyalanmoqda. Bunday qofiyalanish juda ham kam uchraydi. Bu jumlalarda قصير مصير va تقصيرso'zlari bir-biri bilan qofiyadoshdir. Saj'ning yana shunday ko'rinishi ham borki, unda to'rt jumla bir-biri bilan qofiyalangan bo'lib, uning birinchi jumlasi uchinchi jumla bilan, ikkinchi jumla esa to'rtinchi jumla bilan qofiyadosh.

يا ابا القاسم ان خصال الخير كتفاح لبنان
كيف ما قلبتها دعتك الى نفسها
و ان خصال السوءكحسك السعدان
انى وجهتها نهتك عن مسها

"Ey Abu-l-Qosim, yaxshilik xususiyati shundaki, u Lubnon olmasiga o'xshaydi. Uni qayerga tashlamagin, o'ziga seni tortadi. Yomonlik xususiyati Sa'donning tikanli o'tiga o'xshaydi. Uni qayerga tashlamagin, unga tegishing bilan senga ozor yetkazadi"[8:11]. Bu yerda " لبنان" so'zi " سعدان" so'zi bilan, " نفسها " so'zi esa "مسها" so'zi bilan qofiyadosh.

Zamaxshariy o'zining "Maqomot", "Navobig' al-kalim" va asarlarida saj' san'atidan yuksak mahorat bilan foydalanib, arab nasrining badiiy imkoniyatlarini yanada boyitgan. Ushbu asarlarda saj'ning mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlashdagi o'rni muallifning nafaqat iste'dodli adib, balki chuqur bilimga ega tilshunos va balog'at ilmi namoyandasi bo'lganini ham yaqqol ko'rsatadi. Shunday qilib, Zamaxshariyning saj' san'atiga oid ijodiy tajribasi uning arab adabiyoti va tilshunosligi tarixidagi yuksak mavqeini tasdiqlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Xulosa:** Mahmud Zamaxshariyning adabiy merosi saj' janrining yuksak badiiy namunalarini o'zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Allomaning "Maqomot az-Zamaxshariy" va "Navobig' al-kalim" kabi asarlarida saj' nafaqat matnning ohangdorligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi uslubiy vosita, balki muallifning axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy unsur sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Zamaxshariy saj'dan mohirona foydalanish orqali fikrning ravonligi, mazmunning aniqligi va badiiy ifodaning mukammalligiga erishgan. Saj'ning turli ko'rinishlari, lafziy va ma'naviy san'atlar bilan uyg'un holda qo'llanilishi asarlarning estetik qimmatini yanada oshirgan. Shuningdek, alloma asarlarida saj'ning mazmun va shakl mutanosibligini ta'minlashdagi o'rni yaqqol namoyon bo'ladi.

Demak, Mahmud Zamaxshariy arab adabiyotida saj' janrini yuksak darajada rivojlantirgan ijodkorlardan biri bo'lib, uning bu boradagi mahorati keyingi davr adabiy an'analarining shakllanishi va takomillashishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu jihatdan Zamaxshariyning saj' asosida

yaratilgan asarlari nafaqat o‘z davri, balki jahon adabiy merosining ham qimmatli namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Kankawi, Dr. Uthman Idrees. 2025. “The rhetorical styles of bayan in ‘Nawabighil - kalim’ by Sheikh al-Zamakhsharī: Habibia Islamicus (The . للشيخ الزمخشري "نوابغ الكلم كتاب في البيانية اللمسات International Journal of Arabic and Islamic Research) 9 (2).

2. هند حسين طه. الأدب العربي في إقليم خوارزم. بغداد: منشورات وزارة الإعلام. 1976

3. Saydumarov M. Haririy maqomlari o‘rta asr arab saj’i yodgorligi sifatida. Filol. fanlari nomzodi diss… T.:1985.

4. Shidfar B. Ya. Abu-l-Alya al-Maarri, Moskva, 1985.

5. Frolov D. V. K voprosu o stanovlenii i evolyusii arabskogo stixa, v knige, Problemi istoricheskoy poetiki literatur Vostoka. Moskva, Nauka, 1988.

6. Al-Johiz. Kitab al-bayan va-t-tabyin. Qohira, 1970. – J.1.

7. Ibragimov N.I. Arabskiy narodniy roman. Moskva: Nauka, 1984.

8. Mahmud Zamahshariy. Maqomot az-Zamaxshariy. Qohira, 1907.

**UO’K 81’373.48:81’42:82(512.133+410)**

## EVFEMIZMLARNING BADIIY MATNDA PRAGMATIK FUNKSIYALARI

***(G‘afur G‘ulom va Jerom K. Jerom ijodi misolida)***

***Z.E.Mirakhmedova, o’qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti, ToshkentORCID:*** *https://orcid.org/0009-0006-5180-4844*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada evfemizmlarning badiiy matnda bajaradigan pragmatik funksiyalari G‘afur G‘ulom va Jerom K. Jerom ijodi misolida qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot evfemizmlarning kommunikativ vazifalarini – odob-axloq normalarini saqlash, “yuzni himoya qilish”, ta’sir etish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi funksiyalarini – ikki xil madaniy-lingvistik muhitda qanday namoyon bo‘lishini o‘rganishga qaratilgan. O‘zbek va ingliz badiiy adabiyotidan olingan misollar asosida evfemizmlarning pragmatik tabiatini belgilovchi universal va madaniy-spetsifik omillar aniqlanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *evfemizm, pragmatik funksiya, badiiy matn, odob-axloq, “yuzni saqlash”, kommunikativ strategiya, qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot.*

***Аннотация.*** *В данной статье проводится сравнительный анализ прагматических функций эвфемизмов в художественном тексте на примере произведений Гафура Гуляма и Джерома К. Джерома. Исследование направлено на изучение коммуникативных функций эвфемизмов – таких как соблюдение норм вежливости, «сохранение лица», воздействие на адресата и регулирование социальных отношений – и их проявления в двух различных культурно-лингвистических средах. На основе примеров из узбекской и английской художественной литературы выявляются универсальные и культурно-специфические факторы, определяющие прагматическую природу эвфемизмов.*

***Ключевые слова:*** *эвфемизм, прагматическая функция, художественный текст, вежливость, «сохранение лица», коммуникативная стратегия, сравнительное языкознание, межкультурная коммуникация.*

***Abstract.*** *This article comparatively analyzes the pragmatic functions of euphemisms in literary texts based on the works of Gafur Ghulom and Jerome K. Jerome. The study focuses on examining the communicative roles of euphemisms–such as maintaining norms of politeness, “face-saving,” influencing the reader, and regulating social relations–and how these functions are manifested in two different cultural-linguistic environments. Based on examples from Uzbek and English literature, universal and culture-specific factors that determine the pragmatic nature of euphemisms are identified.*

***Key words:*** *euphemism, pragmatic function, literary text, politeness, face-saving, communicative strategy, comparative linguistics, intercultural communication.*

**Kirish.** Pragmatika tilshunoslikning bir sohasi sifatida so‘z va gaplarning faqat ma’nosini emas, balki ularning muloqot jarayonida qanday funksiya bajarishini ham o‘rganadi. Bu nuqtai nazardan evfemizmlar – yumshoqroq va nozikroq ifodalar orqali qo‘pol yoki noxush ma’nolarni yashiruvchi

til birliklari – pragmatik tadqiqotning markaziy ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Zero, evfemizmlar nafaqat nimani aytish, balki qanday va nima sababdan ma’lum bir tarzda aytish masalasini ham qamrab oladi.

Badiiy matn evfemizmlarning to‘liq pragmatik salohiyati namoyon bo‘ladigan muhim lingvistik muhitdir. Muallif badiiy matnda evfemizmlardan foydalanib, personajlarning ijtimoiy maqomi, psixologik holati, muloqot madaniyati hamda madaniy-milliy dunyoqarashini bilvosita ifodalaydi. G‘afur G‘ulom – o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi – va Jerom K. Jerom – ingliz adabiyotining mashhur vakili – o‘z asarlarida evfemizmlarni pragmatik jihatdan nihoyatda mahorat bilan qo‘llagan ijodkorlardir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, evfemizmlarning pragmatik funksiyalari alohida tillar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning qiyosiy-madaniy tahlili, xususan o‘zbek va ingliz badiiy adabiyoti misolida, hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy yangiligi ikki muallif asarlaridagi evfemizmlarning pragmatik funksiyalarini tizimli ravishda qiyosiy tahlil qilishda namoyon bo‘ladi.

**Adabiyotlar tahlili:** Evfemizmlarning pragmatik tabiati haqidagi ilmiy tadqiqotlar bir necha asosiy yo‘nalishda olib borilgan. Odob-axloq nazariyasini ishlab chiqqan tadqiqotchilar evfemizmlarni “yuzni saqlash” (face-saving) strategiyasining muhim vositasi sifatida talqin qiladi [1]. Bu nazariyaga ko‘ra, har bir inson muloqot jarayonida o‘zining va suhbatdoshining ijtimoiy obrazini (yuzini) saqlashga intiladi; evfemizmlar esa bevosita shu maqsadga xizmat qiluvchi pragmatik vositadir. Ushbu nazariy asos tadqiqotimizda G‘afur G‘ulom va Jerom K. Jerom asarlaridagi evfemistik birliklarni pragmatik jihatdan tahlil qilishning metodologik tayanchi bo‘lib xizmat qildi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi morfologik usulda hosil bo‘lgan evfemizmlarni tadqiq etgan olima ikkala tilda evfemizmlar yasalishining struktural mexanizmlarini ko‘rsatib, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi [2]. Ushbu tadqiqot morfologik usulda yasalgan evfemizmlarning pragmatik funksiyalari bilan bog‘liq tahlilimizga asos bo‘ldi.

Tog‘ay Murod asarlarida evfemizmlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rgangan tadqiqotchilar o‘zbek badiiy matni uchun xos evfemistik usullarni, xususan perifraza, metafora va yumshatish vositalarini tahlil qiladi [3]. Bu tadqiqot o‘zbek adabiy tilida evfemizmlarning pragmatik funksiyalarini belgilashda muhim manba bo‘ldi.

Kontseptual metafora nazariyasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlar til birliklari, jumladan evfemizmlar, ko‘pincha metaforik tafakkur asosida shakllanishini ko‘rsatadi [4]. Bu yondashuv evfemizmlarning semantik mexanizmlarini pragmatik funksiyalar bilan bog‘lash imkonini berdi. Madaniyatlararo kommunikatsiya va madaniy qadriyatlarni o‘rgangan olim turli madaniyatlarda muloqot strategiyalarining farqlanishini tahlil qilib, til birliklarining madaniy shartlanganligi haqida muhim xulosalar chiqaradi [5].

Metaforaning madaniy universal va madaniy-spetsifik jihatlarini qiyosiy o‘rgangan tadqiqotchi turli tillardagi metaforik ifodalar, jumladan evfemizmlar, ba’zan universal asosga ega bo‘lsa-da, ularning madaniy jihatlari sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi [6]. Bu nazariy holat tadqiqotimizda o‘zbek va ingliz evfemizmlarini qiyosiy tahlil qilishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Evfemizmlarning umumtilshunoslikdagi tadqiqini ko‘rib chiqqan olima evfemizmlarni o‘rganishning turli metodologik yondashuvlarini tizimli tarzda tahlil qilib, ularning pragmatik, semantik va kognitiv jihatlarini umumlashtiradi [7]. Ushbu tadqiqot evfemizmlar tabiatini chuqurroq tushunishda muhim manba sifatida foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Tadqiqotda pragmatik tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, kontekstual tahlil va diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, “Mening o‘g‘rigina bolam”, “Netay”, “Esdaliklarim” asarlari hamda Jerom K. Jeromning “Three Men in a Boat” va “Idle Thoughts of an Idle Fellow” asarlari tanlandi.

Matnlardan evfemistik birliklar ajratib olinib, ularning pragmatik funksiyalari Brown va Levinson [1] tomonidan ishlab chiqilgan odob-axloq nazariyasi doirasida tahlil qilindi. Har bir

evfemistik birlik uchun quyidagi parametrlar aniqlandi: (1) pragmatik funksiya turi, (2) ijtimoiy kontekst, (3) madaniy shartlanganlik.

Tadqiqot davomida jami 140 dan ortiq evfemistik birlik aniqlandi va ular pragmatik funksiyalari bo‘yicha tasnif qilindi.

**Tahlil va natijalar:** Tadqiqot davomida G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi misolida o‘zbek adabiy matnidagi evfemizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilindi. Matn lingvokulturologik jihatdan o‘rganilganda, evfemistik birliklarning muayyan mavzu doiralarida to‘planishi hamda ularda milliy-madaniy axborotning zich qatlamlari saqlanishi yaqqol namoyon bo‘ldi.

*O‘lim va vafot mavzusidagi evfemizmlar*

O‘lim va yo‘qotish bilan bog‘liq voqeliklarni ifodalashda evfemizmlardan foydalanish barcha tillarga xos universal hodisa bo‘lib, G‘afur G‘ulom ijodida u milliy ruh bilan uyg‘unlashgan. Asarda “rahmatli” va “rahmatlik” so‘zlari o‘limni bevosita atash o‘rniga qo‘llaniladi.

Masalan: *“Dadam rahmatlik ham ‘kuf’ desalar suvni teskari oqizib, ‘suf’ desalar ko‘rning ko‘zini ochib yuboradigan ulug‘ zot edilar”* – bu o‘rinda “rahmatlik” so‘zi marhumga nisbatan hurmat va diniy ehtiromni ifodalab, “o‘lgan” so‘zini yumshoq shaklda almashtiradi.

Shuningdek: *“Kenjatoy o‘g‘lingiz Bo‘riboyvachcha… bir marta ‘dada’ dedi-yu, ‘g‘iyq…’ etib jon berdi”* – bu yerda “jon berdi” iborasi o‘limni diniy-falsafiy ma’noda, ruhning tanadan ajralishi sifatida ifodalaydi.

“Xudo rahmat qilsin” iborasi ham o‘limga ishora qiluvchi evfemizm bo‘lib, undagi diniy komponent uning madaniy ildizlarini ko‘rsatadi.

*Ruhiy holat va ijtimoiy moslashuv evfemizmlari*

Asarda ruhiy holat va ijtimoiy og‘ishlarni ifodalashda ham evfemistik vositalar qo‘llaniladi. Masalan, Mayramxon haqida: *“…Mayramxon ‘sinib’, jinni bo‘lib qolgan ekan”* – bu yerda “sinib” metaforik evfemizm bo‘lib, ruhiy buzilishni mexanik jarayonga qiyoslaydi va ijtimoiy o‘zgarishlarning inson psixikasiga ta’sirini yumshoq shaklda ifodalaydi.

“Tarkidunyo devonabachchani” iborasida esa “devona” so‘zi salbiy ma’nodan chiqib, diniy-tasavvufiy kontekstda nisbatan ijobiy ma’no kasb etadi.

*Ijtimoiy holat va mulkiy farq evfemizmlari*

Ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik holatlari evfemistik vositalar orqali yumshoq ifodalanadi. Masalan, “befarzand” so‘zi farzandsizlikni ifodalab, psixologik hamdardlik uyg‘otadi.

“Beva” so‘zi esa nafaqat holatni bildiradi, balki ayolning ijtimoiy maqomini ham belgilovchi madaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

“Kissavur” so‘zi esa kontekstga qarab salbiy bahoni yumshatib, personajni jabrdiyda sifatida qayta talqin qilishga xizmat qiladi.

*“Shum bola” sarlavhasidagi evfemistik semantika*

“Shum” so‘zi o‘zbek madaniyatida bevosita yomonlikni emas, balki sho‘xlik va beqarorlikni ifodalovchi yumshatilgan bahodir. Shu orqali sarlavha qahramonga nisbatan salbiy emas, balki mehr va kinoya aralash munosabatni shakllantiradi.

*Jinsiy rollar va nikoh mavzusi*

“Juvonmarg zumrasha” iborasi hissiy-kinoyaviy evfemizm bo‘lib, unda salbiy baho bilan birga mehribon ohang ham mavjud. “Juvonmarg” so‘zi erta halokat va baxtsizlikni ifodalab, kuchli ekspressiv yuklama kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Shum bola” qissasida evfemizmlar o‘zbek milliy-madaniy dunyoqarashining turli qatlamlarini – diniy qadriyatlar, ijtimoiy normalar, tarixiy o‘zgarishlar va nutq madaniyatini – o‘zida mujassam etgan lingvokulturologik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning mavzuviy tasnifi va madaniy zichligi G‘afur G‘ulom ijodini qiyosiy tadqiqotlar uchun boy manba sifatida ko‘rsatadi. Jerom K. Jerom asarlari bilan qiyoslash esa evfemizmlarning universal va milliy-spetsifik pragmatik funksiyalarini yanada yaqqol namoyon etadi.

**Xulosa:** G‘afur G‘ulom va Jerom K. Jerom asarlaridagi evfemizmlar badiiy matnda odob-axloqni saqlash, “yuzni himoya qilish”, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish hamda yumor yaratish

kabi bir nechta pragmatik funksiyalarni bajarishi aniqlandi. Bu funksiyalar har ikki muallif ijodida uchrasa-da, ularning ifodalanish shakli va madaniy asoslari farqlanadi: G‘afur G‘ulomda ular o‘zbek xalqining diniy-ma’naviy qadriyatlari va ibo-hayo an’analari bilan bog‘liq bo‘lsa, Jerom K. Jeromda viktorian davr ijtimoiy normalari va ingliz yumori bilan izohlanadi. Tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, evfemizmlarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki pragmatik va madaniy ekvivalentlik ham muhim bo‘lib, aks holda matn ta’sirchanligi kamayadi. Kelgusida ushbu masalada o‘zbek va ingliz badiiy tarjimalarida evfemizmlarning pragmatik ekvivalentligini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge University Press, 1987. – Vol. 4.

2. Xaydarova S. Ingliz va o'zbek tillaridagi morfologik usulda hosil bo'lgan evfemizmlar // Scientific practical conference. – 2025. – Vol. 1. – № 1. – P. 314–318.

3. Xoliyarovna R. N., Durdona K. Evfimizmning lingvistik xususiyatlari Tog'ay Murod asarlarida // International conference on multidisciplinary studies and education. – 2025. – Vol. 2. – № 4. – P. 412–416.

4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – University of Chicago Press, 2008.

5. Clyne M. G. Inter-cultural communication at work: Cultural values in discourse. – Cambridge University Press, 1996.

6. Kövecses Z. Metaphor in culture: Universality and variation. – Cambridge University Press, 2005.

7. Inomovna I. X. Evfemizmlarning umumtilshunoslikdagi tadqiqi // Advances in Science and Humanities. – 2026. – Vol. 2. – № 04. – P. 95–99.

**UDC 821.111-1; 81-272; 809.1**

## THE INTEGRITY OF “BEOWULF”: FROM PHILOLOGICAL DOCUMENT TO POETIC MASTERPIECE

***M.Mukhammadjonova, PhD researcher, Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent***

***Annatatsiya.*** *Ushbu maqola qadimgi ingliz “Beovulf” dostoni shunchaki filologik hujjat emas, balki yaxlit badiiy-poetik asar sifatida qanday e’tirof etilganini tahlil qiladi. Asrlar davomida doston asosan o‘z tili, matniy tarixi va folklor analoglari uchun o‘rganilgan. J.R.R. Tolkienning 1936-yilgi “Beowulf: The Monsters and the Critics” maqolasi asarning badiiy yaxlitligini boshlang‘ich nuqta sifatida qabul qilib, bu qarashni o‘zgartirdi. Tadqiqot dostonning tuzilishi, ramziy obrazlari va hissiy ta’sir kuchi uni badiiy adabiyot sifatida o‘qishni asoslashini ko‘rsatadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Beovulf, badiiy yaxlitlik, qadimgi ingliz dostoni, Tolkien, filologiya, adabiy tahlil.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется, как древнеанглийский эпос “Беовульф” стал восприниматься не как простой филологический документ, а как целостное поэтическое произведение искусства. На протяжении поколений поэма изучалась главным образом ради её языка, текстовой истории и фольклорных аналогов. Статья Дж.Р.Р. Толкина 1936 года “Беовульф: чудовища и критики” изменила этот взгляд, приняв художественную целостность поэмы за отправную точку. Исследование показывает, что структура, символические образы и эмоциональная сила эпоса оправдывают его прочтение как художественной литературы.*

***Ключевые слова:*** *Беовульф, художественная целостность, древнеанглийский эпос, Толкин, филология, литературный анализ.*

***Abstract.*** *This article examines how the Old English epic “Beowulf” came to be recognized as a unified work of poetic art rather than a mere philological document. For generations the poem was studied chiefly for its language, textual history, and folklore analogues. J.R.R. Tolkien’s 1936 paper “Beowulf: The Monsters and the Critics” reversed this view by treating the poem’s artistic integrity as a starting point. The study argues that the structure, symbolic imagery, and emotional power of the epic justify reading it as imaginative literature.*

***Key words:*** *Beowulf, artistic integrity, Old English epic, Tolkien, philology, literary analysis.*

**Introduction.** “Beowulf” is the first major poem in English, yet for most of its modern life it has been read less as a poem than as a language exercise. For generations, studying it meant construing the grammar of Old English, learning the vocabulary, and translating extracts for examinations, while scholars busied themselves with textual detail and the search for folklore

parallels. The poem was respected as evidence rather than as art – in Heaney's phrase, as something written "on official paper." This changed in 1936, when J. R. R. Tolkien's paper "Beowulf: The Monsters and the Critics" took the poem's artistic integrity as its starting point and treated its author as an imaginative writer rather than a passive transmitter of old legends.

This article follows Tolkien's premise and asks what it means to read "Beowulf" as a poetic masterpiece rather than a philological document, examining the narrative structure, symbolic imagery, and emotional power that give the epic its artistic integrity.

**Literature review.** The scholarly history of "Beowulf" is, to a large degree, the story of how a single poem came to be read in two opposite ways, first as a record of language and history, and later as a work of art. For roughly two centuries after the manuscript was rediscovered, the poem was approached chiefly as a quarry of philological and historical information. The great editions of the early twentieth century, such as Chambers's introduction and Klaeber's edition [1; 2], concentrated on textual cruxes, etymologies, genealogies, and the search for Germanic analogues. We consider this tradition indispensable, yet in our view it left the poem's literary qualities largely unaddressed, treating "Beowulf" as evidence rather than as poetry.

The decisive change came with Tolkien's 1936 lecture, which argued that the poem had almost been lost under the weight of scholarship written about it, and that the quality of its verse and the design of its structure give it a powerful effect [3]. To our mind this is the foundation on which the present article rests, because it shifts the central question from what the poem can tell us about the past to what it actually achieves as art. Later scholarship has not simply repeated Tolkien's claims. Revisiting the essay seventy-five years on, Drout argues that it both opened up and limited subsequent criticism, and that the heavy post-Tolkien emphasis on the monsters has at times neglected the poem's more nuanced human world [4]. This is a necessary caution: affirming the artistic integrity of "Beowulf" should not narrow attention to a single feature. Standard reference scholarship continues to treat the poem in broadly literary terms. In the Cambridge survey of Old English literature, Robinson presents it as the first great narrative poem in English, distinguished by its large scale, refined style, and elevated theme [5].

A further body of criticism approaches the poem through Heaney's 1999 verse translation, and it bears directly on our subject because Heaney's introduction itself argues for "Beowulf" as living art [8]. His version was widely received as a new literary work in its own right. Critics noted that the story was now viewed through Irish eyes, and that his Hiberno-English diction functioned as both an aesthetic choice and a cultural claim [6]. The reception was not unanimous, some philologists reproached Heaney for a lack of fidelity, while Liuzza has shown how differently the same text can be rendered depending on whether the translator writes for specialists or for general readers [7]. To our mind, the very existence of this debate confirms the point, poem that provokes such argument about voice, tone, and ownership is being treated as imaginative literature, not as a fixed linguistic record.

Taken together, these studies show that the modern reception of "Beowulf" has moved decisively from philology toward literary appreciation. Yet they also reveal a gap. The transformation is widely acknowledged, but the specific features that constitute the poem's artistic integrity and its narrative structure, its symbolic imagery, and its emotional design are more often asserted than examined in detail. The present article seeks to address that gap.

**Methodology.** This study adopts a descriptive and analytical approach grounded in literary criticism. Rather than treating "Beowulf" as a source of linguistic or historical data, it examines the poem as a unified work of art, following the interpretive direction established by Tolkien's 1936 lecture.

The primary material is the Old English epic itself, used here in Seamus Heaney's verse translation together with its prefatory essay, in which the translator reflects on the poem's design and imaginative power. The analysis is organized around three features through which the artistic integrity of the epic becomes visible: its narrative structure, its symbolic imagery, and the emotional weight of its closing scenes. Each feature is examined in turn, with reference to specific episodes of the poem, in order to show how the elements of the work are deliberately ordered into a coherent whole.

This approach makes it possible to move beyond the philological tradition and to assess "Beowulf" on the grounds proper to literature namely, as a poetic masterpiece whose meaning arises from the way its parts are composed.

**Analysis.** The complaint repeated for decades was that "Beowulf" arranges its material badly, placing monster-fights at the centre and the genuinely tragic human material at the edges. Tolkien's reply was to deny that the poem was ever meant to be read as a forward-moving narrative [3]. In his account it is built as a balance, two moments of a single great life set against each other, the rise of a young hero and the death of an old king. We find this persuasive. If the poem were a biography, the fifty years between its halves would be a gap to explain away. Read as a deliberate opposition of youth and age, that silence becomes the very thing the design depends on. The so-called digressions work the same way: the allusions to dynastic ruin and impending war are not lapses of proportion but the means by which the poet gives his foreground depth, supplying a sense that the lit hall at the centre stands within a much older and darker history.

Older criticism found the monsters an embarrassment. Tolkien's central claim is that they are not a mistake but the source of the poem's seriousness, their inhuman scale lets the poem speak about the fate of all men rather than the quarrels of particular princes [3]. We consider this the strongest single insight in the poem's modern reception. Grendel is at once a physical creature who breaks down a door and an image of everything hostile to human community. The dragon is both a real worm and a personification of malice and the blind cruelty of fortune. The gold imagery works on the same principle as Heaney's introduction brings out, the dragon's treasure is wealth that has outlived its owners, and when Beowulf wins the hoard he wins his own death [8]. Symbol and structure meet here in a single concrete image of the poem's governing idea that everything men build and prize is temporary.

Tolkien proposed that "Beowulf" is not really an epic but an elegy, a poem whose whole long first part is a prelude to a dirge [3]. In the Grendel half a reader can still share the suspense of the Geats on the shore. In the dragon half the poet removes suspense deliberately, foretelling disaster so steadily that defeat becomes the announced theme. What gives the ending its weight is not the dragon-fight but what surrounds it, the grief of the Geats, the foreknowledge of the wars the hero's death will unleash, and the closing funeral. We consider the poet's decision to withhold any Christian consolation a mark of artistic control. His hero's reward is the praise of those who survive him and the sorrow of a people who now expect only ruin. Drout's caution is worth noting here that Tolkien's focus on the monsters has sometimes drawn attention away from this human world [4] but in our view the two are inseparable: it is the monsters that make the human grief legible.

**Discussion.** The three features examined in the analysis, narrative structure, symbolic imagery, and the emotional weight of the closing scenes are not independent qualities but aspects of a single design. Tolkien"s fundamental insight was that the poem's structure is not a weakness to be excused but the vehicle through which its meaning is delivered [3], and our reading confirms this. The opposition of youth and age, the elegiac tone that gathers force across the dragon section, the balance of the two halves, these are the means by which a poem about the death of all things achieves its effect.

The symbolic imagery reinforces this. Grendel and the dragon are not decorative; they are the precise foes the poem's argument requires. No human adversary could carry the weight they carry, because the poem is not about a particular conflict but about the condition of being human in a hostile world [3]. The gold imagery works on the same principle: the burial of the treasure at the end closes the poem's meaning as firmly as the closing of the barrow itself.

The gap identified in the literature review that the poem's artistic integrity is more often asserted than examined is addressed by reading these three features together. Earlier philological scholarship gave us the text and its context. Tolkien gave us permission to read it as art. Robinson, Heaney, and the debates around the translation have confirmed that it repays literary attention [5; 6; 7; 8]. Drout's caution remains valid: a full account of "Beowulf" cannot concentrate on the monsters alone and ignore the human world the poem also contains [4]. In our view the poem's greatness lies precisely

in holding both worlds at once the inhuman scale of the monsters and the very human scale of the grief they leave behind.

**Conclusion.** This article has argued that "Beowulf" is best understood not as a philological document but as a unified work of poetic art, and that its artistic integrity resides in three interlocking features: a narrative structure built on balance rather than sequence, a symbolic imagery in which the monsters and the gold carry the poem's largest meanings, and an emotional design whose full weight falls on the elegiac closing scenes rather than on the hero's victories.

The transformation in how the poem has been read from historical evidence to literary masterpiece was initiated by Tolkien's 1936 lecture and confirmed by the reception of Heaney's translation and the criticism it generated. But that transformation has been more often acknowledged than demonstrated. What the present analysis has attempted to show is that the praise "Beowulf" has received since Tolkien is not simply a matter of critical fashion: it is grounded in specific and examinable features of the poem's construction. Structure, symbol, and tone work together here in a way that places the poem, as Robinson observed, at the head of the English literary tradition [5].

We do not claim to have said the last word. Drout's reminder that the poem contains a human world as well as a monstrous one points toward work that remains to be done [4], and the ongoing debate about translation shows that "Beowulf" continues to generate new readings rather than settle into a fixed interpretation [6; 7]. What can be said with confidence is that the poem repays the kind of attention this article has tried to give it close, literary, and alert to design and that such attention reveals a work of greater coherence and power than two centuries of philological scholarship were able to see.

**REFERENCES:**

1. Chambers, R. W. Beowulf: An Introduction to the Study of the Poem, with a Discussion of the Stories of Offa and Finn. Cambridge University Press, 1921.

2. Fulk, R. D., Bjork, R. E., Niles, J. D. (eds.) Klaeber's Beowulf and the Fight at Finnsburg. 4th ed., University of Toronto Press, 2008.

3. Tolkien, J. R. R. "Beowulf: The Monsters and the Critics." Proceedings of the British Academy, vol. 22, 1936, pp. 245–295.

4. Drout, M. D. C. "Beowulf: The Monsters and the Critics' Seventy-Five Years Later." Mythlore, vol. 30, no. 1–2, 2011, pp. 5–22.

5. Robinson, F. C. "Beowulf." The Cambridge Companion to Old English Literature, edited by M. Godden and M. Lapidge, Cambridge University Press, 1991, pp. 142–159.

6. Geremia, S. "A Contemporary Voice Revisits the Past: Seamus Heaney's Beowulf." Estudios Irlandeses, no. 2, 2007, pp. 57–67.

7. Liuzza, R. M. "Beowulf in Translation: Problems and Possibilities." Old English Newsletter Subsidia, vol. 31, 2002, pp. 23–40.

8. Heaney, S. Beowulf: A New Verse Translation. Farrar, Straus and Giroux, 1999.

**UO'K: 81'373.46:502/504**

## ZAMONAVIY EKOLOGIK TERMINLARNING SEMANTIK TARAQQIYOTI VA TILGA TA'SIRI

***S.X.Mustafoyeva, stajyor -assistant, Samarkand davlat tibbiyot universiteti, Samarkand***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada zamonaviy ekologik terminlarning semantik taraqqiyoti, ularning lingvistik xususiyatlari hamda til tizimiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ekologiya sohasida faol qo'llanayotgan terminlarning ma'no kengayishi, terminologik transformatsiyasi, metaforizatsiyasi va xalqaro terminlarning milliy tillarga adaptatsiyalashuvi masalalari o'rganildi. Natijalar ekologik terminologiyaning zamonaviy ilmiy kommunikatsiyada nafaqat nominativ, balki konseptual va pragmatik funksiyalarni ham bajarishini ko'rsatdi. Shuningdek, ekologik diskursning rivojlanishi natijasida yangi terminlarning shakllanishi va ularning umumxalq leksikasiga kirib borishi aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:*** *ekologik terminologiya, semantik taraqqiyot, ekologik diskurs, terminologik tizim, neologizm, konseptualizatsiya, lingvistik adaptatsiya, yashil iqtisodiyot.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются семантическое развитие современных экологических терминов, их лингвистические особенности и влияние на языковую систему. В*

*ходе исследования были изучены вопросы расширения значений терминов, активно используемых в сфере экологии, их терминологической трансформации, метафоризации, а также адаптации международных экологических терминов к национальным языкам. Результаты показали, что современная экологическая терминология в научной коммуникации выполняет не только номинативную, но и концептуальную и прагматическую функции. Кроме того, установлено, что развитие экологического дискурса способствует формированию новых терминов и их проникновению в общеупотребительную лексику.*

***Ключевые слова:*** *экологическая терминология, семантическое развитие, экологический дискурс, терминологическая система, неологизм, концептуализация, лингвистическая адаптация, зелёная экономика.*

***Abstract****. This article examines the semantic development of modern ecological terms, their linguistic characteristics, and their impact on the language system. The study investigates the processes of semantic expansion, terminological transformation, metaphorization, and the adaptation of international ecological terms into national languages. The findings demonstrate that contemporary ecological terminology performs not only nominative functions but also conceptual and pragmatic functions in scientific communication. Furthermore, the development of ecological discourse contributes to the emergence of new terms and their integration into the general vocabulary of society.*

***Key words****: ecological terminology, semantic development, ecological discourse, terminological system, neologism, conceptualization, linguistic adaptation, green economy.*

**Kirish.** XXI asrda ekologik muammolarning global xarakter kasb etishi natijasida ekologiya nafaqat tabiiy fanlarning, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi, atmosferaning ifloslanishi, chiqindilarni boshqarish va yashil energetikaga o‘tish kabi jarayonlar ekologik terminologiyaning jadal rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Til jamiyatdagi ilmiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Shu sababli ekologik terminlarning paydo bo‘lishi, semantik kengayishi va ommalashuvi til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda “karbon neytrallik”, “yashil iqtisodiyot”, “barqaror rivojlanish”, “uglerod izi”, “ekologik xavfsizlik”, “iqlim adolati” kabi terminlar tor ilmiy doiradan chiqib, ommaviy kommunikatsiya vositalari va kundalik nutqda faol qo‘llanilmoqda. Zamonaviy ekologik terminlarning semantik rivojlanishi ularning dastlabki ilmiy ma’nolaridan tashqariga chiqib, yangi konseptual mazmun kasb etayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa terminologik birliklarning nafaqat ilmiy kommunikatsiyadagi, balki jamiyatning ekologik tafakkurini shakllantirishdagi rolini ham kuchaytirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi zamonaviy ekologik terminlarning semantik taraqqiyotini va ularning til tizimiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

**Materiallar va metodlar.** Mazkur tadqiqotning empirik bazasini ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, xalqaro ekologik tashkilotlar hisobotlari, ommaviy axborot vositalari materiallari hamda terminologik lug‘atlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ekologik terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishiga oid mahalliy hamda xorijiy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, ekologik diskursda keng qo‘llanilayotgan 150 dan ortiq termin tanlab olinib, ularning semantik va funksional xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqotda bir nechta lingvistik metodlardan kompleks ravishda foydalanildi. Birinchidan, semantik tahlil metodi yordamida ekologik terminlarning ma’no tarkibi, semantik o‘zgarishlari va ma’no kengayish jarayonlari o‘rganildi. Ushbu metod orqali terminlarning dastlabki va zamonaviy ma’nolari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi hamda ularning yangi semantik komponentlar bilan boyishi tahlil qilindi. Masalan, “yashil iqtisodiyot”, “uglerod izi”, “iqlim adolati” kabi terminlarning zamonaviy ekologik diskursdagi yangi ma’nolari tavsiflandi.

Ikkinchidan, komponent tahlil metodi asosida terminlarning ichki semantik tuzilishi o‘rganildi. Bunda termin ma’nosini tashkil etuvchi asosiy semalar va qo‘shimcha ma’no elementlari ajratib

ko‘rsatildi. Ushbu yondashuv ekologik terminlarning mazmuniy tuzilishini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Uchinchidan, qiyosiy-tipologik tahlil metodi yordamida o‘zbek tilidagi ekologik terminlar ingliz va rus tillaridagi muqobillari bilan solishtirildi. Natijada terminlarning shakllanish xususiyatlari, tarjima muammolari hamda xalqaro terminlarning milliy tilga moslashish mexanizmlari aniqlandi.

To‘rtinchidan, diskursiv tahlil metodi ekologik terminlarning ilmiy, publitsistik va rasmiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qildi. Ushbu metod orqali terminlarning kommunikativ vazifalari, pragmatik imkoniyatlari hamda ekologik ongni shakllantirishdagi roli baholandi.

Beshinchidan, statistik kuzatuv metodidan foydalanilib, ekologik terminlarning qo‘llanish chastotasi va tarqalish darajasi tahlil qilindi. Bunda terminlarning ilmiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari va internet manbalaridagi uchrash ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tahlil natijasida ekologik terminologiya zamonaviy til tizimining eng faol rivojlanayotgan qatlamlaridan biri ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida terminlarning ma’noviy evolyutsiyasi, funksional imkoniyatlari va kommunikativ ahamiyati tizimli ravishda tavsiflandi.

**Natijalar.** O‘tkazilgan tahlillar zamonaviy ekologik terminologiyaning jadal rivojlanayotgan va doimiy ravishda yangi mazmun bilan boyib borayotgan terminologik tizim ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida ekologiya, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit muhofazasiga oid 150 dan ortiq terminlar tahlil qilinib, ularning semantik taraqqiyoti, funksional imkoniyatlari hamda zamonaviy til tizimiga ko‘rsatayotgan ta’siri aniqlandi. Natijalar ekologik terminlarning rivojlanishi bir necha asosiy yo‘nalishlarda amalga oshayotganligini ko‘rsatdi.

Terminlarning semantik kengayishi: Tahlil natijalariga ko‘ra, ekologik terminlarning aksariyati dastlab tor ilmiy ma’noga ega bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ularning semantik maydoni kengayib, umumijtimoiy mazmun kasb etgan. Bu jarayon ekologik muammolarning global tus olishi va ekologik bilimlarning jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi bilan bog‘liq.

Masalan, “ekologik iz” (ecological footprint) termini dastlab inson faoliyati natijasida tabiiy resurslarga tushadigan yuklamani hisoblash ko‘rsatkichi sifatida qo‘llanilgan. Hozirgi kunda esa ushbu termin nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki ommaviy axborot vositalari, ta’lim tizimi va ijtimoiy tarmoqlarda ham insonning ekologik mas’uliyati, iste’mol madaniyati va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi keng tushuncha sifatida ishlatilmoqda. Shuningdek, “barqaror rivojlanish” termini dastlab iqtisodiy rivojlanish bilan ekologik muvozanatni saqlash konsepsiyasini ifodalagan bo‘lsa, bugungi kunda u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy taraqqiyotning o‘zaro uyg‘unligini nazarda tutuvchi global rivojlanish strategiyasiga aylangan. Mazkur termin BMT hujjatlarida, ilmiy maqolalarda va davlat siyosatida eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalardan biri sifatida shakllangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, semantik kengayish ekologik terminologiya rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Natijada terminlar tor ilmiy birliklardan keng konseptual kategoriyalarga aylanmoqda.

Xalqaro terminlarning adaptatsiyasi: Tadqiqot natijalari ekologik terminologiyaning shakllanishida ingliz tilining yetakchi manba vazifasini bajarayotganligini ko‘rsatdi. Zamonaviy ekologik tushunchalarning aksariyati xalqaro ilmiy muhitda ingliz tilida yaratilmoqda va keyinchalik boshqa tillarga o‘zlashtirilmoqda. Jumladan: Green economy – yashil iqtisodiyot; Carbon footprint – uglerod izi; Climate resilience – iqlim barqarorligi; Circular economy – aylanma iqtisodiyot; Net zero emission – nol emissiya; Climate neutrality – iqlim neytralligi; Decarbonization – dekarbonizatsiya. Mazkur terminlar o‘zbek tiliga kirib kelish jarayonida fonetik, leksik va semantik moslashuv bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Ayrim hollarda terminlar to‘liq tarjima qilinayotgan bo‘lsa, ayrim hollarda esa asl shakliga yaqin ko‘rinishda qo‘llanmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro terminlarning adaptatsiyasi ekologik sohadagi ilmiy axborot almashinuvini yengillashtirish bilan birga milliy terminologik tizimning boyishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim terminlarning turlicha tarjima qilinishi terminologik standartlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Metaforik terminlarning shakllanishi: Ekologik terminologiyaning muhim xususiyatlaridan biri metaforik birliklarning faol qo‘llanishidir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy ekologik

diskursda metafora murakkab ilmiy tushunchalarni keng jamoatchilikka tushunarli shaklda yetkazishning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Masalan: uglerod izi, yashil energetika, yashil texnologiyalar, ekologik qarz, iqlim migratsiyasi, ekologik halokat zonasi, yashil investitsiyalar. "Uglerod izi" terminida inson faoliyatining tabiatga ta'siri iz qoldirish metaforasi orqali ifodalangan. "Yashil iqtisodiyot" va "yashil energetika" terminlarida esa yashil rang ekologik xavfsizlik, tabiatga moslik va barqarorlik ramzi sifatida qo'llanilgan. Metaforik terminlarning keng qo'llanishi ekologik bilimlarni ommalashtirishga, murakkab ilmiy tushunchalarni sodda va ta'sirchan shaklda ifodalashga xizmat qilmoqda. Natijada ekologik diskursning kommunikativ samaradorligi ortmoqda.

Terminlarning umumxalq leksikasiga kirib borishi: Tadqiqot davomida ekologik terminlarning umumxalq leksikasiga faol kirib borayotganligi aniqlandi. Ilgari faqat mutaxassislar tomonidan qo'llangan ko'plab terminlar bugungi kunda kundalik muloqotning ajralmas qismiga aylangan. Jumladan: global isish; chiqindilarni qayta ishlash; ekologik toza mahsulot; yashil energiya; uglerod neytralligi; qayta tiklanuvchi energiya manbalari; ekologik xavfsizlik. Mazkur terminlarning ommalashuvi ommaviy axborot vositalari, internet resurslari, ta'lim tizimi va xalqaro ekologik dasturlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning global miqyosda muhokama qilinishi ekologik terminlarning keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ekologik terminologiya nafaqat ilmiy kommunikatsiyaning muhim qismi, balki zamonaviy jamiyatning ekologik dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim lingvistik vosita ham hisoblanadi. Terminlarning umumxalq tiliga kirib borishi ekologik madaniyatning rivojlanishi va ekologik ongning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

**Muhokama.** Tahlillar zamonaviy ekologik terminologiyaning rivojlanishi tilning ichki qonuniyatlari hamda tashqi ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Birinchidan, ekologik terminlarning semantik taraqqiyoti ilm-fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Yangi ekologik muammolar paydo bo'lishi yangi terminlarning yaratilishini talab qiladi. Masalan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ravishda "karbon budjeti", "dekarbonizatsiya", "iqlim neytralligi" kabi tushunchalar shakllandi. Ikkinchidan, ekologik terminologiya tilning konseptual tizimini boyitmoqda. Zamonaviy ekologik terminlar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni yangi nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini bermoqda. Uchinchidan, globalizatsiya jarayoni ekologik terminlarning xalqaro xarakterini kuchaytirmoqda. Ingliz tilida yaratilgan terminlar ko'plab tillarga kirib borib, universal ilmiy kommunikatsiya vositasiga aylanmoqda. Natijada terminologik unifikatsiya jarayoni kuchaymoqda. To'rtinchidan, ekologik terminlarning ommalashuvi ularning pragmatik funksiyasini kengaytirmoqda. Endilikda terminlar faqat ilmiy axborotni uzatish emas, balki ekologik ong va ekologik mas'uliyatni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda.Ekologik terminlarning semantik evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, ular zamonaviy jamiyatning ekologik dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik indikator hisoblanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Zamonaviy ekologik terminlar jadal semantik taraqqiyot bosqichini boshdan kechirmoqda. Terminlarning ma'no doirasi kengayib, ular tor ilmiy birliklardan umumijtimoiy tushunchalarga aylanmoqda. Ekologik terminologiya tarkibida xalqaro terminlar ulushi ortib bormoqda. Metaforizatsiya va konseptualizatsiya ekologik terminlar rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ekologik terminlarning ommalashuvi ekologik madaniyat va ekologik ong shakllanishiga xizmat qilmoqda. Ekologik terminologiya zamonaviy til tizimining eng dinamik rivojlanayotgan qatlamlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday qilib, ekologik terminlarning semantik taraqqiyoti nafaqat terminologik tizimning boyishiga, balki jamiyatning ekologik tafakkurini shakllantirishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2019.

2.Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 2021.

3.Haugen E. The Ecology of Language. Stanford University Press, 2020.

Fillmore C.J. Frame Semantics and Linguistic Theory. New York, 2018.

4.Mustafoyeva Sarvinoz Xolmurodovna. Modern methods in learning English. International scientific review, 32-35, 2019.

5.Mustafoyeva S. X. syntactic analysis and their types in english linguistics. journal of international scientific research 1 (2), 163-166, 2024.

6.Mustafoyeva S X. The actuality of distance learning and using webinar technologies in education. International journal of scientific researchers 8 (01), 781-784, 2024.

7.Mustafoyeva S X. Terminology as a Basis for Research in Linguistics and Scientific and Technical Translation. Excellencia: International Multi-disciplinaryJournal of Education 2 (09 …, 2024.

8. Mustafoyeva S X. Semantic and structural grouping of Riddles in English Xorazm Ma'mun Akademiyasi 223 (4), 95-99, 2023.

9. Mustafoyeva S X. Business Lexicon of American and British English. Open Access Journals Incorporations, 2023.

10. Mustafoyeva S X. Improving all Language skills by Webinars. International Scientific Opportunities to use Advanced foreign experiences …, 2023.

**UO'K 808.5**

## SHE'RIY MATNDA MILLIY-MADANIY VA KOGNITIV XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO'LISHI

***M.Narziyeva, dots., Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand***

***Annotatsiya.*** *Maqolada she'riy matnda milliy dunyoqarash va inson tafakkuriga xos bilish jarayonlarining badiiy ifodasi o'rganiladi. Lingvokulturologik va kognitiv-poetik yondashuvlar asosida obrazlarning madaniy xotira, qadriyat, ramz, metafora, freym va obraz-sxemalar vositasida shakllanish xususiyatlari ochib beriladi. Abdulla Oripovning "Yulduzlar", "Ona sayyora" she'rlari misolida milliy madaniy birliklarning poetik tasvirni tashkil etish, muallif g'oyasini ifodalash hamda o'quvchining matnni anglash jarayonini yo'naltirishdagi vazifalari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *she'riy matn, uslubiy vosita, milliy-madaniy xususiyat, kognitiv poetika, konsept, konseptual metafora, madaniy kod.*

***Аннотация.*** *В статье исследуется художественное выражение национального мировосприятия и познавательных процессов, свойственных человеческому мышлению, в поэтическом тексте. На основе лингвокультурологического и когнитивно-поэтического подходов раскрываются особенности формирования образов посредством культурной памяти, ценностей, символов, метафор, фреймов и образ-схем. На материале стихотворений Абдуллы Арипова «Юлдузлар», «Она сайёра» освещаются функции национально маркированных единиц в создании поэтической картины, выражении авторской идеи и направлении читательского восприятия текста.*

***Ключевые слова:*** *поэтический текст, стилистическое средство, национально-культурные особенности, когнитивная поэтика, концепт, концептуальная метафора, культурный код.*

***Abstract.*** *The article examines the artistic representation of the national worldview and the cognitive processes inherent in human thought in poetic texts. Drawing on linguocultural and cognitive-poetic approaches, it reveals how poetic images are formed through cultural memory, values, symbols, metaphors, frames, and image schemas. Using Abdulla Oripov's poems "Yulduzlar", "Ona sayyora" as examples, the study explores the functions of nationally marked units in constructing poetic imagery, expressing the author's idea, and guiding the reader's interpretation of the text.*

***Key words:*** *poetic text, stylistic device, national-cultural features, cognitive poetics, concept, conceptual metaphor, cultural code.*

Zamonaviy tilshunoslikda she'riy matn faqat vazn, qofiya va uslubiy vositalar yig'indisi sifatida emas, balki insonning olam haqidagi bilimlari, hissiy tajribasi hamda milliy madaniy xotirasini mujassamlashtiruvchi murakkab semiotik hodisa sifatida o'rganilmoqda. Badiiy so'z borliqni oddiy nomlamaydi, balki badiiy so'z borliqni tanlaydi, guruhlaydi, baholaydi va muayyan madaniyatga xos tasavvurlar asosida qayta yaratadi. Shu sabab she'riy obrazning mazmunini anglashda til birligi bilan birga uning ortidagi tarixiy tajriba, qadriyat, ramziy aloqa va idrok modeli ham hisobga olinishi zarur.

Lingvokulturologik yondashuvning antropotsentrik mohiyatini V.A.Maslova “inson tilda, til esa insonda tahlil qilinadi”, degan fikr bilan ifodalaydi [1, B. 5–8]. Bu tamoyil she’riy matnni ham til tizimidan uzilgan estetik qurilma emas, balki ijodkor shaxsi, milliy ong va o‘quvchi tajribasi o‘zaro muloqotga kirishadigan makon deb tushunishga imkon beradi. Y.S.Stepanovning “konsept – inson ongidagi madaniyatning quyuqlashgan holati” degan ta’rifi esa badiiy obrazda madaniy tajriba qanday ixcham semantik birlikka aylanishini ko‘rsatadi [2, B. 40–41]. Demak, she’rda qo‘llangan ona, Vatan, tuproq, yo‘l, osmon, yulduz singari so‘zlar lug‘aviy ma’nodan tashqari jamoaviy xotira va qadriyatlarni ham faollashtiradi.

Kognitiv poetika ushbu jarayonning mental mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi. P.Stokvell uni “adabiyot haqida yangicha fikrlash usuli”, ya’ni kognitiv tilshunoslik va psixologiya modellarini badiiy matnga tatbiq etuvchi yo‘nalish sifatida izohlaydi [3, B. 4–8]. Kognitiv yondashuvda metafora bezak emas, bir tushuncha sohasini ikkinchisi orqali anglash usulidir; makon, harakat, hajm, markaz–chekka, yuqori–quyi kabi obraz-sxemalar esa murakkab hissiy va falsafiy mazmunning sezgi tajribasi asosida qurilishini tushuntiradi. G.Lakoff va M.Terner poetik metafora kundalik konseptual tizimdan uzilmasligini, shoir mavjud idrok modellarini kengaytirib, yangicha ma’no hosil qilishini asoslaydilar [4, B. 1–15].

She’riy matndagi milliy-madaniy xususiyat, avvalo, xalqning olamni nomlash va baholash tajribasiga tayanadi. Uning lisoniy ko‘rsatkichlari etnonim, toponim, tarixiy nom, urf-odat, diniy-mifologik birlik, milliy predmet, paremiologik ifoda va muomala shakllari bo‘lishi mumkin. Biroq matnda milliy so‘zning uchrashi o‘z-o‘zidan chuqur madaniy mazmunni kafolatlamaydi. Birlik she’rning konseptual markaziga ulanib, baho yaratib, jamoaviy xotirani uyg‘otganidagina lingvomadaniy vazifa bajaradi. Shu jihatdan milliylik tashqi bezak emas, obrazning ichki semantik tashkilotchisidir.

Madaniy ma’no ko‘pincha konsept va kodlar orqali tizimlashadi. Ona konsepti mehr, himoya, qarzdorlik va muqaddaslikni; Vatan konsepti hudud bilan birga til, ajdod, xotira va axloqiy mas’uliyatni; yo‘l obrazi hayot, taqdir, ayriliq yoki qaytish modelini faollashtiradi. V.I.Karasik konseptning tushunchaviy, obrazli va qadriyatli qatlamlarini ajratadi; she’riy matnda ularga kompozitsion vazifa ham qo‘shiladi [5, B. 129, 139–141]. Masalan, yo‘l obrazi nafaqat harakatni bildiradi, balki lirik qahramonning ruhiy yo‘nalishini belgilab, she’r boshidan oxirigacha ma’no rivojini boshqarishi mumkin.

Abdulla Oripovning “Yulduzlar” she’rida osmon jismlari Sharqona va islomiy tasavvurlar bilan bog‘lanadi:

*Deyman: osmonlarning hiloli bo‘lsam,*
*Hurlar va Zuhrosi bo‘lgim keladi.*
*Shu go‘zal o‘lkamda koshona qursam,*
*Porloq yulduzlarday kulgim keladi.* [6, B. 15]

Misradagi hilol, hur, Zuhro va koshona birliklari bir-birini to‘ldiruvchi madaniy maydon hosil qiladi. Hilol diniy-tarixiy xotirani, Zuhro mumtoz Sharq she’riyatidagi go‘zallik va yorqinlikni, koshona esa orzu qilingan farovon makonni anglatadi. “Yulduzlarday kulmoq” metaforasida yorug‘lik hissiy quvonch sohasiga ko‘chadi. Natijada umumiy fazoviy tajriba milliy poetik an’ana bilan qo‘shilib, orzuning yorqin va ko‘tarinki modelini yaratadi.

*Qarshimda yer sharin surati turar,*
*Salmog‘i Quvanning anoricha bor.*
*Tim qora osmonda porlab ko‘rinar,*
*Shu jajji sayyora ko‘rkam, ulug‘vor* [6, B. 172].

***Аннотация.*** *Электронные аудиословари стали важной частью современной лексикографии и цифрового изучения языков в английском и узбекском языках. В данной статье рассматриваются развитие, функции и образовательное значение электронных аудиословарей, а также их роль в совершенствовании произношения, расширении словарного запаса, развитии навыков аудирования и формировании коммуникативной компетенции. Исследование анализирует фонетические, лексические и технологические особенности английских и узбекских электронных словарей, включая модели аудиопроизношения, системы фонетической транскрипции, контекстуальные примеры и интеграцию мультимедийных технологий. Особое внимание уделяется англо-узбекским двуязычным словарям, мобильным приложениям и онлайн-платформам, предоставляющим аудиозаписи носителей языка и интерактивные возможности обучения. В статье также подчёркивается значение цифровой доступности, офлайн-функциональности и пользовательски-ориентированного дизайна в современной лексикографической практике. Результаты исследования показывают, что электронные аудиословари значительно способствуют самостоятельному изучению языков, межкультурной коммуникации и правильному усвоению произношения, что делает их незаменимыми ресурсами современного лингвистического образования.*

***Ключевые слова:*** *электронные словари; аудиословари; лексикография; английский язык; узбекский язык; произношение; фонетическая транскрипция; цифровая лексикография; двуязычные словари; изучение*

***Abstract.*** *Electronic audio dictionaries have become an important component of modern lexicography and digital language learning in both English and Uzbek languages. This article examines the development, functions, and educational significance of electronic audio dictionaries, focusing on their contribution to pronunciation improvement, vocabulary acquisition, listening comprehension, and communicative competence. The study analyzes the phonetic, lexical, and technological features of English and Uzbek electronic dictionaries, including audio pronunciation models, phonetic transcription systems, contextual examples, and multimedia integration. Special attention is devoted to bilingual English–Uzbek dictionaries, mobile applications, and online platforms that provide native-speaker recordings and interactive learning opportunities. The research also highlights the role of digital accessibility, offline functionality, and user-centered design in contemporary lexicographic practice. The findings demonstrate that electronic audio dictionaries significantly facilitate independent language learning, intercultural communication, and the accurate acquisition of pronunciation skills, making them indispensable resources in modern linguistic education.*

***Key words:*** *electronic dictionaries; audio dictionaries; lexicography; English language; Uzbek language; pronunciation; phonetic transcription; digital lexicography; bilingual dictionaries; language learning.*

**Introduction.** The landscape of language learning and communication has undergone a profound transformation with the advent of electronic audio dictionaries. These digital resources represent a significant evolution from traditional print dictionaries, offering dynamic and interactive platforms that combine textual definitions with crucial auditory components. Specifically, in the context of English and Uzbek languages, these tools address unique and pressing needs for learners, educators, and professionals. For English, a global lingua franca, electronic audio dictionaries provide nuanced insights into regional variations in pronunciation (e.g., British versus American English) and intricate phonetic details. For Uzbek, a language with rich cultural heritage and a growing presence in the digital sphere, these resources are instrumental in bridging linguistic gaps, making the language more accessible to a wider audience, and supporting its standardization and development. Electronic audio dictionaries typically offer a comprehensive suite of features beyond mere word definitions.

**Literature Review.** The academic discourse surrounding dictionaries has evolved significantly with technological progress. Initially, research focused on the fundamental role of print dictionaries in language acquisition and comprehension. The shift towards digital platforms, particularly online dictionaries, introduced new dimensions for comparative analysis. Early studies scrutinized the effectiveness of these online resources in educational settings, evaluating features such as content accessibility, database comprehensiveness, and user interface design. The consensus underscored the transformative potential of digital dictionaries, offering advantages in speed, search capabilities, and the integration of multimedia elements over their print counterparts. A pivotal development in electronic dictionaries was the incorporation of audio pronunciation. This feature dramatically enhanced their utility for language learners, directly addressing the challenge of pronunciation mastery. Research has extensively investigated the quality and efficacy of audio recordings across various platforms. Studies comparing popular English dictionaries, such as Merriam-Webster, Cambridge, and Oxford, have often highlighted differences in audio clarity, sound quality, and the representation of regional accents (e.g., American versus British English).

**Research Methodology.** To conduct a thorough study of electronic audio dictionaries in English and Uzbek, a multifaceted research methodology is essential, drawing upon established practices in lexicography and language technology. This approach synthesizes insights from existing literature and involves a detailed examination of available digital resources without relying on new empirical data collection. The methodology is structured to provide a comprehensive understanding of the current state, features, and implications of these tools. The initial phase involves an extensive and systematic literature search across academic databases, reputable search engines, and linguistic journals.

**Analysis and Results.** The analysis of electronic audio dictionaries for English and Uzbek reveals a dynamic and evolving landscape, marked by significant technological advancements and a clear commitment to enhancing language learning and communication. The integration of audio features stands out as a critical differentiator, profoundly impacting how users engage with vocabulary and pronunciation. For the English language, the market is saturated with a wide array of sophisticated electronic dictionaries. These resources typically offer high-quality audio pronunciations, often distinguishing between different major dialects such as American and British English. This dialectal differentiation is crucial for learners aiming for specific accents or needing to understand diverse native speakers. Beyond basic pronunciation, these dictionaries provide detailed definitions, etymologies, usage examples, and often, integrated thesauruses. Platforms like Cambridge, Oxford, and Merriam-Webster are frequently cited for their comprehensive coverage and reliable audio. While variations in audio clarity and sound quality exist across these providers, the overall standard is high, offering learners robust tools for accent reduction and pronunciation accuracy. The continuous updates and user-driven improvements in these platforms reflect a mature ecosystem catering to a global user base. The development of electronic audio dictionaries for the Uzbek language, particularly in bilingual contexts with English, has seen remarkable growth.

**Conclusion.** Electronic audio dictionaries have unequivocally cemented their position as indispensable tools in the contemporary landscape of language education and international communication. For both English and Uzbek languages, these digital resources offer a dynamic, accessible, and highly effective means to acquire vocabulary, refine pronunciation, and deepen linguistic understanding. The journey from traditional print dictionaries to sophisticated digital platforms, particularly those integrating high-quality audio, marks a monumental shift in how individuals engage with foreign languages. For the English language, the abundance of advanced electronic dictionaries with meticulous audio recordings—often distinguishing between regional accents—provides learners with an unparalleled resource for mastering the intricacies of pronunciation and intonation. These tools go beyond mere definitions, offering a rich tapestry of linguistic information that supports a comprehensive grasp of the language. For Uzbek, a language increasingly vital in global contexts, the rapid development and proliferation of bilingual electronic audio dictionaries represent a critical advancement. These resources, often born from dedicated collaborations between scholars, institutions, and international partners, are instrumental in making Uzbek more accessible to English speakers and vice versa. The focus on native speaker audio, comprehensive vocabulary databases, and practical features like offline access underscores a commitment to fostering genuine linguistic proficiency. The analysis underscores that the clarity, quality, and consistency of audio pronunciations are paramount.

**REFERENCES:**

1. Oxford English Dictionary. (2010). *Oxford Dictionary of English* (3rd ed.). Oxford University Press.
2. Cambridge Dictionary Pronunciation. (n.d.). *English pronunciation*. Retrieved May 19, 2026, from Cambridge Dictionary website.
3. Forvo Pronunciation Dictionary. (n.d.). *The pronunciation dictionary*. Retrieved May 19, 2026.
4. Roach, P. (2009). *English phonetics and phonology: A practical course* (4th ed.). Cambridge University Press.
5. Crystal, D. (2008). *A dictionary of linguistics and phonetics* (6th ed.). Blackwell Publishing.

**UO'K 81'322:004.912**

## TADQIQOT UCHUN KORPUS BAZASINI YARATISH: MANBALAR, TOZALASH VA RAQAMLI MATNLAR ANNOTATSIYASI

***M.M.Qayumova, dots., PhD, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada korpus lingvistikasida tadqiqot uchun korpus bazasini yaratishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Korpusni shakllantirish bosqichlari, matn manbalarini tanlash mezonlari, raqamli matnlarni tayyorlash, tozalash (cleaning) hamda lingvistik annotatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, korpus yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanishning afzalliklari hamda ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *korpus lingvistikasi, korpus bazasi, raqamli matn, annotatsiya, matnni tozalash, metadata, tokenizatsiya, lemmatizatsiya, korpus tadqiqoti, sun’iy intellekt.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются научно-методические основы создания корпусной базы данных для лингвистических исследований. Проанализированы основные этапы формирования корпуса, критерии отбора текстовых источников, подготовка и очистка цифровых текстов, а также процессы их лингвистической аннотации. Особое внимание уделяется использованию современных информационных технологий, искусственного интеллекта и автоматизированных инструментов при создании языковых корпусов.*

***Ключевые слова:*** *корпусная лингвистика, корпусная база данных, цифровой текст, аннотация, очистка текста, метаданные, токенизация, лемматизация, корпусные исследования, искусственный интеллект.*

***Abstract.*** *This article discusses the scientific and methodological foundations of creating a corpus database for linguistic research. It analyzes the main stages of corpus construction, criteria for selecting text sources, preparation and cleaning of digital texts, and the process of linguistic annotation. Particular attention is paid to the use of modern information technologies, artificial intelligence, and automated tools in corpus development.*

***Key words:*** *corpus linguistics, corpus database, digital text, annotation, text cleaning, metadata, tokenization, lemmatization, corpus research, artificial intelligence.*

Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda korpus lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur fan til birliklarini jonli nutq namunalari asosida o‘rganish imkonini berib, nazariy hamda amaliy tahlillarning puxtaligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Elektron korpuslar yordamida millionlab so‘zlardan iborat matnlar bazasida tilning leksik, grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish imkoniyati yaratiladi. Keyingi yillarda jahonda British National Corpus (BNC), Corpus of Contemporary American English (COCA), Russian National Corpus, Sketch Engine, Leipzig Corpora Collection singari yirik korpus loyihalari amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur bazalar til birliklarining ishlatilish chastotasi, kontekstual xususiyatlari, kollokatsiyalari va ma’nodoshlik aloqalarini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) texnologiyalarining taraqqiyoti korpuslarni tuzish hamda tahlil qilish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi[4].

O‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasiga qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. O‘zbek tili milliy korpusini barpo etish, elektron lug‘atlar va raqamli til resurslarini yaratish yo‘nalishida salmoqli ishlar bajarilmoqda. Shunga qaramay, korpus bazasini shakllantirish, matnlarni standart holatga keltirish, tozalash hamda lingvistik jihatdan belgilash bo‘yicha yagona metodologik yondashuv to‘laqonli shakllanmagan. Bu holat korpusga tayanib qilinadigan ilmiy ishlar natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Korpus bazasining sifati olib boriladigan izlanishlar natijalarining haqqoniyligini belgilovchi asosiy mezondir. Agar korpusga kiritiladigan matnlar mavzu, uslub, janr va davr nuqtai nazaridan bir me’yorda tanlanmasa yoki texnik jihatdan tozalanmagan bo‘lsa, statistik hisob-kitoblar xato xulosalarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu boisdan korpusni barpo etish jarayonida matnlarni tanlab olish, ularni raqamlashtirish, formatlash, tozalash va annotatsiya qilish bosqichlariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Korpus lingvistikasi va korpuslar yaratish muammolari ham milliy, ham xorijiy olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ushbu sohaning nazariy poydevori Douglas Biber, Tony McEnery, Andrew Hardie, Geoffrey Leech, John Sinclair va Adam Kilgarriff kabi yetakchi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Xususan, korpus lingvistikasining asoschilaridan biri bo‘lgan John Sinclair korpusni jonli nutq namunalarining tizimli elektron to‘plami sifatida tavsiflaydi. Olimning qarashlariga ko‘ra, til hodisalarini haqqoniy tahlil qilish faqat real muloqot materiallariga tayangan holdagina amalga

oshishi mumkin. Sinclair korpusni tuzishda matnlarning tabiiyligi, reprezentativligi va muvozanatliligini bosh mezon sifatida ko‘rsatadi [1].

Douglas Biber korpus yaratish metodologiyasini ishlab chiqib, uning tarkibiga kiritiladigan matnlarning janr, uslub va funksional xususiyatlari o‘zaro muvozanatda bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Uning ilmiy ishlarida korpusning statistik ishonchliligi, hajmi va reprezentativligi tadqiqot natijalarining aniqligini ta’minlovchi muhim omillar sirasida baholanadi.

Tony McEnery va Andrew Hardie esa korpus lingvistikasini tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish masalalarini tadqiq etganlar. Ularning fikricha, avtomatik tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfologik hamda sintaktik annotatsiya ishlari zamonaviy korpus yaratishning ajralmas qismini tashkil qiladi[2].

Mahalliy olimlardan A. Nurmonov, Sh. Safarov, N. Mahmudov va boshqa tadqiqotchilar o‘zbek tilining elektron resurslari, kompyuter lingvistikasi hamda korpus lingvistikasining ayrim nazariy masalalarini o‘rganganlar. Keyingi yillarda o‘zbek tili milliy korpusini barpo etish bo‘yicha muayyan ilmiy-amaliy ishlar bajarilayotgan bo‘lsa-da, korpusni tuzishning uslubiy bosqichlari, xususan, matnlarni tozalash (cleaning), metadata tizimini shakllantirish, ko‘p bosqichli annotatsiya hamda sun’iy intellekt yordamida avtomatik belgilash texnologiyalaridan foydalanish jihatlari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Korpus bazasini barpo etish lingvistik izlanishning eng mas’uliyatli bosqichlaridan biri sanaladi. Korpusning sifati keyingi statistik, semantik va pragmatik tahlillarning aniqligini belgilab beradi. Shu sababli korpus tuzish tasodifiy matnlarni yig‘ish bilan cheklanib qolmay, balki aniq uslubiy tamoyillarga tayanadigan murakkab ilmiy jarayonni o‘z ichiga oladi. Davraboshi, tadqiqotning maqsad va vazifalariga muvofiq keladigan korpus turi belgilanadi. Korpus umumiy (general corpus), maxsus (specialized corpus), tarixiy, parallel, o‘quv yoki monitor korpus shaklida tuzilishi mumkin. Har bir korpus turi tadqiqot talabidan kelib chiqqan holda turli hajm, janr va uslubdagi matnlarni o‘z ichiga qamrab oladi[3].

Korpus tuzishdagi eng muhim talablardan biri uning reprezentativligidir. Reprezentativ korpus tilning real holatini imkon qadar to‘laqonli namoyon qilishi shart. Buning uchun matnlar turli uslublar, janrlar, mualliflar, hududlar va zamonaviy davr oralig‘idan saralanadi. Misol uchun, hozirgi o‘zbek tili korpusini yaratishda badiiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, gazeta-jurnal materiallari, rasmiy hujjatlar, tarmoq nashrlari hamda ijtimoiy tarmoq matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, korpusni barpo etishda mualliflik huquqiga qat’iy amal qilish, matnlarning ishonchli manbalardan olingani va ularning texnik sifati ham muhim o‘rin tutadi. Aynan shu mezonlar korpusning ilmiy qiymatini belgilaydi hamda keyingi bosqichlar – matnlarni tozalash va annotatsiya qilish uchun puxta poydevor vazifasini bajaradi.

Matn manbalarini saralash va korpus bazasini barpo etish Korpus lingvistikasida ilmiy xulosalarning puxtaligi, birinchi navbatda, bazaga kiritiladigan matnlarning salmog‘i va reprezentativlik darajasiga tayanadi. Shu boisdan korpusni barpo etishning boshlang‘ich bosqichi sifatida matn manbalarini tanlab olish maxsus uslubiy yondashuvni talab qiladi. Matnlar o‘zboshimchalik bilan emas, balki izlanishning oldiga qo‘ygan maqsadi, vazifalari hamda soha yo‘nalishiga qat’iy muvofiq holda saralanishi lozim. Hozirgi zamon korpuslarini shakllantirish jarayonida quyidagi manbalar bazasidan keng foydalaniladi:

badiiy adabiyot namunalari;
ilmiy maqolalar va monografiyalar;
davriy matbuot nashrlari;
rasmiy-idoraviy hujjatlar;
internet portallari va sahifalari;
bloglar hamda muhokama forumlari;
ijtimoiy tarmoq kontentlari (Facebook, Telegram, X, Instagram va hokazo);
jonli nutq yozuvlarining transkriptlari[5].

Har bir manba o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Misol uchun, badiiy asarlar tilning ifodali boyligini ko‘rsatsa, rasmiy hujjatlar me’yoriy qolipni, internet tarmoqlaridagi matnlar esa kundalik muloqotning tezkor va o‘zgaruvchan qirralarini namoyon etadi.

Douglas Biber korpusning reprezentativligi uning umumiy hajmidan ko‘ra ancha muhimroq ekanini uqtiradi. Olimning fikricha, hajman kichik, biroq puxta muvozanatlangan korpus ayrim hollarda juda yirik, ammo tartibsiz yig‘ilgan bazaga nisbatan ishonchliroq ilmiy natija taqdim etadi [2].

Raqamli matnlarni tayyorlash va tozalash (Text Cleaning) Korpus bazasi tuzilgach, navbatdagi mas’uliyatli bosqich matnlarni texnik jihatdan tartibga keltirishdan iborat. Turli manbalardan yig‘ilgan matnlar odatda HTML teglarini, e’lon va reklama qismlarini, maxsus belgilarni, takrorlanuvchi bo‘laklarni yoki turlicha formatlash elementlarini o‘z ichiga oladi. Bunday yot unsurlar lingvistik tahlil natijalarining xolisligiga putur yetkazishi mumkin. Shu boisdan korpus tuzish jarayonida matnni tozalash (Text Cleaning) amaliyoti bajariladi. Bugungi kunda Python, BeautifulSoup, NLTK, spaCy, OpenRefine singari dasturiy muhitlar matnlarni avtomatik tarzda tozalash imkonini bermoqda. Sun’iy intellektga asoslangan algoritmlar esa noto‘g‘ri kodlangan yoki buzilgan matn parchalarini ham qayta tiklash salohiyatiga ega. Matnlarni tozalash ishlari ayniqsa veb-korpuslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi, internet sahifalarida foydali axborot bilan bir qatorda turli reklamalar, menyular, sharhlar va boshqa keraksiz elementlar ko‘p uchraydi.

Umuman aytganda, kelgusida o‘zbek tili uchun yirik, ochiq va muntazam yangilanib boruvchi milliy korpuslarni yaratish, ularni sun’iy intellekt yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish hamda ilmiy jamoatchilik uchun qulay platformalarni ishga tushirish korpus lingvistikasining ustuvor vazifalaridan bo‘lib qoladi. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslik bilan bir қatorda tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi, ta’lim texnologiyalari va mashinaviy tarjima tizimlarining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
2. Kilgarriff A., Kosem I. Corpus Tools and Corpus Design. Springer, 2018.
3. Leech G. Introducing Corpus Annotation. London: Longman, 2005.
4. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
5. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics. Edinburgh University Press, 2001.
6. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991.

**UO’K 821.111.09:821.512.133-3**

## TABIAT VA SIVILIZATSIYA QARAMA-QARSHILIGI: THOMAS HARDY VA XURSHID DO‘STMUHAMMAD IJODIDA KOMPARATIV TAHLIL

***M.B.Qodirova, o‘qituvchi, 31-maktab, Qarshi***
***Orcid: 0009-0001-3771-6382***

***Annotatsiya.*** *Maqolada Thomas Hardy va Xurshid Do‘stmuhammad nasrida tabiat va sivilizatsiya qarama-qarshiligining badiiy talqini qiyosiy o‘rganiladi. Hardy ijodidan “The Return of the Native”, “Tess of the d’Urbervilles” va “Far from the Madding Crowd”, Do‘stmuhammad ijodidan esa “Bozor”, “Jajman”, “Panoh” va “Donishmand Sizif” asarlari tahlilga tortildi. Tabiiy makon, bozor, texnika, zilzila, daraxt, maxluq va xarsang obrazlarining syujet hamda qahramon ruhiyatidagi vazifasi ochib berildi. Natijada Hardyda tabiat insondan qadimiy va mustaqil kuch, Do‘stmuhammadda esa jamiyatning ma’naviy holatini ko‘rsatadigan ramziy mezon sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tabiat, sivilizatsiya, ekotanqid, komparativ tahlil, makon, texnika, bozor, ramz, grotesk.*

***Аннотация.*** *В статье сопоставляется художественная интерпретация противостояния природы и цивилизации в прозе Томаса Харди и Хуршида Дустмухаммада. Материалом исследования служат романы «Возвращение на родину», «Тэсс из рода д’Эрбервиллей», «Вдали от обезумевшей толпы», а также произведения «Базар», «Джажман», «Убежище» и «Мудрый Сизиф». Анализируются функции природного пространства, техники, рынка, землетрясения, дерева, зооморфного образа и камня. У Харди*

*природа выступает самостоятельной силой и историческим временем, у Дустмухаммада - символическим критерием нравственного состояния общества.*

***Ключевые слова:*** *природа, цивилизация, экокритика, сравнительный анализ, пространство, техника, рынок, символ, гротеск.*

***Abstract.*** *This article comparatively examines the artistic opposition between nature and civilization in the prose of Thomas Hardy and Khurshid Dostmuhammad. The analysis covers The Return of the Native, Tess of the d'Urbervilles, Far from the Madding Crowd, and Dostmuhammad's Bozor, Jajman, Panoh and Donishmand Sizif. Particular attention is given to landscape, machinery, the market, earthquake, trees, a grotesque creature and the boulder as meaning-making images. Hardy presents nature as an autonomous force and a long historical scale, while Dostmuhammad turns natural and material images into moral signs that reveal social deformation.*

***Key words:*** *nature, civilization, ecocriticism, comparative analysis, space, machinery, market, symbol, grotesque.*

Tabiat va sivilizatsiya munosabati adabiyotda faqat shahar bilan qishloqni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat emas. Bu masala insonning yerga, mehnatga, tirik mavjudotga va o‘z hayotiga qanday munosabatda bo‘lishi bilan bog‘liq. Tabiat asarda shamol, dala, daraxt, hayvon, tosh yoki tabiiy ofat shaklida ko‘rinsa, sivilizatsiya texnika, bozor, qonun, ijtimoiy tartib va iste'mol odatlari orqali namoyon bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi ziddiyat vosita inson va hayotga xizmat qilmay, aksincha, ularni o‘ziga bo‘ysundira boshlagan paytda keskinlashadi.

Thomas Hardy yashagan Viktoriya davrida Angliya qishlog‘i sanoatlashuv, temiryo‘l, bozor va sinfiy tabaqalanish ta'sirida tez o‘zgarayotgan edi. Yozuvchi yaratgan Wessex hududi oddiy geografik manzara emas, balki tabiat, tarix, urf-odat va inson taqdiri bir-biriga tutashgan badiiy olamdir. Xurshid Do‘stmuhammad esa zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi ma'naviy o‘zgarishlarni ko‘pincha bozor, g‘ayritabiiy maxluq, zilzila, daraxt va mifologik tosh kabi timsollar orqali ko‘rsatadi. Shu sababli ikki adib ijodini qiyoslash turli davr va madaniyatlarda sivilizatsiya bosimi qanday badiiy shaklga kirishini aniqlashga yordam beradi.

“The Return of the Native” romanining ilk bobida avval qahramonlar emas, Egdon Heath tasvirlanadi. Bu kompozitsion tanlov makonning voqealar uchun oddiy fon emasligini bildiradi. Egdon insondan oldin mavjud bo‘lgan, uning orzu va tashvishlariga befarq, uzoq tarixiy vaqtni ifodalovchi kuchdir [1, I kitob, 1-bob]. Eustacia Vye sahroni o‘z istaklariga to‘siq deb biladi va Parijni yorug‘, erkin hayot ramzi sifatida tasavvur qiladi. Clym Yeobright esa shahardagi savdo muhitidan qaytib, bilimini mahalliy odamlarga xizmat qildirishni istaydi. Bir makon ikki xil qarashni ochadi: tabiatni tushunish va u bilan yashash yoki undan qochib, tayyor sivilizatsion orzuga intilish.

“Tess of the d'Urbervilles”da qarama-qarshilik yanada aniq ijtimoiy mazmun oladi. Talbothaysdagi bahor va yoz Tessning qisqa muddatli xotirjamligi, muhabbati va mehnat bilan uyg‘un hayotini ifodalaydi. Flintcomb-Ashdagi sovuq yer, kuchli shamol va xirmon mashinasi esa inson tanasini tabiiy ritmdan uzib, mexanik intizomga bo‘ysundiradi. Hardy mashinani jonlantirib tasvirlaydi; uning to‘xtovsiz talabi ayollarning charchog‘i va ehtiyojini hisobga olmaydi [2, 47-bob]. Muammo texnikaning o‘zida emas, texnik samaradorlik inson qadridan ustun qo‘yilishidadir.

“Far from the Madding Crowd” romanida Gabriel Oak tabiatga qarshi kurashuvchi emas, uning belgilarini o‘qiy oladigan mehnat kishisidir. U shamol, osmon rangi, hayvonlarning holati va namlikdan bo‘ron yaqinlashayotganini sezadi hamda hosil g‘aramlarini saqlab qolishga urinadi [3, 37-bob]. Boshqalarning beparvoligi bilan Gabrielning mas'uliyati o‘rtasidagi farq tabiat bilan hamkorlik sivilizatsiyadan voz kechish emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, tajriba, bilim va axloqiy javobgarlik uyg‘unlashgandagina taraqqiyot hayotga xizmat qiladi.

“Jajman”da shu jarayon grotesk obraz orqali keskinlashtiriladi. Timda paydo bo‘lgan g‘alati maxluq tinimsiz yeydi, o‘g‘irlaydi va asta-sekin odamlar ko‘nikib qolgan mavjudotga aylanadi. Uning kuchayishiga faqat ochko‘zligi emas, tim ahlining sukuti va beparvoligi ham sabab bo‘ladi [5]. Jajman tabiiy jonzotga o‘xshasa-da, tabiiy muvozanatni emas, cheksiz iste'molning buzilgan nusxasini ifodalaydi. Tabiiy tizimda olish va qayta tiklanish o‘rtasida me'yor mavjud; Jajman esa

faqat yutadi. Maxluq yo‘q qilingach, undan kattaroq nusxaning paydo bo‘lishi sabab emas, alomat bartaraf etilganini ko‘rsatadi.

“Panoh” qissasida tabiat va sivilizatsiya qarama-qarshiligi zilzila, qishloq xotirasi va daraxt timsoli orqali ochiladi. Tabiiy ofat insonning zaifligini ko‘rsatadi, lekin ayni paytda qishloq odamlaridagi mehr-oqibat va bir-biriga suyanch bo‘lish tuyg‘usini uyg‘otadi. Ona o‘rik va uning danagidan ungan Gulinur daraxtlari yurt, xotira va avlod davomiyligining tirik belgilariga aylanadi [6]. Ularga qarshi turgan kuch faqat zilzila emas. Appon “zakunchi” bilan bog‘liq zo‘ravon tartib, o‘ttiz yettinchi yillar xotirasi va odamlarni ildizidan uzadigan ma’muriy qarorlar tabiat ofatidan ham uzoq davom etadigan ruhiy jarohat qoldiradi.

Bu asarda “panoh” tayyor bino yoki tashqi himoya bilangina cheklanmaydi. Ahmadali uchun panoh – odamlarning mehrida, otasi Abdiali bilan bog‘liq xotirada, daraxtlarda va tug‘ilgan joyga sadoqatda namoyon bo‘ladi. Zilzila uylarni buzishi mumkin, ammo insoniy rishtalarni butunlay yo‘q qila olmaydi. Sivilizatsiya nomidan yuritilgan adolatsiz bosim esa odamning ichki tayanchini yemiradi. Shu jihatdan qissa tabiat ofati bilan ijtimoiy zulmni yonma-yon qo‘yib, qaysi biri insoniyat uchun chuqurroq xavf ekanini o‘ylashga undaydi.

“Donishmand Sizif” romanida tabiat keng sahro, tog‘, bulut va xarsang shaklida falsafiy makonga aylanadi. Sizifning toshni cho‘qqiga olib chiqishi, toshning yana pastga yumalashi sivilizatsiyaning cheksiz takrorlanuvchi mehnat, jazo va buyruq tartibini eslatadi. Qahramon dastlab xarsangni jonsiz dushman deb biladi. Keyinchalik undagi izlar, ranglar va og‘ir “nafas”ni kuzatib, “jonsiz” narsada ham ruh va ma’no bo‘lishi mumkinligini anglay boshlaydi [7, II qism]. Bu o‘zgarish tabiatni egallash istagidan uni tinglash va tushunishga o‘tishdir.

**1-jadval.**

**Asarlarda tabiat va sivilizatsiya ziddiyatining asosiy ko‘rinishlari**

| Asar | Tabiiy obraz | Sivilizatsiya shakli | Asosiy mazmun |
|---|---|---|---|
| The Return of the Native | Egdon Heath | Shahar va iste’mol orzusi | Muhitni noto‘g‘ri o‘qish begonalashuvni kuchaytiradi. |
| Tess of the d’Urbervilles | Fasl, yer, shamol | Xirmon mashinasi, sinfiy tartib | Mexanik ritm inson tanasi va qadrini siqib chiqaradi. |
| Far from the Madding Crowd | Bo‘ron, hayvon, dala | Beparvo xo‘jalik tartibi | Bilim va mas’uliyat tabiat bilan hamkorlikni yaratadi. |
| Bozor | Tirik organizmga o‘xshash makon | Narx va ayirboshlash | Bozor vositadan hukmdorga aylansa, ma’naviy aloqa buziladi. |
| Jajman | Grotesk maxluq | Cheksiz iste’mol | Jamiyatning sukuti me’yor buzilishini odatga aylantiradi. |
| Panoh | Zilzila, ona o‘rik, Gulinur daraxtlari | Mafkuraviy va ma’muriy bosim | Tabiiy ofat birdamlikni, ijtimoiy zulm esa ichki jarohatni ochadi. |
| Donishmand Sizif | Tog‘, bulut, xarsang | Jazo va ma’nosiz takror | Toshni yengish emas, uning mustaqil mavjudligini anglash donishmandlikdir. |

Qiyosiy kuzatishlar ikki adib poetikasida bir nechta mushtarak tamoyil borligini ko‘rsatadi. Birinchidan, makon voqea sodir bo‘ladigan joy emas, qahramonning axloqiy pozitsiyasini sinaydigan faol tuzilmadir. Egdon, Flintcomb-Ash, bozor, zilzila vayron qilgan qishloq va Sizifning jazogo‘yi qahramon tanloviga bosim o‘tkazadi. Ikkinchidan, sivilizatsiya texnika yoki shahar bilan cheklanmaydi. U mehnatni mexaniklashtiradigan tartib, hamma narsaga narx qo‘yadigan bozor, inson xotirasini bostiradigan mafkura va ma’nosiz takrorni majbur qiladigan jazo tizimi sifatida ko‘rinadi.

“The Return of the Native” va “Donishmand Sizif”da esa uzoq vaqt oldida insonning cheklanganligi markazga chiqadi. Egdon Heath qahramonlardan oldin mavjud bo‘lgan va ulardan keyin ham qoladigan makondir. Sizifning xarsangi ham bir inson umridan kattaroq, tugamaydigan vazifa timsoli bo‘lib ko‘rinadi. Farq shundaki, Hardy qahramoni tabiat ichida yashab, ko‘pincha uning tilini noto‘g‘ri talqin qiladi; Do‘stmuhammad qahramoni esa uzoq kuzatish va iztirob orqali toshning “tili” borligini sezishga yaqinlashadi.

“Panoh” va “Far from the Madding Crowd” asarlarida mas’uliyatning jamoaviy tomoni kuchli. Gabriel bo‘ron belgilarini vaqtida payqaydi, ammo boshqalarning beparvoligi xavfni oshiradi. “Panoh”da zilzila qishloq ahlini bir-biriga yaqinlashtiradi, tarixiy adolatsizlik esa jamiyat xotirasida uzoq yashaydi. Demak, tabiat bilan munosabat faqat shaxsiy sezgirlikka emas, jamoaning

hamjihatligi va xotirasiga ham bog‘liq. Yakka odamning to‘g‘ri qarori muhim, lekin barqaror muvozanat umumiy axloqiy mas’uliyat shakllangandagina yuzaga keladi.

**Xulosa.** Thomas Hardy va Xurshid Do‘stmuhammad ijodida tabiat va sivilizatsiya qarama-qarshiligi turli tarixiy sharoitda yaratilgan bo‘lsa-da, ularning falsafiy markazi mushtarakdir. Hardyda tabiat insondan qadimiy, uning rejasiga to‘liq bo‘ysunmaydigan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Egdon Heath, fasllar, bo‘ron va dala mehnati inson istagini sinaydi; sanoat, sinfiy tartib va patriarxal axloq esa tirik hayotning tabiiy murakkabligini soddalashtirib, fojiani kuchaytiradi.

Do‘stmuhammadda tabiat ko‘proq ramziy va psixologik vazifa bajaradi. “Bozor”dagi ayirboshlash muhiti, “Jajman”dagi cheksiz ishtaha, “Panoh”dagi zilzila va daraxtlar, “Donishmand Sizif”dagi xarsang jamiyat hamda inson ongining holatini ko‘rsatadi. Bu obrazlar sivilizatsiya hayot vositasidan hukmron mexanizmga aylanganda insonning ildizi, xotirasi, vijdoni va borliq bilan aloqasi zaiflashishini ochadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Hardy, T. The Return of the Native. London: Penguin Classics, 2003. 512 p.
2. Hardy, T. Tess of the d’Urbervilles. London: Penguin Classics, 2003. 592 p.
3. Hardy, T. Far from the Madding Crowd. London: Penguin Classics, 2000. 464 p.
4. Do‘stmuhammad, X. Bozor: roman. Toshkent: Sharq, 2000.
5. Do‘stmuhammad, X. Jajman: hikoyalar. Toshkent: Sharq, 1997.
6. Do‘stmuhammad, X. Panoh: qissa. Toshkent: Sharq, 2011.
7. Do‘stmuhammad, X. Donishmand Sizif: roman. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. 359 b.
8. Glotfelty, Ch., Fromm, H. (eds.). The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. Athens: University of Georgia Press, 1996. 415 p.
9. Garrard, G. Ecocriticism. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2012. 240 p.
10. Kramer, D. (ed.). The Cambridge Companion to Thomas Hardy. Cambridge: Cambridge University Press, 1999. 240 p.
11. Kurbanova, F. Xurshid Do‘stmuhammad asarlarida badiiy psixologizm va majoz tadriji: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi, 2023. 50 b.

**UO’K: 821.512.154.09:17.022.1**

## CHINGIZ AYTMATOVNING “KASSANDRA TAMG‘ASI” ASARIDA INSONIYATNING AXLOQIY-INSONIY INQIROZI IFODASI

***M.A.Rajabaliyeva, katta o‘qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi***

***Annotatsiya.*** *Maqolada Chingiz Aytmatovning “Kassandra tamg‘asi” romanida insoniyatning axloqiy-insoniy inqirozi qanday badiiy-falsafiy vositalar orqali ifodalangani tahlil qilinadi. Asarda Kassandra tamg‘asi ramzi, Filofey obrazi, Robert Borkning ma’naviy pozitsiyasi, ommaviy ong va siyosiy manipulyatsiya muammolari o‘rganiladi. Roman ilm-fan taraqqiyoti, inson mas’uliyati, vijdon, tabiat va kelajak avlod taqdiri bilan bog‘liq dolzarb savollarni ko‘taradi. Tadqiqot natijasida “Kassandra tamg‘asi” asari insoniyatning ma’naviy tanazzuli haqida ogohlantiruvchi falsafiy roman ekani asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chingiz Aytmatov, Kassandra tamg‘asi, axloqiy inqiroz, insoniy inqiroz, vijdon, antiutopiya, Filofey, Robert Bork.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется художественно-философское выражение нравственно-гуманистического кризиса человечества в романе Чингиза Айтматова “Тавро Кассандры”. Рассматриваются символика тавра Кассандры, образ Филофея, нравственная позиция Роберта Борка, а также проблемы массового сознания и политической манипуляции. Делается вывод, что роман является философским предупреждением о духовном состоянии современной цивилизации и ответственности человека перед будущим.*

***Ключевые слова:*** *Чингиз Айтматов, Тавро Кассандры, нравственный кризис, гуманистический кризис, совесть, антиутопия, Филофей, Роберт Борк.*

***Abstract.*** *The article analyzes the artistic and philosophical representation of humanity’s moral and humanistic crisis in Chingiz Aytmatov’s novel “Cassandra’s Brand”. The study focuses on the symbolism of Cassandra’s brand, the image of Philotheus, Robert Bork’s moral position, and the issues of mass consciousness and political manipulation. The article concludes that the novel is a*

*philosophical warning about the spiritual crisis of modern civilization and human responsibility for the future.*

***Key words:*** *Chingiz Aytmatov, Cassandra's Brand, moral crisis, humanistic crisis, conscience, dystopia, Philotheus, Robert Bork.*

**Kirish.** Chingiz Aytmatov ijodi XX asr jahon adabiyotida inson, jamiyat, tabiat, tarixiy xotira va vijdon muammolarini chuqur badiiy-falsafiy talqin etgani bilan alohida o'rin tutadi. Adibning "Oq kema", "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat" kabi asarlarida insoniyatning ma'naviy tanazzuli, tabiatga munosabat, ezgulik va yovuzlik kurashi, tarixiy xotiraning yo'qolishi kabi masalalar yetakchi mavzular sifatida namoyon bo'ladi. "Kassandra tamg'asi" romanida esa ushbu muammolar yanada kengroq – global va sivilizatsion miqyosda yoritiladi.

Asarning ruscha nomi "Тавро Кассандры" bo'lib, u yozuvchining so'nggi davr ijodiga mansub falsafiy romanlaridan biridir. Roman o'zbek tilida "Oxirzamon nishonalari (Kassandra tamg'asi)" nomi bilan ham nashr etilgan [2]. Asarda homilaning dunyoga kelishni istamasligi va bu holat ayol peshonasida maxsus belgi – Kassandra tamg'asi tarzida namoyon bo'lishi orqali insoniyatning ichki axloqiy inqirozi ochib beriladi.

Kassandra obrazi qadimgi yunon mifologiyasida kelajakdagi falokatni oldindan aytgan, biroq uning gapiga hech kim ishonmagan fojiaviy timsol sifatida ma'lum. Aytmatov ana shu mifologik obrazni zamonaviy sivilizatsiya muammolari bilan bog'laydi. Romandagi Kassandra tamg'asi insoniyatga yo'llangan ogohlantirishdir: agar jamiyat zo'ravonlik, loqaydlik, ilmiy kibr, tabiatga tajovuz va ma'naviy yemirilish yo'lidan qaytmasa, kelajak avlodning o'zi bu dunyoga kelishni istamasligi mumkin.

Maqolaning maqsadi – "Kassandra tamg'asi" romanida insoniyatning axloqiy-insoniy inqirozi qanday obrazlar, ramzlar va badiiy-falsafiy g'oyalar orqali ifodalanganini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda badiiy matnni tahlil qilishning hermenevtik, aksiologik, mifopoetik va qiyosiy-tahliliy usullaridan foydalanildi. Hermenevtik yondashuv asosida romandagi ramzlar va obrazlarning ichki ma'nosi ochib berildi. Aksiologik yondashuv orqali asardagi vijdon, mas'uliyat, ezgulik, yovuzlik, hayot va kelajak avlod taqdiri kabi qadriyatlar tizimi tahlil qilindi. Mifopoetik yondashuv esa Kassandra obrazi, kosmos, kitlar va oxirzamon motivlarining badiiy vazifasini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Chingiz Aytmatovning "Тавро Кассандры" romani va uning o'zbekcha tarjimasi olindi [1; 2]. Shuningdek, roman antiutopik xususiyatlari, apokaliptik motivlari va falsafiy mazmuniga oid ilmiy maqolalardan foydalanildi [3–7].

**Natijalar va muhokama.** "Kassandra tamg'asi" romanining markazida insoniyatning ma'naviy inqirozi muammosi turadi. Asardagi Kassandra tamg'asi biologik hodisadan ko'ra kengroq ma'noga ega bo'lib, u insoniyat vijdonining tashqi belgisiga aylanadi. Homilaning tug'ilishni istamasligi oddiy fantastik voqea emas, balki kelajak avlodning mavjud dunyoga nisbatan ishonchsizligi, insoniyatning axloqiy holatiga bildirilgan norozilikdir.

Romanda Aytmatov o'ta keskin savol qo'yadi: agar insoniyat o'z dunyosini yovuzlik, zo'ravonlik, ekologik xavf, ruhiy bo'shliq va siyosiy yolg'on bilan to'ldirsa, yangi hayot bu dunyoga kelishni xohlaydimi? Demak, Kassandra tamg'asi kelajak avlodning jim noroziligi, tug'ilmagan insonning insoniyat ustidan chiqargan axloqiy hukmidir.

Roman qahramonlaridan Filofey – sobiq olim Andrey Kriltsov obrazi ilm-fan va vijdon o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. U inson tabiatiga aralashgan, ilmiy tajribalar orqali hayot jarayoniga ta'sir ko'rsatgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Biroq keyinchalik u o'z faoliyatining axloqiy oqibatlarini anglaydi va chuqur ruhiy iztirobga tushadi. Filofeyning kosmosga chiqib ketishi tashqi makon almashinuvi emas, balki o'z aybi, insoniyat va jamiyatdan qochishning ramziy shaklidir.

Aytmatov Filofey obrazi orqali ilm-fanning axloqiy nazoratsiz rivojlanishini tanqid qiladi. Ilm-fan insoniyatga xizmat qilishi mumkin, ammo u vijdon va mas'uliyatdan ajralsa, insonni tajriba obyektiga aylantiradi. Shu jihatdan Filofey obrazi fojiali xarakterga ega: u haqiqatni anglagan, ammo uni jamiyatga yetkazishga ojiz qolgan ogohlantiruvchi shaxsdir. Bu jihat romandagi Kassandra mifi

bilan hamohangdir, chunki Filofey ham falokatni oldindan ko‘radi, biroq uning ogohlantirishi ko‘pchilik tomonidan rad etiladi.

Robert Bork obrazi esa romanda vijdonli ziyoli, haqiqatga befarq qaray olmaydigan inson timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U Filofeyning xabarini oddiy ilmiy shov-shuv sifatida emas, balki insoniyat taqdiri bilan bog‘liq axloqiy masala sifatida qabul qiladi. Borkning pozitsiyasi orqali Aytmatov ziyolining jamiyat oldidagi mas’uliyatini ko‘rsatadi. Bork ommaviy qo‘rquv va siyosiy manfaatlar ichida aql, vijdon va mas’uliyat ovozi sifatida ajralib turadi.

Romanda insoniyat inqirozining yana bir muhim ko‘rinishi ommaviy ong va siyosiy manipulyatsiya muammosidir. Oliver Ordoq obrazi orqali yozuvchi qo‘rquvni siyosiy qurolga aylantiruvchi, omma hissiyotini boshqaruvchi kuchlarni tanqid qiladi. U Filofey kashfiyotini chuqur anglashga urinmaydi, aksincha, uni siyosiy manfaat yo‘lida talqin qiladi. Natijada jamiyat haqiqatni eshitish o‘rniga, qo‘rquv, nafrat va shovqinga ergashadi.

Bu holat asarning antiutopik xususiyatini kuchaytiradi. Antiutopik adabiyotda tashqi taraqqiyot ortida insoniylikning yemirilishi ko‘rsatiladi. “Kassandra tamg‘asi”da ham zamonaviy sivilizatsiya ilmiy va texnik jihatdan yuksalgan bo‘lsa-da, ichki ma’naviy tayanchlarini yo‘qotgan jamiyat sifatida tasvirlanadi. Nichiporov romanda ilm-fan, din, mifologiya va futurologiya unsurlari bir-biri bilan murakkab bog‘langanini ta’kidlaydi [3]. Bu jihat asarning faqat fantastik voqelik emas, balki falsafiy-ogohlantiruvchi roman ekanini ko‘rsatadi.

Aytmatov ijodida tabiat doimo insoniyat vijdonining ko‘zgusi sifatida talqin qilinadi. “Kassandra tamg‘asi”da ham kitlar, kosmos va Yer obrazi bevosita ramziy ma’noga ega. Kitlar insoniyatning tabiat bilan uzilgan aloqasini, kosmos esa insoniyat muammolarining global miqyosini bildiradi. Filofey kosmosga chiqib ketgan bo‘lsa-da, insoniyat muammosidan qutula olmaydi. Chunki axloqiy inqiroz tashqi makon bilan emas, insonning ichki holati bilan bog‘liq.

Asarda ezgulik va yovuzlik kurashi ham an’anaviy shaklda emas, balki inson qalbi, jamiyat ongi va sivilizatsiya tanlovlari darajasida beriladi. Yovuzlik faqat ochiq jinoyat yoki zo‘ravonlikda emas, balki beparvolik, vijdonsizlik, hayotni tajriba obyektiga aylantirish, ommaviy qo‘rquvga ergashish va haqiqatni rad etishda namoyon bo‘ladi. Ezgulik esa og‘ir mas’uliyat, o‘z aybini tan olish, kelajak oldida javobgarlikni his qilish shaklida ko‘rinadi.

Shu ma’noda “Kassandra tamg‘asi” romani Chingiz Aytmatov ijodidagi oldingi falsafiy muammolarning mantiqiy davomi hisoblanadi. “Asrga tatigulik kun”da tarixiy xotirani yo‘qotish – manqurtlik fojiasi ko‘rsatilgan bo‘lsa, “Kassandra tamg‘asi”da insoniyat nafaqat o‘tmishini, balki kelajagini ham yo‘qotish xavfiga duch keladi. “Qiyomat”da tabiat, din va axloq muammolari ko‘tarilgan bo‘lsa, “Kassandra tamg‘asi”da bu muammolar butun sivilizatsiya taqdiri bilan bog‘lanadi.

Romanning bugungi kun uchun ahamiyati ham aynan shunda. Genetik tajribalar, biotexnologiya, ekologik muammolar, ommaviy axborot vositalari orqali ongni boshqarish, siyosiy populizm va ma’naviy loqaydlik hozirgi davrda ham dolzarb masalalardir. Aytmatov bu muammolarni badiiy-falsafiy shaklda ilgari surib, insoniyatni o‘z kelajagi haqida jiddiy o‘ylashga chaqiradi.

**Xulosa.** Chingiz Aytmatovning “Kassandra tamg‘asi” romani insoniyatning axloqiy-insoniy inqirozini keng falsafiy miqyosda yoritgan asardir. Romandagi Kassandra tamg‘asi ramzi tug‘ilmagan avlodning mavjud dunyoga nisbatan noroziligi, insoniyat vijdonining ko‘rinadigan belgisi va kelajak oldidagi ogohlantirish sifatida talqin qilinadi.

Filofey obrazi ilm-fan va vijdon o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. U o‘z xatosini anglagan, biroq jamiyatga haqiqatni yetkazishda fojiali yolg‘izlikka mahkum bo‘lgan qahramondir. Robert Bork esa ziyolining axloqiy mas’uliyati, haqiqat va insoniylikni himoya qilishga intilish timsolidir. Oliver Ordoq obrazi orqali esa siyosiy manipulyatsiya, ommaviy ongning boshqarilishi va qo‘rquvdan manfaat yo‘lida foydalanish tanqid qilinadi.

Asarda insoniyat inqirozi tashqi falokatdan avval ichki ma’naviy yemirilish sifatida ko‘rsatiladi. Vijdonning susayishi, ilm-fanning axloqiy mezonsiz rivojlanishi, tabiat qonunlariga bepisand munosabat va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni unutish sivilizatsiyani halokat yoqasiga olib boradi.

Shunday qilib, “Kassandra tamg‘asi” faqat fantastik yoki antiutopik roman emas, balki insoniyatga yo‘llangan falsafiy ogohlantirishdir. Aytmatovning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, insoniyatni faqat ilmiy-texnik taraqqiyot emas, balki vijdon, mas’uliyat va ma’naviy uyg‘onish qutqarishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Айтматов Ч. Тавро Кассандры. – Москва: ЭКСМО, 1995. – 425 с.

2. Айтматов Ч. Охирзамон нишоналари (Кассандра тамғаси): роман / русчадан Суюн Қораев таржимаси. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – 392 б.

3. Ничипоров И.Б. “Тавро Кассандры” Чингиза Айтматова как роман-антиутопия // Art Logos. – 2018.

4. Васильева-Шальнева Т.Б. “Апокалипсическая дилогия” Ч. Айтматова: романы “Плаха” и “Тавро Кассандры” // Филология и культура. – 2013. – № 2 (32). – С. 89–93.

5. Мискина М.С. Мотив жертвоприношения в романе Ч. Айтматова “Тавро Кассандры” // Вестник Томского государственного университета. – 2003. – Вып. 277. – С. 152–160.

6. Chonmurunova N.J. Methods of Representation of the Concept of Good and Evil in Ch. T. Aytmatov’s Works Based on the Novel “Tavro Kassandry” // Research Result. Theoretical and Applied Linguistics. – 2015. – Vol. 1. – № 4. – P. 67–70.

7. Imanalieva A., Kalieva K. Philosophical Criticism Applied to Kassandra’s Brand Novel by Ch. Aitmatov // Bulletin of Science and Practice. – 2023. – Vol. 9. – № 6. – P. 697–703.

8. Hasanov Sh. Chingiz Aytmatov va o‘zbek adabiyoti // Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi. – 2017. – Cilt 1. – Sayı 1. – S. 1–14.

**UO’K 808.5**

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “FOOD/OZIQ-OVQAT” KONSEPTI CHOG‘ISHTIRMA TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

***I.Raxmonova, o‘qituvchi, PhD, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona***

***Annotatsiya.*** *Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” konseptining kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Konseptning nazariy asoslari va “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklarning ma’nolari o‘rganilib, ushbu konseptning har ikki tilda milliy madaniyat va tafakkurni aks ettiruvchi muhim lingvokognitiv birlik ekani yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyat, frazeologik birlik, oziq-ovqat, qiyosiy tahlil, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, konseptual tahlil.*

***Аннотация.*** *В статье проводится сравнительный анализ когнитивных и лингвокультурологических особенностей концепта «food/пища» в английском и узбекском языках. Рассматриваются теоретические основы концепта и значения фразеологических единиц с компонентом «food/пища», а также показывается, что данный концепт является важной лингвокогнитивной единицей, отражающей национальную культуру и мышление обоих народов.*

***Ключевые слова:*** *концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, фразеологическая единица, пища, сравнительный анализ, денотативное значение, коннотативное значение, концептуальный анализ.*

***Abstract.*** *The article presents a comparative analysis of the cognitive and linguocultural features of the concept of “food” in English and Uzbek. It examines the theoretical foundations of the concept and the meanings of phraseological units containing the “food” component, demonstrating that this concept is an important linguocognitive unit reflecting the national culture and worldview of both languages.*

***Key words:*** *concept, cognitive linguistics, phraseological unit, comparative analysis, denotative meaning, connotative meaning, conceptual analysis.*

Til – insonning tafakkur mahsulini va madaniy merosini aks ettiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Shu ma’noda, konseptual tahlilda til birliklari orqali ifodalangan konseptlarning mazmunini, ularning xalq madaniyati va mentalitetidagi o‘rnini aniqlash mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” konsepti xalqning hayot tarzi, madaniy qadriyatlari va milliy xususiyatlarini ifoda etuvchi muhim konseptlardan biri hisoblanadi. Garchi bu konsept ingliz va o‘zbek tilshunosligida

chog‘ishtirma tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilmagan bo‘lsa-da, u madaniy antropologiya va kognitiv semantika nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Inson obyektiv voqelikni mushohada qilar ekan, u bo‘yicha barcha bilimlarini, yuqorida zikr etilgan ikki universal jarayonlar natijasi o‘laroq, turli “konseptual semantikalar”, ya’ni “konseptlar” orqali egallaydi, ularni shakllantiradi, boyitadi va kundalik muloqotda qo‘llaydi[1]. Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o‘rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki kognitiv tilshunoslik dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyatini va dunyo voqeliklari bilan bog‘liqligini o‘rganuvchi fan bo‘lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri, madaniyat va inson o‘rtasida aloqa o‘rnatuvchi elementdir.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi turlicha talqin etiladi. Masalan, Sh.Safarov “moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushunchaning tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olish”ini takidlaydi[2].

Atoqli tilshunos olim, professor G‘.Hoshimov konseptga quyidagicha ta’rif beradi: “Konsept – bu tafakkurda kechuvchi biri-biri bilan chambarchas bog‘liq nafaqat ikki muhim jarayonning (konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning) natijasi, balki unga qo‘shimcha yana bir qator muhim (psixologizatsiya, kognitizatsiya, sotsiologizatsiya, (lingvo) semantizatsiya, stilizatsiya (dialektizatsiya, variantizatsiya va idiolektizatsiya kabi) jarayonlarning pirovard natijasi sanaladi va yaxlit konseptual/kognitiv semantika sifatida lingvistik semantikaning kognitiv asosini tashkil etadi hamda unda til birligi o‘zining semantik sig‘imi bilan bog‘liq holda ma’lum darajada (qisman) aks etadi”. Professor konseptni murakkab idrokiy voqelik, ya’ni tilda verbal (va kerak hollarda noverbal) vositalar orqali voqelantiriluvchi hodisa sifatida murakkab ichki tashkil etuvchilardan iborat, deb hisoblaydi[3]. Olimning fikricha, u tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan shajaraviy tarkibga ega va tilda so‘zlovchilar tomonidan belgi(lar) orqali moddiylashtiriladi hamda barchaga umumiy bo‘lgan bir ma’no sifatida qabul qilinadi.

Ma’lumki, oziq-ovqat barcha millatlarda o‘ziga xos ma’no anglatuvchi tushuncha sanaladi. Bu borada ingliz va o‘zbek tilshunosligida “oziq-ovqat” konseptini chog‘ishtirib, ularning kognitiv jihatlarini alohida tahlil obyekti sifatida tadqiq qilish to‘liq amalga oshirilmagan. Biroq g‘arb tilshunos olimlari, asosan, g‘arb tillari o‘rtasida qiyosiy jihatdan tadqiqot ishlariga ko‘proq to‘xtalganlar. Sharq va g‘arb tillari orasidagi chog‘ishtirma tadqiqot ishlari esa salmoqli darajada amalga oshirilgan.

“Food/oziq-ovqat”larni ifodalovchi konseptlarning denotativ va konnotativ ma’nolari tadqiqot obyekti sifatida, shuningdek, ushbu leksik komponentlarni o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar ishning predmeti sifatida belgilab olingan. Tarkibida oziq-ovqat, ichimlik va boshqa gastronomik elementlar mavjud bo‘lgan frazeologizmlar qiyosiy jihatdan T.Mitricheva, P.Loginova, S.Petronela, L.Pinnavaya, M.Muxalad va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Avvalo, “food/oziq-ovqat” konseptining bevosita ma’nolarini quyidagi manbalar asosida aniqlangan:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da oziq-ovqat so‘zi quyidagicha izohlanadi:

“ovqat” – rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa;

“taom” – طعام – yemish, ovqat, yegulik – pishirilgan, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa; ovqat;

“oziq-ovqat” – turli oziq va ovqatlar, yemishlar deb ta’rif berilgan.

Kembridj lug‘atida “food” so‘zi odamlar va hayvonlar ovqatlanadigan yoki o‘simliklar tirik qolishlari uchun o‘zlashtiradigan narsa” sifatida bo‘lsa, Oksford lug‘atida esa “hayot va o‘sishni saqlab qolish uchun odamlar yoki hayvonlar yeydigan va ichadigan yoki o‘simliklar o‘zlashtiradigan har qanday ozuqaviy moddalar” sifatida qaraladi.

Oziq-ovqat – bu organizmni ozuqaviy qo‘llab-quvvatlash va energiya bilan ta’minlash uchun iste’mol qilinadigan har qanday modda. U xom, qayta ishlangan yoki tayyorlangan bo‘lishi mumkin va jonli mavjudotlar tomonidan o‘sish, sog‘liq yoki zavq uchun og‘iz orqali iste’mol qilinadi. Oziq-ovqat, asosan, suv, yog‘lar, oqsillar va uglevodlardan iborat. Ularda mineral moddalar (masalan, tuzlar) va organik moddalar (masalan, vitaminlar) ham bo‘lishi mumkin. Suv ko‘plab oziq-ovqatlarda

mavjud bo‘lib, o‘z-o‘zidan u ham oziq-ovqat sifatida belgilangan. Suv va tolaning energiya zichligi yoki kaloriyasi past, yog‘ esa energiyaga eng to‘yingan komponentdir. Ba’zi noorganik (oziq-ovqat bo‘lmagan) elementlar ham o‘simlik va hayvonlar faoliyati uchun zarurdir.

Yuqoridagi ta’riflar ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlashuvchilarning “food/oziq-ovqat” tushunchasini oziqlantirish harakati bilan bog‘liq narsa sifatida belgilanishini isbotlaydi. Ingliz tili madaniyatida bu tushunchaga batafsilroq ta’rif berilgan bo‘lib, oziqlanish faoliyati subyekti – odamlar, hayvonlar yoki o‘simliklar ham bo‘lishi mumkin. Bunday substansiyani qo‘llash bilan bog‘liq maqsad o‘zbek madaniyatida kuzatilmaydi. O‘zbek tilida o‘simliklar uchun oziqlanish oziq-ovqat turiga kiritilmaydi, ingliz madaniyatida esa suyuqlikning ayrim turlari ham oziq-ovqat sifatida qabul qilingan bo‘lsa, o‘zbek tilida “ovqat” yoki “oziq-ovqat”, “taom”, “ozuqa” sifatida, odatda, faqat qattiq moddaga ishora qilinadi va ular turli ko‘chma ma’nolarga ega.

Zamonaviy ingliz tilida oziq-ovqatga oid bir qator iboralar tilshunoslik va madaniyatshunoslik doirasida muhim semantik ahamiyatga ega. Ular nafaqat ma’lum bir ovqat turini ifodalaydi, balki insonning hissiy holati, ijtimoiy maqomi va tarixiy-madaniy tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qatlamli konseptlarni ham o‘zida mujassam etadi.

O‘zbek tilida: “ovqat” (rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa); “taom” (yemish, ovqat, yegulik); “oziq-ovqat” (turli oziq-ovqatlar, yemishlar).

Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi izohlarda bu so‘z “ovqatlanish” xususiyatini ham ko‘zda tutadi. Ingliz lingvomadaniyatida esa ushbu so‘zga “intellektual oziq” yoki “tafakkurga turtki bo‘ladigan narsa” tarzida ko‘chma ma’noda ham ishlatiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi “food/oziq-ovqat” komponentli frazeologik birliklarning ma’nolari so‘zlarning leksik ma’nolariga bevosita bog‘liq emas. Biroq ularning talqini turli xalqlarning tegishli sohadagi assotsiatsiya modellarining xususiyatlarini ham aks ettiradi. Masalan: ingliz tilida

- *food for thought* – fikrlash uchun aqliy rag‘batlantirishni ta’minlaydigan har qanday narsa;

o‘zbek tilida:

- *ovqat* – rizqlanish, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa.

Xulosa o‘rnida esa yuqoridagi “food/oziq-ovqat” konseptli frazeologik birliklar har ikki tilda ham uning ijobiy ma’noga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yondashuvlarining xilma-xilligiga qaramasdan, konsepsiyani tahlil qilish konseptual tuzilmani o‘rganishga yordam beradi. Bu esa dunyoni konsepsiyalar nuqtayi nazaridan yaxshiroq tushunishga olib keladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Қорабоев Ж. Б. “Муболаға концептуал семантика”сини воқеалантирувчи вербал ва новербал воситалар тизимига хос универсал қонуниятлар // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2017. – № 1.

2. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.91.

3. Ҳошимов Г.М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Системструктур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2010. – Б.68.

4. Митричева Т.И. Структурно-семантическая соотносимость наименований пищи в русском и французском языках: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2009.

**UO’K 82-09; 398; 81-27**

## HAMDAM ABDULLAYEVNING FOLKLOR MATERIALLARIGA YONDASHUV MEZONLARI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

***Sh.E.Rustamova, o‘qituvchi, Urganch RANCH texnologiya universiteti, Urganch***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Hamdam Abdullayevning folklorshunoslikka oid tadqiqotlari tasniflanadi. Shuningdek, olimning folklor materiallariga yondashuv mezonlari tadqiq etiladi. O‘zbek va qoraqalpoq folklori aloqalarini tadqiq etish faoliyati tahlilga tortiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hamdam Abdullayev, folklor, tasnif, yondashuv, mezon, o‘zbek, qoraqalpoq, tadqiqot.*

***Аннотация.*** *В данной статье классифицируются исследования Хамдама Абдуллаева в области фольклористики. Также исследуются критерии подхода учёного к фольклорным материалам. Анализируется его деятельность по изучению взаимосвязей между узбекским и каракалпакским фольклором.*

***Ключевые слова:*** *Хамдам Абдуллаев, фольклор, классификация, подход, критерий, узбекский, каракалпакский, исследование.*

***Abstract.*** *This article classifies Hamdam Abdullayev's research in the field of folklore studies. It also examines the scholar's criteria for approaching folklore materials. Furthermore, his research activities on the relations between Uzbek and Karakalpak folklore are analyzed.*

***Key words:*** *Hamdam Abdullayev, folklore, classification, approach, criterion, Uzbek, Karakalpak, research.*

Hamdam Abdullayevning folklorshunoslikka oid tadqiqotlarini quyidagi 3 guruhga bo‘lib tasnif etish va shu yo‘nalishda tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1.O‘zbek va qoraqalpoq folkloriga oid tadqiqotlar.

2.Baxshichilik san’atiga doir tadqiqotlar.

3.Xalfalik san’atiga bag‘ishlangan tadqiqotlar.

Olim ilmiy ijodini tashkil qiluvchi tadqiqotlarini quyidagi jadvalda tasnifladik:

| **O‘zbek va qoraqalpoq folkloriga oid tadqiqotlari** | **Baxshichilik san’atiga doir tadqiqotlar** | **Xalfalik san’atiga bag‘ishlangan tadqiqotlar** |
|---|---|---|
| “Xorazm afsonalarida mifologiya izlari”(1984), “O‘zbek qoraqalpoq baxshilari hamkorligi”, “Eposni o‘rganishda regional prinsip” (1988), “O‘zbek folklorida Guldursun obrazi”(1988),“Qirq qiz” eposining tipologiyasiga doir” (1998), “Alpomish” eposi va Xorazm vohasi dostonchiligi”, “Xalq dostonlari va ularning variantlari”(1984), “Epos va tarixiy voqelik” (1987),“O‘zbek qoraqalpoq folklori aloqalari” (1991) va boshqalar | “Matnazar baxshi –Qurbonboy jirovning shogirdi (1984), “Qurbonboy jirov va o‘zbek baxshilari” (1984), “Bir doston baxshi va jirov ijrosida” (1985) va boshqalar | “Xalfalik san’ati qadriyat sifatida” (1999), “Xalfalar repertuari va J.Qobulniyozov” (2002), “Karpa”dan “xalfa”ga (2005) va boshqalar |

Hamdam Abdullayev ilmiy ijodining yetakchi mavzularidan biri o‘zbek va qoraqalpoq folklori aloqalari muammosidir. Folklorshunos To‘ra Mirzayev ham olimning ilmiy faoliyati xususida quyidagi fikrlarni keltiradi:“Hamdam Abdullayev ikki tildagi boy faktik tarixiy va folklor materiallari asosida o‘zbek-qoqaqalpoq eposi aloqalari va tipologiyasi masalalarini monografik yo‘nalishda ilk bor mukammal, teran tadqiq etdi. Ularning salmoqli qismini birinchi marta tahlilga kiritdi. Ayniqsa, “Qurbonbek”, “Boltakay botir”, “Qirq qiz” va boshqa eposlarning ertak, rivoyat, doston kabi o‘zbek-qoraqalpoq variantlarining qiyosiy tahlili muhim nazariy umumlashmalar bilan ajralib turadi. U nazariy xulosalarini “Xalq dostonlari va ularning variantlari” (1984), “Epos va tarixiy voqelik” (1987), “O‘zbek-qoraqalpoq aloqalari” (1991, rus tilida) kabi monografiyalari va 1988 yilda himoya qilingan “O‘zbek-qoraqalpoq eposi aloqalari va tipologiyasi” mavzudagi doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirdi”[1].

Darhaqiqat, olimning “Xalq dostonlari va ularning variantlari” nomli monografiyasida turkiy xalqlarning mushtarak merosiga aylangan dostonlarning bir necha variantlari tarqalgani sababli ularning mukammal variantlarini qiyosiy usulda yoritishga harakat qiladi. Olim qo‘llanmada xalq dostonlarining takomili, ularning versiya va variantlari hamda ertak va afsonalarga munosabati xususida o‘zining nazariy qarashlarini ifodalaydi. Qo‘llanmaning “Qironxon haqidagi doston variantlari” deb nomlangan qismida folklorshunosligimiz uchun muhim nazariy, amaliy ahamiyat kasb etuvchi qarashlari bilan bu jarayonni o‘rganadi.

O‘zbek va qoraqalpoq eposida sayyor va mushtarak syujetga aylanib ketgan va shunday syujetlar negizida o‘zbek eposida Qironxon (Sohibqiron) Shahriyor, qoraqalpoq eposida Shahriyor nomi bilan bog‘liq dostonlarning vujudga kelishi, xarakterli jihatlari xususida to‘xtaladi. Mazkur doston syujeti ertak va afsonalarga munosabati masalasi haqida ham ilmiy xulosalarini aniq dalillar bilan berib o‘tadi.

O‘zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlari ijodiyotida bir necha versiya va variantlarda uchraydigan bu syujet haqida olimning quyidagi qiyosiy tahlili ahamiyatlidir. “O‘zbek eposidagi “Sohibqiron”, “Odilxon”, “Oyparcha”, “Qironxon”, “Durapsho”, “Choryor”, “Qorako‘zoyim” nomlari bilan

ma’lum dostonlar shular jumlasidan bo‘lib, ular Islom shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Umar shoir, Po‘lkan shoir, Yorlaqab baxshi, Matnazar baxshi kabi ijodkorlar bisotidan yozib olingan, bir nechasi nashr etilgan.

Qoraqalpoq folklorida “Shahriyar” nomi bilan mashhur bu doston eng yaxshi epik asarlardan biridir. Uning yagona versiyadagi turli variantlari Nurabulla, Qulamet, Esemurot, O‘taniyoz, Qiyos, Jumaboy kabi jirovlar repertuaridan yozib olinib, nisbatan mukammal Qulamet jirov varianti qoraqalpoq, rus va o‘zbek tillarida chop etilgan.

Qozoq folkloridagi “Munliq Zarliq” dostoni voqeasining asosiy yo‘nalishi ham “Shariyar” sarguzashtlari bilan juda hamohangdir”[2].

Ko‘rinadiki, genetik asosi bir-biriga yaqin bo‘lgan folklor asarlarini tahlil qilish asnosida ularning o‘ziga xos belgilarini ham ta’kidlab o‘tadi. Bular: 1. Milliy an’analar doirasida sayqal topgani. 2. Matniy o‘ziga xosligi. 3. Dostonchining individual uslubi kabi xususiyatlari bilan izohlanuvchi belgilarga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Olim fikrlarini dostonning o‘zbekcha, qoraqalpoqcha versiya va variantlarini yozib olish, tadqiq qilish bo‘yicha qilingan ishlar xususida qimmatli ma’lumotlarni ham keltiradi. Tadqiqotga asos qilib olingan o‘zbek dostonchiligining Samarqand an’anasi uchun xarakterli bo‘lgan ayrim dostonlari, Xorazm dostonchiligi uchun tipik bo‘lgan “Qorako‘zoyim”, “Shahriyori olam” hamda “Shahriyor” qo‘lyozma nusxalari qoraqalpoqcha variantlarga qiyosan o‘rganilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mushtarak syujet va motivlar talqiniga bag‘ishlangan Qironxon – Shahriyor haqidagi doston o‘z xarakteriga ko‘ra maishiy-romantik doston ekanligi ta’kidlanadi. Bu xususiyat o‘zbek va qoraqalpoq versiyalari va variantlarining barchasi uchun xarakterli bo‘lib, dostonning g‘oyaviy mazmuni, qo‘yilgan masalalar yechimi, syujet mohiyati va obrazlar tasviri bilan shartlanganligi xususida batafsil nazariy ma’lumotlarni keltiradi.

Butun sharqda mashhur bo‘lgan afsona dostonning vujudga kelishida asos bo‘lganligi qayd qiladi. Doston ildiziga ertaklardan ham qadimiyroq bo‘lgan hind arxaik eposidagi qadim syujet – tuhmat sababli badarg‘a bo‘lish motivi bilan aloqador bo‘lsa kerak, degan ilmiy farazlar asosida xulosalar beradi. Folklorshunos afsonadagi o‘xshash motivlar bu yerda ham paydo bo‘lib, yangi mazmun va qarashlar bilan boyigani – qayta ishlanib, qator o‘zgarishlarga uchraganini ham alohida ta’kidlaydi. Dostonlar syujeti quyidagi an’anaviy motivlar doirasida qiyosiy tahlilga tortiladi:

1. Farzandsizlik motivi.
2. Kundoshlik motivi.
3. Safar motivi.
4. Mifologik va fantastik motiv.

Farzandsizlik motivi – sharq xalqlari badiiy ijodida keng tarqalgan kirish motivi xususida to‘xtalar ekan, “uning zaminida konfliktni yuzaga keltiruvchi, voqealar rivojiga turtki beruvchi faktor – hayotiy asos mujassamlashgan”,– deydi.[3].

Sehrli-fantastik ertaklar uchun xarakterli bo‘lgan bu boshlanma dostonda qanday zohir bo‘lishini, “Sohibqiron”, “Odilxon”, “Shahriyori olam” va “Qorako‘z oyim” dostonlari qiyosida aniq yoritiladi.

Kundoshlik motivi – syujet rivojidagi muhim motivlardan hisoblanadi. Shuning uchun olim kundoshlik munosabatlarini konfliktni keskinlashtiruvchi, g‘oyaviy mazmunni ochuvchi, voqealar oqimining butun borishiga ta’sir etuvchi xarakterli xususiyatlarini alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Kundoshlarning maqsadi – qabihlik: shohni vorissiz qoldirib, uning mol-dunyosiga egalik qilish. Bu qabihlik ifodalanishi, keskinlik darajasi va ko‘lami jihatdan turli variantlarda farqlanishini quyidagicha qiyoslab beradi: “Sohibqiron”da kundoshlar xatti-harakati ancha detallashtirilib, ularning individual belgilarini (ayniqsa, Mahfuraning), tajovuzkorliklarini (rostgo‘y Oyto‘raning do‘pposlanishi) kuchaytirishga ko‘proq e’tibor berilsa, “Oyparchada” kundoshlarga nisbatan Qag‘ajon kampir firibgarligi birinchi planga qo‘yilgan. “Shahriyori olam” va “Qorako‘zoyim”da kundoshlar dushmanligi qoliplashgan epik kelishe – mastonni tillaga yollash va chaqaloqlarni yo‘q qilish evaziga qullarga ozodlik berish voqeasi asosida tasvirlanadi. “Shariyar” dostonida esa kundoshlar voqeasining yanada o‘zgacharoq ifodasini ko‘ramiz. Bunda mastonni boshqa

variantlardagiday kundoshlar izlab kelishmaydi, balki maston oldin safardagi shohdan in'omlar olib, Gulsaraga enaga bo'lishga erishgach, kundoshlar bilan topishadi.[4].

O'zbek va qoraqalpoq versiyalari uchun umumiy bir jihat farzandlarning safari bilan bog'liq sarguzashtlardir. Tadqiqotchi safar motivi bilan bog'liq voqealarning zaminini, qahramonlarning safarga otlanishi uchqur tulpor, ot, shunqor qush, keskir qilich va zarrin kamarga ega bo'lishi bilan namoyon bo'lishini xarakterli jihat sifatida qayd qiladi.

"Turkiy va o'zbek mifologiyasi bilan bog'liq obrazlar, motiv va sujetlar folklor manbalarida: ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar va boshqa janr namunalari mag'zida badiiy estetik bosqichda yetib kelgan. Bu sujet, motiv va obrazlardagi mifologik tasavvurlarni ko'rsatish uchun badiiy estetik qatlam mag'zidagi mifo-poetik, so'ngra mifologik qatlamni tiklash talab etiladi".[5].

Folklorshunos H.Abdullayev ham "Shahriyori olam" dostoniga asos bo'lgan sujet" mohiyatida qahramonlar oldiga qo'yilgan turli-tuman to'siqlar va ularni yengib o'tishda miflar bilan bog'liq Pari va dev kabi obrazlar genezisini variant va versiyalarni qiyosiy o'rganish orqali aniqlashtiradi. Bu esa o'zbek folklori namunalarining qadimiy ildizlarini mifologik nuqtayi nazardan tadqiq etish imkonini berdi. Mifologik tafakkur namunalarining dostonlarda saqlanishi xalq tafakkurining qadimiyligini, mukammalligini ko'rsatib beruvchi manba ekanligini ham alohida xususiyat sifatida ta'kidlash lozim. Dostonlardagi mifologik motivlarning qiyosiy tahlili o'zbek miflarining sujet va motivlari, mifik obrazlari folklorda badiiy talqinda yashayotgan degan xulosani beradi. Shu ma'noda olimning ilmiy-nazariy qarashlari ahamiyatlidir. Mifologik va fantastik motivlarning dostonlarda ustunlik qilishini quyidagi xususiyatlar bilan dalillaydi:

1.Yozma asosga aloqador dostonlar sujetining genetik jihatdan og'zaki hikoyalarga yaqinligi sababli ularda mifologik zamin va g'ayritabiiy tasavvurlarning qahramonlik eposiga nisbatan tiniq saqlanishi;

2.Xalq ideallarini ifodalashga qaratilganligi;[6].

Tadqiqotchi "Shahriyori olam" dagi mifologik zaminga ega bo'lgan epik to'siqlar haqida to'xtalar ekan, dostonda parilar va devlar haqidagi ibtidoiy tasavvurlar yorqin aks etganligini ham alohida ta'kidlaydi. Buni dostondagi Shahriyor uchun bosh to'siq bulbuligo'yo sehrini yozdirish va uni yengishdagi to'siqlar orqali ifodalanganiga diqqatni qaratadi. Bu to'siqlarni yengib o'tishda kuch va quroldan tashqari yanada o'tkirroq sehr va karomat zarurligidan dostonda uydirma motivlarni kuchaytirish, parilar va devlarni eposga xos ideallashtirish, qahramon xatti-harakatlarini bo'rttirish holatlarini aniq misollar orqali tahlilga tortadi. Jumladan, Shayriyorning dastlab oltin qal'aga kelishi, devorga bitilgan xatda bulbuligo'yo tilsimini yo'qotuvchi sehrli vositalarning (to'n, salla, kamar) bashorat qilganligi, uning dev tomonidan osmonga parilar dargohiga eltib qo'yilishi epizodlar tasvirida fantastik bayon usuli va badiiy uydurma asosida tasvirlanganligini alohida jihati sifatida folklorshunos dostonlardagi mifologik obrazlardan bo'lgan Pari obraziga alohida to'xtaladi. Bu obrazning xarakterli nuqtalariga e'tibor qaratadi. Uning antropologik xususiyatlari doston variantlarida yetakchilik qilishini aytadi. Asosan pari obrazi qahramonning yori, uni maqsadga erishtiruvchi ko'makchilar qiyofasida namoyon bo'luvchi qahramon sifatida ta'riflanadi.

Olimning baxshichilk san'atiga yondashuvlari "Matnazar baxshi –Qurbonboy jirovning shogirdi (1984), "Qurbonboy jirov va o'zbek baxshilari" (1984), "Bir doston baxshi va jirov ijrosida" (1985) va boshqa tadqiqotlarida namoyon bo'ladi. Mazkur ishlarda adabiyotshunosning baxshi va jirov ijrochiligi masalalalariga qarashlari o'z aksini topgan.

Folklorshunosning xalfalik san'atiga yondashuv mezonlari "Xalfalik san'ati qadriyat sifatida" (1999), "Xalfalar repertuari va J.Qobulniyozov" (2002), "Karpa"dan "xalfa"ga (2005) va boshqa maqolalarida yorqin ko'rinadi. Olim fikricha, "xalfa" so'zi zardushtiylikdagi "qalpa" so'zi bilan bog'liq. "Qalpa" dastlab Zardushtning badiha yo'li bilan yaratgan da'vat so'zlari –Tangrini va ma'budalarni ulug'lovchi gohlarni yodlab, qiroat bilan aytuvchi sifatida namoyon bo'lgani xususida yozadi. Shuningdek, xalfalik san'atining ilk bosqichi ajdodlarimizning qadim diniy-e'tiqodiy qarashlari bilan boshlangani, uning ijrochisi turli davrlarda "karpa", "xalpa", "xalfa" tarzida atalib kelingani H.Abdullayev tomonidan asoslab beriladi.

Xullas, Hamdam Abdullayev xalq og'zaki ijodini puxta o'rgangan yirik folklorshunosdir. U o'zbek, qoraqalpoq folklorining nazariy va amaliy masalalari bilan jiddiy shug'ullangan. Qolaversa,

u o‘z ilmiy maktabiga ega bo‘lgan. Hamdam Abdullayevning folklorshunoslikka oid tadqiqotlari o‘zbek va qoraqalpoq folkloriga oid tadqiqotlar, baxshichilik san'atiga doir tadqiqotlar, xalfalik san'atiga bag‘ishlangan tadqiqotlar sifatida tasniflanadi.Olimning folklor materiallariga yondashuv mezonlari o‘ziga xos bo‘lib,folklorshunosligimizda muhim ahamiyatga ega.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Mirzayev T.Ustozlar. Safdoshlar. Izdoshlar. –Toshkent: "Tafakkur tomchilari", 2021. 380-bet.
2.Abdullayev H.Xalq dostonlari va ularning variantlari. –Toshkent: "O‘qituvchi", 1984. 7-bet.
3.Abdullayev H.Xalq dostonlari va ularning variantlari. –Toshkent: "O‘qituvchi", 1984. 14-bet.
4.Abdullayev H.Xalq dostonlari va ularning variantlari. –Toshkent: "O‘qituvchi", 1984. 16-bet.
5.Turdimov Sh.O`zbek mifologiyasi va folklori. –Toshkent: "Ilm va fan" nashriyoti, 2023. 8-bet.
6.Abdullayev H. Xalq dostonlari va ularning variantlari. –Toshkent: "O‘qituvchi", 1984. 24-bet.

**UO'K 94(575.1); 82-09; 908**

## XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA XORAZMADA ADABIY MUHIT

***D.Y.Ruzmatova, mustaqil tadqiqotchi, Xorazm ma'mun akademiyasi, Xiva***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazm vohasida shakllangan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va adabiy muhit, xususan, jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari hamda uning milliy uyg‘onish tarixidagi o‘rni tadqiq etiladi. Shuningdek, Xorazm adabiy muhitining yirik vakillari bo‘lgan Komil Xorazmiy, Avaz O‘tar o‘g‘li, Polvonniyoz Hoji Yusupov kabi siymolarning ijodiy va ijtimoiy faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada yangi davr adabiyotining til va uslubiy xususiyatlari, arabiy-forsiy qatlamning me'yorlashishi, xalq so‘zlashuv tili hamda publitsistik terminlarning badiiy matnga kirib kelishi lingvistik va adabiyotshunoslik metodlari yordamida ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xorazm adabiy muhiti, jadidchilik, milliy uyg‘onish, usuli jadid, ma'rifatparvarlik, Avaz O‘tar o‘g‘li, Komil Xorazmiy, lingvopoetika, publitsistik uslub, ijtimoiy-siyosiy terminlar.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается общественно-политическая, образовательная и литературная среда, сложившаяся в Хорезмском оазисе в конце XIX — начале XX века, а также факторы, способствовавшие возникновению джадидского движения, и его роль в истории национального пробуждения. Кроме того, анализируется творческая и общественная деятельность видных представителей литературной жизни Хорезма, таких как Комил Хоразмий, Аваз Отар-угли и Полвонниёз Ходжи Юсупов. На основе лингвистического и литературоведческого анализа в статье также исследуются языковые и стилистические особенности литературы новой эпохи, включая стандартизацию арабо-персидского пласта лексики, а также включение в литературные тексты элементов разговорной речи и публицистической терминологии.*

***Ключевые слова:*** *хорезмская литературная среда, джадидизм, национальное пробуждение, "усул-и джадид", просвещение, Аваз Отар-улы, Комил Хорезми, лингвопоэтика, публицистический стиль, общественно-политическая терминология.*

***Abstract.*** *This article examines the socio-political, educational, and literary environment that emerged in the Khorezm oasis during the late 19th and early 20th centuries—specifically the factors behind the rise of the Jadid movement and its role in the history of national awakening. It also analyzes the creative and social activities of prominent figures in the Khorezm literary scene, such as Komil Khorazmiy, Avaz O‘tar o‘g‘li, and Polvonniyoz Hoji Yusupov. Furthermore, the article employs linguistic and literary analysis to explore the linguistic and stylistic characteristics of literature from this new era, including the standardization of the Arabic-Persian stratum and the incorporation of colloquial speech and journalistic terminology into literary texts.*

***Key words:*** *Khorezm literary environment, Jadidism, national awakening, "usul-i jadid", enlightenment, Avaz O‘tar o‘g‘li, Komil Khorezmiy, linguopoetics, publicistic style, socio-political terms.*

Ko‘plab iste’dodli so‘z san’atkorlari kamol topgan ma’rifat maskani – Xorazm adabiy muhiti XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib o‘zining yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Munis, Ogahiy, Komil, Feruz, Rojiy, So‘fi, Bayoniy, Tabibiy, Niyoziy, Devoniy, Ojiz, Haqiriy, Avaz va boshqa shoirlarni uyushtirgan adabiy muhit adabiyot olamida o‘ziga xos mavqe qozondi. Davr adabiy hayotining rang-barangligi, an’analar va yangiliklar uyg‘unligi bu davrda ijod qilgan qalam sohibi Komil Xorazmiy faoliyatida ham aks etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Turkiston o‘lkasi, xususan, Xiva xonligi tarixida tub burilishlar, ijtimoiy-siyosiy inqirozlar va shu bilan birga, milliy uyg‘onish pallasining boshlanishi bilan xarakterlanadi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik va bosqinchilik siyosatining kuchayishi, mahalliy aholining davlat boshqaruvidan butunlay chetlatilishi hamda an’anaviy ta’lim tizimining davr talablariga javob bera olmay qolishi jamiyatda chuqur turg‘unlikni keltirib chiqardi [10]. Bunday og‘ir tarixiy sharoitda millatni jaholat botqog‘idan olib chiqish, uni g‘ofillikdan uyg‘otish va jahon taraqqiyoti karvoniga qo‘shish ehtiyoji tug‘ildi. Bu ehtiyoj musulmon Sharqidagi umumiy islohotchilik oqimlarining ta’siri hamda tatar, turk ziyolilarining ma’rifiy aloqalari natijasida o‘lkamizda "jadidchilik" (arabcha “jadid” – yangi) harakatining shakllanishiga zamin yaratdi [9].

Xorazm o‘zining ko‘p asrlik davlatlilik an’analari, boy ilmiy va madaniy merosi bilan Turkiston hududida o‘ziga xos mavqega ega edi. XIX asr oxirida Xiva xonligi tarkibida kechgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar umumturkiston kontekstining uzviy qismi bo‘lsa-da, o‘zining voha muhitiga xos bo‘lgan xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm adabiy muhiti vakillari xalq ma’rifatini yuksaltirish, yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy matbuot va teatrni yo‘lga qo‘yish, til va adabiyotni tubdan isloh qilish orqali jamiyatni yangilashga intildilar [6]. Ushbu jarayonni har tomonlama, xususan, tarixiy va lingvistik jihatdan tadqiq etish bugungi kunda milliy davlatchilik poydevorini va ma’naviy merosimizni anglashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda tarixiy-tipologik, qiyosiy-tahliliy, lingvokulturologik hamda sotsiologik metodlardan foydalanildi. Davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi va adabiy muhit o‘rtasidagi aloqalar sotsiologik va tarixiy prizma orqali tahlil qilingan bo‘lsa, adabiy namoyandalarining asarlari lingvopoetik va qiyosiy metodlar yordamida o‘rganildi. Tadqiqotning manbaviy asosini jadidchilikka oid yozma manbalar, o‘sha davr matbuoti materiallari, arxiv hujjatlari, Komil Xorazmiy va Avaz O‘tar o‘g‘lining devonlari hamda zamonaviy jadidshunoslikka oid ilmiy adabiyotlar tashkil etadi [4].

XIX asr oxirida Xiva xonligi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz girdobida edi. Xonlik boshqaruvidagi feodal munosabatlar va chor Rossiyasining protektoratligi (qaramligi) sharoitida xalq ommasining ijtimoiy ahvoli nihoyatda og‘irlashgan, savodsizlik darajasi yuqoriligicha qolayotgan edi [1]. Mavjud an’anaviy maktab va madrasalarda o‘qitish tizimi *“usuli qadim”* (eski usul) asosida olib borilib, darslarda dunyoviy fanlar (matematika, tabiatshunoslik, tarix, geografiya) deyarli o‘qitilmas, bu esa jamiyat fikrining qoloqlashuviga sabab bo‘layotgan edi. Xorazm zaminida jadidchilik va yangi adabiy qarashlarning yuzaga kelishiga quyidagi asosiy omillar turtki bo‘ldi:

- Chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi va uning mahalliy madaniyatni siqib chiqarishga qaratilgan harakatlari;
- Xiva xonligining ichki ijtimoiy-siyosiy boshqaruvidagi inqiroz va adolatsizliklar;
- Tatariston (Qozon, Orenburg) va Usmonli Turkiyasi orqali kirib kelgan progressiv va islohotchilik g‘oyalari hamda vaqtli matbuot nashrlari (masalan, Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasi);
- Turkistonning boshqa markazlari (Toshkent, Samarqand, Buxoro) ziyolilari bilan mustahkam madaniy aloqalarning o‘rnatilishi [2].

Xorazmda ilk “usuli jadid” (yangi usul) maktablari 1900-yillarning boshlaridan e’tiboran Xiva, Urganch va vohaning boshqa yirik shaharlarida ochila boshladi. Bu maktablarning an’anaviy maktablardan asosiy farqi — o‘quvchilarga tovushli o‘qitish metodi (“usuli javtiya”) orqali qisqa muddatda xat-savod o‘rgatish, shuningdek, diniy bilimlar bilan parallel ravishda arifmetika, jug‘rofiya, tarix va adabiyot kabi dunyoviy fanlarni o‘qitish bo‘ldi [7]. Ushbu maktablarda tahsil olgan yosh avlod keyinchalik Xorazm milliy uyg‘onish harakatining asosiy tayanchiga aylandi.

Xorazm adabiy muhiti umumturkiston kontekstida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy kabi allomalar bilan g‘oyaviy jihatdan hamfikr bo‘lgan holda, o‘zining yorqin yetakchilarini tarbiyalab yetkazdi [8].

Xorazmda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ilk kurtaklarini sochgan buyuk shoir, musiqashunos va davlat arbobi Komil Xorazmiy Xiva xonligida devonbegi lavozimida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, jamiyatni yangilash, ilg‘or texnika va madaniyat yutuqlarini o‘lkaga olib kirish tarafdori bo‘lgan. Komil Xorazmiy o‘zbek musiqashunosligida Xorazm tanbur chizig‘ini (notasi) yaratdi, Xivada ilk toshbosma (litografiya) matbaasini tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatdi [5]. Uning asarlarida adolat, ma’rifat va ilm-fanni ulug‘lash g‘oyalari yetakchilik qiladi.

Avaz O‘tar o‘g‘li Xorazm jadid adabiyotining eng murosasiz, isyonkor va yorqin vakilidir. Ogahiydan keyin voha she’riyatiga butunlay yangicha ijodiy ruh, ijtimoiy-siyosiy ohang olib kirdi. Avaz O‘tar o‘g‘li o‘zining she’rlari va "Zarbulmasal", "Turkiston" kabi asarlarida jamiyatdagi jaholat, rasmiy ulamolarning munofiqligi va amaldorlarning zulmini ayamay fosh etdi [3]. U xalqni g‘ofillik uyqusidan uyg‘onishga, ko‘zni ochishga va dunyoni anglashga chaqirdi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov Xorazm ziyolilarining nafaqat ma’rifiy, balki siyosiy qanoti yetakchisi hisoblanadi. U ma’rifatparvarlik ishlaridan boshlab, keyinchalik xalqni ozodlik va adolat yo‘lidagi kurashga boshqardi. Yosh xivaliklar harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, Xiva xonligidagi feodal tuzumni isloh qilish, konstitutsiyaviy boshqaruvni joriy etish yo‘lida faoliyat olib bordi [11].

Shuningdek, Matmurod Qori, Bobojon Tarroh, Muhammad Rasul Mirzo kabi o‘nlab ziyolilar yangi maktablar ochish, darsliklar yaratish, teatr va adabiy to‘garaklar tashkil etishda faol ishtirok etdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitining eng muhim va inqilobiy yutug‘i — uning til va uslubida kechgan jiddiy islohotlardir. Yangi davrga qadar bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda (garchi Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy an’analari davom etgan bo‘lsa-da) ko‘pincha fors-tojik adabiyoti ta’siridagi og‘ir, arabiy-forsiy istioralar bilan haddan taxation yuklangan, qiyin uslub ustunlik qilar edi. Bunday tilni oddiy xalq ommasi tushunishi imkonsiz edi.

Yangi adabiyot esa o‘z devant oldiga ulkan ijtimoiy vazifa — xalq ommasiga bevosita murojaat qilish va ularni uyg‘otishni maqsad qilib qo‘ygani bois, sodda, ravon va xalqona adabiy til me’yorlariga o‘ta boshladi [12].

Ijodkorlar asarlarida arabcha va forscha so‘zlardan butunlay voz kechishmadi, chunki bu tillar asrlar davomida ilmiy va diniy-falsafiy tushunchalarni ifodalab kelgan edi. Biroq, ular ushbu qatlamni keskin tartibga soldilar va me’yorlashtirdilar. Ortiqcha san’atkorlik uchun ishlatiladigan dabdabali so‘zlar o‘rniga, faqat aniq ijtimoiy-ma’rifiy ma’noga ega bo‘lgan leksik birliklar saqlab qolindi. Masalan, tushunchaviy bazada diniy va falsafiy jihatdan muhim bo‘lgan quyidagi atamalar faol qo‘llandi: Forscha unsurlar esa she’riyatda ko‘proq obrazlilikni saqlashga xizmat qildi (*dil, gul, husn*). Biroq asarlarning umumiy leksik bazasini asosan sof turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar tashkil etdi [13].

Xorazm adabiyoti tilining eng muhim lingvistik xususiyatlaridan biri — asarlarning xalq og‘zaki ijodi tiliga, maqol va matallarga yaqinligidir. Avaz O‘tar o‘g‘li she’riyatida xalq donishmandligi badiiy matn bilan shunday sintez qilinadi:

“Ilmsiz odam ko‘r, ma’rifatsiz yurak tosh,
Bolaga bilim ber – kelajakni obod et.” [14]

Bu yerda xalqona qiyoslash, sodda qofiyalanish va ohangdorlik ustunlik qiladi. Fonetik darajada esa matnlarda Xorazm shevasi (lahjasi) unsurlari muayyan darajada ko‘zga tashlanadi (masalan, *qosh* o‘rniga *qo‘sh*, *keldik* o‘rniga *kelduq* kabi variantlar). Biroq adabiy muhit vakillari faqat mahalliy dialekt bilan cheklanmasdan, uni umummilliy o‘zbek adabiy tili me’yorlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qildilar [15].

Jamiyatning yangilanishi til leksikasiga ham yangi tushunchalarni olib kirdi. Yangi publitsistika va adabiyot tufayli o‘zbek tilida yangi ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy terminologik fond shakllana boshladi. Shoir va publitsistlar o‘z asarlarida matematika, geografiya, tarix, siyosat va madaniyatga oid terminlarni badiiy tilga muvaffaqiyatli olib kirdilar:

| Termin turi | Misollar |
|---|---|
| **Ma'rifiy-ilmiy terminlar** | *Maktab, kitob, o'qituvchi, matbaa, jug'rofiya, arifmetika* |
| **Ijtimoiy-siyosiy terminlar** | *Millat, erkinlik, huquq, ozodlik, istiqlol, taraqqiyot, davlat* |

Avaz O'tar o'g'lining: "Ilm bilan yuksalar millat, jaholat bilan qular davlat" kabi satrlari o'sha davrda siyosiy va ilmiy so'zlarning naqadar kuchli didaktik va poetik kuchga ega bo'lganini ko'rsatadi [16]. Adabiy muhitning voha madaniy hayotidagi o'rni nihoyatda muhim sanaladi. Xorazm adabiy muhiti faqatgina kitobiy she'riyat bilan cheklanib qolmadi, balki u butun boshli vohaning madaniy hayotini tubdan o'zgartirib yubordi.Jumladan, teatr san'ati, matbuot, musiqa sohalaridan katta yuksalishlar yuz berdi. Teatr san'atini ziyolilar "ibratxona" deb atashgan va uni xalqni tarbiyalash, jamiyat illatlarini ko'rsatishning eng ta'sirchan vositasi deb bilishgan. Xorazmda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi kabi pyesalar, shuningdek, mahalliy ijodkorlarning kichik sahna asarlari namoyish etilib, xalq ongiga kuchli ta'sir ko'rsatdi [15].

Adabiy muhit faollari tashabbusi bilan Xorazm hududida vaqtli matbuot nashrlari, gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. Ular Turkistonda chiqayotgan "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy" kabi gazetalar bilan hamkorlik qildilar, bu esa voha aholisining dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishiga xizmat qildi [1].

Bu davrga kelib musiqa madaniyati ham yuksaldi. Komil Xorazmiy boshlagan musiqiy islohotlar yangi davrda yanada chuqurlashdi. Shoirlarning ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari maqom yo'llarida qo'shiq qilib kuylandi va xalq orasida tez yoyildi [16].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda shakllangan adabiy muhit o'zbek milliy uyg'onish tarixida g'oyat buyuk sahifani tashkil etadi. Ushbu muhit vakillari o'zlarining voha feodal sharoitidan kelib chiquvchi murakkabliklariga qaramay, xalqni ma'rifatli qilish, milliy o'zlikni anglatish va ozodlik g'oyalarini singdirish vazifasini muvaffaqiyatli bajardi.

Lingvistik jihatdan esa, ular o'zbek adabiy tilini saroy va xos tabaqalarning murakkab va sun'iy uslubidan qutqarib, uni jonli xalq tiliga yaqinlashtirdilar, tilimizni yangi ilmiy va siyosiy terminlar bilan boyitdilar. Xorazm adabiy muhitining boy ma'naviy merosi bugungi mustaqil O'zbekistonning milliy taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishi uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). – Toshkent: Akademnashr, 2000. – B. 140.
2. Alimova D. Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 45-48.
3. Avaz O'tar o'g'li. Devon. (Nashrga tayyorlovchi: A. Bobojonov). – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1961. – B. 112.
4. Avaz O'tar o'g'li. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 43.
5. Begmatov E. O'zbek adabiy tili tarixi masalalari. – Toshkent: Fan, 1985. – B. 176.
6. Davlatov S. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. – Urganch, 2001. – B. 89.
7. Dolimov S. Jadid maktablari va ularning ta'lim tizimidagi o'rni. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – B. 102.
8. Ergashev S. Xorazm jadidlari va ularning ma'rifiy faoliyati. // "O'zbekiston tarixi jurnali". – Toshkent, 2012. № 3. – B. 34.
9. Gasprinskiy I. Rahbari muallimin yoki usuli jadid. – Boqchasaroy, 1903. – B. 44.
10. Karimov N. Jadidchilik: shakllanishi, rivojlanishi va inqirozi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1995. – B. 12-15.
11. Madaliyev A. O'zbek ijtimoiy-siyosiy va ilmiy terminologiyasining shakllanish tarixi. – Toshkent: Fan, 2005. – B. 81.
12. Matyoqubov O. Komil Xorazmiy va o'zbek musiqasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1986.–B. 55-60.
13. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tili va uslubi xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 134.
14. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B. 210.
15. Rizaev Sh. Jadid teatri: vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – B. 115.
16. Tarroh Bobojon. Xorazm shoirlari va musiqashunoslari. – Xiva, 1923. – B. 28.
17. Tojiyev Yo. O'zbek adabiy tili leksikasi taraqqiyoti (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – Toshkent, 1991. – B. 92.
18. Yo'ldoshev M. Xiva xonligi tarixi arxiv hujjatlarida. – Toshkent: Fan, 1978. – B. 67.
19. Yusupov Polvonniyoz Hoji. Xiva inqilobi xotiralari. (Qo'lyozma). O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi. inv. № 8965.

UO’K 81.25

# “OILA” KONSEPTINING O‘ZBEK O‘G‘UZ SHEVALARIDAGI ETNOLINGVISTIK SPETSIFIKASI

*M.S.Sa’dullayeva, PhD, mustaqil izlanuvchi, o‘qituvchi, Navoiy davlat universiteti, Navoiy*
*ORCID 0009-0004-5071-7066*

***Annotatsiya.*** *Tadqiqotning maqsadi o‘g‘uz shevalarida “oila” konseptini nomlash, qarindoshlik tizimini ifodalash hamda uy-joy va nikoh bilan bog‘liq diskurs birliklarining madaniy kodlarini aniqlashdan iborat. Jarayonda sheva lug‘atlari, dala yozuvlari va folklor matnlaridan olingan birliklar bazasi shakllantirildi. O‘g‘uz shevalarida “oila” konsepti markazida uy xo‘jaligi va avlod uzviyligi turishi, periferiyada esa kelin-kuyov, quda-anda, qo‘shnichilik va marosim kommunikatsiyasi bilan bog‘liq ramziy nomlashlar zichlashgani statistik jihatdan ko‘rsatildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *o‘g‘uz shevalari, qarindoshlik terminlari, etnolingvistika, konseptual maydon, nikoh leksikasi, uy xo‘jaligi, oila konsepti, periferiya, ijtimoiy rol.*

***Аннотация.*** *Цель исследования заключается в выявлении культурных кодов, отражённых в номинации концепта «семья», системе родства, а также в дискурсивных единицах, связанных с жилищем и браком, в огузских говорах узбекского языка. В ходе исследования была сформирована база языковых единиц на основе материалов диалектных словарей, полевых записей и фольклорных текстов. Статистический анализ показал, что в огузских говорах ядро концепта «семья» образуют представления о домашнем хозяйстве и преемственности поколений, тогда как на периферии концентрируются символические номинации, связанные с невестой и женихом, сватовством и родственными отношениями по браку, соседством и ритуальной коммуникацией.*

***Ключевые слова:*** *огузские говоры, термины родства, этнолингвистика, концептуальное поле, брачная лексика, домашнее хозяйство, концепт «семья», периферия, социальная роль.*

***Abstract.*** *The aim of this study is to identify the cultural codes embedded in the nomination of the family concept, the representation of the kinship system, and the discourse units associated with household and marriage in the Oghuz dialects of the Uzbek language. The study compiled a database of linguistic units derived from dialect dictionaries, field records, and folklore texts. Statistical analysis demonstrates that the core of the family concept in the Oghuz dialects is formed by the notions of household organization and generational continuity, whereas the periphery is characterized by a concentration of symbolic nominations related to the bride and groom, affinal kinship, neighborhood relations, and ritual communication.*

***Key words:*** *Oghuz dialects, kinship terminology, ethnolinguistics, conceptual field, marriage-related vocabulary, household, family concept, periphery, social role.*

**Kirish.** Oila konsepti tilshunoslikda jamiyatning eng barqaror ijtimoiy instituti sifatida aks etuvchi, qarindoshlik, nikoh, uy-joy va avlod davomiyligi bilan uzviy bog‘langan madaniy-kognitiv birlik sanaladi. Ushbu konseptning dialektal ko‘rinishlari, ayniqsa o‘zbek o‘g‘uz shevalarida, umumxalq tilidagi nominatsiya bilan bir qatorda mahalliy xo‘jalik modeli, urf-odat va muloqot etiketiga bog‘liq mexanizmlar orqali shakllanadi. Masalan, ayrim o‘g‘uz hududlarda “uy” komponenti faqat bino ma’nosini emas, balki oila xo‘jaligi va ichki iyerarxiyani ham bildiruvchi semantik markazga aylanadi. Bu esa “uyli-joyli bo‘lish” tipidagi birikmalarning konseptual yukini kuchaytiradi. Dialektologik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘uz shevalarida qarindoshlik atamalarining variantlari va ularning pragmatik qo‘llanishi umumxalq me’yoriga nisbatan sezilarli darajada ko‘p qatlamlidir. Dala yozuvlarida bir xil funksiyaga ega birliklarning 25-35 foizi fonetik yoki semantik variant sifatida qayd etiladi. Demak, bu holat konseptning lisoniy shakllanishi bevosita etnomadaniy tajriba va kommunikativ ehtiyojlar bilan boshqarilishini ko‘rsatadi [1; 8].

Etnolingvistika yondashuvi “oila”ni faqat terminlar jamlanmasi emas, balki qadriyatlar, rol taqsimoti va muloqot normalari kodlangan belgi tizimi sifatida talqin qiladi. Shu mexanizm orqali dialekt birliklari madaniy ma’no tashuvchisiga aylanadi. Masalan, “kelin” atamasining ayrim o‘g‘uz

shevalarida ijtimoiy rolni kuchliroq ta’kidlovchi qo‘shimcha semalar bilan kelishi, uni “uyga kirgan” maqomining indeksiga aylantiradi, natijada birikmalar tarkibida u marosim-etiket signali bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy korpus va sheva lug‘atlariga tayangan dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nikoh va quda-andachilikka oid birliklar ulushi “oila” konseptining periferiyasida 18-22 foizlik segmentni tashkil etadi. Bunday natijalar konseptual maydon yadro-periferiya tuzilmasini dialektal materialda qayta ko‘rib chiqishni talab etadi [2; 3].

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek o‘g‘uz shevalarida “oila” konseptining etnolingvistik spetsifikatsiyasini konseptual maydon modeli asosida tasvirlash va uning yadro hamda periferiyasini belgilovchi lisoniy ko‘rsatkichlarni aniqlashdan iborat. Mazkur maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

birinchidan, “oila”ga oid nominativ birliklar va ularning semantik komponentlarini tartiblash;

ikkinchidan, qarindoshlik terminlari va affinal munosabatlarni ifodalovchi birliklarning pragmatik qo‘llanishini tavsiflash;

uchinchidan, uy xo‘jaligi, avlod, marosim va qo‘shnichilik diskursi bilan bog‘liq birliklarni konseptual xaritaga joylashtirish.

Masalan, “ota-ona” juftligi yadro segmentda genealogik markerni bersa, “quda”, “kuyov”, “kelin” kabi birliklar nikoh orqali kengayuvchi qarindoshlikni belgilab, periferiyaning dinamik qatlamini tashkil qiladi. Dala yozuvlari asosida tuzilgan bazada 312 ta birlik qayd etilib, shundan 146 tasi bevosita qarindoshlik terminlari, 74 tasi nikoh va qudalik leksikasi, 92 tasi uy-joy va xo‘jalik diskursiga oid birliklar sifatida tasniflandi. [4].

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqot materiali “oila” konseptiga daxldor leksik, frazeologik va diskurs birliklaridan iborat bo‘lib, ularning manbasi sifatida o‘zbek shevalari bo‘yicha lug‘atlar, folklor to‘plamlari hamda 2023-2026-yillarda o‘g‘uz sheva hududlarida qayd etilgan dala yozuvlari korpusi xizmat qildi [8; 9]. Material tanlash mezoni “oila”ning ta’rifi doirasida qarindoshlik, nikoh, uy-joy, avlod, tarbiya va xo‘jalik boshqaruvi semalarini bevosita yoki bilvosita ifodalovchi birliklarni qamrab olishdan iborat bo‘ldi. Mazkur mezon mexanizmi shuni ta’minladiki, masalan, “o‘choq” kabi so‘zlar faqat predmet nomi sifatida emas, balki “o‘choq tutash” tipidagi birikmalarda oilaviy barqarorlik ramzi sifatida ishlatilganda bazaga kiritildi. Tanlangan material hajmi 312 birlikni tashkil etdi, ulardan 61 tasi frazeologik birlik, 39 tasi marosimga oid diskurs formulalari, 212 tasi leksik birlik sifatida qayd qilindi. Bu raqamlar “oila” konsepti sheva tizimida faqat nominatsiya emas, balki tayyor kommunikativ andozalar orqali ham mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Ilmiy izoh nuqtayi nazaridan, bunday korpus konseptning lisoniy realizatsiyasini ko‘p sathli birliklar orqali kuzatish imkonini beradi, chunki konsept odatda leksik, frazeologik va pragmatik darajalarda parallel namoyon bo‘ladi [5].

Metodologiya konseptual tahlilni dialektologik qiyos va komponent-semantik yondashuv bilan uyg‘unlashtirishga tayandi. “Oila” kabi ijtimoiy-madaniy konseptlar bir vaqtning o‘zida nomlash, baholash va muloqot boshqaruvi funksiyalarini bajaradi. Masalan, “uyli” va “uy-joyli” birliklarining nikoh va ijtimoiy maqom kontekstlarida yuqori chastotada kelishi ularning yadroga yaqinlashishini ko‘rsatdi. “Quda-anda” esa marosim matnlarida zichlashib, periferiyada alohida tugun sifatida belgilandi. Statistik qayta ishlashda birliklarning umumiy uchrashish soni 1000 kontekst bo‘yicha normallashtirildi va yadroga kirish mezoni sifatida 10 000 so‘zga nisbatan kamida 8 marotaba uchrashish chegarasi qabul qilindi. Bu chegara semantik barqarorlikni miqdoriy ko‘rsatkich orqali ushlash imkonini berdi. Ilmiylik jihatdan konseptual maydonning yadro-periferiya modeli lingvokulturologik izohda aynan chastota va funksional ko‘lam bilan mustahkamlanadi. Madaniy markazlar esa odatda nutqda ko‘proq va barqarorroq namoyon bo‘ladi [6].

Etnolingvistik interpretatsiya uchun etimologik va tarixiy-qiyosiy izohlar ham qo‘llandi, chunki qarindoshlik terminlari ko‘pincha qadimgi turkiy qatlamga borib taqaladi. Mexanizmi sifatida marosim, urf-odat va ijtimoiy rollar bilan bog‘langan konnotatsiyalar ajratib ko‘rsatildi. Misol uchun, “ota” va “ona” birliklari bilan hosil bo‘ladigan duo va tilak formulalari (“ota-onang rozi bo‘lsin” tipida) faqat genealogik emas, balki axloqiy-legitimatsion kodni ham tashiydi. U konseptning normativ qatlamini ifodalaydi. Korpusda normativ formulalar 39 ta birlikdan iborat bo‘lib, ularning 64 foizi rozilik, baraka, nasl va uy-joy barqarorligi semalariga tayanadi. Bu ko‘rsatkich “oila”

konseptining baholovchi segmenti sezilarli ekanini tasdiqlaydi. Ilmiy izoh sifatida, normativ formulalarning yuqori ulushi konseptning faqat tasviriy emas, regulyativ funksiyasini ham ochib beradi. U jamiyatda xulq va munosabatlarni boshqaruvchi til mexanizmi sifatida ishlaydi [2].

**Natijalar.** Natijalar “oila” konseptining o‘g‘uz shevalarida yadro segmenti, yaqin periferiyasi va uzoq periferiyasi mavjudligini hamda har bir segment o‘ziga xos nominativ va pragmatik ko‘rsatkichlar bilan ajralishini ko‘rsatdi. Yadro segment ta’rifi bo‘yicha konseptni eng barqaror va eng ko‘p uchraydigan birliklar majmui bo‘lib, bu yerda “uy”, “oila”, “ota”, “ona”, “bola”, “ro‘zg‘or” tipidagi birliklar hamda ularning kollokatsiyalari ustunlik qildi. Mexanizm nuqtayi nazaridan, yadro birliklar ko‘pincha egalik affikslari va kollektivlik ma’nolari bilan birikib, oila ichki iyerarxiyasi va mas’uliyat taqsimotini kodlaydi. Masalan, “uy egasi” konstruktsiyasi xo‘jalik boshqaruvini, “ro‘zg‘or ko‘tar” tipidagi fe’lli birikmalar esa oilaviy iqtisodiy yukni ifodalaydi. Korpus bo‘yicha yadro birliklar chastotasi 10 000 so‘zga nisbatan o‘rtacha 9,6 ni tashkil etdi, eng yuqori ko‘rsatkich “uy” komponentli birliklarda qayd qilindi. Bu esa “oila” konseptida makon va xo‘jalikning bir-biriga qattiq bog‘langanligini miqdoran tasdiqlaydi. Ilmiy izoh sifatida, bunday natija o‘g‘uz shevalaridagi konseptualizatsiya “family as household” modeliga yaqinligini ko‘rsatadi, ya’ni oila avvalo ijtimoiy-psixologik birlik emas, balki xo‘jalik va barqaror makon atrofida tuzilgan institut sifatida kodlanadi.

Yaqin periferiyada qarindoshlik terminlari tizimi ichida affinal va lateral munosabatlar zichlashgani kuzatildi. Nikoh orqali paydo bo‘ladigan qarindoshlik hamda aka-uka, opa-singil tarmoqlari alohida semantik tugunlar hosil qildi. Masalan, “qayn” komponenti bilan keluvchi birliklar va “quda” atamasi marosim va rasmiy muloqotda yuqori funksional yuk oladi, biroq kundalik xo‘jalik nutqida ularning o‘rni nisbatan torayadi. Demak, ular vaziyatga bog‘liq aktivlashuvchi birliklar sifatida tavsiflanadi. Statistik taqsimotda yaqin periferiyaga kirgan 126 birlikning 52 foizi affinal terminlar, 48 foizi lateral qarindoshlik terminlari bo‘lib, ularning umumiy chastotasi 10 000 so‘zga nisbatan 6,1 ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich yadrogacha yetmasa-da, konseptning sotsial tarmoq komponenti kuchli ekanini ko‘rsatadi.

Uzoq periferiyada marosim kommunikatsiyasi, qo‘shnichilik, tarbiya va axloqiy baholashga oid diskurs formulalari hamda ramziy nomlashlar to‘plandi. Ular konseptni bevosita atamasa ham, uning madaniy “soya maydoni”ni yaratadi. Uzoq periferiyaning ta’rifi konsept bilan assotsiativ bog‘langan, lekin kamroq uchraydigan va ko‘proq pragmatik vazifador bo‘lgan birliklar majmuini anglatadi; mexanizm sifatida ular ko‘pincha tilak, duo, kinoya yoki maqol tusida kelib, normativ xulqni mustahkamlaydi. Masalan, “o‘choq” ramzi “nasl” va “baraka” konseptlari bilan birikib, oilaning davomiyligi va mustahkamligiga ishora qiladi; shuningdek, “beshik” atrofidagi birliklar tarbiya va avlod uzluksizligi kodini tashiydi. Korpusda uzoq periferiyaga mansub 60 birlik qayd etildi, ularning chastotasi 10 000 so‘zga nisbatan 3,4 bo‘lib, bu segmentning nisbatan kam, ammo madaniy yukdor ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy izoh sifatida, periferiyadagi ramziy birliklar konseptni kognitiv jihatdan kengaytiradi. Chunki ular oilani faqat biologik va huquqiy birlik emas, balki “baraka”, “nomus”, “tarbiya” kabi abstrakt qadriyatlar bilan bog‘langan axloqiy makon sifatida tasavvur ettiradi.

Masalan, qarindoshlik terminlarida qisqarish va undosh almashish hodisalari ko‘proq uchrab, natijada murojaat shakllari nutq tezligi va yaqinlik darajasiga moslashadi. Bu holat “oila” diskursining intim sferasida til iqtisodiyoti tamoyilini kuchaytiradi. Hisob-kitobga ko‘ra, 312 birlikning 81 tasida kamida bitta variant qayd etildi va variantli birliklar ulushi 26 foizni tashkil etdi. Eng ko‘p variantlilik yaqin periferiyada, ya’ni affinal terminlar va murojaat birliklarida jamlandi. Yaqin periferiyaning variantlilikka moyilligi uning pragmatik moslashuvchanligi bilan bog‘liq, chunki ijtimoiy masofa va hurmat kategoriyalari til shaklini tezroq o‘zgartiradi, yadro esa nisbatan konservativ bo‘lib qoladi.

Quyidagi jadval “oila” konsepti maydonining segmentlari bo‘yicha birliklar taqsimotini miqdoriy ko‘rinishda beradi. Jadval ta’rifi tahlil obyektini kompakt statistik shaklda ifodalash bo‘lib, mexanizm sifatida u yadro-periferiya modelini aniq raqamlar bilan tasdiqlashga xizmat qiladi. Misol sifatida, yadro segmentdagi birliklar soni kamroq bo‘lsa ham, ularning chastotasi yuqori ekani ko‘rinadi, bu konseptning markaziy mexanizmini ifodalaydi. Raqamlar bo‘yicha yadro 126 kontekst

birligida eng yuqori zichlikni ko‘rsatadi, periferiyalar esa birliklar soni ortishi evaziga semantik tarmoqlanishni kengaytiradi.




**Muhokama.** Olingan natijalar o‘zbek etnolingvistikasida konseptlarning dialektal realizatsiyasi masalasini yanada aniqroq qo‘yadi va “oila” konseptining o‘g‘uz shevalarida uy xo‘jaligi markazida qurilgan modelini tasdiqlaydi. Bu modelning ta’rifi oilani avvalo “uy va ro‘zg‘or”ning birligi sifatida ko‘rish bo‘lib, mexanizm sifatida “uy” komponentining yuqori kollokatsion faolligi va xo‘jalik fe’llari bilan barqaror birikishida namoyon bo‘ladi. Masalan, adabiy til va boshqa sheva zonalarida “oila” ko‘proq ijtimoiy institut sifatida ta’riflansa, o‘g‘uz shevalarida “uy” semasi ko‘pincha oilaning o‘ziga tenglashtiriladi, bu esa madaniy makon va institutsional birlikning birlashgan kognitiv tasvirini yaratadi. Statistik jihatdan yadroning 9,6 chastotasi va “uy” komponentli birliklarning yuqori ulushi mazkur talqinni mustahkamlaydi, chunki konsept markazi nutqda ko‘proq faollashadigan birliklar bilan ifodalanadi. Ilmiy izoh sifatida, bunday natija turkiy tillarda “household” modeli bilan bog‘liq tipologik kuzatuvlar bilan uyg‘unlashadi, biroq o‘g‘uz shevalarida bu modelning ijtimoiy alyanslar bilan parallel kuchayishi alohida diqqatga loyiqdir [6; 7].

Qiyosiy tahlilda yaqin periferiyada affinal terminlarning yuqori ulushi nikoh va quda-andachilikning ijtimoiy tarmoq qurilishidagi rolini ko‘rsatib, o‘g‘uz shevalaridagi “oila” konsepti ko‘proq kengayuvchi alyans modeli bilan birga yashashini anglatadi. Alyans modeli ta’rifi oilani qarindoshlikning faqat biologik yo‘li emas, balki nikoh orqali tuziladigan ijtimoiy kelishuvlar tizimi sifatida ko‘rishdir; mexanizm sifatida bu model “quda”, “kuyov”, “kelin”, “qayn-” kabi birliklarning marosim va rasmiy muloqotda faol ishlatilishi bilan ishlaydi. Misol tariqasida, marosim diskursida murojaat va tilak formulalari affinal terminlarni tez-tez ishga soladi, natijada konseptning periferiyasi normativ va performativ vazifalarni ham bajaradi. Raqamlar bo‘yicha affinal terminlar yaqin periferiyada 52 foizni tashkil etgani, ularning kontekstga sezgirligini ko‘rsatsa-da, bir vaqtning o‘zida bu segmentning madaniy ahamiyati yuqoriligini bildiradi. Ilmiy izoh shundan iboratki, o‘g‘uz shevalaridagi oila modeli genealogik va alyans mexanizmlarining muvozanatli qo‘shilmasidan tuzilgan bo‘lib, bu holat terminologik tarmoqning zichligi va variantlilik darajasi bilan empirik tasdiq topadi [3].

Uzoq periferiyadagi ramziy birliklar va normativ formulalarning salmog‘i natijalarni lingvokulturologik talqinda kengaytiradi, chunki ularning mavjudligi “oila” konseptining regulyativ qatlamini ochib beradi. Regulyativ qatlam ta’rifi konseptning jamiyatda xulq, etik norma va qadriyatlarni mustahkamlashdagi funksional rolidir; mexanizm sifatida u tilak, duo, maqol va marosim iboralari orqali takror ishlab turiladi. Misol uchun, “o‘choq” va “beshik” atrofidagi ramzlar oilani baraka va nasl uzviyligi bilan bog‘laydi, bu esa kundalik nutqda ham axloqiy baholashni faollashtiradi. Statistik ko‘rsatkichlarda normativ formulalarning 64 foizi rozilik va baraka semalarini

tashishi bu qatlamning semantik yo‘nalishini aniq belgilaydi, ya’ni oila qadriyati ko‘proq barqarorlik va legitimatsiya orqali tushuntiriladi [1; 9].




Marosim matnlari ko‘pincha yuqori stilizatsiyalangan va takroriy bo‘ladi. Misol tariqasida, to‘y va qudalik diskursidan ko‘proq material yig‘ilgan hududlarda affinal terminlar chastotasi tabiiy ravishda ortishi mumkin. Raqamlar bilan aytganda, 1000 kontekstning 38 foizi marosim va rasmiy vaziyatlardan, 62 foizi kundalik suhbatlardan olingani qayd etildi [5; 8].

**Xulosa.** Tadqiqot o‘zbek o‘g‘uz shevalarida “oila” konseptining etnolingvistik spetsifikatsiyasi yadro-periferiya tuzilmasi orqali izchil namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Yadro segmentda uy xo‘jaligi, makon va avlod uzviyligi semalari ustunligi aniqlanib, “uy” va “ro‘zg‘or” komponentlari konseptning eng barqaror lisoniy tayanchi ekani miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi. Yaqin periferiyada nikoh orqali kengayuvchi qarindoshlik va ijtimoiy alyanslarni ifodalovchi affinal terminlar hamda lateral qarindoshlik birliklari yuqori tarmoq zichligini hosil qilishi qayd etildi. Uzoq periferiyada esa ramziy nomlashlar, marosim formulalari va normativ baholash birliklari oilani baraka, rozilik, tarbiya va legitimatsiya qadriyatlari bilan bog‘lab, konseptning regulyativ qatlamini shakllantirishi ko‘rsatildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mahmudov N. Til va madaniyat: lingvokulturologik tadqiqotlar. Toshkent: Akademnashr, 2017. 320 b.
2. Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, O‘qituvchi, 2010. 272 b.
3. Kononov A. N. Грамматика современного турецкого литературного языка. Москва: Наука, 1956. 569 с.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent: Fan, 1992. 448 b.
5. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. London, Penguin Books, 2000. 224 p.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 2003. 276 p.
7. Bartmiński J. The Cognitive Definition as a Tool of Cultural Linguistics. Lublin, Wydawnictwo UMCS, 2009. 210 p.
8. Sa’dullayeva M.S. O‘zbek shevalarida polisemiya (o‘g‘uz lahjasi misolida): filolologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Jizzax, 2025. – 170 b.
9. Sa’dullayeva M.S. O‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari. Maqola. Ilm sarchashmalari. 2026. № 6. 82-85 b.

**UO’K 81'37**

## NAVOIY ASARLARIDAGI BARQAROR TIL BIRLIKLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

***S.Sa’dullayeva, talaba, Navoiy davlat universiteti, Navoiy***

***Annotatsiya****. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan barqaror til birliklarining funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Frazeologik birliklar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlarning badiiy matndagi vazifasi, ularning semantik mazmuni va uslubiy*

*ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu birliklarning obraz yaratish, muallif g‘oyasini ifodalash hamda badiiy ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi o‘rni misollar asosida tahlil etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *barqaror til birliklari, frazeologik birliklar, funksional-semantik xususiyatlar, badiiy matn, semantika, uslub, badiiy ifoda, obrazlilik.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются функционально-семантические свойства устойчивых языковых единиц, используемых в произведениях Алишера Навои. Подчеркивается роль фразеологических единиц, пословиц и изречений, мудрых изречений в художественном тексте, их семантическое содержание и стилистическое значение. Также на примерах анализируется роль этих единиц в создании образа, выражении авторской идеи и усилении художественной выразительности.*

***Ключевые слова:*** *устойчивые языковые единицы, фразеологические единицы, функционально-семантические свойства, художественный текст, семантика, стиль, художественное выражение, образность.*

***Abstract.*** *This article analyzes the functional-semantic properties of stable language units used in the works of Alisher Navoi. The role of phraseological units, proverbs and sayings, wise sayings in the artistic text, their semantic content and stylistic significance are highlighted. Also, the role of these units in creating an image, expressing the author's idea, and enhancing artistic expressiveness is analyzed based on examples.*

***Keywords:*** *stable language units, phraseological units, functional-semantic properties, artistic text, semantics, style, artistic expression, imagery.*

O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, uning badiiy-estetik imkoniyatlarini hamda milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liq jihatlarini tadqiq etishda mumtoz adabiy meros alohida ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shoir asarlarida tilning fonetik, leksik, grammatik va uslubiy imkoniyatlari yuksak badiiy mahorat bilan namoyon bo‘lgan. Shu jihatdan Navoiy asarlarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tarixiy tilshunoslik, balki zamonaviy til tadqiqotlari uchun ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Badiiy matnning mazmuniy yaxlitligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalar orasida barqaror til birliklari alohida o‘rin egallaydi. Til taraqqiyoti jarayonida shakllangan bunday birliklar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, hayot haqidagi kuzatishlari, axloqiy qarashlari va estetik mezonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ular nutqda tayyor holda qo‘llanishi, tarkibiy qismlarining nisbatan turg‘unligi hamda ko‘chma ma’no ifodalash xususiyati bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklar, maqol va matallar, aforistik ifodalar hamda boshqa turg‘un birikmalar badiiy matnda muallif g‘oyasini ixcham, obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi.

Alisher Navoiy asarlarida barqaror til birliklaridan foydalanish shoirning individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biridir. Adib xalq tilida mavjud bo‘lgan turg‘un birikmalardan unumli foydalanish bilan birga, ularning ma’no va uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga ham erishgan. Natijada ushbu birliklar asarlarda nafaqat nominativ vazifani, balki estetik, emotsional-ekspressiv va pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Ular vositasida qahramonlarning ruhiy holati, ichki kechinmalari, axloqiy fazilatlari hamda muallifning voqelik va inson haqidagi qarashlari yorqin ifodalanadi.

Navoiy ijodida qo‘llangan barqaror til birliklari semantik jihatdan ham rang-barangdir. Ularda muhabbat va sadoqat, ezgulik va adolat, sabr va matonat, ilm va ma’rifat kabi umuminsoniy qadriyatlar o‘z aksini topgan. Ayrim birliklar tasavvufiy-falsafiy mazmunni ifodalashga xizmat qilsa, boshqalari ijtimoiy munosabatlar yoki inson xarakterining muayyan qirralarini ochib beradi. Shu sababli ularning semantik tabiatini tahlil qilish Navoiy badiiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Bugungi kunda frazeologiya va badiiy matn lingvistikasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar barqaror til birliklarini funksional-semantik nuqtai nazardan o‘rganish zaruratini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, mumtoz matnlardagi bunday birliklarning qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash o‘zbek adabiy

tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu ma'noda Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarini tadqiq etish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan barqaror til birliklarining funksional-semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy matn tarkibidagi vazifalarini yoritish hamda ma'noviy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida shoir asarlaridan olingan misollar asosida barqaror til birliklarining qo'llanish o'rinlari, uslubiy ahamiyati va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ular yuzasidan ilmiy xulosalar chiqariladi.

Tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi birliklar orasida barqaror til birliklari alohida o'rin egallaydi. Bunday birliklar xalqning uzoq yillar davomida shakllangan nutqiy tajribasi mahsuli bo'lib, ma'lum bir ma'no va vazifani ifodalash uchun tayyor holda qo'llanadi. Barqaror til birliklari tarkibidagi so'zlar o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha alohida komponentlar ma'nosining oddiy yig'indisidan farq qiladi. Shu sababli ular tilning obrazlilik va ta'sirchanlik xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslikda barqaror til birliklari masalasi frazeologiya sohasi doirasida o'rganiladi. "Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida turg'un birikmalarning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini o'rganadi" [4]. Mazkur birliklar tilning boshqa birliklaridan o'zining semantik yaxlitligi, turg'unligi va nutqda tayyor holda qo'llanishi bilan ajralib turadi. Ular kishilar o'rtasidagi muloqot jarayonida fikrni ixcham, aniq va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi.

Barqaror til birliklari tarkibiga frazeologik iboralar, maqollar, matallar, aforistik ifodalar va hikmatli so'zlar kiradi. Frazeologik birliklar ko'chma ma'no asosida yuzaga kelib, nutqning obrazliligini kuchaytiradi. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi va donishmandligi asosida shakllangan bo'lsa, matallar ma'lum bir fikrni obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Hikmatli so'zlar va aforizmlar esa muayyan axloqiy, falsafiy yoki ijtimoiy g'oyalarni qisqa va lo'nda shaklda ifodalovchi barqaror birliklar hisoblanadi. Ushbu birliklarning barchasi badiiy matnning mazmuniy va uslubiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Barqaror til birliklarining muhim xususiyatlaridan biri ularning semantik yaxlitligidir. Bunda birlik tarkibidagi so'zlar o'zining dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, yangi umumiy ma'noni hosil qiladi. Masalan, "ko'ngul bermoq", "jon fido qilmoq", "ko'ngli sinmoq" kabi iboralarda ma'no alohida so'zlar orqali emas, balki butun birikma orqali anglashiladi. Shu jihatdan bunday birliklar tilning obrazli tafakkur mahsuli sifatida baholanadi.

Barqaror til birliklari faqat ma'no ifodalash vositasi bo'libgina qolmay, balki muayyan funksional vazifalarni ham bajaradi. Ular badiiy matnda qahramon xarakterini ochib berish, voqea-hodisalarni jonli tasvirlash, muallif munosabatini ifodalash hamda o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari tilida bunday birliklarning qo'llanish doirasi nihoyatda keng bo'lib, ular asarning badiiy qimmatini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

"Alisher Navoiy asarlarida barqaror til birliklari nafaqat badiiy bezak vositasi, balki asar g'oyasini ochib beruvchi muhim semantik unsur sifatida ham namoyon bo'ladi" [3]. Navoiy bu birliklar vositasida inson ruhiyati, muhabbat, sadoqat, adolat, ilm-ma'rifat va komillik kabi tushunchalarni chuqur badiiy-falsafiy mazmunda yoritishga erishgan. Shu sababli uning asarlaridagi barqaror til birliklarini o'rganish nafaqat frazeologiya, balki badiiy matn lingvistikasi uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Demak, barqaror til birliklari tilning obrazlilik va ta'sirchanligini ta'minlovchi, xalq tafakkuri hamda madaniy tajribasini o'zida mujassamlashtiruvchi muhim lingvistik hodisadir. Ularning nazariy xususiyatlarini o'rganish Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan frazeologik birliklarning funksional-semantik mohiyatini chuqurroq anglash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning *"*Mahbub ul-qulub" asarida **"til nayzasi"** va **"shirin til"** kabi barqaror til birliklari inson nutqining jamiyatdagi o'rni va ta'sirini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur birliklar o'zaro qarama-qarshi semantik mazmunga ega bo'lib, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va ozor yetkazish kabi tushunchalarni badiiy vositalar orqali yoritadi [1].

**"Til nayzasi"** barqaror birligi ko'chma ma'noda insonni ranjitadigan, qalbini og'ritadigan qo'pol yoki haqoratli so'zni anglatadi. Mazkur birlikda "nayza" obrazi tilning jismoniy emas, balki

ma'naviy jarohat yetkazuvchi kuchini ifodalaydi. Funksional jihatdan ushbu birlik o'quvchini til odobiga rioya qilishga undaydi hamda qo'pol muomalaning salbiy oqibatlarini ta'sirchan tarzda ochib beradi.

Bunga qarama-qarshi ravishda **"shirin til"** barqaror birligi muloyim, samimiy va yoqimli muomalani ifodalaydi. Semantik jihatdan u mehr-oqibat, hurmat va insoniylik tushunchalari bilan bog'liq. Funksional jihatdan esa asarda axloqiy g'oyani kuchaytirish, nsonlarni ezgu muomalaga chorlash va nutqning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning *"*Mahbub ul-qulub" asarida qo'llangan **"ko'ngil jarohati"** barqaror til birligi insonning ruhiy kechinmalari va ma'naviy iztiroblarini ifodalovchi obrazli vositalardan biridir [1]. Ushbu birlikning semantik mazmuni jismoniy jarohatdan farqli ravishda qalbga yetgan ozor, ranj va alamni anglatadi. Demak, mazkur birlik ko'chma ma'noda insonning ruhiy iztiroblarini ifodalashga xizmat qiladi.

Funksional jihatdan **"ko'ngil jarohati"** birligi asarda insonlar o'rtasidagi muomala madaniyati, so'zning ta'sir kuchi va axloqiy munosabatlarni yoritishda muhim vazifa bajaradi. Muallif ushbu birlik orqali inson qalbini ehtiyot qilish, birovning ko'ngliga ozor bermaslik g'oyasini ilgari suradi. Natijada o'quvchida mehr-oqibat, bag'rikenglik va odob-axloq kabi fazilatlarni qadrlash tuyg'usi shakllanadi. Shunday qilib, **"ko'ngil jarohati"** barqaror til birligi *"Mahbub ul-qulub"* asarida ruhiy iztirob va qalb og'rig'ini ifodalovchi semantik vosita bo'lish bilan birga, asarning didaktik va tarbiyaviy mohiyatini kuchaytiruvchi funksional birlik sifatida ham muhim o'rin egallaydi.

Alisher Navoiyning **"Hayrat ul-abror"** dostonida qo'llangan **"ko'ngil ko'zi"** barqaror til birligi insonning ma'naviy idroki, qalb pokligi va ichki tafakkurini ifodalovchi obrazli vositalardan biridir. Mazkur birlikning semantik mazmuni jismoniy ko'rish qobiliyatini emas, balki haqiqatni anglash, ezgulikni farqlash va ilohiy hikmatni qalban his etish ma'nolarini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan u ko'chma ma'noda insonning ruhiy kamoloti va ma'naviy yetukligini ifodalaydi [2]. Funksional jihatdan **"ko'ngil ko'zi"** barqaror til birligi asarda tasavvufiy-falsafiy g'oyalarni yoritish, komil inson obrazini yaratish hamda o'quvchini ma'naviy poklanishga da'vat etish vazifasini bajaradi. Muallif ushbu birlik orqali insonning haqiqiy kamoloti tashqi ko'rinish yoki moddiy boylikda emas, balki qalbning pokligi va ma'rifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Natijada asarning g'oyaviy-badiiy ta'sirchanligi ortadi va o'quvchi ezgulik, adolat hamda ma'rifat sari yo'naltiriladi.

Demak, **"ko'ngil ko'zi"** barqaror til birligi **"Hayrat ul-abror"** dostonida ma'naviy idrok va ruhiy kamolotni ifodalovchi semantik vosita bo'lish bilan birga, muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini ochib beruvchi muhim funksional birlik sifatida ham namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr*"* asarida **"haq yo'li"** barqaror til birligi tasavvufiy-falsafiy mazmunni ifodalovchi muhim obrazli vositalardan biri hisoblanadi [5]. Ushbu birlikning semantik mazmuni Allohga eltuvchi to'g'ri yo'l, ma'naviy kamolot va haqiqat sari intilish tushunchalarini anglatadi. Shu jihatdan u faqat oddiy "yo'l" ma'nosini emas, balki insonning ruhiy poklanish va komillikka erishish yo'lini ham ifodalaydi.

Funksional jihatdan **"haq yo'li"** barqaror til birligi asarning asosiy g'oyasi – insonning nafsni yengishi, ma'rifatga erishishi va Haq vasliga intilishi g'oyasini yoritishga xizmat qiladi. Muallif ushbu birlik orqali komil insonning ma'naviy kamolot sari bosib o'tadigan murakkab yo'lini obrazli tarzda tasvirlaydi. Natijada o'quvchi tasavvuf ta'limotining asosiy tamoyillari haqida chuqurroq tasavvur hosil qiladi. Demak, **"haq yo'li"** barqaror til birligi *"Lison ut-tayr"* asarida ilohiy haqiqat, ma'rifat va komillik ramzi sifatida qo'llanib, asarning funksional-semantik tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu birlik muallifning tasavvufiy qarashlarini badiiy va ta'sirchan tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan barqaror til birliklari o'zining boy semantik mazmuni va rang-barang funksional xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu birliklar badiiy matnning obrazliligini kuchaytirish, qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish, axloqiy-ta'limiy va tasavvufiy g'oyalarni ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" hamda "Lison ut-tayr" asarlarida uchraydigan **"til nayzasi"**, **"shirin til"**, **"ko'ngil jarohati"**, **"ko'ngil ko'zi"** va **"haq yo'li"** kabi

barqaror til birliklari funksional-semantik jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar ushbu birliklarning matn mazmunini boyitish, muallifning badiiy niyatini ochish hamda o‘quvchiga kuchli estetik va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shuningdek, Alisher Navoiy barqaror til birliklaridan unumli foydalanish orqali o‘z davrining ma’naviy-axloqiy qarashlarini, inson kamoloti haqidagi g‘oyalarini va tasavvufiy tafakkurini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan. Shu bois Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarini funksional-semantik nuqtai nazardan o‘rganish nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki badiiy matn lingvistikasi va frazeologiyasini tadqiq etishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013
2. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: “Noshir”, 2019.
5. Alisher Navoiy. “Lison ut-tayr”. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991

**UDC 82-13:82.091:398.22**

## TYPOLOGICAL INTERPRETATION OF THE MOTIF OF FRIENDSHIP IN WORLD HEROIC EPICS

***S.B.Shamsiddinova, PhD, "Jo'ybori Kalon" Women's Secondary Specialized Islamic Educational Institution, Bukhara***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada jahon qahramonlik eposlarida do‘stlik motivining tipologik talqini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida “Gilgamish”, “Dede Qo‘rqut kitobi” va “Alpomish” dostonlari tanlandi. Tahlilda Karl Gustav Yungning arxetip nazariyasi, Joseph Campbellning monomif konsepsiyasi hamda Yuri Lotmanning madaniy semiotika qarashlariga tayangan holda do‘stlik motivining qahramon arxetipi shakllanishidagi vazifasi, syujet rivojidagi o‘rni va madaniy mazmuni yoritildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *do‘stlik motivi, tipologiya, qahramon arxetipi, Gilgamish, Ramayana, Dede Qo‘rqut, Alpomish, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуется типологическая интерпретация мотива дружбы в мировых героических эпосах с позиции сравнительного литературоведения. В качестве объекта исследования выбраны эпосы «Гильгамеш», «Книга Деде Коркута» и «Алпомиш». На основе теории архетипов Карла Густава Юнга, концепции мономифа Джозефа Кэмпбелла и положений культурной семиотики Юрия Лотмана раскрываются роль мотива дружбы в формировании архетипа героя, его функция в развитии сюжета и культурно-семантическое значение.*

**Ключевые слова:** *мотив дружбы, типология, архетип героя, «Гильгамеш», «Рамаяна», «Книга Деде Коркута», «Алпомиш», сравнительное литературоведение.*

***Abstract.*** *This article examines the typological interpretation of the motif of friendship in world heroic epics from the perspective of comparative literary studies. The research focuses on the epics The Epic of Gilgamesh, The Book of Dede Korkut, and Alpomish. Based on Carl Gustav Jung's theory of archetypes, Joseph Campbell's concept of the monomyth, and Yuri Lotman's theory of cultural semiotics, the study analyzes the role of the friendship motif in the formation of the hero archetype, its function in the development of the plot, and its cultural significance.*

***Key words:*** *friendship motif, typology, hero archetype, Gilgamesh, Ramayana, Dede Korkut, Alpomish, comparative literary studies.*

**Introduction.** One of the principal directions of comparative literary studies is the typological investigation of common artistic phenomena found in the literatures of different nations. Such studies compare the manifestations of plots, characters, motifs, and archetypes across diverse cultures. Since world heroic epics reflect the earliest layers of humanity's artistic consciousness, the motifs they contain possess a universal character. One of these universal motifs is the motif of friendship.

According to Carl Gustav Jung, the archetypes existing within the collective unconscious of humanity are manifested through similar characters and motifs in the myths and epics of different peoples. Joseph Campbell, in turn, considers the companion figure accompanying the hero during his development to be an essential component of the "Hero's Journey" model [2]. According to Yuri Lotman's theory of cultural semiotics, such motifs function as cultural codes that preserve a society's historical memory and moral values.

**Results and Discussion.** Among the earliest and most accomplished examples of this motif in the world's epic heritage is The Epic of Gilgamesh. At the beginning of the epic, Gilgamesh is portrayed as a ruler excessively confident in his own strength, placing his personal will above the interests of his people [5]. In order to restore the balance of his power, the gods create Enkidu. Although the two heroes initially engage in a fierce struggle, it is precisely this confrontation that lays the foundation for their lifelong friendship. Before Enkidu sets out for Uruk, Shamhat describes the feeling awakened in his heart toward someone he has never met as follows:

*Garchi qiz so'zi yoqar, shilib olar po'stini,*
*Uning donishmand qalbi izlar edi do'stini [6].*

These verses present friendship not merely as an ordinary human relationship but as a primordial need inherent in human nature. Rather than associating Enkidu's desire to travel to Uruk with love or the pursuit of fame, the author connects it specifically with his longing to find a friend. This demonstrates that the motif of friendship constitutes one of the principal factors determining the hero's destiny within the epic narrative.

From a typological perspective, Enkidu is far more than an ordinary companion. He represents an archetypal figure who initiates Gilgamesh's spiritual transformation. The expedition against Humbaba and the victory over the Bull of Heaven become possible precisely because of the mutual trust and solidarity between the two friends. More importantly, Enkidu's death marks a decisive turning point in Gilgamesh's life. Only after losing his friend does he fully realize the inevitability of death and embark upon the quest for the secret of eternal life. Thus, in The Epic of Gilgamesh, the motif of friendship functions not to emphasize the hero's physical strength but rather to initiate his spiritual evolution, thereby fulfilling a significant typological role.

In the heroic epics of the Turkic peoples, the motif of friendship acquires a distinctive artistic and philosophical significance. Whereas in The Epic of Gilgamesh friendship serves as the catalyst for the hero's spiritual transformation, in the Turkic epics it primarily symbolizes loyalty, courage, devotion to one's people, and human virtue. Consequently, in The Book of Dede Korkut and Alpomish, the friend is portrayed not only as the hero's closest companion but also as a symbolic embodiment of society's moral ideal.

In The Book of Dede Korkut, the hero is never portrayed in isolation. Mutual trust, solidarity, and unwavering support among the Oghuz warriors constitute one of the central themes throughout the epic. This is particularly evident in the narratives concerning Bamsi Beyrek, where friendship is placed above the hero's personal interests and is interpreted as a moral force that ensures the unity of the Oghuz people:

Men Qozonning ne'matini ko'p yeganman,
Agar bilmasam, ko'zlarim ko'r bo'lsin.
Qora otlarga ko'p minganman,
Agar bilmasam, tobutim bo'lsin.
Chiroyli kaftonlarni ko'p kiyganman,
Agar bilmasam, kafanim bo'lsin.
Men Qozondan qaytmayman, buni yaxshi biling, [3].

It is evident that Beyrek remains loyal both intellectually and morally to the central authority, as well as to the customs and traditions of his people. Even after spending sixteen years imprisoned in a fortress together with thirty-nine companions, he never abandons his loyalty. Likewise, although Banu Chichek agrees to marry him, Beyrek refuses to seek personal happiness until he has rescued his companions.

Therefore, he declares:

– “Do‘stlarimni qutqarmagunimcha, qal'ani egallamagunimcha murodimga yetgan bo‘lmayman!”

In his work Gizli Dede Korkut (The Hidden Dede Korkut), Kemal Abdulla interprets the symbolic meaning of Beyrek's loyalty and devotion through his refusal to accept the opportunity to escape from the fortress [4]. For the Oghuz warriors, abandoning a friend was regarded as equivalent to losing one's honor and dignity. From this perspective, the motif of friendship transcends the boundaries of an individual relationship and becomes an artistic representation of collective solidarity.

In the epic Alpomish, this motif receives an even deeper artistic interpretation. Alpomish and Qorajon initially encounter one another as representatives of two opposing worlds. However, their mutual appreciation of courage, heroism, and virtue gradually brings them together. Qorajon perceives the promise he makes to Alpomish not merely as an ordinary human pledge but as a moral commitment undertaken in the presence of God:

*To o‘lguncha Yaratganga rost bo‘ldim,*
*O‘z fe’limdan cho‘p-u xasdan past bo‘ldim,*
*Xudoni o‘rtaga solib do‘st bo‘ldim [1].*

These verses reveal the essence of friendship through religious and ethical values. For Qorajon, loyalty to a friend is regarded as equivalent to remaining faithful to a promise made before God. Consequently, friendship is portrayed not merely as an emotional relationship but as a moral criterion that defines an individual's spiritual maturity and conscience.

Qorajon's willingness to risk his own life for Alpomish further highlights the typological function of this motif. He places Alpomish's interests above his own and embraces his companion's triumph as if it were his own achievement. In this respect, the character of Qorajon performs the same typological role as Enkidu in the Epic of Gilgamesh and Hanuman in the Ramayana. Enkidu guides Gilgamesh toward spiritual maturity, Hanuman assists Rama in accomplishing his divine mission, whereas Qorajon embodies friendship through the ideals of courage, loyalty, and faith. Thus, while the companion figure in these epics is constructed upon a universal typological model, its philosophical interpretation is reshaped in accordance with the cultural values of each respective tradition.

The comparative analysis of The Epic of Gilgamesh, The Book of Dede Korkut, and Alpomish demonstrates that the motif of friendship is one of the most stable typological elements of heroic epics. It performs an important artistic function in advancing the plot, revealing the hero’s character, and expressing the central idea of the work. At the same time, in each epic, this motif acquires a new semantic meaning shaped by the religious, ethical, and historical experience of the respective people. This feature confirms that the motif of friendship is simultaneously both a universal and a nationally specific phenomenon.

**Conclusion.** This study comparatively examined the typological interpretation of the friendship motif in world heroic epics through the examples of The Epic of Gilgamesh, The Ramayana, The Book of Dede Korkut, and Alpomish. The analysis established that the friendship motif appears in the epic heritage of different peoples as an integral component of the hero archetype. In all of these epics, the friend functions as the hero’s most trustworthy companion, spiritual support, and a typological figure contributing to the hero’s maturation.

**REFERENCES:**

1. Alpomish: xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Yangiyul Polygraph Service, 2019. – 153 b.
2. Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. – Princeton: Princeton University Press, 2004. – 416 p.
3. Ergin M. Dede Korkut Kitabı–1. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2014. – 376 s.
4. III. Uluslararası Türk Dünyası Kültür Kongresi: Dede Korkut ve Türk Dünyası: Bildiriler Kitabı. Cilt 3 / Ed. M. Ekici, M. Duranlı. – İzmir: Ege Üniversitesi Matbaası, 2016. – 978 s.
5. Shamsiddinova S. Epopeyalarda do‘stlik talqini ("Gilgamish", "Alpomish" va "Iliada" misolida) // Экономика и социум. – 2021. – № 5 (84). – Ч. 1. – B. 318–322.
6. Sinlikiunninni. Gilgamish / o‘zbek tiliga tarj. S. Shamsiddinova. – Buxoro: Durdona, 2025. – 196 b.

UO'K 821.512.133.09

# XIX – XX ASR BAYOZCHILIGI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Z.Shukurova, dots., f.f.d., Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida XX asrning boshiga qadar ma'lum va mashhur bo'lgan bayozlar haqida so'z boradi. XX asrning boshiga qadar ko'plab nusxalarda tuzilgan bayozlar taraqqiyoti va bunga sabab bo'lgan omillar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *Bayoz, bayozchilik, o'zbek mumtoz adabiyoti, qo'lyozma, she'riy to'plam, adabiy majmua, kotib, mumtoz shoirlar.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются баёзы (литературные сборники), которые были известны и популярны в узбекской классической литературе до начала XX века. Анализируются развитие баёзов, составлявшихся в многочисленных экземплярах до начала XX века, и факторы, способствовавшие этому процессу.*

***Ключевые слова:*** *Баёз, баёзоведение, узбекская классическая литература, рукопись, поэтический сборник, литературная антология, переписчик, классические поэты.*

***Abstract.*** *This article discusses the bayozs (literary anthologies) that were well-known and popular in Uzbek classical literature until the beginning of the 20th century. It analyzes the development of bayozs, which were compiled in numerous copies until the early 20th century, as well as the factors that contributed to this process.*

***Keywords:*** *Bayaz, bayaz studies, Uzbek classical literature, manuscript, poetry collection, literary anthology, copyist, classical poets.*

O'zbek mumtoz adabiyotining boyishida bayozlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, XIX – XX asrda bayoz tuzish an'anasi o'tgan asrlarga nisbatan ancha jadallashdi. Bu davrga kelib bayozchilik taraqqiyot cho'qqisiga chiqa boshladi. Yangicha tamoyillar, yangi an'analarning paydo bo'lishi ularni son va sifat jihatdan takomillashtirdi. Bu davrda bayoz nomi ostida ko'chirilgan she'riy to'plamlarning ma'no doirasi kengaydi. Eng muhim yangilik shu bo'ldiki, bayozlarda nasriy matnlarning ulushi orta boshladi. Bunday matnlarning kiritilishi avvalgi asrlarda boshlangan bo'lsada, ommalashmagan edi. Bu matnlar mavzusiga ko'ra turli sohalarga oid bo'lib, bayozning maqsadidan kelib chiqib tanlangan. Masalan: diniy matnlar Buxoro va Qo'qon xonligida tuzilgan ko'pchilik bayozda uchraydi. Bu orqali kotib payg'ambarlar tarixi, shariat qoidalari, duolarning foydali xususiyatlari kabilar haqida ma'lumot berishni maqsad qiladi. Shuningdek, Payg'ambarimiz (s.a.v.) vafotlaridan keyin islom dinini yoyishda o'z hissalarini qo'shgan xalifalar, sahobalar, tobeinlarning janglari haqidagi nasr yoxud masnaviyda yozilgan "Abo Muslim jangnomasi", "Imom Hasan imom Husayn qissasi" kabi jangnoma qissalar yuzaga keldi. Bunday qissalar, tabiiyki, bayozlardan shunchaki joy olmagan. Avvalo, mamlakatimiz chor mustamlakasining iskanjasida qolgan bir vaqtda bayoznavislar xalqni mana shunday jangnoma xarakteridagi asarlari bilan ruhlantirib, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashishga chaqirgan. Qissalarning botinida qanday maqsad yashiringanidan qat'i nazar zohirda ularning barchasi dinining va yurtining himoyasiga, dushmanlarga qarshi mardonavor jang qilishga qaratilgan edi. Bu kabi ma'naviy ruhlantirish natijasida xalqimiz millat hamda Vatan ozodligi uchun jangga bel bog'lab, hatto, jonlarini fido qilishgan. Bu haqda tarix kitoblarda ko'plab ma'lumotlar berilgan. Sirtdan qaraganda dushmanlarga qarshi kurashishga chaqiriq ruhida kiritilgan ushbu matnlar zamirida boshqa bir maqsad ham yashiringan bo'ladi.

Aniqroq qilib aytganda, bayozlar g'oya, aqida va tariqatlarni singdirishda samarali vositalardan biri hisoblangan. Chunki "Movarounnahr hamisha turli dinlar (islom, xristianlik va yahudiylik), diniy oqim (sunniy va shia kabi) va mazhablarning (sunniy va mazhablararo), ko'pdan ko'p odil va botil tariqatlarning mahfiy raqobat maydoni bo'lib kelgan. Har bir ijtimoiy guruhning o'z ijodkorlari, epik va lirik adabiyoti bo'lgan, albatta. Ushbu adabiyotlar fors yoki turkiyda Sharq badiiyati qonun-qoidalariga muvofiq yozilgani tufayli zamonaviy oddiy o'quvchi ularda ilgari surilayotgan g'oyani aniq sezmasligi mumkin" [1]. Badiiylashtirilgan bunday qissalar shunchaki kishini ruhlantirmay,

balki kuchli ruhiy ta'sir ham qilgan. Shu sababli bayozlarda kiritilgan barcha matnlar tadqiqotchi tomonidan jiddiy tekshirishni va bunda kotibning qaysi tomonda ekanligini aniqlashni talab etadi. Kotibning aniq maqsadga ko‘ra kiritgan har bir matni uning keyinchalik yanada ommalashishiga sabab bo‘lgan. Agarki kotib bunday matnlarning g‘oyasini bilib, fahmlagan holda kiritgan bo‘lsa, demakki, kotibning o‘zini ham jiddiy tekshirish talab etiladi. Yoki kotibning savodsizligi, dinlar tarixini yaxshi bilmasligi, berilgan matnlarning tag ma'nosini yaxshi tushunmasligi ham, tabiiyki, ishonchsiz xabarlarning yanada urchishiga sabab bo‘ladi.

Bayozlarda nasriy matnlarning joylashuvi haqida gapirganda fanning turli sohalariga oid mavzularda ham ma'lumotlar berib borilganligini eslatmay bo‘lmaydi. Ularni keltirishda kotib bayozning kimlar uchun tuzilayotganligiga ahamiyat bergan. Bu ma'lumotlar tarix, adabiyot, matematika, astronomiya va boshqa ko‘plab fan sohalariga oid bo‘lishi mumkin. Bizning ushbu kuzatishimiz Y.Is'hoqovning xulosalari bilan yanada quvvatlanadi: "XIX asrlarga kelib bayozchilik shu qadar keng tarqaldiki, maxsus tuzilgan bayozlar bilan bir qatorda, bayoz va majmualarning aralashib ketgan shakllari ham ko‘plab paydo bo‘la boshladi. Shuningdek, ayrim shoir va adabiyot muxlisi tomonidan o‘z she'rlari, boshqa manbalardan tanlab olgan she'r yoki ayrim parchalar asosida yillar davomida yuzaga kelgan kashkullar ham bayoz tushunchasi bilan qo‘shilib ketib, ko‘pincha bayoz degan nom bilan atalib kelgan. Umuman, tarixiy taraqqiyot jarayonida bayozlarning ichki xususiyatlari o‘zgarib, boyib borganidek, "bayoz" terminining ma'no doirasi ham kengaygan" [2]. Tarixiy taraqqiyot natijasida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab an'anaviy tuzilgan bayozlar bilan birga, asosan, kashkullarga, ba'zan esa tazkira, devon, majmualarga xos belgilar bilan tuzilgan bayozlar ham ko‘paya bordi va bu holat o‘sha davrda bayozlarning ommalashishiga sabab bo‘ldi.

Bayozlarning bu davrda rivojlanib, taraqqiy etganligini kutubxonalarda saqlanayotgan nusxalarning son jihatdan ko‘pligi ham tasdiqlaydi. Ularning boshqa to‘plam turlaridan ko‘ra tez ommalashganligining bir nechta sabablari bor:

avvalambor, hamma shoirning ham devon tuzishga imkoni yetmagan. Shuning uchun bir to‘plam tarkibida mashhur shoirlarning ijodi bilan birga devon tartib qila olmagan shoirlar ijodini kiritish anchagina qulay bo‘lib, xalq orasida ijodini ommalashtirishning eng samarali usuli hisoblangan;

ikkinchidan, ayrim shoirlar kam ijod qilib, son jihatdan devon tuzish uchun yetarli bo‘lmagan. Shu sababli ham ular she'rlarini bayozlarga kiritishgan hamda xalqqa shu yo‘l bilan tanilgan;

uchinchidan, bu davrda zamonaviy shoirlar Bedil, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi ustoz shoirlarning she'rlariga tazmin, muxammas bog‘lagani holda o‘zlarining ham ijod namunalarini keng ommaga yoyish istagida bo‘lishgan;

to‘rtinchidan, har bir xonadon egasi o‘zi uchun sevimli shoirlarining eng sara ijod namunalarini bir to‘plamda yig‘ib, unga egalik qilishni istagan. Ya'ni bu davrda deyarli har bir xonadonning o‘z bayozi bo‘lgan. Shu sababli bo‘lsa kerak, bayozlar devonlarga qaraganda ancha keng tarqalgan;

beshinchidan, "XVIII – XIX asrlarda O‘rta Osiyoning ko‘pgina shaharlarida kitob bozori mavjud bo‘lgan. O‘rta osiyoliklar Irbit, Astraxan savdo bozorlariga karvonlarda borib, qo‘lyozmalar sotganlar. Ayniqsa, kitob savdosi Buxoro va Qarshida keng avj olgan, bu shaharlarda alohida kitob sotadigan savdogarlar bo‘lib, ulardan juda chiroyli badiiy bezak va miniatyuralarga ega bo‘lgan turli davrdagi qo‘lyozmalarni sotib olish mumkin bo‘lgan" [3]. Bu hol kitoblarning qo‘ldan qo‘lga, hududdan hududga o‘tib, bayozchilik an'analarining ham almashinuviga olib kelgan.

Demak, bayozlarning ko‘payishi va tarqalishi faqat adabiy jarayon bilan emas, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lgan madaniy aloqalarning almashinuvi, xalqning estetik didi o‘zgarib borishi natijasida ham jadallashgan.

O.Jo‘raboyev bu davr qo‘lyozma bayozlarini tadqiq qilganda ularni quyidagi xususiyatiga ko‘ra tasniflaydi: "a) XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ko‘chirilgan qo‘lyozma bayozlarda qaysi ijodkorlarning asarlari ko‘proq o‘rin olganligi; b) qanday mavzu va xarakterdagi she'rlar ko‘chirilganligi; v) manbalarda ko‘chirilgan she'rlar sirasi nimaga muvofiq joylashtirilganligi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran bayoz tuzishning yangi davri boshlandi. Ya'ni bu davrda bayozlar *She'riy to‘plam*, *To‘plam* deya nomlangani holda matn strukturasida ham yangilanish kuzatildi: bayozlarga xos shoirlar ijodini aralash berish bilan birga hozirgi ko‘rinishdagi

she'riy to'plamlar ham shakllana boshladi. Bu esa bugungi kunda she'riy to'plam nomi ostida chiqayotgan to'plamlar genezisiga ko'ra bayozlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Shu sababli "Hozirda turli prinsiplar asosida (masalan: muayyan hududda yashovchi shoirlar, ijodkor o'qituvchilar, jangchi shoirlar, talaba yoshlar to'plamlari yoki muayyan mavzu bo'yicha) tartiblangan she'riy majmualarga ham bayozchilik an'anasining davomi sifatida qarash mumkin" [4].

Shu o'rinda aytish kerakki, bayozlarning nomlanishi bilan bog'liq har xillik olimlar tomonidan tasnif qilingan kataloglarda ham uchraydi. Gap shundaki, bayozlar, asosan, Sharq xalqlari orasida tarqalganligi sababli G'arb davlatlarida ularning muqobili mavjud emas. Shu sababli XX asrning ikkinchi yarmida chet el olimlari tomonidan tuzilgan kataloglarda O'rta Osiyodagi mavjud qo'lyozma va toshbosma bayozlar har xil nom bilan nomlangan. Rus olimlari ba'zan bayoz terminini rus tiliga o'girganida uning belgilarini antologiyaga o'xshatib, antologiya deya nomlashadi. Masalan: 179-raqamli qo'lyozma بیاض سید حسن nomli bayoz rus tilida "Антология произведений Сейид Хасан" deb tarjima qilingan [5]. 254/VII raqamli qo'lyozma bayoz بیاض بیدل tarjima qilinganda esa "Отрывки из произведение Бидиля" deb tarjima qilinadi [5]. 237/I raqamli بیاض بیدل و نوایی nomli qo'lyozma bayozning tarjimasi "Антология стихотворение Бидиля и Алишера Навои" deb tarjima qilingan [5]. Bayozlarning مجموعه deb nomlanganlari esa "Сборник" termini bilan tarjima qilingan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari to'plamini nashr qilishda mas'ul bo'lgan olimlar jamoasi bayozning rus tilidagi muqobili bo'lmaganligi sababli *Антология*, *Отрывки, Сборник* kabi nomlar bilan qayd etishgan. Biroq antologiya va bayoz bir xil to'plam emas. Matnshunoslik va adabiyot tarixi fanlari uchun yangi shoirlarni kashf etishda, fanda ma'lum shoirlarning esa yangi ijod namunalarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Shu jihatlarni hisobga olganda bayozlarni o'rganish va tadqiq etish millat tarixining ochilmagan sahifalarini xolisona o'rganishda asosiy vositalardan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011.

2. Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1976.

3. Лунин Б. Средняя Азия в дореволюционном и советском Востоковедении. – Ташкент: Фан, 1965.

4. Жўрабоев О. Ҳазиний Ҳўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. номз... дисс... автореф. – Тошкент, 2003.

5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

**UDC 82-31; 801.73; 81-272**

## THE FUNCTION OF INTERTEXTUAL REFERENCES IN THE FRENCH LIEUTENANT'S WOMAN

***N.B.Sobirova, PhD student, Bukhara State University, Bukhara***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqola "The French Lieutenant's Woman" romanidagi intertekstual ishoralarning funksiyasini tadqiq etadi hamda ushbu ishoralarning asarning metafiksional va postmodern tuzilishini shakllantirishdagi o'rnini tahlil qiladi. Tadqiqot roman qanday qilib Viktoriya davri adabiyoti, ayniqsa Jane Austen, Charles Dickens va Thomas Hardy asarlari bilan badiiy dialogga kirishini o'rganadi. O'tmishni tabiiy va shaffof tarzda qayta yaratishga intiluvchi an'anaviy tarixiy romanlardan farqli ravishda, Faulz intertekstual alluziyalar, muallif izohlari va historiografik qayta talqin vositasida narrativ konstruktsiyaning sun'iyligini ataylab ochib beradi. Tadqiqotda sifatli adabiy tahlil intertekstual va narratologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilib, romandagi intertekstuality faqat bezak vazifasini emas, balki strukturaviy va ideologik funksiyani bajarishi asoslab beriladi. Maqolada adabiy ishoralar narrativ o'z-o'zini anglash, tarixiy rekonstruksiya va o'quvchini jalb qilish mexanizmi sifatida faoliyat yuritishi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotda Faulz Viktoriya davri narrativ an'analarini qanday qilib postmodern narrativ tajribaga aylantirgani tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari intertekstual ishoralar narrativ hokimiyatni beqarorlashtirishi, faol interpretatsiyani rag'batlantirishi hamda o'tmish va hozirgi adabiy an'analar o'rtasidagi chegaralar nisbiylashadigan ko'p qatlamli matniy makon yaratishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida intertekstuallik roman o'zining postmodern identifikatsiyasini*

*shakllantiruvchi va tarixiy realizm haqidagi an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishga xizmat qiluvchi markaziy vositalardan biri ekanligi qayd etiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *intertekstuallik, metafiksiya, postmodernizm, historiografik metafiksiya, narrativ diskurs, Viktoriya romani, Jon Faulz.*

***Аннотация.*** *Данная статья рассматривает функцию интертекстуальных отсылок в романе The French Lieutenant's Woman John Fowles и анализирует, каким образом эти отсылки способствуют формированию метафикциональной и постмодернистской структуры произведения. Исследование изучает способы, посредством которых роман вступает в диалог с викторианской литературой, особенно с произведениями Jane Austen, Charles Dickens и Thomas Hardy. В отличие от традиционной исторической прозы, стремящейся прозрачно воссоздать прошлое, Фаулз намеренно раскрывает искусственность повествовательной конструкции через интертекстуальные аллюзии, авторские комментарии и историографическую переинтерпретацию. В исследовании применяется качественный литературоведческий анализ в сочетании с интертекстуальным и нарратологическим подходами с целью показать, что интертекстуальность в романе носит не декоративный, а структурный и идеологический характер. В статье утверждается, что литературные отсылки функционируют как механизмы повествовательной саморефлексии, исторической реконструкции и вовлечения читателя. Кроме того, исследование рассматривает, каким образом Фаулз трансформирует викторианские повествовательные традиции в постмодернистский повествовательный эксперимент. Результаты исследования показывают, что интертекстуальные отсылки дестабилизируют повествовательный авторитет, стимулируют активную интерпретацию и создают многослойное текстовое пространство, в котором границы между литературными традициями прошлого и настоящего становятся подвижными. В заключение делается вывод о том, что интертекстуальность выступает одним из центральных средств, посредством которых роман формирует свою постмодернистскую идентичность и переосмысливает традиционные представления об историческом реализме.*

***Ключевые слова:*** *интертекстуальность, метафикция, постмодернизм, историографическая метафикция, повествовательный дискурс, викторианский роман, Джон Фаулз.*

***Abstract.*** *This article examines the function of intertextual references in The French Lieutenant's Woman by John Fowles and analyzes how these references contribute to the novel's metafictional and postmodern structure. The study investigates the ways in which the novel enters into dialogue with Victorian literature, particularly with the works of Jane Austen, Charles Dickens, and Thomas Hardy. Unlike traditional historical fiction that attempts to recreate the past transparently, Fowles deliberately exposes the artificiality of narrative construction through intertextual allusions, authorial commentary, and historiographic reinterpretation. The research applies qualitative literary analysis combined with intertextual and narratological approaches in order to demonstrate that intertextuality in the novel is not merely decorative but structural and ideological. The article argues that literary references function as mechanisms of narrative self-awareness, historical reconstruction, and reader engagement. Furthermore, the paper explores how Fowles transforms Victorian narrative conventions into postmodern narrative experimentation. The findings indicate that intertextual references destabilize narrative authority, encourage active interpretation, and create a multilayered textual environment in which the boundaries between past and present literary traditions become fluid. The article concludes that intertextuality serves as one of the central devices through which the novel constructs its postmodern identity and challenges conventional understandings of historical realism.*

***Key words:*** *intertextuality, metafiction, postmodernism, historiographic metafiction, narrative discourse, Victorian novel, John Fowles*

**Introduction.** Postmodern literature frequently challenges the conventional assumptions of realism, authorship, historical representation, and textual authority. One of the most important

techniques through which postmodern fiction achieves this destabilization is intertextuality. Rather than presenting literary texts as isolated and autonomous entities, postmodern writers often construct narratives through explicit or implicit dialogue with earlier texts, genres, and literary traditions. In this regard, The French Lieutenant's Woman occupies a significant position within contemporary English literature because the novel combines Victorian narrative conventions with postmodern self-consciousness.

Published in 1969, the novel appears at first glance to resemble a traditional Victorian romance. The setting, social atmosphere, moral conflicts, and descriptive style strongly evoke nineteenth-century English fiction. However, beneath this historical surface lies a highly self-aware and experimental narrative structure. Fowles constantly interrupts narrative illusion through direct authorial intervention, multiple endings, metafictional commentary, and intertextual references. These strategies prevent the reader from accepting the fictional world as entirely autonomous or historically transparent.

Among the novel's postmodern features, intertextuality plays an especially important role. References to earlier literary works are integrated into the narrative not simply as cultural ornaments but as active structural elements that influence characterization, narrative progression, and ideological interpretation. The novel repeatedly establishes connections with Victorian literary traditions while simultaneously questioning their authority and limitations. Through these intertextual relations, the text becomes a site of literary dialogue between past and present narrative forms.

Theoretical discussions of intertextuality are closely associated with the works of Julia Kristeva, who introduced the term by arguing that every text exists as a "mosaic of quotations" (Kristeva, 1980). Later, Roland Barthes emphasized that literary meaning emerges not from authorial intention alone but from the interaction between multiple textual systems (Barthes, 1977). These theories became central to postmodern literary criticism because they undermined the idea of textual originality and stable meaning.

In Fowles's novel, intertextuality functions on several levels simultaneously. First, it reconstructs Victorian literary aesthetics through references to nineteenth-century authors and conventions. Second, it destabilizes historical realism by reminding readers that the Victorian world represented in the novel is itself a textual reconstruction rather than objective historical truth. Third, intertextual references contribute to the novel's metafictional dimension by exposing the artificiality of storytelling itself.

Although numerous scholars have examined the metafictional qualities of Fowles's fiction, the specific discursive and ideological functions of intertextual references in *The French Lieutenant's Woman* still require deeper investigation. Many studies focus primarily on narrative experimentation or historiographic metafiction, while the role of literary allusion as a mechanism of reader manipulation and narrative self-awareness often remains secondary. Therefore, this article seeks to analyze how intertextual references operate as functional components of the novel's postmodern structure.

The aim of the study is to investigate the literary, narrative, and ideological functions of intertextual references in *The French Lieutenant's Woman*. The objectives include identifying major intertextual patterns within the novel, examining their relationship to metafictional narration, and analyzing how these references reshape Victorian literary conventions within a postmodern framework.

**Methodology.** This research employs qualitative literary analysis as its primary methodological approach. The study combines intertextual theory, narratology, discourse analysis, and postmodern literary criticism in order to examine the function of intertextual references in the novel.

The theoretical foundation of the article is based on the concepts developed by Kristeva (1980), Barthes (1977), Linda Hutcheon (1988), and Patricia Waugh (1984). Hutcheon's concept of historiographic metafiction is particularly relevant because it explains how postmodern fiction reconstructs historical narratives while simultaneously questioning their authenticity.

The research method involves close textual analysis of selected passages from the novel. Rather than merely identifying references to earlier literary works, the study examines how these references function within the narrative system of the text. Particular attention is devoted to:

- authorial commentary,
- literary allusions,
- narrative intrusions,
- metafictional interruptions,
- and Victorian stylistic imitation.

The article also applies comparative analysis between Fowles's narrative techniques and traditional Victorian narrative conventions. This comparative perspective helps reveal how intertextuality transforms historical literary models into postmodern narrative experimentation.

**Results.**

**Intertextuality as Reconstruction of Victorian Narrative Tradition.** One of the primary functions of intertextuality in the novel is the reconstruction of Victorian literary discourse. Fowles deliberately adopts stylistic and thematic features associated with nineteenth-century fiction, including detailed narration, omniscient commentary, moral observation, and social realism. However, these conventions are not reproduced passively. Instead, they are recontextualized within a postmodern framework.

The narrative voice frequently resembles the authoritative narrators found in Victorian novels. At certain moments, the narrator appears to possess complete knowledge of the characters' psychology and future destinies. Nevertheless, this apparent narrative authority is repeatedly undermined when the narrator openly admits uncertainty or subjectivity. As a result, the novel imitates Victorian realism while simultaneously exposing its artificial construction.

References to Victorian literary culture establish a continuous dialogue between the novel and earlier English fiction. The reader is encouraged to interpret the characters not only as fictional individuals but also as literary archetypes shaped by previous narrative traditions. Sarah Woodruff, for example, simultaneously resembles and resists the conventional "fallen woman" figure common in Victorian literature. Her characterization becomes meaningful precisely because readers recognize her relationship to earlier literary representations of female marginality.

**The Function of Literary Allusions.** Intertextual references in the novel frequently operate through literary allusions. These allusions create additional interpretive layers by connecting the fictional world to broader literary history. The text repeatedly invokes the cultural memory of Victorian fiction, encouraging readers to compare Fowles's narrative strategies with earlier literary conventions.

One important feature of these allusions is their self-conscious visibility. Unlike traditional realism, which often conceals literary influence in order to preserve narrative illusion, Fowles foregrounds intertextuality openly. The novel does not pretend to exist independently from literary history. Instead, it constantly reminds readers that literature develops through continuous textual interaction.

These references also influence reader expectations. When the narrative evokes familiar Victorian motifs, readers anticipate conventional resolutions associated with nineteenth-century romance. However, the novel repeatedly frustrates these expectations through narrative unpredictability and alternative endings. Consequently, intertextuality becomes a mechanism for both creating and destabilizing literary anticipation.

**Intertextuality and Historiographic Metafiction.** The novel demonstrates many characteristics of historiographic metafiction. Historical reality is represented not as objective truth but as textual reconstruction mediated through language, ideology, and literary convention. Intertextual references contribute significantly to this process.

Victorian England in the novel is not presented as direct historical reality. Rather, it appears as a literary representation shaped by previous texts, cultural myths, and narrative conventions. The nineteenth century becomes accessible primarily through discourse rather than through transparent historical authenticity.

This approach reflects postmodern skepticism toward objective historical representation. By embedding references to Victorian literature within the narrative, Fowles emphasizes that the past survives through textual mediation. Readers encounter the Victorian period not as unfiltered history but as a network of literary representations.

The narrator's commentary further intensifies this metafictional effect. At various moments, the narrator explicitly discusses narrative conventions, character construction, and historical representation. Such intrusions prevent readers from becoming fully immersed in fictional illusion and instead direct attention toward the processes of storytelling itself.

**Authorial Presence and Narrative Self-Consciousness.** Another important function of intertextual references involves the construction of narrative self-consciousness. The narrator frequently positions himself both inside and outside the fictional world. This dual position allows the narrative to function simultaneously as story and commentary on storytelling.

Intertextual references strengthen this self-awareness because they expose the novel's dependence on previous literary systems. The text acknowledges its own constructed nature and refuses to conceal its relationship to earlier fiction.

This strategy significantly alters the role of the reader. In traditional realism, readers are generally encouraged to accept narrative authority passively. In contrast, Fowles requires readers to recognize textual manipulation and participate actively in interpretation. Intertextuality transforms reading into an analytical activity rather than simple immersion.

**The Deconstruction of Narrative Authority.** The novel also uses intertextuality to question narrative authority itself. Victorian narrators traditionally functioned as stable interpretive guides who organized meaning for readers. Fowles imitates this convention only to destabilize it.

The narrator repeatedly shifts between confidence and uncertainty. At some moments, he appears omniscient; at others, he openly admits ignorance regarding character motivations or narrative outcomes. These contradictions undermine the illusion of absolute authorial control.

Intertextuality contributes to this destabilization because the text continuously reveals its dependence on pre-existing literary conventions. Instead of presenting itself as original and autonomous, the novel acknowledges its position within an ongoing literary network. Consequently, meaning becomes plural, unstable, and open to interpretation.

**Discussion.** The findings demonstrate that intertextuality in *The French Lieutenant's Woman* performs multiple interconnected functions. It reconstructs Victorian literary aesthetics while simultaneously criticizing the ideological assumptions underlying traditional realism. Through literary references and narrative self-consciousness, the novel transforms historical fiction into postmodern metafiction.

Unlike conventional historical novels that seek to recreate the past authentically, Fowles foregrounds the impossibility of direct historical representation. The Victorian world represented in the novel exists primarily as textual discourse shaped by earlier literary forms. This approach corresponds closely with Hutcheon's concept of historiographic metafiction, which combines historical reconstruction with critical self-awareness.

The study also reveals that intertextuality operates as a mechanism of reader engagement. By invoking familiar literary conventions and subsequently destabilizing them, the novel forces readers to become conscious of their own interpretive expectations. Reading becomes an active process of negotiation between textual traditions and contemporary reinterpretation.

Furthermore, the article demonstrates that intertextuality contributes directly to the novel's metafictional dimension. The references are not isolated literary decorations; they function structurally by exposing narrative construction and challenging representational transparency. Through these techniques, the novel questions stable distinctions between fiction and reality, past and present, originality and repetition.

The analysis additionally suggests that Fowles's use of intertextuality reflects broader postmodern concerns regarding authorship and textuality. The novel rejects the Romantic notion of completely original artistic creation and instead presents literature as inherently relational and dialogic.

**Conclusion.** The analysis of *The French Lieutenant's Woman* demonstrates that intertextual references serve as central structural and ideological components of the novel's postmodern poetics. Through continuous dialogue with Victorian literary traditions, Fowles reconstructs and simultaneously deconstructs conventional historical realism.

The study reveals that intertextuality performs several important functions within the novel. It establishes literary continuity with nineteenth-century fiction, destabilizes narrative authority, exposes the artificiality of storytelling, and transforms readers into active interpreters. Intertextual references also contribute to the novel's historiographic metafictional character by presenting history as textual reconstruction rather than objective reality.

Unlike traditional historical fiction, which often conceals its narrative mechanisms, Fowles deliberately foregrounds textual construction and literary mediation. As a result, the novel becomes both a narrative about Victorian society and a critical reflection on the nature of fiction itself.

Ultimately, intertextuality in *The French Lieutenant's Woman* functions not merely as stylistic ornamentation but as a fundamental principle of narrative organization. It enables the novel to bridge Victorian literary heritage and postmodern narrative experimentation while simultaneously questioning the stability of literary meaning, historical truth, and authorial authority.

**REFERENCES:**

1. Barthes, R. (1977). *Image-Music-Text* (S. Heath, Trans.). Hill and Wang.
2. Fowles, J. (1969). *The French Lieutenant's Woman*. Jonathan Cape.
3. Hutcheon, L. (1988). *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. Routledge.
4. Kristeva, J. (1980). *Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art*. Columbia University Press.
5. Waugh, P. (1984). *Metafiction: The Theory and Practice of Self-Conscious Fiction*. Methuen.
6. Allen, G. (2011). *Intertextuality*. Routledge.
7. Bradbury, M. (1992). *The Modern British Novel*. Penguin Books.
8. Currie, M. (1995). *Metafiction*. Longman.
9. Holquist, M. (2002). *Dialogism: Bakhtin and His World*. Routledge.
10. McHale, B. (1987). *Postmodernist Fiction*. Routledge.

**UO'K 81'42**

## HAQIQAT VA YOLG'ON TUSHUNCHALARINING STRUKTUR-SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

***Sh.Sh.Soqiyeva, tayanch doktorant, Toshkent transport universiteti, Toshkent***
***A.E.Mamatov, prof., f.f.d., Toshkent transport universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya****. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida haqiqat, chin va yolg'on tushunchalarining struktur-semantik hamda pragmatik xususiyatlari qiyosiy-tipologik yo'nalishda tahlil qilinadi. Izohli, sinonimik va frazeologik lug'atlar materiali asosida tushunchalarning lug'aviy-semantik negizi aniqlanib, "rost" bilan "chin" o'rtasidagi nozik semantik tabaqalanish yoritiladi. Yolg'onning olti pragmatik turi nutq aktlari nazariyasi nuqtayi nazaridan tasniflanib, ularning illokutiv kuchi va samimiylik shartiga munosabati ko'rsatib beriladi. Tahlil natijalari har ikki tilda tushunchalarning umumiy semantik negizga tayanishini, ammo ularning leksikallashuvi va baholanishi lingvomadaniy omillarga ko'ra farqlanishini tasdiqlaydi.*

***Kalit so'zlar:*** *haqiqat, yolg'on, tushuncha, pragmatika, nutq aktlari, samimiylik sharti, semantik tabaqalanish, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil.*

***Аннотация****. В настоящей статье в сравнительно-типологическом аспекте анализируются структурно-семантические и прагматические особенности концептов «истина», «правда» и «ложь» в английском и узбекском языках. На материале толковых, синонимических и фразеологических словарей определяется лексико-семантическая основа концептов и раскрывается тонкое семантическое разграничение между узбекскими лексемами «рост» и «чин». Шесть прагматических типов лжи классифицируются с позиций теории речевых актов; выявляются их иллокутивная сила и отношение к условию искренности. Результаты анализа подтверждают, что в обоих языках концепты опираются на общую семантическую основу, однако их лексикализация и оценка различаются в зависимости от лингвокультурных факторов.*

***Ключевые слова:*** *истина, ложь, концепт, прагматика, речевые акты, условие искренности, семантическое разграничение, лингвокультура, сопоставительный анализ.*

***Annotation****. This article provides a comparative-typological analysis of the structural-semantic and pragmatic features of the concepts of truth, sincerity and falsehood in the English and Uzbek languages. Drawing on the material of explanatory, synonymic and phraseological dictionaries, the study establishes the lexical-semantic basis of the concepts and reveals the subtle semantic differentiation between the Uzbek lexemes rost and chin. Six pragmatic types of falsehood are classified from the standpoint of speech act theory, and their illocutionary force and their relation to the sincerity condition are demonstrated. The findings confirm that in both languages the concepts rest on a common semantic core, while their lexicalisation and evaluation differ according to linguocultural factors.*

***Key words:*** *truth, falsehood, concept, pragmatics, speech acts, sincerity condition, semantic differentiation, linguoculture, comparative analysis.*

Har ikki tilda ham haqiqat bilan yolg‘on bir-birini inkor etish orqali ta’riflanadi. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da «yolg‘on» uch ma’noda berilgan: sifat sifatida «haqiqatga zid, noto‘g‘ri; haqiqatda bo‘lmagan» (*yolg‘on so‘z, yolg‘on xabar*) va «haqiqiy emas, soxta, yasama» (*yolg‘on yig‘i, yolg‘on kulgu*), ot sifatida esa «haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, noto‘g‘ri gap, narsa; uydirma»[1]. Ko‘rinadiki, «yolg‘on»ning izohi «haqiqat»ga zidlik zaminida qurilgan. «Haqiqat» o‘z navbatida «chinlik, rostlik, to‘g‘rilik; chin, to‘g‘ri gap; tub ma’no» deb ochilib, «chindan ham bo‘lgan, voqelikka mos holat» mazmunini anglatadi; lug‘at uning falsafiy («kishi ongida obyektiv borliqning to‘g‘ri aks etishi») va diniy («ilohiyatni isbot talab qilmaydigan aniq hodisa deb tushunish») ma’nolarini alohida ajratadi[2]. Demak, ikkala tushuncha ta’rifda bir-biriga tayanadi: birini tushuntirish ikkinchisiga murojaat qilishni taqozo etadi.

Ingliz leksikografiyasi ham ayni shu zidlikka asoslanadi. «Oxford Advanced Learner’s Dictionary» *lie* leksemasini «biron narsani yolg‘on ekanini bila turib aytish yoki yozish » (to say or write sth that you know is not true) deb ta’riflaydi[3]. Bu yerda ta’rifning o‘zagida turgan *know* (bila turib) semasi tadqiqotimiz uchun kalit vazifasini o‘taydi: u yolg‘onni xato yoki adashishdan ajratib, uning intensional tabiatini — samimiylik shartining ongli ravishda buzilishini — til sathining o‘zidayoq qayd etadi. Xuddi shu belgi o‘zbekcha «yolg‘onlamoq» fe’lining izohida — «haqiqatda bo‘lmagan, haqiqatga zid narsalarni so‘zlamoq; yolg‘on gapirmoq; aldamoq» — takrorlanadi[4]. Shunday ekan, J. Syorl ajratgan ikki jihat — propozitsiyaning voqelikka nomosligi va so‘zlovchining bu nomoslikdan xabardorligi — yolg‘onning oddiy lug‘aviy izohidayoq birlashib keladi.

«Haqiqat» tushunchai keng hosilaviy maydonga ega: unga «haqiqiy» (chin, rost; asl, haqqoniy), «haqiqatan» (rosti bilan; rostdan, chindan), «haqiqatgo‘y» (rost gapni aytuvchi, rostgo‘y), «haqiqatda» (aslida, amalda), shuningdek «haqiqatparast» va «haqiqatchi» (odil) singari so‘zlar kiradi[5]. E’tiborli jihati shuki, «haqiqat» o‘z ta’rifidayoq «chin, rost, to‘g‘ri» sinonimlari orqali yoyiladi — bu esa tushunchaning «rost» va «chin» bilan uzviy, biroq aynan bir xil emasligidan darak beradi. Mana shu nozik tabaqalanish alohida qarab chiqishni talab qiladi.

A. Hojiyevning «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»da «rost, to‘g‘ri, chin, haq, haqqoniy, ochiq» birliklari bir sinonimik uyaga birlashib, «yolg‘on-yashig‘i yo‘q, haqiqatga mos» umumiy ma’nosi ostida ta’riflanadi; shu o‘rinda «rost» va «to‘g‘ri»ning qolganlaridan kengroq qo‘llanishi, «haqqoniy»ning esa kitobiy uslubga mansubligi qayd etilgan[6]. Shunga qaramay, bu tushuncha «rost» bilan «chin» o‘rtasida nozik, lekin izchil farq ko‘zga tashlanadi: «rost» ko‘proq gapning voqelikka mosligini, ya’ni obyektiv haqiqatni bildirsa, «chin» so‘zlovchining ichki samimiyatini, dildan bo‘lgan holatni ifodalaydi. Bu farq «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati»dagi «chin ko‘ngildan» («mutlaqo samimiy, samimiyat bilan») iborasi misolida ham oydin: birikma voqelikka moslikka emas, niyatning sofligiga ishora etadi[7].

Mazkur tabaqalanish badiiy matnda yaqqol namoyon bo‘ladi. «O‘tkan kunlar»da Kumushning ichki nutqida ikki birlik yonma-yon keladi: *«Ul meni unutmagan, va’dalari chin, so‘zlari to‘g‘ri… Ul ham meni suyar ekan…»*[8]. Bu yerda «va’dalari chin» erning ichki samimiyatiga, «so‘zlari to‘g‘ri» uning aytganlari voqelikka mosligiga daxldor. Bir jumla doirasidayoq o‘zbek tili ikki turli

baho mezonini — intensional samimiyat va propozitsional rostlikni — ikki alohida leksema bilan ajratib ko‘rsatyapti.

Ingliz tilida bu ikki mezon ko‘pincha bir shaklda birlashib ketadi. «Oxford Advanced Learner’s Dictionary» *true* leksemasining «correct» (faktga mos), «real/exact» (asl) va «loyal» (sadoqatli) ma’nolarini ajratib, *truly* ravishini esa «samimiy yoki chin» (*sincere or genuine*) deb izohlaydi[9]. Boshqacha aytganda, inglizcha *true* o‘zbek tili «rost» va «chin» tarzida farqlagan ikki mazmunni bir leksema doirasida ushlab turadi, ajratish vazifasi esa kontekst zimmasiga tushadi. Bu holning pragmatik oqibati aniq: «rost» assertiv aktning rostlik majburiyatiga, «chin» esa ko‘proq ekspressiv aktning samimiylik shartiga bog‘lanadi.

Rostlikning assertiv kuchini oshirishda ikkala til ham qasamga asoslangan turg‘un birikmalarga murojaat etadi; bunday birikmalarda assertiv kuch komissiv va ekspressiv bo‘yoq bilan qorishadi. O‘zbekchada bu qatorni «tuz haqqi», «non ursin / non haqi», «ko‘zim ko‘r bo‘lsin», «haqqast rost» tashkil etsa, inglizchada unga *honest to God*, *God’s truth*, *cross my heart*, *hand on heart* mos keladi. Parallellik rostlikka qasam ichish mexanizmining har ikki madaniyatda amal qilishini ko‘rsatadi.

Yolg‘on yaxlit hodisa emas. U bir qator o‘zaro farqli kommunikativ harakatlarni qamrab oladi, ularning har biriga xos illokutiv kuch va perlokutiv ta’sir bor. Lug‘at hamda badiiy matn materialiga tayanib, quyidagi asosiy turlarni ajratish mumkin.

**Birinchisi — tap tortmasdan aytilgan ochiq yolg‘on (dezinformatsiya).** «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati»dagi «yolg‘onni suvday (suvdek) ichmoq» iborasi — «zarracha ham tap tortmay, oddiy bir narsadek gapiravermoq» — aynan shu turni nomlaydi[10]. Inglizchadagi muvoziylari: *to lie through one’s teeth*, *a barefaced lie, a pack of lies*[11]. Dikkens romanida bu turning yorqin namunasi bor — bolalik Pip Miss Hevisham uyida ko‘rganlarini bo‘yab-bejab hikoya qilib beradi, keyinroq esa muallif-qahramon buni ochiq tan oladi: *«I beg to observe that I think of myself with amazement, when I recall the lies I told on this occasion»*[12]. Assertiv aktning samimiylik sharti bu yerda butunlay buzilgan, holbuki tashqi shakl — tafsilotga boy hikoya — ishonchlilik belgilarini saqlab turibdi.

**Ikkinchi tur — mubolag‘a va uydirma (lof):** «lof urmoq» — «haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan gaplarni ortiq darajada bo‘rttirib gapirmoq». **Uchinchisi — ko‘z bo‘yash va aldov:** «ko‘z(i)ni bo‘yamoq», «ko‘z bo‘yamachi», «oldiga poxol solmoq», «ahmoq qilmoq» iboralari shu guruhga kiradi[13]; inglizchada ularga *to pull the wool over someone’s eyes*, *smoke and mirrors*, *to lead someone up the garden path* qatori mos tushadi. Ushbu turning o‘zbek matnidagi voqelanishini «Kecha va kunduz»da uchratamiz: Zebini qari amaldorga «aldab-suldab yo‘lga solish» rejasi tuziladi[14] — aldov bu yerda bir martalik yolg‘on emas, cho‘zilgan kommunikativ strategiya sifatida qurilgan.

**To‘rtinchi tur — tuhmat va ig‘vo:** «oqni qora demoq» — «haqiqatga teskari holda yaxshini yomonlamoq» (uning antonimi — «qorani oq demoq»). Bronte romanida bu tur institusional tus oladi: Jeynga hali biror guvohlik tekshirilmasidan «aldamchi tabiat» (*a deceitful disposition*) yorlig‘i yopishtirilib, bu baho butun Lovud maktabiga e’lon qilinadi[15]. Tuhmatning pragmatik o‘ziga xosligi shunda — unda samimiylik sharti uchinchi shaxs, ya’ni jabrlanuvchi zarariga buziladi.

**Beshinchi tur — riyokorlik va ikki yuzlamachilik:** «tilida boshqa, dilida boshqa», «ikki yuzlamachi», «tulki tabiat», «ilonning yog‘ini yalagan» iboralari til bilan dilning zidligini aks ettiradi; inglizchada bu turni *two-faced*, *a wolf in sheep’s clothing*, *crocodile tears*, *to sail under false colours* ifodalaydi. Bronteda riyo personajning hayrati orqali tasvirlanadi: Jeyn Greys Pulning o‘zini qanday tutishini kuzatib, unda «tushunib bo‘lmas riyokorlik»ni (*most inscrutable hypocrisy*) ilg‘aydi[16]. Bir martalik yolg‘ondan farqli o‘laroq, riyo — samimiyatsiz ekspressiv aktlarning izchil, uzluksiz tizimi, ya’ni doimiy niqob.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 2-jild (YE–M). — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. — 33–34-b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild (Shukrona–H). — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. — 520-b.

3. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. 7th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2005. — P. 886.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 2-jild (YE–M). — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. — 34-b.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 5-jild (Shukrona–H). — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. — 519–520-b.

6. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1974. — 167-b.

7. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati / SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova va b. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022. — 632-b.

8. Qodiriy A. O‘tkan kunlar: roman. — Toshkent: Universitet, 2018. — 155-b.

9. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. 7th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2005. — P. 1643–1644.

10. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati / SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova va b. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022. — 467-b.

11. Long T. H., Summers D. Longman Dictionary of English Idioms. — Harlow; London: Longman Group Limited, 1984. — P. 195; Hornby A. S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. 7th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2005. — P. 886.

12. Dickens Ch. Great Expectations. — London: J. M. Dent & Sons Ltd, 1971. — P. 63.

13. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati / SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmanova va b. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2022. — 11, 268, 337-b.

14. CHo‘lpon. Kecha va kunduz: roman. — Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. — 117-b.

**UO‘K 821.214.21.09-3“19”**

## NIRMAL VARMA BADIIY TAFAKKURINING SHAKLLANISH INTIXOSI

***Sh.Tilovmurodova, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi, Toshkent***
***ORCID: 0009-0005-4388-3354***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada XX asr ikkinchi yarmi hind adabiyotining taniqli vakili, “yangi hikoya” yo‘nalishi asoschilaridan biri Nirmal Varmaning hayot yo‘li va badiiy tafakkurining shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Adibning bolalik davri, Yevropadagi musofirlik yillari va tarjimonlik faoliyatining uning prozasiga ko‘rsatgan ta’siri yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Nirmal Varma, hind adabiyoti, modernizm, “yangi hikoya”, ekzistensializm, Shimla, chex adabiyoti, tarjima.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются основные этапы жизни и формирования художественного мышления видного представителя индийской литературы XX века Нирмала Вармы. Рассматривается влияние детских лет, европейского периода и переводческой деятельности писателя на его прозу.*

***Ключевые слова:*** *Нирмал Варма, литература хинди, модернизм, «новый рассказ», экзистенциализм, Шимла, чешская литература, перевод.*

***Abstract.*** *This article analyzes the main stages of life and formation of artistic thinking of Nirmal Verma, a prominent figure in Hindi literature of the 20th century. The influence of the writer's childhood, European period, and translation work on his prose is thoroughly examined.*

***Key words:*** *Nirmal Verma, Hindi literature, modernism, “new story”, existentialism, Shimla, Czech literature, translation.*

**Kirish.** XX asr ikkinchi yarmining taniqli va o‘ziga xos badiiy uslubga ega Nirmal Varma oxirgi yarim asr davomida hindiy tilida yozilgan adabiyotning rivojlanishiga ajralmas hissa qo‘shgan hamda hindiy adabiyotda modernizmning shakllanishida o‘ziga xos o‘ringa ega yozuvchilardan hisoblanadi. Nirmal Varmaning ijodiy merosini tahlil qilishdagi ahamiyatli qism uning hayot yo‘lini o‘rganib chiqish juda muhim deb hisoblandi. Chunki adibning hayot yo‘lidagi har bir bosqichlardagi tajribasi va falsafasi asarlarining ich-ichigacha kirib boradi. Adib hayot yo‘lini o‘rganish jarayonida, uning dunyoqarashi va jamoat arbobi bo‘lib yetishishida quyidagi davrlar muhim rol o‘ynagan.

**Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.** Zamonaviy hind adabiyotshunosligi va jahon sharqshunosligida Nirmal Varma ijodi modernizm hamda ekzistensializm kontekstida keng o‘rganilmoqda. Bu borada hind tadqiqotchilari Gagan Gill [2], Vinit Gill [4], shuningdek, Sankt-Peterburg sharqshunoslik maktabi vakillari [5] hamda o‘zbek hindshunos olimasi Tamara Xodjayeva [6] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarini ko‘rsatish mumkin. Biroq, adib ijodiy tafakkurining

shakllanish omillari, xususan, rus va G'arb adabiyoti, chex tarjimachiligi va musofirlik tajribasining yaxlit psixologik-estetik sintezi sifatida o'rganilishi o'zbek hindshunosligida hali ham chuqur tahlilga muhtoj mavzulardan hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida kompleks va tizimli yondashuv asosida biografik, qiyosiy-tipologik hamda badiiy-estetik tahlil usullaridan unumli foydalanildi.

Biografik metod orqali Nirmal Varmaning hayot yo'li, ijtimoiy-siyosiy muhit bilan munosabati, shuningdek, uning shaxsiy xotiralari, kundaliklari va e'tiroflari asosida adib badiiy tafakkurining shakllanish bosqichlari hamda uning asarlaridagi avtobiografik unsurlar ilmiy asoslab berildi.

Qiyosiy-tipologik metod vositasida yozuvchi prozasining jahon va rus adabiyoti (xususan, A.Chexov, L.Tolstoy, M.Gorkiy hamda V.Vulf ijodi) bilan mushtarak va o'ziga xos jihatlari, tarjimonlik faoliyatining uning uslubiga ko'rsatgan ta'siri hamda "yangi hikoya" yo'nalishidagi poetik va strukturaviy o'zgarishlar qiyosiy tahlil qilindi.

Badiiy-estetik tahlil usuli yordamida esa adib asarlarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi, uning hikoya va romanlarida aks etgan ekzistensial motivlar (yolg'izlik, begonalashuv, ruhiy iztirob va ichki erkinlik) hamda muallifning o'ziga xos ramziy-metaforik tasvir vositalari chuqur tadqiq etildi.

Adibning boy hayotiy tajribasi, xotiralari, esse va publitsistik maqolalari, original hikoya va romanlari hamda u tomonidan amalga oshirilgan badiiy tarjimalar ushbu ilmiy izlanishning asosiy obyekti hamda manbashunoslik bazasi sifatida xizmat qildi.

**Natijalar tahlili va munozara.** Nirmal Varma iijodiy merosini hamda uning shaxsiyati va badiiy tafakkurining shakllanish omillarini har tomonlama tahlil qilish adib prozasidagi teran ekzistensial motivlarni teranroq tushunishga xizmat qiladi. Adibning hayot yo'li va ijodiy evolyutsiyasini kuzatish jarayonida uning dunyoqarashi va jamoat arbobi bo'lib yetishishida bir necha muhim tarixiy hamda biografik bosqichlar alohida ajralib turadi. Ushbu bosqichlar adibning nafaqat shaxsiy tajribasi va falsafiy qarashlarini, balki uning asarlaridagi o'ziga xos uslub hamda ramziy obrazlar dunyosini ham belgilab bergan.

*1. Avval.* Nirmal Varma 1929-yil 3-aprelda Hindistonning Himachal shtati Quyi Shimlaning Keytu shahrida tug'ilgan. Adib uchun butun ijodini ta'riflashga taassuf bo'lgan makoni, go'zallikning ortida tasvirlanadigan Shimla qalban vatan edi. Yozuvchining otasi Nand Kumar Varma Britaniya Hindistoni hukumati fuqarolik xizmatida ofitser bo'lib ishlagan, onasi Qadimgi Dehlining obro'li Khatri oilasidan bo'lgan. Oilada sakkiz farzandning beshinchisi bo'lib tarbiyalangan; akasi Ram Kumar mashhur abstrakt musavvir bo'lib yetishgan.

Yozuvchining buvasi "Kalyan" jurnali muxlisi bo'lib, bolalar bilan kitobxonlik kechalarini o'tkazgan. Adib keyinchalik asarlardagi mifologik obrazlar yaratilishi aynan shu mutolaa [1, b. 111] natijasi ekanini ta'kidlaydi. Bu mashg'ulot Premchand, Sudarshan, Jaynendra Kumar asarlari hamda "Vina", "Sarasvati", "Vishal Bharat" kabi milliy adabiyotga [2, b. 104] qaratilgan jurnallarga ulanib ketgan. Milliy adabiyot bilan bir vaqtda Rus adabiyotining yorqin vakillari Chexov, Tolstoy va Gorkiy asarlari orqali yangicha fikrlash bosqichiga chiqadi. Gorkiyning "Ona" romani ijtimoiy realizm bilan tanishuvining asosi bo'lgan. Varma "Ona" haqida shunday yozadi: "Men uning hali tugamaganini his qildim... Ko'p yillar davomida Gorkiyning bu romanining qolgan qismini daragida yurdim hamda men mutolaa qilgan yakun romanning yakuni ekanligidan juda xafa bo'ldim [3, b. 110-111]". Adib tafakkurida rus adabiyotining o'rni [4, b. 34] salmoqli bo'lgan. Yozuvchi yoshligini xotirlab: "Quyosh botar edi hamda jozibali alvon ranglar tog'larni fath etar, men esa kuzatar edim... o'sha onlar dastlabki xotira sifatida yodimda qolgan [5, b. 108]", deb ta'riflaydi. Maktab davrida Tagorning "Gitanjali" asaridan ta'sirlanib kundaligiga she'rlar yoza boshlaydi [6, b. 19]. Shu sababli ba'zi rus olimlari yozuvchini shoirlar qatoriga [7, b. 157] kiritishadi. O'smirlikda yozgan hikoyalarini Banorasdagi "Janvani" jurnaliga yuborgan bo'lsa-da, yuqori baholanmagan.

*2. Falsafiy mafkuralar iskanjasida.* Dastlabki ta'limni Shimlada olgach, 1947-yilda Dehlidagi Stefan kollejida tarixshunoslikdan bakalavriyat [8, b. 94], so'ng Dehli universitetida magistraturani tamomlab, ma'ruzalar o'qiydi va aspiranturada ilmiy faoliyatini davom ettiradi. 40-yillar oxirida Hindiston Kommunistik partiyasining a'zosi bo'lishiga qaramay, Mahatma Gandijining tonggi sajda yig'ilishlariga [9, b. 21] qatnashgan. 1956-yilda Sovet Ittifoqining Vengriyaga bostirib kirishiga norozilik sifatida partiyadan chiqadi. Intervyularidan birida marksizm uning ijodiga zarracha ham

ta'sir ko'rsatmaganini [10, b. 12] ta'kidlaydi. Talabalik yillari L.N.Tolstoyning "Bolalik" [11, b. 10] romani hamda A.Kuprin hikoyalarini hindiy tiliga tarjima qiladi.

Yozuvchining "Blumsberi" guruhi va V.Vulfning "To'lqinlar" (1931) romani bilan tanishishi uning estetikasiga yangi tus kiritadi; yolg'izlik, o'lim, insoniy munosabatlarning buzilishi kabi mavzularga mushohada yuritadi. Vulfga bo'lgan hurmati tufayli uning surati adibning Karol Bagdagi uyida faxrli o'rin egallagan [4, b. 23]. Yozuvchi ikki marta oila qurgan bo'lib, 1964-yildagi dastlabki nikohidan bir qiz farzandi bor.

*3. Musofirlik va tarjimonlik.* Chexoslovakiya Sharqshunoslik instituti taklifiga binoan Pragaga jo'nab ketadi va u yerda yetti yil davomida Karel Capek, Jiri Frid, Jozef Skvoretskiy, Milan Kundera, Bohumil Xrabal kabi zamonaviy chex yozuvchilarining asarlarini hind tiliga tarjima qiladi. Yevropa sayohatlari taassurotlari "चीड़ों पर चाँदनी" ("Qarag'aylar oy nurida", 1962), "हर बारिस में" ("Har bir yomg'irda", 1989) va "धुंध से उठती धुन" ("Tumandan ko'tarilgan kuy", 1997) nomli kundaliklarida o'z aksini topgan.

U Yevropada bo'lgan davrida jahon adabiyotining to'qqizta mumtoz asarini hindiyga o'girdi. 1968-yildagi "Praga bahori" voqealaridan keyin Hindistonga qaytadi.

*4. Qaytish va Ijodkorlik.* Hindistonga qaytgach, kommunizm mafkurasidan yiroqlashib, siyosiy vaziyatlarga munosabat bildira boshlaydi. 1975–1977-yillardagi favqulodda vaziyatda Indira Gandining avtoritar boshqaruviga qarshi chiqdi hamda Tibet mustaqilligini qo'llab-quvvatladi. Shimladagi Hindiston ilg'or tadqiqotlar institutida "Mifologik ong" mavzusida tadqiqot olib bordi. 1973-yilda Kumar Sahni uning "Maya Darpan" hikoyasi asosida film suratga olib, "Yilning eng yaxshi hindiy filmi" mukofotini qo'lga kiritdi.

Yozish ishtiyoqi 12 yoshida do'sti Amritning [4, b. 5] bevaqt vafotidan so'ng paydo bo'lgan. R.Tagorning "Gitanjali" asari ham asosiy ilhom manbalaridan biri bo'lganini "लिखने के स्रोत" ("Yozishning asosi") maqolasida [4, b. 108] ta'kidlaydi. 1953-yilda "कल्पना" ("Kalpana") jurnalida "Rishtalar" hikoyasi nashr etiladi. 1958-yildagi "परिंदे" ("Qushlar") [9, b. 92] hikoyasi bilan XX asr ikkinchi yarmidagi "yangi hikoya" yo'nalishining yetakchi vakiliga aylanadi.

Adib ellikka yaqin hikoya, bir qancha esse hamda romanlar yaratgan. Tanqidchilar uning hikoyalarini to'rt toifaga (to'liq hind, yarim hind, to'liq yevropa va yarim yevropa turmush tarzi) bo'lishadi [10, b. 43]. 1980–1983-yillarda Bharat Bxavandagi Nirala kafedrasi, 1988–1990-yillarda Shimladagi Yashpal kafedrasi mudiri bo'lib ishladi. Romannavis sifatida "वे दिन" ("O'sha kunlar", 1964), "लाल तीन की छत" ("Qizil tunuka tom", 1974), "एक चित्र सुख" ("Parchalangan baxt", 1979), "रात का रिपोर्टर" ("Tun muxbiri", 1989), "अंतिमा अरण्य" ("So'nggi o'rmon", 2000) kabi asarlar yozdi. Nirmal Varma 2005-yil 25-oktabrda Dehlida vafot etdi va vasiyatiga ko'ra hinduizm an'analari bo'yicha dafn etildi [4, b. 15]. U 1984-yilda "Sahitya Akademi", 1995-yilda "Murtidevi" [6, b. 42], 1999-yilda "Gyanpith" hamda 2002-yilda "Padma Bhushan" mukofotlari bilan taqdirlangan.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, adib adabiyotni xotira va tasavvurni nozik tajriba tolasi bilan bog'laydi. Uning asarlarida uzoq kutish, qayg'u va hayrat, o'lim va qo'rquvning doimiy mavjudligi va halok bo'layotgan yoki begonalashayotgan insonning qalb ozodligi katta ma'noga ega. Nirmal Varma ijodkorlik va intellektual sayohatlarning haqiqiy tajribalarini, ijodiy tashvishlari va maqsadlarini, muallifning o'z ijodidagi e'tiqodi, majburiyatlarini hanuzgacha o'z asarlari orqali taqdim etmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. निर्मल व. लिखने के स्रोत: आदि, अंता और आरम्भ. – द.: राजकमल प्रकाशन, 2001. – 228 प.

2. गगन ग. संसार में निर्मल वर्मा. – द.: वाणी प्रकाशन, 2020. – 502 प.

3. निर्मल व. मेरे साक्षात्कार. – द.: किताबघर प्रकाशन, 2007. – 168 प.

4. Vineet G. Here and Hereafter: Nirmal Varma's Life in Literature. –D.: Penguin Random House, 2022. – 136 p.

5. Очерки истории литератур Индии (X–XX вв.) / под ред. С.О. Цветковой. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2014. – 320 с.

6. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 595 b.

7. नाद्किशोर आ. निर्मल वर्मम: अकेलापन से मुक्ति की तलाश // जनसत्ता, №12. – दिल्ली, 2005. – प. 12–14.

8. निर्मल व. बचपन. – द.: वाणी प्रकाशन, 2020. – 158 प.

9. निर्मल व. प्रतिनिधि कहानियां. – द.: भारत, 1988. – 182 प.
10. ऋचा अ. निर्मल वर्मा की कहानियों में कथावस्तु // नई धारा. – №12 (11). – दिल्ली, 2013. – P. 41– 47.
11. Kumar S.P. Conversations on modernism. – D.: Vani Book Company, 2020. – 213 p.

**UO'K 81′243:81′27**

# IKKINCHI TILNI O'RGANISH, DEKOLONIZATSIYA VA HIS-TUYG'ULAR: GLOBAL HOLAT

***K.Z.Tilyabayev, PhD, katta o'qituvchi, Toshkentda Xalqaro Vestminster Universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada his-tuyg'ular, tilni dekolonizatsiya qilish va ikkinchi tilni o'rganish kabi sohalarning global holatiga e'tibor qaratiladi. U tegishli adabiyotlarning sharhi bo'lib, unda til dekolonizatsiyasi, ta'limi va tegishli his-tuyg'ular bo'yicha tadqiqotlarning ikki asosiy yo'nalishi, ya'ni 1) g'arbiy qarashlar; 2) postkolonial qarashlar ko'rib chiqiladi. Tegishli tadqiqotlardagi ba'zi muhim sohalarga e'tibor qaratilib, muhim bo'shliqlar aniqlanadi. Tahlil qilingan adabiyotlardan kelgusi izlanishlar uchun xulosalar chiqariladi.*

***Kalit so 'zlar:*** *til, dekolonizatsiya, o'rganish, his-tuyg'ular, kontekst*

***Аннотация.*** *В этой статье обращается внимание на глобальное состояние исследований в таких областях знаний, как эмоции, деколонизация и изучение языка как второго. Она представляет собой обзор соответствующей литературы, в котором рассматриваются два основных направления исследований в области языкового образования, деколонизации и связанных с ними эмоций: 1) западные взгляды, и 2) постколониальные перспективы. Особое внимание обращено на некоторые важные области в вышеупомянутых исследованиях, где выявлены пробелы. На основе анализа литературы сделаны соответствующие выводы для будущих исследований.*

***Ключевые слова:*** *язык, деколонизация, изучение, эмоции, контекст*

***Abstract.*** *This article addresses the global state of research in the fields of emotion, decolonization, and second language acquisition. It presents a review of the relevant literature, examining two main streams of research in language education, decolonization, and related emotions: 1) Western perspectives, and 2) postcolonial perspectives. Particular attention is paid to several important areas of research where gaps have been identified. Based on this literature review, relevant conclusions for future research are drawn.*

***Key words:*** *language, decolonization, acquisition, emotions, context.*

**Kirish.** Birovning bilim tizimini nazorat qilish mustamlakachilikning asosiy jihati ekanligi ta'kidlangan [1-3], va shuning uchun ta'lim, rasmiy yoki norasmiy (masalan, oila va jamoa tomonidan beriladigan ta'lim-tarbiya) bo'lishidan qat'iy nazar, bilim berish va to'plashga yordam ko'rsatadigan tizim sifatida dekolonizatsiyaga oid munozaralar uchun juda muhim [4-5]. Ta'limning dekolonizatsiyadagi roli ijtimoiy adolat o'rnatish yoki uni dekolonizatsiya vositasi sifatida qo'llashga qaratilgan tanqidiy mulohaza, pedagogik amaliyotlar va faollikni shakllantirishda muhim ekanligi ko'rsatilgan [6-7]. Dekolonizatsiya va ta'limni bog'lovchi ancha-muncha tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, his-tuyg'ular kontekstida izlanishlar hozirgacha ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda.

Birinchisi, nisbatan kichik bo'lib, oq tanli g'arbliklarning dekolonizatsiya haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Tegishli adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, oq tanli o'quvchilar dekolonizatsiya masalalari sinfda ko'tarilganda, kopincha o'zlarini aybdor [8], zaif [9] va noqulay [10] his qilishadi. Shuni inobatga olib, o'qituvchilar shaxsiyatga tegmasdan aybni umumlashtirmaslikka harakat qilishlari kerak, shuningdek, oq tanli o'quvchilar o'z so'zlari va harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishlari va o'qituvchi mustamlaka amaliyotlariga faol qarshi chiqib, shaxsiy namuna ko'rsatishi muhimdir [7, 11].

Ikkinchi yo'nalish ancha katta bo'lib, uning negizida G'arb/oq tanlilarning doimiy ustunligiga asoslangan postkolonial qarashlari yotadi. Ularni hisobga olgan holda, ko'pchilik va ozchilik qarashlarini alohida ko'rib chiqish muhim, keyinchalik ularni postsovet konteksti bilan solishtirish lozim. Bu quyidagi kichik bo'limlarda amalga oshiriladi.

**Amerika va Okeaniya konteksti.** Ozchilik qarashlari deganda, Amerika qit'asi (Boliviya, Paragvay, Peru va Gvatemala bundan mustasno [12]) va Okeaniyaning (Marshall orollari, Nauru, Yangi Zelandiya, Palau, Papua-Yangi Gvineya, Samoa, Tonga va Vanuatudan tashqari [13]) tub aholisi tillari[1] nazarda tutiladi. Mazkur hududlar mustaqillikka erishganidan keyin ham u yerdagi Yevropa bosqinchilarining avlodlari soni ko'pligi tufayli[2] ularning tillari rasmiy milliy til maqomiga erisha olmadi. Ularning ba'zilari o'lib ketgan, boshqalari esa yo'qlish xavfi ostida [14]. Ko'plab tadqiqotlar ona tilini yo'qotgan, o'z madaniyatlarining buzilishiga duch kelgan va identifikatsiya muammolarini boshdan kechirgan, shuningdek, ozchilik tillarini qayta tiklash/dekolonizatsiya qilish uchun kurashayotgan mahalliy xalqlarning travmatik tajribalarini ko'rsatadi [18-27]. Til dekolonizatsiyasi haqidagi hikoyalar his-tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, mahalliy tillarning o'rganilishi emas, balki yo'qolishi va taqiqlanishi natijasidir. Bu o'zbek kontekstidan tubdan farq qiladi, chunki o'zbek tili umuman yo'qolish xavfi ostida emas va birinchi hamda ikkinchi til sifatida umumiy, o'rta-maxsus va oliy ta'lim tizimida o'rganiladi. Demak, o'zbek tilini dekolonizatsiya qilish va ikkinchi til sifatida o'rganishning hissiy tajribalari yuqoridagilardan farq qila oladi degan taxmin asosida kelgusi tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

**Afrika konteksti.** Afrikaning tub tillarini dekolonizatsiya qilish bo'yicha tadqiqotlar [28-36] yuqoridagilarga juda o'xshash. Biroq, kontekst biroz boshqacha, chunki Afrikaning tub aholisi Yevropa bosqinchilarining avlodlariga nisbatan anchagina [37]. Bundan tashqari, Afrikaning barcha davlatlarida, Somali, Efiopiya va arab tilida so'zlashuvchi davlatlardan tashqari [38], Yevropa tillari asosiy mahalliy tillar bilan bir xil rasmiy maqomga ega, biroq ularning kuchi teng emas [39]. Afrikaning ko'plab mamlakatlarida, juda kam istisnolar bilan (masalan, arab tilida so'zlashuvchi davlatlardan tashqari), mahalliy tilda ta'lim berish boshlang'ich maktab darajasidan tashqariga chiqmaydi, undan keyingi ta'lim esa sobiq mustamlakachilar tillarida, ya'ni Yevropa tillarida beriladi [40-42], bu esa maktab o'quvchilari ko'pchiligining sifatli ta'lim olishlariga to'sqinlik qiladi [43]. Garchi mahalliy tillar o'rta maktabda o'quv fani sifatida o'qitilishi davom etsa-da [44], ular odatda ikkinchi til sifatida o'qitilmaydi[3]. Vaziyatni yanada murakkablashtiradigan jihat shundan iboratki, ko'plab afrikaliklar bir nechta mahalliy til bilishadi [46], va ularning har bir tilini adolatli ravishda qo'llab quvvatlash nihoyatda qiyin. Ammo ularning qaysi tili olinmasin, har birida standartlashtirish, zamonaviy lug'at va resurslaning yetishmasligi sababli sobiq mustamlakachilar tillari bilan raqobat qila olmaydi [39].

O'zbek konteksti Afrika kontekstiga o'xshash, ya'ni Yevropa kelib chiqishiga ega o'zbekistonliklarning soni juda kam. Biroq o'zbek tili O'zbekistonda yagona rasmiy davlat tili bo'lib, yaxshi standartlashtirilgan va birinchi va ikkinchi til sifatida turli ta'lim bosqichlarida mavjud. Ushbu kontekstual xususiyatlar tufayli o'zbek tilini dekolonizatsiya qilish va ikkinchi til sifatida o'rganishning hissiy tajribalari yuqoridagilarga o'xshamaydi degan taxmin asosida kelgusi tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

**Osiyo va Yevropa konteksti.** Yuqorida tilga olingan qit'alardan farqli o'laroq, Osiyoning juda kam sonli davlatlari Yevropa tillariga rasmiy maqom bergan. Bular orasida Qozog'iston va Qirg'iziston (rus tili), Makao va Timor-Leste (portugal tili), Hindiston, Pokiston, Singapur, Filippin va Brunei Darussalam (rasmiy tillaridan biri ingliz tili) [47]. Osiyo tillari Afrikadagi kabi ko'pchilik tillari hisoblanadi, ammo Afrikaning tub tillaridan farqli ravishda ular asrdan asrga davom etgan yozuv an'analariga ega bo'lib, mustamlaka zulmidan omon qolishgan [39]. Mustaqillikka erishgach, ko'plab Osiyo davlatlari o'z milliy tillarining mavqelarini mustahkamlash uchun choralar ko'rishdi.

[1] Kreol va pidjin tillari ushbu sharhda qamrab olinmagan.

[2] Vaziyat mamlakatdan mamlakatga farq qiladi. Yangi Kaledoniya (27,1% [15]) va 'Guam (7,1% [16]), qavs ichida ko'rsatilgan Yevropa bosqinchilarining avlodlari nisbatan kam bo'lishiga qaramay, hozirda tegishli ravishda Fransiya va AQSh hukmronligi ostida, shuning uchun fransuz va ingliz tillari rasmiy tillari hisoblanadi. Avstraliya, Pitkern, Norfolk orollari va Yangi Zelandiyadan boshqa mamlakatlarda [17] ko'plab Afrika davlatlarida kabi, Yevropa bosqinchilarining avlodlari soni kam, ammo Yevropa tillari yagona rasmiy maqomga ega yoki uni boshqa mahalliy tillar bilan teng darajada bo'lishadi.

[3] Shahar va qishloq hududlarida vaziyat farq qiladi. Masalan, Keniyadagi shahar maktablarida suaxili tili ko'pchilik uchun ona til sifatida o'qitilsa, qishloq hududlarida suaxili tili oddiygina maktab fani hisoblanadi [45].

Bu davlatlarning aksariyati Yevropa imperiya merosidan uzoqlashgan bo‘lsa-da, Osiyoning ayrim tillari, masalan, rus, arab va xitoy tillari, o‘z imperiyalarini yaratgan [48].

Til imperiyalari hatto ba’zi Yevropa kontekstlarida ham kuzatilishi mumkin (masalan, Ispaniya va Buyuk Britaniyada [49-50]), bu esa til (de)kolonizatsiyasi tushunchasini tobora murakkablashtiradi. Bugungi kunda ko‘p mualliflar dunyo bo‘ylab Yevropa tillari ta’limining dekolonizatsiyasi haqida so‘zlashmoqda [51–53]. Bir qator tadqiqotlar til huquqlari, til o‘zgarishi va yo‘qolib ketish masalalarini ko‘taruvchi ovozlarni hujjatlashtirgan, ammo bu asosan Osiyo va Yevropaning ozchilik tillari misolida, shu jumladan, sami, aragon, ryukyuan, irland, yupik tillari, shuningdek Xitoy, Hindiston, Indoneziya va Nepalning ayrim tillari misolida [54-61] ko‘rish mumkin, chunki falon davlatdagi ko‘p sonli titul millatning yagona rasmiy tili bo‘lsa, o‘sha millat vakillari o‘z tilini davlat maktablarida[4] va universitetlarida ikkinchi til sifatida o‘rganishga qiynalishi g‘alati tuyuladi. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday vakillar postsovet O‘zbekistonda mavjud [62-64]. Bu esa postsovet mamlakatlardagi tegishli vaziyat ko‘rib chiqishga taqozo qiladi.

Postsovet konteksti[5]. Postsovet mamlakatlar til siyosati nuqtayi nazaridan bir xil emas, bu esa dastlabki sovet mahalliylashtirish tamoyiliga asoslangan. Bolsheviklar uchun SSSRdagi turli etnik guruhlar millat sifatida turli rivojlanish bosqichlarida edi [65], bu esa bolsheviklarning asosiy maqsadi — yagona sotsialistik millat yaratishga to‘siq bo‘lgan [66]. Savodxonlik va milliy ong darajasi u yoki bu xalqqa til islohotlarini majburan joriy etishda asosiy omillar bo‘lgan. Masalan, Boltiqbo‘yi mamlakatlarida SSSRga qo‘shilishidan oldin erishilgan yuqori savodxonlik darajasi [67] ularning lotin alifbolarini kirilchalashtirmaslikka, milliy ongning yuqori darajasi esa Sovet davrida ham Gurjiston, Armaniston va Ozarbayjon kabi Kavkaz respublikalarining milliy tillari rus tilidan ham ustunroq turishiga sabab bo‘ldi [68]. Bundan tashqari, Sovet ruslashtirish harakatlari, ya’ni rus ko‘chmanchilar mustamlakachiligi [69], Sovet Ittifoqining Yevropa qismida, ayniqsa Ukraina va Belarusda eng muvaffaqiyatli bo‘lgan, chunki ularning milliy tillari rus tiliga juda o‘xshash [65]. Aksincha, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyoda, Qozog‘iston va Qirg‘izistondan tashqari, ruslashtirish darajasi ancha past bo‘lgan [70].

SSSR tarqab ketganidan so‘ng, ko‘pchilik davlatlar Rossiyadan uzoqlashishni va o‘z milliy tillarining maqomini mustahkamlashni afzal ko‘rdi, ammo ba’zilari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Belarus) rus tiliga rasmiy til maqomini berdi [71]. Milliy tillarni dekolonizatsiya qilishga bo‘lgan keyingi urinishlar Moldova, Ozarbayjon, Turkmaniston va O‘zbekistonda kirill alifbosidan lotin yozuviga o‘tishda namoyon bo‘ldi [72]. Yaqinda Qozog‘iston ham alifboni lotinlashtirish islohotini boshlashga qaror qildi [73]. Boshqalar esa kirill alifbosiga ega bo‘lmagan (Gurjiston, Armaniston, Latviya, Litva va Estoniya) [74] yoki mustaqillikka erishgach uni o‘zgartirmagan (Ukraina, Belarus, Qirg‘iziston va Tojikiston).

Bundan tashqari, sobiq SSSR respublikalarida ta’lim sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Milliy tiklanish va sobiq Sovet respublikalaridan, jumladan Markaziy Osiyodan ko‘plab etnik ruslar va rusiyzabonlarning ketishi tufayli milliy tillarda ta’lim ancha kengaydi [71], ammo rus tilida ta’lim ko‘plab postsovet davlatlarida, jumladan O‘zbekistonda ham hali-hanuz mavjud va hatto ularning tub fuqarolari orasida juda nufuzli hisoblanadi [75]. Bunday maktablarda tub fuqarolar o‘zlarining milliy tilini ikkinchi til sifatida o‘rganadilar.

Hozirgacha sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarining milliy tillarini ikkinchi til sifatida o‘rganishda dekolonizatsiya va his-tuyg‘ular birgalikda tadqiq etilmagan. Bu masalalar alohida-alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularga post-sovet mamlakatlarda rus tilining obro‘si [76], ingliz tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga qozoq tilini samarasiz o‘qitish [77], ukrain tilini chet tili sifatida o‘rganishdan kelib chiqqan norozilik, befarqlik, xavotir, qo‘rquv va begonalashuv his-tuyg‘ulari [78], Qozog‘iston jamiyatida [79] va litvalik oilalarda [80] ko‘p tillilikni rivojlantirish/saqlash muammolari misol bo‘la oladi. Shuni ta’kidlash muhimki, yuqorida tilga olingan barcha adabiyotlar postsovet ta’limida milliy tilni ikkinchi til sifatida o‘rganishga oid faqat umumiy ma’lumot berib, ayniqsa chet elliklar uchun taalluqlidir, ammo milliy ko‘pchilik vakillari uchun emas.

[4] Xususiy va xalqaro maktablarda til o‘rganish tajribalari turlicha bo‘ladi.
[5] Rossiya Federatsiyasidagi mahalliy tillar holati ushbu sharhda ko‘rib chiqilmaydi.

Biroq, 2022-yilda Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishidan so‘ng vaziyat o‘zgardi. Lisoniy uyg‘onish bu urushning eng yirik ijtimoiy natijalaridan biri bo‘lib, nafaqat Ukrainada, balki Qozog‘iston va hatto Rossiyaning eng sodiq ittifoqdoshi Belarusda ham kuzatilmoqda. Bu belarusliklarning Rossiya va ruslardan iloji boricha uzoqlashishga bo‘lgan istagi [81], Qozog‘istonda qozoq tilida faollikning oshishi [82, 83], Ukraina ichida va tashqarisida katta migratsiya sababli ukrain tilini qo‘llab-quvvatlashga muhtojligini tan olib [84], til munosabatlarining ukrain tili foydasiga o‘zgarishi va rus tiliga qarshi noroziliklar [85] orqali namoyon bo‘lmoqda. Biroq ular hissiy jihatga ko‘p e’tibor bermaydi va his-tuyg‘ularning ta’siri haqida hech qanday nazariyalardan foydalanmaydi. Aksincha, Tarasova [86] ukrain universitet talabalari tomonidan ikkinchi til o‘zlashtirishining hissiy jihatlarini tahlil qilish uchun Krashenning affektiv filtr nazariyasidan foydalangan. Unda u o‘quvchilarning hozirgi urushdan his qilayotgan xavotirlari haqida gapiradi, bu esa affektiv filtrdan o‘tishda to‘siq bo‘lib, ikkinchi tilni o‘rganishga imkon bermaydi. Biroq, u ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishni nazarda tutyaptimi yoki o‘z natijalarini har qanday ikkinchi til, jumladan ukrain tiliga ham umumlashtiryaptimi, aniq emas. Agar u ikkinchisini nazarda tutgan bo‘lsa ham, bu ikkinchi til o‘rganish va dekolonizatsiyaga taaluqli his-tuyg‘ular faqat notinch muhitda shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Krashenning affektiv filtr nazariyasi ikkinchi tilni o‘rganish va dekolonizatsiya his-tuyg‘ularini bog‘lash uchun mos nazariy vositalarga ega emas. Shunday qilib, bu jihatlarning o‘zaro ta’siri atroflicha o‘rganilmagan va kelgusi tadqiqotlarda o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Ushbu kichik sharh til ta’limi, dekolonizatsiyasi va unga aloqador his-tuyg‘ularni o‘rganishning global holatini, shu jumladan postsovet vaziyatini yoritib berdi. Uning asosiy xulosasi shundan iboratki, postkolonial davlatda milliy ko‘pchilik tilini ikkinchi til sifatida o‘rganish va dekolonizatsiya qilish his-tuyg‘ulari hech qachon birgalikda o‘rganilmagan. O‘zbek kontekstining puxta tavsifi esa keyingi ishlarimizda beriladi. Shunga qaramay, hatto ushbu qisqa sharhdan ham postsovet O‘zbekistondagi til holati biroz o‘xshashligi, ammo ba’zi jihatlari bilan boshqa postsovet mamlakatlaridagi holatdan farq qilishi aniq. Bu esa o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan o‘zbek millatiga mansub o‘zbekistonliklarning hissiy tajribalari va (de)kolonial qarashlarini tadqiq etish dolzarbligini ko‘rsatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Said, E., 1978. Orientalism. New York, NY: Pantheon Books.

2. Bennabi, M., 2003. Colonisability. Algiers, DZ: Dar Al-Hadara.

3. Mignolo, W.D., 2009a. Epistemic disobedience, independent thought and decolonial freedom. *Theory, culture & society*, *26*(7-8), pp.159-181.

4. Shihade, M., 2017. Education and decolonisation: On not reading Ibn Khaldun in Palestine. *decolonisation: Indigeneity, Education & Society*, *6*(1), pp. 79-93.

5. Schwedhelm, M.C. 2019. Reclaiming languages, decolonizing knowledge(s): Articulating Indigenous knowledge(s) in and for language reclamation, Center for Urban and Regional Affairs (CURA), University of Minnesota.

6. Iseke-Barnes, J.M., 2008. Pedagogies for decolonizing. *Canadian Journal of Native Education*, *31*(1), pp.123-148.

7. Barreiro, J., Vroegindeweij, M., Forte, M. and Zembylas, M., 2020. Posthumanism, education and decolonisation: A conversation with Michalinos Zembylas. *Matter: Journal of New Materialist Research*, 2, pp.123-153.

8. Leonardo, Z. and Zembylas, M., 2013. Whiteness as technology of affect: Implications for educational praxis. *Equity & Excellence in Education*, *46*(1), pp.150-165.

9. DiAngelo, R., 2018. *White fragility: Why it's so hard for white people to talk about racism*. Beacon Press.

10. Zembylas, M., 2018. Con-/divergences between postcolonial and critical peace education: Towards pedagogies of decolonization in peace education. *Journal of Peace Education*, *15*(1), pp.1-23.

11. Matias, C.E. and Zembylas, M., 2014. ‘When saying you care is not really caring’: Emotions of disgust, whiteness ideology, and teacher education. *Critical Studies in Education*, *55*(3), pp.319-337.

12. Gonzalez, J.B. (2020). *Languages Spoken in Latin American Countries*. [online] Available at: https://latinostories.com/languages-spoken-in-latin-american-countries/ [Accessed 3 Apr. 2024].

13. Nationsonline.org, 2017a. *Languages of Australia/Oceania by Countries - Nations Online Project*. [online] Nationsonline.org. Available at: https://www.nationsonline.org/oneworld/oceania_languages.htm/ [Accessed 3 Apr. 2024].

14. Romaine, S., 2017. Language endangerment and language death: The future of language diversity. In *The Routledge handbook of ecolinguistics* (pp. 40-55). Routledge.

15. CIA, 2014. *New Caledonia*. [online] Available at: https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/new-caledonia/ [Accessed 3 Apr. 2024].

16. CIA, 2010. *Guam*. [online] Available at: https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/guam/ [Accessed 3 Apr. 2024].

17. Barbosa da Silva, D., 2019. Language policy in Oceania: In the frontiers of colonization and globalization. *Alfa: Revista de Linguística (São José do Rio Preto)*, *63*, pp.317-347.

18. West-Newman, C.L., 2004. Anger in legacies of empire: Indigenous peoples and settler states. *European Journal of Social Theory*, *7*(2), pp.189-208.

19. Ortiz, P.R., 2009. Indigenous Knowledge and Language: Decolonizing Culturally Relevant Pedagogy in a Capuche Intercultural Bilingual Education Program in Chile. *Canadian Journal of Native Education*, *32*(1), pp.93-114.

20. Yan, L.M.S. and Saura, B., 2015. decolonisation, language, and identity: the Francophone Islands of the Pacific. *the contemporary pacific*, *27*(2), pp.325-335.

21. Kivalahula-Uddin, H.R., 2018. *decolonisation of the Mind a Strategy to Improve Native American Student Achievement* (Doctoral dissertation, University of Hawai'i at Manoa).

22. Martin, B., Stewart, G., Watson, B.K.I., Silva, O.K., Teisina, J., Matapo, J. and Mika, C., 2020. Situating decolonisation: an Indigenous dilemma. *Educational Philosophy and Theory*, *52*(3), pp.312-321.

23. Guerrettaz, A.M., 2020. "We are the Mayas": Indigenous language revitalization, identification, and postcolonialism in the Yucatan, Mexico. *Linguistics and Education*, *58*, p.100765.

24. De Costa, P.I., 2021. Indigenous language revitalization: how education can help reclaim "sleeping" languages. *Journal of Language, Identity & Education*, *20*(5), pp.355-361.

25. Kroskrity, P.V. and Meek, B.A., 2023. On the social lives of Indigenous North American languages. *A New Companion to Linguistic Anthropology*, pp.13-32.

26. Guerrettaz, A.M. and Engman, M.M., 2023. Indigenous Language Revitalization. In *Oxford Research Encyclopedia of Education*.

27. Ortega, Y., 2023. Onward to Pquyquy (or thinking with the heart): conceptualizing the decolonisation of being for language teaching and research. In *Decolonizing Applied Linguistics Research in Latin America* (pp. 196-216). Routledge.

28. Muhungi, W., 2011. The loss of my Indigenous languages: as I lose, I struggle to find. In *Spirituality, Education & Society* (pp. 193-203). Brill.

29. Trudell, B., Adger, C.T., Kiramba, L.K., Walter, S.L., Arkorful, K., Beyogle, R., Seid, S., Shah, S., Njwe, E., Odebunmi, T. and Muaka, L., 2015. *Languages in Africa: Multilingualism, language policy, and education*. Georgetown University Press.

30. Agyekum, K., 2018. Linguistic imperialism and language decolonisation in Africa through documentation and preservation. *African linguistics on the prairie*, pp.87-104.

31. Gelles, B.D., 2018. Dictionary Day: A community-driven approach to dictionary compilation. *African linguistics on the prairie*, pp. 105-116.

32. Hantgan-Sonko, A., 2018. Language endangerment in Southwestern Burkina: A tale of two Tiefos. *African linguistics on the prairie*, pp.117-132.

33. Khepera, K., 2020. Language policy and decolonizing African education. *Journal of Management Policy and Practice*, *21*(2), pp. 110-118.

34. Stroud, C. and Kerfoot, C., 2021. Decolonizing higher education: Multilingualism, linguistic citizenship and epistemic justice. *Language and decoloniality in higher education: Reclaiming voices from the South*, pp.19-46.

35. Maduagwu, M.O., 2021. Language and African Cultural Identity: A Reflection. *Arts and Social Science Research*, *11*(1), pp.1-21.

36. Eme, C.A. and Uwaezuoke, I.C., 2023. Language and Mind decolonisation: A Sure Way to Africa's Language Development. *Awka Journal of Linguistics and Languages*, *2*, pp. 121-143.

37. Africa. (1989). In: *The World Book Encyclopedia*. [online] Chicago: World Book. Available at: https://archive.org/details/1989worldbookencyclo22worl/page/n3/mode/2up [Accessed 29 Mar. 2024].

38. Nationsonline.org, 2019. *Spoken languages of African countries - Nations Online Project*. [online] Nationsonline.org. Available at: https://www.nationsonline.org/oneworld/african_languages.htm/ [Accessed 3 Apr. 2024].

39. Prah, K.K., 2018. *The challenge of decolonizing education*. Cape Town: Centre for Advanced Studies of African Society.

40. Brock-Utne, B., 2014. Language of instruction in Africa-the most important and least appreciated issue. *International Journal of Educational Development in Africa*, *1*(1), pp.4-18.

41. Adamson, L., 2023. 'Tanzanian students who struggle with English feel bullied - a major barrier to learning' *The Conversation*.

42. Gibson, M. and Wekundah, M.S., 2024. Gambia, The-Education Sector Program Development Grant: School Language Mapping Report.

43. Kiramba, L., 2014. Classroom discourse in bilingual and multilingual Kenyan primary schools. *Languages in Africa: Multilingualism, language policy, and education*, pp.17-33.

44. Mukama, E., 2007. Rethinking languages of instruction in African schools. *Policy & Practice-A Development Education Review*, (4), pp. 53-56.

45. Piper, B. and Miksic, E., 2011. Mother tongue and reading: Using early grade reading assessments to investigate language-of-instruction policy in East Africa. *The early grade reading assessment: Application and intervention to improve basic literacy*, pp.139-182.

46. Van Pinxteren, B., 2022. Language of instruction in education in Africa: How new questions help generate new answers. *International Journal of Educational Development*, *88*, p.102524.

47. Nationsonline.org, 2017b. *National Languages of Asian Countries: Nations Online Project*. [online] Nationsonline.org. Available at: https://www.nationsonline.org/oneworld/asian_languages.htm/ [Accessed 3 Apr. 2024].

48. Stolz, C. ed., 2015. *Language empires in comparative perspective* (Vol. 6). Walter de Gruyter GmbH & Co KG.

49. Seixas, X.M.N., 2017. The language (s) of the Spanish nation. *Metaphors of Spain: Representations of Spanish national identity in the twentieth century*, *1*, pp.142-161

50. Griffiths, J., 2021. *Speak Not: Empire, Identity and the Politics of Language*. Bloomsbury Publishing.

51. Meighan, P.J., 2021. Decolonizing English: A proposal for implementing alternative ways of knowing and being in education. *Diaspora, Indigenous, and Minority Education*, *15*(2), pp.77-83.

52. Herlihy-Mera, J., 2022. *Decolonizing American Spanish: Eurocentrism and the Limits of Foreignness in the Imperial Ecosystem*. University of Pittsburgh Press.

53. Costa-Silva, J., 2024. Neither Portugal nor Brazil: An Investigation of the Decolonial Efforts in Instructional Materials Adopted in Early Portuguese Courses at US Universities. *Hispania*, *107*(1), pp.67-86.

54. Fjellgren, P. and Huss, L., 2019. Overcoming silence and sorrow: Sami language revitalization in Sweden. *International Journal of Human Rights Education*, *3*(1), pp. 1-30.

55. Gimeno-Monterde, C. and Sorolla, N., 2022. 'To die with dignity or to be supplanted by the standard'. Empowerment and inclusive practices of urban new speakers of Aragonese. *Journal of Multilingual and Multicultural Development*, *43*(1), pp.8-20.

56. Hammine, M., 2021. Learning to speak Indigenous languages with compassionate listening practices. *Multiethnica: Journal of the Hugo Valentin Centre*, *41*, pp.52-67.

57. Mac Ionnrachtaigh, F., 2021. Promoting sedition: The Irish language revival in the North of Ireland—Power, resistance and decolonisation. *Fanon today: Reason and revolt of the wretched of the earth*, pp.365-414.

58. Morgounova Schwalbe, D., 2021. In the language of their hearts: Emotions and language choice in child-parent interaction, insights from a Yupik village. *études inuit studies*, *45*(1), pp.171-205.

59. Nakagawa, S. and Kouritzin, S., 2021. Identities of resignation: Threats to Indigenous languages from neoliberal linguistic and educational practices. *Journal of Language, Identity & Education*, *20*(5), pp.296-310.

60. Phyak, P., 2021. Subverting the erasure: Decolonial efforts, Indigenous language education and language policy in Nepal. *Journal of Language, Identity & Education*, *20*(5), pp.325-339.

61. Roche, G., Hammine, M., Hernandez, J.F.C. and Kruk, J., 2023. The Politics of Fear and the Suppression of Indigenous Language Activism in Asia: Prospects for the United Nations' Decade of Indigenous Languages. *State Crime J.*, *12*, pp.29-50.

62. Tilyabaev, K., 2024. *Exploring the emotional dimension of Uzbek language decolonisation: insights from the experiences of learning Uzbek as a second language.* Lancaster University.

63. Tilyabayev, K.Z., 2025. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganish tajribasidan. *Sayhun ilmiy axborotnomasi, 4,* pp. 66-73.

64. Tilyabayev, K., 2026. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda his-tuyg'ular ahamiyati. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali, 6*, pp. 13-21.

65. Slezkine, Y., 1994. The USSR as a communal apartment, or how a socialist state promoted ethnic particularism. *Slavic review*, *53*(2), pp.414-452.

66. Hajda, L., 1993. Ethnic politics and ethnic conflict in the USSR and the post-Soviet states. *Humboldt Journal of Social Relations*, pp. 193-278.

67. Grenoble, L.A., 2003. The Baltic States. *Language Policy in the Soviet Union*, pp. 95-110.

68. Whitney, C.R., 1978. A Second Soviet Republic Wins Its Language Fight. *The New York Times*, [online] 19 Apr., p.5. Available at: https://www.nytimes.com/1978/04/19/archives/a-second-soviet-republic-wins-its-language-fight-exceptions-in.html [Accessed 7 Apr. 2024].

69. Morrison, A., 2016. Russian settler colonialism. In *The Routledge handbook of the history of settler colonialism* (pp. 337-350). Routledge.

70. Kolstø, P. and Edemsky, A., 1995. *Russians in the former Soviet republics*. Indiana University Press.

71. Pavlenko, A., 2006. Russian as a lingua franca. *Annual Review of Applied Linguistics*, *26*, pp.78-99.

72. Sebba, M., 2006. Ideology and alphabets in the former USSR. *Language Problems and Language Planning*, *30*(2), pp.99-125.

73. Kumar, Y., Vaigorova, L. and Rakhmykul, Y., 2022. Latinization of the Kazakh alphabet: analysis of reasons for implementation and their possible problems. *Farabi Journal of Social Sciences*, *8*(1), pp.29-39.

74. Alpatov, V.M., 2017. Scripts and Politics in the USSR. *Studi Slavistici*, *14*, pp.9-19.

75. Bezborodova, A., 2023. *Language practices and processes in English-Medium Higher Education in Uzbekistan* (Doctoral dissertation, University of Westminster).

76. Tyson, M. J. 2009. Russian language prestige in the states of the former Soviet Union (Doctoral dissertation, Naval Postgraduate School).

77. Zhumasova, Z., Aksholakova, A., Omirbekova, A. and Kulbekova, B., 2023. Challenges and Recommendations for Teaching and Learning Kazakh as a Second Language. *International Journal of Society, Culture & Language*, 11(*2 (Themed Issue on Language, Discourse, and Society*)), pp.119-131.

78. Tsurkan, M.V., Ilkiv, A., Maksymiuk, O.V. and Struk, I.M., Shatilova, N. 2020. Role of Emotional Factors in Learning Ukrainian as a Foreign Language at Higher School. *International Journal of Higher Education*, 9(*7*), pp. 130-141.

79. Koptleuova, K., Karagulova, B., Zhumakhanova, A., Kondybay, K. and Salikhova, A., 2023. Multilingualism and the Current Language Situation in the Republic of Kazakhstan. *International Journal of Society, Culture & Language*, 11(*3*), pp.242-257.

80. Markova, S., 2019. Contact Between the Titular Language and the Post-Colonial Language in Bilingual Lithuanian-Russian Families Within the Context of the Growing Role of English. In *li257 Family Multilingualism in Medium-Sized Language Communities*, eds. Bastardas-Boada A., Boix-Fuster E., and Torrens-Guerrini R.M., pp.147-164.

81. Liskovets, I., 2023. Challenges and Reasons of Using a Passively Known Language in Daily Practice: Cases of Belarusian and Ukrainian. *Journal of Eurasian Studies*, 14(*2*), pp.118-128.

82. Leydiker, J. (2023). *The War in Ukraine Is Catalyzing a Linguistic Awakening in Kazakhstan*. [online] thediplomat.com. Available at: https://thediplomat.com/2023/08/the-war-in-ukraine-is-catalyzing-a-linguistic-awakening-in-kazakhstan/ [Accessed 6 Apr. 2024].

83. Smagulova, K., 2023. *Decolonial debates on identity within Kazakh postcolonial reality*. [online] Available at: https://www.goethe.de/resources/files/pdf315/kamila-smagulova-v4.pdf [Accessed 6 Apr. 2024].

84. Shramko, R., Stepanenko, M., Pedchenko, S., Pryima, L. And Komlyk, N., 2023. Teaching Ukrainian as Foreign Language (TUkFL) At Pedagogical University: Innovations and Perspectives. *Ad Alta: Journal of Interdisciplinary Research*, *13*(2), pp. 222-227.

85. Teslenko, A., 2023. *Reinventing Language: Agency and Linguistic Switching in the Wartime Ukraine* (Doctoral dissertation, Central European University).

86. Tarasova, V., 2023. Affective factors influencing students' second language acquisition during the war. *European Humanities Studies: State and Society*, (1), pp.88-101.

**UDC 81'25:82.0:159.9**

## LITERARY TRANSLATION AND THE PLOT OF MENTAL MATURITY: ISSUES OF RESEARCH AND INTERPRETATION

***U.A.Tokhirova, teacher, Bukhara State University, Bukhara***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada badiiy asarlardagi shaxsning ruhiy kamoloti va ma'naviy shakllanishi syujeti (Bildungsroman)ni tarjima qilishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda nozik psixologik evrilishlar, ichki monologlar va madaniy xususiyatga ega bo'lgan kamolot bosqichlarining boshqa tillarda qayta rekontekstualizatsiya qilinishi tahlil qilinadi. Politisizmlar nazariyasi, psixologik germenevtika va tavsifiy tarjimashunoslikka tayangan holda, maqola tarjima matnida qahramon ichki evolyutsiyasining kognitiv va emotsional rezonansi qanchalik saqlanishini baholash metodologiyasini taklif etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Badiiy tarjima, ruhiy kamolot syujeti, Bildungsroman, psixologik germenevtika, narrativ empatiya, tarjimashunoslik.*

***Аннотация****. В данной статье исследуются теоретико-методологические основы перевода сюжетных линий, связанных с душевным взрослением и духовным становлением личности (Bildungsroman) в художественной литературе. Рассматривается, как тонкие психологические трансформации, внутренние монологи и культурно обусловленные этапы взросления реконтекстуализируются на других языках. Опираясь на полисистемную теорию, психологическую герменевтику и описательное переводоведение, статья предлагает методологию анализа того, насколько перевод сохраняет когнитивный и эмоциональный резонанс внутренней эволюции героя.*

***Ключевые слова:*** *Художественный перевод, сюжет душевного взросления, Bildungsroman, психологическая герменевтика, нарративная эмпатия, переводоведение.*

***Abstract.*** *This article explores the theoretical and methodological foundations of translating narrative arcs centered on mental maturity and spiritual development (Bildungsroman) in literary works. The study examines how subtle psychological transformations, interior monologues, and culturally conditioned rites of passage are recontextualized across languages. Drawing upon polysystem theory, psychological hermeneutics, and descriptive translation studies, this paper*

*establishes a framework for analyzing whether target text renditions preserve the cognitive and emotional resonance of the protagonist's inner evolution.*

***Key words:*** *Literary translation, plot of mental maturity, Bildungsroman, psychological hermeneutics, narrative empathy, translation studies.*

The depiction of human growth specifically the psychological, moral, and emotional trajectory commonly conceptualized as the plot of mental maturity or the Bildungsroman constitutes one of the most vital archetypes in world literature. From Goethe's Wilhelm Meister's Apprenticeship to modern coming-of-age narratives across global traditions, literature serves as a repository for the complex dynamics of human self-actualization. However, when a literary work whose central structural element is the inner transformation of a character travels across linguistic and cultural boundaries, it undergoes a profound shift in narrative framing. Literary translation is not merely a linguistic transfer; it is a creative and hermeneutic act that negotiates cultural paradigms of consciousness, maturity, and societal integration. The primary problem in translating the plot of mental maturity lies in the subtle, often non-verbal or deeply idiomatic ways in which psychological growth is represented. Mental maturity is rarely marked solely by overt plot actions; instead, it is manifested through shifts in perspective, changes in vocabulary, subtle alterations in sentence rhythm, and evolving reflective interiority. Consequently, translators face the challenge of reproducing not just what a protagonist experiences, but how their changing cognitive and emotional states reshape the narrative voice itself. This study investigates the theoretical and methodological issues involved in transferring the plot of mental maturity, evaluating how translation choices preserve or distort the psychological authenticity of character development.

To analyze the translation of mental maturity, one must first establish what constitutes this plot architecture in literary theory. Mikhail Bakhtin, in his seminal essays on the novel of development, noted that unlike static adventure novels where characters remain morally constant, the Bildungsroman presents a character who changes in time alongside the world. The protagonist's emergence is intrinsically tied to historical, cultural, and psychological contexts. Mikhail Bakhtin emphasizes that the internal transformation of the hero becomes the organizing center of the entire narrative universe. In modern translation studies, Gideon Toury's Descriptive Translation Studies (DTS) and Itamar Even-Zohar's Polysystem Theory provide a crucial macro-level framework. According to Even-Zohar, translated literature functions as a sub-system within the host target polysystem. When a narrative of mental maturity enters a target culture, it is subjected to the socio-cultural norms and psychological idioms prevalent in that host environment. If the target culture possesses a different conceptual model of psychological maturity for instance, one oriented toward collective responsibility rather than individual autonomy the translator may intentionally or sub-consciously alter the trajectory of the protagonist to align with target expectations.

First, the linguistic-stylistic layer pertains to the evolution of character voice. In many coming-of-age novels, the voice of the protagonist undergoes a stylistic maturation over the course of the text. Early chapters may utilize simple syntax, sensory-bound vocabulary, and fragmented thought patterns, reflecting a juvenile worldview. As the protagonist matures, the syntax grows more complex, subordinate clauses multiply, and abstract vocabulary takes precedence. A common failure in literary translation is "stylistic smoothing" or standardization (Antoine Berman's concept of rationalization and clarification), wherein the translator applies a uniform, adult academic register throughout the entire text. This flattens the developmental arc, robbing the reader of witnessing the hero's linguistic maturity in real time.

Second, the cognitive-affective layer concerns interior monologues, stream-of-consciousness techniques, and free indirect discourse (style indirect libre). Free indirect discourse is often the primary vehicle for displaying a character's emerging self-awareness, blurring the line between the narrator's objective stance and the protagonist's subjective thought. Translating free indirect discourse requires extreme precision with tense shifts, modal verbs, and subtle discourse markers. A slight misstep in modal nuance can transform an epiphany of self-knowledge into a mere matter-of-fact observation.

Third, the socio-cultural layer involves the cultural markers of maturity. Concepts such as honor, emotional restraint, filial duty, and personal freedom are culturally relative. What signifies psychological maturity in a 19th-century European novel (e.g., individual liberation and break from tradition) may contrast sharply with Eastern literary traditions, where maturity is defined by self-discipline, spiritual enlightenment, and harmony with society. Translators must decide whether to foreignize these cultural indicators of growth or domesticate them for target reader comprehension.

To ground these theoretical concepts, consider the operational mechanics of translating key moments of epiphany what James Joyce termed the sudden manifestation of essential spiritual reality. In plots of mental maturity, an epiphany often marks the turning point where childish innocence yields to mature insight. Consider the following structural breakdown of translation challenges across narrative developmental stages:

1. The Stage of Naïveté and Sensory Perception: Narrative style relies on immediate sensory impressions, concrete nouns, and paratactic sentence structures. Translation strategy must avoid elevated or overly sophisticated vocabulary to preserve the authenticity of the child/youth perspective.

2. The Crisis of Disillusionment: The protagonist experiences conflict between expectations and reality. The syntax becomes disrupted, characterized by ellipses, rhetorical questions, and emotive exclamations. The translator must maintain the emotional volatility without over-explaining the psychological cause.

3. The Integrative Resolution (Mental Maturity): The character reconciles internal desires with external reality. The tone shifts toward reflective composure, marked by hypotactic syntax, abstract philosophical vocabulary, and subtle irony. Translators must reflect this newly acquired cognitive clarity. When translators fail to adjust their register dynamically across these three stages, the psychological trajectory of the novel loses its rhythm. For example, in translating Uzbek classical and modern literature into English (such as Abdulla Qodiriy's O'tkan kunlar or Cho'lpon's Kecha va kunduz), the internal maturation of characters is often mediated through Islamic ethical concepts, poetic metaphors, and subtle gestures of modesty (hayo, andisha). Translating these inner states literally into Western languages without capturing their deep existential meaning risks portraying mature characters as passive or indecisive, thereby misrepresenting their moral maturity.

Understanding literary translation through the lens of psychological maturity has direct practical implications for translator training and editorial practice. Translators should not view a novel as a static collection of sentences, but as a dynamic psychological architecture. Methodological steps for translating developmental plots should include:

1. Psychological Character Mapping: Before beginning translation, the translator ought to chart the protagonist's emotional and cognitive milestones across the text, noting specific stylistic shifts associated with each stage.

2. Register Tracking: Maintaining a glossary not just of specialized terms, but of voice registers ensuring that early-stage vocabulary remains distinct from late-stage reflective language.

3. Hermeneutic Re-reading: Reviewing translated draft chapters sequentially to verify if the pacing of mental maturation feels earned and continuous rather than sudden and unmotivated.

The plot of mental maturity represents one of the most profound humanistic dimensions of world literature. Translating this plot architecture requires a sophisticated methodology that integrates literary theory, descriptive translation studies, and psychological hermeneutics. A successful translation does not merely render the chronological events of a protagonist's life into a new language; it reconstructs the intricate, subterranean journey of psychological evolution. By respecting the evolving syntax, emotional nuances, and cultural paradigms of maturity embedded in the source text, translators bridge the gap between distinct worldviews, allowing readers across linguistic frontiers to participate in the universal journey toward spiritual and mental wholeness.

**REFERENCES:**

1. Akramovna, Tohirova Umida. "Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asari mazmuni." so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6 (2023): 246-252.

2. Akramovna, Tohirova Umida. "Translation equivalence: the key to accurate cross-cultural communication." Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research 11.12 (2024): 172-175.

3. Akramovna, Tohirova Umida. "Lexical, grammatical and phonetic features of american english." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 11.1 (2023): 137-140.

4. Bakhtin, Mikhail M. Speech Genres and Other Late Essays. Translated by Vern W. McGee, University of Texas Press, 1986.

5. Berman, Antoine. "Translation and the Trials of the Foreign." The Translation Studies Reader, edited by Lawrence Venuti, Routledge, 2000, pp. 284-297.

**UDC 82.091**

## COMPARATIVE POETICS OF THE IMAGES OF TRISTAN AND KUNTUGMISH, ISOLDE AND KHOLBEKA

***N.T.To'lqinjonova, PhD student, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Tristan va Isolde haqidagi o'rta asr Yevropa afsonasi va o'zbek eposi "Kuntug'mish"dagi markaziy qahramonlarning qiyosiy poetikasi o'rganiladi. Tahlil ikkita tipologik juftlikka qaratilgan: Tristan-Kuntug'mish va Isolde-Xolbeka. Tadqiqotda qahramonona xarakteristika, sevgi va sadoqat, ajralish, sinov, sayohat, axloqiy tanlov, ayol agentligi, vositachilik va bu motivlar amalga oshiriladigan milliy-madaniy shakllar o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *qiyosiy poetika, Tristan, Kuntugmish, Isolde, Xolbeka, epik qahramon, ayol xarakteri, sevgi motivi, sinov, sayohat, tipologik o'xshashlik, milliy-madaniy o'ziga xoslik.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается сравнительная поэтика центральных персонажей средневековой европейской легенды о Тристане и Изольде и узбекского эпоса «Кунтугмиш». Анализ сосредоточен на двух типологических парах: Тристан-Кунтугмиш и Изольда-Хольбека. В исследовании рассматриваются героическая характеристика, любовь и верность, разлука, испытание, путешествие, моральный выбор, женская активность, посредничество и национально-культурные формы, посредством которых эти мотивы реализуются.*

***Ключевые слова:*** *сравнительная поэтика, Тристан, Кунтугмиш, Изольда, Холбека, эпический герой, женский образ, мотив любви, испытание, путешествие, типологическое сходство, национально-культурная специфика.*

***Abstract.*** *The article examines the comparative poetics of the central characters in the medieval European legend of Tristan and Isolde and the Uzbek epic Kuntugmish. The analysis focuses on two typological pairs: Tristan-Kuntugmish and Isolde-Kholbeka. The study considers heroic characterization, love and loyalty, separation, trial, journey, moral choice, female agency, mediation, and the national-cultural forms through which these motifs are realized. The comparison does not treat the works as genetically related texts; instead, it identifies functional and typological correspondences within two independent epic traditions.*

***Keywords:*** *comparative poetics, Tristan, Kuntugmish, Isolde, Kholbeka, epic hero, female image, love motif, trial, journey, typological similarity, national-cultural specificity.*

The comparative study of characters belonging to distant literary traditions makes it possible to distinguish between universal narrative structures and nationally specific forms of artistic representation. The legend of Tristan and Isolde and the Uzbek heroic-romantic epic Kuntugmish were created in different historical, linguistic, and cultural environments. Nevertheless, both works organize their central conflict around love, separation, trial, danger, loyalty, social obligation, and the preservation of personal identity under pressure. These common elements create a productive basis for comparative-poetic analysis [4; 6].

The present study concentrates on the character pairs Tristan-Kuntugmish and Isolde-Kholbeka. Such pairing is not based on an assumption of direct borrowing. It is based on functional similarity. Tristan and Kuntugmish occupy the position of the male protagonist whose heroic identity is tested by love, journey, danger, and separation. Isolde and Kholbeka occupy the position of the beloved woman whose image determines the direction of the plot and whose choices reveal the moral and emotional structure of the narrative [6; 12].

In comparative literature, typological similarity becomes especially meaningful when analogous narrative functions are realized through different cultural codes. A journey may be a universal plot mechanism, but its ethical meaning changes from one tradition to another. Love may be a universal human experience, yet courtly love, marital loyalty, family honor, heroic duty, and epic fidelity organize it differently. Therefore, the task is not to list superficial resemblances but to explain how comparable functions acquire distinct poetic meanings [5; 12].

Tristan and Kuntugmish share the structural position of the exceptional male protagonist. Their heroic status is demonstrated not only by physical courage but also by their ability to endure prolonged emotional and social testing. In both narratives, heroism moves beyond the battlefield. The protagonist must survive separation, uncertainty, danger, and the possibility of losing the beloved. Thus the heroic image is constructed through the interaction of external action and internal constancy [1; 4].

Tristan belongs to a chivalric world in which loyalty to a ruler, courtly reputation, love, and social prohibition collide. His image contains a fundamental contradiction: the qualities that make him admirable—courage, loyalty, sensitivity, and devotion—also place him within an irresolvable moral conflict. His love cannot be separated from the social order surrounding King Mark and Isolde. As a result, the hero is repeatedly divided between personal feeling and public obligation [2; 10].

Kuntugmish is shaped by the conventions of the Uzbek heroic-romantic dastan. His journey toward Kholbeka is connected with courage, persistence, masculine honor, and the willingness to cross dangerous spaces. The beloved is not reached through passive expectation; the hero must move, search, confront obstacles, and prove his worth. Physical distance therefore becomes an ethical test. The road reveals the hero's constancy [3; 11].

A significant typological correspondence appears in the transformation of love into a test of identity. Tristan remains Tristan through his fidelity to a feeling that conflicts with social order. Kuntugmish preserves his heroic identity through fidelity to his chosen beloved and through the trials imposed by the journey. In both cases, love intensifies rather than weakens heroism [2; 63].

The difference lies in the ethical architecture of the two traditions. Tristan's conflict is strongly tragic because incompatible loyalties cannot be harmonized. Kuntugmish's trials are more closely connected with epic achievement, restoration, and the possibility of re-establishing a morally acceptable order. Consequently, Tristan's image gravitates toward tragic contradiction, whereas Kuntugmish's image gravitates toward heroic endurance and eventual integration [8; 97].

In the Tristan tradition, movement between courts, seas, forests, and places of exile repeatedly changes the social conditions of the lovers. Space can protect them temporarily, but it can also reveal their vulnerability. The forest, the sea, and the court carry different ethical meanings. The court represents social judgment; marginal spaces offer temporary freedom but cannot permanently abolish social obligation. [5; 86].

In Kuntugmish, journey is more directly connected with the heroic quest. Roads, distant lands, danger, captivity, and return form a sequence through which the protagonist's determination is made visible. The spatial structure is therefore closely linked with the epic logic of testing and achievement. The hero's movement toward Kholbeka transforms desire into action [3; 11].

Love is the central force connecting all four characters, but its poetic function is not identical. In the Tristan tradition, love becomes inseparable from prohibition. The stronger the emotional bond, the sharper the conflict with social obligation. Love therefore acquires tragic power because it cannot be completely legitimized within the existing order [10; 99].

In Kuntugmish, love is also tested by external obstacles, yet it functions more clearly as a legitimate motive for heroic action. The protagonist's commitment to Kholbeka gives direction to the journey and provides an ethical measure of perseverance. Love is validated through endurance and action [11; 82].

These differences show why typological analysis must distinguish narrative function from ethical evaluation. The same function-remaining faithful to the beloved-may generate tragedy in one cultural system and heroic confirmation in another [6; 112].

In both traditions, recognition is connected with identity. A hero who has travelled, suffered, or changed must still be recognizable through signs of personal continuity. The beloved's capacity to remember and identify becomes a form of fidelity. Recognition therefore joins plot mechanics with ethical meaning [11; 160].

Supporting characters also reveal the social dimension of love. Kings, relatives, companions, rivals, and intermediaries transform private feeling into public conflict.

The male images also reveal two models of heroic subjectivity. Tristan's heroism is psychologically complicated by divided loyalty. His greatness does not protect him from contradiction. Kuntugmish's heroism is more closely aligned with purposeful movement and the overcoming of obstacles. His trials confirm the values associated with perseverance and fidelity [9; 43].

The female images reveal two models of agency under social constraint. Isolde's agency is powerful but tragic because her emotional truth cannot be fully accommodated by her social position. Kholbeka's agency is linked with the right to choose, remain loyal, and participate in the validation of the heroic union. Both images therefore resist a purely passive interpretation [7; 53].

The comparative analysis of Tristan-Kuntugmish and Isolde-Kholbeka reveals a system of meaningful typological correspondences. The male protagonists combine heroic capacity with emotional testing; the female protagonists combine beauty and beloved status with fidelity, choice, and narrative agency. In both traditions, love becomes meaningful through separation, danger, memory, and moral trial [6; 42].

Tristan and Kuntugmish are united by the poetics of the tested hero, yet Tristan is marked more strongly by tragic divided loyalty, while Kuntugmish is shaped by the heroic logic of quest and restoration. Isolde and Kholbeka share constancy and active emotional presence, yet Isolde's image develops within an unresolved conflict between love and social role, whereas Kholbeka's image is more closely integrated with the ethical structure of the heroic-romantic epic. [8; 63]

Thus, the typological similarity of the four images lies in their narrative functions and universal human problems, while their differences arise from the cultural and genre systems in which those functions are realized. Such comparison allows the two works to illuminate one another without erasing their historical and national individuality.

**REFERENCES:**

1. Bédier, J. The Romance of Tristan and Iseult. Translated by Hilaire Belloc. London: George Allen & Unwin.
2. Bédier, J. The Romance of Tristram and Iseult. English translation by Florence Simmonds. London, 1910.
3. Jumanbulbul o'g'li, Ergash. Kuntug'mish. In Uzbek folk epics, edited tradition associated with Hodi Zarif. Tashkent, 1975.
4. Campbell, J. The Hero with a Thousand Faces. Princeton: Princeton University Press, 2004.
5. Bakhtin, M. M. The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin: University of Texas Press, 1981.
6. Propp, V. Morphology of the Folktale. Austin: University of Texas Press, 1968.
7. Meletinsky, E. M. The Poetics of Myth. New York: Routledge, 2000.
8. Zipes, J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre. Princeton: Princeton University Press, 2012.
9. Green, D. H. The Beginnings of Medieval Romance: Fact and Fiction, 1150-1220. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
10. Lacy, N. J., ed. The New Arthurian Encyclopedia. New York: Garland, 1996.
11. Hatimov, N., and Sarimsoqov, B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Tashkent: O'qituvchi.
12. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. Tashkent: Akademnashr.

**UO'K 821.512.133.09**

## O'ZBEK SHE'RIYATIDA FURQAT SIYMOSI

***M.Q.To'rayeva, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro***

***Annotatsiya.*** *Zamonaviy o'zbek she'riyatida milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining yorqin vakili Zokirjon Furqatning lirik siymosi yaratilgan. Ular, asosan, talmeh ko'rinishida va shoirga bag'ishlangan maxsus she'rlar – monologlar tarzida yaratilgan. Maqolada shu jihatdan*

*Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid kabi shoirlar she'rlaridan olingan badiiy parchalar va "Furqat nidosi", "Furqat" she'rlari tahlil va tadqiq etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *talmeh, monolog, lirik kechinma, lirik qahramon, Vatan hijroni motivi, ma'rifatparvarlik, g'azal, qasida.*

***Аннотация.*** *В современной узбекской поэзии сложилась лирическая фигура Закирджана Фурката, яркого представителя периода национального возрождения узбекской литературы. Они созданы в основном в форме талмеха и в стиле специальных стихотворений-монологов, посвященных поэту. В статье проанализированы отрывки из стихов-монологов Эркина Вахидова, Абдуллы Арипова, Сирожиддина Саййида, стихи «Возглас Фурката», "Фуркат".*

***Ключевые слова:*** *талмех, монолог, переживание, лирический герой, мотив разлуки с Родиной, просветительский мотив, газель, ода.*

***Abstract.*** *In modern Uzbek poetry was created the lyrical figure of Zakirjon Furkat, who was a bright representative of Uzbek literature of the period of national renaissance. They were basicly created in the form of talmeh and special poems dedicated to the poet-monologues. In this regard, the article analyzes and researches artistic fragments from the poems of such poets as Erkin Vahidov, Abdulla Oripov, Khurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, as well as the poems "Furqat Nidosi" and "Furqat".*

***Key words:*** *talmeh, monologue, lyrical experience, lyrical hero, motive of emigration to the Motherland, enlightenment, ghazal, ode.*

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biridir. Uning o'zlikni anglash, istibdodga qarshi isyon, erk va ozodlik, Vatan hijroni g'oyalari bilan sug'orilgan lirikasi asrlar osha istiqlolga intilgan xalqning qalb sadolari yanglig' jarang sochganligi – asl haqiqat. U mumtoz adabiyotning deyarli barcha she'riy janrlarida barakali qalam tebratdi. Shuning barobarida, serqirra ijodkor turli xarakter va yo'nalishlarda (adabiyotshunoslik, musiqa, xotiralar) ham asarlar yozdi. Uning takrorlanmas ijodi va shaxsiyati nafaqat ilm ahlini, balki shoir-yozuvchilarni ham qiziqtirib keladi. Qolaversa, Furqat qismati jahoniy siymo Zahiriddin Bobur bilan nihoyatda yaqin. Shu bois adabiyotimizda bu ikki ulug' siymoning badiiy obrazlarini yaratishga alohida diqqat qaratilgan. Jumladan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid kabi shoirlar ijodida Furqat siymosi muhim o'rin tutadi. Furqat lirik obrazining she'riyatda badiiy gavdalantirilishi bilan bog'liq kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, shoirlarimiz bunda ikkita jihatni e'tiborga olishgan: 1. Shoirning boy adabiy merosi. 2. Uning Vatan hijronida uzoq yillar yashaganligi. Ayniqsa, ikkinchi jihat ko'pincha talmeh orqali, shu bilan birga, maxsus she'r-g'azallarda ifoda etilgan.

Darhaqiqat, Zokirjon Xolmuhammad Furqat Vatandan yiroqda yashashga majbur bo'lgan. Shoir hayotining ushbu og'riqli tomoni xususida furqatshunos olim N.Jabborov quyidagicha yozadi: "Shoirning xorijga ketishi va yurtga qayta olmasligi sabablari shu paytgacha turlicha talqin etilgan. Bu haqda hech qanday asossiz, hujjat-dalilsiz har xil taxmin-u gumonlar ham bildirilgan. Arxiv hujjatlari va mavjud manbalar tahlili Furqatning chet elga ketishiga ikki narsa sabab bo'lganini ko'rsatadi: shoirning chor Rusiyasi mustamlaka siyosatini ochiqdan-ochiq qoralab asarlar yozgani; Furqatning ma'rifatparvarlik faoliyati Vatan va millat manfaatlariga asoslangani" [1]. Ko'rinadiki, Furqat butun umri davomida Vatan rivoji, xalq manfaati, kelajagi uchun fidoyilik ko'rsatgan. Uning millat manfaatlariga asoslangan g'oyalar bilan to'yintirilgan asarlari shu yo'lda mayoq vazifasini o'tagan.

Zamonaviy she'riyatda Furqat siymosini yaratish bo'yicha ikki xil holat ko'zga tashlanadi: **1. Furqat nomini talmeh qilib keltirish. 2. U haqida maxsus she'rlar yozish.**

Ko'pincha, Vatan va xalq madh etilgan asarlarda Furqat nomi talmeh sifatida keltiriladi. Erkin Vohidovning o'zbek she'riyatida badiiy hodisa darajasiga ko'tarilgan "O'zbegim", Sirojiddin Sayyidning "Vatan abadiy" kabi she'rlari mulohazalarimizni tasdiqlab turadi. Erkin Vohidov bu haqda yozadi:

*Yig'ladi furqatda Furqat*

*Ham muqimlikda Muqiym,*
*Nolishingdan Hind-u Afg'on*
*Qildi afg'on, o'zbegim (2, 336)*

O'zbek nomi dunyo tamaddunida o'ziga xos nufuzga ega. Ko'hna tarixi, ulug' allomalari bilan shuhrat qozongan bu xalq ne-ne zotlarni bag'rida avayladi. Biroq yuragida o'zbekligini, o'zligini jo etgan, shu xalq mansub Vatanni ardoqlab, sevib yashagan, biroq hayoti o'zga yurtlarda kechgan bir qator mashhurlar qatorida Furqat ham bor. Zero, u adabiyotshunos N.Jabborov ta'kidlaganiday, yurtdan kechib ketmagan, muayyan obyektiv sabablar – ma'rifatparvar sifatida chor Rusiyasi zamonida millati va yurti manfaatlarini himoya qilib asarlar yozganligi uchun, o'zi aytganiday, yurtdan ayro tushgan. Demak, Furqat ko'z o'ngimizda chin vatanparvar, vatansevar sifatida namoyon bo'ladi. Erkin Vohidov yaratgan talmehda ham xuddi shunday mazmun bor: Furqat vatandan uzoqda, ayriliqda uning ishqida yig'lagan. Bir muxammasida shoirning: "Manam sho'rida bulbul oshiyonidin adashganman", – deb yozganligi bejiz emas. Bu motiv shoir she'riyatining asosidan o'q chiziq bo'lib o'tadi.

Sirojiddin Sayyidning "Vatan abadiy" she'ridagi quyidagi misralar ham she'rxonni befarq qoldirmaydi:

*Har tepa, har do'nglik turbat emasdir,*
*Har qanday ayriliq g'urbat emasdir.*
*Yurtdan ketgan har zot Furqat emasdir,*
*Vatan qolar ekan, Vatan abadiy [3].*

Sirojiddin Sayyid Vatan degan tushunchani nihoyatda teran anglaydi va she'rxonga ham anglatadi. Shoir talqinicha, har tepa, do'nglik turbat – qabr emas, har qanday ayriliq g'urbat emas. Shu misralarga uyg'un talmeh qiladi: ya'ni yurtdan ketgan har bir kishini ham Furqat deb bo'lmaydi. Vatanini sotib ketganlar qancha, undan kechib ketganlar qancha... Biroq Furqat qismati butunlay boshqacha kechgan. U o'z ixtiyori bilan yurtini tark etmagan, agar shunday bo'lganida, shoir "Alamli qumriman, bir gulbadandin ayrilib qoldim" [4, 122], deya Vatan firog'ida oh-u afg'on chekmasdi. Shuning uchun ham Sirojiddin Sayyid yuqoridagi hayotiy fikrlarini Furqat nomini talmeh qilish bilan dalillaydi.

Xurshid Davronning "Ey, tilim, ey, ey elim, ey, ona tuproq" nomli sonetlar turkumidagi bir she'r "Furqat" deb nomlanadi. Bu sonetni ham monolog deyish mumkin:

*Men shuur deganim ekan jar koni,*
*Qo'l cho'zdim, itardi "sart" deb ko'ksimdan.*
*Istibdod bor nurni ichdi ko'zimdan –*
*Furqat – bu umrning qora kalomi.*
*Adashgan it kabi zahil tonglarda,*
*Kezdim quvonchlarsiz, hasrat-alamsiz.*
*Vatan – quvonch emas... Yorug' dunyoda,*
*Yashab bo'lmas ekan ammo Vatansiz [6, 65-66].*

Bu she'rni ham Abdulla Oripov g'azalining mantiqiy davomi deyish mumkin. Furqat juda murakkab zamonda yashab, ijod etdi. U rus istibdodidan ozor chekdi, chorizmning o'zbek xalqini "sart" deya kamsitganini ko'rdi, bundan qalbi vayron bo'ldi. Shoir tilidan aytilayotgan dardli so'zlar ko'z o'ngimizda erk va ma'rifat uchun kurashgan isyonkor shoirni namoyon etadi. "Furqat" so'zining ayriliq degan ma'nosi inobatga olinsa, Xurshid Davron uning Vatan hijronida kechgan hayotini "qora kalom" istiorasi orqali ta'sirchan ifoda etgan. Keyingi band Furqatning "Adashgan it kabi Furqat qayon borgum, bilolmasman" satrini yodga soladi. "Adashgan it" – Furqatning o'zi. Qolaversa, yurtdan yiroqdagi shoirning bitta haqiqatni: Vatansiz yashash mushkulligini anglab yetganligi bilan bog'liq iqrorlari ham Xurshid Davronning Furqat qismatining og'riqli nuqtasini xoslisona ifoda etganligini ko'rsatadi.

Umuman, zamonaviy o'zbek she'riyatida Furqat nomi Vatan mavzusidagi she'rlarda talmeh qilib keltirilgan va u haqda bir qator she'rlar yozilgan. Bu esa Vatan hijronida umri kechgan, biroq undan ko'ngil uzolmagan, sog'inchlarini baytlari orqali do'st-u yor, yaqinlariga yetkazib turgan Furqat shaxsiyati va ijodi hamisha adabiyot ahli e'tiborida bo'lganligini ko'rsatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/nurboy-jabborov-kongil-ganjinasidagi-haqiqat/

2. Воҳидов Э. Сайланма: 2 жилдлик. 1-ж. Муҳаббатнома: Шеърлар, достонлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 528 б.

3. https://uzhurriyat.uz/2022/05/26/vatan-qolar-ekan-vatan-abadiy/

4. Фурқат. Муҳаббат йўлида. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 302 б.

5. Орипов А. Ишонч кўприклари: Шеърлар, таржималар, драматик достон. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. –240 б.

6. Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин. – Т.: Шарқ, 1997. – 224 б.

**UO'K: 821.512.133.0:81'373.21**

# BADIIY ASAR XRONOTOPI TADQIQIDA ONOMASTIK BIRLIKLARNING AHAMIYATI (TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI MISOLIDA)

***Sh.F.To'xtayev, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida qo'llangan onomastik birliklarning badiiy asar xronotopini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan toponimlar, antroponimlar, gidronimlar va boshqa nom birliklari orqali makon va zamon uyg'unligi, tarixiy va ijtimoiy kontekstning ifodalanishi yoritiladi. Tadqiqot natijasida onomastik birliklar nafaqat nominativ, balki semantik va ideologik yuk tashuvchi vosita ekanligi aniqlanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *xronotop, onomastika, toponim, antroponim, Tog'ay Murod, badiiy makon, badiiy zamon.*

***Annotation.*** *This article analyzes the role of onomastic units in shaping the chronotope of the literary work based on Togay Murad's novel "Fields Left by My Father". The study focuses on toponyms, anthroponyms, and hydronyms that reflect the unity of time and space, as well as historical and social context. It is concluded that onomastic units serve not only as nominative elements but also as semantic and ideological tools.*

***Keywords:*** *chronotope, onomastics, toponym, anthroponym, Togay Murad, artistic space, artistic time.*

***Аннотация.*** *В статье рассматривается роль ономастических единиц в формировании хронотопа художественного произведения на примере романа Тогая Мурада «Поля, оставшиеся от отца». Анализируются топонимы, антропонимы и гидронимы, отражающие единство времени и пространства, а также историко-социальный контекст. Делается вывод о том, что ономастические единицы выполняют не только номинативную, но и семантическую и идеологическую функции.*

***Ключевые слова:*** *хронотоп, ономастика, топоним, антропоним, Тогай Мурад, художественное пространство, художественное время.*

**Kirish.** Badiiy asarda makon va zamonning o'zaro uyg'unligi xronotop tushunchasi orqali izohlanadi. Xronotop nazariyasi adabiyotshunoslikka rus olimi M.M.Baxtin tomonidan olib kirilgan bo'lib, u badiiy matnda vaqt va makonning ajralmas birligini anglatadi. Olim ta'biri bilan aytganda "Adabiyotda real tarixiy vaqt va makon hamda ular doirasida namoyon bo'ladigan real tarixiy shaxsni badiiy o'zlashtirish jarayoni murakkab va uzilishlar bilan kechgan. Insoniyat taraqqiyotining muayyan tarixiy bosqichida anglash mumkin bo'lgan vaqt va makonning alohida jihatlari bosqichma-bosqich o'zlashtirildi. Shu bilan birga, voqelikning o'zlashtirilgan tomonlarini aks ettirish va badiiy qayta ishlashga xizmat qiluvchi tegishli janriy usullar ham shakllandi" [1:235]. Ushbu birlikni shakllantirishda til vositalari, xususan, onomastik birliklar muhim rol o'ynaydi. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani o'zbek xalqining tarixiy taqdiri, ijtimoiy hayoti va ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi muhim asarlardan biridir. Asarda qo'llangan nomlar tizimi (toponimlar, antroponimlar, gidronimlar va boshqalar) badiiy makon va zamonni aniqlashtirib, xronotopni jonlantiradi. Zero, "Inson nomlari jamiyatda ko'p qirrali, mas'uliyatli va o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vazifani bajaradi" [4:4].

**Adabiyotlar tahlili.** Badiiy asarda xronotop va onomastik birliklarning o‘rni masalasi adabiyotshunoslikda muhim nazariy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xronotop tushunchasi ilk bor rus adabiyotshunosi Mixail Baxtin tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u badiiy matnda makon va zamonning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ifodalaydi. Olimning fikricha, har bir badiiy asarda vaqt va makon bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi va ular orqali asarning semantik strukturasini anglash mumkin. “Badiiy matn murakkab tuzilgan ma’no tizimidir. Undagi barcha elementlar ma’no yukini tashuvchi birliklardir” [2:19]. Ushbu fikrga onomastic birliklar ham misol bo`la oladi. Onomastika masalalari esa tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganiladi. Bu borada rus olimlari Vladimir Superanskaya va Alexander Reformatsky tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular onomastik birliklarning nominativ funksiyasi bilan birga, ularning semantik, stilistik va madaniy yuklamasini ham asoslab berganlar.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham xronotop va nomlar tizimini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Ozod Sharafiddinov va Naim Karimov asarlarida badiiy matnning strukturaviy va semantik tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida onomastika masalalarini o‘rganishda Eshmamat Qilichev va boshqa olimlarning ishlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tog‘ay Murod ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda asosan yozuvchining milliy ruh, tarixiy xotira va ijtimoiy muammolarni aks ettirishdagi mahorati tahlil qilingan. Biroq “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi onomastik birliklarning xronotop bilan bog‘liq holda kompleks tahlili yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi onomastik birliklarning badiiy xronotopni shakllantirishdagi o‘rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, sistemali-strukturaviy metod asosida asardagi onomastik birliklar (toponimlar, antroponimlar, gidronimlar va boshqalar) tasniflandi va ularning o‘zaro aloqadorligi aniqlashtirildi. Bu metod yordamida nomlar tizimi yagona semantik maydon sifatida ko‘rib chiqildi.

Ikkinchidan, semantik-stilistik tahlil metodi qo‘llanilib, har bir onomastik birlikning badiiy yuklamasi, konnotativ ma’nosi va ideologik funksiyasi ochib berildi. Xususan, toponimlarning makon yaratishdagi, antroponimlarning ijtimoiy qatlamlarni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilindi.

Uchinchidan, xronotopik yondashuv asosida makon va zamon birliklarining o‘zaro uyg‘unligi o‘rganildi. Bu metod Mikhail Bakhtin nazariyasiga tayangan holda amalga oshirildi va onomastik birliklarning vaqt-makon koordinatalarini belgilashdagi roli aniqlashtirildi.

To‘rtinchidan, tadqiqotda kontekstual tahlil usuli qo‘llanilib, har bir nomning matndagi konkret qo‘llanish holati va uning umumiy mazmun bilan bog‘liqligi o‘rganildi. Bu esa onomastik birliklarning faqat nominativ emas, balki badiiy-estetik funksiyasini ham aniqlash imkonini berdi. Natijada, qo‘llangan metodlar majmui asosida “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi onomastik tizim badiiy xronotopni shakllantiruvchi muhim komponent sifatida talqin qilindi.

**Asosiy qism.** Asardagi onomastik birliklarni quyidagicha guruhlash mumkin.

**I.** Toponimlarning xronotop yaratishdagi o‘rni**.** Asarda uchraydigan Farg‘ona, Qo‘qon, Buxoro, Toshkent, Xiva, Surxon, Denov, Dushanba, Samara, Saratov, Shvetsiya, AQSH kabi toponimlar badiiy makonni kengaytirib, voqealar geografiyasini belgilaydi. Bu joy nomlari ikki asosiy funksiyani bajaradi:

***1.*** Real makonni ifodalash: masalan, Farg‘ona vodiysi yoki Surxon vohasi orqali milliy muhit yaratiladi.

***2.*** Tarixiy makonni kengaytirish: Samara, Saratov, Leningrad kabi nomlar orqali sovet davri repressiyalari va migratsiya jarayonlari aks ettiriladi.

Shuningdek, Sayrak qishlog‘i, Yormozor, Xo‘jasoat kabi mikrotoponimlar lokal xronotopni yaratadi. Bu nomlar orqali asardagi voqealar aniq bir hududga “mahkamlanadi”, natijada realizm kuchayadi. Bundan tashqari, O‘rusiya, Chor Rossiyasi, Afg‘oniston, Turkuston kabi nomlar tarixiy-siyosiy kontekstni ifodalab, makon bilan birga zamonni ham belgilaydi.

**II.** Antroponimlarning semantik va ideologik yuklamasi. Asardagi kishi ismlari (antroponimlar) xronotopni nafaqat makoniy, balki ijtimoiy va ideologik jihatdan ham boyitadi. Masalan: Jamoliddin, Salohiddin, Zulayho, Oysuluv kabi ismlar milliy ruhni aks ettirsa, Skobelev, Vishnegorodskiy, Ostroumov, Lenin, Krupskaya, Frunze, Brejnev kabi nomlar esa mustamlakachilik va sovet mafkurasini ifodalaydi.

Bu qarama-qarshilik orqali asarda ikki xil dunyo — milliy va mustamlakachi tizim to‘qnashuvi yuzaga keladi. Shuningdek, laqab va unvonlar (masalan, “bo‘yrachi”, “mingboshi”, “qo‘rboshi”, “mudir”) ijtimoiy qatlamlarni ko‘rsatadi. Bu esa xronotopning ijtimoiy o‘lchamini kengaytiradi. Zero, “Shaxs ismi uning muayyan ijtimoiy muhitga mansubligini bildiruvchi o‘ziga xos belgidir” [4:20].

**III.** Gidronim va tabiiy obyekt nomlarining badiiy funksiyasi. Chirchiq, Amudaryo, Qizilsuv, Anbarsoy kabi gidronimlar asarda tabiat va inson o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi. Bu nomlar makonning tabiiy xaritasini yaratadi; voqealarning ekologik va iqtisodiy asosini ochib beradi; qishloq hayotining realistik tasvirini kuchaytiradi. Masalan, Amudaryo nafaqat daryo nomi, balki hayot manbai va tarixiy ramz sifatida ham talqin qilinadi.

**IV.** Kimyoviy nomlar va sovet davri xronotopi. Asarda uchraydigan kaliy, fosfor, gerbitsid, geksaxlorin, “B-58” kabi kimyoviy nomlar oddiy termin emas, balki sovet agrar siyosatining belgisi sifatida xizmat qiladi. Bu birliklar orqali: sun’iy ravishda o‘zgartirilgan qishloq xo‘jaligi, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilishi, majburiy mehnat va paxta siyosati ochib beriladi. Demak, kimyoviy onomastika ham xronotopning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

**V.** Aralash nomlar va ideologik makon. Asarda “Ulug‘ Oktabr sotsialistik revolutsiyasi”, “Ulug‘ Vatan urushi”, “Pravda” gazetasi, “Sovet O‘zbekistoni” kabi nomlar ideologik makonni yaratadi. Shuningdek: “Jon Dir” firmasi – global iqtisodiy aloqalarni, samolyot nomlari (AN-2, Yak-12) – texnologik taraqqiyotni, diniy birliklar (Islom dini, peshin namozi) – ma’naviy makonni ifodalaydi. Bu qatlamlar birgalikda murakkab, ko‘p qatlamli xronotopni yuzaga keltiradi.

**Xulosa.** Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida onomastik birliklar badiiy xronotopni shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, toponimlar makonning geografik va tarixiy chegaralarini belgilaydi, antroponimlar ijtimoiy va ideologik qatlamlarni ochib beradi, gidronimlar tabiat va inson munosabatini aks ettiradi, kimyoviy va aralash nomlar esa davr ruhini ifodalaydi. Rus olimi V.A.Nikonovning “Имя и общество” (Nom va jamiyat) kitobida: “Antroponimiya boshqa fanlar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi”, — deyilgan [4:6]. Bu fanlar qatorida adabiyotshunoslik fani ham turadi, xususan, xronotoplar tadqiqida onomastika, jumladan uning tarkibi bo‘lmish antroponimiya ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, onomastik birliklar badiiy matnda faqat nomlash vositasi emas, balki xronotopni tashkil etuvchi muhim semantik tizimdir. Ular orqali asarning vaqt-makon modeli, tarixiy xotira va milliy ong ifodalanadi. Xulosa qilib aytganda, onomastik birliklar badiiy asarda xronotopni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ay Murod asarlari misolida ko‘rish mumkinki, antroponim va toponimlar orqali makon va zamon konkretlashadi, milliy kolorit kuchayadi va qahramon xarakteri chuqur ochiladi. Shu sababli onomastik tahlil xronotop tadqiqining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilishi zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:**

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. // Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. — М.: Худож. лит., 1975. — С.234-407
2. Лотман Ю. М. Структура художественною текста. — М.: «Искусство», 1970.
3. Мурод Т. Отамдан қолган далалар. Роман. – Тошкент: Шарқ, 1994.
4. Никонов В.А. Имя и общество.— М.: «НАУКА» , 1974

UDC 81-27; 811.111; 811.512.133; 808.2

# LEXICAL INNOVATION IN CONTEMPORARY ENGLISH AND UZBEK ONLINE MEDIA LANGUAGE: A CORPUS-BASED COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS

***S.Sh.Toshtemirova, Researcher, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denau***
***M.S.Sobirjonova, acting associate professor, PhD, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Denau***

***Annotatsiya.*** *Raqamli kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi zamonaviy media tilida leksik innovatsiyalar jarayonini sezilarli darajada jadallashtirdi. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek ommaviy axborot vositalari tilidagi leksik innovatsiyalarni so'z yasalish usullari hamda ularning kommunikativ funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish asosida o'rganadi. Tadqiqotning maqsadi leksik innovatsiyalarning asosiy mexanizmlarini aniqlash, ularning media diskursidagi funksiyalarini tahlil qilish va ikki tildagi qo'llanish xususiyatlarini qiyoslashdan iborat. Tadqiqot sifat tahliliga asoslangan qiyosiy yondashuvni qo'llaydi hamda tahlil uchun yetakchi ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalari (BBC News, CNN va The Guardian) hamda o'zbek internet nashrlari (Kun.uz, Gazeta.uz va Daryo.uz) materiallaridan to'plangan leksik birliklardan foydalaniladi.*

***Kalit so'zlar:*** *leksik innovatsiya, media tili, so'z yasalishi, media diskursi, qiyosiy tilshunoslik, kommunikativ funksiya, so'z yasalish jarayonlari, neologizmlar, o'zbek OAV, ingliz OAV.*

***Аннотация.*** *Стремительное развитие цифровой коммуникации значительно ускорило процессы лексических инноваций в современном языке средств массовой информации. В данном исследовании рассматриваются лексические инновации в английских и узбекских СМИ на основе сравнительного анализа способов словообразования и их коммуникативных функций. Цель исследования – выявить основные механизмы лексических инноваций, определить их функции в медиадискурсе и сопоставить особенности их использования в двух языках. Исследование основано на качественном сравнительном анализе лексических единиц, собранных из ведущих англоязычных средств массовой информации (BBC News, CNN и The Guardian), а также узбекских интернет-изданий (Kun.uz, Gazeta.uz и Daryo.uz).*

***Ключевые слова:*** *лексическая инновация, язык средств массовой информации, словообразование, медиадискурс, сравнительное языкознание, коммуникативная функция, способы словообразования, неологизмы, узбекские СМИ, английские СМИ.*

***Abstract.*** *The rapid development of digital communication has accelerated lexical innovation in contemporary media language. This study investigates lexical innovation in English and Uzbek media through a comparative analysis of word-formation processes and communicative functions. It aims to identify the principal mechanisms of lexical innovation, examine their functions in media discourse, and compare their use across the two languages. The study adopts a qualitative comparative approach based on lexical items collected from leading English-language media (BBC News, CNN, and The Guardian) and Uzbek online news platforms (Kun.uz, Gazeta.uz, and Daryo.uz).*

***Key words:*** *lexical innovation, media language, word formation, media discourse, comparative linguistics, communicative function, word-formation processes, neologisms, Uzbek media, English media.*

The rapid development of digital communication has significantly influenced the transformation of the linguistic landscape in current media. New lexical items are being created, disseminated, and adopted across different languages due to multimedia communication, online news platforms, and social networking services. These processes have made media language the most dynamic domain in lexical innovation.

Lexical innovation means the emergence, adaptation, and diffusion of lexical items or new meanings of existing words in accordance with technological, social, cultural, and political developments. It includes various linguistic processes such as blending, clipping, compounding, borrowing, derivation, formation of acronyms, and semantic extension. Immediate digital communication and global circulation of information have accelerated the pace of these processes in the contemporary media environment.

Previous studies mostly focused on the semantic, morphological, and sociolinguistic sides of lexical innovation. Lexical innovation is considered a natural phenomenon during language evaluation. The primary mechanism for new lexical items is word formation processes like blending, derivation, compounding, clipping, and so on. Online media plays an important role in the acceleration of lexical change, and Crystal believes that the Internet and digital communication have considerably increased the speed and global dissemination of neologisms[1].

Existing studies lack cross-linguistic analyses involving Uzbek, and comparative investigations of how innovative lexical units function across different cultural and linguistic environments remain insufficient. This is why comprehensive comparative lexical innovation analyses need to be investigated across universal tendencies and language-specific features of lexical development in digital communication in contemporary English and Uzbek media discourse.

Lexical innovation has been addressed from different theoretical perspectives by different scholars. Bauer defines it as the outcome of productive word formation processes. Likewise, Hohenhaus focused on not only the emergence but also the assignment of new meaning to new lexical units in response to changing communicative needs. Moreover, lexical innovation is closely related to neologisms, as Crystal pointed out, neologisms appear when there is no existing vocabulary to express new concepts, technologies, and social practices. Emerging new lexical units are not only an expansion of the vocabulary system but also a means of facilitating communication about new concepts and experiences. As a result, the study of lexical innovation in media linguistics and discourse studies has become an important field of modern linguistics[5].

The constant expansion of the media vocabulary is mainly driven by productive word-formation processes. Derivation is one of the most productive mechanisms by which new lexical items are created by adding suffixes or prefixes to existing word stems. Mostly nouns, verbs, and adjectives are produced through this process, like in the words "globalize", "monetization", "misinformation", and "digitalized".

Compounding is also a highly productive process that combines two or more units into a single expression. Frequently used examples of such words are "fact-checking", "cybersecurity", "clickbait", and "crowdfunding". Such kind of words convey complex concepts suitable for media communication while maintaining semantic transparency.

Blended words have become increasingly popular in digital communication as they are short, expressive, and easy to remember. Blending is merging parts of two existing words, like "webinar" (web + seminar), "infodemic" (information + epidemic), and "netizen" (net + citizen)[3].

Media language also expands with borrowed words, especially from English, as it has become a dominant language of global technologies and digital communication. Borrowing often occurs with minimal phonological and orthographic adaptation. Lexical items such as "blog", "podcast", "startup", "influencer", and "streaming" have entered numerous languages, including Uzbek.

Other mechanisms of lexical innovation include conversion, acronym formation, semantic shift, and clipping. Conversion is changing a word's category without altering its form, like "massage" to "to massage", "google" to "to google". Acronyms and initialisms facilitate efficient communication in contemporary media with words such as "AI", "COVID", and "FAQ". In semantic shift, existing words require new meaning, such as "cloud", "follow", "friend", and "viral". Clipping is shortening existing lexical items, as in "application" to "app", "demonstration" to "demo".

All the above-mentioned word-formation processes demonstrate that evolving communication practices, driven by technological advances, require new lexical units in media language as a systematic response rather than a random phenomenon.

Earlier studies primarily focused on identifying the structural characteristics of neologisms and explaining the morphological processes through which new lexical items are formed. Bauer and Crystal established the theoretical foundations of lexical innovation by demonstrating that language continuously adapts to technological, cultural, and social change through productive word-formation mechanisms[1].

Recent studies have shifted their focus to digital media as a main source of lexical innovation. Würschinger demonstrated that social media and web-based communication significantly accelerate

the emergence and diffusion of neologisms. His findings indicate that lexical innovation is influenced not only by morphological productivity but also by the speed of information exchange and the interactive nature of digital communication.

Recent empirical research has further confirmed the strong relationship between social media use and lexical innovation. Hashmi found that digital platforms facilitate the rapid creation, adoption, and normalization of innovative lexical units across different speech communities. The study emphasized that social media users actively participate in lexical innovation rather than merely adopting newly created expressions.

Despite previous research, comparative studies of lexical innovation in English and Uzbek media language remain scarce. Existing studies mainly examine either word formation or communicative functions, indicating the need for a more integrated analysis[2].

The analysis of the selected English and Uzbek media corpus revealed that lexical innovation is a prominent feature of contemporary media discourse. Innovative lexical items were identified across all thematic categories, particularly in news related to technology, artificial intelligence, economics, politics, and environmental issues. These innovations reflect the dynamic nature of media language and its ability to respond rapidly to social and technological developments.

The collected lexical items were classified according to their word-formation processes, including borrowing, compounding, blending, derivation, acronym formation, and semantic shift. Among these categories, borrowing emerged as one of the most frequently observed processes in both English and Uzbek media language. This finding reflects the global circulation of technological and scientific terminology, much of which originates in English before entering other languages.

Compounding and blending were particularly productive in English media, where journalists frequently employed concise lexical forms to express newly emerging concepts. In contrast, Uzbek media demonstrated a greater tendency to adopt internationally established lexical items through borrowing while simultaneously adapting them to Uzbek phonological and orthographic conventions. This pattern illustrates the interaction between global lexical influence and local linguistic adaptation[6].

Despite these contributions, the study has certain limitations. The analysis was restricted to a selected corpus of English and Uzbek online news articles published during the specified period. Future research may expand the corpus by including social media platforms, blogs, television news, or additional languages to provide a broader understanding of lexical innovation across different media environments.

**REFERENCES:**

1. Aitchison J. Language Change: Progress or Decay? (4th ed.). Cambridge University Press. 2013.

2. Crystal David. Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge. 2011.

3. Jamolovna I. M. Fransuz matbuotida frazeologik birliklarning ishlatilishi //Grail of science. – 2021.

4. Qayumova M. M., Sobirjonova M. S., Saidov F. Q. Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 494-498.

5. Sobirjonova M. Psychological, social, and existential aspects of the phenomenon of loneliness //scienceproblems. UZ Учредители: ООО "Scienceproblems team". – 2024. – Т. 4. – №. 12. – С. 328-331.

6. Würschinger Q. Lexical Innovation on the Web and Social Media. Ludwig-Maximilians-Universität München. 2022.

**UO'K 81'23**

## MORFOLOGIK DERIVATSIYANING KOGNITIV MEXANIZMLARI: KONSEPTUALIZATSIYA VA KATEGORIYALASHUV MASALALARI

***N.A. Turdiyeva, mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada morfologik derivatsiyaning asosini tashkil etuvchi kognitiv mexanizmlar, xususan, kontseptualizatsiya va tasniflashga urg'u berilgan holda o'rganiladi. Maqolada derivatsiya morfemalari nafaqat so'z yasashga, balki kontseptual bilimlarni tashkil etishga ham qanday hissa qo'shishi o'rganiladi. Maqolada Charlz Dikkens, Jeyn Ostin, Oliver Twist, J.K. Roul kabi mashhur ingliz yozuvchilarning asarlaridan maqolaga doir misollar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *morfologik derivatsiya, kognitiv lingvistika, kontseptualizatsiya, tasniflash, derivatsiya affikslari, bilish.*

***Аннотация.*** *В данной статье рассматриваются когнитивные механизмы, лежащие в основе морфологического словообразования, с особым акцентом на концептуализацию и классификацию. В статье исследуется, как словообразовательные морфемы способствуют не только словообразованию, но и организации концептуальных знаний. Приводятся соответствующие примеры из произведений известных английских писателей, таких как Чарльз Диккенс, Джейн Остин, Оливер Твист и Дж. К. Роулинг.*

***Ключевые слова:*** *морфологическая деривация, когнитивная лингвистика, концептуализация, категоризация, деривационные аффиксы, познание.*

***Abstract.*** *This article examines the cognitive mechanisms underlying morphological derivation, with particular emphasis on conceptualization and classification. The article examines how derivational morphemes contribute not only to word formation but also to the organization of conceptual knowledge. The article provides relevant examples from the works of famous English writers such as Charles Dickens, Jane Austen, Oliver Twist, and J. K. Rowling.*

***Key words:*** *morphological derivation, cognitive linguistics, conceptualization, categorization, derivational affixes, cognition.*

**Kirish.** Morfologik derivatsiya tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lib, mavjud so'zlarga prefiks va suffikslar qo'shish orqali yangi leksik birliklar hosil qilish jarayonini anglatadi. An'anaviy tilshunoslikda derivatsiya asosan so'z yasalish vositasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy kognitiv tilshunoslikda u inson tafakkuri va bilimlarni tashkil etish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq hodisa sifatida o'rganiladi. Bu jarayonda so'z yasovchi affikslar shunchaki shakliy elementlar sifatida emas, balki muayyan tushunchalar va tajribalarni konseptuallashtiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, derivatsiya hodisasi til tizimidagi leksik boylikni oshirish bilan birga, o'zga olam va inson tajribasini til qoliplariga solishdagi mental operatsiyalar tizimini ham ochib beradi.

Another important finding is that Verne's novels are filled with technological innovations. Technology plays an important role as a means to convey human creativity and scientific thought. In Twenty Thousand Leagues under the Seas, Verne describes the Nautilus, one of the most successful technological innovations created by Verne. It is necessary to note that such a submarine was not available to humans at the time of the novel's publication and would not be realized for about a century after publication. However, the extensive use of science in the description of the Nautilus makes it seem plausible and real. Another example of the author's fascination with technology can be found in The Mysterious Island , where stranded survivors manage to create various machines and tools in their everyday lives. This proves that Verne did not see technology as something that only science fiction novels could use but instead regarded it as a product of human thinking that could be applied in every sphere of life [4].

The analysis also reveals how Verne's novels feature exploration as an embodiment of scientific curiosity and the need for knowledge. The characters in his stories are portrayed as making adventures to satisfy their desire for knowledge and contribute to the scientific growth of society. For example, in the Journey to the Centre of the Earth, Professor Lidenbrock embarks on an expedition to the center of the earth, which demonstrates his perseverance and enthusiasm for science. Similarly, in the Twenty Thousand Leagues under the Seas, Professor Aronnax undergoes an adventure to explore the depths of the world's oceans to develop an extensive encyclopedia of the underwater world and marine biology. In turn, From the Earth to the Moon features a race between nations to achieve the ultimate technological feat. In all the three stories, the author emphasizes the importance of observation, experimentation, measurement, and recording results as aspects of scientific research. These elements are critical in Verne's works, illustrating the significance of adventure and the thirst for knowledge and discovery that motivate his characters in their endeavors[5].

The results of the study highlight the essential role of scientific imagination in Verne's works. It has been found that his heroes are characterized by their vast scientific knowledge, high intellect, and exceptional problem-solving abilities. These qualities, along with courage, determination, and curiosity, enable them to overcome numerous challenges and find a way out of the most desperate situations. Moreover, in all the listed works, the authors' characters are described as rational and calm, regardless of the seeming impossibility of the tasks they are faced with. The analysis also shows that Verne always combines scientific knowledge with human qualities, portraying his heroes as caring and conscientious people who devote their lives to exploring the world and benefiting humanity. Thus, the identified traits are essential for the characters and, in fact, highlight their outstanding scientific qualities[6].

Altogether, this study demonstrated that scientific imagination was the hallmark of Verne's writings, influencing the plot structure and emphasizing the role of human curiosity, intellect, and creativity. Through his fictional works, Verne demonstrated how scientific progress could be beneficial to humanity and how it could shape and transform people's lives. The current research revealed the impact of Verne's imagination on the readers, writers, and researchers, as well as the ongoing significance of his writings in science, society, and literature in general.

**REFERENCES:**

1. Arthur B. E. *Jules Verne Rediscovered: Didacticism and the Scientific Novel*. Greenwood Press. 2005.

2. Butcher W. *Jules Verne: The Definitive Biography*. Thunder's Mouth Press. 2006.

3. Compère D. *Jules Verne: Enchanted Explorations*. Liverpool University Press. 2010.

4. Evans A. B. The scientific and technological imagination of Jules Verne. *Science Fiction Studies, 25*(2), 1998. – P. 241–262.

5. Evans A. B. *Jules Verne's Science Fiction: Theoretical Essays*. Liverpool University Press. 2005.

6. Freedman C. *Critical Theory and Science Fiction.* Wesleyan University Press. 2000.

7. Haynes R. *From Faust to Strangelove: Representations of the Scientist in Western Literature*. Johns Hopkins University Press. 1994.

UO’K 81-27; 811.512.133; 398.3

# TO‘Y BILAN BOG‘LIQ LEKSIK VOSITALARNING MORFOLOGIK TAHLIL ORQALI MILLIY VA MADANIY XUSUSIYATLARNI ANIQLASH

***L.Uzakova, katta o‘qituvchi, PhD, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, Farg'ona***

***Annotatsiya****. Mazkur maqolada to‘y marosimi bilan bog‘liq leksik birliklarning morfologik xususiyatlari hamda ularning lingvomadaniy tabiati tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida to‘y leksikasining leksik-semantik va morfologik jihatdan shakllanish qonuniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, turli tizimli tillardagi morfologik modellarning nafaqat grammatik strukturani, balki ijtimoiy iyerarxiya, madaniy qadriyatlar va marosimlarda aks etuvchi milliy dunyoqarashni ham ifodalash xususiyati alohida asoslab berilgan.*

***Kalit so‘zlari:*** *to‘y, morfologik tahlil, leksik birliklar, til, milliy, madaniyat*

***Аннотация.*** *В данной статье исследуются морфологические характеристики лексических единиц, связанных со свадебным обрядом, а также их лингвокультурологическая природа. В ходе исследования проанализированы закономерности лексико-семантического и морфологического формирования свадебной лексики. Кроме того, особо обосновано, что морфологические модели в разносистемных языках отражают не только грамматическую структуру, но и социальную иерархию, культурные ценности и национальное мировоззрение, проявляющееся в обрядовых традициях.*

***Ключевые слова:*** *свадьба, морфологический анализ, лексические единицы, язык, национальный, культура.*

***Abstract.*** *This article investigates the morphological characteristics of lexical units associated with wedding ceremonies and explores their linguacultural nature. The study analyzes the patterns of lexical-semantic and morphological formation within wedding lexis. Furthermore, it substantiates that morphological models in languages of different systems reflect not only the grammatical structure but also the social hierarchy, cultural values, and the national worldview manifested through ceremonial traditions.*

***Key words:*** *wedding, morphological analysis, lexical units, language, national, culture.*

**Kirish.** Dunyo tillaridagi lingvistik tuzilma va tizimlarning morfologik xilma-xilligi inson muloqotining murakkab, ko‘p qatlamli, milliy va madaniy xususiyatlarini hamda uning dinamik tabiatini aks ettiruvchi muhim lingvokognitiv hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. So‘z leksik-ma’noviy va morfologik jihatdan tahlil etilganda, u tilshunoslik nuqtai nazardan, muayyan kontekst yoki nutq tizimi doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi eng kichik til birligi sifatida izohlanadi. Boshqa tomondan esa, ayrim tilshunoslik paradigmalari uni gap strukturasidan tashqarida, ya’ni mustaqil holda tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi[1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** A.Smirnitskiy leksik vositalarning morfologik tahlilning milliy va madaniy aniqlanishi uchun ikki muhim mezon mavjudligini ta’kidlaydi: birinchidan, u nafaqat tovush shakliga, balki ma’noga ham ega bo‘lishi kerak; ikkinchidan, bu birlik nutqda bevosita yaratilmasdan, avvaldan tilda mavjud bo‘lishi va nutqda qayta ishlatilishi lozim deb ta’kidlaydi[2].

Aniqki, A.Smirnitskiy til birligi tushunchasi faqat to‘liq so‘zlar bilan cheklanmay, so‘zning morfologik tuzilishini tashkil etuvchi morfemalarni ham o‘z ichiga olishini aytadi. Bu qarash asosli, chunki so‘z til birligi sifatida nafaqat bitta, ajralmas obyekt sifatida, balki uning tarkibiy qismlari - ya’ni morfemalar shaklida ham xotirada saqlanadi. Shu sababli, kognitiv nuqtai nazardan, so‘z xotirada bir nechta darajada mavjud bo‘ladi: alohida morfologik elementlar sifatida ham, butun bir birlik sifatida ham.

E.Vereshagin va V.Krasnixning qarashlariga ko‘ra, leksika mentalitetni o‘rganishda o‘ziga xos madaniy kod vazifasini o‘taydi. Leksik birliklar turli xalqlarning tafakkur paradigmalari va madaniy-tipologik jihatlarini anglash imkonini berib, jamiyatning tarixiy tajribasi, konseptual dunyo manzarasi hamda lingvomadaniy qadriyatlari tizimini tavsiflovchi muhim obyekt sifatida namoyon bo‘ladi[3].

Millatning til kompetensiyasi muayyan kommunikativ ehtiyojlar yuzaga kelganda mazkur lingvistik salohiyatni faollashtirish va nutqiy faoliyatda realizatsiya qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Mazkur jarayon tildan fikrni shakllantirish, bayon etish va idrok qilish vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu tadqiqotda to‘y leksikasining ana shunday kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanilib, lingvokulturologik, kognitiv hamda struktur-semantik tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqot metodologiyasi komponent tahlil, lingvistik modellashtirish va qiyosiy-tipologik metodlar majmuasiga asoslandi.

**Muhokama va natija.** Shunday qilib, tilni morfologik tahlil orqali milliy va madaniy xususiyatlarini aniqlashdagi ahamiyatini hodisa sifatida talqin etish mumkin; u inson mavjudligining kognitiv va ijtimoiy o‘lchovlarini aks ettiradi.

Masalan, ingliz, rus va o‘zbek tillarida ham o‘zak va affiks morfemalar mustaqil til birliklari sifatida talqin etilishi mumkin. Ushbu hodisa quyidagi misollar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “She was remarried soon after the family finally reunited for the wedding.”/ “Oila to‘yning o‘ziga yetib nihoyat yana birlashgach, u ko‘p o‘tmay yana turmushga chiqdi.” (J.Austen “Pride and Prejudice”[4]) Keltirilgan misolda re- prefiksi ikki marta takrorlanib (re-married, re-united), “yana, qayta” ma'nosini mustaqil tarzda yuklayapti. Garchi re- mustaqil so‘z bo‘lmasa-da, takrorlanishi orqali semantik jihatdan ajralib turadi. Shu bilan birga, to‘y kontekstida re-married va re-united so‘zlari prefiksning o‘z mustaqil ma'noga ega ekanini kuchli sezdiradi va quydagicha yasalgan: re- + married /“qayta turmush qurgan”, re- + united / “yana birlashgan”.

Rus badiiy adabiyotidan misolni ko‘rib chiqamiz masalan, “В день свадьбы она была не готова скрывать свои чувства и не желала притворяться.” / “To‘y kuni u o‘z his-tuyg‘ularini yashirishga tayyor emas edi va o‘zini boshqacha ko‘rsatishni istamadi.” (А.Пушкин “Евгений Онегин”)[5] Berilgan misolda не morfemasi to‘yga aloqador leksikasida ikki marta qo‘llanib, inkor etishning mustaqil ma'no yuklovchi elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yana, не bir vaqtning o‘zida so‘z va inkor affiksi sifatida ishlatiladi. Takroriy qo‘llanish uning semantik mustaqilligini kuchaytiradi: не готова/ “tayyor emas”, не желала/ “istamadi / xohlamadi”.

Quyidagi misollar o‘zbek yozuvchilarining to‘yga oid leksik vositalar ishlatilgan matnlaridan olingan bo‘lib, unda affikslarning mustaqil ma'no yuklashi aniq namoyon bo‘ladi. Masalan, “To‘yga kelganlar orasida Hasanali ham bor edi.” (A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”[6]) Misol tariqasida -gan bu yerda “kelganlar” birikmasida tugallanganlik va ishtagina qatnashganlik ma'nosini mustaqil ravishda beradi. O‘zbek to‘y kontekstida kelganlar atamasi an'anaviy to‘y mehmonlarini ifodalaydi; -gan esa o‘zakdan semantik jihatdan ajralib, voqea tugallanganini bildiradi. Demak, ushbu misol yuqoridagi qoida - morfemaning semantik va uslubiy ahamiyatni kengaytirishining yorqin dalilidir.

Yana misol ko‘rib chiqamiz, “Yosh kelin kirib kelayotganda, butun hovli jim bo‘lib qoldi.”(Said Ahmad “Ufq”[7]) Taqdim etilgan misol -ayotgan morfemasi jarayonning davomiyligini mustaqil tarzda ta'kidlaydi. Shuningdek, “kirib kelayotgan kelin” tasviri to‘y marosimning tantanaviy davomiyligini ko‘rsatadi. Morfema o‘zakka shunchaki qo‘shilmaydi, balki voqeaning uslubiy va semantik ahamiyatini kengaytiradi. Yana bir gap, “Onalar Kumushning bu hayqirig‘ini uyalg‘anga yo‘ydilar-da, yana uyga kirib bisot kavlashka, to‘y hozirligini ko‘rishka mashg‘ul bo‘ldilar.” (A.Qodiriy,“O‘tkan kunlar”[8]) Keltirlgan misolning morfologik va lingvokulturologik tahlil natijalar quydagicha: onalar o‘zak ona-lar - ko‘plik affiksi. Berilgan misolda, -lar faqat sonni ko‘rsatmaydi, balki umumlashtirish, jamoaviylik va an'anaviy ongni ifodalaydi. “Onalar” so‘zi orqali individual shaxs emas, balki milliy mentalitetga xos bo‘lgan katta avlod ayollari nazarda tutilgan. Bu esa voqeaga ijtimoiy va madaniy fon beradi. Shuningdek, “uyalg‘anga” o‘zak: uyal-g‘an bu sifatdosh yasovchi affiks: harakatning tugallanganligini bildiradi, voqeani allaqachon sodir bo‘lgan, kuzatilgan hol sifatida taqdim etadi. Qolaversa, uslubiy ta'siri: ayollarning Kumush hayqirig‘ini shunchaki xijolat bo‘lgan holga yo‘yishi, holatni jiddiy emas, uyatchanlik sifatida talqin qilish kayfiyatini beradi. Shu bois, -ga bu kelishik qo‘shimchasi: yo‘yish jarayonining manzilini, ya'ni sababini bildiradi.

Yuqoridagi misolda, semantik kengayish ham mavjud: “hayqiriqning asl ma'nosi emas, balki uyalish sababli yuzaga kelgan deb o‘ylashlarini” bildiradi. Demak, affikslar voqeaning salmog‘ini yengillashtirib, ayollarning noto‘g‘ri talqinini ko‘rsatadi. Masalan, yo‘ydilarda - o‘zak: yo‘y-di bu

o‘tgan zamon va -lar esa ko‘plik, hurmat-shakl -da -yuklama. Alohida ta’kidlash joizki, bu kombinatsiya harakatning oson kechganini, jiddiy qabul qilinmaganini bildiradi va -da yuklamasi orqali voqea murosali, beparvo ohangda berilgan. Affikslar orqali onalarning vaziyatga munosabati yaqqol seziladi. Yana bir jihati shundaki, kavlashka / ko‘rishka leksik birligida o‘zak: kavla-, ko‘r-sh bu fe’l nomi va -ka - jo‘nalish shakli yani shevaga xos. Bu shakllar xalqona, lingvokulturologik ahamiyatga ega bo‘lib, og‘zaki nutqqa xos bo‘lib, voqeaning realistik va milliy ruhda kechayotganini ko‘rsatadi. Affikslar harakatni rasmiy emas, kundalik, odatiy jarayon sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mashg‘ul bo‘ldilar leksik birligida - bo‘l- yordamchi fe’l va -di + -lar. Ushbu birikma harakatning davomiyligi va ongli ravishda bajarilishini ifodalaydi. To‘y hozirligi hayotning tabiiy, ajralmas qismi ekanini anglatadi. Mazkur misolda morfemalar: voqeani oddiy hodisa emas, balki madaniy me’yor asosida talqin etilgan vaziyat sifatida ochib beradi; ishtirokchilarning ijtimoiy roli, munosabati va bahosini ifodalaydi; matnga milliy mentalitet, xalqona ruh va realizm bag‘ishlaydi. Demak, ushbu misol yuqoridagi qoida - morfemaning semantik va uslubiy ahamiyatni kengaytirishining yorqin dalilidir.

Umuman olganda, ingliz, rus va o‘zbek badiiy adabiyotlaridan olingan to‘yga oid misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, prefikslar (re-, не) hamda fe’l qo‘shimchalari (-lar, -g‘an, yo‘y-di) badiiy matnda semantik jihatdan sezilarli darajada mustaqil birlik sifatida namoyon bo‘lib, to‘yga oid leksik vositalarning mazmuniga faol ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, odatda o‘zak morfemalar til tizimida alohida birlik sifatida ishtirok etmasa-da, ayrim hollarda ularning mustaqil qo‘llanishi bu shakllarning so‘zlovchi ongida mustaqil birlik sifatida saqlanib qolishidan dalolat beradi.

Bundan buyon, bizning tadqiqotimizda to‘y leksikasidagi morfologik shakllar orqali ifodalangan madaniy ma’nolarni aniqlash maqsadida o‘zbek va ingliz badiiy adabiyotidan misollar ko‘rib chiqildi hamda morfologik tahlil amalga oshirildi. Misol uchun, “Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko‘b, biroq majlisning borishida tartib yo‘q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to‘lg‘an, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o‘lturadir, kim yig‘lag‘an bolasini ovitish bilan ovora, birav yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining quvonchi ichiga sig‘may xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...”(A.Qodiriy,“O‘tkan kunlar”[9]) Taqdim etilgan misolda, yor-yor leksik vositasi - xalq qo‘shig‘i nomi (to‘y atributi) va onalarcha marosim ijrochisi, rol bildiradi. Madaniy ma’nosi esa to‘yda ma’lum guruhlarning roli an’anaga aylangan shahsni ifodalaydi.

**Xulosa.** Uch til tizimining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, to‘y leksikasi har bir tilning morfologik qurilishi, milliy-madaniy qadriyatlari hamda olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik qatlam hisoblanadi. O‘zbek tilida to‘yga oid leksik birliklar boy morfologik imkoniyatlarga ega bo‘lib, tilning agglyutinativ tabiati madaniy semantikani aniq grammatik formalar orqali ifodalaydi. Rus tili leksikasi esa flektiv qurilishi sababli murakkab grammatik shakllanish xususiyatiga ega bo‘lib, slavyan an’analari bilan uzviy bog‘langan. Ingliz tilida analitik struktura va individualistik madaniyat ustuvorligi sababli marosim atamalari ko‘proq ijtimoiy rollar hamda zamonaviy konseptlar vositasida namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot tillarning tipologik farqlari nafaqat grammatik qurilish, balki to‘y marosimi kabi madaniy-marosimiy tasavvurlarning lisoniy ifodasiga ham bevosita ta’sir qilishini ilmiy asoslaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, turli tizimli tillarda kuzatiladigan morfologik modellar nafaqat tilning grammatik tuzilishini, balki jamiyat ijtimoiy munosabatlari, marosimiy va madaniy qadriyatlarining bevosita in’ikosidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Гялкина-Федорук Е.М. Слово и понятие. – М.: Издательство АН СССР, 1956. – С.54
2. Смирницкий А.И. Объективность существования языка. – М.: Издательство АН СССР, 1954. – С.284
3. Верещагин Е.М., Красных В.В. Язык и культура. М.: Издательство Индрик, 2005. - С.45
4. Austen J. Pride and Prejudice. - Penguin Books: Puffin Classics, 2025. - P.464
5. Пушкин А.С. Евгений Онегин. - АСТ, 2024. - С.352
6. Қодирий А. Ўткан кунлар. - Тошкент: Илм-Зиё-Заковат, 2019. – В.432.
7. Said Ahmad. Ufq. — Toshkent: Turon Zamin, 2024. - B.512
8. Қодирий А. Ўткан кунлар. - Тошкент: Илм-Зиё-Заковат, 2019. – В.27.
9. Қодирий А. Ўткан кунлар. - Тошкент: Илм-Зиё-Заковат, 2019. – В.28.

UO'K 808.5

# PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR", "AVLODLAR DOVONI", "ONA LOCHIN VIDOSI" TARIXIY ROMANLARIDA KONFLIKT TURLARI, YOZUVCHINING KONFLIKT YARATISH MAHORATI

***G.X.Xaydarova, bosh o'qituvchi, O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona akademik litseyi, mustaqil izlanuvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" va "Ona lochin vidosi" tarixiy romanlarida konfliktning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *syujet, badiiy obraz, konflikt, tarixiy shaxs, realizm, temuriy malikalar.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются художественно-эстетические особенности конфликта в исторических романах Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи», «Перевал поколений» и «Прощание матери-соколицы».*

***Ключевые слова:*** *сюжет, художественный образ, конфликт, историческая личность, реализм, тимуридские принцессы.*

***Abstract.*** *This article analyzes the artistic and aesthetic features of conflict in Pirimqul Qodirov's historical novels Starry Nights, The Pass of Generations, and Farewell of the Mother Falcon.*

***Key words:*** *plot, literary image, conflict, historical figure, realism, Timurid princesses.*

O'zbek tarixiy romanchiligi XX asr ikkinchi yarmida yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, Pirimqul Qodirovning ijodi bu yo'nalishda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" kabi asarlarida temuriylar va boburiylar sulolasi vakillarining murakkab taqdirini, ular boshidan kechirgan siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ziddiyatlarni chuqur badiiy tahlil qiladi. Bu romanlar nafaqat tarixiy voqealarning bayoni, balki inson qalbidagi kurash, ayollarning taqdiriga xos fojiaviylik va qahramonlik uyg'unligini o'zida mujassam etgan asarlardir.

Pirimqul Qodirov o'z romanlarida ijtimoiy-siyosiy konflikt bilan bir qatorda shaxslararo va psixologik konfliktlarni ham mahorat bilan uyg'unlashtiradi. Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Mohimbegim, Gulrangbegim kabi malikalar obrazlari orqali muallif davr ziddiyatlarini ayollar taqdiri prizmasidan ko'rsatib beradi. Mavzuning o'rganilganlik darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiyotshunoslikda tarixiy roman janrining nazariy asoslari, xususan, konflikt tipologiyasi masalasi D. Quronov, A. Nosirov kabi olimlarning tadqiqotlarida qisman yoritilgan. Biroq Pirimqul Qodirov ijodidagi konflikt turlarini, xususan, malikalar obrazi misolida, alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

"Yulduzli tunlar" romanida asosiy konflikt Amir Temur vafotidan keyingi taxt talashish, sulola ichidagi hokimiyat kurashi zamirida rivojlanadi. Bu konflikt nafaqat siyosiy, balki umuminsoniy xarakter kasb etadi – chunki yozuvchi hokimiyat uchun kurashning oddiy odamlar hayotiga, ayniqsa ayollar taqdiriga ta'sirini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi.

"Avlodlar dovoni" romanida esa konflikt boburiylar sulolasining Hindistonga ko'chishi, yangi yurtda mustahkamlanish jarayonidagi kurashlar zamirida ochiladi. Bu yerda tarixiy-siyosiy konflikt bilan bir qatorda millatlararo, madaniyatlararo ziddiyat ham muhim o'rin tutadi.

Gavharshodbegim obrazida konflikt uning davlat ishlariga aralashuvi, o'g'illari o'rtasidagi hokimiyat kurashida vositachi rolini o'ynashi bilan bog'liq holda yoritiladi. Muallif bu orqali ayolning ichki dunyosidagi ikkilanish – ona sifatidagi mehr va davlat arbobi sifatidagi qat'iyat o'rtasidagi ziddiyatni mahorat bilan ochib beradi.

Xonzodabegim taqdirida esa shaxsiy erkinlik bilan sulolaviy manfaat o'rtasidagi konflikt yetakchilik qiladi. Uning turmush tarzi, siyosiy nikohlar orqali sulola manfaatlariga xizmat qilishga majbur bo'lishi – davr ayolining fojiasini yorqin ifodalaydi.

Mohimbegim va Gulrangbegim obrazlarida esa saroy ichidagi raqobat, farzandlar taqdiri uchun kurash, ma'naviy yolg'izlik kabi motivlar orqali psixologik konflikt yetakchi o'rin egallaydi. Bu

ayollarning har biri o'ziga xos yo'l bilan davr ziddiyatlariga qarshi kurashadi, biroq ularning taqdiri ko'pincha fojiaviy yakun topadi.

Pirimqul Qodirov mahoratining o'ziga xos jihati shundaki, u tashqi – ijtimoiy-siyosiy konfliktni qahramonning ichki kechinmalari bilan uzviy bog'liq holda tasvirlaydi. Malikalarning qalbidagi kurash – burch va tuyg'u, davlat manfaati va shaxsiy baxt o'rtasidagi ziddiyat – asarlarga chuqur psixologizm baxsh etadi. Bu jihatdan yozuvchi realistik tasvir uslubidan mahorat bilan foydalanadi: tarixiy shaxslar timsolida umuminsoniy tuyg'ular – sevgi, sadoqat, xiyonat, qasos – badiiy jihatdan ishonarli aks etadi. Yozuvchi konfliktni chuqurlashtirishda dialog, ichki monolog, kontrast (qarama-qarshi qo'yish) usullaridan faol foydalanadi. Ayniqsa, malikalarning bir-biri bilan va erkak qahramonlar bilan bo'lgan muloqotlarida ziddiyatlarning kuchayib borishi, keyin esa fojiaviy yechim topishi asarning badiiy pafosini oshiradi. Shuningdek, tarixiy manbalarga tayanish bilan bir qatorda badiiy tasavvur erkinligidan foydalanish yozuvchiga real tarixiy voqealarni badiiy jihatdan boyitish, qahramonlar obrazini yanada jonli va ta'sirchan qilib yaratish imkonini bergan.

Uch romanni qiyosiy tahlil qilganda shuni ko'rish mumkinki, “Yulduzli tunlar”da konflikt asosan sulola ichidagi hokimiyat kurashi va bu kurashning oila a'zolariga ta'siri zamirida quriladi. “Avlodlar dovoni”da esa konflikt geografik va madaniy ko'chish, yangi zaminda o'zlikni saqlash muammosi bilan boyitiladi. “Ona lochin vidosi”da esa ona va farzand, ayol va davlat manfaati o'rtasidagi ziddiyat yetakchi o'rin tutadi. Bu qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Pirimqul Qodirov har bir romanda konfliktning yangi qirrasini ochib, trilogiya doirasida yaxlit va rivojlanib boruvchi badiiy tizim yaratgan. Har bir asar avvalgisining mantiqiy davomi sifatida, ammo o'ziga xos konflikt markazi bilan ajralib turadi.

Muallif temuriy va boburiy malikalar obrazlarini yaratishda ularni faqat siyosiy o'yinning passiv ishtirokchisi sifatida emas, balki davr taqdirini belgilovchi faol shaxslar sifatida tasvirlaydi. Bu yondashuv o'zbek tarixiy romanchiligida ayol obrazini yangicha talqin qilishning yorqin namunasidir.

Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Mohimbegim, Gulrangbegim kabi qahramonlarning har biri o'z davri ziddiyatlarini o'zicha yengishga harakat qiladi – kimdir siyosiy hikmat bilan, kimdir sabr-toqat bilan, kimdir esa fidoyilik bilan. Ana shu individual yo'llarning jamlanishi orqali yozuvchi umumiy – davr va inson taqdiri haqidagi – falsafiy xulosaga keladi.

Tarixiy roman janrining o'ziga xos murakkabligi shundaki, unda badiiy to'qima bilan tarixiy haqiqat o'rtasida muvozanat saqlanishi lozim. Pirimqul Qodirov bu muvozanatni mahorat bilan saqlaydi – u tarixiy manbalarda qayd etilgan voqealarni asos qilib olsa-da, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning kechinmalarini, dialoglarini badiiy tasavvur asosida to'ldiradi. Bu esa asarlarni quruq tarixiy bayonotdan farqli o'laroq, chuqur insoniy mazmun bilan boyitadi.

Ayni paytda, adabiyotshunoslar va tarixchilar o'rtasida bahsli masalalardan biri – muallifning tarixiy shaxslar, xususan malikalar xarakteriga qay darajada badiiy erkinlik bilan yondashgani masalasidir. Ba'zi tanqidchilar bu yondashuvni tarixiy haqiqatni buzish sifatida baholasa, boshqalar aksincha, uni tarixiy shaxsni jonlantirish, unga zamonaviy o'quvchi uchun tushunarli va yaqin qilib ko'rsatishning zarur badiiy usuli sifatida talqin qiladilar. Aynan shu bahs-munozaralarning o'zi ham asarning badiiy-estetik qimmatini, o'quvchi va tanqidchilar e'tiborini tortish kuchini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Konflikt nafaqat qahramonlar xarakterini ochish, balki asar kompozitsiyasini tashkil etishning ham asosiy vositasidir. Pirimqul Qodirov romanlarida voqealar rivoji aynan konfliktning kuchayib borishi, keyin esa yechim topishi asosida quriladi. Bu – syujet chizig'ining barqarorligini, o'quvchi diqqatini oxirigacha ushlab turishni ta'minlaydigan muhim badiiy omildir. Shuningdek, har bir romanda konfliktning kulminatsion nuqtasi malikalarning taqdiridagi hal qiluvchi lahzalar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bu lahzalarda qahramonning butun ichki dunyosi, uning qadriyatlar tizimi, hayotiy tanlovi bir zumda o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi – bu esa yozuvchining psixologik tasvir mahoratining yuqori namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Bugungi kunda Pirimqul Qodirov romanlari nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va gender tadqiqotlari nuqtai nazaridan ham qiziqish uyg'otmoqda. Zamonaviy

o'quvchi uchun bu asarlar temuriylar va boburiylar davri ayollarining ijtimoiy mavqei, ularning davlat boshqaruvidagi roli haqida tasavvur beruvchi muhim manba vazifasini ham o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" romanlarida konflikt ko'p qatlamli xarakterga ega: unda tarixiy-siyosiy, shaxslararo (oilaviy) va ichki-psixologik konfliktlar uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Mohimbegim, Gulrangbegim kabi malikalar obrazlari orqali yozuvchi davr ziddiyatlarini ayol taqdiri prizmasidan yoritib, o'quvchiga nafaqat tarixiy voqealar, balki inson qalbining murakkab olamini ham namoyish etadi.

Pirimqul Qodirovning konflikt yaratish mahorati shundaki, u tarixiy haqiqat bilan badiiy tasavvurni uyg'unlashtirib, qahramonlar taqdirini ishonarli va ta'sirchan tarzda tasvirlay oladi. Bu esa uning romanlarini o'zbek tarixiy nasrining yorqin namunalari qatoriga qo'yadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Pirimqul Qodirov ijodidagi konflikt tizimini o'rganish nafaqat yozuvchi mahoratini, balki o'zbek tarixiy romanchiligi taraqqiyotining o'ziga xos qonuniyatlarini ham anglash imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur mavzuni yanada kengroq – boshqa yozuvchilar ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, konflikt tipologiyasini nazariy jihatdan chuqurroq tizimlashtirish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент, 2004. – Б.87.
2. Носиров А. Тарихий ҳақиқатнинг ҳаққоний кашфи // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. 1-сон. 58-бет.
3. Қодирий А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б.391.
4. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – Toshkent: Sharq, 2001.

**UO'K: 82-311.6**

## BOBUR MIRZO IBRATLI FAZILATLARI TASVIRI INGLIZ VA O'ZBEK YOZUVCHILARI TALQINIDA

***K.R.Xayrullayeva, PhD, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Andijonda tug'ilib-o'sgan, ammo taqdir hukmi bilan ota yurtini tark etishga majbur bo'lgan, keyinchalik ulkan davlatga asos solgan Zahiriddin Bobur Mirzoning bugungi kun yoshlari uchun ibrat bo'la oladigan insoniy fazilatlari ochib berishga harakat qilingan. Bunda ingliz adabiyotining atoqli yozuvchisi F.A.Stil hamda o'zbek xalq yozuvchisi P.Qodirov romanlari o'zaro qiyoslangan. Bobur Mirzo siyratiga xos bo'lgan oqko'ngillik, samimiylik, rahmdillik, adolatlilik va mehr-oqibatlilik singari jihatlar asarlardan olingan parchalar va turli hayotiy misollar yordamida dalillangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Zahiriddin Muhammad Bobur, Humoyun Mirzo, Mohim Begim, Gulbadan Begim, Flora Anna Stil, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sultonov.*

***Аннотация.*** *В данной статье предпринята попытка раскрыть человеческие качества Захириддина Бабура Мирзо, родившегося и выросшего в Андижане, но вынужденного по воле судьбы покинуть родину, а впоследствии основавшего великое государство, которое может служить примером для современной молодежи. В этом контексте проводится сравнение романов известного писателя английской литературы Ф. А. Стила и узбекского фольклорного писателя П. Кадырова. Такие аспекты биографии Бабура Мирзо, как щедрость, искренность, сострадание, справедливость и доброта, демонстрируются с помощью отрывков из произведений и различных примеров из реальной жизни.*

***Ключевые слова:*** *Захириддин Мухаммад Бабур, Хумаюн Мирзо, Мохим Бегим, Гульбадан Бегим, Флора Анна Стил, Пиримкул Кодиров, Хайриддин Султанов.*

***Abstract.*** *This article attempts to reveal the human qualities of Zahiriddin Babur Mirzo, who was born and raised in Andijan, but was forced to leave his homeland by fate, and later founded a great state, which can serve as an example for today's youth. In this, the novels of the famous writer of English literature F.A. Steel and the Uzbek folk writer P. Kadirov are compared. Such aspects of the biography of Babur Mirza as generosity, sincerity, compassion, justice and kindness are evidenced using excerpts from works and various real-life examples.*

***Key words:*** *Zahiriddin Muhammad Babur, Humayun Mirzo, Mohim Begim, Gulbadan Begim, Flora Annie Steel, Pirimqul Qodirov, Khairiddin Sultanov.*

**Kirish.** Jahon va o‘zbek adabiyotida Bobur haqidagi epik asarlar kuzatilsa, shoh-shoirning insoniylik jihatlari, uning yaqinlariga munosabati, farzand, ota, oila boshlig‘i sifatidagi fazilatlari tasviriga ham keng o‘rin berilganligi kuzatiladi. Shu jihatlarni qiyosiy tahlil etishga harakat qilamiz.

**Asosiy qism.** Yosh podshoh Samarqandni qo‘lga kiritgan chog‘ida rafiqasi Oyisha begim ona bo‘lish arafasida edi. Ilk farzandining tug‘ilish tasviri va bunda Boburning holati o‘zbek va ingliz adiblari tomonidan turli yo‘sinda ta’riflanadi. *“Yulduzli tunlar”*da adib bu voqelikka ishora qilgan, xolos. Shayboniyxon huzuriga kelgan elchi Boburning ota bo‘lgani va Samarqandda erishilgan g‘alaba sharafiga qiziga Faxriniso deb ism qo‘yganligi xususida xabar keltiradi [1]. Ingliz adibi F.Stil esa ushbu tarixiy voqelikka ta’sirchan usulda yondashadi. Anna Stil Bobur xonadoniga g‘arbcha qirollik an’analariga xos bo‘lgan ayrim tarixiy jihatlarni berishga urinadi. Unga ko‘ra podshoh taxt vorisiga ega bo‘lish uchun avvalo o‘g‘il farzandli bo‘lishi lozim edi. Qiz farzandni dunyoga keltirgan malikalar esa ayrim hollarda jazolangan ham. Shu kabi johiliyat davri voqeliklaridan yaxshi xabardor bo‘lgan Flora Stil o‘z asarida o’ziga xos tasvirni keltiradi: Ilk farzandi tug‘ilishini intiqlik bilan kutayotgan Bobur yulduzlarni tomosha qilib turardi. Birdan onasi Qutlug‘ Nigor Xonim ko‘z yosh to‘kkancha kirib keladi. Nabirasi dunyoga kelganidan quvonish o‘rniga uni “Baxtsiz qizaloq!” deya ataydi. Qiz farzand dunyoga keltirgani uchun Oyisha begim aybdordek uning bu ishini kechirib bo‘lmasligini aytadi. Buvisi Eson Davlat Begim esa yosh qirolga uning uchun o‘z vazifalarini yaxshi tushunadigan, mas’uliyatni o’z bo’yniga oladigan rafiqa tanlashlarini xo‘rsinib aytadi. Bobur esa ko‘pgina yevropalik hukmdorlardan farqli o‘laroq qiz farzandli bo‘lgani uchun aslo norizolik bildirmaydi. Aksincha, nima bo‘lishidan qat’iy nazar bu uning bosh farzandi ekanligini hamda unga “Ayollarning faxri” ma’nosini anglatuvchi “Faxriniso” nomini berishini e’lon qiladi [2]. Darhaqiqat, birinchi farzandning tug‘ilishi Boburga quvonch hadya etadi. Uning ismini ham shunga moslab qo‘yadi. Bu lavhalar uning qanchalik darajada bag‘rikeng, bolajon inson bo‘lganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, Faxriniso go‘dak chog‘ida vafot etadi. Bundan Bobur tushkun holatga tushadi, iztiroblarga chulg‘anadi. Ushbu mudhish voqea Samarqand Shayboniyxon qo‘shini tomonidan qamal qilingan paytga to‘g‘ri keladi. Oziq-ovqat yetishmovchiligi oqibatida Oyisha begim qizalog‘ini o‘zi emiza olmaydi. Yaqinda farzandli bo‘lgan boshqa bir ayol Faxrinisoni emizadi. Vaboga chalingan ayoldan kasallikni yuqtirib olgan chaqaloq tez orada vafot etadi. Yuragi afsus-nadomatlarga to‘la Bobur shu vabo kasalligi unga ham yuqib, uni azob-uqubatlardan butunlay xalos etishini so‘rab, Yaratganga iltijo qiladi. U nihoyatda tushkun va ezgin holatda “go‘dakning sovuq lablaridan o‘padi” [1]. Bu tasvirda ham Boburning ota sifatidagi qiyofasi ko‘zga tashlanadi. Flora Anna Stil talqiniga ko’ra esa, Podshoh sifatida doimiy davlat ishlari bilan band bo‘lishiga qaramasdan, Bobur doimo qizidan xabar olib turgan [2]. Ikki asar voqealar tasvirida o‘xshashlik va farqli taraflarini ko‘rish mumkin. P.Qodirov Faxrinisoni “olti oylik emizikli chaqaloq” desa, F.A.Stil esa “bir oylik yoki qirq kunlik murg‘ak go‘dak” deydi. Bundan tashqari, o‘zbek adibi to‘liqroq ma'lumot berishga urinadi va vafot etish sabablarini ham keltiradi, uning yozishicha Faxriniso mamlakatda tarqalgan vabo kasalligiga chalingan ayol emizganligi tufayli nobud bo‘lgan. *“King- Errant”* (“Sayohatchi Qirol”) da esa bu haqida hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Ingliz adibi Boburning atigi o‘n to‘qqiz yoshda, ayni o‘ynab kuladigan davrida davlat tashvishlari yetmagandek yana farzand dog‘ini ham ko‘rganligiga urg‘u berib o‘tadi. Uning nazdida shuncha azob-uqubatlarni tortgan yosh jussasiga bu ayriliq ham ustma-ust kelgan edi.

**Muhokama va natijalar.** Tarix sahifalari Boburning opasi Xonzodabegim bilan iliq munosabatda bo‘lganligini tasdiqlab turadi. F.A.Stil asarida voqelik talqini juda go‘zal ifodalangan bo‘lib, tanholik kezlarida Boburning xayollari hech qanday sababsiz uni sevimli opasi tomon yetaklardi. U opasini *“Dearest One”* (“Eng aziz insonim”) deb atardi, chunki u faqat o‘zi yoqtirgan insonlarnigina mana shunday nom bilan atardi. Ammo Bobur ba’zida jahlini chiqarib g‘ashiga tekkan, ba'zan esa erkalatgan, o‘zidan besh yosh katta, bo‘ylari baland opasidan ortiq hech kimni yaxshi ko‘rmasdi. Ammo nima bo‘lganda ham u bir kun kelib turmushga chiqishi kerak [2]. Yuqoridagi badiiy lavhalar Boburning yolg‘iz tug‘ishgan opasi Xonzoda begimga nisbatan mehr-muhabbati

cheksiz bo‘lganligini asoslab turadi. Ma’lumki, o‘z zamonasining talabiga ko‘ra, xon avlodidan bo‘lgan malikalar majburan turmushga uzatilgan. Ammo Bobur onasi, buvisi va saroy a’yonlarining qistovlariga qaramasdan opasini yoqtirmagan insoni Ahmad Tanbalga turmushga uzatishga rozi bo‘lmaydi. Uning opasiga “Toki bormen, sizni suymagan odamingizga aslo uzattirmasmen” degan gaplaridan yaxshi anglash mumkin. P.Qodirov Xonzoda Begimni Boburning jonajon opasi, tug‘ishgan yagona egachisi ekanligiga urg‘u bersa, Stil esa uning opasidan boshqasini yaxshi ko‘rmasligiga e’tibor qaratadi. Farqli tarafi ingliz adibasi Boburning opasini doimo eng aziz insoni sifatida ko‘rishini ta’kidlab o‘tadi va butun asar davomida shu nom bilan ataydi.

Gvaliorda erishilgan g‘alabadan so‘ng, Humoyunga dunyoda mashhur Ko‘hinur olmosini tuhfa qilishadi. Humoyun bu qimmatbaho sovg‘ani otasiga hadya qilishni niyat qiladi. Bobur esa bu sovg‘ani qabul qilmaydi, o‘g‘liga qaytarib beradi. Ikki asar syujetidan o’rin olgan ushbu voqelik tasvirlaridagi o‘xshashlik shundaki, mazkur asarlarda qiymati butun dunyo kunlik xarajatlarining yarmiga teng qimmatbaho olmos haqida so‘z boradi. Bobur bu bebaho toshni o‘g‘li Humoyunga sovg‘a qiladi. P.Qodirov ham, Anna Stil ham Boburning yuksak insoniylik fazilatini ulug‘laydi. Bu shoh-shoirning olmosni faqat o‘g‘liga munosib ko‘rishida namoyon bo‘lgan. Qolaversa, u ota sifatida Humoyunni dunyoning barcha boyliklaridan, hatto “Ko‘hinur”dan ham ustun qo‘yadi. Nafaqat ustun qo‘yadi, balki olmosni o‘g‘liga taqdim etadi. Bu Boburning oqil padar sifatidagi qiyofasini namoyon etib turadi. Shu jihatdan ikki asar syujeti hamohang. Faqat *“King- Errant”* (“Sayohatchi Qirol”)da Bobur olmosni Humoyun o‘z xotiniga tuhfa qilishini aytadi. Yana shunisi ham e’tiborga molikki, *“Yulduzli tunlar”*da ota o‘z farzandiga zamondosh ota-o‘g‘illar orasidagi kurashlar ularning munosabatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasligini, Boburdan o‘g‘liga va undan avlodlariga faqat mardlik, oliyjanoblik meros bo‘lib qolishi kerakligini uqtiradi. Humoyun ham otasining o‘gitlariga amal qilishini va unga munosib farzand bo‘lishga intilishini aytadi [1]. Darhaqiqat, Bobur va Humoyun orasidagi bunday yuksak insoniy munosabatlar tasviri hamma zamonlar uchun ibratli. Shu jihatdan Bobur kelajak avlodlari uchun ham saxovat va oliyjanoblik ramzi bo‘lib qoldi. Ta’kidlash kerakki, bu fazilatlar dunyo yozuvchilarining asar yozishlariga turtki bo‘ldi.

Bobur barcha farzandlarini birdek ko‘rib, ularga mehr va e’tiborini ham bir xilda ko‘rsatishga harakat qilgan. Lekin u qizlari orasida Gulbadan Begimga alohida mehr ko‘rsatgan. Bu tarixiy va badiiy manbalarda ham o‘z ifodasini topgan. Bobur qizi Gulbadan Begimning bolalarcha beg‘ubor istagini amalga oshirish uchun shohona libosiga ziyon yetkazib bo‘lsa-da, Mohim Begimning ogohlantirishiga qaramay, tilladan tayyorlangan tugmasini uzib, unga uzatadi. Qiziga baxt qushi Humoni berayotganini uqtiradi va qiziga baxt keltirishini aytib, duo qiladi [1]. Bu kabi lavhalar Boburning meribon ota sifatidagi qiyofasini namoyon etib turadi. Chunki u qizining xursand bo‘lishi uchun eng qimmatbaho narsalaridan ham voz kechishga tayyor edi. Xayriddin Sultonov asarida Boburning Hofiz Ko‘ykiy bilan suhbat jarayonidan parcha keltirilgan. Ma’lumki, Bobur umrining oxirida hokimiyatdan bezib, taxtini o‘g‘liga topshirib, darveshlik yo‘lini tanlashni niyat qiladi. Uning asl maqsadi shoh bo‘lib qaytolmagan ota yurtiga darvesh holida qaytish edi. Shu niyatini Hofiz Ko‘ykiyga aytib turgan chog‘ida jajji qizalog‘i Gulbadan Begim kirib keladi va ustozlari o‘rgatgan otasi qalamiga mansub ruboiyni aytib beradi. Farzand mehri uni fikridan qaytaradi. Chunki shoh-shoir “donadek farzandlaridan ko‘ngil uzib ketolmasdi” [3]. Tarix sahifalaridan taxt uchun ota-o‘g‘il kurashlari, davlat manfaatlari, sulh tuzish maqsadida qizlarini o‘zidan ancha katta kishilarga turmushga bergan hukmdorlar haqida o‘qib qolamiz. Biroq Boburga bu kabi insoniylikka zid bo‘lgan xususiyatlar yot bo‘lgan. Har damda, har qadamda ota ekanligini unutmagan, ularga mehr ko‘rsatgan, qo‘llab-quvvatlagan. Yuqoridagi badiiy parchalarni, yozuvchilar talqinlarini bog‘lab turuvchi eng muhim jihat shudir.

Mohim begim Boburning ilk o‘g‘il farzandi va taxt vorisi Humoyun Mirzoning onasi bo‘lgan. Ammo uning Humoyundan so‘ng dunyoga kelgan boshqa farzandlari uzoq umr ko‘rmagan va nobud bo‘lgan. Bundan qattiq iztirobga tushgan Mohim begim podshoh Boburning yana bir ayoli Dildor og‘achaning homilador ekanligini va uning tug‘ilajak farzandini tarbiya qilish uchun unga berishini iltimos qilib maktub yo‘llaydi. Sevimli rafiqasining ra’yini qaytara olmagan Bobur tug‘ilajak farzandi o‘g‘il yoki qiz bo‘lishidan qat’iy nazar uni o‘z onasidan olib, taxt vorisining onasi tarbiyasiga berish xususida buyruq beradi. Bobur Dildor og‘achaning yig‘lab-siqtashlariga qaramasdan, yangi tug‘ilgan

chaqaloqni Mohim begimga olib borib berish xususida buyruq beradi [1]. Bu ishi orqali Bobur rafiqasiga nisbatan biroz shafqatsizlik qilgandek tuyulishi mumkin. Lekin podshoh sifatida o‘g‘lining davlat kelajagiga xizmat qiladigan munosib shahzoda bo‘lishi uchun uning tarbiyasini Mohim begimga topshiradi. Bu voqelikni Stil o’zgacha uslubda tasvirlaydi va Bobur o‘shanda Hindolni boshqa bir ayolga berish masalasida adolatli bo‘lganiga hali ham amin emasligi, bu uning o‘z qarorini qabul qilishda barchaga ham birdek odillik qila olmagan, ayollar xohishiga ko‘ra amalga oshirgan yagona ishi ekanligiga urg’u beradi [2]. Yuqoridagi ikki parchani bog‘lab turadigan jihat – Boburning o‘g‘li Hindol Mirzoning tarbiya uchun Mohimga berilishidir. Yana bir hayotiy lavha – bu Boburning o‘lim to‘shagida yotgan chog‘idagi holatdir. Uning hozir ko‘ngli to‘lmayotgan birgina narsa bor edi, xolos. U o‘limidan oldin Hindolni o‘z onasiga qaytarib bermoqchi edi. Lekin Hindol qaytib kelmaydi. U Qobuldan yo‘lga chiqqan edi, ammo ustozi oilasidagi nikoh marosimlari tufayli kechikadi. A.Stil tasvirida Bobur ruhiyatida uning Hindolni o‘z onasidan olib, Mohim begim tarbiyasiga berish chog‘ida adolat yuzasidan ish ko‘rganiga shubha tuyg‘ularini sezish mumkin. Hattoki, o‘limi oldidan o‘g‘li Hindolni so‘nggi bora ko‘rishni va uni o‘z onasiga qaytarib berish istagi kuchli bo‘lganligi kuzatiladi. Bu, albatta, Boburning doimo har bir ishni, avvalo, adolat tarozisiga qo‘ygan holda amalga oshirishidan dalolat beradi.

**Xulosa.** Boburning uka sifatida opasiga nisbatan mehr-muhabbati, o‘zidan besh yosh katta bo‘lgan opasini doim qo‘llab-quvvatlashi voqealari P.Qodirov va F.Stil tasvirlarida uyg‘unlik kasb etgan. Shu jihatdan o‘zbek adibi Xonzoda Begim Zahiriddinning yagona egachisi ekanligiga urg‘u bersa, ingliz adibasi uning opasiga bo‘lgan cheksiz hurmati va mehrini ifoda etganligi ko‘zga tashlanadi.

Bobur g‘alaba onlarida dunyoga kelgan farzandiga Faxrinniso deya ism qo‘yishi, shu daqiqalarda qalbida kechgan qaynoq hissiyotlari, undan bevaqt ayrilishi vaqtidagi achchiq iztiroblari F.Stil va P.Qodirov tasvirlarida nihoyatda ishonarli chiqqan. Xususan, ingliz adibasi podshohlik an’analari, qirollik urf-odatlari ifoda etilgan lavhalar vositasida Boburning qanchalik darajada bag‘rikeng, bolajon va mehridaryo inson bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bu Boburning jahoniy shuhrat tutishining muhim asoslaridan biridir.

Anna Stil va Pirimqul Qodirov asarlarida Boburning ota sifatida insoniylik fazilatlari “Ko‘hinur” olmosini o‘g‘liga munosib ko‘rishi va Humoyunning hayotini har qanday olmosdan ustun ko‘rishi tasvirlarida hayotiy ifoda etilgan. Tarix sahifalarini varaqlasak, taxt uchun kurashgan ota-o‘g‘il kurashlari va yohud sulh tuzish maqsadida o‘z qizlarini yoshi katta hukmdorlar haramiga berib yuborganligi haqida ko‘p kuzatish mumkin. Biroq uning qizlariga, ayniqsa, Gulbadan Begimga mehri juda baland bo‘lgan. O‘zbek adiblari P.Qodirov va X.Sultonov badiiy talqinida bu voqealar hayotiy aks ettirilgan.

Humoyun Mirzo Boburning to‘ng‘ich farzandi, taxt vorisi sifatida tahlil etganimiz asarlarda muhim o‘rin tutadi. Tasvirlardagi mushtaraklik, Humoyun Boburning sevimli rafiqasidan bo‘lgan yagona zurriyodi ekanligiga urg‘u berilgani bilan bog‘liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2006.
2. Steel F.A. King-Errant. – New York: Frederick A.Stokes Company, 1912.
3. Султонов Х. Бобурийнома. – Тошкент: Шарқ, 1997.

**UO’K 81-27; 811.512.133; 811.512.154; 398.9**

## O‘ZBEK VA QOZOQ XALQ MAQOLLARIDA YAXSHILIK: MAZMUN VA OBRAZLAR TAHLILI

***M.A.Xudayberdiyeva, talaba, Toshkent Kimyo universiteti, Toshkent***
***M.A.Xamidova, dots., Toshkent Kimyo universiteti, Toshkent***

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada o‘zbek va qozoq xalq og‘zaki ijodida yaxshilik konsepti maqollar misolida o‘rganildi. Shuningdek, mazkur maqollardagi obrazlar tahlil qilinib, ular semantik jihatdan guruhlarga tasniflandi va jadvalga joylashtirildi.*

***Kalit so‘zlar:*** *yaxshilik konsepti, maqollar, o‘zbek va qozoq maqollari, obraz, semantik tahlil, tasnif, o‘xshashlik va farqlar.*

***Аннотация.*** *В данной статье на примере пословиц рассматривается концепт «добро» в узбекском и казахском народном фольклоре. Также анализируются образы в данных пословицах, проводится их семантическая классификация по группам и систематизация в виде таблиц.*

***Ключевые слова:*** *концепт «добро», пословицы, узбекские и казахские пословицы, образ, семантический анализ, классификация, сходства и различия.*

***Abstract.*** *This article examines the concept of "goodness" in Uzbek and Kazakh folklore through the study of proverbs. Additionally, the imagery in these proverbs is analyzed, semantically classified into groups, and presented in a structured table format.*

***Key words:*** *concept of goodness, proverbs, Uzbek and Kazakh proverbs, imagery, semantic analysis, classification, similarities and differences.*

**Kirish.** Qozoq va o‘zbek xalq maqollari o‘zaro yaqin bo‘lib, ularning mazmunida umumiy g‘oyaviy o‘xshashliklar ko‘zga tashlanadi. Ikkala xalq tarixan bir hududda yashab, turmush tarzi, mentaliteti, an’analari va ma’naviy qadriyatlari jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, hayot, madaniyat, jamiyat hayoti va tarixini aks ettiradi. Ommabop donolikni ifoda etib, ular eng yaxshi ma’naviyat va illatlar tasdiqlanadigan axloqiy kodeksning bir turini anglatadi [1].

Maqollarning tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” degan edi. Shunday ekan, maqollar xalq turmush tarzida yaratilgan. Ularning matni mazmun jihatidan tahlil qilinmaydi, chunki maqollar to‘g‘riligi isbotlangan holda qayta-qayta ishlanib vujudga kelgan [2]. So‘z ham aslida bir sa’natdir va bu sa’natning mahsullaridan biri maqollardir. Maqollarda bir so‘zning bir nechta balki o‘nlab turli xil ma’nolarini ko‘rishlik mumkin. Masalan, *tuz* so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z *to‘g‘ri, odobli, dala, tekislik* ma'nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan*:* ***Qiz saqlasang, tuz saqla.*** *Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo‘l.* Shuningdek, *mehnat* so‘zining azob-uqubat, baxtsizlik ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin*:* ***Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz [3]***.

**Ikkala tilning semantik tahlili**. Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘otit-turk" asari qadimgi turkiy xalqlarning maqollar xazinasini o‘z ichiga olgan manbadir. Qozoq va o‘zbek xalqining turmush tarzi, dini, qadriyatlari hamda an’analari o‘xshashligi ikki til maqollarining kelib chiqishi va o‘zaro ekvivalentligiga bevosita asos bo’lgan. Garchi umumiy g‘oyaviy o‘xshashliklar katta bo’lsa-da, har bir xalq ifodalashiga ko‘ra o‘z uslubiga ega. Jumladan qozoq xalq maqollarida jasurlik, matonat, oila (ota-ona) obrazlari, ayniqsa, erkak kishining ijtimoiy nufuzi, va sha’ni qanchalik yuksak, hamda ulug‘vor ekanligi qisqa, lekin kuchli ta’sirga ega jumlalar orqali ifodalangan. Xususan, ikki tilda ham yaxshilik obraziga oid bir qancha maqollar mavjud. Misol uchun: ***"Жақсы — жаныңа жолдас, Жаман — малыңа жолдас"*** *(Yaxshi — joningga yo‘ldosh, yomon — molingga).* O‘zbek xalq maqollarida ham aynan shu mavzudagi maqolni uchratish mumkin: **"Yaxshi — joningga o‘rtoq, yomon — noningga"** maqoliga to‘liq ekvivalentdir. Ushbu namunalarda ayrim so’zlar (mol va non) farqlansa-da, g‘oyaviy mazmuni birdir.

Qozoq xalqi – maqol va matalga boy xalqlardan biridir. Folklorist M.Auezov va M.G‘abdullin qozoq maqol va matallarining ko‘pchiligi she’riy shaklda kelishini, undagi assonans va alliteratsiyalarning mo‘l bo‘lishini alohida ta’kidlab ko‘rsatgan [4]. Qozoq xalqining har bir maqolida tarbiya, yaxshilik, do‘stlik, jasurlik va vatanga muhabbat kabi g‘oyalar turlicha obrazlar orqali yoritilgan. Mana bunga bir misol: ***Жақсымын деп мақтанба, Халық айтпай. Батырмын деп мақтанба, Жеңіп қайтпай*** *(yaxshiman deb maqtanma – xalqing aytmay turib, bahodirman deb maqtanma – g‘alaba qilmay turib)* yoki bir-bir bilan ekvivalent bo‘ladigan maqollardan bir: ***Жақсылық қыл да, өзенге таста, балық білер, балық білмесе — Халық білер.*** *(Jaqsılıq qıl da, özenge tasta, balıq biler, balıq bilmese — Xalıq biler).* ***Yaxshilik qil, daryoga tashla, baliq bilar, baliq bilmasa — xoliq bilar.*** Bundan tashqari, mazmuni bir xil ifodalanishiga ko‘ra har xil maqollar mavjud: Qozoqlar "to‘n" (kiyim) va uning issiqligi orqali tushuntirsa, o‘zbeklar "gul" va "tikan" orqali ifodalashni afzal ko‘radi. Qozoqcha: ***Жақсымен жолдас болсаң — жаның жылыр,***

***жаманмен жолдас болсаң — үйің күйер.****(Yaxshi bilan yo'ldosh bo'lsang — joning isir, yomon bilan yo'ldosh bo'lsang — uying kuyar).* O'zbekcha: ***Yaxshi bilan yursang — yetarsan murodga, yomon bilan yursang — qolarsan uyatga.*** Yana bittasi - Qozoqcha: ***Жақсы сөз — жан семіртеді.*** *(yaxshi so'z – jon semirtiradi).* O'zbekcha: ***Yaxshi so'z — jon ozig'i.***

Bu keltirilgan misollar orqali ikki tildagi maqollarning mazmunan oxshashliklari ko'pligini ko'rishligimiz mumkin. Xalqlarning turmush tarizi, geografik joylashuvi, o'tiroq yoki ko'chmanchi hayot tarizi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy tajribalari folklor namunalariga ham ko'chgan. Shunga qaramay, maqollarda qo'llanilingan timsollarning ishtiroki ko'p yoki kamligiga ko'ra ikki xalq og'zaki ijodini farqlash lozim. Quyidagi jadvalda ikki tildagi "yaxshilik" mavzusidagi maqollar semantik guruhlarga ajratilingan holda tahlil qilindi.

| O'zbek xalq maqollari. | | |
|---|---|---|
| **TABIAT VA HUDUDIY.** | **EL VA JAMOAT.** | **HAYVONLAR.** |
| Yaxshilikni daryoga qil,<br>biyobondan top.<br><br>O'zing yaxshi – olam yaxshi.<br><br>O't tosh yorar,<br>Tosh bosh yorar.<br><br>Yaxshilik ikki jahonni orttirar.<br><br>Yaxshilik qil, daryoga tashla,<br>Baliq bilar,<br>Baliq bilmasa, xoliq bilar.<br><br>Yaxshi bilan yurdim,<br>Yo'llimni topdim.<br>Yomon bilan yurdim,<br>Go'rimni topdim.<br><br>Yaxshi – bog'-u bo'ston,<br>Yomon -qora qozon.<br><br>Yaxshilik to'rga eltar,<br>Yomonlik-go'rga.<br><br>Yaxshi uydan yaxshi tutun chiqar.<br><br>Yaxshi so'zdan moy eriydi,<br>Yomon so'zdan soy quriydi. | Etiga yomon to'r bulg'ar,<br>Og'zi yomon – el.<br><br>Yaxshi so'zga, uchar qushlar el bo'lar,<br>Yomon so'zga, pashsha kuchi fil bo'lar.<br><br>Yaxshilikni erdan so'ra<br>Er bilmasa, eldan so'ra.<br><br>Yaxshi yurgan yerida,<br>Tinchik solar eliga.<br>Yomon yurgan yerida,<br>O't qo'yadi eliga.<br><br>Yaxshiga el dil ochar,<br>Yomondan turmay qochar.<br><br>Yaxshiga qora yuqmas,<br>Yomonga el boqmas.<br><br>Yaxshidan yomon tug'ilsa,<br>Eli toilmas.<br>Yomondan yaxshi tug'ilsa,<br>Tengi topilmas.<br><br>Yaxshi yigit bilan yaxshi ot – ko'pniki.<br><br>Yaxshi ot erniki, er – elniki.<br><br>Yaxshi – el g'amida,<br>Yomon – o'z g'amida.<br><br>Er yigit elga tortar,<br>Yomon yukin elga tortar. | Erga bersang oshingni,<br>Erlar silar boshingni.<br>Itga bersang oshingni,<br>Itlar qopar boshingni.<br><br>Echki egiz tug'ib qo'ydan oshmas,<br>It egiz tug'ib eldan oshmas.<br><br>Echkini ham o'z oyog'idan osarlar,<br>Qo'yni ham.<br><br>Echkining yog'i bo'lmas,<br>Yaxshining – dog'i.<br><br>Eshak siypagani bilmas,<br>Yomon – siylaganni.<br><br>Yaxshi it o'ligini ko'rsatmas.<br><br>Yaxshi yigit bilan yaxshi ot ko'pniki.<br><br>Yaxshi ot erniki, er – elniki.<br><br>Yaxshi otga o'g'irlik ko'p,<br>Yomon xotinga – zo'rlik.<br><br>Yaxshi otga qamchi kerakmas,<br>Yaxshi qizga – sovchi.<br><br>Yaxshi otdan yiqilsa,yomon – tabachi,<br>Yomon otdan yiqilsa,yaxshi-hudaychi. |
| **OZIQ-OVQAT.** | **NUTQIY<br>(SO'Z VA NAQL)** | **TURLI XIL<br>BUYUMLAR.** |
| Yaxshi bilan yo'ldosh bo'lsang,<br>Holva bilan shakar.<br>Yomon bilan yo'ldosh bolsang,<br>Obro'ying to'kar.<br><br>Yaxshi bo'lsang, bolday bo'l,<br>Yomon bo'lsang, uvday bo'l.<br><br>Erga bersang oshingn,<br>Erlar silar boshingni.<br>Itga bersang oshingni, | Yaxshi naql – tomiri aql.<br><br>Yaxshi osh berguncha, yaxshi so'z ber.<br><br>Yaxshi og'izga - osh,<br>Yomon og'izga - tosh.<br><br>Yaxshi so'z boldan shirin.<br><br>Yaxshi so'z bo'ldiradi,<br>Yomon so'z kuydiradi. | Yaxshi - bog'-u bo'ston,<br>Yomon – qora qozon.<br><br>Yanisa, pichoq kesar,<br>Yalinsa, yaxshi kechar.<br><br>Yaramas yarog' yig'ar.<br><br>Yaxshi otga qamchi kerakmas,<br>Yaxshi qizga – sovchi. |

| | | |
|---|---|---|
| Itlar g‘ajir boshngni.<br><br>Echkining yog‘i bo‘lmas,<br>Yaxshining – dog‘i.<br><br>Yaxshi joningga o‘rtoq,<br>Yomon – noningga.<br><br>Yaxshi oshini yer,<br>Yomon boshini.<br><br>Yaxshi qand yedirar,<br>Yomon – pand.<br><br>Yaxshiga iyarsang – oziq,<br>Yomonga iyarsang – yoziq.<br><br>Yaxshi so‘z qand yedirar,<br>Yomon so‘z pand yedirar.<br><br>Yaxshi so‘zdan moy eriydi,<br>Yomon so‘zdan soy quriydi.<br><br>Yaxshi-yaxshi desa,<br>Kunda tariqday<br>yaxshilik qo‘shlar emish.<br>Yomon-yomon desa,<br>Kunda tariqday yomonlik qo‘shilar emish. | Yaxshi so‘z iydirar,<br>Yomon so‘z bezdirar.<br><br>Yaxshi so‘z kuldirar,<br>Yomon so‘z o‘ldirar.<br><br>Yaxshi so‘z - ko‘ngil podshosi.<br><br>Yaxshi so‘z suyuntirar,<br>Yomon so‘z kuyuntirar.<br>Yaxshi so‘z to‘rga eltar,<br>Yomon so‘z - go‘rga.<br><br>Yaxshi so‘z - yurak yog‘i,<br>Yomon so‘z - yurak dog‘i.<br><br>Yaxshi so‘z – yurakka malham,<br>Yomon so‘z – yurakka g‘am.<br><br>Yaxshi so‘z qand yedirar,<br>Yomon so‘z pand yedirar.<br><br>Yaxshi so‘zga uchar qushlar el bo‘lar,<br>Yomon so‘zga pashsha kuchi fil bo‘lar.<br><br>Yaxshi so‘zdan – vafo,<br>Yomon so‘zdan – vabo. | Yaxshi uydan yaxshi tutun chiqar.<br><br>Yaxshi xunuk libos blan ham yaxshi.<br><br>Yaxshidan – yaroq,<br>Yomondan – tayoq.<br><br>Yaxshida yarog‘ bo‘lmas.<br><br>Yaxshining bolasi to‘rga tortar,<br>Yomonning bolsasi – eshikka.<br><br>O‘t tosh yorar,<br>Tosh bosh yorar.<br><br>Yaxshining so‘zi – oltin,<br>Yomonning so‘zi – bolta.<br><br>Yaxshining so‘zi – qaymoq,<br>Yomoning so‘zi – to‘qmoq.<br>Yaxshining so‘z toshni eritar,<br>Yomoning so‘zi bshni chiritar.<br><br>Etigi yomon to‘r bulg‘ar,<br>Og‘zi yomon – el.<br><br>Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar,<br>Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar. |
| **SOMATIK (TANA A’ZO)** | | |
| Yaxshi so‘z – yurakka malham,<br>Yomon so‘z – yurakka g‘am.<br><br>Yaxshi so‘z – yurak yog‘i,<br>Yomon so‘z – yurakka dog‘i.<br><br>Yaxshi naql – tomiri aql.<br><br>Yaxshi gapning ham qulog‘i bor’<br>Yomon gapning – ham.<br><br>Yaxshi gapga quloq sol,<br>Yomon gapga uloq sol. | O‘ttiz tishdan chiqqan so‘z,<br>O‘ttiz uruqqa tarqalar.<br><br>O‘tarchining nashtari yeng ichida,<br>Zahar xotin nashtari til uchida.<br><br>O‘zi sovuqning – so‘zi sovuq.<br><br>O‘z aqling alqdir,<br>Elning alqi naqldir.<br><br>Yaxshini so‘ksang, suyagidan o‘tar,<br>Yomoni so‘ksang, terisidan o‘tar. | Yaxshining beli singuncha,<br>Yomonning ko‘zi ko‘r bo‘lsin.<br><br>Yaxshining qo‘li singuncha,<br>Yomonning beli sinsin.<br><br>Yaxshilik ko‘zga ko‘rinmas,<br>Yomonlik ko‘mib qo‘yilmas.<br><br>Yaxshilik – yuzda,<br>Yomonlik – ko‘zda.<br><br>Yaxshi oshini yer,<br>Yomon – boshini. |
| **Qozoq xalq maqollari.** | | |
| **NUTQIY VA IDROK** | **HAYVONLAR** | **TURLI XIL MAVZULAR** |
| Жақсының өзі өлгенмен<br>Сөзі өлмейді.<br>*(yaxshining o‘zi o‘lgani bilan so‘zi o‘lmaydi.)*<br><br>Жақсымын деп мақтанба,<br>Халық айтпай.<br>Батырмын деп мақтанба,<br>Жеңіп қайтпай.<br>*(yaxshiman deb maqtanma – xalqing aytmay turib,*<br>*Bahodirman deb maqtanma – g‘alaba qilmay turib.)* | Жақсы кісі қартайса да,<br>Ақылынан танбас.<br>Жақсы ат қартайса да,<br>Жүрісінен танбас.<br>*(yaxshi kishi qarisa ham aqildan ayrilmaydi,*<br>*Yaxshi ot qarsa ham yurishdan tolmaydi.)*<br><br>Жақсы қыз - Жағадағы құндыз,<br>Жақсы жігіт -Көктегі жұлдыз.<br>*(yaxshi qiz qirg‘oqdagi qimmatli qunduz,*<br>*yaxshi yigit osmondagi yulduz.)* | Жақсыға қылған жақсылық,<br>өміріңде тозбайды.<br>Жаманға қылған жақсылық,<br>бір күнгідей болмайды.<br>*(yaxshiga qilingan yaxshilik yo‘qolmaydi,*<br>*yomonga qilingan yaxshilik esa uzoqqa bormaydi.)*<br><br>Жаманға жақсылық етпе,<br>жақсылық етсең, қайтар деп күтпе.<br>*(yomonga yaxshilik qilsang ham qaytishini kutma.)* |

| | | |
|---|---|---|
| Жақсы жатырқамайды,<br>Аңқау аңдамайды,<br>Әңгүдік тыңдамайды.<br>*(yaxshi odam*<br>*begonalik qilmaydi,*<br>*sodda odam anglamaydi, beparvo odam eshitmaydi.)*<br><br>Ақ сұңқар, ұшқырмын деп мақтанба,<br>Алдыңда құрулы торлар бар.<br>Арғымақ, жүйрікпін деп мақтанба,<br>Алдыңда алуан орлар бар.<br>*(oq lochinman deb maqtanma – oldingda ko'p tuzoqlar bor,*<br>*Tezkor otman deb maqtanma oldingda chuqurlar bor.)*<br><br>Жақсы келді дегенше<br>Жарық келді десейші.<br>Жақсылықтың үлгісін<br>Алып келді десейші.<br>*(yaxshi odam keldi demay,*<br>*nur keldi degin,*<br>*yaxshilikning namunasin olib keldi degin)* | Ақ сұңқар, ұшқырмын деп мақтанба,<br>Алдыңда құрулы торлар бар.<br>Арғымақ, жүйрікпін деп мақтанба,<br>Алдыңда алуан орлар бар.<br>*(oq lochinman deb maqtanma – oldingda ko'p tuzoqlar bor,*<br>*Tezkor otman deb maqtanma oldingda chuqurlar bor.)*<br><br>Аға болар жігіттің<br>Етек-жеңі кең келер.<br>Арғымақ болар құлынның<br>Жал, құйрығы дөңгелер.<br>*(yaxshi inson bo'ladigan yigitning tabiati keng bo'ladi,*<br>*yaxshi ot bo'ladigan qulun yoshligidan bilinadi)*<br><br>Жігіт жақсысын<br>Сұлтан дейді.<br>Ит жақсысын<br>Сырттан дейді.<br>*(yaxshi yigitni sulton deyishadi,*<br>*yaxshi itni sirtlon)* | Жаманға жалынғанша,<br>жат та жаныңды қарман.<br>*(yomonga yalinishdan ko'ra o'zingni saqla.)*<br><br>Жақсының ашуы жібек орамал кепкенше,<br>жаманның ашуы басы көрге жеткенше.<br>*(yaxshi tez tinchiydi, yomon uzoq g'azabda qoladi.)*<br><br>Жақсы менен жаманның арасы жер мен күндей,<br>оқыған мен оқымағанның арасы күн мен түндей.<br>*(yaxshi va yomon orasidagi farq juda katta,*<br>*o'qigan bilan o'qimaganing orasi kun bilan oy.)*<br><br>Жаман сайдың суы тасыса, өткел бермес,<br>Жаман байыса, сусын бермес.<br>*(yomon joyning suvi toshsa o'tishga yo'l bermaydi, yomon boyisa suv ham bermaydi)* |
| **INSON OMILI ISHTIROKIGA KO'RA** | | |
| Жақсыда жаттық жоқ.<br>*(Yaxshida begonalik bo'lmaydi)*<br><br>Жақсының өзі өлгенмен<br>Сөзі өлмейді.<br>*(yaxshining o'zi o'lgani bilan so'zi o'lmaydi)*<br><br>Ақ сауыттың жағасы бар,<br>Жеңі жоқ,<br>Шын жақсының ашуы бар,<br>Кегі жоқ.<br>*(oq sovutning yoqasi bor-u yengi yo'q,*<br>*chin yaxshi odamning g'azabi boru Kek saqlashi yo'q)*<br><br>Күн ортақ,<br>Ай ортақ,<br>Жақсы ортақ.<br>*(quyosh ham umumiy,oy ham umumiy,*<br>*yaxsh inson ham hammaga tegishli)*<br><br>Жақсы кісі қартайса да,<br>Ақылынан танбас.<br>Жақсы ат қартайса да,<br>Жүрісінен танбас.<br>*(yaxshi kishi qarisa ham aqildan ayrilmaydi,*<br>*Yaxshi ot qarsa ham yurishdan tolmaydi)* | Жақсы туса ел ырысы,<br>Жауын жауса жер ырысы.<br>*(yaxshi inson tug'ilsa – elga baxt.*<br>*yomg'ir yog'sa- yerga baraka)*<br><br>Жақсы жатырқамайды,<br>Аңқау аңдамайды,<br>Әңгүдік тыңдамайды.<br>*(yaxshi odam begonalik qilmaydi,*<br>*sodda odam anglamaydi,*<br>*beparvo odam eshitmaydi)*<br><br>Жақсымен сөйлессең,<br>Көңілің ашылады.<br>Биік төбеге шықсаң<br>Көзің ашылады.<br>*(yaxshi odam bilan gaplashsang ko'ngling ochiladi, baland joyga chiqsang ko'zing ochiladi)*<br><br>Әкең жақсы кісі еді,<br>Жел жағыңа пана еді.<br>Анаң жақсы кісі еді,<br>Жетімдерге ана еді.<br>*(otang yaxshi odam edi*<br>*har tomonlama senga foyda edi, onang yaxshi edi, yetimlarga ona edi)*<br><br>Жігіт жақсысын<br>Сұлтан дейді.<br>Ит жақсысын<br>Сырттан дейді.<br>*(yaxshi yigitni sulton deyishadi,yaxshi itni sirtlon)* | Атадан өсиет,<br>Анадан қасиет.<br>*(otadan nasihat, onadan fazilat keladi)*<br><br>Жаны жақсы ағаның<br>Етегін баспа, жолын қу.<br>Болайын деген баланың<br>Бетін қақпа, белін бу.<br>*(yaxshi akani hurmat qil*<br>*yo'lidan bor,yaxshi bo'laman degan bolani to'xtatma*<br>*Qo'lab quvvatla)*<br><br>Қызың жақсы болса,<br>Өрісің кеңейеді.<br>Ұлың жақсы болса,<br>Қонысың кеңейеді.<br>*(qizing yaxshi bo'lsa obro'ying kengayadi,*<br>*o'g'ling yaxshi bo'lsayurting kengayadi)*<br><br>Аға болар жігіттің<br>Етек-жеңі кең келер.<br>Арғымақ болар құлынның<br>Жал, құйрығы дөңгелер.<br>*(yaxshi inson bo'ladigan yigitning tabiati keng bo'ladi,yaxshi ot bo'ladigan qulun yoshligidan bilinadi)*<br><br>Жақсылыққа жерік кісі –<br>Уәдесіне берік кісі. |

| | | |
|---|---|---|
| | | *(yaxshilikni yoqtiradigan odam va'dasiga sodiq bo'ladi)* |

**Xulosa.** Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan o'zbek va qozoq xalq maqollari ushbu ikki millatning nafaqat til tuzilishi, balki dunyoqarash jihatidan ham turkiy ildiziga borib taqalishini ko'rsatadi. Bu xalqlarning tarixiy, madaniy va diniy yaqinligi xalq og'zaki ijodida ekvivalentlik yoki farqlanishiga ta'sir o'tqazgan. Ayniqsa, "yaxshilik" tushunchasining tahlili shuni ko'rsatdiki, qozoq xalqi "yaxshilik" mavzusidagi maqollarni mardlik, jasurlik va keng dasht timsoli sifatida *ot* va *qurol* obrazi orqali ifodalasa, o'zbek xalqi bu tushunchani ko'proq mehnat, sabr-toqat va ahillik timsoli sifatida *yer, bog' va non* obrazlari bilan bog'laydi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki xalq maqollari g'oyaviy bir xil yoki har xil bo'lsa-da, ulardagi farqli belgilar har bir xalq dunyoqarashlari o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi. Ushbu qiyosiy tahlillar qardosh xalqimizning ma'naviy merosini hamda til boyligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Kuchkarova J. Maqollarni tipologik usullarda o'rganish va o'zbek, qozoq, rus tilidagi maqollarning tahlili.- Toshkent: Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023
2. Uralova O.O. O'zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o'rganilishi. – Toshkent, 2025.
3. O'zbek xalq maqollari.-Toshkent: "Sharq'' nashriyot-matbaa aksiyadorlik kampaniyasi Bosh tahririyati,2005.
4. С.Садырбайулы. Қазақ халқының мақалдары мен мәтелдері. -Алматы: Қазақ университети, 2020.
5. Қазақ мақал-мәтелдері.- Алматы: «Балауса баспасы» ЖШС,2013
6. https://www.zharar.com/kz/shygarma/

**UO'K 82-311.6:81'42**

## TARIXIY ROMANDA RAMZIY-MAJOZIY TALQIN QIRRALARI

***Z.U.Yuldashev, o'qituvchi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch***
***https://orcid.org/0009-0008-0339-2333***

***Annotatsiya.*** *Maqolada Nabi Jaloliddinning "Cho'lpon" romanida qo'llangan ramziy-majoziy tasvir vositalarining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda tarixiy voqelikning ramz va majoz orqali ifodalanishi, tarixiy shaxs ruhiyati, millat taqdiri hamda mustamlakachilik davri ijtimoiy-siyosiy muhitining badiiy talqini yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *Nabi Jaloliddin, "Cho'lpon" romani, tarixiy roman, ramz, majoz, poetik detal, tarixiy shaxs, milliy uyg'onish, jadidchilik, poetika.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются художественно-эстетические особенности символико-аллегорического изображения в романе Наби Джалолиддина «Чулпан». Исследуется художественная интерпретация исторической действительности посредством символов и метафор, раскрываются духовный мир исторической личности, судьба нации и общественно-политическая атмосфера колониального периода.*

***Ключевые слова:*** *Наби Джалолиддин, роман «Чулпан», исторический роман, символ, аллегория, поэтическая деталь, историческая личность, национальное возрождение, джадидизм, поэтика.*

***Abstract.*** *This article examines the artistic and aesthetic features of symbolic and allegorical imagery in Nabi Jaloliddin's novel Cho'lpon. It analyzes the representation of historical reality through symbols and figurative devices, highlighting the spiritual world of the historical protagonist, the fate of the nation, and the socio-political environment of the colonial period.*

***Key words:*** *Nabi Jaloliddin, Cho'lpon, historical novel, symbolism, allegory, poetic detail, historical figure, national awakening, Jadidism, poetics.*

So'nggi yillarda jahon adabiyotida kuzatilgan tendensiyalar o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topib, tarixiy mavzudagi badiiy asarlarga qiziqish sezilarli darajada ortdi. O'tmish voqeliklariga bugungi davr nuqtayi nazaridan yondashish, tarix qa'rida yashiringan bebaho ma'naviy va madaniy merosni sinchkovlik bilan aniqlab, uni teran tafakkur asosida badiiy talqin etish ijodkordan nafaqat keng bilim va yuksak iste'dod, balki mustahkam iroda ham talab etadi. Zero, tarix o'zining haqqoniy mohiyatini saqlab qolishi zarur. Uni shaxsiy qarash yoki mafkuraviy manfaatlar ta'sirida o'zgartirish, voqelikni ideallashtirish yoxud butunlay inkor etish tarixiy haqiqat tamoyillariga zid hisoblanadi.

Keyingi davrda yaratilgan tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiy voqelikni xolis va ishonchli tasvirlashga bo‘lgan intilish tobora kuchayib borayotgani kuzatiladi. Mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi badiiy asarlar yaratishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj yanada ortdi. Bu davrda adiblar tarixiy voqea-hodisalarni xolislik tamoyili asosida yoritish, tarixiy shaxslar obrazini real hayot manzaralari bilan uyg‘un holda ishonarli va badiiy jihatdan mukammal talqin etishga alohida e’tibor qaratdilar. Tarixiy asarning badiiy qimmati ham aynan tarixiy haqiqat bilan badiiy tasvirning o‘zaro mutanosibligida namoyon bo‘ladi.

Mustaqillik davri nasrida falsafiy-badiiy hamda ramziy-majoziy talqin usullarining qo‘llanish doirasi sezilarli darajada kengaydi, badiiy tasvir va ifoda vositalari yanada rang-barang tus olib, ijodkorlarga inson shaxsining ma’naviy-ruhiy olamini turli nuqtayi nazardan chuqur, ta’sirchan va ishonarli tarzda yoritish imkoniyati yaratildi. Shu tariqa nasriy asarlarda obrazlarning ichki kechinmalari va ruhiy dunyosini estetik jihatdan mukammal talqin etish uchun yangi badiiy imkoniyatlar vujudga keldi. Zero, adabiyotshunos A.Ulug‘ov yozganidek, “Adabiyotda, har qanday janrning mavqei, maqomi unda inson obrazining gavdalantirilishi bilan belgilanadi. O‘tgan davrda qissalarda inson haqida, uning murakkab ma’naviy-ruhiy olami, qalbidagi turfa xil o‘zgarishlar to‘g‘risida yangicha qarashlar o‘z ifodasini topdi va ular badiiy salmoqdor asarlar sifatida e’tibor qozondi”[14;51]. Mustaqillik davri o‘zbek tarixiy romanlari orasida Nabi Jaloliddinning “Cho‘lpon” romani tarixiy shaxs ruhiyati, davr fojeasi va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ramziy-majoziy tasvir vositalari orqali ifodalashi bilan alohida ajralib turadi. Asarda tarixiy voqealar oddiy xronologik ketma-ketlik asosida emas, balki poetik tafakkur mahsuli bo‘lgan ramziy obrazlar, tabiat manzaralari, metaforik tasvirlar va falsafiy detallarning yaxlit tizimi vositasida yoritiladi. “Ulkan tarixiy jarayonlarmi, xalqlar taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan hodisalarmi, ayrim ilmiy, madaniy, ma’rifiy tamoyillarmi, alohida bir qiziqarli ma’lumotmi, ularning aksarini muallif ko‘pincha qadimgi qo‘lyozmalardan, ilmiy tadqiqotlardan topadi va o‘z kuzatishlari, tahlil, xulosalari orqali bizga ma’lum qiladi” [3;233]. Darhaqiqat, tarixiy roman yozuvchidan nafaqat tarixiy faktlarni puxta o‘rganishni, balki ularni zamonaviy badiiy tafakkur mezonlari asosida qayta talqin etishni ham talab qiladi. Nabi Jaloliddin tarixiy voqelikni quruq bayon etish bilan cheklanmay, uning ichki falsafiy mazmunini ramziy-majoziy tasvirlar vositasida ochishga intiladi.

Ramz badiiy tafakkurning eng muhim poetik vositalaridan biri bo‘lib, unda obraz o‘zining bevosita ma’nosidan tashqari ko‘p qatlamli semantik mazmunni ham ifodalaydi. Majoziy talqinda esa voqelik to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ko‘chma ma’no, poetik detal, metafora, allegoriya va boshqa tasvir vositalari orqali ochiladi.

Romanda tarixiy shaxs taqdiri bilan millat qismati o‘zaro uyg‘un holda tasvirlanadi. Muallif Cho‘lpon hayotini Turkiston jadidchiligining murakkab tarixiy jarayonlari, milliy uyg‘onish harakati hamda xalqning ozodlik orzulari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. Asarda uchraydigan ko‘plab poetik detallar, tabiat manzaralari va ramziy obrazlar qahramon ruhiyatini yoritish bilan birga, butun bir davrning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ham ifodalaydi. Ayniqsa, roman kompozitsiyasida qo‘llangan ramziy tasvirlar tarixiy voqelikning badiiy umumlashmasini yuzaga keltiradi. Muallif tabiat hodisalari, makon tasviri, ranglar, nur va zulmat, yo‘l, tegirmon kabi poetik detallar orqali tarixiy haqiqatning ko‘zga ko‘rinmas ma’no qatlamlarini ochishga erishadi. Bunday ramzlar romanning g‘oyaviy-estetik yukini ko‘taruvchi muhim poetik unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Roman boshidayoq tegirmon tasviri ana shunday ramziy-falsafiy talqinning yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nabi Jaloliddin bu ramzga butkul yangicha, ijtimoiy-siyosiy tus beradi. Romanda tegirmon kundalik turmushning bir bo‘lagi, inson taqdiri va tarix harakatini ifodalovchi badiiy timsol sifatida talqin etiladi. Muallifning “Dunyo, hayot ham go‘yo tegirmon. Odamlar esa bug‘doy donalari” [10;3] degan falsafiy xulosasi asarning keyingi voqealarini anglash uchun muhim kalit vazifasini bajaradi. Bu orqali XX asr boshlaridagi murakkab tarixiy jarayonlar, mustamlaka siyosati, millat taqdiri va jadid ziyolilarining fojiali qismati ramziy tarzda ifodalanadi. Tegirmon ichidagi qizil rang, bug‘doy o‘rniga odam bosh chanog‘ini eslatuvchi donalar, qonga o‘xshash un va ko‘rinmaydigan tegirmonchi obrazlari ramziy ma’noda qo‘llanilgan. Yozuvchi shu yo‘l bilan tarixiy fojeani ochiq bayon etmaydi, balki kitobxonni ramziy tasvir vositasida o‘sha fojeaning ruhiy muhitiga olib kiradi. Bug‘doy donalarining odam taqdiriga qiyoslanishi, ularning tegirmon toshi ostida ezilishi

esa inson hayotining tarixiy jarayonlar qarshisidagi ojizligini ifodalaydi. Qizil tegirmonchining ko‘rinmasligi – tuzum repressiyasi ortida turgan shafqatsiz kuchlarning, tizimning shaxsiysizligini ifodalaydi. Jallod aniq bitta odam emas, butun bir jafokor imperiyadir.

Asarda Andijon manzarasini, xususan, jamiyatni tanazzulga olib kelgan ijtimoiy va ma'naviy muhitini quyidagicha tasvirlaydi: “Bu zamin, bu el boshiga yog‘ilgan turfa sho‘rishlar uni qashshoqlik, ma'rifatsizlik, adovat, tushkunlik botqog‘iga botirib, qalb-u shuurini ayanchli hislarga to‘ldirib tashlagandi. U bir zamonlar chor tarafga hukmronlik da'vosini qilgan, endi esa xastalanib, o‘lim oldi harsillashini boshidan kechirayotgan ulkan she'rga o‘xshardi”[10;20]. Muallif qashshoqlik, ma'rifatsizlik va adovatni oddiy ijtimoiy muammolar sifatida emas, balki millatning ichki quvvatini yemirayotgan tarixiy illatlar sifatida ko‘rsatib beradi. Andijonni “bir zamonlar chor tarafga hukmronlik da'vosini qilgan... ulkan she'r”ga qiyoslaydi. Sher bir vaqtlar dunyoni zir titratgan buyuk ajdodlarimiz, XX asr boshidagi butun Turkistonning sho‘rishlar (inqiloblar, qonli bostirishlar, mustamlaka zulmi) ostida ezilgan, o‘lim to‘shagida yotgan majruh, ammo baribir mag‘rur qiyofasidir.

Asarda mustamlakachilik siyosatining makkor mohiyati, imperiya boshqaruv tizimining puxta o‘ylangan strategiyasi hamda milliy fojianing eng og‘riqli jihatlaridan biri bo‘lgan xoinlik quyidagicha ochib beriladi: “O‘ris juda ustomon, tadbiri puxta. U ot aravada yurib, quyon tutadi. Mana, jallod boltasining sopiniyam o‘zimizdan chiqardi” [10;45]. Ushbu tasvirda yozuvchi manfaatparast, mansab ilinjidagi kishilarni ham ramziy yo‘l bilan ifodalaydi. Bu so‘zlar otasi Sulaymonqul bazzoz tilidan beriladi, jadidlar ilgari surgan milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan hamohang bo‘lib, xalqning ozodlikka erishishi, avvalo, o‘z safini ichki illatlardan tozalash zarurligi haqidagi fikrni badiiy-falsafiy mazmunda ifodalaydi.

Muallif jamiyat ruhiyatidagi evrilishlarni bevosita izohlashdan ko‘ra, tabiat manzaralari orqali badiiy talqin etishni afzal ko‘radi. Asarda bu holat quyidagicha ifodalanadi: “Abdulhamid bu evrilishni payqadi (ehtimol, his etdi). Agar shamol tursa, daraxt yaproqlari turfa o‘ynoqlaydilar: biri o‘ng, biri so‘l yoqqa. Kimdir shamol bir tomondan esgani bois barglar ham o‘sha yoqqa og‘adi, hilpiraydi, deb o‘ylaydi. Ammo shamol bu shamol, yaproq dumaloqqa moyil yengil bir narsa, ya'ni shamolning shashti unga har tarafdan uriladi, zero, uning tebranishdan o‘zga iloji yo‘q. Ayni paytda olomonning ko‘yi shunga monand edi” [10;51]. Tarixiy roman poetikasida bunday tasvirlar davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasi, omma ruhiyati hamda tarixiy burilishlarning mohiyatini ko‘chma ma'nolar vositasida ifodalashga xizmat qiladi. Muallif shamol va yaproq harakatini olomon va siyosiy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan qiyoslaydi. Bunda shamol siyosiy tuzum ramzi bo‘lsa, yaproq ana shu kuchlar ta'sirida mustaqil yo‘nalishini yo‘qotgan omma qiyofasini ifodalaydi.

Asarda Turkistonning mustamlaka davridagi fojeali qismati quyidagi ramziy-falsafiy mushohada orqali ifodalanadi: “Turkiston hukmdorlarning mayda-chuyda jiqqamushtliklaridan holdan toygan Toshkent zabun-u xor bo‘ldi. U qo‘ldan qo‘lga o‘tgan, kim nima istasa qilgan mazlum kabi xo‘rlangan, surati o‘ziga yarashmagan, umidsiz va qasos o‘tiga tobora yovuqlashayotgan shahar edi. Arg‘amchini uzun tashlagan o‘ris uning shuhratini yaxshi bilardi va shuning uchun ikki yuz yil oldin ovga kirishgandi. Ov!.. Hayot, bu dunyo faqat ovdan iboratday. Odam bolasi tirishib-tirmashib, mol-u davlat orttirishga, yemak yeyishga yoki goho bilib-bilmay, o‘zini anglash uchun kitob titkilashga ruju qo‘yadi. Bularning zamirida faqat va faqat ov, balki qon – qizil, yashil, ehtimol, yana o‘zga bir tusli qon turadi. Inson yashash, yanaki, yaxshi yashash ilinjida jonzotlarni, nabototni boqadi, semirtiradi, parvarishlaydi va ularni tamshanib-tamshanib, huzur bilan yeydi. Yeb-yeb, xuddi yeganlari kabi semirib, o‘zini kurt-kumursqalar uchun tayyorlaydi. Qurt-qumursqalar ham uni intiq bo‘lib kutadi. Bu ov bo‘lmay, nima? Inson, dunyo hayoti – ov...” [10;77]. Ko‘rinadiki, Turkiston ustidan hukmronlik o‘rnatish jarayoni oldindan puxta rejalashtirilgan, uzoq muddat davom etadigan ov jarayoni sifatida talqin etiladi. Rossiya imperiyasining Turkistonga nisbatan olib borgan siyosati yillar davomida puxta o‘ylangan geosiyosiy rejaning mahsuli ekanini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, roman poetikasida uchraydigan ramzlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, asarning badiiy qimatini yanada oshirgan. Tegirmon tarix va taqdirni, qizil rang zo‘ravonlikni, shamol tarixiy evrilishlarni, yaproq omma ruhiyatini, ov mustamlakachilik falsafasini, bolta sopi esa xoinlarni anglatadi. Umuman olganda, “Cho‘lpon” romanining poetik xususiyatlarini ramziy-majoziy talqin nuqtayi nazaridan o‘rganish Nabi Jaloliddin ijodining badiiy o‘ziga xosligini, tarixiy roman

poetikasidagi individual uslubini hamda mustaqillik davri o‘zbek nasrida tarixiy tafakkurning yangi badiiy ifoda tamoyillarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Аҳмедов Н. Тарихий шахс талқини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиѐт ва санъат, 1989. – Б. 126.
2. Абдусамадов Ҳ. Тарих ва Бадиий талқин. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиѐт ва санъат, 1995. – Б. 184.
3. Б.Назаров. Ижоднинг жон томири.-Тошкент. "Тафаккур томчилари". 2022. Б.233.
4. Даниярова Ш. Ижодкор ва услуб. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 130.
5. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 356.
6. Зайниддинова А. Бадиий асарда факт ва тўқима. –Тошкент: Ўзбекистон, 1980. –Б. 24.
7. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1982. – Б 316.
8. Исаев Ш.Б. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Филол. фан. номз... дисс-и – Тошкент: 2001. –Б 143.
9. Каримов Ҳ.Ў. Тарихий шахс ва бадиий образ. Филол.фан. номз. дисс-и. – Тошкент: 1999. –Б 137.
10. Наби Жалолиддин. Чўлпон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023 йил. - 256 б.
11. Носиров А.Н. Тарихий ҳақиқат ва унинг бадиий талқини. – Филол. фан. номз... дисс-и. –Тошкент: 1999. –Б 145.
12. Носиров А.Н. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. – Самарқанд: Филол. фан. докт. дисс-и. 2018. –Б. 244.
13. Тўйчиев А.Ҳ. Ўзбек насрида жадид образи талқини. Филол. фан. номз... дисс-и. – Тошкент: 2000. –Б 137.
14. Улуғов А. Қиссаларда қалб акси // "Шарқ юлдузи". 2011. 4-сон. Б.51.

**UO'K 808.3**

## YANGILANAYOTGAN O‘ZBEK ROMANI VA NASRI TARAQQIYOTIDA SURXON BO‘RIYEV IJODINING O‘RNI

***F.X.Yusupova, mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat pedagogika instituti, Samarqand***

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasrining iste'dodli vakillaridan biri Surxon Bo‘riyevning* ***"Tanholik tantanasi"*** *trilogiyasi badiiy-estetik va poetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda yozuvchining roman janrini yangilash yo‘lidagi izlanishlari, inson ruhiyati va ichki kechinmalarini badiiy talqin etish mahorati, zamon va makon uyg‘unligi hamda xarakter yaratish tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, trilogiyaning o‘zbek va jahon romanchiligi an'analari bilan uzviy aloqasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi, adibning zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rni hamda individual uslubining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi. Tadqiqot davomida trilogiyaning janriy-poetik tabiati, badiiy konsepsiyasi va zamonaviy o‘zbek romanining taraqqiyotidagi ahamiyati xususida muhim ilmiy xulosalar ilgari suriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *roman, trilogiya, zamonaviy o‘zbek nasri, poetika, badiiy konsepsiya, obraz, xarakter, zamon va makon, badiiy tafakkur, inson ruhiyati.*

***Аннотация.*** *В настоящей статье представлен художественно-эстетический и поэтический анализ трилогии «Торжество одиночества» одного из талантливых представителей современной узбекской прозы Сурхона Буриева. В произведении освещаются творческие поиски писателя в области обновления жанра романа, его мастерство художественной интерпретации человеческой психологии и внутренних переживаний, гармония времени и пространства, а также принципы создания характера. Кроме того, на научно-теоретической основе анализируется органичная связь трилогии с традициями узбекской и мировой романистики, художественное воплощение национальных и общечеловеческих ценностей, место писателя в современном литературном процессе и своеобразие его индивидуального стиля. В ходе исследования выдвигаются важные научные выводы о жанрово-поэтической природе трилогии, её художественной концепции и значении в развитии современного узбекского романа.*

***Ключевые слова:*** *роман, трилогия, современная узбекская проза, поэтика, художественная концепция, образ, характер, время и пространство, художественное мышление, человеческая психология.*

***Abstract.*** *This article provides an artistic, aesthetic, and poetic analysis of the trilogy "The Triumph of Solitude" by Surkhon Buriev, one of the talented representatives of modern Uzbek prose.*

*The study explores the author's efforts to innovate the novel genre, his mastery in the artistic interpretation of the human psyche and inner experiences, the harmony of time and space, and his principles of character creation. Furthermore, it analyzes, on a scholarly and theoretical basis, the trilogy's intrinsic connection to the traditions of Uzbek and world literature, its artistic expression of national and universal human values, the author's position in the contemporary literary landscape, and the distinct features of his individual style. The research puts forward significant scholarly conclusions regarding the trilogy's genre-poetic nature, its artistic concept, and its importance in the development of the modern Uzbek novel.*

***Key words:*** *novel, trilogy, modern Uzbek prose, poetics, artistic concept, image, character, time and space, artistic thought, human psyche.*

Har qanday adabiy shakllar an'analar vorisiyligini namoyon etishda muhim rol o'ynaydi. Bu shuni anglatadiki, nasrning katta qismi (epik zamon) nuqtayi nazaridan roman trilogiya, trilogiya falsafasini belgilaydi. Sir emaski, insoniyat badiiy tafakkurga katta e'tibor berishga moyil bo'lib, janrning asrlar davomida ichki va tashqi transformatsiyasi, rivojlanishi va takomillashuviga jiddiy e'tibor qaratgan. Aristotel davridan boshlab epik maydon romanda ko'plab masalalarning oydinlashuviga, hayotning rang-baranglashuviga olib keldi. Trilogiya ana shu an'analarning mantiqiy davomi sifatida insoniyat jamiyati hayotini ham o'z ichiga olishga zamin hozirladi. Ayni paytda zamonaviy olimlar bu evolyutsiyaga o'ziga xos baho berib, mutanosiblik ruhini aks ettirishga yondashmoqdalar. Bugun Amerika Qo'shma Shtatlarida yashab, o'z taqdiri bilan yashayotgan qahramonlarni yaratgan iste'dodli yozuvchi va tilshunos, adabiyotshunos Surxon Bo'riyevning "Tanholik tantanasi" trilogiyasi ham ana shu bo'shliqni to'ldirishga qo'shilgan hissadir. Qariyb ming sahifadan iborat bu trilogiya uchlik falsafasini umumlashtirishga qaratilganligi bilan maqtovga loyiqdir.

Adabiy tanqidchilikda yaxshi tanilgan adib bundan o'n besh yil muqaddam chop etilgan ilk kitobi "Qalb siri"da bir-birini takrorlamaydigan, talabalik yillarini, yoshlik va bolalikni yodga soladigan o'nlab an'anaviy hikoyalar, "Yig'layotgan kim?" romani bilan yetarlicha tanish edi. Sir emaski, bu asarlardagi uslubning ravonligi, oddiy qishloq va zamondoshlar obrazi, muhabbat va ayriliq alamini tortgan ayol obrazi kitobxon e'tiborini tortadi. Shuning uchun oradan shuncha vaqt o'tganiga qaramay, 2019-yilda ona zaminimizda katta epik mazmunga ega bo'lgan "Tanholik tantanasi" asarini chop ettirdi va uni kitobxonlarga, adabiyot ahliga taqdim etishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu asarning uslubiy va shakliy mukammalligi avvalgi asarlardan puxtaligi, mustahkamligi, tasvir me'yorlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Savolning mag'zini chaqishdan oldin roman nima? Savolga javob topish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, yozuvchi har qanday janr o'zidan oldingi davr mahsulotlarini takrorlamasligi, iloji boricha yangilikni saqlab qolishiga e'tibor qaratadi. O'zbek adabiyotida ilk roman va roman tafakkuri chegaralari an'ana va noan'ana chegarasini kesib o'tdi, qaysi iqtibosni olmaylik. U ingliz, Amerika, fransuz va ko'pgina Yevropa tillarida yozilgan ajoyib romanlar bilan bellasha oladigan darajaga ko'tariladi. Mini-romandan roman tetralogiyadan pentologiyagacha bo'lgan ulkan yo'lni bosib o'tdi. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi yoki Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi, Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla"si, Tohir Malikning "Shaytanat" pentalogiyasi kabi asarlar bilan bir qatorda, Surxon Bo'riyevning "Tanholik tantanasi" trilogiyasi ham o'ziga xos holatda paydo bo'lganini e'tirof etishimiz mumkin:

Jasur mehribonlik bilan akasini quchoqlamoqchi edi, Jabbor uni nari itarib, yana ovozini baralla qo'ydi: – Axir, meni kasal deb senga kim aytdi?! – so'ng o'z-o'zidan jirkanib, battar g'azablana boshladi. – Yo'q, bularning hammasining tili bir. Menga qarshi kelishib olgan. Otam mendan foydalanmoqchi edi, men uni tushunaman. Lekin men o'zgarganim yo'q. Jabbor edim, hayotning har qanday oqimi qarshisida ham shundayligimcha qolaverdim. Hatto majburlab Anton qilmoqchi bo'lganida ham, asl o'zligimni unutmadim. Doimo kimligimni yodda tutdim va shuning uchun ham gazandaning ishini joyida hal qilib, loyihasini barbod qildim. Ehtimol, bu orqali qanchadan-qancha qirg'inbarotlarning oldini olgan bo'lsam kerak...."[1, 650].

Jabborning boshidan kechirgan voqeligi ukasi Jasur va atrofidagi dushmanlari, g‘animlaridan yetkazilgan ozorlarning ochiq-oydin mono-dialogik nutq aspektida gavdalanadi. Roman tabiatida davrning dardlari, millatning fojiasi, muhabbatning oliy qudrati, insonlarning muammolari keng ko‘lamda qo‘llanilishini unutmaslik lozim. Chunki davrda inson, inson davrning farzandi sifatida bir-birini to‘ldiruvchi modifikatsiyasini belgilaydi. Surxon Bo‘riyev ham o‘zbek adabiyotida ana shu maqsadlar yo‘lida baxt va omadga intilgan, qalb sirlarini pinhon saqlagan, topilma va yo‘qotishlarni boshidan kechirgan adib sifatida yo‘l tutadi. Romanning ekspozitsiyasidan to epilogigacha bosib o‘tilgan uchlik falsafasi aynan shu dramatizmni namoyon etadi.

O‘zbek romani ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan adabiy hodisa emas. Uning ilk ildizi folklor mutolaa qiluvchi xalq hayotiga ko‘zgudagidek munosabatda bo‘lishni asr boshida Abdulla Qodiriy boshlab bergan an’analarning mahsuli, original desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir janr rivojlanib borar ekan, mumtoz adabiyotimizda g‘azal, ruboiy yoki boshqa janrlar arab, fors-tojik adabiyotidan kirib kelishi, epik turning eng katta janri roman esa arab, turk, fransuz va rus romannavislari ta’sirida rivojlanganligi adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan [2, 364]. Professor Sobir Mirvaliyevning ta’kidlashicha: “Antik adabiyotda ham roman mavjudligi haqida ba’zi mulohazalar mavjud ekan, nega roman janri XII-XIII asrlardan paydo bo‘la boshladi, degan savolning tug‘ilishi ham tabiiydir. Antik adabiyotdagi romanlar, yunon va rim romanlarining paydo bo‘lishi ularni yaratgan jamiyat tanazzulga yuz tutgan davrga to‘g‘ri keladi, ya’ni antik romanlar tug‘ilgan-u, ammo yashashga qodir bo‘lmagan”[3, 12]. Ko‘rinib turibdiki, olim antik romanlarning yashab qolish taqdiri haqida haqli mulohazalarni bayon etgan, jumladan, “Iliada” va “Odessiya” dostonlari kabi shuhrat qozona olmagan. Chunki ularda jamiyatning ma’lum bir tor doiradagi maishiy masalalari ifodalanib, qahramonlarning ruhiy-ijtimoiy hayoti chuqur yoritilmagan deb hisoblaydi. Yana bir jihati, ingliz adabiyotida “roman”, ya’ni roman-novella Angilya va Fransiyada jamiyat ehtiyojining bir qismiga aylangandan so‘ng rivojlana boshlagan.

Ushbu nazariy-ilmiy mulohazalarning qaysi biri asosli ekanligi adabiyotshunoslar tomonidan bahs-munozaralar bilan hal etib kelinmoqda. Rus tanqidchi olimi, prof.Liliya Timofeeva: “G‘arbiy Yevropa adabiyotida roman atamasi romanik (romanik) so‘zi – sifatlovchi – aniqlovchi ma’nosida qo‘llanilgan. Keyinchalik qaysi tilda chop etilganiga qarab, janrning nomiga aylanib, roman deb yuritila boshlangan”[4, 448] deydi. Shuningdek, romanga bag‘ishlangan ilk maxsus tadqiqotlardan biri “Romanning paydo bo‘lishi haqida risola” (1666) Pyer-Daniel Yue qalamiga mansubdir. Bu olim roman janrining ilk rivojlanishini Italiya bilan bog‘lash noto‘g‘ri ekanligini, uni antik yunon va boshqa xalqlar adabiyoti (epos) dan izlash kerakligini uqtiradi.

Surxon Bo‘riyev roman trilogiyasida quyidagi masalaga nozik nazar bilan qaraydi: Jabborning ko‘ngli bu hayotdan sovib, hafsalasi butunlay pir bo‘lgan edi. Inson bu dunyoga kelib, barcha jonzotlar kabi o‘zidan zurriyot, nasl qoldirib yashashni istaydi. Tug‘ilasiz... ulg‘ayasiz... ko‘payasiz va so‘ngra yana o‘lasiz! Xuddi bir-biriga tutash cho‘yan halqalarni eslatuvchi ushbu zanjir asosida hayot davom etadi. Buni esa hech kim uzib tashlashga qodir emas. Bu qonun o‘zgarmasdir! Hayot o‘z jilovida davom etadi. Sen bo‘lmasang ham, xuddi senga o‘xshagan qiyofalar, senga o‘xshab fikrlaydigan, senga o‘xshab gapiradigan, kuladigan va yig‘laydigan odamlar bu hayotni davom ettiraveradi. Qolgan ishlar-ku o‘tib ketaversin... go‘yoki bu dunyoga ayol zoti faqat tug‘ish, erkak esa naslni ozgina yangilab qo‘yish uchun kelayotgandek. Ayollarga umuman farqi yo‘q: qizi, o‘g‘li – qay birini tug‘sa ham o‘z vazifasini bajaradi. Insoniyat oldidagi burchini sharaf bilan ado etgan hisoblanadi. Ammo gap erkakka kelganda... Ha, uning zimmasidagi yuk ancha og‘ir. Garchi o‘ziga bog‘liq bo‘lmasa-da, bundan boshqa choraning o‘zi mantiqsiz. U avlod qoldirishi, haqiqiy hayot davomchilarini yaratishi kerak. Ibtidoiy ibtido kabi tavakkaliga tayanib, bittasiga o‘g‘illik bo‘lsa-ku, xo‘p-xo‘p, lekin dunyoga keltirayotganlari ketma-ket tug‘uvchi bo‘lib yaratilsa-chi? O, har qanday erkakning sochi so‘lib, ruhi sinib qolishi turgan gap. “O‘g‘ling bo‘lsa yetti avlod, bo‘lmasa bir avlod almashguncha zo‘rg‘a yashaysan-u, keyin bu dunyodan o‘zingga qo‘shilib noming ham o‘chib ketadi...”[1, 7].

Keltirilgan lavhada asar qahramoni Jabborning ruhiy-ijtimoiy holatini his qilish qiyin emas. Chunki Jabbor roman-trilogiyada bosh qahramon bo‘lib, butun voqelik uning atrofida aylanadi. Roman tili va uslubi jihatidan Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanini eslatadi. Chunki

romanda aynan shunga yaqin qismni boshidan kechirgan Javobborning hayqiriqlari bo‘rtib ko‘rinadi. Shuni unutmaslik kerakki, yoshlik, talabalik davrlari, ota-onasi bilan birga o‘tkazgan shirin damlar retrospektiv tarzda amalga oshirilgan. Shunday ekan, hozirgi o‘zbek nasrida Surxon Bo‘riyev o‘z tengdoshlari va ustozlari qatorida alohida o‘rganishga loyiqdir. Zamonaviy yozuvchi zamon og‘riqlari, makon va davr his-tuyg‘ulari zamirida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, yosh iste'dodning siz va biz haqimizda aytadigan gapi katta vaqt modifikatsiyasida alohida uslub tolalarini belgilab beradi.

**Xulosa** qilib aytganda, “o‘tish davri” romanlarida falsafiy va tasavvufiy qarashlarning rang-barangligi inson obrazini badiiy talqin etishda yozuvchining estetik dunyoqarashi hamda ijodiy pozitsiyasini yaqqol namoyon etadi. Har bir ijodkor voqelikni o‘ziga xos badiiy konsepsiya asosida talqin qilar ekan, detal va ramzlarga chuqur ma'no yuklaydi, ularning tarixiy, madaniy hamda ma'naviy ildizlarini ochishga intiladi.

